TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SHARQ SIVILIZATSIYASI
VA FALSAFA FAKULTETI

SHARQ MAMLAKATLARINING BARQAROR RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI: TARIXI, ANTROPOLOGIYASI VA FALSAFASI

MAVZUSIDAGI IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

2025-yil 10-aprel



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SHARQ SIVILIZATSIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

“SHARQ MAMLAKATLARINING BARQAROR RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI: TARIXI, ANTROPOLOGIYASI VA FALSAFASI”

mavzusidagi iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani materiallari

(2025-yil 10-aprel)

TOSHKENT– 2025

Sharq mamlakatlarining barqaror rivojlanish xususiyatlari: tarixi, antropologiyasi va falsafasi [Matn] / Mas'ul muharrir: M.M.Askarov. Toshkent: TDSHU kichik bosmaxonasi, 2025. 270 b.

Mazkur to‘plamda “Sharq mamlakatlarining barqaror rivojlanish xususiyatlari: tarixi, antropologiyasi va falsafasi” mavzusidagi iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani materiallari jamlangan. Unda Sharq mamlakatlarining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilmalarining shakllanishi, antropologik xususiyatlari, diniy va ma’naviy qadriyatlari, shuningdek, qadimiy falsafiy maktablarning hozirgi barqaror rivojlanish konsepsiyalariga ta’siri haqida turli mavzularda maqolalar o‘rin olgan. Materiallar orasida Sharq jamiyatlarida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda urf-odatlar, madaniy meros va diniy-falsafiy tafakkurning o‘rni; tarixiy tajriba va zamonaviy boshqaruv modellarining uyg‘unligi; antropologik tadqiqotlar orqali Sharq xalqlarining ijtimoiy ongidagi uzviylik va barqarorlik g‘oyalari tahlili; madaniyatlararo muloqot, bag‘rikenglik va tinchlikparvarlik tamoyillari asosida shakllangan ijtimoiy tizimlar haqida chuqur ilmiy izlanishlar bayon etilgan. Maqolalar mualliflari iqtidorli bakalavr va magistr talabalar hisoblanadi.

Mas’ul muharrir: t.f.f.d. (PhD), dotsent M.M.Askarov

Kitobni nashrga tayyorlaganlar: B.I. Zokirov, Sh.M.Yodgorov.

Konferensiya materiallari Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etildi va nashrga tavsiya qilindi. 23.04.2025. yil, 9-sonli bayonnoma.

© Sharq mamlakatlarining barqaror rivojlanish xususiyatlari: tarixi, antropologiyasi va falsafasi
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti, 2025 y.

KIRISH

Bugungi globallashuv va murakkab geosiyosiy sharoitda Sharq mamlakatlarining o‘ziga xos rivojlanish yo‘llarini tahlil qilish, ularning barqaror taraqqiyotiga asos bo‘lgan tarixiy, antropologik va falsafiy omillarni chuqur o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyat taraqqiyotida beqiyos iz qoldirgan Sharq sivilizatsiyasi - qadimiy ilm-fan, ma’naviyat va davlat boshqaruvi tamoyillarini yaratgan, o‘z madaniy tafakkuri bilan jahon sivilizatsiyalarini boyitgan noyob hududdir. Bugungi kunda esa mazkur tarixiy meros zamonaviy barqarorlik modelini shakllantirishda ham muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2025-yil 10-aprel kuni “Sharq mamlakatlarining barqaror rivojlanish xususiyatlari: tarixi, antropologiyasi va falsafasi” mavzusidagi iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi. Ushbu anjumanda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Sharq sivilizatsiyasi va falsafa”, “Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti”, “Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti” shuningdek, Chirchiq davlat pedagogika institutining “Tarix” fakulteti iqtidorli talabalari o‘z ma’ruzalari ishtirok etishdi.

Anjumanning asosiy maqsadi – iqtidorli yosh tadqiqotchilarni Sharq mamlakatlarining tarixiy-falsafiy va antropologik boyliklarini tahlil qilishga yo‘naltirish, zamonaviy barqarorlik nazariyalari bilan mushtarak jihatlarni aniqlash, madaniyatlararo muloqot va ilmiy integratsiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu orqali talabalarning nazariy bilimlarini amaliy izlanishlar bilan uyg‘unlashtirish, ularda ilmiy tahlil madaniyatini shakllantirish va ilmiy jamoatchilik e’tiboriga loyiq fikrlarni ilgari surish ko‘zda tutilgan.

Anjumanga taqdim etilgan ilmiy maqolalarda Sharqdagi davlat tuzilmalarining tarixiy barqarorligi, etnik va diniy bag‘rikenglik an’analari, qadimiy falsafiy qarashlarning zamonaviy talqinlari, antropologik izlanishlar natijasida ochilgan ijtimoiy taraqqiyot saboqlari kabi masalalar chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, talabalarning O‘zbekiston, Eron, Hindiston, Xitoy va Arab dunyosiga oid tarixiy manbalarni tahlil qilishga asoslangan ilmiy izlanishlari anjuman mavzusini ilmiy jihatdan yanada boyitdi.

Ushbu ilmiy platforma iqtidorli yoshlar uchun o‘z ilmiy salohiyatini namoyon etish, tajriba almashish, bahs-munozaralar orqali yangicha yondashuvlarni shakllantirish imkonini berdi. Shuningdek, mazkur to‘plamda e’lon qilinayotgan maqolalar kelgusida talabalarning mustaqil tadqiqot

faoliyatini rivojlantirishda, ularni magistratura va doktorantura bosqichlariga tayyorlashda muhim metodik vosita sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Konferensiya kelgusida mavzu doirasini kengaytirgan holda muntazam ilmiy an’ana sifatida davom etadi degan umiddamiz. Bu esa nafaqat iqtidorli yoshlarning ilmiy faoliyatini rag‘batlantiradi, balki mamlakatimizda sharqshunoslik, tarix, manbashunoslik, antropologiya va falsafa sohalarining barqaror rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

M.M.Askarov

I SHO‘BA
SHARQ MAMLAKATLARIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI: SIFATLI TA’LIM, SOG‘LIQ VA FAROVONLIK, BARQAROR QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

“O‘ZBEKISTONDA TA’LIM VA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMLARIDA GENDER MUNOSABATLARI: ANTROPOLOGIK TAHLIL”

Toshtemirova Shohsanam
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Etnografiya, etnologiya va antropologiya” mutaxassisligi
1-kurs magistranti
Email manzil: toshtemirovashohsanam606@gamil.com
Ilmiy rahbar: t.f.f.d. (PhD) Askarov M.M.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarida gender munosabatlarining shakllanishi, rivojlanishi va ularning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi ahamiyati antropologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ayollar va erkaklar uchun mavjud imkoniyatlar, ularning sog‘liqni saqlash tizimidan foydalanishdagi tengsizligi, ta’lim olishdagi gender tafovutlari, shuningdek, sog‘liq va ta’limga oid madaniy tushunchalarning jamiyatdagi roli ko‘rib chiqiladi. Rasmiy statistik ma’lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda antropologik nazariyalar asosida gender tenglikka erishish yo‘lidagi dolzarb muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *gender munosabatlari, antropologik tahlil, sog‘liqni saqlash, ta’lim tizimi, O‘zbekiston, madaniy tafovut, ijtimoiy tengsizlik, ayollar huquqlari, sog‘liq madaniyati, gender tengligi*

Oksford lug‘atiga ko‘ra, gender — bu ikki jinsdan biri (erkak yoki ayol) degani, ayniqsa biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy tafovutlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilganda. Bu atama shuningdek, an’anaviy erkak va ayol tushunchalariga mos kelmaydigan turli xil identifikatsiyalarni ifodalash uchun ham kengroq ma’noda ishlatiladi. Gender — bu ijtimoiy atama bo‘lib, u erkaklar va ayollar uchun ishlatiladi. Biroq tengsizlik va kamsitish tufayli, bu atama ko‘proq ayollar va ayollarga nisbatan kamsitish haqida ishlatiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi 4-prinsipida ayollar tengligi, ayollarni huquqlari va ularning barcha zo‘ravonlik turlaridan xalos

bo‘lishlari muhimligi qayd etilgan. Bundan tashqari, bu prinsip ayollarning o‘z reproduktiv salohiyatlarini boshqarish huquqiga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi, chunki bu ayollar va aholi rivojlanishining asosiy omilidir[1]. Ushbu prinsip ayollarning fuqarolik, madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotda — ham jamiyat, ham milliy, ham xalqaro darajada — teng qatnashishini qo‘llab-quvvatlaydi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan 3-raqami “Yaxshi sog‘liq va farovonlik” haqida, 5-raqami esa “Gender tengligi” haqida so‘z yuritadi.

2024-yilda O‘zbekiston Gender Tenglik va Boshqaruv Indeksida (GEGI) sezilarli yutuqlarga erishib, 2022-yildagi 103-o‘rindan 52-o‘ringa ko‘tarildi. Ushbu indeks gender tengligi bo‘yicha 158 mamlakatni baholaydi va ayollar ishtirokini turli sohalarda o‘lchaydi[2]. Bundan tashqari, 2024-yil fevral holatiga ko‘ra, parlamentdagi o‘rinlarning 34.6% ayollar tomonidan egallangan[3].

Ba’zi olimlar fikriga ko‘ra, ayollar uch xil rolni bajaradi: Ishlab chiqaruvchi rol, repraduktiv rol, ijtimoiy ishlab chiqaruvchi rol. Haqiqat shuki, ayollarning faqat 1/4 qismi ishlaydi, biroq ular har qanday sohada va joyda ishlarning 2/3 qismini bajaradi. Shuncha rol va mas’uliyatni bajarayotgan bo‘lishiga qaramay, ayollar hanuz ko‘plab sohalarda e’tibordan chetda qolmoqda[4].

Jamiyatda gender tengsizligining paydo bo‘lishiga bir nechta sabablar bor. Avvalo, ayollar ko‘pincha oilaviy va qarindoshlarning bosimi ostida qolishadi. Qo‘shma oilalarda yashash, bolalar yoki qariyalarga qarash majburiyati, ayollarning mustaqil qaror qabul qila olmasligi va erta turmushga chiqish holatlari ularning erkin rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Ko‘plab patriarxal (ya’ni erkaklar hukmron bo‘lgan) jamiyatlarda avval erkaklarning o‘qishi va rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi. Ayollar esa uydagi va ishdagi vazifalarni bir vaqtda bajarishga majbur bo‘lishadi. Bu esa ularni jismonan va ruhiy jihatdan charchatadi, psixologik bosim ostida yashashlariga olib keladi. Bu esa ularning teng huquqli ishtirokiga to‘sqinlik qiladi.

Rasmiy hujjatlar va qonuniy kafolatlar (masalan, O‘zbekiston Konstitutsiyasining 41-moddasi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun) o‘g‘il va qiz bolalar uchun ta’lim olishda teng imkoniyatlarni kafolatlaydi. Bu antropologik jihatdan jamiyatda genderga asoslangan rasmiy diskriminatsiya yo‘qligini ko‘rsatadi.

---

[1] Betata HC (2007) what is missing in measures of women's empowerment. Journal of Human Development 2: 221- 241.

[2] https://daryo.uz/en/2024/12/15/uzbekistan-jumps-from-103rd-to-52nd-in-2024-gender-equality-and-governance-index?utm_source

[3] https://data.unwomen.org/country/uzbekistan?utm_source

[4] https://ijariie.com/AdminUploadPdf/Social_and_household_Women_Empowerment_Index_in_India_ijariie6003.pdf?srsltid=AfmBOoqDzHV72fLaK1WiE9z2eQIflVKPv0SQ-CauYntT2Ax_1XjKtzHi

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi o‘rganish sifati deyarli teng (qizlar – 474 ball, o‘g‘il bolalar – 475 ball)[5]. Bu tenglik zamonaviy gender siyosatlarining samarasi sifatida ko‘rinsa-da, antropologik nuqtai nazardan bu yutuq qizlarning mustaqil faoliyat olib borishi yoki jamiyatdagi erkaklar bilan teng ijtimoiy rol egallashiga kafolat bermaydi.

Masalan, qizlar ta’lim olganidan keyin ular ko‘proq pedagogika, tibbiyot yoki gumanitar sohalarga yo‘naltiriladi, bu esa genderga asoslangan kasbiy ixtisoslashuvni davom ettiradi. Antropologiyada bu holat “genderli ijtimoiylashuv” deb nomlanadi – ya’ni ijtimoiy tizim bolalarni yoshligidan ma’lum gender rollariga yo‘naltiradi.

O‘zbek jamiyatida madaniy jihatdan ta’lim muhim qadriyat hisoblanadi, ayniqsa, qizlarga “odobi va madaniyati bor” deb baho berish ta’lim orqali belgilanadi. Bu madaniy kapital (Pierre Bourdieu) sifatida qizlarning ijtimoiy maqomida rol o‘ynaydi. Ammo bu ta’lim ko‘proq nikohga tayyorgarlik, xonadonni yuritish va onalik vazifalariga mos yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin, bu esa ayollar salohiyatining jamiyatda to‘liq ochilishiga to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekistondagi o‘tish davri iqtisodiyoti, shu jumladan ta’lim tizimining rivojlanishi, inson kapitali ning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq. Antropologik nuqtai nazardan, inson kapitali — bu faqat bilim va ko‘nikmalar emas, balki madaniy va ijtimoiy resurslarning to‘plamidir. Inson kapitali faqat bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan emas, balki jamiyatning kelajakdagi ijtimoiy strukturalari va qadriyatlariga asoslanadi. O‘zbekistonda ta’limga ustuvor ahamiyat berish, ayniqsa, mehnat bozoridagi raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarurdir, chunki xalqaro miqyosda raqobatbardosh kuchlarni yaratish uchun o‘qitishning sifatini oshirishga e’tibor qaratilmoqda. Ammo, bu o‘zgarishlar faqat texnik va iqtisodiy taraqqiyot emas, balki madaniy transformatsiyani ham talab qiladi. Bunda madaniyatning ijtimoiy va gender normalari, ta’lim sohasida adolat va tenglikka erishish jarayonlari o‘zgarishni talab qiladi.

O‘zbekistonda ta’limdagi jinsiy tenglik masalasi ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. 2017-yildagi islohotlar, ayniqsa, maktabgacha va oliy ta’limga ustuvorlik berilmaganligi sababli jinsiy tenglikka oid kamchiliklar yuzaga kelgan. Bu holat, antropologik jihatdan, gender rollarining tasavvurlarini ko‘rsatadi. Keng qamrovli ta’lim tizimi, ayniqsa, qizlarning ta’lim olishini rag‘batlantirishda ijtimoiy qarorlar va qadriyatlar tizimi orqali hal qilinishi lozim. O‘zbek jamiyatida ko‘plab hududlarda qizlar uchun ta’lim olish imkoniyatlari hali ham cheklangan, bu

[5] https://www.oecd.org/pisa/publications/PISA2022-statistical-tables.xlsx

holat ta’limga nisbatan gender diskriminatsiyasining mavjudligini ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’limning ahamiyati esa, ayniqsa, onalarning mehnat bozorida faol ishtirokini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy jinsiy tenglikka olib kelishi mumkin, chunki ona va bola o‘rtasidagi madaniy va ijtimoiy bog‘lanishlar ta’lim orqali shakllanadi.

O‘zbekistonda ta’limga bo‘lgan e’tibor iqtisodiy sharoitlarga bog‘liq. Maktabgacha va oliy ta’limga yetarlicha moliyaviy sarmoya yo‘qligi va jamiyatdagi ijtimoiy bo‘linishlar, ta’lim tizimidagi disbalanslarni yaratadi. Bu holat, ijtimoiy elita va kam ta’minlangan guruhlar o‘rtasidagi tafovutlarni kuchaytiradi. Antropologik jihatdan, bu holat sinfiy farqlarni kuchaytiradi, chunki yuqori sinf vakillari o‘z farzandlariga sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratishlari mumkin, lekin kam ta’minlangan oilalar uchun bu imkoniyatlar cheklangan bo‘ladi. O‘zbekistonda ta’lim tizimiga bo‘lgan e’tibor hali ham ijtimoylashgan resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan, ammo ushbu resurslar har tomonlama taqsimlanmagan va ixtisoslashgan sarmoyalar amalga oshirilmayapti.

O‘zbekistonda oliy ta’limga kirishdagi gender farqlari so‘nggi yillarda sezilarli darajada qisqargan. 1999-yilda har 100 erkakga 82 ayol oliy ta’lim muassasalariga kirgan bo‘lsa, 2021-yilda bu raqam 100 erkakka 84 ayolni tashkil etdi[6]. Bu o‘zgarishlar gender tengligi va ayollar huquqlarining kengayishi haqida muhim ma’lumot beradi. Antropologik nuqtai nazardan, bu o‘zgarishlar jamiyatning madaniy va gender rollaridagi yangilanishni ifodalaydi. Avvalgi yillarda oliy ta’limda erkaklarning ko‘pligi, asosan, ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalarda mavjud bo‘lgan patriarxal qarashlarni aks ettirgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda bu tendensiya yengilgan. Ayollarning oliy ta’limga kirish darajasining oshishi, gender rollarini qayta shakllantirish va ayollarning jamiyatdagi rolini mustahkamlashga olib keladi.

Oliy ta’limning kengayishi, ayniqsa ayollar uchun, iqtisodiy va ijtimoiy o‘sishga olib keladi. Ilmiy darajaga ega bo‘lganlar uchun ish haqi va bandlik stavkalari o‘rta yoki kasbiy malakaga ega bo‘lganlarga qaraganda ancha yuqori. Oliy ta’limga qabul qilishning kengayishi, inson kapitalining o‘sishiga va jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ayollarning oliy ta’limga kirish imkoniyatlarining oshishi, ular uchun mehnat bozorida yaxshiroq imkoniyatlar yaratadi. Antropologik tahlilga ko‘ra, bu o‘zgarishlar, bir tomondan, jamiyatdagi iqtisodiy tenglikni oshiradi, ikkinchi tomondan, ayollarni iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi.

2022-yilda doktorantura kvotalarining katta qismi (59,3%) STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, gumanitar fanlar va matematika) sohasiga ajratilgan. Bu ayollar uchun ilgari kamroq mavjud bo‘lgan sohalarga kirish

[6] https://www.toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/16349-nashr-1882?utm_source

imkoniyatlarini yaratadi. STEAM sohasidagi ayollarning sonining ortishi, jamiyatdagi ilm-fan va texnologiya sohalarida gender tengligini oshiradi. Antropologik nuqtai nazardan, bu, faqat oliy ta’limda emas, balki ilm-fan va texnologiyada ham gender tengligini ta’minlash uchun muhim bir qadamdir. Ayollar uchun ushbu sohalarga kirish imkoniyatlari, ularning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Antropologiya nuqtai nazaridan, jamiyatdagi o‘zgarishlar, madaniy me’yorlarning o‘zgarishi va gender rollarini qayta ko‘rib chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin. Agar qizlar va o‘g‘il bolalar uchun muvozanatli va ilhomlantiruvchi rol namunalari mavjud bo‘lsa, bu nafaqat ularning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki gender tengligining oshishiga ham hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimidagi mavjud gender nomutanosibliklar, madaniy an’analar va ijtimoiy stereotiplar bilan chambarchas bog‘liq. Erkaklar sog‘ligiga e’tibor kamligi, ularning “erkaklik” haqidagi an’anaviy tushunchalariga asoslanadi: ya’ni og‘riqqa chidash, muammolarni yashirish, yordam so‘ramaslik “kuchlilik” belgisi sifatida ko‘riladi. Bu esa antropologiyada “genderga asoslangan ijtimoiy norma” sifatida qaraladi. Natijada, erkaklar kasallikni erta aniqlash va davolash imkoniyatini yo‘qotadi.

Ayollar salomatligi asosan onalik va reproduktiv sog‘liq bilan bog‘lab qaraladi. Bu yondashuv gender asosida sog‘liqni saqlash resurslarini taqsimlashda cheklovlar yaratadi. Antropologik nuqtai nazardan bu, jamiyatda ayollarning asosiy roli — ona va parvarishlovchi sifatida qabul qilinishining aksidir. Bu stereotip ayollarni boshqa tibbiy ehtiyojlar (masalan, ruhiy salomatlik, yurak-qon tomir kasalliklari) bo‘yicha e’tibordan chetda qoldiradi.

Oziqlanish, toza ichimlik suvi, sanitariya sharoitlari va sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyati — antropologik jihatdan jamiyatda mavjud iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklarni aks ettiradi. Ayniqsa, qishloq ayollari bu xizmatlardan foydalana olmaydi, chunki ularning harakat erkinligi, iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy vakolati cheklangan. Bu holat patriarxal ijtimoiy tuzilma va genderiy kuch ierarxiyasining oqibati sifatida talqin qilinadi.

Erkaklar va ayollar o‘rtasida umr ko‘rish davomiyligining katta farqi — faqat tibbiy muammo emas, balki ijtimoiy-madaniy muammo hamdir. Antropologiyada bu turmush tarzi (masalan, ovqatlanish, stress, ishlash sharoitlari, psixologik bosim) va ijtimoiy kutishlarning jinsi bo‘yicha farqlanishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida so‘nggi 30 yilda go‘daklar va onalar o‘limining kamaygani ijobiy antropologik jarayon sifatida

baholanishi mumkin. 1990-yilda 1000 tirik tug‘ilgan bolaga 34,6 nafar o‘lim to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2018-yilda 9,2 gacha pasaygan[7]. Bu sog‘liqni saqlash sohasidagi modernizatsiya, ayollar uchun tibbiy xizmatlarning ko‘payishi va tibbiy kadrlarning malakasini oshirish bilan bog‘liq.

Lekin antropologik jihatdan qaralganda, bu yutuqlar ayollarning salomatligi ustidan to‘liq egalik qilayotganini anglatmaydi. Chunki ayollarning qaror qabul qilishdagi ijtimoiy imkoniyatlari, tibbiy yordamga erkin murojaat qilish sharoitlari, xususan, qishloq joylarda hanuz murakkabligicha qolmoqda.

2021-yilda 5 yoshgacha bo‘lgan har 100 boladan 11 nafari noto‘g‘ri ovqatlanish natijasida o‘sishda orqada qolgan (UNICEF, 2022). Bu esa nafaqat tibbiy, balki madaniy va ijtimoiy tengsizliklarni ko‘rsatadi. Antropologik tilda aytganda, bu o‘zgarishlar “biologik holat” emas, balki ijtimoiy shart-sharoitlar va genderlashgan imkoniyatlar mahsulidir[8].

Ushbu holatlar ko‘proq qishloq joylarda, ayollar daromadi past bo‘lgan oilalarda, yoki sog‘liqni saqlash muassasalari uzoq joylashgan hududlarda kuzatiladi. Bu esa sog‘liq madaniy jihatdan qanday bo‘linishini ochib beradi: hamma uchun mavjud bo‘lgan tibbiy xizmatlar amalda bir xil emas.

UNFPA ma’lumotlariga ko‘ra, tuman tug‘ruqxonalarida vafot etgan onalarning 60 foizini yaxshi jihozlangan shifoxonalarga yuborish orqali saqlab qolish mumkin bo‘lgan. Bu holat sog‘liqni saqlash tizimida infratuzilmaviy tengsizlik, tibbiy xizmatlar sifati va ayollarga bo‘lgan e’tiborni institut darajasida zaifligini ko‘rsatadi.

Antropologik yondashuv buni ayollarning hayoti va tanasi ustidan qarorlar boshqa kuchlar tomonidan qabul qilinayotganiga ishora qiladi. Tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati yo‘qligi, yoki uning kechikib berilishi, ayollarning jamiyatdagi mavqeini aks ettiruvchi indikatordir.

Erkaklar omon qolish darajasi (83%) ayollarnikiga (90%) nisbatan ancha past. Bu tafovut turmush tarzi, gender stereotiplari, sog‘liqni saqlashga bo‘lgan yondashuv bilan bog‘liq. Erkaklar ko‘pincha o‘z sog‘lig‘i uchun yordam so‘rashni zaiflik deb bilgan madaniyatda yashaydi. Bu esa genderga asoslangan zararli normalarni mustahkamlab, ularni sog‘lig‘idan ayiradi.

Tibbiy xizmatlar uchun shaxsiy cho‘ntakdan to‘lovlar keng tarqalgan. Bu holat rasmiy tizimlar mavjud bo‘lsa-da, amalda xizmatlar egalik guruhlariga moslashtirilmaganini anglatadi. Ayniqsa, bu ayollar uchun

[7] https://www.uzdaily.uz/en/post/34263/

[8] https://uzbekistan.unfpa.org/en/news/restitution-new-un-programme-reduce-preventable-maternal-and-newborn-deaths-uzbekistan

salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ularning moliyaviy mustaqilligi erkaklarnikidan past.

Geografik farqlar esa qishloq joylarda yashovchi ayollarning sog‘liq uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Bu esa sog‘liqni madaniyat doirasida ko‘rib chiqishga undaydi: qayerda va kim uchun sog‘liq qadrlanadi, kimlar chetda qolmoqda?

2019-yilda O‘zbekistonda ayollarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 77,4 yoshni, erkaklarniki esa 72,8 yoshni tashkil etgan. Bu gender farqi – ayollar foydasiga 4,6 yil – antropologik jihatdan jamiyatdagi gender rollari, hayot tarzi, mehnat sharoiti va sog‘liq madaniyatidagi farqlar bilan izohlanadi[9].

O‘zbekiston jamiyatida erkaklar ijtimoiy va iqtisodiy yukning asosiy ko‘tuvchisi sifatida ko‘riladi. Ular og‘ir mehnat, migratsiya, xavfli sohalarda ishlash, stressga uchrash, tamaki va spirtli ichimliklarni iste’mol qilish kabi holatlarga ko‘proq duch kelishadi. Bu esa ularning sog‘lig‘i va umr ko‘rish davomiyligiga bevosita ta’sir qiladi.

O‘zbekiston so‘nggi 30 yilda o‘tish davridagi iqtisodiyotni boshdan kechirdi. Bu davrda sog‘liqni saqlash tizimi sezilarli yangilanishlarga duch kelgan bo‘lsa-da, uning hududiy adolatliligi va ijtimoiy qatlamlarga ta’siri har xil bo‘ldi. Ayniqsa erkaklar salomatligi bu o‘zgarishlardan kamroq foyda ko‘rgan. Chunki sog‘liqni saqlashga murojaat qilish, tibbiy madaniyat, erkaklik haqidagi tasavvurlar (masalan, og‘riqqa chidash, yordam so‘rashni zaiflik deb bilish) kabi madaniy stereotiplar erkaklar sog‘lig‘iga zarar keltiruvchi antropologik omillar bo‘lib xizmat qilmoqda.

2018-yilda erkaklarning 23,3 foizi tamaki, aholi jon boshiga esa 2016-yilda 4,8 litr toza alkogol iste’mol qilgan. 2019-yilda 15–59 yoshdagi erkaklarning 19,4 foizi jarohat tufayli vafot etgan. Bu ko‘rsatkichlar sog‘liqni faqat individual tanlovlar emas, balki madaniyat va ijtimoiy muhit mahsuli sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi[10].

Erkaklikka doir stereotiplar – jasurlik, xavfga tayyorlik, muammolarni o‘zicha hal qilish kabilar – ularni ko‘pincha shifokorga borishdan to‘xtatadi yoki o‘z sog‘lig‘iga befarq bo‘lishga olib keladi. Bular antropologik jihatdan erkaklarning sog‘liq bilan bog‘liq muammolarini oshiradi.

2016-yilda ayollarning 49 foizi ortiqcha vaznli, 19 foizi esa semirib ketgan. Bunda oziq-ovqat xavfsizligi, mehnat sharoitlari, harakatsizlik va ijtimoiy rol (uyda qolish, bolaga qarash, ovqat tayyorlash) katta rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, bu ko‘rsatkich jamiyatdagi go‘zallik me’yorlari va ayollar tanasiga nisbatan ijtimoiy bosim bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

[9] https://countryeconomy.com/demography/life-expectancy/uzbekistan?year=2019&utm_source=chatgpt.com
[10] https://gsthr.org/countries/profile/uzb/1/?utm_source=chatgpt.com

Bachadon bo‘yni saratoni xotin-qizlar orasida eng ko‘p uchraydigan saratonlar ichida ikkinchi va umumiy o‘lim holatlarida uchinchi o‘rinda. Qishloq ayollari orasida bu kasallik haqida xabardorlik darajasi past bo‘lishi esa tibbiy xizmatlar, ta’lim va sog‘liq madaniyati bilan bog‘liq ijtimoiy tengsizlikni ko‘rsatadi.

Ayollarning o‘z sog‘lig‘i haqida bilimga ega bo‘lmasligi, jamiyatdagi “or-nomus”, “uyat”, “sharm-hayo” kabi qadriyatlar sababli ginekologik tekshiruvlardan o‘tmasligi yoki bu masalani ochiq muhokama qila olmasligi ayollar salomatligiga jiddiy tahdid soladi. Bu — madaniy to‘siqlarning sog‘liqka ta’sirining yorqin ko‘rinishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lock, M., & Nguyen, V.-K. An Anthropology of Biomedicine. — Wiley-Blackwell, 2010. — P. 1–412.

2. Horton, S. They Leave Their Kidneys in the Fields: Illness, Injury, and Illegality among U.S. Farmworkers. — University of California Press, 2016. — P. 15–198.

3. UNESCO Institute for Statistics. Gender and Education: Achievements and Challenges. — UNESCO Publishing, 2022. — P. 3–57.

4. World Health Organization (WHO). Gender and Health: Technical Paper. — WHO, 2021. — P. 8–73.

5. Kandiyoti, D. Identity and Politics in Central Asia and the Caucasus. — Routledge, 2015. — P. 22–145.

ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЦИАЛЬНОЙ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ СОСТОЯНИЯ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ

Абдурахимов А.Н.
студент 3 курса направление «Восточная философия и культура»
akmalabdurakhimov09@gmail.com
Ташкентский государственный университет востоковедения
Научный руководитель: д.ф.н., профессор Изетова Э.М.

Аннотация: *В статье анализируется проблема этических оснований становления экологической культуры в теории и практике социального природопользования. Выявляется зависимость оценки качества природной среды обитания от субъективного восприятия экологической ситуации. Предлагается этически приоритетный вектор экологической оценки качества природной среды обитания.*

***Ключевые слова**: экологическая оценка, этические основы культуры природопользования, становление экологического сознания, качество природной среды.*

Определение роли и регулятивных функций экологической этики в формировании комплексной оценки качества природной среды является важнейшим аспектом научного анализа антропогенного влияния на экосистемы. Социально-экологическая оценка не сводится к нейтральной логической операции, а представляет собой нормативно насыщенный процесс, детерминированный биоэтическими и биогеоценотическими критериями. Она выступает исходным этапом преобразования природных комплексов, что неизбежно ведет к изменению их структурно-функциональной организации, будь то трансформация ландшафта в ходе урбанизации, создание рекреационных зон или развитие эколого-образовательных кластеров. Даже эстетически ориентированные оценки ландшафтов имплицируют нормативное восприятие природы как объекта ценностной интерпретации, подчиненного как этическим, так и утилитарным императивам. Биоцентрический и антропоцентрический подходы к социальной и экологической оценке неизбежно вступают в диалектическое взаимодействие, формируя полилог дискурсов, в которых экологически ответственное проектирование становится не только прагматической, но и этической задачей. В этом контексте важно учитывать концепции нормативного природопользования, предлагаемые исследователями, которые рассматривают биоэтику не только как систему ограничений, но и как механизм оптимизации взаимодействия общества и природы. Такой подход позволяет интегрировать эстетику, этику и экологию в единое когнитивное пространство, ориентированное на поиск устойчивых моделей развития антропогенно измененных экосистем.Такое понимание регулятивной роли этических постулатов в формировании комплексной экологической оценки близко к биоэтическому пониманию социально-экологических проблем и характерно для ученых, ориентированных на изучение прикладных аспектов динамики социоприродных отношений, представителей естественнонаучных дисциплин (например, И.И. Дедю [1], И.И. Максимчука [2]). Отдельно можно выделить подход, отраженный в работах П. С. Карако [3]. В исследованиях этого ученого наблюдается стремление к гармоничному сочетанию этических и эстетических аспектов нормативного восприятия природных комплексов, будь то степь, лес или болотный биоценоз. Для автора антропогенные процессы, направленные прежде

всего на сохранение и развитие эстетической составляющей природной среды, считаются этическими, и именно этой цели подчинена процедура комплексной оценки. Такие исследователи, как П. С. Карако, А. Водапьянов [4], Э.И.Колчинский[5]. Обратили внимание на более широкое объяснение проблемы. В работах этих ученых ярко выражена потребность найти регулятивные основы социально-природного взаимодействия, основанные на биогеоценологическом понимании этической дилеммы «экологически хорошо – экологически плохо». Этот подход предполагает использование в качестве регулятивных критериев биогеоценологических показателей: богатства видового разнообразия, развития трофических связей, заполнения экологических ниш и т. д.

В связи с этим предложение Э. И. Колчинского руководствоваться в аграрном природопользовании принципом межвидового возделывания сельскохозяйственных культур и соответственно оценивать культурный биогеоценоз по показателям видового разнообразия. [5, с. 14].

Этические аспекты социальной и экологической оценки состояния природной среды предполагают методологически обоснованный подход, интегрирующий биоцентрические и антропоцентрические принципы нормативного анализа. Сведение этической значимости экологической оценки исключительно к сохранению естественного развития биоциноза без учёта антропогенного фактора представляется методологически ограниченным. Искусственно созданные биосистемы, как элемент социального природопользования, играют ключевую роль в формировании устойчивых эколого-антропологических взаимодействий, что требует их включения в систему оценки качества природной среды. Следовательно, поиск этических оснований такой оценки должен основываться на целостном видении позитивных и негативных аспектов практики природопользования, вне зависимости от того, является ли объектом анализа моно- или поликультурный биоциноз. Методологическая состоятельность этого подхода заключается в признании взаимосвязи качественных характеристик природных объектов и их социальной значимости, что делает возможным нормативное описание состояния окружающей среды на основе интегративного этико-экологического дискурса. Ключевым аспектом является отказ от контемплативного (созерцательного) подхода, который редуцирует проблему взаимодействия общества и природы к статичному описанию природных комплексов без учета их динамических изменений под влиянием человеческой деятельности. Игнорирование

прагматического аспекта природопользования ведет к абстрактному представлению человека как пассивного наблюдателя, в то время как реальность требует признания его активной роли в формировании качества природной среды. Таким образом, комплексная экологическая оценка должна рассматриваться не только как инструмент объективного анализа, но и как этически нагруженный процесс, включающий социально-экологические регулятивы и направленный на гармонизацию отношений между человеком и природой.Говоря языком философии, в этом откровенно гипотетическом случае оценка биоценоза может сводиться к интерпретации качества природного комплекса не более, чем его состояния, с неоправданным игнорированием его структурной и функциональной точности. Этические аспекты социальной и экологической оценки природной среды требуют методологически обоснованного отказа от созерцательного подхода, редуцирующего биоценоз лишь к его статичному состоянию и игнорирующего структурно-функциональную целостность экосистем. Взаимоотношения человека с природой невозможно анализировать вне их прагматического измерения, поскольку материально-практические формы природопользования неизбежно сопряжены с трансформацией окружающей среды. Показательным аргументом этого вывода может служить обращение к реальной практике поведения в естественной среде обитания таких русских лесных певчих птиц, как И. Тургенев, М. Пришвин, С. Аксаков. Будучи поклонниками природных красот, эти писатели были охотниками и одновременно убивали диких животных, охотно убивали раненых, считая такую форму поведения человека в естественной среде вполне естественной. В этом случае литературно-описательная созерцательность неестественным образом сочетается с признанием правомерности той повседневной жестокости, которую человек проявляет в охоте, рыбалке, вырубке леса и других практических формах социально-природного взаимодействия. Исторический опыт свидетельствует, что даже сторонники эстетического восхищения природой, включая писателей-классиков, не избежали внутреннего концептуального разрыва между созерцательной идеализацией природных ландшафтов и оправданием антропогенного воздействия в форме охоты, лесозаготовок и иных видов ресурсопотребления. Это демонстрирует ключевую методологическую проблему: отчуждение этических и эстетических аспектов экологического восприятия ведет к когнитивному диссонансу в нормативной оценке природной среды. Для преодоления этого противоречия необходимо учитывать не только биоэтические

принципы, но и онтологию природопользования, в рамках которой человек выступает не пассивным наблюдателем, а активным субъектом социоприродного взаимодействия. В этом контексте нормативная экологическая оценка должна быть основана на интеграции этико-экологических императивов и признании неизбежности регулирующего воздействия человека на окружающую среду, что делает возможным формирование целостной концепции ответственного природопользования. (гл. [6, с. 186]).

Пример с Л. Толстым, механически прихлопнувшим комара в момент изложения концепции «непротивления злу», иллюстрирует функциональные ограничения сугубо созерцательных этических моделей, не учитывающих неизбежность антропогенного вмешательства в природные процессы. Жизненные потребности представителей дикой фауны, включая насекомых-кровососов, выходят за рамки моральных категорий, поскольку детерминированы биологической необходимостью. Это свидетельствует о том, что бинарные схемы «добро–зло» непригодны для нормативной интерпретации социоприродных взаимодействий. Принципиальный вопрос заключается не в отрицании этических императивов, а в их адаптации к реалиям природопользования, что требует интеграции биоэтических норм с прагматикой экологического регулирования. Человеческое существование неминуемо сопряжено с эксплуатацией природных ресурсов, в том числе с насильственным изменением биоценозов, что ставит под сомнение возможность создания универсального морального кодекса для оценки масштабов и последствий антропогенного воздействия. Однако отказ от нормативного осмысления природопользования привел бы к регрессивной деградации этики взаимодействия с окружающей средой. Следовательно, задача науки – разработка методологически состоятельной концепции экологической этики, способной учесть как онтологические потребности человека, так и необходимость сохранения биосферного равновесия, что возможно только в рамках интегративного подхода, соединяющего философские, биологические и социальные компоненты оценки качества природной среды.Ф. Энгельс в своей работе «Роль в процессе превращения обезьяны в человека» так охарактеризовал практические приоритеты в системе взаимодействия человека и природы: «Мясная пища содержала в почти готовом виде важнейшие вещества, необходимые организму для его обмена веществ; она сокращала процесс пищеварения, а вместе с ним и продолжительность других вегетативных (т. е. соответствующих явлениям растительной жизни) процессов в организме и тем самым

экономила больше времени, веществ и энергии... наиболее существенное влияние мясная пища оказывала на мозг, который благодаря ему получал в гораздо большем количестве, чем прежде, те вещества, необходимые для его питания и развития, что давало ему возможность быстрее и полнее совершенствоваться из поколения в поколение». Из вышесказанного следует вполне обоснованный вывод: «…человек не мог бы стать человеком без мясной пищи»[7, с. 492]. Этическая оценка природной среды должна учитывать объективную реальность социоприродного взаимодействия, где человек выступает как биологический и социальный потребитель. Его антропогенное воздействие, проявляющееся в сельскохозяйственной деятельности, промышленном освоении территорий, а также в научных экспериментах с использованием лабораторных животных, является неотъемлемым условием развития цивилизации и обеспечения жизнеобеспечивающих систем. В этом контексте нормативная модель экологической этики не может основываться на созерцательной парадигме, исключающей активные формы природопользования. Насильственное вмешательство в экосистемы – от земледелия до медицинских исследований – обусловлено эволюционной и культурной детерминацией вида Homo sapiens и не может быть оценено в дихотомии «добро–зло» без учета функциональной необходимости подобных практик. Следовательно, этическая оценка должна базироваться на интегративном подходе, который учитывает неизбежность антропогенного воздействия, но стремится минимизировать его деструктивные последствия. Это предполагает создание комплексной системы биоэтических императивов, ориентированных на балансирование социоприродных интересов, где критерии устойчивого развития и биоцентрической ответственности будут выступать в качестве методологического фундамента для нормативного осмысления качества природной среды.В концептуальной структуре социально-экологических проблем практический подход предполагает, что личность, осуществляющая активное природопользование, проявляется в многогранном качестве: а) определяющего фактора процедуры оценки; б) субъект реализации нормативного определения качества среды обитания; в) регуляторный орган при определении приоритетного вектора оценки. При этом следует иметь в виду, что масштабы оцениваемых изменений в структуре естественной среды обитания не имеют принципиального значения, важен сам факт нормативного описания антропогенного вмешательства, влияющего на протекание естественных процессов естественного метаболизма. Можно сделать вывод, что решение

заявленной проблемы поиска этических основ экологической экспертизы должно формироваться в контексте противоречия как минимум в двух смысловых аспектах: с одной стороны, существо, которое ищет возможность гармоничного, ненасильственного отношения к природной среде своего расселения; с другой стороны, ему противостоит существо-пожиратель, вынужденное совершать насилие. Именно в контексте этого противостояния следует искать решение заявленной проблемы. Наверное, ближе всего к ее решению пришел немецкий врач, лауреат Нобелевской премии мира 1952 года Альберт Швейцер со своим жизненным принципом «Я есть жизнь, которая хочет жить среди других жизней».[8, с. 328].Этическая оценка состояния природной среды требует выхода за пределы сугубо рационального подхода, поскольку формирование универсальных моральных императивов в области экологии сталкивается с методологическими ограничениями. Согласно позиции А. Швейцера, аналогичной взглядам Л. Толстого, проблема биоэтического выбора не может быть разрешена только интеллектуальными средствами – она должна проходить через внутренний акт сопереживания, где человек осознает неизбежность причиняемого ущерба и стремится его минимизировать. Однако этот подход, основанный на концепции Души как духовной данности, сталкивается с двумя фундаментальными противоречиями. Во-первых, он имплицитно предполагает наличие у субъекта этического выбора религиозного сознания, тогда как экологическая этика должна обладать универсальной нормативной применимостью. Во-вторых, христианская традиция, в отличие от исламских источников, не содержит четко выраженных регулятивов экологического поведения, ограничиваясь общим предписанием разумного использования природных ресурсов. Это демонстрирует необходимость философской ревизии традиционных этических парадигм в контексте социоприродного взаимодействия и поиска нормативных оснований, способных интегрировать как рациональные, так и эмпатийные аспекты моральной оценки антропогенного воздействия на окружающую среду.Формирование регулятивного эколого-этического кодекса требует не только признания приоритета природоохранной практики перед созерцательным подходом, но и осознания сложности интеграции этических норм в систему социально-природных отношений. Центральной проблемой выступает феномен экологического сознания, который, несмотря на его значимость, остается недостаточно изученным в теории природопользования. Человек, вооруженный современными технологиями, является

ключевым фактором глобальных изменений биосферы, что накладывает на него ответственность за разработку и внедрение этических стандартов взаимодействия с окружающей средой. Экологическая культура, в основе которой лежит экологическая грамотность, предполагает не только знание закономерностей функционирования биосферы, но и способность применять их на практике, обеспечивая оптимальное воздействие на природную среду. В этом контексте адекватность эколого-этических регуляторов становится критерием оценки устойчивости социально-природных отношений, определяя возможности гармонизации антропогенного влияния и сохранения природных экосистем.Экологическое образование предполагает дифференцированный подход к оценке состояния природной среды, выделяя как экономически значимые экосистемы, так и критически важные для жизнедеятельности человека. Критерием такого разделения служит степень опосредованности социально-природных связей. Экологически рациональное природо-пользование требует селективного определения параметров использования природных ресурсов, особенно учитывая неизбежное антропогенное воздействие современного производства и ограничения, накладываемые экономической целесообразностью. Фундаментальным является признание дуализма как субъекта (человека), так и объекта (природы) социально-природного взаимодействия. Преодоление экологического нигилизма в условиях деградации окружающей среды демонстрирует актуальность философского инструментария для развития социальной экологии как научной дисциплины, исследующей аксиологические аспекты взаимодействия общества и природы.

Заключение:

Исследование выявило роль этики в формировании комплексной экологической оценки состояния окружающей среды. Формирование такой оценки, основанной на этических принципах, тесно связано с внедрением механизмов оптимального природопользования, оптимизируя функциональные связи в системе "общество-природа" через нормативное описание социально-природной динамики. Становление экологической культуры связано с проблемой сохранения качества окружающей среды, понимаемого как состояние, обеспечивающее нормальное развитие организмов, системную целостность биосферы и оптимальный уровень природопользования. "Созерцательный" подход к обоснованию этических норм взаимодействия общества и природы неэффективен, игнорируя реалии природопользования. "Революционный" характер экологической

ориентации, свойственный экстремальным условиям, малоперспективен для становления экологической морали из-за недостатка информационного базиса. "Эволюционный" путь постепенного осознания генетической близости человека и природы является приоритетным для развития экологической этики. Концептуальное описание регулятивного потенциала этических норм в экологической оценке призвано способствовать формированию стратегии перехода к экологически устойчивому природопользованию.

Список использованных источников

1. Дедю, И. И. Экологический энциклопедический словарь / И. И. Дедю. – Кишинев : Гл. ред. Молд. совет. энцикл., 1989. – 406 с.
2. Максимчук, И. И. Экология и этология: опыт сравнительного анализа / И. И. Максимчук. – Одесса : Ассоль, 2010. – 187 с.
3. Каракo, П. С. Социальная экология: экологическое сознание / П. С. Каракo. – Минск : Экоперспектива, 2011. – 216 с.
4. Водопьянов, П. А. Устойчивость динамики биосферы / П. А. Водопьянов. – Минск:Наука и техника, 1981. – 246 с.
5. Колчинский, Э.И. Эволюционный процесс в современной биосфере / Э. И. Колчинский // Филос. науки. – 2000. – № 1. – С. 34–37.
6. Энгельс, Ф. Роль труда в процессе превращения обезьяны в человека / Ф. Энгельс // Сочинения : [в 50 т.] / К. Маркс, Ф. Энгельс. – Изд. 2-е. – М.: Политиздат, 1955–1981. – Т. 20. – 1961. – С. 486–499. 7. Толстой, Л. Н. «Записки христианина»: дневники, 1881–1887 / Л. Н. Толстой // Полн. собр. соч. : в 90 т. – М. : ГИХЛ, 1928–1958. – Т. 49. – 1952. – 511 с.
8. Швейцер, А. Благоговение перед жизнью / А. Швейцер. – М. : Прогресс, 1992. – 573 с.

TURKIYA RESPUBLIKASINING BARQAROR RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI: KECHAGI VA BUGUNGI TURKIYA

Rahmatullayev Diyorbek
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
"Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada Turkiya Respublikasining barqaror rivojlanish xususiyatlari tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Usmoniylar imperiyasining qulashidan keyin Turkiyaning qanday qilib zamonaviy davlatga aylangani, iqtisodiy islohotlar, ta'lim tizimidagi rivojlanish va sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlar yoritiladi. Shuningdek, Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi strategik hamkorlik ham muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Turkiya, barqaror rivojlanish, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, Usmoniylar imperiyasi, O'zbekiston-Turkiya munosabatlari.*

Abstract: *This article analyzes the sustainable development characteristics of the Republic of Turkey from historical, economic, and social perspectives. It explores the transformation of Turkey into a modern state after the collapse of the Ottoman Empire, economic reforms, advancements in the education system, and achievements in healthcare. Additionally, the strategic partnership between Turkey and Uzbekistan is discussed.*

Keywords: *Turkey, sustainable development, economy, education, healthcare, Ottoman Empire, Uzbekistan-Turkey relations.*

Özet: Bu makalede Türkiye Cumhuriyeti'nin sürdürülebilir kalkınma özellikleri tarihi, ekonomik ve sosyal açılardan incelenmektedir. Osmanlı İmparatorluğu'nun çöküşünden sonra Türkiye'nin modern bir devlet haline nasıl geldiği, ekonomik reformlar, eğitim sistemindeki gelişmeler ve sağlık alanındaki başarılar ele alınmaktadır. Ayrıca, Türkiye ile Özbekistan arasındaki stratejik ortaklık da tartışılmaktadır.

Anahtar kelimeler: Türkiye, sürdürülebilir kalkınma, ekonomi, eğitim, sağlık, Osmanlı İmparatorluğu, Özbekistan-Türkiye ilişkileri.

Turkiya respublikasi yokida o'z nomi bilan (Türkiye Cumhuriyeti) – tarixi besh ming yildan oshadigan qudratli Usmoniylar imperiyasining ramziy vorisidir. II Jahon urushida Usmoniylar imperiyaning mag'lubiyatga

uchragan mamlakatlar qatorida qolib ketgani, o‘sha davrdagi saltanat ichki nizolari va sultonlarning zaif boshqaruvi ortidan imperiya zaiflashdi va mamlakatga Ingliz, Fransuz askarlari kirishni boshladi. Shu sababdan 1920 - yil 23-aprelda Anqarada o‘zlarini mamlakatning muaqqat hukumati deb elon qilgan “Anqara Markazlashgan Turk rejimi” paydo bo‘ldi va bu rejim Mustafo Kamol rahbarligi ostida iperiyadan yangi siyosiy rejimni rasmiy tan olinishi borasida diplomatik harakatlar boshladi. 1921 – 1923 yillar orasida diplomatik aloqalar qurolli to‘qnashuvlar bilan birlashdi, yangi muaqqat rejim mamlakatdan Fransuzlar va Ingilizlarni haydab chiqardi. 1922-yilda Turkiya Buyuk Millat Majlisi tomonidan , saltanat tugatilgani e’lon qilindi va tarixdagi eng uzoq davom etgan monarxiya 623 yillik tarixga ega qudratli Usmoniylar imperiyasi rasman tarix sahnasidan o‘chirildi.

Usmoniylar Yevropaga juda yaqin bo‘lishlariga va ularning rivojlanish jarayonlarini ko‘rish va mamlakatda ham amalga oshirish imkoniyatlari mavjud bo‘lsada, o‘sha davrdagi sulton boshqaruvi ostidagi hukumat bunga yetarlicha e’tibor qaratmadi, buning ortidan mamlakat shiddat bilan rivojlanayotgan dunyodan ko‘plab sohalarda ortda qolishni boshlagandi. Xususan: sanoat, bankchilik va moliyaviy xizmatlar, yuqori ta’lim tashkilotlari va yangi texnologiyalar sohalarida. Usmoniylar imperiyasi bir qismi yevropada bo‘lishiga qaramay bank tizimi XIX asrning ikkinchi yarmidagina paydo bo‘la boshladi. Bunga asosiy sabab esa Usmoniylarning so‘ngi hukumdorlari bir vaxtning o‘zida xalifa bo‘lganliklarida va mamlakatda islom dini qurollari kuchli amalda bo‘lganini keltirish mumkin. O‘sha vaxtda mamlakatda sanoqli banklar faoliyat yuritardi va ularning ko‘p qismi Inglizlar va Yahudiylar tomonidan ochilgandi. Xususan imperiyada ilk tashkil etilgan “Ottoman Bank” ham Angilya qirolichasi Viktoriya topshirig‘i bilan ochilgandi. Oradan bir necha yillar o‘tgach dehqon xo‘jaliklari va chorvadorlar uchun “Ziraat Banka”si tashkil etildi, bunga sabab esa imperiyaning asosiy YIM daromadi dehqonlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i orqali to‘ldirilgani edi. “Aşar” deb ataluvchi yillik daromadning 10% miqdorida davlatga to‘lanadigan daromad solig‘i hisoblanardi. Keyinchalik 1925 – yilda Turkiya respublikasining dastlabki yillaridayoq iqtisodiyotda amalga oshirilgan keng ko‘lamli reformlar va qayta qurish siyosati sabab bekor qilingandi.

Turkiya Respublikasi tashkil topgach Ataturk boshchiligida mamlakatda juda katta islohotlar amalga oshirildi, tom ma’noda mamlakat yangitdan qurildi. Bularga arab harflariga asoslangan eski turk alifbosidan yangi alifboga o‘tishdan tortib , ta’lim, sog‘liqni saqlash, bank – moliya xizmatlari sohasi, xususiy mulkchilik va TMK (Trans Milliy Korparatsiyalar) ni mamlakatda ochilishigacha, butun dunyoga zamonaviy rivojlanish yo‘liga o‘tganini ko‘rsatdi. Usmoniylar qulagandan so‘ng

Turkiya va imperiyaning boshqa 13 ta avtonom davlatlariga mustaqillik va egallab turilgan ulkan yer resurslari bilan birga Usmoniylar imperiyasining o‘sha davr pul birligidagi 180 trilion liradagi tashqi qarzini ham to‘lash majburiyati yuklatildi bu haqida “Parij shartnomasi” da keltirilgandi va bu qarzning deyarli 66% i Turkiya zimmasiga yuklatilgandi , Turkiya bu qarzni 1959 – yilllarga qadar bosqichma bosqich to‘ladi.

Ta’limga keladigan bo‘lsak, har bir jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhum o‘rin tutgan bazi tashkilotlar mavjuddir. Bu tashkilotlar ro‘yxatida ilk siralarda keladigan universitetlar, jamiyatning rivojlanishida muhum ahamiyat kasb etadi. Chunki universitetlar ma’lum standartlar asosida mutaxasis kadrlar ehtiyojini qoplashda muhumum vazifani bajaradi. Yangi qurulgan Turkiya respublikasida har sohada bo‘lgani singari universitetlarda ham reformatsiyalar amalga oshirildi. Turkiya tashkil topishigacha hududda sanoqli universitetlar bor edi , zamonaviy bugungi kundagi universitet ko‘rinishigaa ega ta’lim markazi esa Abdulhamid II davriga kelib gina ochilgandi , keyinchali ushbu universitet “Istanbul Universiteti” nomini oldi. XX asrdan boshlab mamlakatda talim dargohlari oshishmi boshladi, xususan yillar kesimida 1933 - yilda 1 ta bo‘lgan bo‘sa , 2019 – yilda 207 ta OTM faoliyat ko‘rsatmoqda , bularning 131 tasi davlat universiteti qolgan 76 ta universitet xususiy mulkga qarovchi, yoki da vaqf va fondlar tomonidan boshqariluchi ta’lim dargohlaridir. Turkiya respublikasi ta’lim tizimi bugungi kunda jahonda eng ilg‘or va kuchli tizimlardan biriga aylangan, asosan fizika , matematika, tibbiyot, axborot texnologiyalari, robototexnika va sun’iy yo‘ldosh tizimlari sohasi kabi yana birqancha sohalarni keltirib o‘tish mumkin. Ta’limning bu yuqori ko‘rsatkichi o‘z samarasini berishni boshlagan , misol uchun so‘ngi yillarda mamlakaty o‘zining milliy elektromobil ishlab chiqarish sanoatiga, uchuvchisiz harakatlanadigan so‘ngi avlod hujumkor dronlariga, milliy ayrokosmik stantsiyasiga va sun’iy yo‘ldosh raketalariga ega jahonning kam sonli strategik markazlaridan biriga aylandi. Mudofaa salohiyati Yevropa ittifoqi mamlakatlari Ichida 2 , dunyo mamlakatlari orasida esa 9 o‘rinda turmoqda. Mamlakat so‘ngi yillarda temir gumbaz havo mudofaa tizimini yaratish ustida ilmiy loyihalarni olib bormoqda. Bularning barchasiga ta’lim tizimini sohalarga integratsiyalash orqali erishdi.

Sog‘liqni saqlash sohasida ham anchayin yuqori natijalarga erishilgan, ayniqsa estetik jarrohlik, organ transplantatsiyasi kabilarda dunyoda ilk o‘rinlarda. Turkiyadagi zamonaviy shifoxonalarda barcha imkoniyatlar mavjud. Turkiyalik shifokorlar ko‘plab kasalliklarni davolashning o‘ziga xos usulini kashf qilgan. Turkiyaning sog‘liqni saqlash tizimi ushbu xususiyatlari bilan butun dunyoga mashhur. Turkiya sog‘liqni saqlash bo‘yicha dunyoda Tayvan, Hindiston va Malayziyadan keyin 4-o‘rinni

egallab turibdi. 2020-yilda pandemiya tufayli sayohat qilish cheklanganligiga qaramay, 1 million 200 ming chet el fuqarosi sog‘liqni saqlash xizmatidan foydalanish uchun Turkiyaga kelgan. Turkiyada aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi 78 yoshni tashkil qiladi va aholining 97 foizi tibbiy xizmat bilan qamrab olingan. Turkiyaning bugungi holati 100 yil ilgarigidan tubdan farq qiladi , mamlakat juda murakkab iqtisodiy va ijtimoiy inqirozlarni boshdan kechirdi va ularning har biridan oqilona tarzda chiqib yuqori tajribaviy bilimga ega bo‘ldi. Turkiya o‘zining yillik 1,2 trilion dollar YIM hajmi bilan dunyoda 15, Yevropada esa Fransiya,Angliya,Italiya ,Ispanya , Germaniyadan keyin 6 - eng kuchli iqtisodiyoti hisoblanadi.

1990- yillar boshida Sovet Rossiyasining parchalanishi bilan Markaziy Osiyo xalqlari o‘z mustaqilligini e’lon qildi va vatandoshlar o‘rtasida mustahkam aloqalar o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘lindi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mustaqilligini eng birini bo‘lib tan olgan davlat bu aynan Turkiya respublikasi hioblanadi. O‘zbekiston birinchi prezidenti Islom Karimovning xorijiy mamlakatlarga ilk tashrifi Hindistonga bo‘lgan bo‘lsa , undan keying rasmiy tashrif Turkiyaga amalga oshirilgan. Bugungi kunga qadar O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida turli davrlar, siyosiy va ijtimoiy tarangliklar yashaldi. Bularga qaramay so‘ngi 7 yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy , iqtisodiy , madaniy , ta’lim va tibbiy sohalarda juda ko‘lab hamkorliklar yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatlar o‘rtasidagi sheriklikning bu kabi eng yuqori cho‘qqisiga chiqishiga sabab davlat rahbarlarining siyosiy irodasi sababdir. O‘rtadagi diplomatik munosabatlar 1992-yil 4-martda o‘rnatilgan.Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat 1996-yilda imzolangan O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o‘rtasida Abadiy do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomadir . Iqtisodiy tomondan esa Turkiya O‘zbekistonning eng yirik savdo va sarmoyaviy sheriklaridan biridir. nvestitsiyaviy hamkorlik ko‘rsatkichlari 70 barobar oshdi. O‘zbekiston-Turkiya sanoatining asosiy faoliyati to‘qimachilik, savdo, transport va logistika, turli xizmatlar, qurilish va boshqalardir. Mamlakatlarimiz so‘ngi yillarda tarixiy jarayonlarni boshdan kechirdi , davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikdan strategik sheriklik kabi yuksak natijalarga erishildi.

Xulosa qilib aytganda xar bir davlatchilik yokida tuzum o‘zining to‘rt kuchli bosqichidan o‘tadi. Bular yaratilish, rivojlanish, cho‘qqiga chiqish va tugatilishdir. Misol uchun tarixdan kunimizga qadar juda ko‘plab yirik imperiyalar, davlatlar va tuzilmalar shu to‘rt davrni yashab , kunimizda faqat tarix asarlaridagina mavjud holda turibti. Buyuk Rim imperiyasi, Mo‘g‘ullar imperiyasi, Temuriylar imperiyasi, Boburiylar imperiyasi, Britaniya imperiyasi, Usmoniylar imperiyasi, Rossiya imperiyasi, Sovet Ittifoqi o‘z

vaxtida dunyoning gegemon davlatlariga aylangan. Bugungi kunda ham bu o‘zgarmas qoida ishlamoqda , xususan AQSH misolida buni yaqindan o‘rganishimiz mumkin, chunki bu davlat ham sekin astalik bilan o‘zining III bosqichini tugatayotgandek nazarimda. Uning o‘rnini esa yangi bir mamlakat egallashi tabiy , va bu mamlakat qaysi bo‘lishiga butun jahon qiziqmoqda, menda esa bu extimoliy davlatlar qatorida birinchilikda Xitoy xalq kamunistik respublikasi turmoqda. Turkiyaga qaytadigan bo‘lsak , Turkiya ham yaqin sharqda o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda bu esa xitoydan keyingi davlat nomi aynan Turkiya bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xudoynazarov I. et al. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng turkiya bilan munosabatlarining muvozanatlashishi va siyosiy rivojlanishi //Научный Импульс. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 336-342.
2. Xolmuradov F. O‘zbekiston va Turkiya munosabatlarida turkiy davlatlar tashkilotining o‘rni va ahamiyati //International scientific and practical conference “trends of modern science and practice”. – 2025. – т. 1. – №. 2. – с. 5-14.

TURKIYADA GENDER TENGLIK: OTATURK ISLOHOTLARIDAN BUGUNGI REALLIKKA QADAR

Obidova Ruxshona Vohid qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi 2-kurs talabasi
obidovaruxshona56@gmail.com
Ilmiy rahbar: I.B. Xudoynazarov

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy Turkiyada gender tenglik, ayollar va erkaklarning bandligi (ish bilan ta’minlanganligi) va unga ta’sir qiluvchi omillar, ijtimoiy- iqtisodiy tuzilmalar, siyosiy jamiyatda ayollarning faoliyati haqida so‘z boradi. Shu o‘rinda ayollar va erkaklar ta’limda bir xil imkoniyatlarga ega emasligi ta’kidlanadi. Ayniqsa, qishloq va shahar hududlari o‘rtasida bu tengsizlik yanada sezilarli. Maqolada Shimoli-sharqiy Anadolu, Markaziy Anadolu, Janubi-sharqiy Anadolu va Sharqiy Qora dengiz mintaqalarida ayollar ta’lim darajasining pastligi va buning natijasida ularning bandligi ham kam ekanligi qayd etilgan. Ayollarning ta’limi va bandligiga oilaviy majburiyatlar va gender rollari jiddiy ta’sir ko‘rsatishi tushuntirlgan. Ayollar bandligini oshirish uchun qabul qilinishi*

kerak bo‘lgan siyosiy va ijtimoiy choralar haqida fikr yuritiladi. Bu choralar orasida ta’limdagi hududiy tengsizlikni bartaraf etish, gender asosida kasblarni ajratishdan voz kechish va bir xil ish uchun erkak va ayollarga teng maosh to‘lash kabi masalalar ko‘rsatilgan. Umumiy qilib olganda, maqola ayollar bandligini oshirishning ahamiyati va bu boradagi muammolarni yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: *Turkiya Statistika Instituti (TÜİK), Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Public Policy and Democracy Studies Association (PODEM), Dunyo Iqtisodiy Forumi, TEPAV (Turiya Iqtisodiy siyosiy tadqiotlar vaqfi).*

Turkiyada gender tenglik haqida so‘z borar ekan, avvalo jamiyatdagi erkaklar va ayollar huquqlari, ularning turk jamiyatidagi mavqei, shuningdek, ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Turkiyadagi birinchi ayollar uyushmasi Usmonli ayollari farovonligi tashkiloti 1908 yilda tashkil topgan. Turkiya ayollarga to‘liq siyosiy huquqlar, jumladan, 1930-yilda kichik hudud darajasida, 1934-yilda esa milliy darajada saylash va saylanish huquqini berdi. Turkiya Konstitutsiyasi jinsga qarab, davlat yoki xususiy har qanday kamsitishni taqiqlaydi. Turkiya Konstitutsiyaviy sud raisi lavozimiga ayol kishi tayinlangan dunyodagi birinchi davlatdir.

Turkiyada gender tenglik ideali sifatida qaralgan Mustafo Kamol Otaturkning modernizatsiya islohotlariga ko‘pxotinlilikni taqiqlash va 1930 yilgacha turk ayollariga to‘liq siyosiy huquqlar berish kiradi. Mustafo Kamol Otaturk 1926-yilda Turk Fuqarolik Kodeksini qabul qilib, turk ayollarining huquqiy maqomini tubdan o‘zgartirdi[11]. Ushbu qonun bilan ayollar erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo‘ldilar. Meros, mulk, vasiylik, nikoh, ajralish, sudda guvohlik berish kabi masalalarda erkak va ayol o‘rtasidagi huquqiy tengsizlik bartaraf etildi. Respublikaning e’lon qilinishi bilan turk ayollariga siyosiy huquqlar berildi. 1934- yilda bo‘lib o‘tgan saylovlarda turk ayollari birinchi marta ovoz berish huquqiga ega bo‘ldilar, shuningdek, parlamentga saylash va saylanish huquqi ham berildi. Bu qadam turk ayollarining ijtimoiy va siyosiy hayotda faol rol o‘ynashiga imkon berdi. 1934-yilda parlamentga 18 nafar ayol deputat sifatida kirdi. Otaturk turk ayollarining tarbiyasiga katta ahamiyat bergan. Ta’lim sohasida teng imkoniyatlarni ta’minlash uchun ko‘plab maktab va muassasalar ochildi. Qizlarning ta’lim olishini osonlashtirish maqsadida maktab-internatlar va qizlar uchun kasb-hunar litseylari tashkil etildi. Shunday qilib, ayollar ta’lim orqali o‘zlarini yaxshilash va jamiyatda faolroq rol o‘ynash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Otaturk davrida mamlakat bo‘ylab sodir bo‘lgan

[11] Erdoğan, R. Yılmaz, Z. Şimşek. Türkiye'de Kadın İşgücünün Bölgesel Analizi, Akademik Sosyal Araştırmalar Dergisi (Asos Journal), Anqara-2016, B- 54-69.

eng katta inqiloblardan biri, 1928 yilda alifboning o‘zgarishi edi. Bu inqilob bilan erkak va ayol hamma uchun o‘qish va yozish osonlashdi.

Turkiya Statistika Instituti (TÜİK)ning Milliy Ta’lim Statistikasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2008-2019 yillari oralig‘ida har yili savodsiz yoki biron bir o‘quv yurtini tamomlamagan ayollar soni erkaklarga nisbatan ko‘proq bo‘lgan. 2019-yilgi statistikaga ko‘ra, erkaklarning 20,3 foizi boshlang‘ich maktabni, 25,2 foizi litsey yoki unga tenglashtirilgan kasb-hunar maktabini, 19,9 foizi esa oliy ma’lumotga ega bo‘lgan. Ayollar orasida esa bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 29,1 foiz, 17,3 foiz va 16,1 foizni tashkil etgan. Ayollarning erkaklarga nisbatan ta’limga teng imkoniyatga ega emasligi ularning ishga joylashish ehtimoliga ham ta’sir qiladi. TÜİK ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda savodsiz erkaklarning bandlik darajasi 23,9 foiz, o‘rta ta’limdan past darajadagi erkaklarda 57,8 foiz, litsey bitiruvchilari orasida 59,1 foiz, kasb-hunar yoki texnik litsey bitiruvchilari orasida 70,3 foiz va oliy ma’lumotli erkaklarda esa 74 foizni tashkil etgan. Shu ko‘rsatkichlar ayollar uchun mos ravishda 12,2 foiz, 22,3 foiz, 23,8 foiz, 28,4 foiz va 54 foiz bo‘lgan[12]. Natijada, ayollarning ta’lim darajasi oshgani sayin ularning bandlik darajasi ham ortadi, ammo o‘sha darajada ta’lim olgan erkaklarga nisbatan ayollarning ishga joylashish ehtimoli pastroq bo‘lib qolmoqda (DİSK, 2020). Bu holat faqat Turkiyada emas, balki butun dunyoda kuzatilmoqda. Masalan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda universitet diplomi ega bo‘lgan ayollarning 41,5 foizi ishsiz yoki mehnat bozoridan tashqarida qolmoqda, shu darajadagi erkaklarda esa bu ko‘rsatkich 17,2 foizdir.

Public Policy and Democracy Studies Association (PODEM) tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Turkiyadagi ayollarning atigi 21 foizi siyosatga qiziqadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, siyosatga eng ko‘p qiziquvchilar o‘rta yoshlilar, eng kam qiziquvchilar esa ellik yoshdan oshganlardir. Turkiyaning 12 shahridan turli siyosiy qarashlarga ega 2832 nafar ayol ishtirokida o‘tkazilgan “Turkiya ayollar nigohi bilan: Siyosat, Iqtisodiyot va Ijtimoiy masalalar” nomli tadqiqotda ishtirok etgan ayollarning 76 foizi hayotlarida hech qanday siyosiy faoliyatga qatnashmaganliklarini bildirdilar. PODEM tadqiqotida qatnashgan ayollarning 59 foizi Turkiyaning eng katta muammosini ishsizlik deb hisoblaydi[13].

Dunyo Iqtisodiy Forumi tomonidan 2020-yilda e’lon qilingan Global Gender Tafovuti Hisobotida ayrim mamlakatlardagi gender tengsizlik darajasi ko‘rsatilgan. Ushbu indeks ayollarning iqtisodiyotdagi ishtiroki,

[12] Korkmaz. A., Korkut. A, Türkiye'de Kadın İşgücüne Katılımımın Belirleyicileri, Süleyman Demirel Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi, Istanbul-2012, B- 41-65.

[13] https://www.borusan.com/Assets/Media/Images/Press/PressGallery/Toplumsal-Cinsiyet-Esitligi

imkoniyat tengligi, ta’lim olish imkoniyati va siyosiy faollik kabi mezonlar asosida baholanadi. Indeksda baholash 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda amalga oshiriladi, bunda 1 to‘liq tenglikni anglatadi. Turkiya bu indeksda 153 mamlakat orasida 130-o‘rinda qayd etilgan[14]. Mazkur hisobotda Turkiya quyidagi ko‘rsatkichlarga ega:

Iqtisodiyot va imkoniyat tengligi bo‘yicha — 136-o‘rin
Mehnat bozoriga ishtirokda — 135-o‘rin
Teng mehnatga teng haq olishda — 106-o‘rin
Ta’lim imkoniyatlarida — 113-o‘rin
Sog‘liqni saqlashda — 64-o‘rin
Siyosiy faoliyatda vakillikda — 109-o‘rin

Global Gender Tafovuti Hisobotida mehnat bozorida ishtirokda 135-o‘rinda qayd etilgan Turkiyada ayollar bandligi darajasining pastligi ma’lum haqiqatdir[15]. Ayollar mehnat bozoriga qo‘shilgan taqdirda ham gender rollari sababli sabrli, itoatkor, e’tibor talab qiladigan kasblarda ko‘proq ishlashga majbur bo‘lgan. Asosan, qo‘l mehnati yoki ayollarga xos deb hisoblanadigan sohalarda band bo‘lishgan. Ayollarga uchun yaratilgan ijtimoiy dasturlarga kelsak, Turkiya 1985 yilda imzolagan “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konventsiya”ni rasman qabul qildi va 1986 yilda Turkiya Buyuk Millat Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilindi. Turkiyada 1990-1994 yillarga mo‘ljallangan 6-Besh yillik rivojlanish rejasi ayollar bandligini oshirishni o‘z ichiga olgan. Turkiyada 2002 yilda kuchga kirgan Yangi Fuqarolik Kodeksida oila instituti kontekstida tenglikni ta’minlashga qaratilgan qoidalar mavjud. 2007 yildan buyon Turkiya universitetlarida jinsiy zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘limlari (CTS) tashkil etilgan. Birinchi urinish 2007 yilda Sabanji universitetida "Jinsiy zo‘ravonlikka qarshi ehtiyot choralari va tamoyillari hujjati"ning nashr etilishi va bu sohada ish olib borish uchun Jinsiy zo‘ravonlikka qarshi qo‘mita tashkil etilishi edi. 2011-yilda Anqara universitetida va 2012-yilda Bog‘ozichi universitetida tashkil etilgan bo‘limlar davlat universitetlaridagi ilk tashabbuslardir.

2013-2016 yillar oralig‘ida Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) “Ayollar uchun ko‘proq va yaxshiroq ish o‘rinlari Turkiyada ayollarni munosib mehnat bilan ta’minlash” loyihasini amalga oshirdi, bu loyihaning maqsadi ayollar bandligini oshirish va ayollarga ish hayotida yaxshi sharoit yaratishdan iboratdir[16].

Zamonaviy Turkiyada ayollarni bandligini oshirish maqsadida qonunchilik va ijtimoiy siyosatlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, ayollar

[14] Berber, M. Eser. B. Y, Türkiye'de Kadın İstihdamı: Ülke ve Bölge Seviyeinde Sektörel Analiz, ISGUC The Journal of Industrial Relations and Human Resources, Anqara-2008, B- 1-16.
[15] Aslantepe, G, “Kadın İstihdamınım Artırılması ve ILO Sözleşmeleri” maqolasi Istanbul- 2012, B- 67.
[16] Geçmişten Günümüze Türkiye'de Kadın Emeği. Ankara: Ankara Üniversitesi Yayınları 2020, B- 159-167.

bandligi hali ham erkaklar bandligidan ancha orqada qolmoqda. Bularning asosiy sabablaridan biri ta’limda yuzaga keladigan gender tengsizlikdir. Ayollar va erkaklar ta’limda bir xil imkoniyatlarga ega emasligi, shuningdek, qishloq va shahar hududlarida yashovchi ayollar orasida ham ta’limdagi imkoniyatlar tengsizligi tufayli bandlik darajasida farqlar mavjudligi kuzatiladi. Xususan, Shimoli-sharqiy Anadolu, Markaziy Anadolu, Janubi-sharqiy Anadolu va Sharqiy Qora dengiz mintaqalarida ayollar ta’lim darajasi ancha past ekanligini siz bilan ko‘rib chiqamiz. Ushbu hududlarda ayollar ta’lim darajasiga mos ravishda bandlik darajasi ham past ekani aniqlangan bo‘lib, har bir ta’lim darajasida erkaklarning ayollarga nisbatan ko‘proq band bo‘lgani diqqatga sazovordir. Turkiyada ayollarning bandligi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhimdir. Shu sababli ayollar bandligiga va bu bandlikning sifatiga alohida e’tibor berish lozim deb qaraladi.

Jinsga ko‘ra tamomlangan ta’lim darajasi keltirilgan 1-jadvalda har bir hududda muayyan ta’lim darajasini tamomlagan erkaklar soni ayollarga qaraganda ko‘proq ekani ko‘rinadi. O‘rta yer dengizi (Akdeniz), Sharqiy Marmara va Egey mintaqalarida boshlang‘ich ta’lim, litsey va unga tenglashtirilgan kasb-hunar maktablari hamda oliy o‘quv yurtlarini tamomlagan ayollar soni boshqa hududlarga qaraganda ko‘proq ekani diqqatga sazovordir. Sharqiy Qora dengiz, Shimoli-sharqiy Anadolu, Markaziy Anadolu va Janubi-sharqiy Anadolu mintaqalarida esa muayyan ta’lim darajasini tamomlagan erkak va ayollar soni boshqa hududlarga nisbatan kamroq ekani kuzatiladi[17]. Turkiyaning eng rivojlangan viloyatlaridan biri bo‘lgan Istanbulda ayollar va erkaklarning tamomlagan ta’lim darajasiga qaralganda, muayyan ta’lim darajasini tamomlagan ayollar va erkaklar soni boshqa hududlarga nisbatan ko‘pdir. TEPAV (Turiya Iqtisodiy siyosiy tadqiotlar vaqfi) hisobotida gender tengsizligi eng kam bo‘lgan viloyatlardan biri sifatida qayd etilgan Istanbulda ham boshlang‘ich va litseyga teng kasb-hunar maktablarini tamomlagan erkaklar soni ayollarga nisbatan farq qiladi. Shunga qaramay, Istanbulda oliy o‘quv yurti yoki fakultetni tamomlagan ayollar soni erkaklardan juda oz farq bilan ko‘proq ekani ko‘rinadi.

[17] https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/tr/UNDP-TR-TURKEY-GENDER-EQUALITY-PERFORMANCE-TR.pdf

	KADIN				ERKEK			
Seviye 1/ Eğitim Durumu	İlköğretim	Ortaokul veya Dengi Meslek Ortaokul	Lise ve Dengi Meslek Okulu	Yüksekokul veya Fakülte	İlköğretim	Ortaokul veya Dengi Meslek Ortaokul	Lise ve Dengi Meslek Okulu	Yüksekokul veya fakülte
Batı Karadeniz	154582	291638	360760	252978	197786	354934	484402	299496
Akdeniz	298954	730265	899369	626632	410022	899692	1119620	703194
Batı Anadolu	203754	510687	752555	644840	245799	614337	903261	720111
Batı Marmara	118955	226046	319633	227398	146090	280814	426923	264689
Doğu Karadeniz	73871	162352	238960	159867	97204	202248	321289	186478
Doğu Marmara	266820	546789	749363	529712	318566	640594	1011046	591292
Ege	325447	673726	936824	735375	433428	843999	1155595	789392
Güneydoğu Anadolu	215957	740787	522151	318064	338832	922617	738148	428108
Kuzeydoğu Anadolu	51343	155089	143484	92300	76093	210888	211273	120521
Orta Anadolu	124281	278294	328981	213191	156177	345539	445858	256461
Ortadoğu Anadolu	95920	308987	279812	165438	140578	383334	398883	231903
İstanbul	410519	1015966	1374783	123027	567901	1261117	1650937	1218706

Sektörler	Tarım	Sanayi	Hizmet	Tarım	Sanayi	Hizmet
	Erkek			Kadın		
Toplam	14,9	29,7	55,4	25,1	15,9	59,0
İstanbul (TR1)	1,2	35,1	63,7	1,2	24,6	74,2
Batı Marmara (TR2)	19,6	31,0	49,4	24,7	19,6	55,7
Ege (TR3)	17,2	30,9	51,8	27,0	17,9	55,1
Doğu Marmara(TR4)	10,6	41,9	47,5	15,9	27,7	56,4
Batı Anadolu (TR5)	8,8	27,9	63,4	13,6	12,0	74,4
Akdeniz (TR6)	16,8	24,5	58,7	25,9	9,0	65,1
Orta Anadolu (TR7)	18,6	29,6	51,8	34,0	9,8	56,2
Batı Karadeniz (TR8)	30,1	22,8	47,1	48,8	9,3	41,9
Doğu Karadeniz (TR9)	34,9	18,8	46,3	62,0	5,6	32,4
Kuzeydoğu Anadolu (TRA)	35,4	14,4	50,2	60,7	2,8	36,5
Ortadoğu Anadolu (TRB)	28,1	21,1	50,8	54,4	6,4	39,2
Güneydoğu Anadolu (TRC)	20,1	25,9	54,0	38,6	9,6	51,8

Ayollarning bandlik darajasini belgilaydigan omillardan biri hududlarning rivojlanish darajasi va mehnat resurslarining tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishidir. Darhaqiqat, 2-jadvalga ko‘ra, 1-daraja hududlarda ayollarning tarmoqlar bo‘yicha bandligi tahlil qilinganda, ayollar eng ko‘p qishloq xo‘jaligi sohasida ishlashi quyidagi hududlarda kuzatiladi: Sharqiy Qora dengiz (62%), G‘arbiy Qora dengiz (48,8%), Shimoli-sharqiy Anadolu (60,7%) va Markaziy-sharqiy Anadolu (54,4%). Bu hududlarda erkaklar esa asosan xizmat ko‘rsatish sohasida band. Ayollarning xizmat ko‘rsatish sohasida eng yuqori bandlik darajasiga ega bo‘lgan dastlabki uchta hudud – Istanbul, G‘arbiy Anadolu va O‘rta Yer dengizi mintaqalaridir. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi bandlik darajasidan

farqli ravishda, ayollarning qishloq xo‘jaligi sohasida eng kam bandligi 1,2% bilan Istanbulda kuzatiladi.

2-jadvaldan ham ko‘rinib turibdiki, rivojlanayotgan hududlarda ayollar asosan qishloq xo‘jaligi sohasida band bo‘lsa, rivojlangan hududlarda esa xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishi tufayli ayollar bu sohada ko‘proq ishga joylashgan. Bundan tashqari, ayollarga nisbatan an’anaviy qarashlardan yiroq bo‘lgan rivojlangan hududlarda ayollarning ta’lim darajasi oshgani ularning ish topish imkoniyatini yanada kuchaytirgan[18]. Shu bois, bu hududlarda ayollar bandligi hududlarning rivojlanish darajasi, ayollarning yuqori ta’lim darajasi va ayollarning ishlashiga ijobiy munosabat kabi omillar sababli boshqa hududlarga nisbatan yuqori ekanini aytish mumkin. Bundan tashqari, jismoniy kuch talab qiladigan va erkaklar ishi deb hisoblangan sanoat sohasida ham ayollarning bandlik darajasi unchalik yuqori emas. Ayolning o‘rnini uyda, farzandlarining yonida deb biluvchi qarash ayollarning qishloq xo‘jaligida

	Ayollar					Erkaklar				
Eğitim Durumu	2009	2010	2011	2012	2013	2009	2010	2011	2012	2013
Okuma yazma bilmeyen	5,0	5,6	6,0	5,7	6,6	25,5	25,6	28,0	26,3	25,9
Okuma yazma bilen fakat bir okul bitirmeyen	8,8	10,6	10,8	10,4	11,4	39,6	43,3	46,8	47,6	49,3
İlkokul	12,1	14,0	15,2	16,5	17,9	61,7	63,8	64,8	65,0	64,4
İlköğretim	9,9	12,1	14,1	13,7	14,2	31,4	37,9	41,9	43,5	46,3
Ortaokul veya dengi meslek okul	15,2	17,2	18,8	20,5	20,8	69,7	71,6	73,4	73,7	71,7
Genel Lise	21,6	22,1	23,0	24,0	25,0	56,4	57,5	61,4	61,1	62,3
Lise dengi meslek okul	28,1	29,9	30,4	30,3	30,8	69,8	72,0	73,6	74,1	74,5
Yüksekokul veya fakülte	59,4	59,9	60,7	60,9	61,9	76,6	76,9	78,6	79,0	79,9

Kaynak: TÜİK İşgücü İstatistikleri Veri Tabanı, 2018a.

oilaviy bepul ishchi sifatida band bo‘lishini odatiy hol deb qabul qilgan va ularning boshqa sohalarda ishlashiga unchalik iliq munosabatda bo‘lmagan. Vaqt o‘tishi bilan bu tendensiya kamayib, ayollar tobora ko‘proq xizmat ko‘rsatish sohasida ishlay boshlagani kuzatilmoqda.

Ta’lim darajasi va jinsga ko‘ra qishloq joylardagi bandlik darajasi berilgan 3-jadvalda ayollarning har bir ta’lim darajasida erkaklarga nisbatan kamroq band bo‘lgani ko‘rinadi. Biroq jadvalda o‘qish-yozishni bilmaydigan ayollar va erkaklarning ham band bo‘lgani e’tiborni tortadi, ammo bu holatda ham har yili erkaklarning bandlik darajasi ayollarnikiga qaraganda yuqori bo‘lib kelgan. Kasb-hunar bilim yurti darajasida ta’lim

[18] "Türkiye'de Toplumsal Cinsiyet Eşitsizliğine Dair Mevcut Durum Algısı"- Current Situation Perception of Gender Inequality in Turkey. Aslıhan Damla ÖZVEREN Istanbul-2023, B-23-35.

olgan ayollar va erkaklarning qishloq hududlardagi bandlik darajasi tahlil qilinganda, ayollarda bu ko‘rsatkich 2009 yilda 35% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2013 yilda 34,5% ga pasaygan. Erkaklarda esa bu ko‘rsatkich 2009 yilda 74,7% bo‘lgan bo‘lsa, 2013 yilda 78% ga ko‘tarilgan. 2013 yilda qishloq hududida band bo‘lgan ayollarning 55,6% i oliy ta’lim yoki universitet bitiruvchisi bo‘lgan bo‘lsa, erkaklarda bu ko‘rsatkich 79% ni tashkil qilgan[19]. So‘nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda ayollarning mehnat bozoriga qatnashish darajasida ma’lum darajada oshish tendensiyasi kuzatilayotgan bo‘lsa, Turkiyada bu ko‘rsatkichning pasayishi diqqatga sazovordir. Bu tendensiyaning asosiy sabablaridan biri majburiy ta’lim muddati uzaygani bo‘lsa, ikkinchi sabab qishloqdan shaharga ko‘chishlarning ko‘payishi va buning natijasida mehnat resurslarining qishloq xo‘jaligidan boshqa sohalarga yo‘nalgani bilan izohlanadi. Darhaqiqat, qishloq hududlarda qishloq xo‘jaligi sohasida oilaviy bepul ishchi sifatida faoliyat yuritgan ayollar, yetarli darajada ta’lim olmagani bois shaharlarda ish topa olmay, mehnat bozoriga tezda kirib kela olmaydi. Bu holat mehnat bozoriga qatnashish ayollarning iqtisodiy mustaqilligini va mamlakatning rivojlanish darajasini salbiy ta’sir ostida qoldirmoqda. 2013 yil ma’lumotlariga ko‘ra, o‘qish-yozishni bilmaydigan ayollarning shaharda bandlik darajasi atigi 6,6% bo‘lib, bu juda past ko‘rsatkichdir. O‘sha yili ayni ta’lim darajasiga ega erkaklarning bandlik darajasi esa 25,9% ni tashkil qilgan[20]. Umumiy o‘rta ta’lim darajasiga kelganda, ayollarning bandlik darajasi 25% ni, erkaklarniki esa 62,3% ni tashkil etgan. 2013 yilda oliy ta’lim yoki universitet bitiruvchisi bo‘lgan ayollarning bandlik darajasi 61,9% bo‘lsa, erkaklarniki 79,9% ga yetgan[21]. Shaharlarda ayollarning ta’lim darajasiga bog‘liq holda bandlik darajasi yil sayin oshib bormoqda. Biroq shunga qaramay, bir xil ta’lim darajasiga ega bo‘lgan ayollar va erkaklar orasida erkaklarning bandlik darajasi ayollarnikiga nisbatan yuqoriroq bo‘lib qolmoqda.

Turkiyadagi gender tenglik masalasida shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatda ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda to‘liq ishtirokini ta’minlash yo‘lida muayyan islohotlar va ijtimoiy siyosatlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hali ham sezilarli muammolar mavjud. Ayollarga yuklatilgan an’anaviy ijtimoiy rollar, bandlikda duch kelinayotgan to‘siqlar va iqtisodiy mustaqillikka erishishdagi qiyinchiliklar bu tengsizlikni yanada kuchaytirmoqda.

[19] TOPLUMSAL CİNSİYET BAĞLAMINDA TÜRKİYE'DE EĞİTİM VE KADIN İSTİHDAMINA YANSIMALARI makalesi Saniye Küçük Aksu, Anqara-2023, B- 78-82.
[20] https://turkiye.unfpa.org/tr/topics/toplumsal-cinsiyet-esitligi
[21] https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/1954922

Ayollarning mehnat bozorida ishtirokini oshirish, siyosiy vakillikni kengaytirish va ta’limda imkoniyatlar tengligini ta’minlash gender tenglikka erishish uchun muhim omillardir. Xususan, davlat siyosatlarida ayollarning holatini yaxshilash uchun yanada samarali choralar ko‘rilishi va bolalarni parvarishlash kabi masalalarda qo‘shimcha yordam mexanizmlari joriy etilishi lozim. Umuman olganda, gender tenglikni ta’minlash Turkiyaning demokratik taraqqiyoti va iqtisodiy barqarorligi uchun muhim hisoblanadi. Bu boradagi islohotlarning yanada kuchaytirilishi ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga katta hissa qo‘shadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Erdoğan, R. Yılmaz, Z. Şimşek. Türkiye’de Kadın İşgücünün Bölgesel Analizi, Akademik Sosyal Araştırmalar Dergisi (Asos Journal), Anqara-2016, B- 236.
2. Korkmaz. A, Korkut. A, Türkiye’de Kadın İşgücüne Katılımımın Belirleyicileri, Süleyman Demirel Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Fakültesi Dergisi, Istanbul-2012, B- 140.
3. Berber, M. Eser. B. Y, Türkiye’de Kadın İstihdamı: Ülke ve Bölge Seviyeinde Sektörel Analiz, ISGUC The Journal of Industrial Relations and Human Resources, Anqara-2008, B- 80.
4. Geçmişten Günümüze Türkiye’de Kadın Emeği. Ankara: Ankara Üniversitesi Yayınları 2020, B- 188.
5. Aslantepe, G, “Kadın İstihdamınım Artırılması ve ILO Sözleşmeleri” maqolasi Istanbul- 2012, B- 100.
6. "Türkiye’de Toplumsal Cinsiyet Eşitsizliğine Dair Mevcut Durum Algısı"- Current Situation Perception of Gender Inequality in Turkey. Aslıhan Damla ÖZVEREN Istanbul-2023, B-120.
7. TOPLUMSAL CİNSİYET BAĞLAMINDA TÜRKİYE’DE EĞİTİM VE KADIN İSTİHDAMINA YANSIMALARI makalesi Saniye Küçük Aksu, Anqara- 2023 B-230.
8. Kunt Tulpar, "Türkiye’de Kadınların İstihdam Oranı Erkeklerin Yarısında" jurnali Anqara-2019, B- 54.
9. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/tr/UNDP-TR-TURKEY-GENDER-EQUALITY-PERFORMANCE-TR.pdf
10. https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/1954922
11. https://turkiye.unfpa.org/tr/topics/toplumsal-cinsiyet-esitligi
12. https://www.borusan.com/Assets/Media/Images/Press/PressGallery/Toplumsal-Cinsiyet-Esitligi

CHUST TUMANIDA QISHLOQ XO‘JALIGIGI MAHSULOTLARINI SAQLASH BILAN BOG‘LIQ XALQ TAJRIBASI

Odina Komiljonova Ermuhammad qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)”
yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD B.Zokirov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xalq iste’moli uchun yaroqli holatda saqlash usullari ochib berilgan. Shuningdek qadimdan qanday usullardan foydalanilganligi va hozirgi kunda xalq orasida qanday an’anaviy usullardan foydalanishlari haqida Namangan viloyati Chust Tumani Olmos shaharchasida olib borilgan so‘rov natijalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *dukkakli, loviya, yasmiq, mosh, no‘xat, kartoshka, anor, uzum, turshak, qoqi, mayiz, guruch.*

Hozirgi kunda butun jahonda aholi soni tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Aholi soni ko‘paygani sayin oziq-ovqatga bo‘lgan talab ham ortadi. Bu esa yetishtirilgan hosilni uzoq vaqt saqlash va doimiy yetkazish tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Bundan tashqari global iqlim o‘zgarishi tufayli hosilning bir xil hajmda yetishtirilishi qiyinlashmoqda. Shu sababli hosil mo‘l bo‘lgan paytlarda uni saqlash va keyinchalik foydalanish muhim ahamiyatga ega. Oziq-ovqat isrofi oldini olish ham muhim masala hisoblanadi. Agar hosil noto‘g‘ri saqlansa, u isrof bo‘lib, bu oziq ovqat yetishmovchiligiga sabab bo‘ladi. Endilikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tabiiy ravishda saqlab, ularning foydali xususiyatlarini yo‘qotmasdan saqlash aholi sog‘lig‘i uchun muhimdir. O‘zbekiston Respublikasida bu borada 2022-yil 17-oktyabrda PQ-387-sonli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida qaror qabul qilinib, unda ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash, mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni moddiy resurslr bilan ta’minlash masalalari ko‘zda tutilgan[22].

Markaziy Osiyo iqlimi jihatidan to‘liq mo‘tadil va subtropik mintaqalarga to‘g‘ri keladi va shu sabab to‘rt fasl o‘z o‘rnida to‘liq namoyon bo‘ladi. Bahor, yoz va kuz oylarida havo harorati mahsulot yetishtirish

[22] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-oktyabrdagi PQ-387-sonli qarori

uchun qulay bo‘ladi va qish fasli ancha sovuq bo‘lganligi tufayli yetishtirilgan mahsulotlarni qish uchun saqlashga to‘g‘ri keladi. Qadimdan dono xalqimiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash uchun turli usullar o‘ylab topishgan. Masalan, dukkakli mahsulotlar(no‘xat, loviya, yasmiq, mosh va boshqalar)ni xum, yog‘och qutilar ichiga solinib yopiq xonalar yoki yerosti omborlarida saqlangan, yopiq xonalar va yerosti omborlari dukkaklilarni namlik va hashorotlardan himoya qilgan. Shuningdek kul bilan saqlash usuli ham bo‘lgan, ba’zi hududlarda dukkakli mahsulotlarni o‘tin yoki g‘o‘za kuli bilan aralashtirib saqlashgan. Kul namlikni o‘ziga singdirib, hashorotlarning ko‘payishini oldini olgan. Bundan tashqari dukkaklilar tuz yoki rayhon, shuvoq, piyoz po‘chog‘i bilan aralashtirib saqlangan, bu usul zararkunandalarga qarshi tabiiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Xalq orasida ko‘p istemol qilinadigan kartoshkaning ham turli qishga saqlash usullari mavjud. Qadimda kartoshkani yerto‘la va zaxda quruq qum yoki somon bilan qoplangan holda ustma-ust terib saqlangan va namlik ortib ketmasligi uchun yerto‘la yaxshi shamollatilgan. Yana kartoshkani quruq qum yoki yog‘och kuli orasiga joylangan, bu esa ularning chirib ketishini oldini olgan. Ho‘l mevalar asosan quritilga turshak, mayiz va qoqi shaklda saqlanga. Olma va nok sirka yoki asal suvida saqlangan, anor va limon sho‘r suvga yoki sirka aralashtirilgan idishlarda saqlangan. Ba’zan mevalar asal yoki sharbatga botirib, sirlangan idishlarda saqlangan.

Hozirgi kunda ham yuqoridagi an’anaviy va xalqona usullardan xalqimiz orasida foydalanib kelishmoqda. Bu mavzuda Namangan viloyati Chust tumani Olmos shaharchasi aholisi bilan suhbatlar olib bordik va ular biz bilan o‘zlari foydalanadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash usullarini o‘rtoqlashdilar. Chust tumanidagi Olmos shaharchasi qadimdan dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan va hozirgi kunda ham shu vaqtgacha to‘plagan dehqonchilikka oid tajribalari bilan an’anaviy tarzda davom etmoqdalar. Birinchi bo‘lib shu hududda yashovchi Bo‘riyev Husniddin aka xonodonlarida bo‘ldik. Ular ko‘p miqdorda dukkakli (loviya, mosh) mahsulotlar yetishtirib, qishda o‘zlari saqlar ekanlar. Dukkaklilarni qorong‘u omborxonada quruq taxta ustiga katta hajmdagi yelim paket yoyib, ustiga qoplangan holatda taxlanar ekan va ustidan havo kirmaydigan qilib yelim paket bilan yopishar ekan. Bundan tashqari ho‘l mevalardan uzum va anorlarni quyosh nuri tushmaydigan yerto‘la yoki omborning yuqori qismiga ipga tizgan holatda saqlab, qish kunlarida xalqimizni tabiiy ho‘l mevalar bilan ta’minlashadi[23].

Keyingi suhbatlashgan insonimiz Egamberdiyev Arofatali aka, ular katta miqdorda sholi yetishtirib xalqimizni guruch bilan ta’minlar ekanlar. Hozirgi kunda guruchni an’anaviy usulda tabiiy yo‘l bilan saqlayotganlar

[23] Dala materiallari. Bo‘riyev Husniddin 20.03.2025

sanoqli. Surishturuvimizga qaraganda ko‘pchilik hozirda guruchni ichiga zararkunandalardan saqlash uchun kimyoviy vositalar qo‘shib saqlar ekan. Arofatali aka esa tabiiy usulda guruchni sholi holida ya’ni qobig‘i bilan quruq omborda saqlar ekanlar. o‘zlari aytishlaricha shu holatda guruchni 10 yildan ko‘p vaqt davomida saqlash mumkin ekan[24].

Xulosa qiladigan bo‘lsak an’anaviy saqlash usullari bugungi kunda ham qishloq xo‘jaligi va ekologik oziq-ovqat tizimlarini rivojlantirish uchun foydali bo‘lishi mumkin. Xususan, kimyoviy qo‘shimchalarsiz oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash bo‘yicha an’anaviy tajribalar ekologik toza va sog‘lom turmush tarziga mos keladi.

YANGIQO‘RG‘ON TUMANIDA ASALARICHILIK: AN’ANALAR VA ZAMONAVIYLIK QO‘SHILGAN SHIFOBAXSH MEROS

Anvarjonov Salohiddin
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD B.Zokirov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumanining Bekobod qishlog‘ida asalarichilikning tarixi va rivojlanishi haqida so‘z yuritiladi. Maqola qishloqda tug‘ilib o‘sgan muallif tomonidan yozilgan bo‘lib, asalarichilik bilan shug‘ullanib kelayotgan tajribali mutaxassis Rizzayev Odiljon bilan suhbat asosida tayyorlangan. Bekobod qishlog‘idagi asalarichilikning paydo bo‘lishi, rivojlanish bosqichlari, zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi va ushbu sohaning kelajakdagi istiqbollari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *asalarichilik, Bekobod qishlog‘i, asal yetishtirish, Rizzayev Odiljon, an’anaviy asalarichilik, zamonaviy texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi.*

Abstract: *This article discusses the history and development of beekeeping in the village of Bekabad, Yangikurgan district, Namangan region. The article was written by the author, who was born and raised in the village, and was prepared based on an interview with Rizzayev Odiljon, an experienced beekeeper. The emergence of beekeeping in the village of Bekabad, stages of development, the use of modern technologies and future prospects of this industry are covered.*

[24] Dala materiallari. Egamberdiyev Arofatali 20.03.2025

Keywords: *beekeeping, Bekabad village, honey production, Rizzayev Odiljon, traditional beekeeping, modern technologies, agriculture.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается история и развитие пчеловодства в селе Бекабад Янгикурганского района Наманганской области. Статья написана автором, родившимся и выросшим в селе, и подготовлена на основе интервью с опытным пчеловодом Риззаевым Одилжоном. Освещены возникновение пчеловодства в селе Бекабад, этапы развития, использование современных технологий и дальнейшие перспективы этой отрасли.*

Ключевые слова*: пчеловодство, село Бекабад, производство меда, Риззаев Одилжон, традиционное пчеловодство, современные технологии, сельское хозяйство.*

Kirish. Asalarichilik insoniyat tarixida qadimdan muhim sohalardan biri bo‘lib kelgan. Asalning shifobaxshligi va asalari mahsulotlarining qishloq xo‘jaligidagi o‘rni sababli bu kasb hozirga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda asalarichilikka qiziqish ortib bu sohaga katta e’tibor qaratilyapti. *“Respublikada asalarichilik tarmog‘ini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida rivojlantirish, asalarichilik faoliyatini samarali tashkil etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishda ularni asalari bilan changlatish amaliyotini keng joriy etish”* to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi qarori ham qabul qilindi. [25]Sohani rivojlantirish BMTning O‘zbekistonda amalga oshirishga harakat qilayotgan “O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlari” loyihasining ikkinchi qismida ham ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktyabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3327-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2017-yil 18-oktyabrdagi 03/1-2605-sonli topshirig‘iga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017-yil 20-oktyabrdagi 779-sonli buyrug‘iga asosan 2018/2019 o‘quv yilidan boshlab asalarichilik tarmog‘ uchun oliy malakali kadrlar tayyorlash mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabi, o‘quv reja, o‘quv dasturi va o‘quv adabiyotlarini tayyorlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.[26]

[25] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.06.2023 yildagi 239-sonli *“*Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatish*”*ga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori.

[26] O.A.Maxmadiyarov “Asalarichilik” “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022.Toshkent..

O‘zbekistonning turli hududlarida asalarichilik bilan shug‘ullanadigan tajribali insonlar mavjud bo‘lib, ular orasida Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumanidagi Bekobod qishlog‘i aholisi ham alohida o‘rin tutadi. Ushbu maqolada men tug‘ilib-o‘sgan qishlog‘imda asalarichilikning qanday rivojlanib kelgani, bu soha qanday muammolarga duch kelgani va bugungi kundagi holati haqida tajribali asalarichi Rizzayev Odiljon aka bilan olib borgan suhbatim asosida so‘z yuritaman.

Asalarichilikning Bekobod qishlog‘idagi ilk qadamlari Bekobod qishlog‘ida asalarichilikning tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Qishloqning tabiat sharoiti – unumdor tuproq, mo‘tadil iqlim va boy flora – asalari yetishtirish uchun qulay sharoit yaratgan. Rizzayev Odiljon akaning so‘zlariga ko‘ra, asalarichilik bu hududda XX asrning o‘rtalarida jadal rivojlana boshlagan.

“Mening bobom ham asalarichi bo‘lgan," deydi Rizzayev Odiljon. "U paytlarda asalarichilik deyarli faqatgina oilaviy darajada olib borilgan. Bobomning bir necha uyasi bo‘lgan va u faqat o‘z oilasi uchun asal tayyorlagan. Ammo keyinchalik odamlar asalning foydali tomonlarini tushuna boshlashdi va bu soha kattaroq miqyosda rivoj topdi.”[27]

O‘tgan asrning 70-80-yillarida qishloqda asalarichilikka qiziqish yanada ortib, yangi usullar qo‘llanila boshlandi. O‘sha davrlarda asalarichilik bilan shug‘ullanadiganlarning aksariyati yog‘ochdan yasalgan an’anaviy uyalarni ishlatishgan.

Asalarichilikning rivojlanishi va zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi. Mustaqillikdan keyin qishloq xo‘jaligi sohasida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Shu jumladan, Bekobod qishlog‘ida ham asalarichilikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi. 2000-yillardan boshlab, qishloq aholisi orasida asalarichilikni biznes sifatida yo‘lga qo‘yishga harakat qilganlar ko‘paydi. Rizzayev Odiljonning aytishicha, hozirgi kunda Bekobod qishlog‘idagi asalarichilar zamonaviy usullarni keng qo‘llamoqda:*”Hozirgi asalarichilar avvalgidek faqat an’anaviy usullarga tayanib qolishmaydi. Biz zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanamiz. Masalan, maxsus asal ekstraktorlar, sun’iy uyalar va yangi asalarichilik uskunalari asal hosildorligini sezilarli darajada oshirdi*[28]*.”*

Shuningdek, qishloq asalarichilari ko‘chma asalarichilik usulini ham joriy qilishgan. Bu usul asalari oilalarini yilning turli fasllarida gullaydigan joylarga ko‘chirish imkonini beradi. Masalan, bahorda ularni tog‘ etaklariga olib borib, yozda esa vodiy bo‘ylab gullaydigan maydonlarga joylashtirishadi. Bu esa hosildorlikni oshirishga yordam beradi.

[27] Dala materiallari-1 Rizzayev Odiljon nutqidan 22.03.2025.
[28] Dala materiallari-2 Rizzayev Odiljon nutqidan 22.03.2025.

Rizzayev Odiljonning so‘zlariga ko‘ra, oxirgi yillarda iqlim o‘zgarishlari, kasalliklarning ko‘payishi va qishloq xo‘jaligi yerlari kengayishi natijasida asalari populyatsiyasiga xavf tug‘ilmoqda. *“Oxirgi yillarda ba’zi asalari oilalarining nobud bo‘lishi kuzatilmoqda. Bunga bir necha sabab bor, bular quyidagilardir: ob-havoning o‘zgarishi, kimyoviy o‘g‘itlarning ko‘payishi va asalari kasalliklari. Ayniqsa, varroatoz (asalari parazitlari) asalarilarga katta zarar yetkazmoqda,”*[29] deydi u. Kelajakda Bekobod qishlog‘idagi asalarichilar xalqaro tajribadan foydalanib, ekologik toza usullarni keng joriy qilishni rejalashtirishmoqda. Shuningdek, asalarichilik mahsulotlarini xorij bozorlariga eksport qilish imkoniyatlari ham o‘rganilmoqda.

Xulosa. Bekobod qishlog‘ida asalarichilik uzoq tarixga ega bo‘lib, bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida yanada rivojlanib bormoqda. Rizzayev Odiljon kabi tajribali asalarichilar bu sohani yanada yuksaltirish uchun yangi usullarni sinab ko‘rishmoqda. Biroq, iqlim o‘zgarishlari va turli kasalliklar tufayli muammolar ham yuzaga kelmoqda. Shunday bo‘lsa-da, Bekobod asalarichilari kelajakka umid bilan qarab, o‘z sohalarini rivojlantirishda davom etishmoqda.

Bekobod qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan inson sifatida men ushbu maqola orqali asalarichilikning qishlog‘imizdagi ahamiyatini yoritishga harakat qildim. Rizzayev Odiljon aka bilan olib borgan suhbatim natijasida bu sohaning qiyinchiliklari va istiqbollari haqida ko‘proq bilib oldim. Kelajakda asalarichilik yanada rivojlanib, nafaqat qishloq, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga o‘z hissasini qo‘shishiga ishonaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.06.2023 yildagi 239-sonli *“*Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatish*”*ga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktyabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3327-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2017-yil 18-oktyabrdagi 03/1-2605-sonli topshirig‘iga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017-yil 20-oktyabrdagi 779-sonli buyrug‘i
4. BMTning O‘zbekistonda amalga oshirishga harakat qilayotgan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” loyihasi.
5. Dala materiallari 22.03.2025.
6. O.A.Maxmadiyarov “Asalarichilik” “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022.Toshkent 156 bet.

[29] Dala materiallari-3 Rizzayev Odiljon nutqidan 22.03.2025.

II SHO‘BA
SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI VA SIYOSIY JARAYONLARI.

ENG QADIMGI SAVDO YO‘LLARINING VUJUDGA KELISHI VA ULARNING RIVOJLANISHI.

Islamova Qunduz
Chirchiq davlat pedagogika unvarsiteti
“Tarix” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sharqda vujudga kelgan ilk svilizatsiyalar, ularning iqtisodiy hayoti va ayniqsa savdo yo‘llarining paydo bo‘lish tarixi yoritilib beradi. O‘zaro diplomatik aloqalarda savdo munosabatlari va savdo yo‘llarining ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan. Markazlashgan davlatlarning savdo-sotiqni rivojlantirish uchun olib borgan ishlari haqida ham so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Qadimgi Sharq, Ahamoniylar imperiyasi, Mesopatamiya shahar-davlatlari, Shoh yo‘li, la’l yo‘li, Badaxshon loyjuvardi.*

Abstract: *In these articles, the first civilizations, economic life, and especially trade routes can be found in the East. Information on the importance of trade and road is given in communications about mutual trade. There is also talk about the activities of the centralized countries for the development of trade.*

Keywords: *The Ancient East, the Achaemenid Empire, the city-states of Mesopotamia, the King's Road, the La'al Road, Badakhshan are muddy.*

Абстрактный: *В этих статьях можно найти первые цивилизации, экономическую жизнь и особенно торговые пути на Востоке. Информация о значении торговли и дорог дается в сообщениях о взаимной торговле. Также идут разговоры о деятельности централизованных стран по развитию торговли.*

Ключевые слова: *Древний Восток, Империя Ахеменидов, города-государства Месопотамии, Царская дорога, Дорога Лаала, Бадахшан - мутны.*

Insoniyat davlatchilik tizimi vujudga kelib, rivojlangani sayin o‘zaro boshqa jamiyatlar bilan munosabatlar ham yuqori bosqichlarga chiqa boshladi. Chunki o‘zaro munosabatlarsiz, davlat va jamiyat qurish mumkin emas. O‘zga bir davlatlar bilan o‘zaro siyosiy, diniy, iqtisodiy va madaniy aloqalar jamiyatlarning yuqori bosqichga olib chiqilishini ta’minlaydi. Siyosiy munosabatlar davlatlarning bevosita boshqaruv tizimi doirasida amalga oshirilsa, iqtisodiy hamkorliklarda e’tiborli jihatlaridan biri bu

albatta oddiy xalqning ham ishtirokidir. Ya’ni, savdo sohasida faoliyat yurituvchi insonlar uzoq-yaqin mamlakatlarga savdo munosabatlarini o‘rnatish uchun safarlarga chiqishi, u yerdan o‘ziga kerakli tovarlar olib kelish va o‘z tovarlarini olib borib sotishi xavfsiz savdo yo‘llarini talab qilgan.

Tabiiyki, savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlash hukumat qo‘lida bo‘lib, savdo ahli bu borada davlatga qaysidir ma’noda qaram bo‘lishgan. Davlat hukmdorlari ham savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor berishgan. Chunki savdo-sotiq davlat xazinasiga anchagina foyda olib kelgan. Oddiy misol boj to‘lovlari, turli xil savdogarlardan undiriladigan yig‘imlar shular jumlasidandir. Qadimgi yirik imperiyalar o‘z qudrat cho‘qqisiga chiqqan mahal albatta biror xavfsiz va foydali savdo yo‘lini barpo etishga alohida e’tibor berishgan. Bu yo‘llar ko‘pincha qatnash uchun qulay, ko‘plab yirik shaharlarni birlashtirgan, tabiiy boyliklar bisyor o‘lkalar hududlari bo‘ylab o‘tkazilgan.

Ko‘pincha savdo yo‘llari poytaxt shaharlarga kelib taqalgan. Ya’ni, poytaxt Shahar o‘zaro savdo yo‘llari uchrashadigan manzil bo‘lib xizmat qilgan. Savdo yo‘llarining boshlanishi esa biror yirik boy hududga to‘g‘ri keladi. Birgina asosiy yo‘l mavjud bo‘lsada, lekin qo‘shimcha kichik savdo yo‘llari shakllanib, asosiy yo‘lga olib borgan. Qadimgi dunyoning ilk yirik imperiyalaridan biri bo‘lmish Ahamoniylar davlati ham savdo munosabatlariga katta e’tibor berganlar. Ular asosan bosib olgan hududlarini o‘z poytaxtlari bo‘lmish Suza shahriga bog‘lab savdo yo‘llarini paydo qilishgan. Shaharsozlik madaniyati rivojlangani sayin hunarmandchilik, zargarlik, tikuvchilik, binokorlik ham yuksak darajada rivoj topib, shaharlar o‘sishiga katta hissa qo‘shishgan. Shu jumladan konchilikning ham rivoji savdo va aloqa yo‘llarining yuksalishiga sabab bo‘lgan. Chunki qazib olinadigan madanni qayta ishlash yoki sotish uchun albatta xavfsiz va ravon yo‘llar zarur bo‘lgan. Ko‘pgina manbalarda O‘rta Osiyo hududida azaldan oltin, kumush, la’l, Feruza kabi ma’danlar qazib olingan va mis va temirni eritish va qayta ishlov berishda yaxshi natijalarga erishilganligi qayd etiladi. Tabiiyki, hunarmandchilik rivojlangan joyda albatta savdo yo‘llari ham vujudga keladi.

Ayniqsa O‘rta Osiyoning Qadimgi Sharq bilan olib borgan savdo-sotiq ishlari to‘g‘risida ham ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. O‘rta Osiyoda qadimgi aloqa-savdo yo‘llarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi bir necha tarixiy bosqichlarni bosib o‘tgan.[30] Hududdagi aloqa yo‘llari juda qadimdan vujudga kelib kengayib borishi, savdo aloqalarining rivojlanishi hech qachon butunlay to‘xtab qolmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Ilk savdo yo‘llarining rivojlanib borishiga migratsiyalar ham qaysidir ma’noda sabab bo‘lgan.

[30] Sagdullayev A.S.. O’zbekiston tarixi. Donishmand ziyosi-2020. 552-bet

Tabiiy sharoiti qulay, xom-ashyoga boy yashash uchun qulay hududlariga tomon muntazam ko‘chib yurishi ilk aloqa yo‘llarining tarmoqlari shakllanishiga turtki bo‘lgan. Qadimgi aholining turmush tarzi va xo‘jaligidagi tafovutlar, xom-ashyo zaxiralarining notekis joylashganligi dastlab o‘zaro qo‘shni qabilalar o‘rtasida mahsulot ayriboshlashni yuzaga keltirgan.[31] Bundan ko‘rinib turibdiki, birinchi o‘zaro savdo aloqalari aniqrog‘i mahsulot ayriboshlash qo‘shni hududlarni o‘z ichiga olib, tabiiy shart-sharoitdan kelib chiqqan. O‘troq turmush tarziga o‘ta boshlagach ayniqsa shaharsozlik madaniyati va ilk urbanizatsiya elementlari taraqqiy etib aholining doimiy mashg‘ulotlari aniqlasha boshlagach, ko‘chmanchi qabilalar va o‘troq aholining savdo aloqalari takomillasha bordi.

Agar dehqonlar o‘zlarida bo‘lmagan yoki yetishmagan chorva mahsulotlari: go‘sht, teri, sut, jun va ayniqsa qo‘shga yoki aravaga qo‘shiladigan chorva turlariga ehtiyoj sezishsa, chorvadorlar ham o‘z navbatida dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlariga ehtiyoj sezishadi.[32] Markaziy Osiyoning tabiiy sharoitidan kelib chiqsa, shimoliy tomonlari chorvachilikka moslashgan bo‘lsa, janubiy qismlari ko‘proq dehqonchilkka to‘g‘ri keladi. Savdo va ayriboshlash munosabatlarining muntazam va tizimli olib borilganligi keying yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasidan ham aniqlashmoqda.

Ilk davlatlarning paydo bo‘lib, shakllanishda diplamatik aloqalar bilan bir qatorda savdo aloqalari ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Markaziy Osiyodan qazib olingan Badxshon lazuretiga bo‘lgan talab oshib Qadimgi Mesopatamiya, Qadimgi Misr kabi davlatlar bilan ham savdo aloqalarining o‘rnatilishiga sabab bo‘ladi. Davlatchilikning mustahkamlanib, rivojlangani sayin ilk sivilizatsiyalar paydo bo‘lib katta hududlarni birlashtirishi savdo aloqalari va savdo yo‘llarining ham takomillashishiga sabab bo‘ldi. Ana shunday imperiyalardan biri Ahamoniylar imperiyasidir. Miloddan avvalgi 558-yili Ahamoniylardan bo‘lgan Kayxusrav II asos solgan imperiya 200 yildan ziyodroq davom etdi. Dastlab hozirgi Eron hududlarini so‘ngra Mesopatamiyani ishg‘ol etgach bizning yurtimizga ham kirib keladilar. Mil. Avv 549-548-yillarda Parfiya va Girkaniya ehtimol, Armanistonni bosib oladilar. Mil. Avv forslar Kichik Osiyoda eng kuchli davlat hisoblangan Lidiya podsholigini bosib oladilar. [33] Qisqa fursat ichida jahon miqiyosida tan olinishiga erishgan Kayxusrav II mislsiz qudratli kuchga aylanadi. G‘olibona yurishlar natijasida harbiy o‘ljalar, minglab qullar, behisob boyliklar oqib kela boshlaydi. Shu davrlar ichida katta qurilish ishlari olib boriladi.

[31] Sagdullayev A.S. O’zbekiston tarixi.Donishmand ziyosi-2020. 553-bet.
[32] Qudratov S.S. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatlarning paydo bo ‘lishi. Guliston-1998. 14-bet.
[33] Rajabov R.. Jahon tarixi. Qadimgi Sharq. Toshkent-2018. 299-bet.

Shaharlar, ko‘priklar, harbiy qal’alar, sug‘orish inshootlarini barpo etishda qullar mehnatidan keng foydalaniladi.

Markazlashgan davlat vujudga kelgach savdo va aloqa yo‘llarini ham egallaydi. Mavjudlari takomillashib, yangi yo‘llarga asos solina boshlanadi. O‘z kuch-qudratiga ishongan Kayxusrav II Mil. Avv 530-yilda ko‘chmanchi chorvador qabilalar hisoblangan qabilalar sak va massagetlarga hujum qilish uchun yo‘lga tushadi. Bu yurish Kiaksarning II mag‘lubiyari bilan yakunlanib, uning o‘limiga ham sabab bo‘ladi. Ahamoniylar imperiyasining eng gullagan davri Doro I (mil.avv 522-486) davriga to‘g‘ri keladi. Mamlakatda viloyatlar o‘rtasida aloqalarni yaxshilash uchun tosh yotqizilgan “shoh yo‘li” qurilgan. Bu yo‘llar Pasargaddan mamlakatning turli burchaklariga tarmoqlanib ketgan edi, yo‘llarda bekatlar, karvonsaroylar, korizlar qurilib, ularni otliq soqchilar qo‘riqlab turgan.[34] Bu sa’y-harakatlarning barchasi davlat boshqaruvini osonlashtirish va markazlashtirishga qaratilgan. Savdo yo‘llari ham shular jumlasiga kiradi.

Bu davrda hunarmandchilik dehqonchilkdan ajralib chiqadi hamda aholi o‘rtasida ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari boshlandi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra bu davrda o‘zaro ayriboshlash va savdo-sotiq ham rivojlanib boradi. Misol uchun, Osiyodan qo‘rg‘oshin, kumush va hatto lojuvard keltiriladi. Topilmalar orasida Mesopatamiya muhrlari ham uchraydi.[35] Qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar tashqi savdo munosabatlarida muhim rol o‘ynagani va asosiy mahsulotlardan biri hisoblanganligidan qadimgi savdo yo‘llariga shu toshlarning nomlarini berishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Zero qadimdan qimmatbaho toshlar hukmronlikning bir ramzlaridan bo‘lib, shohlarning boyliklarini baholashda muhim o‘rin tutgan. Bizga ma’lum bo‘lgan eng qadimgi savdo yo‘llari xususida ma’lumotlar bilan batafsil va yaqindan tanishsak.

Eng qadimgi savdo yo‘llarida biri bo‘lmish la’l yo‘li ko‘plab sivilizatsiyalarni o‘zida birlashtirganligi bilan e’tiborni tortadi. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy lojuvard toshiga ta’rif berib “Minerologiya” asarida shunday yozadi:”Bu mineral o‘z ko‘rinishi bilan indigoga o‘xshab ketadi, shu bilan birga uning rangi ba’zida qoramtirroq ham bo‘lishi, bu mineral maydalab tuyilganida yorqin rangga kiradi va undan tengi yo‘q bo‘yoq olinadi.” Lojuvard juda qimmatbaho va kamyoq bo‘lib faqat bir nechtagina manzillarda uchrashi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Yevroosiyo hududlarida Pomirdagi Badaxshonda, Baykal bo‘yida va qisman Koreya yarimorolida uchraydi. Geografik jihatdan sharq va g‘arbni bog‘lashga qulay bo‘lgan hudud shubhasiz Badaxshondir. Bu esa uning qiymatini yanada oshishiga, ko‘plab olis yurtlarga olib o‘tilishiga sabab bo‘lgan. Lojuvardning Qadimgi

[34] Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent. Tafakkur-2016. 241-bet.
[35] Eshov B. O’rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi.Toshkent. Fan va texnalogiya-2008. 45-bet.

Sharq dunyosidagi eng mashxur konlari tog‘li Badaxshonda joylashgan bo‘lib, bu kondan olinadigan xom-ashyo mahsulotlariga nafaqat mintaqamizda balki Qadimgi Sharq mamlakatlarida ham ehtiyoj mavjud edi.[36] Mazkur yo‘l mil.avv III-II ming yilliklarga to‘g‘ri kelib u Pomir tog‘laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo hamda Misr orqali o‘tgan. Eng mashhur topilmalardan biri albatta Misr fir’avnlarining maqbaralaridan la’l ma’danining topilishidir. Bu esa o‘sha davrlardanoq o‘zaro tashqi savdo-sotiq munosabatlarining naqadar rivojlanganligini ko‘rsatib beruvchi dalil hisoblanadi. Ushbu ilk tranzit savdo yo‘llaridan biri bo‘lmish la’l yo‘li eng qadimgi sivilizatsiyalar o‘choqlarigacha yetib, bir necha tarmoqlarga bo‘linib faoliyat olib borgan. Badaxshondagi lojuvard konlaridan boshlangan yo‘l Amudaryoning chap qirg‘og‘ida, Ko‘kcha daryosining Amudaryoga quyilish joyidan shimolroqda joylashgan Sho‘rto‘qay makoni orqali o‘tgan. Bu yerda yo‘l tarmoqlanib, bir yo‘nalishi Kobul daryosi vodiysi va Hindikush tog‘ dovonlari orqali Shimoliy Hindistonga olib borgan.[37] Lojuvard yo‘lining aynan Mesopatomiyaga qarab yo‘nalgan ikkinchi tarmog‘i Sho‘rto‘qaydan hamda hozirgi Afg‘oniston Qandahor shahri yaqinidan topilgan qadimiy Mundigak va Eron Seiystonidagi Shahri So‘xta orqali o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin. Undan keyingi yo‘l tarmoqlari Fors qo‘ltig‘idagi qadimgi dehqonchilik manzilgohlari orqali Mesopatamiyaning qadimgi Shahar-davlatlariga o‘tganligiga guvoh bo‘lamiz. Mashhur Ur, Uruk Shahar-davlatlari xarobalaridan topilgan sopol bitiklarda uzoq tog‘li hududdan oltin, kumush, lojuvard olib kelinganligi xususida yozib o‘tilgan. Shu bitiklarning o‘ziyoq insonlar lojuvard yarim nodir toshidan juda qadimdan foydalanib kelganligi, keltirishi nuqtai nazaridan geografik mintaqalardan yaxshi xabardor ekanligi, amalda esa keng va samarali foydalanganligini isbotlaydi. Lojuvarddan turli xildagi taqinchoqlar yasashda, saroy binolarini bezatishda qo‘llab kelishgan. Kichik Osiyoda joylashgan mashhur Troya shahri xarobalaridan Badaxshon lojuvardidan tayyorlangan mahsulotlar topilgani “Lojuvard yo‘li”ning bir yo‘nalishi mil.avv II ming yillikda Amudaryo yuqori oqimidan Eron hududi orqali Kichik Osiyoga ham kirib borganligidan dalolat beradi.[38] Bundan tashqari yana bir mashhur manzil bo‘lgan Kavkazdagi Maykop qo‘rg‘onidan ham lojuvard taqinchoqlarning topilishi mazkur savdo yo‘lining geografiyasi keng ekanligini ko‘rsatib beradi. Lojuvardning qiymati yuksak ekanligi, hukmdorlarning ramz va kuch-qudratlaridan biriga aylanganligini manashu dalillarning o‘ziyoq isbotlab turibdi.

[36] Mavlonov O’. Markaziy Osiyoning qadimgi yo’llari. Toshkent. Akademiya-2008. 35-bet.
[37] Sagdullayev A.S. O’zbekiston tarixi. Donishmand-ziyosi-2020. 555-bet.
[38]O’.Mavlonov. Markaziy Osiyoning qadimgi yo’llari. Toshkent. Akademiya-2008. 58-bet.

Ayniqsa markazlashgan davlat qurilib, yagona hukmdor qo‘lida hokimyat jamlanadiga bo‘lsa, aloqa va savdo yo‘llari birlashtirilib yagona tarmoq hosil qilsa, savdogarlarning xavfsizligi davlat tomonidan nazoratga olinsa savdo yo‘llari rivojlanib, hukmron doiralarga ham katta foyda olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sagdullayev A.S. O‘zbekiston tarixi. Donishmand ziyosi-2020.
2. Qudratov S.S. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi. Guliston-1998.
3. Rajabov R. Jahon tarixi. Qadimgi Sharq. Toshkent-2018.
4. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent. Tafakkur-2016.
5. Eshov B. O’rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Toshkent. Fan va texnalogiya-2008
6. Mavlonov O‘. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari. Toshkent. Akademiya-2008

DAVANNING DAVLATCHILIK TARIXIDA TUTGAN O`RNI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Bo‘riyev Sardorbek
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi talabasi
SardorbekBoriyev24@gmail.com
Ilmiy rahbar: p.f.f.d. (PhD), dots. S.A. Toshtemirova

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysida joylashgan qadimgi Davan davlati boshqaruv tizimi, harbiy salohiyati, savdo-sotiq aloqalari va Xitoy bilan olib borgan diplomatik munosabatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Maqolada Davan davlatining siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti, uning O‘rta Osiyo tarixidagi o‘rni hamda hududning madaniy va harbiy strategik ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, arxeologik tadqiqotlar asosida Davan davlati bilan bog‘liq yangi ilmiy xulosalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Davan, Farg‘ona vodiysi, Xitoy, boshqaruv tizimi, oqsoqollar kengashi, harbiy yurishlar, savdo aloqalari, diplomatiya, arxeologik topilmalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается система управления древнего государства Давань, его военный потенциал, торговые связи и дипломатические отношения с Китаем на основе исторических источников. В статье освещены политическое и экономическое развитие государства Давань, его роль в истории*

Средней Азии, а также культурное и военное стратегическое значение региона. Кроме того, на основе археологических исследований представлены новые научные выводы, связанные с государством Давань.

Ключевые слова: *Давань, Ферганская долина, Китай, система управления, совет старейшин, военные походы, торговые связи, дипломатия, археологические находки.*

Abstract. *This article examines the governance system of the ancient Davan state, its military potential, trade relations, and diplomatic interactions with China based on historical sources. The paper highlights the political and economic development of the Davan state, its role in Central Asian history, and the cultural and military strategic significance of the region. Additionally, new scientific conclusions related to the Davan state are presented based on archaeological research.*

Key words: *Davan, Fergana Valley, China, governance system, council of elders, military campaigns, trade relations, diplomacy, archaeological findings.*

Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston davlatchiligi shakllanishida muhim o‘rin tutib, uning tarixi juda qadimiy ildizlarga ega. Miloddan avvalgi II-I asrlarda bu hududda dastlabki davlat uyushmalari shakllangan bo‘lsa-da, Farg‘ona vodiysining siyosiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari bundan ancha oldin boshlangan. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysida davlat tashkil topish jarayoni miloddan avvalgi I-ming yillikning o‘rtalarida boshlangan. Bu esa, ushbu hududning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham Markaziy Osiyodagi yirik markazlardan biri sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Farg‘ona davlati eng qadimgi madaniy markazlardan biri bo‘lib, bu yerda miloddan avvalgi II-ming yillikdan boshlab dehqonchilik faol rivojlangan. Qazishmalar natijasida ushbu hududda ekin maydonlari tashkil qilinganligi, sug‘orish tizimlari yo‘lga qo‘yilganligi aniqlangan. Dehqonchilik bilan bir qatorda, chorvachilik ham keng rivoj topgan bo‘lib, mahalliy aholining iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Bundan tashqari, baliqchilik va hunarmandchilikning bir necha tarmoqlari, xususan, metallni qayta ishlash, kulolchilik va to‘qimachilik kabi sohalar sezilarli darajada taraqqiy etgan. Topilgan artefaktlar shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysida yashagan aholi nafaqat oddiy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqargan, balki savdo va madaniy almashinuv orqali qo‘shni hududlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatgan.

Tilshunoslik va tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarixiy asarlarni nashr etishda mahalliy atamalardan foydalanish ilmiy an’analar

talabidir. Ushbu tamoyilga ko‘ra, Farg‘ona vodiysidagi qadimgi davlatning nomi “Daiyuan” (zamonaviy talaffuzda “Davan”, rus manbalarida “Даван”) shaklida qayd etilgan. Bu atama tarixiy adabiyotlarda mustahkam o‘rin egallagan bo‘lib, uning kelib chiqishi va semantik jihatlari haqida turli qarashlar mavjud. Davan toponimi xitoy manbalarida uchraydi va bu nom Farg‘ona vodiysining qadimgi davrdagi atalish shakllaridan biri sifatida tarixiy adabiyotlarga kirib kelgan. Ushbu nomning kelib chiqishi haqida turli fikrlar ilgari surilgan bo‘lsa-da, eng asosli dalillardan biri bu nomning xitoylik tadqiqotchilar tomonidan Farg‘ona vodiysiga nisbatan ishlatilganligidir.

Davan davlati haqida ilk bor xitoylik tadqiqotchilar ma’lumot bergan bo‘lib, bu nom aynan xitoy tarixchilarining qadimiy asarlarida uchraydi. Rus sharqshunosi N.Ya. Bichurin o‘z asarlarida ushbu nomga to‘xtalib, Davan davlatining siyosiy va harbiy ahamiyatini tahlil qilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Davan davlati mustahkam ijtimoiy-siyosiy tuzilishga ega bo‘lib, Xitoy bilan olib borilgan uzoq muddatli harbiy va diplomatik munosabatlar bu davlatning nisbatan kuchli va barqaror ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, Davan davlati tarixini o‘rganish Markaziy Osiyoning ilk davlatchilik jarayonlari va xalqaro munosabatlari haqida qimmatli ma’lumotlar taqdim etadi.

N.Ya. Bichurin asarlarida qayd etilishicha, “Davan” atamasi Farg‘ona vodiysining qadimgi xitoy yilnomalarida uchraydigan nomlaridan biri sifatida tilga olinadi. Biroq, ushbu atamaning kelib chiqishi, uning lingvistik va semantik jihatdan qanday shakllanganligi haqida aniq ma’lumotlar keltirilmagan. Tarixiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xitoy manbalarida qayd etilgan ushbu nom turli davr va tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan. Xususan, rus sharqshunosi N.V. Kuner o‘zining *Janubiy Sibir xalqlari haqidagi Xitoy yangiliklari, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq* asarida ushbu masalani muhokama qilib, Davan nomining xitoy manbalaridagi aks etish shakllari hamda uning Farg‘ona vodiysi bilan bog‘liqligini tahlil qilgan [Bichurin, 1950, 18-46-b.].

XVIII asrga kelib, ushbu atamaning paydo bo‘lishi va kelib chiqishi masalasi Yevropa tadqiqotchilarining ham e’tiborini tortgan. Jumladan, fransuz olimi M. Degin 1756-1758-yillarda olib borgan tadqiqotlarida “Davan” atamasining Farg‘ona vodiysi toponimiyasi bilan bog‘liqligini ta’kidlagan. Xitoy imperiyasi Farg‘ona o‘lkasining tabiiy boyliklari, xususan, mashhur arg‘umoqlari hamda aholisining yuqori darajadagi hunarmandchilik mahorati bilan qiziqish bildirgan. Bu hududning strategik ahamiyati shunchalik yuqori bo‘lganki, miloddan avvalgi 104-yilda va milodiy 180-yillarda Xitoy Davan ustidan nazorat o‘rnatish uchun yirik harbiy yurishlarni amalga oshirgan. Biroq, Davan aholisi o‘z mustaqilligini

saqlab qolish uchun mardonavor kurash olib borgan. Xitoy yilnomalariga ko‘ra, ushbu harbiy qarama-qarshilikda Davan qo‘shinlari son jihatdan kam bo‘lsa-da, jangovar mahorati yuqori bo‘lgan. Ayniqsa, farg‘onalik chavandozlarning ot ustida kamondan mohirona o‘q otishi va jangovar taktikalari Xitoy qo‘shinlari uchun jiddiy qiyinchilik tug‘dirgan [Kuner, 1961, 217-b.].

Davan harbiylarining jang san’atidagi ustunligi nafaqat o‘zining kuchli otliq qo‘shiniga, balki strategik fikrlashiga ham bog‘liq edi. Qo‘shni davlatlar, xususan, Qang‘ va Kushon imperiyalari bilan ittifoq tuzgan holda, Davan o‘z hududini Xitoyning tajovuzkor siyosatidan himoya qilishga muvaffaq bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra, Xitoy bosqini paytida Davan hududini 60 000 kishilik lashkar himoya qilgan. Farg‘onalik chavandozlar nafaqat ot ustida jang qilish, balki nayza va kamondan foydalanish borasida ham yuqori malakaga ega bo‘lgan. Xitoy imperatori Han U-di aynan farg‘onalik chavandozlarning urush uslublarini o‘rganish uchun maxsus harbiy missiyalar yuborgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Xitoyning zirxlangan ot va chavandozdan foydalangan holda jang olib borish uslubi aynan Farg‘ona harbiy san’atidan olingan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas [Заднепровский, 1962, 459-b.].

Xitoy davlati Davanni harbiy yo‘l bilan bo‘ysundirish imkonsizligini anglagach, unga nisbatan diplomatik yondashuvni qo‘llashga o‘tgan. Xitoy bilan Davan o‘rtasida tinchlik kelishuvi tuzilib, bu kelishuv doirasida ikki davlat o‘rtasida savdo va diplomatik aloqalar mustahkamlangan. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, ushbu kelishuvga ko‘ra, Davan o‘zining mashhur arg‘umoqlarini Xitoyga yetkazib berishga rozi bo‘lgan. O‘z navbatida, Xitoy Davanga hunarmandchilik mahsulotlari va qimmatbaho tovarlarni yetkazib bergan. Ushbu iqtisodiy va diplomatik hamkorlik orqali Davan uzoq yillar davomida nisbatan mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan. Shu bilan birga, Farg‘ona hududi O‘rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin egallab, keyingi davrlarda ham o‘zining nufuzini yo‘qotmagan [Xo‘jayev, 2013, 288-b.].

Farg‘ona vodiysi o‘zining tarixiy jarayonlarida ko‘plab harbiy tahdidlarga duch kelgan. Miloddan avvalgi II-III ming yillikning o‘rtalarida Eron hukmdori Kir boshchiligidagi fors qo‘shinlari Markaziy Osiyo hududiga bostirib kirgan. Keyinchalik Doro II davrida forslar Farg‘onaning g‘arbiy chegaralariga yetib kelgan bo‘lsa-da, hududni to‘liq egallay olmagan. Shuningdek, miloddan avvalgi 329-yilda Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunon-makedon qo‘shinlari O‘rta Osiyo hududiga bostirib kirgan. So‘g‘d va eronlik jangchilar bilan bo‘lgan to‘qnashuvlarda makedoniyaliklar Farg‘ona vodiysiga to‘liq egalik qila olmagan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, hozirgi So‘g‘d viloyatining Xo‘jand shahri yaqinida

yunon-makedon qo‘shinlari va mahalliy qabilalar o‘rtasida keskin janglar bo‘lib o‘tgan. Natijada, Aleksandr qo‘shinlari Farg‘onaga to‘liq kirib borolmagan va bu hududda o‘z mustahkam harbiy istehkomlarini barpo etishga majbur bo‘lgan. Ular tomonidan qurilgan mustahkam istehkomlar orasida tarixda mashhur bo‘lgan Kiresxata qal’asi mavjud bo‘lib, keyinchalik ushbu hudud Aleksandriya Esxata nomi bilan ma’lum bo‘ldi [Xo‘jayev, 2013, 388-b.].

Miloddan avvalgi II-I asrlarda Farg‘ona vodiysi Yunon-Baqtriya davlatining ta’sirida bo‘lgan, biroq o‘zining mustaqilligini saqlab qolishga intilgan. Ushbu davrda Farg‘ona va unga qo‘shni hududlar orasida iqtisodiy, madaniy va harbiy aloqalar yanada rivojlangan. Ayniqsa, Davan davlati o‘zining geosiyosiy mavqeini mustahkamlash maqsadida qo‘shni davlatlar bilan strategik ittifoqlar tuzgan. Bu jarayon hududning uzoq muddat davomida mustaqil harakat qilishiga, shuningdek, savdo va madaniy almashinuvlarning rivojlanishiga xizmat qilgan.

Shunday qilib, Davan davlati o‘zining geografik joylashuvi, harbiy qudrati va diplomatik imkoniyatlari bilan Xitoy va Markaziy Osiyodagi yirik siyosiy kuchlar e’tiborini tortgan. Ushbu davlat nafaqat o‘z mustaqilligini saqlab qolish, balki Markaziy Osiyoning umumiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish jarayoniga o‘z ta’sirini o‘tkazishda ham muhim o‘rin tutgan. Davan tarixini yanada chuqurroq o‘rganish, xususan, arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan boyitish, ushbu davlatchilikning kelib chiqishiga oid ilmiy qarashlarni yanada aniqroq shakllantirish imkonini beradi.

Farg‘ona vodiysi o‘sha davrda Markaziy Osiyoning rivojlangan hududlaridan biri bo‘lib, uning boshqaruv tizimi ancha mukammal va tartibli ravishda yo‘lga qo‘yilgan edi. Davlat boshqaruvi tizimida hukmdor markaziy shaxs sifatida faoliyat yuritgan bo‘lib, unga ikki yordamchi va vazir ko‘maklashgan. Bundan tashqari, oqsoqollar kengashi muhim siyosiy institut sifatida faoliyat yuritgan. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, hukmdor asosan o‘ziga yaqin qarindoshlarga tayanib davlatni boshqargan bo‘lsa-da, oqsoqollar kengashi mamlakat ichki va tashqi siyosatida katta ahamiyat kasb etgan. Ular davlat boshqaruvida muhim qarorlarni qabul qilish vakolatiga ega bo‘lib, urush e’lon qilish, sulh tuzish, hatto hukmdorni taxtdan tushirish yoki tayinlash masalalarida hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Xitoy manbalarida qayd etilishicha, Davan ustidan yuritilgan harbiy yurishlar paytida oqsoqollar kengashi urushning oldini olishga harakat qilib, Xitoy bilan tinchlik kelishuvlarini muhokama qilgan. Aynan shu kengash qarori asosida Xitoy bosqiniga sababchi deb topilgan hukmdor Mug‘uy jazoga tortilgan va qatl etilgan. Bu esa oqsoqollar kengashining davlat boshqaruvida naqadar katta vakolatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, xitoylik elchilardan biri Farg‘ona poytaxtidan uzoqda joylashgan shaharlardan birida qatl etilgan bo‘lib, bu kengash hukmlarining faqat markaziy shaharlar bilan cheklanmay, butun davlat hududida o‘z kuchiga ega bo‘lganini tasdiqlaydi. Boshqaruv tizimidagi bu aniqlik va tartiblilik Davanning mustahkam davlat bo‘lishiga xizmat qilgan bo‘lib, uning qo‘shinlari ham shunga mos ravishda yuqori darajada tayyorgarlikka ega bo‘lgan.

Farg‘onaning harbiy qudrati haqida Xitoy yilnomalarida ham alohida ta’kidlab o‘tilgan. Unga ko‘ra, Farg‘onalik harbiylar otliq qo‘shin sifatida yuqori mahoratga ega bo‘lib, ayniqsa, ot ustida turib kamondan mohirlik bilan o‘q otish va nayzadan foydalanish bo‘yicha ajralib turgan. Xitoy qo‘shinlari Farg‘ona chavandozlarining jangovar uslublaridan o‘rganib, keyinchalik o‘z armiyasida ushbu harbiy taktikalarni joriy etgan. Shu bois, Xitoy imperiyasi bu hududni zabt etishga bir necha bor uringan bo‘lsa-da, harbiy va geografik jihatdan qulay joylashuv, aholi jasorati va harbiy san’atning rivojlanganligi sababli Farg‘ona o‘z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan.

Davanning iqtisodiy salohiyati ham yuqori darajada bo‘lgan bo‘lib, uning Xitoy bilan olib borgan savdo-sotiq aloqalari bunga yorqin misoldir. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Xitoy imperiyasining elchisi Chjan Syan ilk bor Farg‘onaga tashrif buyurgach, bu hududning iqtisodiy va strategik imkoniyatlarini yuqori baholagan. Shundan so‘ng, Xitoydan Farg‘onaga savdo karvonlari muntazam qatnagan va savdo aloqalari jadal rivojlangan. Farg‘onaning “samoviy otlari” (arg‘umoqlari) xitoyliklar orasida katta talabga ega bo‘lib, ularni sotib olish maqsadida Xitoy Davan bilan kelishuvga erishgan. O‘z navbatida, Xitoy Davanga hunarmandchilik mahsulotlari va qimmatbaho tovarlarni yetkazib bergan. Ushbu iqtisodiy va diplomatik hamkorlik orqali Davan uzoq yillar davomida nisbatan mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan. Shuningdek, Xitoy manbalarida Farg‘onaning boshqa nomlari ham uchraydi, masalan, Parkana, Boxon va Polona. Ushbu hudud o‘zining sifatli vinosi bilan ham mashhur bo‘lgan [Xo‘jayev, 2013, 288-b.].

Farg‘ona vodiysining iqtisodiy va qishloq xo‘jaligi tizimi Xitoy qo‘lyozmalarida ham batafsil yoritilgan. Chjan Syanning yozuvlarida Davan haqidagi rivoyatlar, jumladan, muzlik davrida yashagan afsonaviy tulporlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, Davan aholisi mustahkam qal’alar barpo etgani, bu yurtning yirik shaharlarida taxminan 60 000 oila istiqomat qilgani va umumiy aholisi 300 000 kishidan iborat bo‘lgani qayd etilgan [Муминова, 2022, 5-b.]. Arxeologik qazishmalar shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi VII-IV asrlarda Farg‘ona vodiysida uch xil turdagi turar-joy majmualari mavjud bo‘lgan. Bu hududlarda qishloq xo‘jaligi ekin

maydonlari, ichki va tashqi mudofaa devorlari bilan himoyalangan shaharlar va ark-qal’alar joylashgan edi. Shaharlar bir necha qavatli devorlar bilan o‘ralgan bo‘lib, bu ularning harbiy strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.

Xususan, Farg‘onaning qadimgi poytaxti Ershi va boshqa shaharlar mustahkam devorlar bilan o‘rab olingan bo‘lib, bu hududdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni saqlash uchun xizmat qilgan. 1939-yilda Katta Farg‘ona kanali qurilishi chog‘ida olib borilgan qazishmalar natijasida bu hududda Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari bilan savdo aloqalari bo‘lganligini tasdiqlovchi Baqtriya mis tangalari topilgan. Bu esa Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyoning iqtisodiy va madaniy almashinuv markazlaridan biri bo‘lganini tasdiqlaydi [Baltayev, 2021, №3].

Xulosa qilib aytish mumkinki, Farg‘ona vodiysi nafaqat harbiy va siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham yuksak rivojlangan davlat bo‘lgan. Uning boshqaruv tizimi, harbiy strategiyasi, qishloq xo‘jaligi va savdo aloqalari hududning o‘z davrida qanday rivojlanganligini ko‘rsatadi. Xitoy imperiyasi bu hududni harbiy yo‘l bilan bo‘ysundirishga urinib ko‘rgan bo‘lsa-da, Farg‘onaning geografik joylashuvi, mahalliy aholining mustaqillik uchun kurashi va davlatning mustahkam boshqaruv tizimi tufayli bu urinishlar muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Natijada, Farg‘ona Xitoy bilan diplomatik va savdo aloqalarini rivojlantirish yo‘lini tanlagan, bu esa uzoq yillar davomida uning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Shunday qilib, Davan davlatining tarixiy o‘rni nafaqat Markaziy Osiyo hududi uchun, balki butun Yevroosiyo tarixiy jarayonlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hududning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishini yanada chuqurroq o‘rganish, mavjud arxeologik topilmalarni tizimli ravishda tahlil qilish bu qadimiy davlat haqida yanada aniqroq tasavvurlar shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1950. – Б. 469.

2. Заднепровский Ю.Б. Фергана – древняя земледельческая культура. – Москва, 1962. – Б. 459.

3. Xo‘jayev A. Farg‘ona. – Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2013. – 288 b.

4. Муминова Н.З. История и карта древнего Парканского (Даванского) государства Ферганской долины. – PERIODICA Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2022.

5. Baltayev M. O‘zbekiston ilk davlatlarning paydo bo‘lishi. – Scientific Progress, 2021. №3.

6. Bo‘riyev O. Tarjimon “Sharafiddin Ali Yazdiy Zafarnoma Movarounnahr voqealari 1360-1370”. – Toshkent, 1994.

ILK O‘RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYODA SAVDO-ALOQA YO‘LLARINING RIVOJLANISHI

To‘ychiyev Ismoil Mahmudjon o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi
1-kurs talabasi
ismoiltoychiyev08@gmail.com
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Odilov B.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ilk o‘rta asrlarga kelib Markaziy Osiyoda Savdo-aloqa yo‘llarining rivojlanishi, yangi yo‘nalishlarni paydo bo‘lishi va bu mintaqada hukmronlik qilgan Eftaliylar va Turk xoqonligi ta’sirida savdo-aloqa yo‘llarining rivojlanishi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Buyuk ipak yo‘li, Shimoliy markaziy va janubiy yo‘nalishlar, xioniylar, kidariylar, eftallar, turk xoqonligi, savdo yo‘llari, Beyshi, Suy shi, Miniax, Van Enshen , Van Vey, Pey Szyuy, Menandr, Ipak yo‘li Naraga olib boradi.*

Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyoning savdo-aloqa yo‘llari tizimi rivojida muhim bosqich bolib, ichki aloqa yo‘llari bilan bir qatorda tashqi aloqa yo‘li geografiyasi jadal kengayib bordi. Mintaqadagi ichki va tashqi savdo-aloqa yo‘llarining o‘ziga xos xususiyatlarini shakllanishiga va yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga, bu davrdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar katta ta’sir ko‘rsatgan.

Sharqiy Turkiston va Yettisuv orqali Xioniylar va Kidariylarni kirib kelishi, V asr o‘rtalarida kirib kelgan ko‘chmanchi eftaliylar davlatini tashkil topishi, VI asrning ikkinchi yarmida bu mintaqani Turk xoqonligi tarkibiga kiritilishi, Markaziy Osiyoda yangi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni vujudga keltirdi. Bu esa, o‘z navbatida oldingi davrlarda paydo bo‘lgan ijtimoiy-madaniy savdo-aloqa yo‘llarini rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ilk o‘rta asrlarga kelib qadimgi va antik davrda vujudga kelgan aloqa-kamunikatsiya yo‘llari yanada rivojlandi va mavjud siyosiy-ijtimoiy vaziyatga bog‘liq holda savdo-aloqa yo‘llarini yangi tarmoqlari paydo bo‘ldi. Yuqoridagi o‘zgarishlarga asoslanib, ilk o‘rta asrlardagi o‘zaro munosabatlarga,

madaniy va savdo-iqtisodiy aloqalar rivojiga birinchi navbatda harbiy-siyosiy omillar yetakchi o‘rin tutganligini ta’kidlash joizdir[39].

Bu omillarning mintaqadagi ichki va tashqi savdo-aloqa yo‘llariga ko‘rsatgan ta’siri sabablari va natijalarini tahlil qilib, bu davrdagi savdo yo‘llarini asosiy tarmoqlarini pasda ko‘rib chiqamiz:

Eftaliylar va Turk xoqonligi Markaziy Osiyoda mahalliy boshqaruv saqlab qoldi. Markaziy hokimyat bilan bo‘lgan munosabat va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat sababli mintaqadagi viloyatlarning ichki va tashqi savdo-aloqalarda ishtiroki va mavqei oshib boradi. Bu hol o‘z navbatida mintaqadagi ichki savdo yo‘llari va yo‘nalishlarini ahamiyatini oshib borishiga sabab bo‘ldi.

Ilk o‘rta asr savdo yo‘lari ichida Samarqanddan Naxshab va Kesh shaharlari orqali Amudaryoning o‘rta oqimidagi kechuvlariga, Hisor tog‘ dovonlari va Temir Darvoza orqali Toxaristonga o‘tgan yo‘nalish katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Sug‘diyonadan Toxaristonga o‘tuvchi yo‘llar xitoy sayyohi va budda rohibi Syuan Szyan kundaligida yozib qoldirilgan. Unda Chag‘oniyon va Termiz shaharlari Surxon vohasining yirik savdo markazlari sifatida qayd etilgan[40]. Bu davrda Samarqand-Buxoro yo‘nalishi ahamiyati ancha oshdi. Buxoro xitoy manbalarida An nomi bilan qayd etilib, Sharqiy Turkiston va Yettisuvdagi xoqonlik qarorgohini Poykent, Amul va Marv orqali Eron bilan bog‘lovchi yo‘lning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan. Zarafshon daryosining chap qirg‘og‘i bo‘ylab o‘tgan yo‘l Samarqandni Janubiy Sug‘d orqali Amudaryoning o‘rta oqimidagi kechuvlariga olib borgan, bu yerdan Toxariston shaharlariga borilgan. Bu yo‘nalish bu davrda Markaziy Osiyoning ikki yirik siyosiy va madaniy markazi bo‘lgan Samarqand va Buxoro shahrlarini rivojida muhim o‘rin tutgan[41].

Eftaliylar davrida Janubiy Sug‘dni siyosiy va iqtisodiy mavqei ancha oshdi. Quyi Qashqadaryodagi Naxshab shahri Eftaliy hukmdorlarning qarorgohlaridan biri bo‘lganligi, Kesh shahri Sug‘dning poytaxtiga aylangani va eng muhimi bu hududdan Fargo‘na vodiysi va Choch vohasini Samarqand orqali Eron, Afg‘oniston va Hindiston shaharlariga olib boruvchi yo‘lning o‘tganligi, Janubiy Sug‘dni Markaziy Osiyoda ichki va tashqi savdo aloqalarida katta ahmiyatga ega bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Samarqanddan janubga olib boruvchi yana asosiy yo‘llardan biri hozirgi Ko‘kdala dashtlari va Qo‘ng‘irtog‘ning shimoliy yonbag‘irlari orqali o‘tgan. Ilk o‘rta asrlar, bu yo‘nalishda o‘troq makonlar kam uchrab, asosan ko‘chmanchi chorvador qabilalarni qishlov qarorgohi va quduqlari

[39] Мавлонов.Ў Марказий осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Тошкент: “Академия”, 2008. -B. 132

[40] Sagdullayev. A.S O'zbekiston tarixi I kitob. – Toshkent: “Nif Msh”, 2024. -B. 570

[41] Мавлонов.Ў Марказий осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Тошкент: “Академия”, 2008. -B. 133

joylashgan. Ular Samarqand-Naxshab yo‘lida bekat sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan[42]. Shu bilan birga, vohadagi qadimgi yo‘llarni o‘rganish davomida Samarqand-Naxshab yo‘nalishidagi dashtlarda ilk o‘rta asrlardayoq yirik istehkomlar ko‘rinishidagi qo‘rg‘onlar paydo bo‘lganini, bunga misol tariqasida Ko‘kdaladan 20 km g‘arbda joylashgan Hazorbuqa va Qoratepa yodgorliklarini ko‘rsatish mumkin. Bu yodgorliklar ilk o‘rta asrlarda chorvadorlarning qarorgohi va Samarqand-Naxshab savdo yo‘lining oraliq bekati sifatida ahamiyati katta bo‘lgan[43].

Ilk o‘rta asrlar, xususan Turk xoqonligi davrida Kesh shahrini iqtisodiy-siyosiy ahamiyati ancha oshadi. Kesh shahri VII asr xitoy manbalarida Shi, Kuysha kabi nomlar bilan qayd qilingan. Kesh VII asrning o‘rtalarida Sug‘d konfederatsiyasida yetakchi o‘ringa chiqibdi, bu Xitoy bilan siyosiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar o‘rnatilishida yaqol namoyon bo‘ladi. Kesh shahri rivojida voha orqali o‘tgan muhim savdo yo‘llari, xususan Farg‘ona, Choch vohasi va Samarqandni Oqrabot hamda Temir Darvoza orqali Toharistonga olib chiquvchi yo‘l katta o‘rin tutgan. Ilk o‘rta asrlarda Keshdan Hisor tog‘lari orqali Toshqo‘rg‘on va Kaltaminor dovonlaridan Toharistonga olib o‘tuvchi yo‘llardan foydalanish ancha faollashdi. Umuman olganda, Qashqadaryo vohasi orqali o‘tuvchi savdo yo‘llar nafaqat Sug‘dda, shu bilan birga, mintaqada ham ilk o‘rta asrlarda ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarda muhim o‘rin tutgan.

Bu davrda Xorazm vohasi Afrig‘iylar davlati tarkibida bo‘lib, poytaxt Kat shahri Amudaryo suv yo‘li va Sug‘diyonadan Vizantiyaga olib boruvchi karvon yo‘li o‘tgan yirik savdo shahri edi. Vohaning boshqa shaharlari va karvon yo‘llari bo‘ylab joylashgan yirik qishloqlari ham mintaqadagi iqtisodiy-madaniy aloqalarda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan.

Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyoda Ustrushona nomini olgan yana bir tarixiy-madaniy viloyat paydo bo‘ldi. Olimlar bu viloyatning eng qadimgi nomini Sutrushana tarzida keltiradilar. Ilk o‘rta asr xitoy manbalarida bu viloyat “Sharqiy Sao” nomi bilan atalib, uning yana Ustrushonaga o‘xshash bo‘lgan Shuaydushana, Suduyshana, Sudushini kabi nomlari ham keltiriladi. Samarqanddan Farg‘ona va Chochga ketuvchi muhim savdo yo‘llari bu viloyatning ko‘pgina shahar va qishloqlari bo‘ylab o‘tgan.

Choch vohasi ham mintaqaning ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarida katta o‘rin tutgan. Bu davrga oid xitoy manbalarida Choch vohasi Shi yoki Chjechi nomlari bilan atalib, Sirdaryo (Suye) daryosining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgani, hukmdori qarorgohi Choch shahri ekanligi va

[42]Мавлонов.Ў Марказий осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Тошкент: “Академия”, 2008. -В. 133

[43] Мавлонов.Ў Марказий осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Тошкент: “Академия”, 2008. -В. 133

uning janubi-sharqida joylashgan tog‘lar qayd etilgan. Bu voha orqali ilk o‘rta asrlar davrida mintaqaning sharqidagi Farg‘ona vodiysi va shimoliy dasht hududlaridan Amudaryo kechuvlariga qarab ketuvchi yo‘llar o‘tgan. Choch vohasi shimoldagi dasht chorvadorlari hamda Xitoy bilan aloqalarda ham asosiy o‘rin egallagan hududlardan biri bo‘lgan.

Markaziy Osiyoning ichki va tashqi iqtisodiy-savdo aloqalarida Farg'ona vodiysi orqali o‘tuvchi yo‘llar katta ahamiyatga ega edi. Vodiydagi muhim ahamiyatga ega Xo‘jand - Axsikent yo‘li Konibodom, Qo‘qon va Pop orqali o‘tgan. Xo‘janddan O‘shga Konibodom, So‘x, Rishton, Zandarmish va Quva orqali borilgan. O‘sh va O‘zgandan Yassi dovoni orqali Yettisuvdagi Otbosh shahriga boruvchi yo‘l boshlangan. Bu yo'nalishlar Farg‘ona vodiysining aloqalari tizimida muhim ahamiyatga ega edi. Vodiyda joylashgan yirik shaharlar mintaqa miqyosida ham, mintaqaning tashqi aloqalarida ham yirik savdo markazlaridan bo‘lgan. Bir gap bilan aytganda, Farg‘ona vodiysi ichki savdo yo‘llari Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlaridan bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarga kelib, Markaziy Osiyo hududi orqali o‘tgan tranzit savdo-aloqa yo‘llari tizimida muhim ahamiyat kasb etgan[44].

Bu davrda Markaziy Osiyoning xalqaro aloqalarida asosiy o‘rinni Xitoy egalladi, V asrning oxiri – VI asrning boshlarida Markaziy Osiyodan tashqari Sharqiy Turkistondagi Turfon, Urumchi, Qashqar, shuningdek To‘xariston janubi va Hindistonning shimoliy qismlari Eftaliylar davlati tarkibiga kiritilgan. Bu hududlarni bo‘sundirgan Eftaliylar Buyuk Ipak yo‘lining Xitoydan Markaziy Osiyo hududi orqali Erondagi Sosoniylar davlati va Vizantiya imperiyasiga olib boruvchi asosiy savdo yo‘llari ustidan o‘z nazoratlarini o‘rnatgan. Eftaliylar davlatining kuchayishi Xitoyni O‘rta Osiyo bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalar o‘rnatishga bo‘lgan intilishini oshirdi[45]. Buni ilk o‘rta asrlarda, V asrning 20-50-yillarida Xitoydagi Shimoliy Vey sulolasi tomonidan O‘rta Osiyoga 3 ta elchilik missiyasi yuborilgani misolida ham ko‘rish mumkin. Dastlab 425-yilda yuborilgan birinchi elchilik missiyasiga sayohatchilar Van Enshen va Xey Vanlar boshchilik qiladi. Ular Xitoydan Jujanlar yurti hozirgi Mo‘g‘uliston hududiga yetib kelgach, bu yerda jujanlarga asir tushadi, natijada elchilik missiyasi muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Ikkinchi elchilik missiyasi 437-438-yillarda yuborilgan. Ikkinchi elchilik missiyasiga saroy amaldori Tun Yuan va Gao Min boshchilik qiladi. Ular Xitoydan Shanshanga, bu yerdan Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy yo‘nalishida harakat qilib, Usunlar yurtiga yetib keladi. Usunlar hukmdori ularni tarjimon va yo‘lboshchilar bilan

[44] Sagdullayev.A.S O‘zbekiston tarixi I kitob. – TOSHKENT: “Donishmand Ziyosi”, 2021. -B 571-572

[45] Мавлонов.Ў Марказий осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Тошкент: “Академия”, 2008. -B. 138

ta’minlagach, Xitoy elchilari Farg‘ona orqali Choch o‘lkalarigacha yetib keladi. Ular o‘zlari bilan Xitoyga Usun, Farg‘ona va boshqa 16 ta o‘lkadan ko‘plab malumotlar to‘plab sovg‘alar bilan birga qaytadi. 444-453-yillarda amalga oshirilgan uchinchi elchilik missiyasi Xitoydan Mimi o‘lkasiga yuborilgan. Bu elchilik missiyalari haqidagi ma’lumotlar aks etgan “Beyshi” solnomasida Qashqardan g‘arbdagi birinchi o‘lka Chjechjiba, keyingi G‘arbiy o‘lka Mimi, undan keyin Samarqand ekani aytilgan. “Beyshi” solnomasida keltirilgan bu malumotdan kelib chiqib, olimlar uchinchi elchilik missiyasi o‘tgan Chjechjiba va Mimi o‘lkalarini Qashqar va Samarqand oralig‘ida, Ustrushona hududida joylashganligini ta’kidlab o‘tishadi.

VI–VII asr boshlariga oid, Xitoy geografi Pey Szyuyning “G‘arbiy o‘lkalar tarifi va xaritasi” asarida Buyuk Ipak yo‘lining Dunxuandan O‘rta yer dengizigacha bo‘lgan uchta yo‘nalishi keltiriladi:

I. Shimoliy yo‘nalish: Xami – Barko‘l – Issiqko‘l – Janubiy Qozog‘iston – Shimoliy Kavkaz – Vizantiya – O‘rtayer dengizi.

II. Markaziy yo‘nalish: Turfon – Qorashar – Kuchu – Pomir tog‘ dovoni – Ustrushona – Samarqand – Buxoro – Marv – Eron – O‘rtayer dengizi.

III. Janubiy yo‘nalish: Dunxuan – Lobnor ko‘li – Taklamakon sahrosi – Vaxon koridori – To‘xariston – Eron – O‘rta yer dengizi.

Bu asosiy yo‘nalishlarga tavsif bergan Pey Szyuy, bu yo‘nalishlar bir-birlari bilan kesishuvchi yo‘llar orqali bog‘langanligini va Buyuk Ipak yo‘lining barcha uchta yo‘nalishi bir-biri bilan tutashganligini takidlab o‘tadi[46].

Xitoydan Markaziy Osiyo hududi orqali g‘arb mamlakatlariga o‘tuvchi savdo yo‘llari bo‘ylab savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida Sug‘d savdogarlarining hissasi katta bo‘lgan. Sug‘diylarning Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab sharqga kirib borishi, bu xalqaro savdo yo‘lining faoliyatini boshlagan ilk davrlarga to‘g‘ri keladi. Sharqiy Turkistonda Sug‘d savdogarlari miloddan avvalgi I asrdayoq o‘zlarining savdo vakolatxonalarini tashkil qilishgan.

Ilk o‘rta asrlarda Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab xalqaro savdoda yetakchilikni o‘z qo‘llariga olgan Sug‘d savdogarlari savdo vakolatxonalarini Sharqiy Turkistondagi shaharlar, Xitoyning Lanchjou, Dunxuan, Chanyon kabi yirik savdo shaharlarida tashkil qilishgan. Bu davrga tegishli Xitoy manbalarida Sug‘diylar savdoda mohirligi, erkaklari yigirma yoshga to‘lgach, savdo qilish uchun foyda ko‘proq keltiradigan qo‘shni mamlakatlarga yo‘l olishi haqida ma’lumotlar saqlanib qolgan.

[46] Мавлонов.Ў Марказий осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Тошкент “Академия”, 2008. -В 139-140

Olimlarning fikricha, Xitoyning turli shaharlaridan topilgan sug‘diy yozuvlar ham sug‘dlarning Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab keng aloqalar olib borganini ko‘rsatadi. Xitoydan topilgan Sug‘d yozuvlari ichida Sharqiy Turkistondan Samarqandga yuborilgan xatlarning topilishi bir tomondan sug‘diylarda savodxonlik darajasi yuqori bo‘lganligini, ikkinchi tomondan bu davrda aloqa-pochta xizmatlari yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatadi.

Manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu davrda Sug‘d savdogarlari hatto Yaponiyaga ham kirib borishga erishganlar. Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahridagi ibodatxonalarning birida Sug‘d tilida yozilgan qo‘lyozma saqlanib kelayotgani, 1987-yilda Yaponiyada Buyuk Ipak yo‘liga bag‘ishlab tashkil etilgan ko‘rgazmaning “Ipak yo‘li Naraga olib boradi” deb nomlanishi ham bu fikrlarni tasdiqlaydi.

Turk xoqonligi davrida Xitoyni Markaziy Osiyoning markaziy hududlari bilan bog‘lovchi yo‘llar qanday bo‘lganini aniqlashda bu davrga oid Xitoy manbalaridagi ma’lumotlar katta ahamiyatga egadir. Xususan, VII asrga oid “Suy shi” solnomasiga ko‘ra, Xitoydan Markaziy Osiyoga yuborilgan navbatdagi elchilik missiyasi Qashg‘ar (Suli) – Farg‘ona (Bahan) – Ustrushona (Suduyshana) – Samarqand (Kan) yo‘nalishida harakat qilganligi yozib qoldirilgan. Umuman olganda, ilk o‘rta asrlarda tranzit savdo-aloqa yo‘llarini uch qismga janubiy, markaziy va shimoliy yo‘nalishlarga bo‘lib chiqish mumkin. Buyuk Ipak yo‘lining janubiy yo‘nalishi To‘xaristondan Pomir tog‘ dovonlari orqali Qashqarga olib chiqqan bo‘lsa, markaziy yo‘nalish Amudaryo kechuvlari Kelif, Kerki, Amuldan Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo vohasidagi shaharlar orqali o‘tib, Samarqandga, bu yerdan Jizzax, Choch va Farg‘ona vodiysi shaharlaridan o‘tib Qashqarga olib chiqqan. Shimoliy yo‘nalish bo‘ylab Samarqanddan Janubiy Qozog‘istondagi Yassi, Isfijob, Taroz va boshqa shaharlar orqali o‘tib Sharqiy Turkistonga borish mumkin edi. Ushbu yo‘llar ichida Markaziy Osiyo shaharlaridan o‘tuvchi markaziy yo‘nalish muhim o‘rin tutgan.

Ilk o‘rta asrlarda Sosoniylar bilan Eftaliylar, keyinchalik Turk xoqonligi o‘rtasidagi siyosiy nizolar tufayli Eron hududi orqali O‘rta yer dengizi olib chiquvchi aloqa yo‘llaridan foydalanish ma’lum kamayadi. Bu esa tashqi siyosatning iqtisodiy-madaniy aloqalar yo‘nalishlariga ta’siri katta bo‘lganini ko‘rsatadi. Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo savdo yo‘llari tizimida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Turk xoqonligining Vizantiya bilan aloqalarida Yettisuvdan Qozog‘iston dashtlari hamda Xorazm vohasidan Mang‘ishloq, Quyqi Volga bo‘yi, Kavkazorti va Qora dengiz orqali Konstantinopolga olib boruvchi savdo yo‘li muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Ushbu yo‘nalishda xorazmliklar va xazarlar muhim savdo vositachilik vazifasini bajarganlar. Shimoliy Kavkaz va Sharqiy Yevropa

viloyatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlangan davrda, bu yo‘lning ahamiyati oshadi[47]. Shimoliy Kavkazda, Kislovodsk yaqinida Afrig‘iylar davrida zarb etilgan kumush tangalar, kumush idishlar va boshqa moddiy topilmalarning topilishi, Amudaryoning quyqi oqimidan Orol bo‘yi va Kaspiy dengizining shimoli bo‘ylab, Quyqi Volgaga, bu yerdan Kavkaz va Qora dengizga olib chiquvchi savdo yo‘li faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Turk xoqonligi elchisi sifatida 558-yilda Vizantiyaga borgan mashhur Sug‘d savdogari Maniax ham shu yo‘nalish bo‘yicha Qora dengiz sohilidagi portlarga va suv yo‘li orqali Konstantinopolga yetib borgani ham manbalardan ma’lum bo‘ldi. Vizantiya hukmdori Yustin II ning Zemarx boshchiligidagi elchilari ham Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i bo‘ylab, ya’ni Qora dengizdan Kaspiy va Orol dengizi, Janubiy Qozog‘iston hududi orqali Yettisuvga Turk xoqonligining qarorgohiga yetib kelishadi.

Bu elchilik haqida ma’lumot qoldirgan Menandr Vizantiya elchilarining qaytishda Oix daryosi – Katta bir ko‘l – Ik daryosi – Daix daryosi orqali o‘tganligi haqida xabar beradi. Agar manbalardagi Oix daryosini Sirdaryo, katta ko‘lni Orol dengizi, Ik daryosini Emba, Daix daryosini Yo‘yiq daryosiga taqqoslasak, bu davrda Vizantiyani Xitoy bilan bog‘lovchi yo‘l Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i bo‘lganligini tasdiqlaydi. Buning natijasida Turk xoqonligi davrida Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy yo‘nalishi, yani Sharqiy Turkiston va Yettisuvni Qora dengiz sohillari bilan bog‘lovchi yo‘l paydo bo‘ladi.

Buyuk ipak yo‘li orqali Xitoyning G‘arbiy o‘lkalar bilan aloqalarida ipak va undan tayyorlangan mahsulotlar katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Xitoyda ko‘p miqdorda yetishtiriladigan ipak va undan tayyorlanadigan mahsulotlarlar mamlakatning ichki bozorida unchalik katta o‘rin tutmagan. Natural xo‘jalik hukmronligi sharoitida ipak mahsulotlar faqatgina Xitoy imperatori, uning oilasi va zodagonlar ehtiyoji uchun ishlatilgan. Ipak va ipak mahsulotlarga esa asosan tashqi bozorda katta talabga ega bo‘lgan. Xitoy bilan qiladigan savdo-sotiqda, ayniqsa ipak savdosidan katta foyda olgan Sug‘d savdogarlari Sharqiy Turkiston va Xitoydagi o‘z savdo faktoriyalari orqali Xitoy ipagi va boshqa mahsulotlarni bevosita ishlab chiqaruvchilardan olib, ularni Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab nafaqat Markaziy Osiyoga, balki Vizantiya va boshqa G‘arb mamlakatlariga ham olib borib sotishgan.

Buyuk Ipak yo‘li faoliyati boshlangan dastlabki davrlardan Xitoy ipak mahsulotlari nodir va qimmatli mahsulot sifatida juda qadrlangan. Turk xoqonligi davrida Xitoydan Sosoniylar va O‘rtayer dengizi orqali

[47] Мавлонов.Ў Марказий осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Тошкент: “Академия”, 2008. -В. 142

Vizantiyaga o‘tuvchi xalqaro savdo yo‘li va ipak savdosi nazoratini qo‘lga kiritgan turklar va ularning homiyligi ostida savdo-sotiq bilan shug‘ullangan Sug‘d savdogarlari Markaziy Osiyoda ipak savdosi ustidan to‘liq nazorat o‘rnatdilar. Ipak savdosi nafaqat iqtisodiy, balki muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, harbiy-siyosiy masalalarni hal etishda ham katta o‘rin tutgan. Xususan, Turk xoqonlari Xitoydan o‘lpon sifatida har yili katta miqdorda ipak mahsulotlarini olib turgan[48].

Xitoydan olingan ipakning ichki ehtiyojlardan ortib qolgan katta qismi tashqi bozorga, xususan, ipakka talab yuqori bo‘lgan Vizantiyaga chiqarilgan. Xususan, Vizantiyada Xitoy ipagi oltin va boshqa qimmatbaho toshlarga teng bahoga ega bo‘lib, u Konstantinopol saroyi va zodagonlar ehtiyojidan tashqari yollanma qo‘shinlarga haq to‘lashda ham asosiy mahsulot hisoblangan. Bu holat Vizantiyaga tegishli bo‘lgan janubiy hududlardagi Suriyada ipakchilik yo‘lga qo‘yilguniga qadar davom etgan.

Xulosa qilib aytganda V-VII asrlarda Markaziy Osiyoning ichki va tashqi aloqalar geografiyasi to‘xtovsiz kengayib bordi. Markaziy Osiyo bilan Vizantiya aloqalari orasida tarixiy-madaniy aloqalarning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘ldi. Turk xoqonligining dastlabki vaqtda Sosoniylar orqali Vizantiya bilan aloqa o‘rnatgani, keyinchalik o‘zaro zidiyatlari Turk xoqonligining Vizantiya bilan mustahkam savdo-diplomatik aloqalari o‘rnatilishiga va yangi savdo-aloqa yo‘llarini rivojlanishiga olib keldi. Mavjud yo‘llarning Turk xoqonligi ta’siriga o‘tishi, uning tarkibida bo‘lgan hududlarni, xususan Markaziy Osiyo mintaqasini savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan. Bu davr Markaziy Osiyoning Xitoydan to O‘rtayer dengizi qirg‘oqlarigacha yetib borgan Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab olib borilgan xalqaro ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalari tarixida, aloqa-savdo yo‘llari tizimi rivojida alohida muhim bosqichni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Тошкент: “Академия”, 2008.
2. Sagdullayev A.S. O‘zbekiston tarixi I kitob. – Toshkent: “Donishmand Ziyosi”, 2021.
3. Sagdullayev A.S. O‘zbekiston tarixi I kitob (Eng qadimgi davrdan – XIV asr o‘rtalarigacha). – Toshkent: “NIF MSH”, 2024.

[48] Мавлонов.Ў Марказий осиёнинг кадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. – Тошкент: “Академия”, 2008. -B. 144

“TO‘RE” QADIMGI TURKIYLARNING KUNDALIK ODAT VA HUQUQ MANBASI SIFATIDA

To‘laganova Samira Abduvahob qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi
1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD B.Zokirov

Annotatsiya*: Ushbu maqolada turkiy qavmlarning tarixiy huquqiy tizimi va boshqaruv an’analari tahlil qilinadi. Qadimgi turkiylarda qonun, tartib, urf-odat va boshqaruv tizimini tushunchasini ifodalovchi “To‘re” tushunchasi muhim o‘rin tutib, u turkiy jamiyatda ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Maqolada O‘rxun-Enasoy bitiklaridagi yozma dalillar hamda xitoy solnomalari asosida to‘ru tizimining xunlardan boshlab turkiylarga meros bo‘lib kelgani va diniy hamda ijtimoiy jihatdan muqaddas tushuncha sifatida qabul qilingani yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: ko‘chmanchilik, xunlar, Mete xoqon, Jujanlar davlati, Turk xoqonligi, bitiklar, Uyg‘ur xoqonligi, Mahmud Qoshg‘ariy.*

Bundan tahminan bir yarim ming yil avval mintaqaga turkiy qavmlarning ko‘p miqdorda ko‘chishlari sodir bo‘ldi. Bunga bog‘liq ravishda hududimizda Turk xoqonligi hukmronligi boshlandi. Davlat ijtimoiy jihatdan o‘troq hamda ko‘chmanchi aholi ustidan hukmronlik qilar, hokimiyat egalari ham ko‘chmanchi tabaqaga mansub edi. Xoqonlikning turli ijtimoiy qatlamdan iboratligi uning mintaqadagi hukmronliga hech qanday salbiy ta’sir etmagan. Ko‘chmanchi aholi son jihatdan ancha ko‘p va bunga qo‘shimcha ravishda muqim bir yerda turmay, tez-tez yashash joylarini o‘zgartirishlari xoqonlik hududida tartibsizliklar keltirib chiqarmagan, boshqaruvga rahna solmagan. Buning asosiy sabablaridan biri hokimiyat tepasida turgan hamda aholining katta qismini tashkil etuvchi ko‘chmanchi turkiylarda an’ana va tartib-qoidalarning o‘ziga xos majmuyi mavjud edi. Ushbu tartib-qoidalar ularga merosiy bo‘lgan. Turkiylar ularni “To‘ru” yoki “To‘re” deb ataganlar. Ahamiyatlisi shundaki, davlat boshqaruvida, ijtimoiy hayotda va barcha huquqiy masalalarda bu an’ana va qoidalarga qat’iy amal qilingan.

Garchi, turkiylarning bu huquq tizimi haqida ko‘plab yodgorliklar bo‘lmasada, biz xitoy solnomalari, O‘rxun-Enasoy bitiklaridagi ma’lumotlar orqali va hozirgacha turkiy xalqlar orasida saqlanib qolgan an’analarni tahlil qilgan holda ma’lum tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin.

Turkshunoslikda ushbu masalaning o‘rganilishi 1889-yilda O‘rxun irmog‘i bo‘yida O‘rxun-Ensoy bitiklarining topilishi bilan boshlandi.1893-yilda esa ushbu bitiklar daniyalik tilshunos, olim Tomsen tomonidan ilk bora o‘qildi[1; 25]. Olimning izlanishidan so‘ng bitik toshlarda uch nafar davlat boshqaruvchisi: Tunyuquq, Bilga xoqon va Kulteginning turk xalqiga murojaatlari qayd etilgani ma’lum bo‘ldi. Shu vaqtdan boshlab, qadimgi turkiylarning davlatchiligi va turmush tarzi haqida yozma manbaga asoslangan ilmiy izlanishlar avj oldi.

Biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan, “To‘re” so‘zi keltirilgan eng qadimgi yozma manba ayni shu bitiktoshlardir. “To‘re” so‘zi O‘rxun bitiktoshlaring 11 joyida qayd etib o‘tilgan. Ularning 6 tasi davlat hamda el so‘zi bilan birgalikda qayd etilgan. Qolgan 5 o‘rinda ham “to‘re” so‘zi el so‘zi bilan bog‘liq holda uchraydi[6]. Shu sabab, to‘re so‘zining etimologiyasini o‘rgangan olimlar bu so‘zning ma’nosiga oid turli xil izohlarni keltirib o‘tishadi. “To‘re” so‘zini ilk bora Kultegin bitiktoshi orqali o‘rgangan olim P.M.Melioranskiy, uni ma’lum xalqqa tegishli odatlar huquqini anglatishini qayd qilib o‘tadi. Tarixchi olim G‘.Boboyorovga fikriga ko‘ra esa “to‘re” so‘zi “boshqarma, mahkama”, “davlat boshqaruvi” kabi ma’nolarni anglatadi. “Ko‘k Turk Imperatorligi” asari muallifi Rene Jero[49] el hamda to‘ru atamalarining birgalikda uchrashiga alohida ahamiyat berib, bu so‘zlarning “an’ana, tartib” ma’nolarini anglatishini ta’kidlaydi. Umuman olganda har uch izohni rad etmagan holda “to‘re” tushunchasiga shunday ta’rif berishimiz mumkin: To‘re etimologik jihatdan turkiycha (ba’zi manbalarda mo‘g‘ulcha) so‘z bo‘lib, qo‘llanilish o‘rniga ko‘ra:

1. To‘re - qonun, tartib, an’ana, urf-odat, marosim
2. To‘re - tartiblamoq, tuzmoq, ko‘paymoq, boshqarmoq ma’nolarida kelishi mumkin.

Xususan, Kultegin bitiktoshida keltirilgan quyidagi 16-satrda: “To‘ru bo‘yicha amakim xoqon bo‘ldi”[2] - “to‘ru” so‘zi odat, an’ana ma’nosida qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, ushbu bitiktoshning 13-satrda keltirilgan “Davlatini yo‘qotgan, xoqonini yo‘qotgan, cho‘riga aylangan xalqni, qulga aylangan xalqni, turk to‘rusini boy bergan xalqni ota-bobolarim o‘z to‘rusi bo‘yicha tartibga solibdi, boshqaribdi”[2], - ushbu jumlalarda esa “to‘ru” so‘zi “boshqarmoq” ma’nosida kelmoqda. Yuqoridagi parchada e’tiborga molik yana bir jihat bor. Undagi jumlaning ma’nosini tahlil qilsak, to‘relarning barcha qatlamga tegishli ekanligi hamda bu qonun-qoidalar turkiylarga ajdodlaridan meros qolganligi masalasi diqqatga sazovordir. Shunda turkiylar kimlarni o‘zlariga ajdod deb bilishyapti?

[49] Rene Jero-1929-1999.Fransiyalik xalqaro miqyosdagi tarixchi, Sorbonna universiteti professori

Bu masalaga to‘xtalar ekanmiz, turkiylarning huquqiy tizimi haqida yozma manbalarning kamligi Kultegingacha bo‘lgan davrda turkiylarda tartib-qoida mavjud bo‘lmagan degan ma’noni bermaydi. To‘re kabi an’ana hamda tartiblarning majmuyi turkiylarda Xun podsholigi davridan beri ma’lum. Xitoy solnomalarida keltirilishicha, xun davlatining asoschisi Tomun bo‘lgan. Uning o‘g‘li Modun Shengyu[50] Xun davlatiga 35 yil hukmronlik qilib, davlat hududini ancha kengaytirgan. Aynan uning davrida turkiylarda ilk bora qurultoy chaqirish tartibi qo‘llanilgan. Qurultoyda esa turkiylar qabila uchun muhim qaror, tartib-qoidalarni chiqarishgan. Vaqt o‘tib, qurultoylarda hukmdor ham saylana boshlangan. Bu Turk xoqonligidagi qurultoy an’anasining merosiyligiga bir dalildir. Turkiylardagi to‘ru qonun-qoidalari ham xunlarniki kabi edi. Xitoy manbalariga ko‘ra, Xunn davlatida qasos olish o‘rniga jinoyatchining davlat tomonidan jazolanish usuli yo‘lga qo‘yilgan edi. Shaxsiy o‘ch olish taqiqlangan. Odam o‘ldirishning jazosi dorga osilish bo‘lgan. Qaroqchilik, o‘g‘rilik va hayvon o‘g‘irlash qat’iyan taqiqlangan edi. Qo‘lga tushirilgan qaroqchi va o‘g‘rilik ustida qo‘lga tushganlar qatl etilar, mol-mulki musodara qilinar, oila a’zolarining hurriyati cheklanar edi. Jiddiy bir tahlika bo‘lmasa, o‘q-yoydan foydalanish taqiqlangan. Nomusga tegish eng og‘ir jinoyatlardan biri deb hisoblangan. Bu holatda ikki tomon kelisha olmasa, jinoyat o‘lim bilan jazolanishi kerak edi. Qo‘shindan qochgan va Vatanga xiyonat qilganlarning jazosi ham o‘lim edi. Ota-onasini o‘ldirganlar berilgan jazo natijasida o‘lmasalar, jamoat joylarida qiynoqdan va boshqa turli harakatlar bilan o‘ldirilar edi. Solishtirish uchun yana xitoy manbasidan olingan, Turk xoqonligi to‘resi haqidagi parchani ko‘ramiz:

“Ularning odatiga ko‘ra isyon ko‘targan odam o‘ldirilgan, zino qilgan va bog‘loqliq otni o‘g‘irlaganlar ham o‘lim jazosiga tortilar edi.Ayollarni xotinbozlik yo‘li bilan aldaganlar og‘ir jazoga tortilib, mol-mulk bilan tovon to‘lashga majbur qilinar va o‘sha ayolga uylanishi shart qilinar edi. Birortasiga qasd qilgan holda jarohat yetkazgan odam, jarohatning yengil yoki og‘irligiga qarab moddiy to‘lov to‘lashga majbur edi. Ot va mol-ashyo o‘g‘irlaganlar barcha o‘g‘rilikning o‘n baravarini to‘lashga majbur edilar”[3].

Ko‘rinib turibdiki, turkiylar va xunlarning odat rasm-rusumlari bir xil. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, xunlar turkiylarning ajdodidir. Turkiylarning to‘relari xalqning mafkurasiga aylanib ketishining bir sababi, ularning nasldan-naslga meros bo‘lib xun davridan beri amal qilingani bo‘lsa, boshqa bir sababi to‘relarning Ko‘k Tangrining irodasi sifatida ko‘rilishi bo‘lgan. Aslini olganda to‘relarning ilohiy deb qabul qilinishi ham xunlarga borib taqaladi. Gap shundaki, Modu Shengyuyning boshqa bir

[50] Modun Shengyu-boshqa shakli Metexon. Mil.avv 209-174-yillarda Xun davlatini boshqargan

unvoni bo‘lgan “Tan-hu” - xitoycha tarjima qilganda “Ko‘kdan qudrat olgan” degan ma’noni bildiradi.

O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida keltirilgan quyidagi jumalaga diqqatimizni qaratsak. “Ustda Ko‘k Tangri yorlaqagani uchun, pastda qo‘ng‘ir yer asragani uchun davlatimni, to‘rumni qo‘lga kiritdim”. Bu yerda ham xoqon Ko‘k Tangridan quvvat olgani sababli davlat hukmdori bo‘lganini da’vo qilgan. Demak, xunlar ham, turkiylar ham taxtni Tangrining irodasi deb bilgan holda, davlatchilik odatlarini Tangrining xohishi sifatida ko‘rishgan va uni buzishga jur’at etishmagan. Yuzlab yillar davomida ham diniy, ham ijtimoiy jihatdan qat’iy amal qilingani sababli, to‘relar Turk xoqonligida juda katta ta’sirga ega bo‘lgan va shu sababli ularga qat’iy amal qilingan.

To‘relarning ilk bora yozuv shaklida bir to‘plamga kelishi, VIII asrda Turk xoqonligi o‘rnida tashkil topgan “Uyg‘ur xoqonligi” nomi bilan bog‘liq. Uyg‘ur xoqonligi tashkil topgan davrda ular o‘troqlashib bo‘lgan edi. Aholi asosan savdo va hunarmandchilik bilan shug‘ullangani sababli, o‘rtada mol-mulk nizosini oldini olishga harakat qilgan holda ilk bor iqtisodiy hamda mol-mulk masalasiga oid to‘relarni qog‘ozga ko‘chirishadi. Undan keyin Qoraxoniylar sulolasi davrida ham boshqaruv an’analari, Somoniylardan olinganiga qaramay, taxt almashinuvida qadimgi turkiy to‘relarga amal qilingan. Ya’ni boshqaruv bir hukmdor vafot etganda sulolaning eng katta a’zosiga o‘tgan. Bu turkiy an’ana edi. Eloqxonlar hokimiyati ham turkey qonun-qoidalar bilan mustahkamlangan. Qolaversa, ko‘chmanchi qabilalarni boshqarishda ularni sud qilishda ham turkiy to‘relarga amal qilingan. Bu esa Qoraxoniylarning ham turkiylar bilan bir ildizga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi. Aytib o‘tish kerakki, Markaziy Osiyo hududida ko‘chmanchi va o‘troqlar uchun alohida sud qilish holati, XX asrga qadar saqlanib qolgan.

Xulosa o‘rnida, turkiylar hamisha tartib va intizom bilan yashganlarlar, ular boshqaruvda ham qat’iy an’ana, odatlarga amal qilishgan. Ularning to‘relari avloddan-avlodga meros bo‘lib kelgan. Turk to‘relari boshqaruvda siyosiy barqarorlikni, jamiyatda esa tinchlik, tartib va axloqiy qoidalarning o‘rnatilishini ta’minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ALTUNBAŞ, A., İslamiyet Öncesi Türklerde Hukuk, Hasan Kalyoncu Üniversitesi Hukuk Fakültesi Dergisi, 12(23), 15-31. https://www.jurix.com.tr/article/29747

2. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк ҳоқонлигининг давлат тузуми / Ғ. Бобоёров; масъул муҳаррир М. Исҳоқов; ЎзРФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. - Тошкент: Yangi nashr, 2018. - 356 б.

3. Bekmirzayev R. ТУРК ҲОҚОНЛИГИ ДАВРИДА ДАВЛАТЧИЛИК ВА СУД –ҲУҚУҚ//Том 1 № 1 (2023): O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MUAMMOLARI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI. –Farg’ona, 2024. –B. 159-164.
4. Жумаганбетов Т.С. Торэ-государственное право тюрков-туцзюе.//Вестник РУДН, сер. Юридические науки, 2006. №1 (19) https://cyberleninka.ru/article/n-/tore-gosudarstvennoe-pravo-tyurkov-tutszyue
5. Hasan Göktürk Erdoğan. Türk Kağanlığı Hukuku 'Töre' ve Köl Tigin", Türk Hukuk Tarihi Araştırmaları / Journal of Turkish Legal History, Sayı 17 2014 (Bahar), Ekim 2019, İstanbul, ss.61-76. https://www.academia.edu/-43373421/T%C3%BCrk_Ka%C4%9Fanl%C4%B1%C4%9F%C4%B1_Hukuku_T%C3%B6re_ve_K%C3%BCl_Tigin_Hasan_G%C3%B6kt%C3%BCrk_Erdo%C4%9Fan
6. Zubeyr Saltuklu. Türklerde tore. (Saltuklu, Z. (2019), Türklerde Töre, AUSBD, 2 (4), 61-66). https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/912777

ARABLARNING MOVAROUNNAHRGA XUJUMI SABABLARI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Egamberdiyev Asrorbek Akbar o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi
1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Odilov B.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada arablarning Movarounnahrga hujumi va bu hududlarda islom dining yoyilishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, arablar O‘rta Osiyoni egallash uchun qariyb o‘ttiz yil jang olib bordilar va ushbu jangning asosiy maqsadida Islom dinini targ’ib qilish bilan birga askarlarning kuch qudratini sinash, harbiy tayyorgarlikni oshirish va boylik orttirish kabi omillar mavjudligi tahlil qilindi. Qolaversa, mintaqa aholisining yengilishini asosiy sabablari sifatida birlik bo‘lmaganligi, mulkiy tabaqalanishning kuchayishi va turli diniy mafkuralarning mavjudligi qayd etilgan. Shuningdek, arablarning kirib kelishi va Islom dinining tarqalishi haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganishda foydalanilgan tarixiy manbalar va xorijiy mahaliy tarixchilarning asarlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Movarounnahr, Poykand, Buxoro, Islom dini, fotix, Ubaydulloh ibn Ziyod, Muoviya I, Sayid ibn Usmon, Qutayba ibn Muslim.*

Абстрактный: *В этой статье я обсуждаю арабское вторжение в Трансоксанию и распространение ислама в этих регионах. Арабы также в течение почти тридцати лет боролись за завоевание Центральной Азии и колонизировали эти регионы за очень короткий период времени. Основными причинами этого были разобщенность местного населения, усиливающееся имущественное расслоение и существование различных религиозных идеологий, что препятствовало объединению населения под единым центром. В данной статье мы также рассмотрим и проанализируем исторические источники и труды зарубежных краеведов, использованные для изучения сведений о приходе арабов и распространении ислама.*

Ключевые слова: *Трансоксания, Пойканд, Бухара, ислам, Фатих, Убайдулла ибн Зияд, Муавия I, Сайид ибн Усман, Кутайба ибн Муслим.*

Abstract: *This article of mine discusses the Arab invasion of Transoxiana and the spread of Islam in these regions. The Arabs also fought for ten years to conquer Central Asia and in a very short time turned these regions into their colonies. The main reasons for this were the lack of unity among the local population, the strengthening of property stratification, and the existence of different religious ideologies that prevented the population from uniting under a single center. Also, in this article, we will review and analyze the historical sources and works of foreign local historians used to study the information about the arrival of the Arabs and the spread of Islam.*

Keywords: *Transoxiana, Poykand, Bukhara, Islam, fatih, Ubaydullah ibn Ziyad, Muawiyah I, Sayyid ibn Uthman, Qutayba ibn Muslim.*

Kirish

Arablar qadimdan Arabiston yarimorolida yashab kelgan Somiy qabilariga mansub bo‘lgan. Ularning kelib chiqishi, tili yoki bo‘lmasa diniy e‘tiqodi tomonlama turkiy xalqlarga hech qanday qon-qarindoshligi va tanishligi bo‘lmagan. VI asr oxiri VII asr boshlarida ham arab jamoalari o‘rtasida urug‘-aymog‘chilik va quldorlik tizimi juda kuchli bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarga kelib ularning udumlari shakillana boshlaydi. Bu harakatlar birdan-bir yagona e‘tiqotga da’vat qilishdan boshlanadi yani tavxidlik dini bu tarixda “itoat”, “bo‘ysunish” ma’nosini anglatuvchi “Islom” nomi bilan keladi. Buyuk va yagona tangri ollohning yerdagi rasuli sifatida arabistonning yirik markazi bo’lgan Makka shahrida dunyoga kelgan Muhammad s.a.v bu harakatga rahnamolik qiladi. Rasulullohga ergashgan uning izdoshlari esa o‘zlarini “muslim” yani islom diniga sodiq itoatkorlar deb ataydilar. Dastavval Makkada boshlangan tavhidlik dini tag‘riboti 622-yilning 16-iyulida Madinaga ko‘chadi va Shahar kurashning markaziga aylanadi. Madinaliklar o‘zlariga qo‘shni bo‘lgan shahar davlatlar va

qabilalarning Budparastlik dinlariga qarshi tashviqot ishlarini olib borish bilan birga ularning siyosiy tuzumiga ham zarba beradilar. Bu kurashga arablarni jalb qilish maqsadida ular g‘ayridinlik va qo‘shni mamlakatlarni talab o‘lja olish shiorini targ‘ib qilinadi. Arablar asta sekinlik bilan birlashib fath etishni boshlaydilar.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili: Movarounnahrning fatx etilishi haqida gapiradigan bo‘lsak, Arablar Amudaryodan shimolda joylashgan yerlarni Movarounnahr yani “daryoning narigi tomoni” deb ataganlar. Shuningdek hozirgi Afgonistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo‘lgan hududlar Xuroson deb atalgan. Uning markazi Marv shahri edi. Viloyatni boshqarish uchun tayinlangn valiy Marv shahridan turib boshqarar edi. Movarounnahrga bo‘lgan hujumlar Xuroson valiysi tomonidan uyishtirilgan edi. Movarounnahrning fath etishlishi arablarning maqsad va rejalariga asoslanib ikki davrga bo‘linadi. Muhammadjonovning qayd etishicha arablar Movarounnahrga dastlab bosib olish uchun emas, harbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rish, mahalliy hukumdorlar kuch qudratini sinash va o‘lja ortirishni maqsad qilib kelgan edilar deydi. Arablarning Movarounnahrga ilk hujumi 654-yilda Maymurg‘, 667-yilda Chag‘aniyondan boshlanadi. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida yozilishicha 673-yilning kuzida Muoviya1 farmoni bilan Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o‘tib Buxoroga bostirib kiradi. Baykand (Poykand) va Romitanni egallab Buxoro shahrini qamal qiladi. O‘sha vaqtda taxtda Buxoro podshohining o‘g‘li Tug‘shoda yosh bo‘lganligi uchun taxtni Malika Xotun boshqarar edi. Malika Xotun Ubaydulloh ibn Ziyodga bir “lak” (100 ming) dirham to‘lab u bilan sulh tuzishga majbur bo‘ladi deb yozib qoldiradi. Arablar bojdan tashqari to‘rt ming asir, qurol, kiyim-kechak, oltin va asosiy o’lja hisoblangan kumush bilan Xuroson poytaxti Marvga qaytadilar. Ular hatto Xotunning bir poy etigi bilan paypog‘ini ham topib oladi, chunki etik va paypoq Narshaxiyning yozichicha qiymati 200 ming dirhamga teng bo‘lgan tillo va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ekan. Bu ham Hajjojga yuboriladi. Oradan uch yil o‘tib taxminan 676-yilda yuqorida aytib o‘tilgan Xuroson valiysi Said ibn Usmon boshchiligida arablar Sug‘diyonaga katta harbiy yurish qiladilar. Balozuriy va Narshaxiyning yozishicha Said ibn Usmon Kesh, Nasaf, Naxshab, Buxoro va turkiylardan tuzilgan 120 ming kishilik qo‘shinni tor-mor keltiradi.[51] Bu jangda sug‘dliklarning vaximaga tushib jang maydonidan chiqib ketishi mag‘lubiyatga sabab bo‘lgan deyiladi. IX asr arab manbalarida yozilishida Buxorodan 80ga yaqin asilzodalar Madinaga olib borilib qatl qilinadi. Bunga chiday olmagan malikzodalar Said ibn Usmon saroyiga bostirib kiradilar, malikzodalar avval

[51] Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи" Т.: “ФАН” 1970 7- Б

Said ibn Usmonni, so‘ngra o‘zlarini halok qiladilar deb yozilgan. Shunday qilib VIII asr boshlarigacha davom etgan arablarning Movarounnahrga qilgan dastlabki ayrim sarkadalarning boylik ortirish maqsadida o‘zboshimchalik bilan qilingan talonchiliklardan iborat ekanligining guvohi bo‘ldik. Natijada Movarounnahrning bir qancha joylari talanib vayron etildi. Bu jarayon ayniqsa Buxoro va uning atroflarida keng tus oldi. Arablar movarounnahrni bosib olar ekan ularni bu hududagi boyliklar, muhim savdo yo‘lida joylashganligi va ba’zi manbalarda qayd etilishicha ob-havosi yaxshi bo‘lganligi uchun ham ular asosiy e’tiborini shu o‘lkaga qaratgan deyiladi.

VII asr oxirlarida xalifalikni qamrab olgan ichki ziddiyatlar tabaqaviy qarama-qarshiliklarga xotima yasalib mamlakatda tinchlik o‘rnatilgandan keyin arablar movarounnahr hududini uzil kesil bosib olishga kirishdilar. 704-yilda Qutayba ibn Muslim Xurosonga noib qilib tayinlanadi. Unga vazifa tariqasida Movarounnahrdan to Xitoygacha bo‘lgan viloyatlarni bo‘ysuntirish topshirildi. Shunday qilib Arablarning Movarounnahrga yurishining ikkinchi davri boshlandi. Qutayba o‘z harbiy yurishlarini 705-yilda Balx viloyatini bo‘ysundirishdan boshlaydi. Qutayba 707- yilda Amudaryodan o‘tib Buxoroga hujum qiladi. Uning bu yurishida sotqin Balx dehqoni va Chag‘aniyon hokimining harbiy kuchlari qatnashadi. Qutayba dastlab yana Poykandga hujum qiladi. Chunki Poykand savdogarlar shahri edi u arab yozma manbalarida “Madina at-tujjor” deb atalgan yani “savdogarlar shahri” ba‘zan qal‘asining mustahkamligi sababli “jez shahar” deb tarif beriladi[52]. Rivoyat qilinishicha Qutayba Baykandni fatx qilganida bir bud xonadan og‘irligi 400 dirham keladigan keladigan bitta 54ta but, kumushdan yasalgan jomlar va yana ikkita kabutar tuxumidek keladigan marvaridlar topiladi. O‘lja qilib olingan barcha boyliklar taroziga tortilganida 150 ming misqol (1 misqol-4,240 gr) bo‘lgan albatta buni o‘sha davrlar uchun juda katta miqdordagi o‘lja desak bo‘ladi. Qutayba bu o‘ljalarni hammasini Hajjojga yuborganida u Qutaybaga xat yozib minnatdorchilik bildirgan “…xudo senga barokat bersin”[53] degan ekan. Qutayba Poykandni butnlay bosib olgandan so‘ng asosiy e‘tiborini uning atrofidagi qishloqlarga qaratadi. 710-yilda Naxshab va Keshni fatx etadi. Bu shaharlar buyuk ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan muhim savdo markazlari bo‘lgan. Arablar bu shaharlarni egallash orqali savdo yo‘llarini nazorat qilish va savdodan tushadigan soliqlarni yig‘ishni maqsad qilgan edilar. 708-yilga kelib Vardona hozirgi (Vardonze) ustiga yurish qilayotganda qarshilikka duch keladi. Turk xonlari Qutaybaga qarshi ittifoq tuzib Tarob, Xunbun[54] va Romitan oraligida to‘planadilar bularga Sug‘d xonlari,

[52] Абдулахад Мухаммажонов.Узбекистон тарихи. Т.:2004 68- Б
[53] Абу Бакр Мухаммад Ибн Жафарнаршахий. Бухоро тарихи. Т.: “Фан”1966 26-б
[54] Xunbun-bu Buxoro va Poykenyt oralig‘ida joylashgan qishloq

Farg‘ona podsholar va Uzoq Sharqdan kelgan Xitoy xoqonining ukasi Ko‘rmag‘onun ham 40 ming kishilik qo‘shin bilan itifoqqa qo‘shiladi ularning maqsadi arablarning hujumini to‘xtatish edi. Ular Qutaybani qurshab olganini tarixchi Tabariy juda yaxshi tariflagan uning rivoyat qilishicha, har tarafdan siqib qo‘yilgan arablar, qattiy mag‘lubiyat tahlikasini ko‘rgach, ularning xotinlari xunuk tovush bilan uvvos solib, yuzlarini tirnaydilar. Lekin Qutaybaning ta’sirchan nutqlari arablarning ruhini ko‘tardi “O‘g‘illarim olg‘a! Bu turklarni sizlar daf etishingiz kerak!” deb u turli qabilalarga dalda beradi. Uning da’vatiga avvalo Tamim qabilasi qo‘shildi. Uning askarboshisi amri bilan birinchilardan bo‘lib maydonga kirdi. Tabariy aytganiday, arablarning bu jangda g‘alaba qozongani shubhalidir. Lekin arablar bunda makkorlik bilan xiyla ishlatib turklarning saflarini buzishga muvaffaq bo‘ldilar deya talqin qiladi. Narshaxiyning rivoyat qilishicha Xiyla shunday ediki Qutaybaning yaqin kishilaridan biri Xayyoni Nabatiy[55] Qutaybaga qarab “Agar xudoyi taolo mening sababchiligim bilan bu baloni seni qaytarsa nima deysan?” deb so‘raydi. Bu yo‘l Qutaybaga ham maqul tushadi Nabatiyga bir kun muxlat beradi, erta tong bilan Xayyoni Nabatiy Sug‘d maliki Tarxunning oldiga odam yuborib muhim masala yuzasida uchrashishni so‘raydi, jang ayni qizg‘in paytda Tarxun va Nabatiy uchrashadi. Nabatiy suhbatda: biz arablar bu yerga havo issiq paytlarda kelamiz havo ham sovub qoldi va bizning ketish vaqtimiz keldi biz bu yerda turar ekanmiz turklar biz bilan urush qilaveradilar biz ketgandan keyin aynan sen bilan urush qiladilar deydi. Chunki Sug‘d bu yashash uchun yaxshi joy ular hech qachon Sug‘dni tashlab Turkistonga ketmaydilar deydi. Sening birdan bir yagona choraing shuki sen Qutayba bilan sulh tuzib biror narsa berasan, turklarga ahvolni shunday ko‘rsatasan xuddiki, biz arablarga Xajjojdan Kesh va Naxshab orqali katta lashkar kelayotganligiga ishontirasan shunday qilib turklar ham qaytadi biz ham sizlarga hujum qilmaymiz deydi bu maslahat Tarxunga maqul bo‘ladi. U tunda Qutayba oldiga o‘z elchilarini yuborib sulh tuzishga roziligini bildiradi sulhga ko‘ra Tarxun ikki ming dirham pul to‘lab jang maydonidan o‘z qo‘shinlarini olib chiqadi. Xitoy podshosining jiyani Ko‘rmag‘onun ham o‘z qo‘shinlari jang maydonidan olib chiqib ketadi shu tariqa 120 minglik qo‘shin tarqalib ketadi birgina xiyla Qutaybani o‘limdan saqlab qoladi

Arablar Movarounnahrni butunlay bosib olgach, Fotixlar[56] bu mamlakatda xalifalik hukumronligini mustahkamlash va mahaliy aholidan ko‘proq bo‘ylik olishni maqsad qilgan edilar. Buning uchun arablar dastlab ishni Movarounnahrning yirik shaharlariga o‘zlarining harbiy qismlarini joylashtirishdan boshladilar. Bu harbiy kuchga tayanib ular aholidan

[55] Xayyoni Nabatiy -Qutayba ibn Muslimning yaqin kishilaridan
[56]Fotix-arabcha so‘z bo‘lib “g‘olib”yoki “zabt etivchi” degan manolarini anglatadi.

qo‘shimcha soliqlar undirar, jamoat ishlariga safarbar qilar edilar bundan tashari Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga yashab ularning xati-harakatlaridan xabardor bo‘lib tursalar ular majburan musulmon bo‘ladilar degan maqsadda Buxoro aholisiga o‘z uylarining yarmini arablarga berish tog‘risida buyruq chiqaradi. Bu kabi holat Buxorodan tashqari Marv va Samarqand shaharlarida ham yuz beradi. Bu harakatning maqsadi aholi madanyatiga tasir o‘tkazish edi. Fotixlar Movarounnarhrni fath qilar ekan bu yerda xalifalik xokimyatini mustahkamlash va barqarorligini taminlash uchun islom dini tag‘ribotini kengroq yoyishga ahamiyat beradilar. Arablar yerli aholining ma’naviy hayotida muhim o‘rin olgan otashparastlik, nasroniylik, moniylik, buddaviylik, zardushdiylik dinlarini soxta dinlar deb e’lon qiladi. Bu dinlarga oid ibodatxonalarni yo‘q qilib o‘rnida jome masjidlari qurdiradi. Hamma joyda soxta dinlarga oid kitoblar hamda sug’d yozuvida bitilgan xalq adabiyotlari yoqib yuboriladi. Islom dinini qabul qilib musulmon bo‘lgan mahalliy aholi vakillari, dastlabki yillarda soliqlardan (jizya va xiroj) ozod bo‘lib ularga keng imkonyatlar yaratiladi. Misol uchun islomning asosiy ruknlariga amal qilib, besh vaqt namozini o‘qish niyatida masjidga borgan har bir insonga ikki dirhamdan pul berilgan. Islomni qabul qilmagan aholi esa jon solig‘ini (jizya) to‘lab kelgan. Soliqlarni o‘z vaqtida to‘lay olmagan kishilar tutib olinib bo‘yniga “qarzdor” deb yozilgan taxtacha osib qo‘yilgan. Bunday amaliy chora tadbirlar o‘z navbatida o‘lkada islom dinining aholi o‘rtasida tarqalishiga yordam bergan. O‘g‘ir soliqlardan qutulish uchun aholining kambag‘al qismi islomni qabul qiladi. Arablar yerli aholiga majburan islom dinini qabul qildirsalarda, islomni qabul qilgan aholining ko‘pchiligi nomigagina musulmon bo‘lib uzoq vaqtlargacha o‘zlarining din va e’tiqodlariga sodiqliklaricha qolaveradilar. Shu tariqa arablar Movarounnahr aholisini majburan islom dininga o‘tkazib kelganlar natijada Movarounnahr aholisi uzoq davr mobaynida yoppasiga besavod bo’lib qolgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish joizki, arablarning Movarounnahrga yurishi birinchidan shaharlarning ayovsiz talanishi, ekin maydonlarining oyoq osti bo‘lishi, suv inshoatlarining buzilishi, juda ko’p shahar va qishloqlarning varon qilinishiga olib kelgan. Movarounnahr aholisining urf-odatlari, diniy e’tiqodi va qadimdan rivojlanib kelayotgan madaniyatining poymol bo‘lishi kuzatilgan. Ikkinchidan esa Islomning qabul qilinishi sababli mintaqada jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Masjid va madrasalar qurildi, mamlakatda arab tili va yozuvi keng yoyildi, islom huquqi masalalari rivojlantirildi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Абу Бакр Мухаммад Ибн Жафарнаршахий. Бухоро тарихи. Т.: “Фан”1966 8-27 б.

2. Абул Аббос Ахмад Ибн Йахйо Ал Балозурий. Футух ал булдон. Т.: 2017.
3. Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи" Т.: “Фан” 1970 6-12 б.
4. Rustambek Shamsutdinov. Vatan tarixi t.: “Sharq”, 2010. 132-137 b.
5. Абдулахад Мухаммажонов.Ўзбекистон тарихи. Т.: 2004. 65-76 б.
6. Карим Шониёзов. Ўзбек халқининг шакилланиш жараёни. Т.: “Шарқ”, 2001. 181-188 б.

G‘URIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI VA HARBIY YURISHLARI

Qurbonova Laylo Humoyiddin qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi
1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Xudoynazarov I.B**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada g‘uriylarning kelib chiqishi, tashkil topishi, ular yashagan hozirgi Afg‘oniston davlati hududidagi G‘ur o‘lkasi va ularning harbiy yurishlari haqida ma’lumot beriladi. Bu qabila asosan 12-asrda ulkan davlat tuzgan bo‘lib, asosan o‘zlarini kelib chiqishlarini forslarga olib boradi. G‘uriylar Shansaboniylar sulolasi deb nomlanib, g‘uriylar atamasi ularning shu toponim joy nomlaridan kelib chiqqan ya’ni ular G‘ur o‘lkasida yashaganliklari uchun ham shu nom bilan atalganlar. Shuningdek bu davlat hududi o‘z davrida ancha kengayib, ulkan hududlarni egallaganini ham guvohi bo‘lamiz. Maqola shu ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *G‘uriylar, ko‘chmanchi, G‘ur o‘lkasi, Hari Rud, Farah Rud, Rahmat Muhsin, Abulxay Habibiy, Aziz Ahmad Panjsheriy, Al -e Shansab, Mandesh, Muizziddin, Alovuddin Husayn*

Hozirgi Afg‘oniston davlati hududida o‘rta asrlarda g‘uriy degan ko‘chmanchi qabila yashagan bo‘lib, ularning asosiy yashash joylari G‘ur degan o‘lkaga to‘g‘ri kelgan. G‘ur o‘lkasi Hirotning sharqiy va janubi-sharqiy qismida joylashgan tog‘li hudud hisoblanadi. Bu hudud yuqori Hari Rud, Farah Rud va Xashrud havzalari bilan bir qatorda oralig‘idagi tog‘ zanjirlarini ham o‘z ichiga olgan. Bu hudud chegaralari haqida Eron tarixchisi Rahmat Muhsin shunday ta’riflaydi: “G‘ur hududining shimoli Guzgon va Toxaristongacha, sharq va janubi-sharqiyda Kobulgacha

cho‘zilgan. G‘arbda esa Bust, Zomin va Dovar hududlari bilan chegaradosh bo‘lgan. G‘ur hududida har bir qabila mustaqil hukmronlik qilgan va patriarxal an’analar chuqur ildiz otgan. Bu so‘zning ma’nosini afg‘on tarixchisi Gavsuddin Mustamandiy Muhammad Husayn ibn Xalafat-Tabriziyning “Burxoniy Kote” ya’ni “ Ishonchli dalil” izohli lug‘atiga tayangan holda shunday yozadi: “ Mur” yoki “Nur” ma’nosida “Gur” Qandahor yaqinida joylashgan[57]. Bu tarixchining fikrini rad etgan boshqa afg‘on tarixchilari Abulxay Habibiy va Aziz Ahmad Panjsheriy o‘z asarlarida shunday ta’kidlaydilar: “Gur” so‘zi juda qadimiy bo‘lib, avesto tilida, sanskrit va baqtriya tillarida “Gur” so‘zi “Tog‘” ma’nosini anglatadi. Bizning fikrimizcha bu tarixchilarning fikrlaridan Abulxay Habibiy va Aziz Ahmad Panjsheriyning so‘zlari ishonchliroq chunki tojik tilida hali ham “Gur” so‘ziga o‘xshagan “Gar” so‘zi “Tog‘” ma’nosini bildiradi. Yana qo‘shimcha ma’lumot sifatida “Gur” so‘zi rus tilida “Tog‘li o‘lka” deb tarjima qilinadi. Mana shunday joyda yashagan ko‘chmanchi g‘uriylarning kelib chiqishi haqida ma’lumotlar berib o‘tamiz.

G‘uriylar o‘zlarini Shansabani deb atashgan. Sharqshunos Klifford Edmund g‘uriylar oilasining haqiqiy nomi “Al -e Shansab” bo‘lib, forscha Vishnasp ismining arabcha talaffuz qilinishidir. Shuningdek g‘uriylar Zahok Shansaboniylar sulolasining birinchi ajdodidir. Yana sulolaning asoschisi Shansab ham Zahok avlodlari ekanligini aytadi. Shuningdek 13-asr boshlarida G‘uriylar sulolasi tarixchisi Juzjoniy o‘zining “ Tabaqat-i Nosiriy” kitobida “Shansaboniy nomini aytib, Shansaboniylardan eng mashhuri Amir Banji bo‘lib,u Shansaboniy amirlarining ota- bobosi hisoblanadi” deb ta’riflaydi.Bu sulolaga G‘uriylar nomining berilishi esa ularning toponimi ya’ni yashagan joylari nomidan kelib chiqqan. Ular G‘ur viloyatida yashaganlari uchun ham shu nomda atalganlar. G‘uriylar g‘arb tillarida nisbatan kam e’tibor qozongan davlat bo‘lsa-da, ko‘pincha ular mashhur G‘aznaviylar davlati soyasida qolib ketgan. Lekin g‘uriylar haqida to’liq fors tilida to‘rtta monografiya mavjud. Bular: Atiq Pajvakning “G‘urriyan” deb nomlangan kitobi 1968-1969-yillarda Kobulda “ Anjuman tarix Afg‘oniston” nashriyotda chop etilgan. Yana Mahdi Roschanzamirning “Tarix-e Siyosi va Nizomi-ye G‘udi” Tehronda nashr etilgan. Nihoyat 2009-

[57] Шарипов М.М Географическое положение Гура в 11-12вв. Б 7.

yilda Mahmudshoh Mahmudning “Tarixi imperatori Gurriyon” asari Kobuldagi “Muassasah Intishharat Kavar” nashriyotida chop etilgan[58].

Shuningdek bu qabila dastlab G‘aznaviylar ta’sirida bo‘lganligi sababli 1011-yilda Sulton Mahmud G‘aznaviy Hirot va Tus hokimlari Oltuntosh va Arslon Hojibni G‘urga jo‘natadi. Maqsadi G‘urni bosib olish edi. Keyin G‘aznaviy qo‘shinlari Ohangaronga hujum qildilar. G‘uriylardan Muhammad Suriy qarshilik ko‘rsatadi lekin G‘aznaviylar G‘uriylarni mag‘lub etadi va Muhammad Suriy va o‘g‘li Shit asir olinadi. Lekin Muhammad Suriyning yana bir boshqa o‘g‘li Abu Ali Sulton Mahmud bilan yaxshi munosabatda bo‘lgan. Bundan keyin Abu Alining otasi bilan munosabatlari yomonlashgan. G‘uriylarning birinchilardan bo‘lib islomni qabul qilgan hukmdorlaridan biri bo‘lgan. Shu davrda G‘aznaviylar tarixchisi Bayhaqiyning yozishicha: “G‘aznaviylar 1020-yilda G‘urning shimoli-g‘arbiy qismi Nab hududini ham bo‘ysundirgan. Shunday qilib keyinchalik G‘aznaviylar davlatini tugatgan g‘uriylar o‘zlari yashagan hududlarida o‘zlarining ulkan davlatlarini tuzganlar. G‘uriylarning 1-ajdodi Amir Suriy ibn Muhammad Mandesh shahrida hukmronlik qilgan.Uning hukmronligi 1146-yilgacha davom etgan. Bu paytda Zamindovar va Firuzkuh hududlari ham ular qo‘lida bo‘lgan. Va nihoyat Alovuddin Husayn Jahonso‘z salmoqli qo‘shin to‘plab, G‘aznaviylar hukmdori Bahromshohni mag‘lub etib, ukasi Surini u yerda hukmdor etib tayinladi. Lekin tez orada Bahromshoh Hindistondan qo‘shin bilan qaytib keladi va Surini mag‘lub etib, G‘azna shahrini qaytarib oladi. Surini esa alamli tarzda o‘ldirtiradi. Bundan xabar topgan Alovuddin Husayn ukasi uchun qasos olishga keladi va G‘aznaga hujum qilib, uchta jangda Bahromshohni mag‘lub etib, G‘azna shahrini qaytarib oladi. G‘aznaviylar davlatini talon-taroj qiladi, mamlakat hamma qismini vayronaga aylantiradi va shu tarzda ukasining alamini oladi. Alovuddin Husayn bu shafqatsizliklari tufayli “Jahonsuz” ya’ni “Jahon kuydiruvchi” laqabini olgan. Shundan so‘ng 1148-yilda Alovuddin Husayn Jahonso‘z G‘uriylar mustaqilligini jahonga e’lon qiladi va mustaqil G‘uriylar davlati tashkil topadi. Bu davlatning poytaxti Firuzkuh shahri bo‘lib, kechinchalik Hirotga ko‘chirilgan. G‘uriylar davlati g‘arbda Xurosonni qoplab, sharqda shimoliy Hindiston va Bengaliyagacha borgan. Yana ular bosib olgan G‘azna va Lahor shaharlari qish oylarida qo‘shimcha

[58] Alka Patel. Text as nationalist object: modern persian-language historiography on the ghurids (C. 1150-1215). – In India and Iran in the Longue Durée (eds. A. Patel & T. Daryaee). Irvine, CA: Jordan Center for Persian Studies, 2017. B 148

poytaxt vazifasini ham bajargan. G‘uriylar davlati bir qancha hukmdorlar tomonidan boshqarilgan bo‘lib, ular davri haqida birma-bir o‘rganib chiqamiz. G‘uriylar davlatining rivojlangan cho‘qqisi mashhur hukmdorlaridan biri Malik Bahoad-Din Somning o‘g‘illari G‘iyosiddin va Muizziddin davrlarini ham aytishimiz mumkin. Bu hukmdorlardan G‘iyosiddin 1163-yilda Firuzkuhda taxtga kelgan. Ukasi Muizziddinga esa Istiyon va Kajuron hududlarini topshirgan. Shuningdek G‘iyosiddin birodarlik siyosatini yo‘lga qo‘ygan shohlardan biri bo‘lib, u ukasi Muizziddinga va uning jiyani Malik Faxriddin Ma’sudning o‘g‘li bomiyonlik Malik Shamsiddin Muhammadga sulton unvonini bergan. U yana Bag‘doddagi Abbosiy xalifasi bilan ham aloqa o‘rnatgan bo‘lib, uning ma’naviy yordami bilan ham katta obro‘ga ham erishgan. G‘iyosiddin katta raqiblaridan biri Abul Abbosni yetganidan keyin G‘uriylar davlati uning qo‘liga o‘tgan. U o‘z kuchini janubga, Zamin-Dovarga qaratgan va yana Saljuqiylar sultoni Sanjarning harbiy quli Tojiddin Yildiz vafot etgach, Hirotning boshliq va zodagonlari G‘iyosiddinni taklif qiladilar va G‘iyosiddin o‘sha yerda ham o‘z mavqeini mustahkamlaydi.

G‘iyosiddin 1775-yilda G‘ur va G‘azna qo‘shinlari bilan kelib, Hirotni egallaydi va Pushangni ham bosib oladilar. Bu g‘alabalar G‘iyosiddin obro‘-e’tiborini shu qadar oshiradiki, shunday so‘ng Seiston ham uning vassaliga aylanadi. Komron o‘g‘uz malikalari ham unga bo‘ysunadi. Yana aka-ukalar 1192- yilda 2 ta tarixiy jangda ham g‘alaba qozonganlar. Ulardan biri Murg‘ob daryosi qirg‘og‘ida bo‘lib, Xorazmning mag‘lubiyatiga olib kelgan. Ikkinchisi Panjobdagi Tarayinda G‘uriylar qo‘shini bilan shimoliy Hindiston darvozalari ochilgan va g‘uriylar istilolari Kashmirgacha cho‘zilgan. O‘zi G‘uriylarning Hindistonga bostirib kirishlari 1175-yilda Muizziddin Mo‘lton tomonga yurib, u yerda qayta tiklangan karmatiyaliklarni ag‘darib tashlaganidan boshlangan edi. Keyin u 1178-yilda Gujarotga qo‘shinni boshqarib, kuchli qo‘shinga ega bo‘lgan hindu Nahrvalaga qarshi chiqadi. Shunday tezlikda harakat qilgan Muizziddin 1776-yilda Peshovorni egallagan.

Shuningdek 1992-yilda G‘uriylar Hindistonga yurish qilib, ikki qo‘shin Taraorida uchrashdi. Hukmdor Muizziddin bilan bo‘lgan jangda nafaqat dushmanni charchatish balki ularni sarosimaga solib qo‘yadigan taktikani ham qo‘llashgan. Markazdagi 12000 ta qo‘shin bilan hal qiluvchi jangda Raja va uning ukasining o‘limi bilan Muizziddin g‘alaba qozonadi. Shu jangda u shimoliy Hindistonni oladi. Yana Ajmerni hududlari ham G‘uriylar nazoratida bo‘lib, lekin 1196-yilda Nahrvala hukmdori Bhima

Deva tortib olishga harakat qilgan lekin Muizziddinning yordami bilan Qutbiddin Oyboq Bhima Devani Nahrvalaga haydab, uning qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratgan. Shunday qilib G‘uriylarning Hindistonga oxirgi yurishi 1205-1206-yillarda bo‘lgan[59].

Muizziddin davrida oxirgi yurishlari ham bo‘lgan. Endi yana G‘uriylar nazorati Xurosonning katta qismiga tarqaldi va sultonning nomi minbarlarda talaffuz qilinib, u yerlarda zarb qilinadigan tangalarda yozib qo‘yildi. Shuningdek G‘uriylar va Xorazmshohlar o‘rtasida ham to‘qnashuv bo‘lib, bu to‘qnashuvlar bir necha oy davom etgan. 1200-yilda Xorazmshohlar hukmdori Sulton Tekesh vafot etgach, G‘iyosiddin va Muizziddin Nishopurni egallab, uni Abu Alining o‘g‘li va G‘iyosiddinning kuyovi Diyoiddinga topshiradilar. Shu tariqa bular davrida G‘uriylar katta davkatga aylanadi. Bular davrida G‘uriylar davlatida tanga pullar ham zarb etilgan. Tez orada G‘iyosiddin 1202-yilda 63 yoshida vafot etadi va uni Hirotda dafn etishadi. Uning ukasi Muizziddin esa 1206-yilda Hindistonda ismoiliy mutaassib tomonidan o‘ldirilgan va uning turk sarkardalari Qutbiddin Oyboq, Tojiddin Yildiz va Nosiriddin Qubacha o‘rtasida nizolar kelib chiqadi va tezda G‘azna G‘uriylar tarkibidan ajralib chiqadi. G‘urid tarixchilaridan biri Faxr Muddabirning yozishicha Qutbiddin Oyboq rasmiy ravishda 1206-yilda noiblik vakolatiga ega bo‘lgan va Muizziddin tomonidan “val al-ahd” ya’ni merosxo‘r etib tayinlangan. Qutbiddin Oyboq G‘uriylar davlati birligi Xorazmshohlar tomonidan buzilganidan keyin Hindistonda o‘z hokimiyatini o‘rnatgan. Shunday qilib G‘uriylar davlatining so‘nggi hukmdori Alovuddin bo‘lib, saltanatning asoschisi Jahonso‘zning nabirasi hisoblanadi. U Firuzkuhda 4 yil hukmronlik qilgan bo‘lib, 1215-yilda shahar Xorazmshohlar tomonidan bosib olinadi va shu bilan G‘uriylar davlati tugatiladi.

Xulosa qilib shuni aytishim kerakki Afg‘onistonning G‘ur hududida yashagan shu toponim joy nomidan kelib chiqqan g‘uriylar asli forsiy qabila bo‘lib, ulkan G‘uriylar davlatiga asos solgan. G‘uriylar davlati 12-asrda Alovuddin Husayn Jahonso‘zning tashabbusi bilan butun dunyoga o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan keyin o‘z faoliyatini boshlab, katta ulkan hududlarni o‘z ichiga olgan davlatga aylangan. Bu davlatning hududi hatto shimoliy Hindiston va Bengaliyagacha cho‘zilib kengaygan bo‘lib, bunday katta kengayish uning mashhur hukmdorlari G‘iyosiddin va Muizziddin

[59] BRIG.-GEN. SIR PERCY SYKES K.C.I.E., C.B., C.M.G. COLO MIDALLIIT OF THE ROYAL GEOGRAPHICAL AND ROYAL EMPIRE SOCIETIES. AUTHOR OF “A HI8TORY OF PERSIA”, “A HISTORY OF EXPLORATION”, ETC. – LONDON MACMILLAN & CO. LTD 1940: B 212

davrlariga to‘g‘ri kelganini ko‘rishimiz mumkin. Bu davlat forsiylar dunyosida o‘z o‘rnida ega bo‘lib, ulkan hududlarni boshqara olgandir. Shuningdek o‘z tarixida ham o‘chmas iz qoldirgan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. BRIG.-GEN. SIR PERCY SYKES K.C.I.E., C.B., C.M.G. COLO MIDALLIIT OF THE ROYAL GEOGRAPHICAL AND ROYAL EMPIRE SOCIETIES. AUTHOR OF “A HI8TORY OF PERSIA”, “A HISTORY OF EXPLORATION”, ETC. – LONDON MACMILLAN & CO. LTD 1940. B 211-213
2. Alka Patel. Text as nationalist object: modern persian-language historiography on the ghurids (C. 1150-1215). In India and Iran in the Longue Durée (eds. A. Patel & T. Daryaee). Irvine, CA: Jordan Center for Persian Studies, 2017. B 148-172
3. Nizami K.A. The region of Ghur and the beginnings of Islamization B 186-189
4. Шарипов М.М Географическое положение Гура в 11-12вв. Б 7.
5. https://oefen.uz/uz/documents/diplom-ishlar/umumiy/o’rta-asrlarda-g’uriylar-davlati

SALJUQIYLAR: ISLOM OLAMINING SIYOSIY VA DINIY MAQOMINI O'ZGARTIRGAN IMPERIYA

Shaxzoda Jalolova
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Xudoynazarov I.B

Annotatsiya: *Saljuqiy turklar tarixan jangchilar guruhi sifatida ko‘chmanchi hayot kechirgan bo‘lib, ular X asrning oxirlariga kelib islomning sunniylik yo‘nalishini qabul qilgan edilar. Keyingi yarim asr mobaynida Saljuqiylar bugungi kunda Yaqin Sharq deb ataladigan hududning katta qismini zabt etdilar. Buyuk Saljuqiylar imperiyasi mintaqada asosiy siyosiy kuchga aylandi hamda o‘zlarini sunniy islomning himoyachilari sifatida ko‘rsatdi. Tarixchi olimlar Saljuqiylar hukmronlik qilgan ushbu davrni "Sunniy uyg‘onish" davri deb atashadi. Ammo tarixchilar Saljuqiylarning siyosiy va diniy faoliyati bu uyg‘onishning bevosita sababi bo‘lganmi yoki aslida bunday uyg‘onish umuman*

bo‘lmaganmi degan masala ustida qizg‘in bahslashadilar. Ushbu jarayonda Saljuqiylarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etgani yoki etmagani haqidagi savol mintaqaning diniy va siyosiy tarixidagi burilish nuqtasini tushunish uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Mening tadqiqotim 1000-1200 yillar oralig‘ida ya’ni saljuqiylarning islom dunyosiga kirib kelishi va buning natijasida islom jamiyatlarida kuzatilgan tizimli o‘zgarishlarni tahlil qilishga qaratilgan. Bu doirada "Sunniy uyg‘onish" tushunchasining o‘zi, Saljuqiylar sulolasining roli hamda ular va boshqa kuchlar tomonidan qo‘llangan siyosiy va diniy strategiyalarni tahlil qilaman. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Saljuqiylar o‘zlarining diniy sadoqati va siyosiy boshqaruv tizimi bilan shunday hukmronlik me’yorlarini shakllantirdiki, bu me’yorlar keyingi davrlar mobaynida islom va islomiy boshqaruv tizimiga ta’sir ko‘rsatdi.

***Kalit so‘zlar**: Buvayhiylar, Movarounnahr, Xorazm, Vizantiya, Bag'dod, Anadolu, Mosul, G'aznaviylar, Saljuqiylar, O'g'uzlar, Zangiylar, Salg'uriylar, Buriylar, geosiyosiy, sunniylik, shialik, shofi'y-ash'ariy, sunniy uyg'onish, atabeglik, Abbosiylar, Umaviylar, To'g'rulbek, Al-Qodir, Al-Qoim, hashshoshiylar, Ismoiliy Fotimiylar, Hasan as-Sabboh, Nizom al-Mulk, Alamut, Mansikert, Al-Azhar, xonaqoh, Imom G'azzoliy, tasavvuf, siyosiy konsolidatsiya.*

***Abstract:**The Seljuq Turks, historically known as a group of warrior nomads, led a nomadic lifestyle and adopted Sunni Islam by the late 10th century. Over the next half-century, the Seljuqs conquered a vast portion of what is now referred to as the Middle East. The Great Seljuq Empire emerged as the dominant political force in the region, positioning itself as the protector of Sunni Islam. Historians characterize this period of Seljuq rule as the era of the "Sunni Revival." However, scholars continue to debate whether the Seljuqs' political and religious actions were the direct cause of this so-called revival or if such a revival ever truly occurred. The question of the Seljuqs’ direct involvement in this transformation is crucial to understanding the major religious and political shifts of the time. My research focuses on the period between 1000 and 1200 CE, analyzing the Seljuqs' entry into the Islamic world and the structural changes that occurred in Islamic societies as a result. In this study, I examine the concept of the "Sunni Revival," the role of the Seljuq dynasty, and the political and religious strategies employed by both the Seljuqs and other influential forces. The findings suggest that the Seljuqs established governance norms through their religious commitment and political administration, shaping standards of rule that significantly influenced Islam and Islamic governance in the centuries that followed.*

***Keywords**: The Buyids, Transoxiana, Khwarezm, Byzantium, Baghdad, Anatolia, Mosul, the Ghaznavids, the Seljuks, the Oghuz Turks, the Zengids, the Salghurids, the Burids, geopolitical, Sunnism, Shi'ism, Shafi'i-Ash'ari, Sunni revival, Atabegate, the Abbasids, the Umayyads, Tughril Beg, Al-Qadir, Al-Qa'im, the Assassins (Hashashin), the Ismaili Fatimids, Hassan-i Sabbah, Nizam al-Mulk, Alamut, Manzikert, Al-Azhar, Khanqah, Imam al-Ghazali, Sufism, political consolidation.*

***Абстракт:** Сельджукские тюрки, исторически известные как группа кочевых воинов, вели кочевой образ жизни и к концу X века приняли суннитский ислам. В течение последующих пятидесяти лет сельджуки завоевали значительную часть территории, которая сегодня известна как Ближний Восток. Великая Сельджукская империя стала доминирующей политической силой в регионе, заявив о себе как о защитниках суннитского ислама. Историки называют этот период правления сельджуков эпохой «суннитского возрождения». Однако среди ученых ведутся активные дискуссии о том, была ли политика и религиозная деятельность сельджуков непосредственной причиной этого возрождения или же подобного процесса не происходило вовсе. Вопрос о прямом участии сельджуков в этих изменениях имеет важное значение для понимания ключевых религиозных и политических сдвигов того времени. Моё исследование охватывает период с 1000 по 1200 годы и анализирует, как вхождение сельджуков в исламский мир повлияло на структурные изменения в исламских обществах. В данном исследовании рассматриваются концепция «суннитского возрождения», роль династии сельджуков, а также политические и религиозные стратегии, применяемые как сельджуками, так и другими влиятельными силами. Результаты исследования показывают, что сельджуки, благодаря своей религиозной преданности и системе управления, установили стандарты правления, которые оказывали значительное влияние на ислам и исламское управление на протяжении последующих веков.*

***Ключевые слова**: Буиды, Трансоксиана, Хорезм, Византия, Багдад, Анатолия, Мосул, Газневиды, Сельджуки, Огузские тюрки, Зенгиды, Салгуриды, Буриды, геополитический, суннизм, шиизм, шафиитско-ашаритский, суннитское возрождение, атабекство, Аббасиды, Омейяды, Тогрул-бек, Аль-Кадир, Аль-Каим, ассасины (хашашины), исмаилитские Фатимиды, Хасан ибн Саббах, Низам аль-Мульк, Аламут, Манцикерт, Аль-Азхар, ханка, Имам аль-Газали, суфизм, политическая консолидация.*

Islom tarixida har bir davr o‘ziga xos burilish nuqtasiga ega bo‘lgan. Biroq, Saljuqiylar sahnaga chiqqan XI asr — bu oddiy bir siyosiy o‘zgarish emas, balki islom sivilizatsiyasining taqdiri hal bo‘lgan davr edi. Xalifalik kuchsizlangan, Bag‘dodda shia Buvayhiylar sulolasi hukmronlik qilayotgan, sharqda esa turli mahalliy sulolalar musulmon dunyosini bo‘laklarga bo‘lib tashlagan edi. Aynan shunday bir muhitda Saljuqiylar paydo bo‘ldi va ular nafaqat geosiyosiy xaritani, balki butun musulmon dunyosining mafkuraviy asoslarini qayta shakllantirdi.

Buyuk Saljuqiylar islom tarixining markaziga kirib bordilar. Dastlab Saljuqiylar Xorazm va Movarounnahr sarhadlarida yashagan katta O‘g‘uz qabilasining bir bo‘lagi bo‘lgan. X asrning oxirlariga kelib, o‘z fathlari davomida Xuroson va Movarounnahrni egalladilar, so‘ngra G‘aznaviylarlarni mag‘lubiyatga uchratdilar. 1055-yilda Saljuqiylar Bag‘dodga yurish qilib, Abbosiy xalifasining iltimosiga binoan shia Buvayhiylarini hokimiyatdan chetlatish orqali "sunniy uyg‘onishi" davri tarixini boshladilar[60]. Saljuqiylar sunniylik diniy institutlarni va ayniqsa, ulamolarni qo‘llab-quvvatladilar, buning natijasida sunniylik misli ko‘rilmagan darajada yuksaklikka erishdi. Shu bilan birga, tasavvuf nomi bilan tanilgan zohidlik harakati ham yanada keng tarqalib, jamiyat tomonidan sekin-asta qabul qilina boshladi. Siyosiy yutuqlar nuqtayi nazaridan Saljuqiylar Anadolining katta qismini muvaffaqiyatli zabt etgan ilk musulmon sulolasi bo‘ldi. Aynan shu hodisa keyingi asrlarda Sharqiy Rim imperiyasini (Vizantiyani) tor-mor qilish uchun yangi yo‘l ochdi. Saljuqiylarning musulmon dunyosiga kirib kelishi natijasida yuz bergan siyosiy va diniy transformatsiya haqiqatan ham bir inqilob edi. Biroq Saljuqiylar joriy qilgan yangi siyosiy tizimlar, masalan, otaliqlik (atabeg) instituti hamda davlat hokimiyatining butun sulola a’zolari o‘rtasida taqsimlanishi uzoq muddatli istiqbolda Saljuqiylar davlatining mustahkamligi va birligini zaiflashishiga olib keldi[61]. Turli tarixchilar asarlariga nazar tashlaganda, bu diniy va siyosiy o‘zgarishlar munozarali masala ekani ayon bo‘ladi.

Saljuqiylarning Bag‘dodga kirishi faqat siyosiy o‘zgarish emas edi, balki islomning o‘zagi bo‘lmish xalifalikni qayta tiklash urinishining bir qismi edi[62]. Sunniy islomning kuchayishi bejiz emas edi. Saljuqiylarning diniy siyosati tasodifiy bir hodisa emas, balki islomning omon qolishi uchun zarurat edi. Buvayhiylar boshchiligidagi shia mafkurasi Bag‘dodda an’anaviy sunniy ilmlarini siqib chiqarar, xalifalik quruq bir nominal institutga aylanib borardi. Saljuqiylar esa Buvayhiylarni taxtdan ag‘darib,

[60] Peacock.A.C.S.The Great Seljuk Empire.- Edinburgh University Press,2015.-124-155p.
[61] Mr.A-nuwa Waesamoh.The main religious and political changes brought about by the arrival of the Seljuks into the Muslim world.- Edinburgh University Press,2015.-1p.
[62] Ibn al-Athir. Al-Kamil fi al-Tarikh.-Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya,1995.Transl.D.S.Richards.vol.9.-98p.

Abbosiy xalifaligini ramziy bo‘lsa ham qayta jonlantirdi. Lekin bu faqat tashqi bir g‘alaba emas, balki islom tafakkuridagi fundamental o‘zgarishning boshlanishi edi.

XI asrning o‘rtalarida Saljuqiylarning Islom hududida paydo bo‘lishi ko‘pincha “sunniylikning qayta tiklanishi” davri sifatida tilga olinadi. Chunki ular X asrdan buyon Bag‘dodda hukmronlik qilgan shia Buvayhiylar sulolasini ag‘darishga muvaffaq bo‘ldilar. Biroq, ba’zi tarixchilar sunniylikning jonlanishi faqat Saljuqiylarning kelishi bilan bog‘liq emasligini ta’kidlaydilar. Aksincha, bu jarayon Buvayhiylar davridayoq, ya’ni X asr oxirida boshlanib ketgan edi. Bu davrda xalifalar diniy va siyosiy sohada o‘z mavqeyini mustahkamlashga harakat qilib, Hanbaliy mazhabi bilan yaqin hamkorlik qilish orqali o‘z hokimiyatini tiklashga intilgan edilar. Masalan, xalifa Al-Qodir (991–1031) va uning vorisi Al-Qoim allaqachon "Qodiriy-Qoim aqidasi" deb nomlangan hujjatni e’lon qilib, xalifaning sunniylikni himoya qilishdagi markaziy rolini belgilab bergan edilar[63]. Shunga qaramay, xalifalar mustaqil harbiy kuch va yetarli moliyaviy resurslarga ega emas edilar. Shu sababli, Buvayhiylar sulolasini butunlay yo‘q qilish va sunniylikni to‘liq qayta tiklash jarayoni o‘nlab yillar, hatto bir necha asr talab qilishi mumkin edi. Shuning uchun ham kuchli harbiy salohiyatga ega tashqi kuch – Saljuqiylarning aralashuvi shia hukmronligini tugatish va uning o‘rniga sunniylikni tiklashda hal qiluvchi omil bo‘ldi. Biroq, bu g‘alaba butun Islom olamida sunniylikni tiklashga yetarli emas edi. Saljuqiylarning ta’siri asosan Islom dunyosining sharqiy qismida sezilarli bo‘ldi.

Saljuqiylar g‘arbiy hududlarda, ayniqsa, Misrda ismoiliy Fotimiylar sulolasi hukmronligi ostida bo‘lgan yana bir shia mazhabini yo‘q qilishda anchagina qiyinchilikka duch kelishdi. Agar ismoiliy shia sulolasining ushbu tayanchi saqlanib qolganida, sunniylikni tiklash jarayoni to‘liq yakuniga yetmagan bo‘lar edi. Saljuqiylar aslida Fotimiylar sulolasini butkul yo‘q qilishga muvaffaq bo‘la olmadilar va ularning yana yuz yil davomida hokimiyatda qolishiga imkon berdilar. Shu bilan birga, Saljuqiylar davridagi sunniy uyg‘onishi radikal ismoiliylar — Hashshoshiylar (Assassins)ni keskin choralar ko‘rishga majbur qildi. 1090-yilda ushbu guruhning forsiy yetakchisi Hasan as-Sabboh Shimoliy Erondagi Alamut qal’asini egallab, uni o‘zining terroristik lageriga aylantirdi[64]. Ushbu lagerning asosiy maqsadi asosiy dushmanlarini yo‘q qilish edi va ular tomonidan amalga oshirilgan dastlabki suiqasdlardan biri Saljuqiy sultonlariga uzoq yillar maslahatchilik qilgan Nizom al-Mulkning

[63] Mr.A-nuwa Waesamoh.The main religious and political changes brought about by the arrival of the Seljuks into the Muslim world.- Edinburgh University Press,2015.-2p.

[64] The original 'Assassins': Medieval warriors of Alamut https://www.nationalgeographic.com/history/history-magazine/article/nizari-ismaili-muslim-warriors-medieval-times

o‘ldirilishi bo‘ldi. 1092-yilda Nizom al-Mulk suiqasd natijasida halok bo‘lishi, keyingi Saljuqiy sultonlarining qattiqqo‘l siyosatlarini biroz yumshatishiga olib keldi, hatto XII asrda ba’zi shialarning yuqori davlat lavozimlarida ishlashiga ruxsat berdilar. Bu holat Saljuqiylarning Misrdagi shia sulolasiga qarshi kurashi, ayniqsa harbiy jihatdan, muvaffaqiyatsiz bo‘lganini ko‘rsatadi. Diniy nuqtayi nazardan esa Saljuqiylar bir qancha muhim yutuqlarga erishdilar.

Saljuqiylar ham sunniy islomning himoyachilari sifatida tan olingan, chunki ular sunniy diniy muassasalar va olimlarga homiylik qilish siyosatini olib borgan[65]. Saljuqiylar davrida madrasalarning tashkil etilishi sunniylikni targ‘ib qilish va shia ta’limotining ta’siriga qarshi kurashish uchun strategik qadam bo‘lgan. Ushbu muassasalar diniy va ilmiy ta’lim markazlariga aylangan bo‘lib, Saljuqiylar tomonidan sunniylikni qo‘llab-quvvatlashni mustahkamlashga xizmat qilgan. Ushbu homiylik madrasalar tashkil etishda yaqqol namoyon bo‘lgan bo‘lib, Nizom al-Mulk tomonidan asos solingan eng mashhur madrasa Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi va Eronning, ayniqsa, Nishopur shahridagi boshqa madrasalar bunga misol bo‘la oladi[66]. Safining fikricha, ushbu madrasaning bunyod etilishidan ko‘zlangan maqsad Qohirada 970-yilda Ismoiliylarga tegishli Al-Azhar ta’lim muassasalariga qarshi turish bo‘lgan[67]. Saljuqiylar davrida Nizomiya madrasasi mamlakat miqyosidagi davlat ta’lim tizimiga aylangan. Bu muassasaning yana bir maqsadi Saljuqiylar hukmronligining dastlabki yillarida yuzaga kelgan sunniy huquqiy maktablar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etish bo‘lgan. O‘sha davrda sulton To‘g‘rul va uning vaziri Nizom al-Mulk faqat hanafiy mazhabini qo‘llab-quvvatlab, ko‘plab shofi’iy-ash’ariy olimlarni surgun qilishgan edi. XII asrga kelib esa to‘rtta sunniy mazhab birlashtirilib, yakdillikka erishilgan[68]. Bu davrda ulamolar ham muhim rol o‘ynagan. Aynan ulamolar Saljuqiylarning harbiy elitasini mahalliy aholi bilan bog‘lab turuvchi yagona fuqaro elitasi edi. Shunday qilib, ta’lim muassasalari va ulamolar Saljuqiylar hukmronligini qonuniylashtirish, mahalliy aholining sadoqatini mustahkamlash, sunniy huquqiy maktablar o‘rtasidagi nizolarni hal qilish va Misrdagi Ismoiliy ta’limotiga qarshi turishda asosiy vositalarga aylangan.

[65] Peacock. A.C.S. and Sara Nur Yıldız. The Seljuks of Anatolia: Court and Society in the Medieval Middle East.- I.B. Tauris,- 2013.-95p.

[66] Niẓām al-Mulk Seljuq vizier. https://www.britannica.com/biography/Nizam-al-Mulk-Seljuq-vizier

[67] Omid Safi.The Politics of Knowledge in Premodern Islam: Negotiating Ideology and Religious Inquiry.- University of North Carolina Press,2006.-112p.

[68] Feyzullah Dündar.The influence of sectarian tendencies of the seljuk sultans on the relationship between maturidism and ash'arism: a philosophical and historical analysis.- Student, Uşak University, Faculty of Theology, 2024.-6p.

Madrasalar bilan bir qatorda xonaqohlar ham Saljuqiylar davlatida tasavvufni qo‘llab-quvvatlashning muhim institutiga aylangan[69]. Saljuqiylardan avval tasavvuf musulmon jamiyatining chekka qatlamlarida mavjud bo‘lib, u kichik doiralarda amaliyot qilingan, ustoz va shogirdlar masjidlarda yoki shaxsiy uylarida uchrashib, ilm o‘rganishgan. Biroq, xonaqohlarning keng tarqalishi va tasavvufning madrasalar tizimiga kiritilishi tasavvufning rasmiy e’tirof etilganligini va islomiy muhitda to‘liq qabul qilinganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, sufiylar hukmdorlar va nufuzli shaxslarning himoyasiga osonlik bilan erisha olganlar. Ularning eng yirik homiysi Nizom al-Mulk bo‘lib, u davrning ulug‘ olimlaridan biri Imom al-G‘azzoliyni Bag‘dod va Nishopurdagi Nizomiya madrasalariga katta mudarris sifatida tayinlagan[70]. 1071-yilda Saljuqiylar Vizantiya qo‘shinini mag‘lub etgach, ular Anadoluga sufiy olimlarni olib kelib, ularga maktablar, shifoxonalar va vaqflar ajratganlar. Keyingi asrlarda tasavvuf Usmoniylar jamiyatining ajralmas qismiga aylanganini ko‘rish mumkin. Shu bois, Saljuqiylar sufiy islomini qo‘llab-quvvatlagan, ularni madrasalar va xonaqohlar orqali islomiy tizimga integratsiya qilgan va bu orqali diniy hamda siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilganlar[71].

Saljuqiylarning siyosiy muvaffaqiyatlari orasida ularning Anatoliya hududini keng miqyosda zabt etishi va turklarning bu mintaqaga doimiy ravishda joylashuviga zamin yaratgani muhim tarixiy voqealardan biri sifatida baholanadi. Bu jarayon ayniqsa 1071-yilda Mansikert jangida Alp Arslon (1063–1072) boshchiligidagi Saljuqiy qo‘shinining Vizantiya imperiyasini halokatli mag‘lubiyatga uchratishi bilan jadallashdi. Ushbu janggacha arab qo‘shinlari Umaviylar davridan boshlab Anatoliyaga bostirib kirishga uringan bo‘lsa-da, muvaffaqiyatga erisha olmagan va Vizantiya tomonidan mag‘lub qilingan edi. Shunday ekan, Mansikertdagi g‘alaba nafaqat Vizantiya harbiy strategiyasining jiddiy zaiflashuvini, balki Islom dunyosining siyosiy va geografik kengayishida burilish nuqtasini anglatdi. Bu bilan Saljuqiylar Sharqiy Rim imperiyasining ichki hududlariga turk-musulmon hukmronligining kirib borishi uchun mustahkam asos yaratdi. Ba’zi tarixchilar Mansikert jangini 1453-yilda Vizantiya imperiyasining Usmoniylar tomonidan butunlay yo‘q qilinishiga olib kelgan jarayonning muhim boshlang‘ich bosqichi sifatida ko‘radilar. Biroq, Mansikert bilan Konstantinopolning qulashi o‘rtasida deyarli to‘rt asrlik farq mavjudligi bu nuqtayi nazarga nisbatan shubha uyg‘otadi. Mansikert g‘alabasi Vizantiya imperiyasining bevosita qulashiga olib kelmagan bo‘lsa-

[69] The Seljuk Empire. https://www.cappadociahistory.com/post/the-seljuk-empire
[70]Hüccetü’l-İslâm Ebû Hâmid Muhammed b. Muhammed b. Muhammed b. Ahmed el-Gazzâlî et-Tûsî https://islamansiklopedisi.org.tr/gazzali
[71] Hillenbrand, Carole. The Crusades: Islamic Perspectives. Edinburgh: -Edinburgh University Press, 1999.-120p.

da, u Saljuqiylarning hududiy ekspansiyasi va davlat tuzilmasining mustahkamlanishida fundamental ahamiyat kasb etdi. Shu sababli, bu jangni Sharqiy O‘rta yer dengizi mintaqasida kuchlar muvozanatining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan, uzoq muddatli strategik ta’sirga ega bo‘lgan harbiy-siyosiy voqea sifatida baholash mumkin.

Saljuqiylar musulmon dunyosiga joriy qilgan yangi siyosiy tizimlar, jumladan, hokimiyatning sulola a’zolari o‘rtasida taqsimlanishi va otaliqlik instituti, uzoq muddatli istiqbolda davlat barqarorligiga jiddiy zarar yetkazdi. Ushbu tizim dastlab Buyuk Saljuqiylarning ilk uch qudratli hukmdori davrida siyosiy birlashuvni ta’minladi. Biroq, sulton Malikshoh va uning ta’sirchan vaziri Nizom al-Mulk vafotidan so‘ng, ushbu siyosiy konsolidatsiya aks ta’sir ko‘rsatib, parchalanish jarayonini boshlab berdi. 1092-yilda Malikshohning vafoti taxt vorisligi borasida keskin nizolarga sabab bo‘ldi. Saljuqiy oilasi ichidagi da’vogarlar o‘rtasidagi kurash otaliqlarning mavqeini mustahkamlab, ularning mustaqil sulolalar barpo etishiga imkon yaratdi. Ayniqsa, Mosulda Zangiylar, Eronda Salg‘uriylar va Damashqda Buriylar kabi mahalliy hukmdorliklarning shakllanishi Saljuqiylar siyosiy birlikning izdan chiqayotganidan dalolat edi. Demak, Saljuqiylarning parchalanishi aynan ushbu yangi siyosiy tizimning ichki zaifliklaridan kelib chiqqan edi. Biroq, Saljuqiylarning qudrat yo‘qotishiga faqat bu omil sabab bo‘lmadi. Ularning keyingi yillarda ichki nizolarni hal qila oladigan markaziy boshqaruv vositasidan mahrum bo‘lgani ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Nizom al-Mulk kabi har tomonlama ta’sirchan va siyosiy mahoratga ega vazirning yo‘qligi davlatni boshqarish tizimida bo‘shliq yaratdi. U faqat sulton siyosatiga yo‘l ko‘rsatuvchi maslahatchi emas, balki turli siyosiy kuchlarni birlashtira oladigan arbob sifatida ham muhim rol o‘ynagan edi. Uning o‘rnini bosa oladigan shaxs yo‘qligi esa Saljuqiylarning markazlashuvni saqlab qola olmasligiga sabab bo‘ldi va oxir-oqibat, davlat parchalanishining oldini olish imkonsiz bo‘lib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, XI asrning o‘rtalaridan boshlab, IX asrdan beri Buvayhiylar sulolasining shia hukmronligi ostida bo‘lgan Iroq va Sharqiy Islom dunyosida sunniylik yana siyosiy va diniy jihatdan birlashdi. 1071-yilda Vizantiya qo‘shinlarining mag‘lubiyati natijasida Anatoliya turk jamoalarining asosiy joylashuv hududiga aylandi va Islom bu yerda ancha kengaydi. Shu bilan birga, Iroq va Eronning turli shaharlarida tashkil etilgan madrasalar va xonaqohlar orqali sunniy ulamolar, huquq maktablari va tasavvuf oqimlari mustahkamlandi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Shubhasiz, bu siyosiy va diniy o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi XI asrda Islom dunyosiga kirib kelgan Saljuqiylar edi. Biroq, ushbu o‘zgarishlarning ba’zilari qisqa muddatli bo‘lib, doimiy natija bermadi. Masalan, Misrda shia yo‘nalishidagi Fotimiylar sulolasi XI–

XII asrlarda Saljuqiylarning asosiy raqibi sifatida qolishda davom etdi. Bundan tashqari, 1092-yilda sulton Malikshoh va uning vaziri Nizom al-Mulk vafotidan so‘ng, Saljuqiylar davlatida ichki siyosiy barqarorlik yo‘qola boshladi. Islom dunyosida nisbatan qisqa, ya’ni atigi bir asrcha hukmronlik qilgan bu sulola tez orada bo‘linib ketgan mahalliy hokimiyatlar muammosi bilan yuzlashdi. Natijada, Saljuqiylar tashqi bosqinlar va yangi tahdidlarga qarshi samarali qarshilik ko‘rsatish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi. Saljuqiylarning birlashgan hukmronligi musulmon diyorida oz vaqt hukm qilgan bo‘lsa-da, islom olamining abadiyati uchun ulkan burilish yasadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Peacock.A.C.S.The Great Seljuk Empire.- Edinburgh University Press,2015.-378p.
2. Ibn al-Athir. Al-Kamil fi al-Tarikh.-Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya,1995.Transl.D.S.Richards.vol.9.-200 p.
3. Mr.A-nuwa Waesamoh.The main religious and political changes brought about by the arrival of the Seljuks into the Muslim world.- Edinburgh University Press,2015.-7 p.
4. The original 'Assassins': Medieval warriors of Alamut https://www.nationalgeographic.com/history/history-magazine/article/nizari-ismaili-muslim-warriors-medieval-times
5. Niẓām al-Mulk Seljuq vizier. https://www.britannica.com/biography/Nizam-al-Mulk-Seljuq-vizier
6. Feyzullah Dündar.The influence of sectarian tendencies of the seljuk sultans on the relationship between maturidism and ash'arism: a philosophical and historical analysis.- Student, Uşak University, Faculty of Theology, 2024.-20 p.
7. Hüccetü’l-İslâm Ebû Hâmid Muhammed b. Muhammed b. Muhammed b. Ahmed el-Gazzâlî et-Tûsî https://islamansiklopedisi.org.tr/gazzali
8. Hillenbrand, Carole. The Crusades: Islamic Perspectives. Edinburgh: -Edinburgh University Press, 1999.-704 p.
9. The Seljuk Empire. https://www.cappadociahistory.com/post/the-seljuk-empire
10. Omid Safi.The Politics of Knowledge in Premodern Islam: Negotiating Ideology and Religious Inquiry.-University of North Carolina Press, 2006.-358 p.
11. Peacock. A.C.S. and Sara Nur Yıldız. The Seljuks of Anatolia: Court and Society in the Medieval Middle East.- I.B. Tauris, 2013.-320 p.

ALMUROTIBIYLAR VA ALMUVAHHIDIYLAR DAVLATLARINING MAG‘RIB VA ANDALUSIYA TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

Olimov Azizbek,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Yodgorov Sh.M.

Annotatsiya: *Maqolada Mag‘rib va unga bevosita bog‘liq bo‘lgan Andalus mintaqalarining etnik, diniy tuzilishi va tarixi o`rganilgan. Shuningdek, xalifalikdan so‘ng mintaqada vujudga kelgan davlatlar, jumladan, Almurotibiylar va Almuvahhidiylar davlatlari hamda ularning bosqinlari tarixi o‘rganilgan. Andalusdagi harbiy-siyosiy holat va uning qulash sabablari tushuntirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mag‘rib, Ifriqiya, Sanxaja, Masmuda, Almurotibiylar, Almuvahhidiylar.*

Kirish. IX-XII asrlarda Mag‘rib mintaqasi (hozirgi Marokash, Jazoir, Liviya, Tunis hududlari) jiddiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Ushbu davrda mintaqaning islom sivilizatsiyasining bir qismiga aylanishi bilan birga mintaqada bir qator yirik davlatlar vujudga keldi. Ayniqsa, Almurotibiylar va Almuvahhidiylar sulolalari Mag‘rib va Andalus* tarixida muhim o‘rin tutadi. Ushbu ikki davlatlar dastlab harbiy-diniy harakat sifatida tashkil topgan bo‘lib, keyinchalik kuchli va markazlashgan davlatlar barpo etgnlar. Ular Mag‘rib va Ispaniyaning musulmon qismlarida siyosiy barqarorlik o‘rnatganlar va mintaqada islomiy mafkurani mustahkamlashga intilganlar. Maqolada Almurotibiylar va Almuvahhidiylar davlatlarining tashkil topishi, siyosiy va harbiy faoliyati hamda Mag`rib mintaqasiga ta’siri yoritiladi.

Mag‘rib. Mag‘rib o‘lkasi Afrikaning shimoli-g`arbidagi tarixiy-geografik hudud bo`lib, “Mag‘rib” so‘zi arabcha “g‘arb”, “quyosh botadigan joy” ma’nolarini anglatgan. Mintaqa qadimdan O‘rta yer dengizidagi sivilizatsiyalar bilan aloqaga ega bo‘lgan. Mintaqa etnik tarkibi xilma-xil bo`lgan. Mintaqada rumlar (lotinlashgan guruhlar), afriklar (Ifriqiya va sohilbo`yi shaharlar tub aholisi), yahudiylar hamda

* Al-Andalus — O`rta asrlarda musulmonlar tomonidan boshqarilgan Iberiya yarim orolidagi (hozirgi Ispaniya va Portugaliya) hudud. 711-yildan 1492-yilgacha davom etgan bu davrda Andalus Yevropada Uyg`onish davri uchun muhim sivilizatsiya markazi bo`ldi.

Marokash va Jazoirning tog‘li hududlari va Shimoliy Sahroyi Kabirda yashovchi turli barbar xalqlari mavjud bo`lgan. Shuningdek, Sijilmasda qora tanli aholining avlodlari bo‘lgan — haratinlar yashaganlar[72]. Keyinchalik, xalifalik istilosidan keyin, mintaqani arablashtirish boshlandi. Shunga qaramay, IX asrda arablar va boshqa arablashgan xalqlar Ifriqiyada aholining 7-8 %ini, qolgan hududlarda undan ham kamrog‘ini tashkil etardi.

647-703-yillardagi arab yurishlari mintaqani arablashtirilishiga sabab bo‘ldi. Lekin bu jarayon milliy o‘ziga xoslikni yo‘qotilishi emas, balki mahalliy aholining yuksak madaniyatlar bilan tanishishi sifatida namoyon bo`ldi. Barbar xalqlari esa uzoq vaqt davomida islomni ham xalifalik hokimiyatini ham qabul qilmaganlar. Mintaqaning geografik va etnik noqulayligi tufayli arab qo‘shinlari ularni to‘liq zabt eta olmadilar[73].

Arablashtirish siyosati XI asrga qadar davom etdi. Ifriqiya va O‘rta Mag‘rib hududlari eng birinchi bo`lib arablashgan bo`lsa, Marokash, Kastiliya (hozirgi janubiy Tunis) va boshqa chekka va olis hududlarda bu jarayon XI asrga qadar davom etgan.

Xalifalik istilosi Mag‘ribda dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojiga hissa qo‘shdi. Ayniqsa, qirg‘oqbo‘yi mintaqalarda bu yaqqol namoyon bo`ldi. Xalifalik sivilizatsiyasining umumiyligi — yagona qonunlar, siyosiy institutlarning o‘xshashligi, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlarning birligi — mintaqaning islom sivilzatsiyasining bir qismiga aylanishiga imkon berdi[74]. Xalifalikning sharqiy hududlari hamda Yevropa davlatlari bilan savdo rivojlandi. Umaviylar davrida mintaqaga rivojlangan dehqonchilik usullari, jumladan, almashlab ekish hamda sun’iy sug‘orish usullarining kirib kelishi mintaqada dehqonchilik rivojlandi. Istilo bilan bir qatorda mintaqaga an’anaviy ekinlar bilan birga yangi ekinlar sholi, shakarqamish, paxta va boshqa ekinlar ham kirib keldi. Sun’iy sug‘orish inshootlari takomillashtirish orqali daryolar va kanallarda yuk tashish imkoniyatlari yuzaga keldi va bu savdo yo`llarining kengayishiga xizmat qildi. Suvni dalalarga taqsimlash maqsadida “noriya” deb atalgan suv ko`tarih g`ildiraklaridan foydalanilgan[75].

Sohilbo‘yi mintaqa, ayniqsa Ifriqiya (hozirgi Tunis)da shaharlashuv jarayonlari tez kechdi. Manbalarga ko`ra, X asrga kelib hudud aholisi 8

[72] История Востока. Том 2. Восток в средние века / Гл. редкол: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др.; [Отв. ред. Л.Б. Алаев, К.З. Ашрафян]. — М.: Вост. лит., 2002. – С. 227.
[73] Kennedy H. The great Arab conquests: How the spread of Islam changed the world we live in. – Da Capo, 2007. – P. 81.
[74] История Востока. Том 2. Восток в средние века / Гл. редкол: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др.; [Отв. ред. Л.Б. Алаев, К.З. Ашрафян]. — М.: Вост. лит., 2002. – С. 226.
[75] O‘sha manba. – B. 227.

million kishiga yetgan. Shundan, 30-50%i shaharlarda yashagan. Shaharlar asosan, qadimgi antik davr xarobalari o`rnida yoki unga yaqin joylarda barpo etilgan. XI asr o‘rtalariga qadar Shimoliy Afrika diniy jihatdan hamon xristian hudud bo`lib, musulmon hukmdorlar tomonidan boshqarilgan. IX asr boshida musulmonlar o‘lka aholisining atigi 10%ini tashkil qilgan bo‘lsa, XI asr birinchi choragida bu ko‘rsatkich 80%ga yetdi[76].

Chekka va olis hudud bo`lganligi sababli Mag‘rib o‘lkasida xalifalikning markaziy hokimiyat tuzumi sust bo`lib, asosiy ijtimoiy birlik diniy jamoalar edi. Keyinchalik aynan diniy jamoalar atrofida mustaqil davlatlar vujudga keldi. Umaviylar hokimiyati ag`darilgandan so‘ng, abbosiylar mintaqada o`z hokimiyatlarini to`liq o`rnata olmadilar. VIII asrning ikkinchi yarmida o‘lkada mustaqil davlatlar vujudga kela boshladi. Bularga Bergvata davlati, Ibodiylar imomati, Idrisiylar imomati va Sofriylar imomati kirar edi. Keyinchalik, IX asrda mintaqada Ag‘labiylar davlati vujudga keldi. Ag`labiylar rasman, abbosiylar vassal hisoblansa ham amalda mustaqil siyosat yuritganlar. IX asr mobaynida ular dengiz orqali Yevropaga bir-necha bor yurishlar tashkillashtirganlar. Ag‘labiylar Sitsiliya va Janubiy Italiyani ishg‘ol qilib, 846-yilda Rimni talon-taroj qilganlar[77].

IX asr ikkinchi Mag‘ribda shia ismoiliylari jamoasi bo`lgan fotimiylar harakati rivojlandi. Ular ijtimoiy adolat va tenglik g`oyalariga urg`u berib, o`z tarafdorlari safini kengaytirganlar. Barbarlarning Kutama qabilalari ularning asosiy tayanchiga aylandi. 909-yilda fotimiylar Ifriqiyada Ag`labiylar davlatini tugatib, Fotimiylar xalifaligiga asos solganlar. 969-yilda Fotimiylar Misrni zabt etdilar va 973-yilda Fotimiylar xalifasi al-Muiz poytaxtni Ifriqiyadan Qohiraga ko`chiradi. Mag`ribda esa ziriylar sulolasini noib sifatida qoldirdilar.

Ziriylar (972-1148) XI asr boshlariga kelib mustaqil siyosat olib bora boshladilar va 1048-yilda o`zlarini fotimiylardan mustaqil deb e’lon qildilar. Bu esa fotimiylarning ularni jazolash uchun badaviy arab qabilalari Banu Sulaym va Banu Hilol qabilalarini Mag`ribga jo`natilishiga sabab bo`ldi. 1052-yilda Haydaron jangida badaviylar ziriylarni tor-mor keltirdilar, 1057-yilda esa Qayruvonni bosib oldilar va Mag`ribga tarqalib ketdilar. Badaviylar bosqini mintaqani batamom xarobaga aylanishiga olib keldi.

Almurotibiylar davlati. Badaviylar Mag`ribni vayron qilayotgan paytda uning g`arbida yangi berberlarning bosqini boshlanish arafasida

[76] O‘sha manba. – B. 228.
[77] Льюис Б. Арабы в мировой истории. С доисламских времен до распада колониальной системы. – Litres, 2017. – С. 128.

edi. 1040-yilda hozirgi Mavritaniyada yangi diniy-harakat vujudga keldi. Ularning kelib chiqishi berberlarning Sanxaja qabilasidan bo`lib, ularga ortodoksal va radikal bo`lgan da'vatchi Abdulloh ibn Yosin boshchilik qilgan. U va uning izdoshlari bo`lganlar rabotda yashaganliklari uchun "Al-Muratibun"—rabotda yashovchilar deb atalgan. Ispanlar va yevropaliklar esa bu nomni "Almoravides" deb talaffuz qilganlar.

Harakat asoschisi Abdulloh ibn Yosin harbiy jihod g`oyalarini islomning molikiylik mazhabi bilan uyg`unlashtirgan edi. 1054-yilda Almurotibiylar Marokash hududlari hamda Senagal hamda Niger daryolarining yuqori oqimiga qadar cho`zilgan hududlarni egalladilar. 1059-yilda berberlarning bergvata xalqi va davlatini tor-mor qildilar. Mag`lubiyat oqibatida deyarli butun bergvata xalqi qirib tashlandi[78]. Almurotibiylar o`z ekspansiyalarini kengaytirib, Mag`ribga yoydilar. Mag`ribning sharqi arab badaviylari tomonidan vayron qilingan bo`lsa, uning g`arbiy qismi almurotibiylar bosqini natijasida xarobaga aylandi.

Almurotibiylarning eng mashhur hukmdori Yusuf ibn Tashfin (1061-1106) istilolarni kengaytirdi[79]. 1086-yilda Andalus hukmdorlari almoraviylardan yordam so`raydilar. Budavrda Kastiliya va Leon qirolligi qiroli Alfonso VI Andalus musulmonlariga tazyiq o`tkazib rekonkista (qayta zabt etish) siyosatini olib borayotgan edi. 1085-yilda Andalusning muhim shahri Toledoni egallagan edi. Andalus mayda musulmon davlatlarga parchalangan, ular rekonkistaga qarshi tura olmas edi. Ular Kastiliya bosqiniga qarshi tura olish kuchiga ega emas edi, shu sababli Almurotibiylar hukmdori Yusuf ibn Tashfindan yordam so`radilar. 1086-yilda Andalusda Zallaqa janggida Almurotibiylar Kastiliya qo`shinini mag`lub etadilar va uning rekonkista siyosatini vaqtinchalik to`xtatdilar. Keyinchalik Yusuf ibn Tashfin mayda davlatlar rekonkistaga qarshi tura olmasligini tushunib yetdi va 1090-1094-yillarda ularni birin-ketin bo`ysundirdi[80].

Almurotibiylar qattiq diniy siyosat olib bordilar. Musulmon bo`lmagan aholiga jiddiy cheklovlar qo`yildi. Islom dinining molikiylik mazhabi davlatning rasmiy yo`nalishi sifatida mustahkamlandi va butun imperiyada amal qilinishini ta'minlashga harakat qildilar. Mahalliy e'tiqodlarga qarshi murosasiz kurash olib borildi. Shariat qonunlarining bajarilishi qattiq nazoratga olindi. Andalusdagi xristian va yahudiy jamoalariga nisbatan qattiqroq siyosat olib borilib, ular va boshqa musulmon bo`lmagan aholi ustidan shariat qoidalari amalga kiritildi. Ushbu siyosat ma'lum vaqt diniy va siyosiy barqarorlik olib kelgan

[78] История Востока. Том 2. Восток в средние века / Гл. редкол: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др.; [Отв. ред. Л.Б. Алаев, К.З. Ашрафян]. — М.: Вост. лит., 2002. – С. 233.
[79] Ланда Р.Г. История арабских стран. - М.: Восточный университет, 2005. – С. 51.
[80] O'sha manba. – B. 51.

bo`lsa-da, keyinchalik Almuvahhidiylar kabi raqiblarning paydo bolishiga sababchi bo`ldi.

Almurotibiylarning urushlari natijasida Mag`ribda aholi keskin kamaydi. Masalan, yuqorida aytib o`tilgan Bergvatalar yashagan Atlantika bo`yidagi tekisliklar, faqatgina bir asrdan so`ng qayta o`zlashtirila boshlandi. Ma'lumotlarga ko`ra, almurotibiylar va badaviylarining bosqini natijasida Mag`rib aholisining uchdan ikki qismi yo`q qilindi. O`lkaning asosiy qismi badaviylar tomonidan yaylovlarga aylantirilishi oqibatida, dehqonchilik jiddiy zarar ko`rdi va mintaqada ocharchiliklar sodir bo`ldi.

Almuvahhidiylar davlati. XII asrda Mag`ribda yangi davr boshlandi. Almurotibiylar davlati ichki nizolar, Andalusdagi maglubiyatlar va qattiq diniy siyosat tufayli zaiflasha boshladi. Bu davrda almuvahhidiylar harakati paydo bo`ldi. Uning asoschisi berber diniy islohotchisi bo`lgan Ibrohim ibn Tumart edi. Ibn Tumart mashhur diniy alloma Abu Homid al-G`azzoliyning ta'limotiga ergashgan. Ushbu ta'limotning asosiy g`oyasi tavhid — yagona Allohga ishonish edi. Shu sababli ibn Tumart va uning izdoshlari Al-Muvahhidun (yagona xudoga sig`inuvchilar) deb atalgan. Ispanlar esa ularni "Almohades", ya'ni Almohadlar deb ataganlar. Ibn Tumart almurotibiylarni keskin qoraladi hamda ularni xoin va dindan qaytganlar deb hisobladi. Ular xristianlar va yahudiylar bilan bir qatorda yo`q qilinishi kerak deb hisobladi. Shu bilan birga, u o`zini shariat axloqining qattiq tarafdori sifatida ko`rsatishga harakat qildi[81].

1120-yilda Almurotibiylar poytaxti Marrakeshda bo`lib o`tgan jamoat bahsidan so`ng, Ibn Tumart tog`larga qochdi va isyon ko`tardi. Uni mahalliy aholi, jumladan, berberlarning Masmuda qabilasi qo`llab-quvvatladi. 1123-yilda Yuqori Atlas (Marokash) da o`z davlatini tuzadilar, bu davlat tarixga Almuvahhidiylar davlati nomi bilan kirdi. 1130-yilda ibn Tumart vafot etgach, harakatga uning safdoshi Abd al-Mo`min boshchilik qiladi. U xalifa va amir al-mo`minin unvonini oladi hamda Mu'miniylar sulolasiga asos soladi.

Abd al-Mo`min davrida qo`zg`olon tez kengayib, yangi hududlarni qamrab oladi. 1145-yilda Andalus musulmonlari ham bu harakatga qo`shiladilar. 1146-yilda Almuvahhidiylar Almurotibiylar poytaxti Marrakeshni ishg`ol qildilar va unga barham berdilar. Abd al-Mo`min o`z davlatini kengaytirish siyosatini yuritib, sharqqa yurishlar boshladi. 1153-yilda almuvahhidiylar Banu Hilol va Banu Sulaym badaviylarini tor-mor etib, ularni o`z vassallariga aylantirishdi. Bu vaqtda Ifriqiya

[81] История Востока. Том 2. Восток в средние века / Гл. редкол: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др.; [Отв. ред. Л.Б. Алаев, К.З. Ашрафян]. — М.: Вост. лит., 2002. – С. 232.

hududini normann qabilalari egallagan edi. 1160-yilda almohadlar ularni mag`lub etib, Ifriqiyani zabt etishdi va hozirgi Tripoliga qadar bo`lgan Shimoliy Afrika hududini nazoratga olishdi.

Andalusda bu davrda vaziyat keskinlashdi. Kastiliya va Leon hamda Aragon qirolliklari rekonkista siyosatini davom ettirayotgan edi. 1118-yilda Kastiliya Zaragosani bosib oldi. 1134-yilda Almurotibiylar qo`shini tormor etildi. Natijada rekonkista yanada kuchaydi. 1195-yilda al-Araq (Alarkos) janggida Almuvahhidiylar Kastiliya qo`shinini mag`lub etib ularning hujumini to`xtatdilar.

Almuvahhidiylar davlati Shimoliy Afrika va Andalusni yagona hokimiyatga birlashtirgan qudratli musulmon imperiyaga asos soldilar. Ular hukmronlik qilgan hududlarda qat'iy tartib, yagona qonun va yagona e'tiqod hukm surardi. Almuvahhidiylarning diniy siyosati almoraviylarniki bilan deyarli bir xil edi. Ularning diniy tozalash siyosati "tam'iz" deb atalib, ommaviy qirg`inlar, ta'qiblar va keng ko`lamli ko`chirish bilan kechdi. Almuvahhidiylar davrida Shimoliy Afrikadagi yahudiy jamoalari deyarli yo`q bo`lib ketdi, xristian cherkovi tanazzulga yuz tutdi. Hukumat keng tarqalgan josuslik tarmog`i orqali aholini qattiq nazoratda ushlab turardi. Qattiq jazolardan qo`rqqan aholi hattoki ko`chada guruh bo`lib yurishga qo`rqib qolgan edi[82].

Almuvahhidiylar davrida Mag'ribda yangi ideal, axloqiy va madaniy qadriyatlar paydo bo'ldi[83]. Ular asosan Yaqin Sharqning eron-turk an'analari va qisman Ispaniya islomining ta'siri ostida rivojlandi. Almuvahhidiylar zodagonlari tez feodallashdi. Yer egaligining yangi turlari vujudga keldi. Shaharlarda xo'jalik hayoti qattiq tartibga solindi va mulklar jamoaviy deb e'lon qilindi.

Kuchli ekspluatatsiya va badaviylar o'zboshimchaligi ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirdi. Ayni shu davrda Shimoliy Afrika hamda Andalusda so'fiylik g`oyalari keng tarqaldi. So'fiylar g'oyalari ijtimoiy ziddiyatlar va ichki boshboshdoqlik Almuvahhidiylar davlatining yemirilishiga olib keldi. 1212-yil Las Navas de Tolosa janggida Almuvahhidiylar qo`shinining yengilishi tanazzulning ilk belgisi bo`ldi. Bu davrdagi fitnalar va ichki nizolar imperiyaning parchalanishiga sabab bo`ldi. Almuvahhidiylar davlati 1269-yilda yangi tashkil topgan Mariniylar davlati tomonidan batamom tugatildi[84].

Xulosa. Mag'rib va Andalus tarix davomida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan bir-biriga kuchli bog`langan edi. Mag`rib o`lkasi

[82] История Востока. Том 2. Восток в средние века / Гл. редкол: Р.Б. Рыбаков (пред.) и др.; [Отв. ред. Л.Б. Алаев, К.З. Ашрафян]. — М.: Вост. лит., 2002. – С. 233.
[83] Fierro M. The other edge: the Maghrib in the Mashriq // Studying the Near and Middle East at the Institute for Advanced Study, Princeton. – 1935. – T. 2018. – C. 354-358.
[84] Ланда Р.Г. История арабских стран. - М.: Восточный университет, 2005. – С. 55.

xalifalik istilosi tufayli arablashtirishga uchradi hamda islom dunyosining bir bo`lagiga aylandi. Mintaqa rasman xalifalik tarkibiga kirsa-da, amalda mahalliy hukmdorlar tomonidan mustaqil boshqarilgan. IX-XI asrlarda mintaqada siviliztsiya eng gullagan davr bo`ldi. Ushbu sivilizatsiya, madaniy jihatdan orqada bo`lgan ko`chmanchi badaviylar hamda radikal islomiy harakat bo`lgan almurotibiylar hamda almuvahhidiylar tomonidan yo`q qilindi. Almurotibiylar va Almuvahhidiylar qanchalik qudratli davlatlar bo`lmasin Andalusdagi rekonkista siyosatini to`xtatib qola olmadilar. XV asr oxiriga kelib rekonkista siyosati tugadi. G`arb sivilizatsiyasining rivojlanishiga beqiyos hissa qo`shgan musulmon Andalus o`lkasi tarix zarvaraqlarida qoldi.

MANZIKERT JANGI: HARBIY FALOKAT YOKI SIYOSIY MUVAFFAQIYATSIZLIK?

Shomurov Zoirxon
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, A.H. Fayzullayev

Annotatsiya: *Manzikert jangi O‘rta asr Yaqin Sharq tarixida burilish nuqtasiga aylangan. Vizantiyaliklar son jihatdan ustun bo‘lishiga qaramay, ichki nizolar, sarkardalar orasidagi ishonchsizlik va xiyonatlar tufayli jangda mag‘lubiyatga uchradi. Roman IV asirga olinib, keyinchalik shartnoma asosida ozod qilindi. Maqolada Manzikert jangi natijasida Saljuqiylar Anadoluga yo‘l ochib oldi va bu mintaqada turkiy qabilalarning ko‘chib kelishi jadallashganligi haqida so’z boradi. Shu tariqa, bu voqea turkiylarning Anadoludagi uzoq muddatli hukmronligining boshlanishi, Vizantiya esa o‘zining harbiy va siyosiy qudratida jiddiy yo‘qotishlarga uchragan davrning boshlanishi bo‘ldi. Jang Yaqin Sharq tarixida islomiy dunyo foydasiga muhim burilish sifatida baholanadi.*

Kalit so’zlar: *Chavandozlar, Tagmata, Anadoli, Kichik Osiyo, razvedka, turklar, Vizantiya.*

1071-yil 26-avgustda Vizantiya imperatori Roman IV Diogen (1068–1071) qo‘mondonligi ostidagi qo‘shin Armaniston chegaralarida Saljuqiy turklar sultoni Alp Arslon (1063–1072) boshchiligidagi qo‘shin tomonidan tor-mor qilindi. O‘shandan beri tarixchilar Manzikert jangini Vizantiya imperiyasining muqarrar qulashiga olib kelgan halokatli zarba deb baholaganlar[85].

[85] Jenkins Barrie. Byzantine Coins. –1973. –London. –P.119

XI asr o‘rtalarida Vizantiya imperiyasi o‘zining eng yuksak qudrat cho‘qqisiga chiqqan edi. Makedoniya sulolasiga mansub harbiy imperatorlarning ketma-ket hukmronligi natijasida imperiya hududlari VI asrda imperator Yustinian I Italiya va Shimoliy Afrikani qayta zabt etganidan beri eng keng chegaralariga yetdi. Vizantiyaning tiklanish jarayoni uzoq vaqt davom etgan edi. VII asrda imperiya keskin parchalanib ketdi. Sharqda Suriya, Falastin, Misr va Afrika arablar tomonidan butunlay qo‘lga kiritildi. Ushbu qimmatli viloyatlarning yo‘qotilishi natijasida iqtisodiy inqiroz yuzaga kelib, imperator Konstantin II (630–662) davrida moliyaviy tizim deyarli butunlay quladi. Ushbu inqiroz imperiyada ikki doimiy o‘zgarishga sabab bo‘ldi. Rim viloyatlari kichikroq ma'muriy birliklarga, thema deb atalgan hududlarga bo‘linib, ular harbiy gubernator (strateg) boshqaruvi ostida edi. Askarlar maosh o‘rniga yer ajratilishi orqali ta’minlanardi[86].

Imperiya shuningdek, Umaviylar xalifaligi shaklida energik va ekspansionistik raqib bilan to‘qnash keldi. Ancha katta va farovonroq bo‘lgan Umaviylar xalifaligi imperiyani butunlay zabt etish uchun yetarli resurslarga ega edi[87]. Umaviylar imperiyani qo‘lga kiritish uchun ikkita jiddiy urinish qildi: 674–678-yillarda va yana 717-yilda Konstantinopolni qamal qildi. Biroq, Vizantiya uchun omadli bo‘ldiki, 750-yilda Umaviylar xalifaligi Abbosiylar tomonidan ag‘darildi. Abbosiylar esa bunday ulkan rejalardan voz kechib, muntazam harbiy yurishlarni afzal ko‘rdi va ba’zan Vizantiya Anatoliyasining yuragigacha yetib bordi. Ushbu bosqinchilik hujumlari nihoyat xalifa Mu'tasimning (833–842) 838-yilda Anatoliyaning markaziy-g‘arbiy qismidagi Amorium shahrini vayron qilishi bilan yakunlandi.

Keying eng yirik hujumlar Saljuqiy otliqlari tomonidan amalga oshirildi. 1040-yilda birinchi Saljuq chavandozlari xalifalikning sharqiy chegarasidan o‘tib, Abbosiylarning jiddiy qarshiligiga duch kelmasdan Eron va Iroq bo‘ylab talonchilik qila boshladilar. Ko‘p o‘tmay ular Armanistonga o‘tib, Anatoliya ichkarisiga kirib bordilar va 1054-yilda Qora dengiz bo‘yidagi Vizantiya porti Trabzonga yetib kelishdi. Keyingi yili Abbosiylar mag‘lubiyatni tan olib, katta Saljuqiylarning hukmdori To‘g‘rulga siyosiy va harbiy hokimiyatni topshirishdi. To‘g‘rul (1056–1067) sulton unvonini oldi va Bag‘dodni o‘z poytaxti deb e’lon qildi. Keyin Saljuqiylar oddiy ko‘chmanchilardan yirik va murakkab imperiyani boshqaruvchi kuchga aylandilar.

[86] Kulturgeschichte von Byzanz. 1966 Revised edition (translated by J M Hussey). 1971. Thames and Hudson, London). Pg 91.

[87] Nadia-Maria EL Cheikh, Byzantium Viewed by the Arabs. – 2004. London: Harvard University Press. – P 62.

Vizantiyaliklar Saljuqiylarning tezkor otliq kamonchilariga qarshi kurashish uslubiga tayyor emas edilar. Bundan tashqari, ular Armanlarning yordamini ham kutolmas edilar. Konstantin IX 1055-yilda vafot etguncha Saljuqiylarning hujumlarini to‘xtatish uchun hech qanday harakat qilmadi. Uning o‘rniga kelgan Mixail VI Bringas (1056–1057) zaif va qarigan shaxs sifatida tasvirlansa-da, himoyani mustahkamlashga harakat qildi. Ushbu sai-harakatlarga qaramasdan Sharqiy Vizantiyaning zaiflashishi to’xtmadi. 1064-yilda Saljuqiylar Ani shahrini bosib olib, vayron qildilar. **Ani shahri** Vizantiya imperiyasining sharqiy mudofaa tizimida muhim ahamiyatga ega edi. Vizantiyaning mudofaa strategiyasi mustahkam istehkomlarga asoslangan edi. Bosqin sodir bo‘lsa, bu mustahkam joylar yordam kelguncha yoki dushman ortga chekinguncha himoyalanishi kerak edi. Vizantiyaliklar kuch to’plab, 1068-yilda Suriyaga yurish qildi. Keyingi yili Armanistonga yurish qildi, biroq turk qo‘shinlari shunchalik chaqqon ediki, ochiq jangga tortishning imkoni bo‘lmadi. 1071-yil yozida Vizantiya imperatori Roman IV Diogen katta sharqiy yurishga kirishib, Saljuqiylarni ochiq jangga chorlamoqchi bo‘ldi. O‘sha davr tarixchilari qo‘shin soni haqida turlicha fikr bildirgan.

Edessalik Matfey Vizantiya armiyasining sonini haddan tashqari bo‘rttirib, uni million kishidan ortiq deb da’vo qiladi, Vadapert esa uni "cheksiz qo‘shin" deb ta’riflaydi. Aslida esa qo‘shin Sharqiy va G‘arbiy tagmat[88] bo‘linmalaridan, yollanma askarlardan, arman chaqirilgan harbiylaridan hamda Anatoliya yer egalari tomonidan yuborilgan maxsus otryadlardan iborat edi. Umumiy hisobda, jangga yaroqli qo‘shin soni **qirq mingga** yaqin edi. Biroq, urush paytida qo‘shin tarkibida xizmatkorlar, yuk tashuvchilar, lager kuzatuvchilari va boshqa jangga bevosita aloqasi bo‘lmagan minglab kishilar ham yurishi tufayli armiyaning soni yanada ko‘proq ko‘ringan[89]. Manuel Komnenosning 1069-yilgi yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo‘lsa-da, Buyuk Saljuq sultoni Alp Arslon tezda vizantiyaliklar bilan tinchlik shartnomasini tuzishga intildi. 1071-yil fevral oyida Roman 1069-yilgi shartnomani yangilash uchun Alp Arslonga elchilar yubordi. Roman elchilari Edessa tashqarisida joylashgan Alp Arslon qarorgohiga yetib keldi. O‘sha paytda sulton Edessani qamal qilayotgan edi. Vizantiyaliklarning hujum ehtimolidan xavotirlangan Alp Arslon shartlarga mamnuniyat bilan rozi bo‘ldi, qamalni to‘xtatdi va qo‘shinini janubga, Fotimiylar qo‘lidagi Halabga hujum qilish uchun yo‘naltirdi.

Shartnomani qayta tiklash taklifi Romanning rejasida muhim rol o‘ynadi. Romanning harbiy hiylasi muvaffaqiyatli bo‘lganidan mamnun holda, u 1071-yil mart oyida Konstantinopol tashqarisida o‘z qo‘shinini to‘pladi.

[88] Tagmata – Vizantiya armiyasining maxsus, professional askariy bo’linmasi

[89] John F. Haldon The Byzantine Wars: Battles and Campaign of the Byzantine Era. – P.115

Uning armiyasiga normanlar, kumanlar, turklar, bolgariyaliklar, germanlar, bijanaklar, vizantiyaliklar, armanlar, suriyaliklar, varanglar, uzlar va ruslar kirgan edi. Armiyaning bunday xilma-xilligi g‘ayritabiiy hol emasdi[90]. Vizantiya armiyasi nufuzli harbiy xizmat sanalib, o‘rta asr dunyosining turli burchaklaridan kelgan professional askarlarni o‘ziga jalb qilgan edi. Armiyaning sharqqa yurishi davom etar ekan, u yanada ko‘proq yollanma askarlarni, jumladan, vizantiyaliklar xizmatiga kirishga tayyor bo‘lgan turk jangchilarini to‘pladi. Afsuski, Roman armiyasidagi muammo oddiy askarlarda emas, balki zobitlarda edi. Romanning ko‘plab ofitserlari sadoqatli ekanligi shubha ostida edi, chunki armiyada dukay[91] sulolasi a’zolari va ularning tarafdorlari muhim lavozimlarni egallagan edi.

Yurish davomida sabotaj holatlari kuzatildi, masalan, Romanning shaxsiy yuk karvoni yo‘q qilindi, bu esa uni asosiy armiyadan alohida lager qurishga majbur qildi. Bundan tashqari Vizantiyaning buyuk qo’mondoni Sulaymonning ko‘plab askarlari dezertirlik qilgani bois, uning qo‘mondonligi ostida bor-yo‘g‘i 10-15 ming kishilik armiyadan ortiq kuch qolmagan edi. Roman ba’zi generallarning Theodosiopolisda[92] Saljuqlarning kelishini kutish haqidagi maslahatini rad etdi va armiyasiga Manzikert tomon yurishni buyurdi. U Saljuq askarlari janubdan harakatlanishini taxmin qildi va shu sababli avgust oyi oxirida Van ko‘liga yetib kelgach, armiyasini ikkiga bo‘ldi. General Jozef Tarxaneotes qo‘mondonligidagi qismlar janubiy yo‘lni qo‘riqlash va Saljuq hujumiga qarshi turish uchun jo‘natildi, Roman esa Manzikert qamaliga tayyorgarlik ko‘rish uchun sharqqa yo‘l oldi. Vizantiya armiyasini ko‘rgan Manzikertdagi turk garnizoni darhol taslim bo‘ldi va Roman Tarxaneotesdan yangilik kutishga shaylandi.

Bu orada, Romanning Aleppodan Sulaymonning qochgani haqidagi razvedka ma’lumotlari to‘g‘ri bo‘lib chiqdi. Sulaymon Roman yurishi haqida aynan Romanning o‘z elchilaridan bilib oldi va bu xabar kutilgan natijani berdi. Sulaymon xavfni zudlik bilan anglab, qamaldan voz kechib, tezkorlik bilan Armaniston tomon yurishga majbur bo‘ldi. Aleppo esa o‘lja olish uchun juda jozibali shahar edi. Sulton katta qo‘shin to‘plashga muvaffaq bo‘ldi, biroq Armanistondagi Vizantiya armiyasiga qarshi yurish unga yetarlicha rag‘bat bermadi. U Armaniston tomon ilgarlagan sari armiyasi tarqalib ketdi[93]. Furot daryosiga yetib kelganida, atigi 10 mingga

[90] Justin McCarthy. The Ottoman Turks. An Introductory History to 1923. – 1997. London: Longman Books, P – 12.

[91] XI asrda Vizantiyada bir qancha yunon bo‘limlari bo‘lgan va Vizantlar tomonidan boshqarilishi qiyin kechgan generallar oilasi.

[92] Rim imperatori Teodesiy tomonidan asos solingan Turkiya va Armaniston chegarasida joylashgan muhim strategik shahar.

[93] Alfred Friendly Manzikert: The Terrible Day. – 1997. P.258.

yaqin askari qolgan edi. Majburiy yurishlar bilan Alp-Arslon avgust oyining oxirida Armanistonga yetib keldi. Yo‘l-yo‘lakay qo‘shimcha askarlar yollashga muvaffaq bo‘lsa-da, uning armiyasi Roman qo‘shinidan kamida ikki baravar kichik edi. Biroq, Saljuqiylar Vizantiyaliklar ustidan muhim ustunlikka ega edi – ular **kuchli razvedka** tizimiga ega bo‘lishgan. Saljuq otliq qo‘shinlari sultonga doimiy ravishda Vizantiya armiyasining harakatlari haqida xabar yetkazib turdi. Romandan farqli o‘laroq, Arslon dushmanining aniq joylashuvini bilardi va o‘z rejasini shunga qarab tuzdi. Hal qiluvchi jang 1071-yil 24-avgust kuni bo’ldi. Jang ikki kun davom etishi kerak edi. Birinchi kun qattiq to‘qnashuvlar bilan boshlandi, unda Saljuq kuchlari g‘arbiy tagmata – Nikifor Bryennios qo‘mondonligi ostidagi bo‘linmaga qarshi jang qildi. Bryennios o‘z askarlarini tartibli ravishda orqaga chekinishga majbur qildi, ammo Theodosiopolislik Doux qo‘mondonligi ostidagi yordamchi qo‘shin pistirmaga tushib, Nikifor Basilakes asir olindi. Roman Saljuqlarni umumiy jangga tortish uchun ikkinchi kuni barcha qo‘shinlarini safarbar qildi. U klassik harbiy strategiya bo‘yicha harakat qildi: markaziy qanotni Varangiyalik[94] soqchilar va yollanma askarlar bilan mustahkamladi, chap qanotni Bryennios, o‘ng qanotni esa Teodor Alyates boshqardi. Har ikki qanotda turk va o’guz yengil otliq qo‘shinlari joylashtirildi. Asosiy qo‘shinning ortidan esa Andronikos Dukas boshchiligidagi zaxira kuchlar harakatlanayotgan edi[95].

Saljuq armiyasi Vizantiya kuchlariga qarshi keng yoyilgan yoy shaklida saf tortdi. Alp Arslon esa yaqin atrofdagi tepalikdan jang maydonini kuzatib, qo‘mondonlik qildi. Roman jangni bosqichma-bosqich oldinga yurish bilan boshladi. Saljuqlar Vizantiya saflariga o‘q yog‘dirib, keyin orqaga chekinishardi. Har ikki tomon qanotlarida to‘qnashuvlar sodir bo‘ldi, biroq hech biri hal qiluvchi ustunlikka ega bo‘lmadi. Kun botishiga yaqin, Roman oldinga yurishni to‘xtatib, askarlarni tartibli ravishda orqaga – lager tomon chekinishga buyurdi. Vizantiyaliklar orqaga qayta boshlagan paytda, Saljuqlar qanotlarga shiddatli hujum boshladi. Vizantiya armiyasining o‘ng qanoti, ilgari siljish paytida allaqachon qiyinchiliklarga duch kelgan, sarosimaga tushib, parchalanib ketdi. Shu vaqtda Andronikos Dukas boshchiligidagi zaxira qo‘shini imperatorga yordam berishi kerak edi, biroq aksincha, ular jang maydonidan chekinib ketdi va bu butun armiyaning tartibsiz chekinishiga sabab bo‘ldi. Chap qanotda Nikifor Bryennios boshchiligidagi qo‘shin o‘z yo‘lini ochib chiqishga muvaffaq bo‘ldi, biroq markaziy kuchlar, jumladan, Roman ham dushman tomonidan qurshab olinib, asirga tushdi.

[94] Varangiyaliklar yoki Varyaglar yunonlar va Sharqiy slavyanlar tomonidan vikinglarga berilgan nom.
[95] Sirarpie Der Nersessian. Armenia and the Byzantine Empire. A Brief Study of Armenian Art and Civilization. – 1945. Harvard University Press, Cambridge. – P.22-23.

Vizantiya qo‘shinining yo‘qotishlari. Keyingi tarixchilar, jumladan, Alfred Frendli, Edvard Foord va Jon Norvich Manzikert jangida Vizantiya armiyasi butunlay yo‘q qilingan degan xulosani ilgari surgan. Garchi bu muhim jang bo‘lgan bo‘lsa-da, zamonaviy Vizantiya va arman manbalari shuni ko‘rsatadiki, armiyaning katta qismi yoki umuman jang maydonida bo‘lmagan, yoki dezertirlik qilgan, yoki yakuniy halokatdan oldin chekinib ketgan. Unga ko’ra:

- Vizantiya bosh qo’mondonining qo‘shini taxminan 20 000 askardan iborat bo‘lib, jumladan, tagmataning katta qismi turklar bilan umuman jang qilmagan va jang boshlanishidan oldin Konstantinopolga chekingan;
- Rousel de Bailyoning 500 kishilik Norman otryadi, muhim yo‘llarni kuzatish bilan band bo‘lgan, asosiy jangdan oldin deyarli yo‘qotishsiz qutulgan;
- Taxminan 1 000 nafar turk yollanma askarlari 1071-yil 25-avgustda, yakuniy jangdan oldin, dezertirlik qilgan;
- Andronikos Dukas boshchiligidagi taxminan 5 000 kishilik zaxira qo‘shin, asosan, anatoliyalik yollanma askarlardan iborat bo‘lib, armiyaning qulashi oldidan jang maydonini tark etgan;
- Nikifor Bryennios boshchiligidagi chap qanot qo‘shini (5 000 askar) yakuniy halokatdan keyin jang maydonini tark etishga muvaffaq bo‘lgan. Jangning birinchi kunidagi yo‘qotishlarni ham hisobga olganda, taxminan 1000 nafarga yaqin qurbonlar bo‘lgan deb hisoblash mumkin.
- Markaziy qanotda joylashgan 2 000 – 3 000 turk yollanma askarlari Romanga sodiq qoldi va deyarli butunlay yo‘q qilindi.
- O‘ng qanot, asosan, arman qo‘shinlaridan iborat bo‘lib, butun jang davomida qattiq bosim ostida qoldi va birinchi bo‘lib parchalanib ketdi. Halok bo‘lganlar va qochganlarni hisobga olganda, Manzikertga qochib qutulganlar soni taxminan 1 000 askarni tashkil qilgan.
- Roman lager, yuklar va jangda ishtirok etmagan shaxslarni juda kam sonli qo‘riqchilar bilan qoldirgan edi. Romanning devonxona kotibi Maykl Attaleiatesning yozishicha, o‘ng qanot va zaxira qo‘shinlaridan omon qolganlar Roman mag‘lub bo‘lganini lagerga yetkazishgan va bu lager darhol dushman tomonidan egallab olingan.

Manzikert jangida vizantiyaliklar, ehtimol, 8 000 dan ortiq halok bo‘lgan askarga ega edi. Agar arman yordamchi qo‘shinlarining doimiy dezertirligi hisobga olinsa, jangdan taxminan 30 000 askar omon qolgan. 1071-yilda Vizantiya armiyasining umumiy harbiy quvvati taxminan 100.000 askarni tashkil qilgani va shundan 50.000 garnison qo‘shinlar imperiyaning turli

hududlarida joylashgani hisobga olinsa, Manzikertdagi mag‘lubiyat vizantiyaliklarning umumiy harbiy kuchining **20 foizini** yo‘qotishiga sabab bo‘lgan.

Bu unchalik katta yo‘qotish emas edi va tezda mahalliy harbiy mulklardan askar yollash orqali to‘ldirilishi mumkin edi. Shuningdek, Vizantiya armiyasiga butun o‘rta asr dunyosidan professional yollanma askarlar ham kelishda davom etgan. Biroq, Manzikertdagi mag‘lubiyat natijasida vizantiyaliklar arman askarlarini yollash imkoniyatidan mahrum bo‘ldi, bu esa armiyaning asosiy askarlik manbalaridan biri edi. Dastlab bu yo‘qotishlarni turklar qoplashi mumkin edi, biroq bu o‘z muammolarini ham keltirib chiqardi.

Manzikert jangi saljuqiy turklar uchun Vizantiyani bosib olish imkoniyatidan ko‘ra, Vizantiya imperiyasining o‘z ichida fuqarolar urushini boshlab yuborishiga ko‘proq sabab bo‘ldi. Bir qancha yirik harbiy qo’mondonlar mustaqillik uchun ichki urushlarga kirishib ketdi. Janubi-sharqda arman qo‘mondoni Filaretos Brahamius Vizantiya Kilikiyasini egalladi. U Edessadan (sharqda) to Antioxiyagacha (g‘arbda) bo‘lgan hududni boshqardi. Teodor va Filaretos bor kuchlarini turklarga qarshi mudofaa uchun ishlatib, ularni ortga surishga muvaffaq bo‘ldi. Biroq ularning harakatlari bir-biri bilan muvofiqlashtirilmaganligi sababli, ikki hudud o‘rtasidagi chegaralar himoyasiz va ochiq qoldi. Anatoliyadagi tartibsizliklarga qaramay, saljuqiy turklar imperiyaga keng ko‘lamli bosqin uyushtirishmadi. Alp Arslon Roman bilan tuzgan shartnomaga hurmat bilan qaradi va Manzikertdagi g‘alabasidan bir yil o‘tib vafot etdi. Uning o‘g‘li va merosxo‘ri Malikshoh (1072–1092) esa Eronni mustahkamlash bilan juda band bo‘lib, otasi rejalashtirganidek, Fotimiy Misriga yurish qilishni maqsad qilgan edi. Bu davrda Vizantiya va Saljuqiylar davlatlari hech biri turkman qaroqchilarining chegarani buzib, o‘z bilganicha talonchilik qilishining oldini ololmadi. Bu turkmanlar hech qanday hokimiyatga bo‘ysunmaydigan mustaqil yovuz kuch bo‘lib, qaysi hududda kuchli qarshilik bo‘lsa, uni chetlab o‘tib, boshqa zaifroq joylarga yurish qilishardi. Anatoliyaning markaziy qismida Kutlamish ismli amir Kayseri va Niksarni talon-toroj qildi va Vizantiya qarshiligiga duch kelmasdan Amoriyga qadar yetib bordi. Sharqiy hududlar qo‘zg‘olon ichida, imperiya esa sadoqatli qo‘shinlardan mahrum bo‘lgani sababli, Dukas hukumati Norman va turk yollanma askarlarga tayanishga majbur bo‘ldi.

Manzikert jangidan keyingi Vizantiya va turklar taqdiri. Manzikertdan keyin Vizantiya separatizmi ochiq ravishda kuchayib ketdi. Agar imperiya yaxshiroq boshqarilganida va fuqarolar urushi bo‘lmaganida, turklar bosqini Saljuqiylarni Misrga qaytarishi mumkin edi. Vizantiyaliklar uzoq muddatli tahdid sifatida turklarni jiddiy qabul qilishmadi. Saljuqiylar

Anadolida markazlashgan davlat tuza olmadilar, ularning qo‘shinlari intizomsiz va bir-biri bilan urushib turadigan guruhlarga bo‘lingan edi. Manzikertdan keyin gruzinlar va arman knyazliklari Saljuqiylar hisobidan hududlarini kengaytirishdi. Saljuqiylar Vizantiya siyosatida muhim rol o‘ynay boshladi

Anatoliya inqiroz girdobiga tushgach, turklar Vizantiya siyosatida tobora muhim o‘rin egallay boshladi. Sulton Sulaymon vaqti-vaqti bilan Vizantiya markaziy hukumati yoki isyonkor zodagonlarga yordam berib, ularni o‘z foydasiga ishlatdi. Markaziy hukumat nuqtayi nazaridan qaraganda, Anatoliya platosining yo‘qotilishi iqtisodiy fojiaga aylanmadi. Sababi: bu hududlar Vizantiya nazoratidan allaqachon chiqqan edi.

Shu sababli cheklangan resurslarni G‘arbiy Anatoliya va Rumeliya mudofaasiga yo‘naltirish to‘g‘ri strategiya deb ko‘rildi. Vizantiya armiyasi o‘zining an’anaviy arman yollanma askarlaridan uzilib qolgach, turklardan foydalanishga majbur bo‘ldi. XI asr oxiriga kelib Vizantiya armiyasi turk yollanma askarlariga to‘liq qaram bo‘lib qoldi va bu holat XIV asrgacha davom etdi.

Manzikertning afsonalashuvi: Tarix kamdan-kam hollarda voqelikning aniq aksidir; aksincha, u ko‘proq voqealarning qanday talqin etilishiga bog‘liq. Maykl Attaleiat va arman ruhoniysi Vardapet uchun Manzikert ulkan falokat bo‘lib ko‘ringan va ular uni shunday tasvirlagan. Maykl Psellos uchun esa Manzikert shunchaki baxtsizlik edi. Vizantiyaliklarning o‘zlari Manzikertga katta tarixiy ahamiyat yuklamagan ko‘rinadi. Ular o‘z mag‘lubiyat va tanazzullarini shunchaki Xudoning gunohlari uchun bergan jazosi sifatida qabul qilishgan.

Keyinchalik, zamonaviy sekulyar tarixshunoslik rivojlanishi bilan olimlar imperiyaning inqirozi boshlangan aniq voqeani izlashga kirishdilar. Natijada Maykl Attaleiat tomonidan Roman Diogen va uning “halokatga mahkum” yurishi haqidagi tasvirlar hamda keyingi arab tarixchilarining g‘alabani ulug‘lovchi yozuvlari Manzikertni “o‘sha dahshatli kun” sifatida romantik tus olishini ta’minladi. Ammo bu talqinlarning hech biri haqiqatni to‘liq aks ettirmaydi. Anatoliyaning yo‘qotilishiga olib kelgan haqiqiy sabablar ancha murakkab bo‘lib, bu jarayon nafaqat janglar va istilolar bilan bog‘liq edi. Ularning o‘zi ham muhim bo‘lgan, biroq siyosiy va etnik transformatsiya yanada chuqurroq jarayon edi. Bu o‘zgarishlarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

O’n asrlik Vizantiya harbiy muvaffaqiyatlari so’nggi yillarda imperiyaning ichki va tashqi mudofaasini zaiflashtirdi. Armaniston, Mesopotamiya va Suriyadagi hududlarni zabt etib, ularni bevosita boshqarish qarori strategik xato bo‘ldi. Bu bilan tabiiy bufer davlatlar yo‘q qilindi va imperiyaning harbiy resurslari haddan tashqari tarqoqlashib ketdi.

Markaziy hukumat o‘z hududidagi zodagonlarni jilovlay olmagan bir sharoitda, katta va assimilyatsiyalanmagan aholini imperiyaga qo‘shib olish tartibsizlik va boshqarish muammolarini kuchaytirib yubordi.

Vasilevs Vasiliy II o‘zidan keyingi taxt vorisligi masalasini to‘g‘ri rejalashtirmagani imperiyani siyosiy beqarorlik girdobiga tashladi. Bu ikki muhim salbiy natijaga olib keldi:

1. Anatoliya zodagonlari, Vasiliy hayotligida uning siyosatidan norozi bo‘lgani sababli, siyosiy jarayondan butunlay chetlanib yoki o‘z ta’siridan faqat o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishdi.

2. Davlatning umumiy siyosiy beqarorligi kuchli, biroq korrupsiyalashgan va faqat o‘z manfaatlarini ko‘zlovchi fuqaro boshqaruv tizimining rivojlanishiga imkon berdi. Vasiliydan keyingi imperatorlarning hech biri bu jarayonlarni jilovlashga kuch, salohiyat yoki qonuniy asosga ega emas edi.

1060–1070-yillarda markaziy hokimiyatning zaiflashuvi davlat byudjeti xarajatlarini keskin qisqartirishga majbur qildi. Imperiyaning eng katta xarajati harbiy tizim bo‘lgani sababli, aynan armiyaga ajratiladigan mablag‘lar kamaytirildi. Bu esa uzoq chegaralarni himoya qilish va ichki xavfsizlikni ta’minlash uchun yaroqsiz holatga olib keldi. Markaziy hukumat viloyatlarni na himoya qila oldi, na ularning manfaatlarini ta’minladi. Natijada viloyatlar isyon va separatizm girdobiga tushdi.

Roman Diogenning Manzikert yurishi taktik jihatdan to‘g‘ri rejalashtirilgan edi, agar u Eronning Buyuk Saljuqiylariga zarba berishni maqsad qilgan bo‘lsa. Biroq bu yurish turkmanlarning bosqinchilik harakatlarini to‘xtatish muammosini hal qilmadi, chunki bu masala faqat mahalliy garnizonlarga qo‘shimcha resurslar ajratish orqali yechilishi mumkin edi. Shunga qaramay, Roman Diogen noto‘g‘ri dushmanga hujum qilishni tanladi va Manzikertda klassik harbiy taktikalarga asoslangan jang o‘tkazdi. U faqat razvedka ma’lumotlarining noto‘g‘riligidan va xoinlik sababli mag‘lubiyatga uchradi.

Shunga qaramay, Vizantiya armiyasining asosiy qismi jangdan omon chiqdi va Roman Saljuqlardan maqbul tinchlik shartnomasini olishga muvaffaq bo‘ldi. Manzikertdan so‘ng Vizantiya separatizmining halokatli jarayoni davom etishiga yo‘l qo‘yildi. Agar imperiya yaxshiroq boshqarilganida va fuqarolar urushi sodir bo‘lmaganida, turk bosqinlariga qarshi muvofiqlashtirilgan mudofaa choralari ko‘rilishi mumkin edi. Bu, ehtimol, saljuqiylarni yana Fotimiylar Misriga yo‘naltirgan bo‘lardi.

Turli sabablarga ko‘ra, vizantiyaliklar turklarni uzoq muddatli tahdid sifatida tan olmaganlar. Anatoliyani egallagan saljuqiylar markazlashgan siyosiy tuzilishga deyarli ega emas edilar, intizomsiz va ichki nizolarga moyil bo‘lib, ular bir-biriga hujum qilish ehtimoli Vizantiyaga qarshi

kurashish ehtimolidan kam emas edi. Bundan tashqari, saljuqiylar ham to‘xtatib bo‘lmaydigan harbiy kuch emas edilar. Manzikert jangidan so‘ng gruzinlar saljuqiylar hisobidan o‘z hududlarini kengaytirgan, shuningdek, Kilikiyadagi ko‘plab arman knyazliklari ham o‘z mavqeini mustahkamlagan. Biroq vizantiyaliklar uchun saljuqiylarni chekinishga majburlashdan ko‘ra, taxt uchun kurashish ustuvor masala bo‘lib qolgan edi.

ADABIYOTLAR

1. Jenkins Barrie. Byzantine Coins. –1973. – London. –P.119
2. Kulturgeschichte von Byzanz. 1966 Revised edition (translated by J M Hussey). 1971. Thames and Hudson, London. – P.91.
3. Nadia-Maria EL Cheikh, Byzantium Viewed by the Arabs. – 2004. London: Harvard University Press. – P 62.
4. John F. Haldon The Byzantine Wars: Battles and Campaign of the Byzantine Era. – P.115.
5. Justin McCarthy. The Ottoman Turks. An Introductory History to 1923. – 1997. London: Longman Books, P – 12.
6. Alfred Friendly Manzikert: The Terrible Day. – 1997. P.258.
7. Sirarpie Der Nersessian. Armenia and the Byzantine Empire. A Brief Study of Armenian Art and Civilization. – 1945. Harvard University Press, Cambridge. – P.22-23.

BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY UNVON VA MANSABLAR

Kazakboyeva Parvina Alisher qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Xudoynazarov I.B

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligidagi harbiy ish hamda unda mavjud bo‘lgan harbiy unvon va mansablar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, Buxoro amirligidagi qurol-yarog‘lar va harbiy sohada o‘tkazilgan islohotlar xususida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Muntazam qo‘shin, Amir Nasrullo, oliy bosh qo‘mondon, parvonachi, to‘qsoba, qozi askar, muftiy, yasovulboshi, dodxoh, qurol-aslaha.

Abstract: This article focuses on the military work in the Bukhara Emirate and the military ranks and positions available in it. It was also discussed about the weapons and military reforms in Bukhara Emirate.

Key words: Regular army, Amir Nasrullah, Supreme Commander-in-Chief, Propeller, Toxoba, Qazi soldier, Mufti, Yasovulbashi, Dodkhoh, weapons.

KIRISH:

Buxoro amirligi mang‘itlar sulolasi tomonidan asos solinib,1756-yilda tashkil topgan. Oliy hukmdor amir hisoblanib, uning hokimiyati avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tgan. Buxoro amirligi boshqaruv ishlarida yirik sarkardalar, qo‘shin boshliqlari, qo‘mondonlar va amirlarning harbiy mahorati katta ahamiyatga ega. Amirlikda ichki va tashqi xavfni bartaraf etish, davlat sarhadlarini kengaytirish hamda qilinadigan yurishlarda qo‘shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, jang usullari, qurol-yarog‘lar qo‘shin boshliqlarining harbiy mahorati kabilarga katta ahamiyat qaratganlar. Davlatda qo‘shin to‘plash, qo‘shinning ta’minoti, uning tarkibi, qo‘shinni jangga tayyorlash, qurol-aslahalar, harbiy va qorovullik xizmatini o‘tash, harbiy harakatlarni olib borish odatiy tusga kirgan[96] va bularning barchasini alohida harbiy lavozim egalari boshqargan.

ASOSIY QISM:

XIX asr o‘rtalaridagi ma’lumotlarga qaraganda, dastlab muntazam qo‘shin asosini Buxoro amirligidagi asirlar tashkil qilgan.[97] Amirlikda harbiy kuchlarning boshqaruvini muayyan tizimi shakllangan edi. Bu tizimning yuqori pog‘onasida amir turgan. U qo‘shinning rasman oliy qo‘modoni hisoblangan bo‘lsa-da, amalda qo‘shinga boshqa amaldorlar qo‘mondonlik qilar edi. Buxoro amirligida qo‘shin parvonachi tomonidan boshqarilgan bo‘lib, u bosh qo‘mondon mavqeiga ega bo‘lgan.[98]

Xonliklarda harbiy unvonlar deyarli bir xil bo‘lgan. Buxoro va Qo‘qon xonligiga oid ma’lumotlar ya’ni XIX asr birinchi yarmida har ikki davlatda ham besh yuz askardan iborat bo‘linmaga – pansodboshi, yuzlik askarga – yuzboshi, elliklik askarga – panjaboshi, o‘nlikka – dahboshi rahbarlik qilgan.[99]

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, 1837-yildayoq 1000 dan ortiq asirlardan 800 kishi muntazam piyoda askarlik – sarbozlikka, 250 dan ortiq kishi esa artilleriya qo‘shinlari – to‘pchilar safiga qabul qilingan.

O‘rta Osiyo xonlilarida shu jumladan, Buxoro amirligida harbiylarni taqdirlash an’anasiga ko‘ra janglarda alohida xizmat ko‘rsatgan harbiylar, harbiy mansab va unvon egalari ma’lum miqdordagi pul, yer, mol-mulk va qimmatbaho buyumlar bilan taqdirlanganlar. Shu o‘rinda, harbiy harakatlar davrida o‘zini ko‘rsatgan harbiylar ularning mansabi va xizmatiga mos ravishda turli-tuman tortiqlar, masalan, zarbof, shoyi, ip matodan tikilgan to

[96] Eshov. B. O ‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2012. 344-b.
[97] Shodiyev J.M. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzimi. Toshkent. 2008. 88-b.
[98] Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Москва. Наукаю 1975. 139-с.
[99] O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. Ziyayeva D muharrirligida. Toshkent. Sharq. 2012. 130-b.

‘nlar, sallalar, pichoq, kamar, qilichlar bilan mukofatlanganlar. Yuqori mansab egalariga oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamar, pichoq va qilichlar taqdim etilgan.

Qal’a qo‘rg‘ondagi harbiy qism to‘qsoba unvonidagi sarkarda tomonidan boshqarilgan. To‘qsoba unvoni o‘sha davr Rossiya harbiy unvonlariga taqqoslaganda polk sardori mavqeiga teng bo‘lgan. Harbiy harakatlarni rejalashtirish, harbiy kuchlarni jang maydoniga to‘g‘ri taqsimlash ishi naqiblar zimmasiga yuklangan edi. O‘ziga xos shtab boshlig‘i sifatidagi bu shaxs XVIII asr oxirida Buxoroda bitilgan manba ma’lumotlariga ko‘ra, harbiy yurishlar paytida qo‘shinning tuzilishi, qurollanishi va joylashuvi, uning harakatlanishi va urush olib borishi borasida yetarli darajada bilimga ega bo‘lib, u qo‘shinning avangardi va arergardi, uning o‘ng va so‘l qanoti, markazi va pistirmalari haqida yetarlicha ma’lumotlarga ega bo‘lgan.

Amirlikda markaziy boshqaruv tizimida muhim o‘rinni egallagan ko‘pgina mansab egalari harbiy sohada ham muayyan unvonlarga ega bo‘lganlar. Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning shikoyatlarini shu masalalar bilan shug‘ullanuvchi maxsus amaldor qozi askar ko ‘rib chiqqan. Harbiy jinoyatlar bo‘yicha fatvo tayyorlash muftiy askar zimmasida bo‘lgan. Demak, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik ishlari alohida-alohida mahkamalar tomonidan ko‘rib chiqilgan[100].

Qozi askar – bu mansab egalari qo‘shinda sudlov ishlari uchun mas’ul bo‘lganlar. Harbiy sohada vujudga kelgan haqiqiy masalalar yechimi shu shaxsning hukmi bilan belgilanar edi. Muftiy askarlar – esa harbiy sohada qozilar chiqargan hukmlarning to‘g‘riligini shariat asosida tekshirib chiqqanlar. Amirlik qo‘shini vaqti-vaqti bilan ko‘rikdan o‘tkazilgan. Ko‘rikni amir o‘tkazgan, amir bo‘lmagan vaqtlarda qo‘shbegi o‘tkazgan.[101]

Amir Shohmurod davrida qo‘shin ikki qanotdan iborat bo‘lgan. So‘l qanotida mang‘it, kenagas, keriot, durman, qo‘ng‘irot, xitoy, qipchoq, o‘taji, turkman, arlot, qiyot, qirg‘iz, qalmoq, hofiz, o‘rlon, tilod dastalari bo‘lgan. Chap qanotida saroy, bahrin, jaloyir, qang‘li, yuz, ming, nayman, qarluq, berqut, qushchi, arron, orlon, qalmiq, fulodchi, qirq, olchin, major, chinboy, badyil, as, jibbirin, qilgiy, timoy, masid, tatar, barlon, iloji, tangut va shogirdpesha guruhlari joylashgan.[102]

Amir Nasrullo davrida amirlikdagi muntazam qo‘shin-sarbozlar qo‘shini tashkil etilgan. Eng yuqori harbiy unvon sarkarda, amiri lashkar, dodxoh (qo‘shin boshlig‘i) kabilar bo‘lib, quronbegi, to‘qsabo, mingboshi

[100] Ziyayeva D. mas’ul rahbarligi ostida. O ‘zbekistonda harbiy ish tarixidan (Qadimgi davrdan hozirgacha). Toshkent. Sharq. 2012. 130-b.
[101] Shodiyev M.” Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi”. Toshkent. 2008. 88-b.
[102] Vohidov Sh, Xoliqova R. Markaziy Osiyoda davlat boshqaruv tarixidan. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2006. 33-b.

kabilar oliy toifali harbiy amaldorlar ham faoliyat yuritgan. Amirlikdagi mashhur va jasur sarkardalardan Muhammad Yusuf Devonbegi, Tursunxo‘ja sadr Mir asad, Haydarquli Inoq, Haydarquli Devonbegi Afg‘on.

Beklilar hududidagi qo‘shinga beklarning o‘zlari rahbarlik qilgan. Bekning eng yaqin yordamchilari yasovulboshi boshchiligidagi yasovullar bo‘lgan. Qo‘shinda pansodboshi, yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshi, miroxur kabi bo‘linma boshliqlari ham bo‘lgan. Mingboshi bayroq (tug‘) ko‘tarib yurish huquqiga ega bo‘lgan.

XIX asr o‘rtalaridan boshlab o‘tochar qurol (miltiq va to‘p)larning salmog‘I oshdi. Sarkardalar to‘pponcha va qilichdan tashqari ikki stvolli miltiq bilan qurollangan. Qo‘shinning to‘pchi qismi ixtiyorida jami 50 ta to‘p bo‘lgan. To‘plarning sozligi fors mutaxasisslari nazorati ostida bo‘lgan. Kichik kalibri “xitoychi” deb atalgan to‘p harbiy harakatlar chog‘ida tuyalarning egarlari ustiga mahkam qilib o‘rnatilgan. Amirlikda qurol-yarog‘ ishlab chiqaruvchi ustaxonalar ham bo‘lgan. To‘plar Samarqand shahridagi ustaxonalarda quyilgan bo‘lsa, porox esa Qarshi shahrida tayyorlangan. Uni ishlab chiqaruvchi hunarmand ustalar dorukash deb atalgan. Harbiy harakatlar chog‘ida qo‘shinni joylashtirish masalasi sarboz va to‘pchilarning har bir o‘nlik bo‘linmasiga bittadan chodir ajratish orqali hal etilgan.

Qurol-yarog‘, o‘q-dori va jang uchun barcha zaruriy narsalar ot-aravalarda yetkazilgan. Amir Nasrullo muntazam qo‘shinning ehtiyojlarini dastlab, kundalik iste’mol mahsulotlari berish orqali qondirgan. Keyinchalik muntazam qo‘shin askarlari uchun maosh to‘lanadigan bo‘ldi. Sarboz va to‘pchi askar uchun har uch oyda bir tilla maosh belgilangan. Tabiiyki yuqori mansab egalarining maoshlari yuqori bo‘lgan. Masalan, yuzboshi oyiga olti tilla, qorovulbegi to‘rt yarim tilla, panjaboshi (ellikboshi) sakson besh tanga, bosh sarkarda esa ikki ming tilla maosh olgan. Ayni paytda, muntazam qo‘shin askarlari xizmat davomida turli soliq va majburiyatlardan ozod etilgan. Jangda halok bo‘lgan askarlar vafot etgan taqdirda, uning oila a’zolariga dafn etish uchun ma’lum miqdorda pul va kafanlik berilgan.[103]

XULOSA:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir davlatning qudrati uning harbiy qo‘shiniga bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun ham Buxoro amirligida harbiy sarkardalar, qo‘shin boshliqlari, qo‘mondonlar va amirlarning harbiy mahorati katta ahamiyatga ega hisoblangan. Amirlikdagi harbiy islohotlar esa boshqaruv hokimiyatini egallab turgan amirning salohiyatiga, shaxsiy dunyo qarashiga bog‘liq bo‘lgan. Ular qo‘shinni isloh qilish orqali davlatni kuchaytirish va kengaytirish siyosatini olib borishgan. Muntazam

[103] Ravshanov P. “Shahrisabz tarixi (Eng qadimgi davrlardan XX asrning birinchi choragigacha)”. Toshkent. 2011. 548-b.

qo‘shinning tuzilishi ham ma’lum muddat amirlik harbiy salohiyatini oshirib bergan. Amir Nasrullo hukmronligi davrida harbiy soha boshqa sohalarga qaraganda ancha ilgarilab ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Eshov. B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2012. 344-b.
2. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Москва. Наукаю 1975. 139-с.
3. Ravshanov P. “Shahrisabz tarixi (Eng qadimgi davrlardan XX asrning birinchi choragigacha)”. Toshkent. 2011. 548-b.
4. Vohidov Sh, Xoliqova R. Markaziy Osiyoda davlat boshqaruv tarixidan. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2006. 33-b.
5. Ziyayeva D. mas’ul rahbarligi ostida. O ‘zbekistonda harbiy ish tarixidan (Qadimgi davrdan hozirgacha). Toshkent. Sharq. 2012. 130-b.
6. Shodiyev J.M. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzimi. Toshkent. 2008. 88-b.

XIX ASRDA TURKISTONDA XOTIN-QIZLAR TA’LIM TIZIMI

O‘ralova Marjona Murodilla qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD Zokirov B.I.

Annotatsiya: *Ushbu maqola XIX asrdan XX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, talanishi va aholisining tahqirlanishi haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Maqolada, asosan nafaqat Turkistonda, balki butun Markaziy Osiyoda ayollarning ta’limiga bo‘lgan e’tibor, ularga yaratilgan shart-sharoitlar, ayollar ta’limiga oid Rossiya imperiyasining chiqargan qonunlari, qizlarning qayerda ta’lim olishi, kimlar dars o‘tishi, darslarning qay vaqt boshlanib qay vaqtda tugashi, qanaqangi fanlar o‘tilishi, darslar qaysi tillarda olib borilishi, har bir qishloq va shaharda qizlar uchun nechta maktab qurilishi, har bir sinfda nechtadan o‘quvchi ta’lim olishi, ta’lim tizimining o‘g‘il bolalardan farqi keng yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xotin-qizlar ta’limi, Rossiya imperiyasi, maktablar soni, o‘quvchilar soni, qizlar gimnaziyasi, “Otinoyi, otinbibi”, Darsliklar, ta’lim tili, rus-tuzem maktablari, Turkiston o‘lkasi, Markaziy Osiyo.*

***Аннотация**: В статье представлены краткие сведения об оккупации, грабежах и унижениях населения Туркестана Российской Империей в период с XIX до середины XX века. В статье, главным образом не только в Туркестане, но и в Средней Азии, внимание к женскому образованию, условия, созданные для них, законы, изданные Российской Империей о женском образовании, где получают образование девочки, кто посещает занятия, когда занятия когда закончится, какие предметы будут преподавать, на каких языках будут вестись уроки, сколько школ для девочек будет построено в каждом селе и городе, сколько учеников будет обучаться в каждом классе, разница. между системой образования и мальчиками, получающими.*

***Ключевые слова**: Образование женщин и девушек, Российская империя, количество школ, число учеников, женская гимназия «Отинойи, отинбиби», Учебники, язык обучения, русские школы, Туркестанский край, Средняя Азия.*

***Abstract**: The article provides brief information about the occupation, looting and humiliation of the people of Turkestan by the Russian Empire in the period from the 19th to the middle of the 20th century. In the article, mainly not only in Turkestan, but also in Central Asia, women's education, the conditions created for them, laws issued by the Russian Empire on women's education, where girls get education, who goes to classes, focus on things like when classes end. , when they will end, which subjects will be taught, which languages will be taught, how many girls' schools will be built in each village and city, how many students will be taught in each class, the difference. between the education system and the recipient boys.*

Key words: *Education of women and girls, Russian Empire, number of schools, number of students, "Otinoi, otinbibi" girls' gymnasium, Textbooks, language of education, Russian schools, Turkestan region, Central Asia.*

O‘lkani Rossiya imperiyasi bosib olganidan so‘ng 1870-yillarda qizlar ta’limi bo‘yicha ba’zi ma’lumotlar mavjud. Turkistonda shahar va qisman qishloqlarda qizlar uchun boshlang‘ich maktablar ham mavjud bo‘lgan. Qishloq joylarda qizlar maktabi juda kam hollarda uchrar edi. Ba’zi hududlarda 100 ta maktabga bitta qizlar maktabi ham to‘g‘ri kelmas edi. Biroq ba’zi shaharlarda qizlar maktablarining soni o‘g‘il bolalar maktablarining chorak qismiga teng kelgan. Toshkent rus qo‘shinlari tomonidan egallangan paytda shaharning ba’zi qismlarida qizlar maktablari va o‘quvchilari soni o‘g‘il bolalar maktablarining 12 qismiga to‘g‘ri kelgan va ularda o‘quvchilar soni nisbatan kam bo‘lgan. A.P.Xoroshxin va

Toshkent shahrida yashovchi mullalarning xabar berishicha, 1864-yilda ruslar bilan bo‘lgan urush uchun soliq joriy etish bo‘yicha ro‘yxatga olish o‘tkazilganda, 8000 ming nafar o‘quvchi bolalar, 4000 nafar o‘quvchi qizlar qayd etlgan. Birgina Sebzor dahasida 25 nafar o‘g‘il bolalar va 15 nafar qizlar, Shayxontohur dahasida esa 20 ta o‘g‘il bolalar va 10 ta qizlar maktablari mavjud bo‘lgan. Otnbibi maktabida o‘quvchi qizlar bilan birgalikda o‘g‘il bolalar ham birga ta’lim olgan hollari ham bo‘lgan. Qizlar maktablaridagi mashg‘ulotlarda asosan fors-tojik va turkiy tildagi asarlar o‘rgatilgan. Ushbu ta’lim muassasalarida “Ta’limi bayonat”, “Muosharat odobi”, “Tarbiyali xotun” va boshqa Sharq axloqiy madaniyatni o‘z ichiga oluvchi fanlar o‘qitilgan. A.P.Xoroshxinning 1876- yildagi ma’lumotga ko‘ra, qizlar 7-11 yoshdan o‘qitilgan, 11-15 yoshdan esa tikuvchilikka o‘rgatilgan. Bundan shu narsa kuzatiladiki, qizlar maktablaridagi ta’lim dasturlari o‘g‘il bolalar maktablari dasturlariga nisbatan kam qamrovli bo‘lgan. O‘rta Osiyoda o‘g‘il va qiz bolalar birga ta’lim oluvchi aralash maktablar bo‘lganligi haqida ma’lumotlar deyarli uchramaydi. 1906-yil Kaspiyorti viloyati maktablarining ahvoli haqida ma’lumot bergan N.P.Ostroumov turkmanlar orasida, ba’zi joylarda o‘g‘il va qiz bolalar birga ta’lim oluvchi maktablar mavjud bo‘lganligi, ularda atiga ikki yoki uch yil davomida ta’lim berilishi haqida ma’lumot beradi. Mustamlakachilik tizimini o‘rnatlishi va o‘lkada rus aholisi soni o‘sib borishi bilan rus tlida so‘zlashuvchi aholi qizlarini talimiga bo‘lgan ehtyoj o‘sib bordi.

Qizlar uchun gimnaziya, Mariin bilim yurtlari kabi ta’lim muassasalarini tashkil etildi va mazkur maskanlarda mahalliy aholi vakillarini ta’lim olishlariga imkon berilishi kam miqdorda bo‘lsada, qizlar ta’limiga ijobiy ta’sir o‘tkazdi. XIX asr 70 yillarida Toshkent va Chimkentda qizlar uchun bo‘lim hamda hunarmandchilik sinflari, Kazalinskda qizlar uchun yakshanba tashkil etildi. Ushbu bilim yurtlarining barchasi muayyan rejalarsiz, asosan, o‘lkadagi rus aholisining ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etilgan edi. [104]1866 yili Toshkent shahrida ixtyoriy ehsonlar hisobidan Juykova xususiy maktabi tashkil etilib, bu maktab 1867-yili g‘aznadan “Toshkentdagi rus aholining quyi tabaqasi vakillarini ta’limga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun katta bo‘lmagan mablag‘ bilan taminlandi. O‘sha yili maktabda 11 ta qiz va 7 ta o‘g‘il bolalarga ibodat qilish, tarix, sanoq, arifmetkaning birinchi amallari, yozuv, qo‘l hunarlari o‘rgatilib, mart oyiga kelib maktabda o‘quvchilar soni 15 ta qiz va 18 ta o‘g‘il bolaga yetgan.

[104] Шарипов Р. Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. Тошкент. Ўқитувчи. 2002. Б. 107.

1869-yili Toshkentda Turkiston o‘lkasi «badavlat xonadon bolalari»ni gimnaziyalarning 4-sinfiga tayyorlovchi Paxert xonimning xususiy maktabi tashkil etilgan. 1871 yili esa Toshkentda ham o‘g‘il, ham qiz bolalar uchun uch sinfli hunarmandchilik sinflari bo‘lgan xalq maktabi tashkil etldi. Xullas, maktablar rus aholisi uchun imtyozga ega bo‘lgan va qaram tabaqalarga ajratlgan holda aniq tamoyillar asosida tashkil etlgan. 1876-yili Turkiston o‘lkasida 25 ta boshlang‘ich maktab bo‘lib, ularda 1074 ta qiz va o‘g‘il, asosan, rus aholisi farzandlari ta’lim olishardi. Bu maktablar asosan qiz va o‘g‘il bolalarni din, o‘qish, ruscha yozish, arifmetika asoslariga o‘rgatuvchi boshlang‘ich maktablar bo‘lib, u yerda qizlar qo‘l hunarlariga, ba’zilarida esa o‘g‘il bolalar duradgorlik, chilangarlik sinflari bo‘lgan boshlang‘ich bilim yurtlarietikdo‘zlik va boshqa hunarlarga o‘rgatilgan.Dastlabki paytlarda rus gubernatorlari Turkistondagi diniy maktablarning o‘qitsh tizimiga aralashmaslik siyosatni tutishdi, chunki ular aholini tobelikda saqlashda musulmon maktablarining tasir doirasi juda katta ekanligini anglab yetshgan bilan edi. Shuning uchun mahalliy aholini har tomonlama qanoatlantradigan yangi tipdagi o‘quv muassasalari ochish va ulardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish chor hukumatning asosiy maqsadiga aylandi. Shu munosabat bilan 1870-yili general-gubernator Bordovskiy rahbarligidagi maxsus komissiya tuzilib, u Turkiston o‘lkasidagi ta’lim-tarbiya muassasalarining ahvoli va o‘qitsh mazmunini o‘zgartirish borasida ish boshlab yubordi. Komissiya quyidagi o‘quv muassasalarini tuzish lozim deb topdi:

Toshkentda umumiy asoslarga ko‘ra mahalliy millat bolalari o‘qiy oladigan erkaklar gimnaziyasini ochish;

Mahalliy tilda o‘qitiladigan uch yillik o‘qituvchilar seminariyasi tuzish seseminariya qoshida boshlang‘ich maktab ochish;

Rus, o‘zbek va qozoq bolalarining o‘qishi uchun kasb - hunar sinflari mavjud bo‘lgan to‘rt yillik umumiy ta’lim uyezd va xalq maktablari ochish.

Bu loyiha qisman o‘zgartirilgan holda 1875-yilda tasdiq etildi va shu yilning o‘zidayoq bunday tipdagi o‘quv muassasalari o‘lkaning ba’zi joylarida o‘z faoliyatlarini boshladi. Albatta bunga qadar ham ruslar o‘zlarining bolalari uchun maktablar tashkil qilib, Rossiyadagi o‘qitish tizimini Turkistonda qo‘llay boshlagan edi[105]. Jumladan, bunday maktablar 1866-yil Toshkentda, 1870-yil Samarqandda ochiladi.

XIX asrning 70-yillaridan Turkiston o‘lkasida yashovchi rus aholi hamda mahalliy aholi vakillari ham boshlang‘ich ta’limdan so‘ng

[105] Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. Асарлар, 1 том. Б 245.

gimnaziyalarda o‘rta ta’limni davom ettirishlari mumkin edi[106]. Chunki, shu davrdan gimnaziyalar tashkil etila boshlangan. O‘g‘il va qiz bolalar gimnaziyalari faoliyatning dastlabki yillarida o‘quvchilar soni kam bo‘lgan. Lekin, vaqt o‘tishi bilan o‘quvchilar soni ko‘paydi. 1886-yilda Toshkent o‘g‘il va qiz bolalar gimnaziyalarida o‘quvchilarning umumiy soni 585 ta, 1893-yili 716 ta bo‘lgan. 1900-yilda Samarqand o‘g‘il va qiz bolalar gimnaziyalarida o‘quvchilar soni 274 ta, 1910-yilda 820 taga etgan. 1902-yilda Ashxobod o‘g‘il va qiz bolalar gimnaziyalarida o‘quvchilar soni 724 ta bo‘lsa, 1910-yilda 1226 taga yetdi. Bunga bir qator omillar sabab bo‘lgan: Birinchidan, XIX asr 90-yillarida o‘lkaga ko‘plab rus dehqonlarining ko‘chib kelishi natjasida rus tilida so‘zlashuvchi aholi sonining o‘sishi; Ikkinchidan, rus aholisining demografik o‘sishi natjasida maktab yoshidagi bolalarning sonini ko‘payishi; Uchinchidan boshlang‘ich rus va rus-tuzem maktablarini tugatgan kam sonli mahalliy aholi bolalari orasidan ham o‘rta rus ta’lim muassasalarida o‘qishni istovchilar sonining biroz bo‘lsa-da, ko‘payishidir.

1904-yili Samarqand qizlar gimnaziyasi Abramov bulvarida qad ko‘targan yangi binoga ko‘chirilgan. Bino qurilishiga sarflangan 142182,10 rubldan 100000 rubli Samarqand viloyatining mablag‘laridan qoplangan. Bu vaqtga kelib Ashxobod qizlar gimnaziyasi barcha sanitariya va gigiyena talablariga javob beruvchi keng binoda joylashgan edi. Unda kutubxona, oshxona, musiqa xonasi, direktor va boshqa nazoratchilar hamda xizmatchilar uchun maxsus xonalar, fizika xonasi, rassomchilikXohlovchilarning kamligi tufayli yotoqxona tashkil etilmagan.Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Turkistondagi aksariyat o‘g‘il bolalar gimnaziyalarida o‘quvchilar soni qizlar gimnaziyalaridagiga nisbatan kam bo‘lgan. Masalan, 1910-yili Toshkentdagi o‘g‘il bolalar gimnaziyasida 490 ta o‘quvchi bo‘lgan bo‘lsa, qizlar gimnaziyasida ularning soni 690 ta; Skobelev o‘g‘il bolalar gimnaziyasida 300 ta, qizlar gimnaziyasida 370 ta; Samarqand o‘g‘il bolalar gimnaziyasida 337 ta, qizlar gimnaziyasida 483 ta; Ashxobod qizlar gimnaziyasida o‘g‘il bolalar gimnaziyasiga nisbatan 6 ta o‘quvchi ko‘p bo‘lgan. Bu holatni o‘lka bo‘ylab qizlar uchun professional kurslardan va gimnaziyalardan tashqari boshqa o‘rta talim muassasalari mavjud emasligi bilan asoslashimiz mumkin. Mavjud qishloq xo‘jalik, temir yo‘l, harbiy sohalarga mutaxassislarni tayyorlashga ixtsoslashtrilgan o‘rta ta’lim muassasalarida qizlar o‘qitilmagan. Shu jumladan, o‘qituvchilar seminariyasida ham shunday edi.

[106] Турсунметова Г. XX аср бошларида Туркистон таълим-тарбия тизимида жадид мактаблари.Б. 124.

Qizlar gimnaziyalari yetarli darajada o‘quv-metodik vositalar bilan taminlangan edi. Masalan, Toshkent qizlar gimnaziyasi 1908-1909 o‘quv yilida fundamental kutubxonada 9508 tom, o‘quv kutubxonasida 4288 tom adabiyotlar; fizika kabinetda 820 ta asbob va uskunalarga ega bo‘lgan. Gimnaziyada geografiya, tarix va boshqa fanlar bo‘yicha qo‘llanmalar ham mavjud edi. Skobelev qizlar gimnaziyasining fundamental kutubxonasida 3758 tom. o‘quvkutubxonasida 3083 tom adabiyot bo‘lgan bo‘lsa, fizika kabinetda 330 uskuna, boshqa fanlar bo‘yicha 1484 nomdagi qo‘llanmalarga ega edi. 1907-yili Ashxobod qizlar gimnaziyasining fizika kabinetda 516,90 rubllik 178 ta uskuna bo‘lsa, tabiatshunoslik kabinetida 226 ta buyum bo‘lgan. O‘quvchi qizlarning o‘zlashtrishlari yaxshi emasdi. 1905-1906 o‘quv yilida Toshkent qizlar gimnaziyasida 11,1%, 1906-1907 o‘quv yilida 16% o‘zlashtrishi past o‘quvchi qizlar bo‘lgan. II sinfda 30 ta o‘quvchi o‘zlashtrishi qoniqarsiz bo‘lib, ular deyarli 33% ni tashkil etgan. Mustamlakachilikning so‘nggi yillarida o‘lkaning uyezd shaharlarida ham qizlar uchun o‘rta ta’lim mussasalari tashkil etila boshlandi, Andijon va Qo‘qonda ikkitadan o‘g‘il bolalar va qizlar gimnaziyasi, Namanganda qizlar uchun gimnaziyalar faoliyat yuritdilar.

Toshkent va Skobelev shaharlarida o‘quvchilar sonining ko‘pligi tufayli davlat hisobidan ikkinchi qizlar gimnaziyalari tashkil etilgan. Toshkentda qizlar uchun ikkita O.M.Mixaylovskaya (1905) va L.F.Gorizdrolarning xususiy gimnaziyalari faoliyat yuritar edi. Chimkentda ham xususiy qizlar gimnaziyasi mavjud edi. Ba’zi shaharlarda o‘g‘il bolalar gimnaziyalaridan oldin qizlar gimnaziyalarining tashkil etlishiga ota- onalar qizlarini uzoqqa o‘qishga yubormay o‘z shaharlarida o‘qitishni xohlashlari va joylarda qizlar gimnaziyasiga bo‘lgantalabning yuqoriligi sabab bo‘lgan. Turkistonda tijorat sohasida ham ikkita ta’lim muassasasi tashkil etilgan bo‘lib, ularda o‘g‘il bolalar va qizlar birga o‘qitilar edi. 1908-1909 o‘quv yili Toshkent tjorat bilim yurtida 120 o‘g‘il bola va 48 ta qiz bola ta’lim olgan. Bu muassasada umumiy fanlardan tashqari o‘zbek tili, ipakchilik, bog‘dorchilik, tomorqachilik va boshqa shu kabi fanlar o‘qitilgan. O‘quvchilar orasida 16 ta mahalliy aholi vakillari ham bo‘lgan. Qizlar uchun kadet korpusiga parallel ravishda Toshkentda yopiq shakldagi o‘rta maktab - «qizlar insttuti»ni tashkil etish loyihalashtirildi. Bu masala matbuotda ham muhokama qilingan. 1898-yili general- gubernator S.M.Duxovskoy Toshkent shahrida qizlar institutni tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbusni ilgari surdi. Mazkur institut «o‘sib kelayotgan ayollar avlodi» uchun tashkil etilishi ko‘zda tutildi, mazkur institut ochilishi haqida 1911-yili Toshkent

gazetalarida yana chiqishlar uyushtirildi. Turkiston o‘lkasida qizlar institutni tashkil etish bo‘yicha tashabbusni qayta ilgari surgan A.V.Samsonov fikrini maqullagan imperator devonxonasi boshqaruvchisi Golitsin mazkur muassasa mahalliy manbalar hisobidan moliyalashtrilishi kerakligini ta’kidlagan. General-gubernator ma’muriyat mablag‘ yig‘ish maqsadida mazkur tadbir bo‘yicha Turkiston shaharlarida muhokama tashkil etdi[107].

Farg‘ona va Kaspiyorti viloyat shaharlari mahalliy aholi qizlari bu institutda o‘qiy olmasliklarini takidlab, loyihani moliyalashtirishni rad etganlar. Yevropalik qizlar uchun kasbiy ta’lim masalasi o‘lka matbuotida 1888-yildayoq ko‘tarilgan edi. 20 yildan so‘ng 1908-yil oktyabrda Toshkentda A.M.Malinovskaya- Simonovaning birinchi xususiy kasbiy texnik qizlar maktabi tashkil etildi. Bu maktab keyinchalik professional sinflari bo‘lgan qizlar progimnaziyasiga aylantrilib, Xalq maorifi vazirligining progimnaziyasi huquqini qo‘lga kiritdi. A.M.Malinovskaya ta’lim muassasasi har yili o‘quvchilar tomonidan yil davomida tayyorlangan bitiruvchilar ishlarini ko‘rgazmasini tashkil etgan va ularning buyumlari (kuylaklar, shlyapalar, gullar, tikuvchilik buyumlari va boshqalar) nafisligi bilan ajralib turgan. U yerda o‘quvchilar tez yordam usullarini o‘rganishgan va maktabda tibbiy markaz faoliyat yuritgan. 1916-yili maktab huzurida rejalashtirilayotgan pedagogik tayyorlov bazasi sifatda 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun bolalar bog‘chasi tashkil etilgan edi. Markaziy Osiyoda XX asrning boshiga qadar xotin-qizlarga otinlar (otinoyi, otinbibi) ta’lim bergan. Darslar odatda maktab muallimlarining uyida, ularning xotini tomonidan olib borilgan. Mintaqada ayollarning turmush tarzi, bilimi, dunyoqarashi, ta’limi masalasiga doir fikrlar asosan mustamlaka davrida yaratilgan adabiyotlarda uchraydi. Ayollarning hayoti «qorong‘u»likda, mazmunsiz ekani aytilgan; ta’limda asosan adabiy asarlar o‘qilishi, biroq yozuv o‘rgatilmasligi qayd etilgan. XIX asrning 80-yillarida Toshkent shahrining o‘zida 137 o‘g‘il bolalar maktabida 4 ming 855, 86 xotin-qizlar maktabida 1 ming 324 o‘quvchi ta’lim olgan, ularga 86 o‘qituvchi ta’lim bergan.Turkistondagi qizlar maktabida asosiy e'tibor turkiy va forsiy shoirlarning asarlariga qaratilgan. 1911-yilga oid arxiv ma’lumotiga ko‘ra, qizlar 11 yillik maktabni tugatganidan keyin 10-15 yoshlarida tikishni o‘rgangan. Maktab va madrasalarda dars ozbek, arab va fors-tojik tillarida olib borilar edi. Musulmon maktablarida ta’lim tizimi 5 toifaga bolingan edi:

1. Quyi maktab - bu maktablarda ogil bolalarga savod orgatilgan (4yil).
2. Halilxona maktabi - (namoz) yod oldirib orgatilgan.
3. Qorixona - Qur'on yod olingan.

[107] Бобожонова Ф. Бухоро амиригида таълим тизими (XIX аср охири XX аср бошлари). Т., Адиб. 2014. - Б. 54

4. Maktab internat - orta madrasa bolib, bu maktabda ham diniy, ham dunyoviy fanlar oqitilib orta ma’lumot berilgan.

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan song maktab va madrasalarda ba’zi ozgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablari uchun bosmaxonada chop qilingan darsliklar paydo boldi. Qozonda bosmaxonada nashr qilingan Qur'on va xaftiyaklar, Xindiston va Erondan shoirlarning litografiyada chop qilingan toplamlari keltirilgan.[108]Toshkentning ozida ham maktablar uchun darsliklarni litografiya usulida nashr qilish yolga qoyildi. [109]Mustamlaka ma’muriyati mashgulotlar orta asr tartibida olib borilayotgan musulmon maktablarining ishiga aralashmas edilar[110]. Ammo maktablarda rus tilini rag‘batlantiruvchi choralar korishga ham harakat qilinardi. Natijada mahalliy yoshlar rus tilini organishga koproq e'tibor bera boshladilar. XX asr boshlarida esa madrasalarda rus tilini o‘qitish joriy qilinsin, degan korsatmaga binoan 1913-1917 yillarda ba’zi madrasalarda rus tilini oqitish joriy qilindi.Eski maktablarda ham ba’zi ozgarishlar sodir bo‘ldi. Rus tuzem maktablari hamda yangi xil maktablarning ta’siri ostida ba’zieski usul maktablarda birmuncha yangiliklar joriy qilindi-litografiyada birmuncha yangiliklar joriy qilindi, qizlarga oqitishni orgatish bilan birga yozishni ham o`rgatishga kirishildi. Musulmon qoidalaridan kelib chiqqan holda o‘g‘il va qiz bolalar alohida-alohida maktabxonalarda o‘qitilgan. O‘g‘il bolalar maktabxonalarining aksariyati masjidlar, madrasalar, qorixonalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida, qiz bolalar maktabxonalari otin ayollar uylarida yoki badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uylarida tashkil etilgan. Maktablarda o‘g‘il bolalarni o‘qitgan kishi «domla, ustod, ustoz, muallim» deb atalgan. Qizlarni o‘qitgan ayollarni esa «otinoyi» yoki «otinbibi» (Toshkentda) «bibixalifa», yoki «bibiotin» (Buxoroda), «eltibibi» (Xorazmda) deb atashgan. Shuni e'tiborga olish lozimki, hozirgi Qoraqalpog‘iston hududidagi maktabxonalarda o‘sha davrda ham o‘g‘il va qiz bolalar birgalikda bir muallim tomonidan o‘qitilavergan.

1910-yilda Buxoroda 350 ga yaqin an'anaviy (boshlang‘ich) maktablar faoliyat ko‘rsatgan. Boshlang‘ich maktablarda o‘quvchilarning soni 10 nafardan 50- 60 nafargacha bo‘lgan. O‘g‘il bolalar maktabxonasida o‘rtacha 30-40 nafar bola o‘qigan bo‘lsa, ovul maktablarida o‘quvchilar soni 10 nafardan oshmagan. Qizlar o‘qiydigan maktabxonalardagi o‘quvchilar soni o‘g‘il bolalarga nisbatan 25-30 foizni tashkil etgan. Qiz bolalar uchun o‘qish 7 yoshdan boshlanib, 13 yoshgacha, ayrim hollarda 10-11 yoshgacha davom etgan. Odatda qiz bolalarga uyda ta’lim berish tajribasi keng

[108] Айний С. Эсдаликлар // Асарлар. - Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965. V жидд. Б. 169.
[109]Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. Асарлар, 1 том. - Б 210.
[110] Бухоройи шариф. 1912. 29 ноябрь

tarqalgan. Umuman olganda, ayollarning maktabda o‘qishi qiyin kechgan, faqat boy xonadonlarning qizlarigina o‘qib savodini chiqara olgan, qishloqlarda o‘qigan qizlar juda kamchilikni tashkil etgan.Amirlikdagi ta’lim tizimida tarbiya masalalari juda muhim ahamiyat kasb etgan va diniy e'tiqodni mustahkamlashga, iymon va axloqiy poklikka e'tibor qaratilgan. Xullas, boshlang‘ich maktab o‘qish va yozish, hisob-kitob qoidalari qatorida o‘quvchining ma’naviy qiyofasini Islom ta’limoti doirasida shakllantirish vazifasini ham bajargan.Qizlar maktabida o‘qitish o‘g‘il bolalar o‘qiydigan masjidlar huzuridagi maktabxonadagi o‘qitishdan bir muncha farq qilar edi. O‘zining savodini qizlar maktabida chiqargan Sadriddin Ayniy ushbu maktabni quyidagicha ta’riflaydi: «Otinbibi o‘zining butun vaqtini saboq beruvga sarf etar, har bir bolani navbat bilan o‘z oldiga chaqirib dars berar va bu bilan bir kunlik o‘qish o‘tar edi. Otinbibining nonushtadan to bir kunlik dars vaqti ertangi nonushtadan to soat o‘n ikkigacha davom etar, u bolalarni masjiddagi domladay ertadan kechgacha bir xonada qamab qo‘yib zeriktirmas edi. Uning shogirdlari erta bilan nonushtani o‘z uylarida qilgandan keyin maktabga kelardilar, saboq olish va olingan saboqni o‘qish bilan shug‘ullanar edilar».

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘lmoqdakim, qizlar maktabida o‘qitish Jarayoni ertalabki nonushtadan (soat 8.00) to soat 12 gacha, ya’ni tushlikkacha davom etgan. O‘g‘il bolalar maktabida esa bomdod namozidan keyin, ya’ni ertalabdan soat 17 gacha o‘qish jarayoni davom etardi. Ayrim manbalarda tushlik vaqtida o‘g‘il bolalar uylaridan nonushta qilib kelishgan deyilsa, boshqa manbada esa tushlik uchun ikki marta tanaffus qilingan, birinchisi nonxo‘rak deb atalib, u soat o‘n-o‘n birlar atrofida bo‘lib, bu paytda bolalar uydan olib kelgan nonlar bilan tamaddi qilishgan bo‘lsa, Ikkinchisi soat o‘n uch va o‘n beshlar atrofida bo‘lib, u oshxo‘rak deb atalgan va o‘quvchilarga issiq ovqat berilgan, deb ko‘rsatiladi. O‘g‘il bolalar o‘qitiladigan maktablardan farqli ravishda, qizlar maktablarida mumtoz shoirlar ijodini o‘rganish bilan birga qizlar tarbiyasining o‘ziga xos jihatlari, chunonchi, uy-ro‘zg‘or tutish, pazandalik, pokizalik, sharqona odob-axloq ham o‘rgatilgan. Bu o‘rinda Faxriddin ibn Rizouddinning «Tarbiyali xotun», Olimat ul-banotning «Muosharat odobi» kabi kitoblarining ahamiyati katta bo‘lgan. «Muosharat odobi» 1898 va 1899 yillarda Sankt-Peterburgda ikki marta nashr etilgan. Risolada odob-axloq, ayollarning turmushdagi o‘rni va oilaviy munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat haqida g‘oyat ibratli maslahatlar beriladi. Bundan tashqari qizlar maktabida Aliy Nazimoning besh kitobdan iborat «Tallim-i banot» («Qizlar tarbiyasi»)

asari sharqona axloqiy darslik sifatida o‘qitilgan. Qizlar o‘qiydigan maktabxonalardagi o‘quvchilar soni o‘g‘il bolalarga nisbatan 25-30 foizni tashkil etgan. Ahmad Donishning xotirlashicha, o‘g‘il bolalar maktabidan ancha orqada bo‘lgan qizlar maktabida ko‘pchilik holatlarda «Haftiyak»ni bu o‘qib, Qur'oni karimdan 2-3 ta surani o‘qishni o‘rganish bilan qiz bolalarning o‘qish kursi tugatilgan. Ammo, Sadriddin Ayniyning yozishicha, o‘g‘il bolalar maktabidan ko‘ra, qizlar maktabida yaxshiroq o‘qitilgan. Qizlar maktabi soni o‘g‘il bolalarning maktablaridan ancha oz, har bir otinoyida o‘qigan qizlarning soni esa domlada o‘qigan o‘g‘il bolalarning yarmidan ham kam bo‘lgan. Qizlarning ko‘pchiligi hatto maktabga bormagan. XIX asrda O‘zbekistonda, umuman, Markaziy Osiyoda ta’lim-tarbiya muammolari bilan maxsus Shug‘ullanuvchi mutaxassislar, olimlar bo‘lmagan.

Lekin, davrning ilg‘or kishilari o‘z ma’rifiy qarashlari asosida ta’lim-tarbiyani rivojlantirganlar. O‘tmishdagi barcha Sharq mutafakkir va shoirlari singari o‘zbek otinlarining ham pedagogika nazariyasiga oid asarlari yo‘q. Lekin bizga meros qoldirgan she'rly durdonalariga asoslanib ularning ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi qarashlarini aniqlash mumkin[111].

1796-1797 yillari onasi otinlik qilgan xususiy maktabda dastlab xalfalik, keyin mustaqil ravishda otinlik qilgan Jahon Otin o‘z maktabida ta’lim-tarbiya sohasida o‘ziga xos usullarni qo‘llashga intilganligini ko‘ramiz. Qizlarga boshlang‘ich diniy ta’lim beradigan otinbibi maktablari esa asosan xususiy bo‘lib, otinlarning uylarida tashkil qilinardi. Bunday maktablar muayyan bir o‘quv rejasi va dasturiga ega emas edi. O‘quvchilar ham kitoblarni o‘zlashtirish darajasiga qarab guruhlarga bo‘lib o‘qitilardi. Domla, yoki otinoyi darsni berilgan vazifani o‘qitib ko‘rish va yangi topshiriq berishdan boshlardi. Katta yoshli o‘quvchilardan biri otinoyiga yordamchi qilib saylar va “xalfa” deb yuritilardi. Maktabdagi asosiy o‘quv fani islom qoidalari to‘plami edi. Otin oyiga ish haqi sifatida ota-onalar oziq-ovqat mahsulotlari, kiyimliklar berishar ba’zan pul to‘lashar edi. Bundan tashqari, ota-onalardan bo‘yra puli», «o‘tin pull» ham undirilardı. Otinoyi maktabida o‘qitishning saviyasi otinoyining bilim darajasiga nihoyatda bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlamoqchimiz. Maktabni muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchilar tuman miqyosidagi otinlar maktabida o‘qishni davom avom ettirardilar. Uvaysly Umarxon saroyida shoira sifatida she'r san'atidan, musiqadan muallimalik qilgan. Qizlarga boshlang‘ich ta’lim berar ekan, Jahon Otin ularning zehnini o‘stirishga katta ahamiyat qaratadi. Otin o‘z

[111] Хужаев Ф. Хотирамда // Бухоро ахбори. 1921.- №48

shogirdlariga savod o‘rgatibgina qolmay, ular orasidan iqtidorli qizlarni tanlab Sharq she'riyati bilan tanishtiradi. Qizlarni nazm bo‘stoniga yetaklaydi. Uvaysiy o‘z davrining peshqadam shoiralaridan bo‘lgan. Shu bois qizlarga she'r san'atidan dars berganda, o‘sha davr shoirlari bilishi zarur bo‘lgan nazirago‘ylik, radifgo‘ylikni ham o‘rgatgan. Har bir shoir mushohada kuchiga ega bo‘lishi zarurligini uqtirgan. Jahon Otinning ko‘p asarlari insoniy muhabbat, go‘zallikni ifoda etadi. Uning she'rlaridagi he'rlaridagi asosiy lirik qahramon hayotni butun go‘zalligi bilan sevuvchi, unga maftun bo‘lib, shodlanuvchi, Jabr zulmga qarshi kurashuvchi, do‘stlik, vafodorlikka sodiq chin oshiq, aqlli, bilimdon ayol. Ana Shu olijanob insoniy fazilatlar kishilardagi vafosizlik, bemehrlik, yolg‘onchilik, subutsizlik kabi salbiy Illatlarga qarama-qarshi qo‘yiladi. Uvaysiy o‘z asarlarida xalqning dilida yod bo‘lib ketgan hikmatli so‘zlar, maqollar, iboralardan keng foydalanadi. Bular uning asarlarining tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmadov O. Elova .D.D Buxoro bosmaxonasi va nashiryotchi ishlari texnikasi soxasidagi yangiliklarni kirib kelish tarixidan(1920-1924)yillar // Pedagogik mahorat, 2021 (maxsus son). -B.116.
2. Туркестанские ведомости, 1911.14 апрель.
3. Бендриков К.Е. очерки по истории народного образования в Туркистане (1865-1924). С, 260,
4. Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими. XIX аср охири XX аср бошлари. Бухоро -2014. Б. 101.
5. Бухоройи шариф. 1912.-18 июнь.
6. Шарипов Р. Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. Тошкент. Ўқитувчи. 2002. Б. 107.
7. https://arxiv XIX-asrning-ikkinchi-yarmi-XX-asr-boshlarida-turkiston-o-lkasida-ta'lim-tarbiya

LIVAN DAVLATINING FRANSIYA MUSTAMLAKACHILIGIGA QARSHI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI (1919-1943)

Alimxodjayeva Go‘zal Baxodirovna
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Yodgorov Sh.M.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1919-1943-yillarda Fransiya mustamlakachiligiga qarshi Livan xalqining milliy ozodlik harakati ko‘rib chiqiladi. Livan davlati geografik, tarixiy va siyosiy aloqalari tufayli ko‘pincha Suriya birga o'rganiladi. Ikkala davlat ham Buyuk Suriya (Shom) tarixiy hududining bir qismidir. Asrlar davomida ular Usmonli imperiyasining bir qismi bo‘lgan. Birinchi jahon urushidan keyin ikkala davlat ham Fransiya mandati ostiga o‘tdi. Mamlakatlar umumiy chegaraga ega, bu esa yaqin iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarga yordam bergan. Livan va Suriyaning Fransiya mustamlakachiligiga qarshi kurashi o‘zaro bog‘liq va umumiy maqsadlarga ega bo‘lganligi sababli maqolada ikki davlatning milliy-ozodlik harakatlari birga tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada 1925-yilgi qo‘zg‘olon va uning milliy harakat rivojidagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada 1930-yillardagi siyosiy kurash ko‘rib chiqilib, siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va kurashning parlamentar usullariga o‘tishi tadqiq etilgan. Ikkinchi jahon urushi davri va Bishara al-Xuriy kabi yetakchilarning roli, shuningdek, 1943-yilda Livan mustaqilligidagi Milliy paktning tashkil topishi batafsil yoritib berilgan. Milliy ozodlik harakati muvaffaqiyatiga hissa qo‘shgan omillar va uning zamonaviy Livan jamiyati uchun qoldirgan merosi ham tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Buyuk Livan, Milliy-ozodlik harakati, fransuz mustamlakachiligi, mandat tizimi, Bishara al-Xuri, Milliy pakt.*

Birinchi jahon urushi tugashi bilan Livanda ahvol yomonlashdi. 1920-yilda Fransiya San-Remo konferensiyasida Livan va Suriyani boshqarish mandatini oldi. Bu mandat Suriya va Livan xalqlarining xohish-irodasi va istaklariga zid ravishda 1922-yil 24-iyulda Millatlar Ligasi tomonidan tasdiqlandi. Fransuz imperialistlari Livanni Yaqin va O’rta Sharqdagi o’z mustamlakasidek ko’rdilar. 25 yildan ortiq vaqt davomida fransuz monopoliyalari Livan xalqini talon-taroj qilib, mamlakatda mustamlakachilik tartibini o’rnatdilar[112]. Mazkur konferensiya g’arb

[112] Ватолиной Л. Арабы в борьбе за независимость. Академия наук СССР Институт Востоковедения. Москва, 2020. - С. 277.

davlatlari, ayniqsa ittifoqchilarni xavotirga soldi va ular tezkor javob choralarini ko'rishdi. Natijada, San-Remo shartnomasini tuzish bo'yicha qaror qabul qilindi. Unga ko'ra:

1. Usmonli imperiyasining parchalangan hududlarini bo'lish: Sevr shartnomasi asosida Osiyoda joylashgan arab davlatlari va Shimoliy Afrikadagi mintaqalarni mandat tizimiga topshirish;

2. Tinchlik shartnomasi:1920-yil 10-avgustda Turkiya bilan Sevr shartnomasi imzolandi;

3. Armaniston va Kurdistonning mustaqilligi:Ushbu hududlarning mustaqilligi tamoyili qo'llab-quvvatlandi;

4. Gretsiya manfaatlari: Gretsiya Frakiyaning ba'zi hududlariga va Anadoluning g'arbiy qirg'oqlariga egalik qildi;

5. Mandat tizimi: Suriya va Livan Fransiya mandati ostiga berildi. Falastin va Iroq esa Buyuk Britaniya nazoratiga o'tkazildi;

6. Balfour va'dasi: Falastinda yahudiylar uchun milliy uy barpo etish g'oyasi tasdiqlandi;

7. Turkiya va xalqaro chegaralar: Turkiya arab davlatlariga oid da'volaridan voz kechishga majbur bo'ldi[113].

1920-yil 1-sentabrda fransuz generali Guro Bayrutdagi as-Snobar saroyida Suriyada yangi davlat – "Buyuk Livan davlati" tashkil etilganini e'lon qildi. Bu davlat tarkibiga quyidagilar kiritildi. Ular Tog'li Livan gubernatorligi, Bayrut shahri, Tripoli shahri (uning ma'muriy bo'ysunuvida Akkar, Safita va al-Xosn), Sayda, Sur va Marj-Uyun (Jabal-Amal viloyati) shaharlari va Hasbaya, Rashaya, Biqa' va Baalbek qoziliklari. Fransiya "Buyuk Livan"ni tashkil etib, mamlakat hududini Livan manfaatlari uchun emas, balki o'z manfaatlarini ko'zlab kengaytirdi. Livanliklarning mutlaq ko'pchiligi bu loyihaga qarshi edi. Suriyaning ichki hududlarida, ayniqsa aholining aksariyatini tashkil etgan arab-musulmonlar orasida kuchli qarshilik mavjud edi. Fransuzlar bir kun kelib Suriyadan chiqib ketishga majbur bo'lishlarini tushunib, Livanga e'tibor qaratdilar. Ular "Buyuk Livan" davlatini tuzib, maroniylarga tayanish orqali livanliklarning hech qachon ularga qarshi chiqmasligiga ishonch hosil qilishni maqsad qildilar[114].

Fransuzlarga qarshi qo'zg'olonlarning statistikasi quyidagicha: 1922-yilda 35 marta qo'zg'olon ko'tarilgan; Fransiya armiyasi 1924-yilga kelib 9 minggacha askar va zobitini yo'qotgan. Ushbu qo'zg'olonlar Suriya va Livan xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashining keng ko'lamini aks ettiradi. Suriya va Livanning ozodlik harakati milliy birlik, iqtisodiy

[113] University of Anbar.مؤتمر سانريمو مؤتمر سان ريمو.اتفاقيه عقدت في .مدينة سان ريمو .هي .من نسيان .االيطالية في التاسع عشر

[114] Амин Саид. Восстания арабов в XX веке. Прогресс. Москва, 1964. -С.153.

mustaqillik va siyosiy suverenitet uchun kurashning yorqin namunasi bo'lib, bu jarayon mintaqaning boshqa hududlariga ham ta'sir ko'rsatdi[115].

Ushbu qo'zg'olonlar natijasida Suriya va Livan qurolli kurash yo'li bilan fransuz hukmronligidan ozod bo'lishga urindilar, biroq muvaffaqiyatga erisha olmadilar. Qo'zg'olonda dehqonlar, hunarmandlar, ishchilar, savdogarlar va hatto ayrim feodallar ishtirok etdi. Biroq qo'zg'olonning muvaffaqiyatsizligi fransuzlarning Suriya va Livan aholisining turli guruhlari o'rtasidagi etnik va diniy tarqoqlikdan foydalanganligi, harbiy-texnik ustunligi va siyosiy manyovrlari bilan izohlanadi. Bundan tashqari, 1926-yil may oyida Livan mustaqilligini rasman tan olish ham qo'zg'olonning sustlashishiga olib keldi.

Qo'zg'olon yetakchilari, ayniqsa Jabal ad-Druzda, ko'pincha faqat cheklangan mahalliy maqsadlarga erishishga intilib, qo'zg'olon umumiy milliy xarakterga ega bo'lganda undan chekinishni afzal ko'rdilar. Shahar savdogarlari ham mandat hokimiyatidan muayyan yon berishlarni kutib, oxir-oqibat fransuzlar bilan kelishib olishga intildilar. Natijada, Suriya elitasining ayrim guruhlari mandat ma'murlari bilan aloqa o'rnatib, ularni qo'llab-quvvatladilar. 1926-yil oxirida Suriya ishbilarmonlari fransuz sarmoyasi bilan iqtisodiy hamkorlik to'g'risida kelishuvga erishdilar, bu esa fransuzparast kayfiyatning kuchayishiga olib keldi.1925–1927-yillardagi milliy-ozodlik harakati Suriya va Livan tarixida muhim o'rin tutadi[116].

1926-yilda Fransiya mandati davrida Livan Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yaqin Sharqdagi ko'plab davlatlar protektorat ostida konstitutsiyalarni qabul qilgan. Masalan, 1923-yilda Misr Konstitutsiyasi, 1924-yilda Iroq Konstitutsiyasi, 1928-yilda Transiordaniya Konstitutsiyasi, 1930-yilda Suriya Konstitutsiyasi va 1939-yilda Quvayt Konstitutsiyasi qabul qilingan. Shunga qaramay, hozirgacha faqat Livanning 1926-yildagi Konstitutsiyasi amal qilib kelmoqda. Ushbu hujjat mamlakat 1943-yilda mustaqillikka erishganidan keyin ham bekor qilinmagan.

Livan aholisi konfessional jihatdan rang-barang bo'lib, nasroniylar va musulmonlar orasida turli yo'nalishlar mavjud. Nasroniy aholiga maroniylar, armano-grigorianlar, armano-katoliklar, pravoslavlar, melkitlar, yakovitlar, rim-katoliklar, yunon-katoliklar, koptlar va protestantlar kiradi. Ularning soni ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, umumiy aholining 39 foizini tashkil etadi. Musulmonlar esa aholining 59,7 foizini tashkil etib, ular orasida sunniylar, o'n ikkilik shialar, alaviylar, druzlar, ismoiliylar va

[115] Бершов В. Н. Сирийское восстание 1925-1927 годов на подмандатных территориях (Сирия и Ливан): причины, ход и последствия // Ученые записки Крымского федерального университета имени ВИ Вернадского. Исторические науки. – 2019. – Т. 5. – №. 1. – С. 44.

[116] Бершов В.Н. Сирийское восстание 1925-1927 годов на подмандатных территориях (Сирия и Ливан): причины, ход и последствия // Ученые записки Крымского федерального университета имени ВИ Вернадского. Исторические науки. – 2019. – Т. 5. – №. 1. – С. 53.

boshqa guruhlar mavjud. Ba’zi musulmon yo’nalishlarining aniq sonini belgilash qiyin, chunki diniy e’tiqodni yashirish (taqiya) amaliyoti keng tarqalgan. Qolgan 1,3 foiz aholi boshqa dinlarga, shu jumladan yahudiylikka e’tiqod qiladi[117].

Livan Konstitutsiyaning 1-moddasida Livan chegaralari “Fransiya Respublikasi hukumati tomonidan rasman tan olingan”, deb belgilandi va bu chegaralar doirasida “to’liq suverenitet” e’lon qilindi. Arab tili yagona rasmiy davlat tili deb e’lon qilindi va fransuz tili ikkinchi darajali maqomini oldi. Bundan buyon barcha xalqaro shartnomalar Fransiya hukumati tomonidan emas, balki Livan Prezidenti tomonidan tuzilishi va Livan parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilinishi kerak edi. Millatlar Ligasi tomonidan Fransiyaga berilgan barcha vakolat va imtiyozlar konstitutsiyadan rasman olib tashlandi. Nihoyat, deputatlar davlat bayrog’ining 5-moddasini o’zgartirish uchun ovoz berishdi: fransuz trikolori oq fonda sadr daraxti tasvirlangan uchta gorizontal chiziq – qizil, oq, qizil chiziq bilan almashtirildi. Huquqiy va ramziy jihatdan Livan o’z suverenitetini tasdiqladi[118].

Livan Konstitutsiyasi 1926-yil 23-mayda qabul qilinganidan so’ng, bir necha marta o‘zgartirilgan. O‘zgartirishlar 1927, 1929, 1943, 1947, 1948, 1976-yillarda, shuningdek, 1990-yilda Taif bitimidan so‘ng amalga oshirilgan. Taif bitimi “Milliy yarashuv kelishuvi”, deb ham ataladi va fuqarolar urushini yakunlashga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

Livan Konstitutsiyasi hozirgi kunda quyidagi oltita qism va jami 102 moddadan iborat:

1. Asosiy qoidalar;
2. Vakolatlar;
3. Prezident saylovi va Konstitutsiyaga o’zgartirishlar kiritish tartibi;
4. Turli xil qoidalar;
5. Majburiy hokimiyat va Millatlar Ligasi bilan bog’liq qoidalar;
6. Yakuniy va vaqtinchalik qoidalar[119].

Livandagi siyosiy partiyalar boshqa arab mamlakatlariga nisbatan kechroq shakllandi va asosan mamlakatdagi konfessional tizim bilan chambarchas bog’liq holda rivojlandi. Livandagi barcha siyosiy partiyalar va diniy jamoalarning pozitsiyasiga 1932-yilda o’tkazilgan aholini ro’yxatga olish natijalari sezilarli darajada ta’sir ko’rsatdi. Unga ko’ra, mamlakat aholisining 50 foizini nasroniylar, 48,8 foizini musulmonlar va 1,2 foizini boshqa guruhlar tashkil etgan. Nasroniylar orasida maroniylar (28,8%), pravoslavlar (9,7%), grek-katoliklar (5,9%), armani-grigorianlar

[117] Хайруллин Т.Р. Конституция Ливана как гарант хрупкой стабильности политического режима //Ислам в современном мире. – 2018. – Т. 13. – №. 4. – С. 114.
[118] Роган Ю.Арабы. XVI-XXI вв/.М.:-2022. Альпина. -С. 334.
[119] https://www.fao.org/faolex/results/details/en/c/LEX-FAOC128652/

(3,2%), armani-katoliklar (0,7%), protestantlar (0,9%), yakovitlar (0,3%), suriya-katoliklar (0,3%), xaldeylar (0,1%) va nestorianlar (1,1% dan kam) yetakchilik qilgan. Musulmonlar orasida esa sunniylar (22,4%), shialar (19,6%) va druzlar (6,8%) asosiy guruhlar edi.

Shu bilan birga, ba'zi kichik konfessiyalar (masalan, Livan shimolida yashagan alaviylar va boshqa juda oz sonli guruhlar) statistik ma'lumotlarda aks ettirilmagan. 1913-yilgi aholini ro'yxatga olish bilan taqqoslaganda, maroniylar va umuman nasroniylarning ulushi kamayib borayotgan tendensiyasi yaqqol ko'zga tashlangan[120].

"Baas"* Mishel Aflaq va Saloh ad-Din Bitar tomonidan 1940-yillar boshida "Yagona arab xalqi, abadiy xabarni yetkazuvchi" shiori ostida panarabizm va antiimperializm g'oyalarini targ'ib qiluvchi dunyoviy partiya sifatida tashkil etilgan. "Baas" alohida davlatlar ichidagi tor millatchilikdan voz kechib, barcha arab xalqlarini birlashtiruvchi millatchilik tarafdori edi. "Baas" mafkurachilari arablar tashqi ta'sirlardan to'liq mustaqillikka, shuningdek, mamlakatda ijtimoiy adolatga faqat to'liq birlikka erishish orqali erisha oladilar, deb ta'kidladilar. Ular 1919-yilgi Versal shartnomasi bilan o'rnatilgan imperialistik chegaralardan xoli yagona arab davlatining utopik tasavvurini taklif qildilar. 1940-yillarning oxirida Livan, Iordaniya va Iroqda "Baas" filiallari paydo bo'ldi[121].

Birinchi saylovlar 1943-yil 29-avgustda o'tkazildi. Bu saylovlarda birinchi marta milliy arab tashkilotlari ishtirok etdilar, ular Fransiya hukmronligi davrida odatda saylovlarni boykot qilishgan edi.Mamlakatning shimoliy qismidagi saylov kurashiga Livan bosh vaziri Hamid Karame boshchilik qildi. Saylovlar paytida uning ro'yxati ajoyib g'alaba qozondi. Boshqa viloyatlarda ham milliy ro'yxatlar g'olib chiqdi. Respublika prezidenti nomzodi masalasi bo'yicha kurash boshlandi, chunki yangi parlament prezidentni saylashi kerak edi. Fransuzlar o'z do'stlari Emil Edde nomzodini taklif qildilar, arab millatchilari esa sobiq hukumatlardan birining bosh vaziri, Konstitutsiyaviy partiya rahbari Bishara al-Xuriy* nomzodini ilgari surdilar. Inglizlarning nomzodi Kamil Shamun edi.

Parlament 1943-yil 21-sentyabrda to'plandi. Ko'pchilik ovoz bilan shayx Bishara al-Xuriy* respublika prezidenti etib saylandi: u 52 ovozdan 39 tasini oldi. Uning saylanishi Livandagi arab millatchiligi uchun katta g'alaba, Fransiya va uning tarafdorlari hamda agentlari uchun esa jiddiy mag'lubiyat sifatida baholandi.

---

[120] Ланда Р. Г. История Ливана. XX век / Институт востоковедения РАН/. - М.: ИВ РАН, 2016.-С.

* "Baas" partiyasi -1947-yilda suriyalik mutafakkir Mishel Aflaq (1910-1989) tashabbusi bilan arab sotsializm g'oyalarini rivojlantirish va tarqatish uchun tashkil etilgan.

[121] Роган Ю. Арабы. XVI-XXI вв/.М.:-2022. Альпина. -С. 394.

* Bishara al-Xuriy (1892-1964) — Livanlik siyosatchi va davlat prezidenti.

25-sentyabrda Riyod as-Solihning* birinchi kabineti tuzildi. 7-oktyabr kuni as-Solih parlamentga keng bayonot taqdim etdi, uning asosida uning kabineti ishonch ovozini qo'lga kiritdi. Bayonotda shunday deyilgan edi: "Livan o'zining geografik va iqtisodiy sharoitlari, mavqei, tili va madaniyati tufayli arab hukumatlari bilan hamkorlik qilishga da'vat etilgan. Hukumat ushbu hukumatlar bilan arab davlatlari tomonidan Livan mustaqilligi va uning to'la suverenitetini hurmat qilishni ta'minlaydigan asoslarda munosabatlar o'rnatish ustida ishlaydi. Livan g'arb sivilizatsiyasining ne'matlarini o'zlashtirayotgan arab mamlakatidir. Arab mamlakatlaridagi birodarlarimiz Livanga uning mag'rur vatanparvar farzandlari tilaganidek yaxshiliklar tilaydilar. Biz Livanni imperializm bazasi sifatida ko'rishni istamaymiz, ular ham uni imperializm uchun tramplin deb ko'rishni xohlamaydilar. Binobarin, ular ham, biz ham aziz vatanimizni mustaqil, suveren va ozod ko'rishni istaymiz"[122].

1943-yil kuz oyida Livan mustaqilligi sharoitida ayollarning saylov huquqi talablari dolzarb masalaga aylandi. Dastlab, asosan o'rta sinf vakilalari bo'lgan ayol faollar o'z talablarini mustaqil davlat qurish, fuqarolik huquqlari va demokratik tamoyillarni himoya qilish doirasida ilgari surdilar. Livanlik ayollar saylov huquqini qo'lga kiritgach, parlament saylovlarida qatnashgan birinchi ayol Emili Fares Ibrohim bo'ldi. Yozuvchi va faol sifatida u 1940-yillarda so'l yo'nalishdagi doiralarda faollik ko'rsatdi va ayollar huquqlarining qat'iy tarafdori edi. U ayollar huquqlarining yo'qligida Livan demokratiyasining haqiqatdan yiroq ekanligini tanqid qilardi. Uning "Al-Tariq" jurnalida chop etilgan maqolalaridan birida Fares Ibrohim quyidagicha savol bilan chiqdi: "O'z mamlakatlarida asosiy siyosiy huquqlardan mahrum bo'lgan ayollar bor ekan, ularga [erkaklarga] to'liq demokratik boshqaruvni amalga oshirish huquqini kim berdi?"

Uning fikricha, Livan faqat jamoat sohasida erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik orqali to'liq va insonparvar demokratiyaga erisha oladi.So'l yo'nalishdagi livanlik ayollar sinf va gender masalalarini birlashtirib, ayollar huquqlarini tenglik uchun kengroq ijtimoiy kurashning tarkibiy qismi sifatida muhokama qildilar. Ularning talablari, respublikachilik va demokratik boshqaruv tamoyillarini qo'llab-quvvatlash bilan birga, amaldagi tizimdagi zaifliklarni ham fosh qilishga qaratilgan edi. Fares Ibrohim kabi faollar o'z maqolalari va chiqishlari orqali so'l yo'nalishdagi erkaklar va liberal millatchi guruhlar ilgari surgan tizimning kamchiliklarini tanqid qilishda davom etdilar[123].

* Riyod as-Solih (1894 - 1951) — Livan mustaqillikka erishgandan keyin birinchi Bosh vazir bo'lgan.

[122] Амин Саид. Восстания арабов в XX веке. Прогресс. Мосва-1964. -С.158.

[123] https://english.legal-agenda.com/founding-the-lebanese-left-from-colonial-rule-to-independence/

Mustaqil Livanning yaratilishi katta maroniylar va sunniy oilalar o’rtasidagi “Milliy pakt” deb nomlangan yozilmagan kelishuvga asoslangan bo’lib, unda Livan davlatchiligi uchun asosiy ikkita shart mavjud edi.

Birinchidan, nasroniylar Fransiya homiyligidan voz kechib, musulmonlarning arab birligi g‘oyalaridan voz kechishi va birinchi navbatda Livanning Suriyaga kirishi evaziga mamlakat mustaqilligini qo’llab-quvvatladilar.

Ikkinchidan, Milliy pakt konfessionalizmni saqlab qolishni nazarda tutgan. Livan siyosiy konfessionalizmining eng muhim jihatlari orasida bu zarur edi. Maroniylarga prezidentlik, sunniylarga bosh vazirlik, shialarga parlament raisi tayinlandi. Davlat xizmati va armiyadagi vazirlik lavozimlari va boshqa rahbarlik lavozimlari shunga muvofiq taqsimlandi. Parlamentdagi nasroniylar va musulmonlar o’rtasidagi nisbat 6:5 sifatida qayd etildi. O’sha paytda Livanda 20 ga yaqin diniy jamoalar mavjud bo’lib, ulardan atigi 17 tasi rasmiy davlat maqomini olgan: 13 ta xristian (maroniylar, yunon katoliklari, pravoslavlar, arman katoliklari, arman pravoslavlari, protestantlar va boshqalar), uchta musulmon (sunniylar, shialar va druzlar) va yahudiylar jamoasi. Jamoalarga oila, nikoh va meros munosabatlarini tartibga solishda mustaqillik berildi. Livanda shu kungacha fuqarolik nikohi mavjud emas. Demografik vaziyatning musulmonlar foydasiga bosqichma-bosqich o’zgarishi musulmon elitalarining siyosiy tizimdagi vakolatlarni qayta taqsimlash talablarining keskinlashishiga olib keldi.[124]

1943-yil oxiridan boshlab Livan nisbatan tinch davrga kirdi. Fransuz generali J.Katru 23-noyabr kuni Livan radiosi orqali prezident va bosh vazir huquqlarining tiklanishi haqida bayonot berib, bu voqea “Fransiya va Livanni asrlar davomida bog’lab turgan an’anaviy va samarali munosabatlar tiklanganini” hamda “qayg’uli inqiroz tugaganini” anglatishini ta’kidladi. Shu bilan birga, ingliz va fransuz qo’shinlari hali ham mamlakatda bo’lishiga qaramay, Livan o’z suverenitetini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’ldi. Bu Livan hukumatiga xalqaro maydonda o’zini namoyon qilish imkonini berdi. Xususan, 1944-yilda Arab davlatlari ligasini tashkil etishga tayyorgarlik ko’rishda faol ishtirok etdi.

Ichki siyosatda prezident Bishara al-Xuriy boshchiligidagi Konstitutsiyaviy blok yetakchilikni qo’lga oldi. Bu blok "kiyan lubnaniy" (Livanning mavjudligi) tushunchasini tan olishni va Milliy paktning barcha bandlariga qat’iy rioya qilishni talab qildi. Blokning asosini al-Xuriy atrofida to’plangan 36 nafar deputat tashkil etdi, ulardan 26 nafari nasroniylar edi. Ushbu deputatlar mamlakatning 230 ta yirik kompaniyasining sobiq egalari yoki hammualliflari bo’lib, Konstitutsiyaviy

[124] Мохов Н. Непреодолимый конфессионализм Ливана //Азия и Африка сегодня. – 2008. – №. 6. – С. 26.

blok mamlakatning burjua elitasini ifodalovchi sinfiy blok sifatida namoyon bo'ldi.

Konstitutsiyaviy blokka qarshi turuvchi Milliy blok esa ekstremistik pozitsiyalarni himoya qildi. 1944-yil avgust oyida SSSRning Misrdagi elchisi N.V. Novikov vositachiligida Livan va Sovet Ittifoqi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Livan hukumati Sovet Ittifoqining mustaqillikni tan olishini va uning suverenitetini mustahkamlashdagi ahamiyatini ta'kidladi.

Xalqaro maydonda Livan va Suriya o'z mavqelarini mustahkamlashga intilishdi. 1945-yil aprelda ular BMT Deklaratsiyasini imzolashdi va Arab davlatlari ligasining a'zolari bo'lishdi. Ushbu pakt arab mamlakatlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish va ularning suverenitetini himoya qilishni maqsad qilgan edi. 1945-yil may oyida Ikkinchi jahon urushining yakunlanishi Fransiya va Angliyani Levant mamlakatlaridan qo'shinlarini olib chiqishga majbur qildi. Shu tariqa, Livan va Suriya mustaqilliklarini yanada mustahkamlash yo'lida muhim qadamlar tashladilar[125].

Xulosa

Livan davlatining Fransiya mustamlakachiligiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari (1919-1943) XX-asr boshidagi xalqaro siyosiy vaziyat, mintaqadagi geosiyosiy holat va mahalliy aholining milliy o'zligini tiklashga bo'lgan intilishlari bilan chambarchas bog'liq edi. Bu harakat nafaqat Livan xalqining mustaqillik uchun kurashini, balki butun arab dunyosidagi milliy ozodlik g'oyalarining rivojlanishini ham aks ettiradi. Birinchi jahon urushi yakunida, 1919-yilda Livan hududi Fransiya mandati ostiga tushdi. Bu mandat 1920-yilda Millatlar Ligasi tomonidan rasmiylashtirildi. Livan xalqi bu qarorni o'z mustaqilligiga to'siq deb qabul qildi va milliy-ozodlik harakatlarini faollashtirdi.

Ushbu davrda Livan xalqining asosiy maqsadi mustaqil davlat qurish va Fransiya hukmronligidan qutulish edi. Milliy-ozodlik harakatlari ko'p qirrali bo'lib, u siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda olib borildi. 1925-yillardagi Buyuk Suriya qo'zg'oloni Livan milliy-ozodlik harakatining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, mamlakat xalqining mustamlakachilikka qarshi birdamlikda kurash olib borganini ko'rsatdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida (1939-1945) global siyosiy vaziyat Livan xalqining ozodlikka erishish imkoniyatlarini yanada kuchaytirdi. 1943-yilda Livan hukumati Fransiya mandatidan chiqish va to'liq mustaqillikka erishish yo'lida muhim qadam tashladi. Shu yili Livan mustaqillik e'lon qildi va mamlakat prezidenti Bishara al-Xuriy boshchiligida yangi davlat tashkil qilindi.Fransiya mandati davrida Livan jamiyatida chuqur ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Maroniy xristianlar va musulmonlar o'rtasidagi

[125] Ланда Р. Г. История Ливана. XX век / Институт востоковедения РАН/. - М.: ИВ РАН, 2016. -С.87.

munosabatlar, siyosiy elitaning shakllanishi, milliy ong va vatanparvarlik tuyg'ularining o'sishi kabi jarayonlar kuzatildi. Milliy-ozodlik harakati turli ijtimoiy qatlamlar va diniy guruhlarni birlashtirgan holda, yagona maqsad - mustaqillikka erishish yo'lida harakat qildi.1926-yilgi Konstitutsiyaning qabul qilinishi, ayniqsa, 1943-yilgi "Milliy Pakt" Livanning ko'p konfessiyali davlat sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

1919-1943-yillardagi Livan milliy-ozodlik harakati mahalliy xalqning mustamlakachilikka qarshi kurashdagi jasorati va o'zini-o'zi boshqarishga bo'lgan intilishlarini aks ettiradi. Ushbu harakat natijasida Livan xalqining milliy o'zligi tiklanib, mustaqil davlatga asos solindi. Bu davr mintaqadagi boshqa millatlarning ham o'z ozodligi uchun kurashishiga ilhom bo'ldi va arab dunyosida mustamlakachilikka qarshi harakatlarning kuchayishiga xizmat qildi. Bu harakat nafaqat mustaqillikka erishish, balki zamonaviy ko'p konfessiyali demokratik davlat qurilishi uchun ham poydevor yaratdi. Bugungi kunda ham bu tarixiy tajriba Livan davlati va jamiyati rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

YAQIN SHARQDA SUVAYSH KANALINING ISTIQBOLI: IMKONIYATLAR VA CHAQIRIQLAR

Latipova Sabina Anvar qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
"Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha)" yo'nalishi
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent, t.f.n. Xudoyberdiyev A.H.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Suvaysh kanalining xalqaro maydondagi o'rni va roli, xususan, Yaqin Sharq mintaqasida ko'pqirrali va keng qamrovli xavfsizlik siyosatidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, Yaqin Sharqdagi mojarolar va Qizil dengiz inqirozi, Misr-Xitoy munosabatlarida Suvaysh kanalining roli tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Arab bahori, Husiylar, Brent nefti, savdo arteriyasi, Qizil dengiz, Suvaysh kanali, Ben Gurion kanali loyihasi.*

Jahon taraqiyotining hozirgi bosqichida diniy, mintaqaviy, global, shuningdek, milliy manfaatlar xalqaro munosabatlarning predmeti bo'lib maydonga chiqmoqda. Zamonaviy davrda Yaqin Sharq jahon siyosatida bir qator omillarga ko'ra muhim o'rin tutadi: birinchidan, Yaqin Sharq - Osiyo, Afrika va Yevropaning kesishgan mintaqasida joylashgan. Bundan tashqari geosiyosiy ahamiyati jihatidan Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyo bilan birgalikda chegaradosh sifatida qaralib, AQSh gegomonlik loyihasida juda muhim o'rin egallaydi. Ikkinchidan, Yaqin Sharq mintaqasi jahonning

muhim transport koridori hisoblanadi. Aynan shu yerda Atlantika va Hind okeanini bir biriga bog'laydigan muhim geostrategik ahamiyatga ega bo'lgan Suvaysh kanali joylashgan hamda shu mintaqa davlatlari qulay dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatiga ega, bu xalqaro iqisodiy munosabatlardagi rolini oshirish va ishtirokini kengaytirishda zaruriy omillardan biridir[126]. Suvaysh kanali Misrning shimoli-sharqida joylashgan, O'rta Yer dengizi va Qizil dengizni bog'lovchi kanaldir. Suvaysh kanali Atlantika va Hind okeanlari portlari orasidagi eng qisqa suv yo'lidir. Geosiyosiy nuqtayi nazardan, u uchta qit'a: Afrika, Osiyo va Yevropaning chorrahasida joylashgan bo'lib, savdo uchun hal qiluvchi vazifani bajaradi. Suvaysh kanalini global yuk ta'minot uchun muhimligini ta'kidlash zarur. Jahon savdosining qariyb 12 foizi va konteyner tashishning 30 foizi Suvaysh kanalidan o'tadi va yiliga 1 trillion dollardan ortiq mahsulot tashiladi. Kanal bo'ylab har kuni o'rtacha 50 ta kema 3-9 milliard dollarlik yuk o'tadi[127]. Kanalning joylashuvi, shuningdek, uni neft va boshqa uglevodorodlarni tashish uchun asosiy mintaqaviy markazga aylantirgan. Bu dunyo neftining taxminan 7-10 foizini va suyultirilgan gazning 8 foizini o'tkazish imkonini beradi. Suvaysh kanalidan kuniga bir million barrel neft oqib o'tadi[128]. Uning Osiyo va Yevropa o'rtasidagi eng tezkor dengiz yo'li sifatidagi strategik rolini hisobga olsak, Suvaysh kanalidagi har qanday uzilish so'nggi yillarda sodir bo'lgan global savdo va energiya bozorlariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday buzilishlarni minimallashtirish xalqaro ahamiyatga ega. Savdo oqimlari va ta'minot zanjirlarini himoya qilish, yuk tashish va sug'urta xarajatlarini kamaytirish hamda barqaror energiya ta'minotini ta'minlash uchun Suvaysh hududi xavfsizligi va salohiyatini oshirish uchun diplomatiya va hamkorlikni talab qiladi[129].

Qizil dengiz. Qizil dengiz havzasi janubidagi vaziyat 2023-yil 7-oktyabrda boshlangan G'azo sektoridagi Falastin-Isroil mojarosi tufayli yana murakkablashdi. Husiylar Isroil bilan aloqasi bor kemalarni nishonga olish orqali Tel-Avivni urushni to'xtatishga va G'azo sektoriga insonparvarlik yordamini kiritishga chaqirmoqda[130]. "Ansorulloh"(Alloh tarafdorlari)nomi bilan ham tanilgan husiylar Yamanning aksariyat qismlarini, jumladan, poytaxt Sana hamda Saudiya Arabistoniga yaqin g'arbiy va shimoliy hududlarni nazorat qiluvchi qurolli guruhdir. Husiylar

[126] Muhammadsiddiqov M.M. Xorijiy sharq va g'arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. T., TDSHU, 2019. -B. 81.
[127] River Ch. The Suez Canal. The History and Zlegacy of the world's most famous waterway. -P. 53.
[128] Suez Canal Authority (March 28, 2025) Whay Suez Canal? https://www.suezcanal.gov.eg/English/About/Pages/WhySuezCanal.aspx
[129] Muhammadsiddiqov M.M. Xorijiy sharq va g'arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. T., TDSHU, 2019. -B. 36.
[130] Худойбердиев А., Copyright publishing. Т-2024. ИСТОКИ КОНАЛИКТА НА БОГЕ АРАВИЙСКОГО ПОЛУОСТРОВА. –С. 200.

1990-yillarda paydo bo‘lgan, ammo 2014-yilda guruh Yaman hukumatiga qarshi isyon ko‘tarib, uning hokimiyatdan ketishiga sabab bo‘lgan. So‘ngra guruh yillar davomida Eron ko‘magida Saudiya Arabistoni boshchiligidagi harbiy koalitsiyaga qarshi kurashdi. Biroq, tahlilchilar fikricha, shia guruhiga Eronning ishonchli vakili sifatida qaramaslik kerak. Uning o'z bazasi, o'z manfaatlari va o'z ambitsiyalari bor[131]. Husiylarning ta’kidlashicha, ular G'azodagi falastinliklarni qo'llab-quvvatlash maqsadida faqat Isroilga tegishli kemalarni nishonga olganlar. 2024-yil 11-yanvardagi hujumlar AQSh Harbiy-havo kuchlarining Yaqin Sharqdagi qo‘mondonligiga ko‘ra, 16 ta obyektga, jumladan, Yamanning poytaxti Sana, Xodayda asosiy porti va mamlakat shimoli-g‘arbidagi husiylar joylashgan Saadada bo‘lgan 60 ga yaqin nishonga zarba bergan[132].

Jahon banki o'zining global iqtisodiy istiqbollarga oid so'nggi hisobotida Ukrainadagi urush bilan birga Yaqin Sharq inqirozi haqiqiy xavflarni keltirib chiqarganini ta’kidladi. Mojarolarning kuchayishi energiya narxining oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa global faollik va inflyatsiyaga kengroq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qizil dengizdagi yuk tashish inqirozi chuqurlashgani sababli Tesla va Volvo Car ishlab chiqarishni vaqtincha to'xtatib qo'ydi. Qizil dengiz orqali transport 40 foizdan ko'proqqa qisqardi, bu esa global ta'minot zanjirlarini buzadi. Dunyoning eng yirik yuk tashish operatorlaridan ba'zilari o'z kemalarini Afrikaning janubiy uchidagi Ezgu Umid burni atrofiga yo'naltirishdi, bu esa yetkazib berish vaqtlarini kechiktirdi va marshrutiga yana 3,000-3,500 dengiz milini (6,000 km) qo'shib qo'ydi[133].

Ezgu Umid. 2023-yil dekabr oyi o‘rtalarida kamida o‘n uchta yirik yuk tashuvchi operatorlar, jumladan, dunyodagi eng yirik konteyner liniyalari Qizil dengiz orqali yoki Isroil portlariga parvozlarni to‘xtatganini e’lon qildi. Suvaysh kanali ma’muriyatining (SCA) xabar berishicha, 19-noyabrdan dekabr oyining o‘rtalarigacha ellik beshta kema Suvaysh kanalidan foydalanish o‘rniga Ezgu Umid burni atrofida yo‘nalishni o‘zgartirgan. Bu shuni ko‘rsatdiki, transportning asosiy qismi davom etayotgan bo‘lsa-da, tobora ko‘proq kema egalari Afrika bo‘ylab uzoqroq, ammo xavfsizroq yo‘lni tanladilar, bu esa oxir-oqibat xarajatlar va sayohat vaqtini oshirdi. Qizil dengizdagi kema hujumlari va yo‘nalishni o‘zgartirish 2023-yil oxiri va 2024-yil boshida Suvaysh transportini samarali ravishda

[131] Al jazeera.(Jan 20, 2024) Oil supply tightens in Europe over Red Sea disruptions https://www.aljazeera.com/news/2024/1/20/oil-supply-tightens-in-europe-over-red-sea-disruptions

[132] The Guardian. (Jan 13,2024) The Observer view on Yemen: airstrikes may have begun an unwinnable war. https://www.theguardian.com/commentisfree/2024/jan/13/us-uk-houthi-yemen-airstrikes-may-have-begun-unwinnable-war

[133] Ali.I., Stewart.P., Ghobari.M., (Jan 13,2024) Retures.com. Yemen's Houthis vow strong response after new US strike. https://www.reuters.com/world/middle-east/biden-warns-more-strikes-yemens-houthis-if-red-sea-attacks-persist-2024-01-13/

to‘xtatdi. Darhaqiqat, 2024-yilning dastlabki ikki oyida Suvaysh kanali orqali o‘tadigan savdo hajmi bir yil oldingiga nisbatan qariyb 50 foizga kamaydi. Odatda kanaldan foydalanadigan o‘nlab kemalar Afrika bo‘ylab uzoq yo‘lni bosib o‘tdi, natijada yuk jo‘natuvchilar muqobil yo‘llarni ixtiro qilgani sababli Ezgu Umid burni orqali jo‘natilgan tovarlar hajmi taxminan 74 foizga oshdi. Qizil dengizda yuk tashish hajmining bunday keskin pasayishi global yuk tashish imkoniyatlarining sezilarli darajada vaqtincha yo‘qolishini anglatadi, chunki dunyodagi konteyner va ommaviy flotning katta qismi uzoqroq yo‘nalishlarga surilgan. Kemalarni Afrika bo‘ylab ommaviy yo‘naltirish ekologik xarajatlarni oshiradi, uzoqroq sayohatlar esa yoqilg‘i yonishi va chiqindilarning ko‘payishini anglatadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 50-60 foiz uzoqroq sayohat qilgan kemalar har bir sayohatda Suvaysh kanali orqali sayohatga qaraganda taxminan 40 foiz ko‘proq karbonat angidrid chiqindilarini chiqargan, bu esa iqtisodiy xarajatlar bilan bir qatorda iqlimga ta’sirini ham ta’kidlaydi[134]. 2025-yil 15-martda Qo‘shma Shtatlar Yamandagi Eron tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan husiylar harakatiga qarshi keng ko‘lamli havo va dengiz hujumlarini boshladi va bu prezident Donald Tramp lavozimga kirishganidan beri AQShning Yaqin Sharqdagi eng muhim harbiy operatsiyasi bo‘ldi. AQSh bir yil davomida husiy nishonlariga zarba berayotgan bo'lsa-da, ushbu yangi kampaniyaning ta’sir doirasi va ko'lami, jumladan, yuqori martabali husiy shaxslarni nishonga olishi mojaroning sezilarli darajada kuchayishini olib kelmoqda[135].

Chaqiriqlar. Yamanning Eron tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan husiy jangarilarining yuk kemalariga hujumlari natijasida. Isroil yuk tashish va logistika kompaniyalarini xavfli suv yo’llarini chetlab o‘tib, Saudiya Arabistoni va Iordaniya orqali Uzoq Sharqdan Isroilga tovarlarni tashish uchun muqobil quruqlik yo‘llariga o‘tishni ma’qul ko’rishdi. Saudiya Arabistoni BAA va Iordaniya bilan birgalikda Isroilga yuklarni tashish uchun yangi yer usti yo‘lagini ishga tushirgani, bu esa yuk tashish vaqti va xarajatlarini kamaytirishga yordam berishi haqida xabar berdi. Mentfield bosh direktori “Omer The Times of Israel” nashriga bergan intervyusida "Nafaqat biz, balki, kuniga o‘nlab yuk mashinalari to‘qimachilikdan tortib elektronikagacha, sanoat uchun xomashyo, metall quvurlar va alyuminiygacha bo‘lgan tovarlarni yetkazib berish vaqtini qisqartirish uchun ushbu yo‘nalishdan foydalanishmoda. "Quruqlikdagi yo‘nalish taxminan 20 kunni tejaydi, shuning uchun tovarlar Xitoydan Isroilga 50 kundan 60

[134] Atlanticcouncil.com (March 21,2025) A lifeline under threat: Why the Suez Canal’s security matters for the world https://www.atlanticcouncil.org/in-depth-research-reports/issue-brief/a-lifeline-under-threat-why-the-suez-canals-security-matters-for-the-world/

[135] Stewart.P., Ghobari.M., (March 16,2025) Retures.com. Trump launches large-scale strikes on Yemen's Houthis, at least 31 killed. https://www.reuters.com/world/middle-east/trump-launches-strikes-against-yemens-houthis-warns-iran-2025-03-15/

kungacha emas, balki 20 kundan 25 kungacha yetib boradi," deya ta'kidladi[136].

Bu Qizil dengiz va Suvaysh kanali orqali tashishga ketadigan vaqt va mablag'ning 80 foizini tejash imkonini beradi. Yo'nalish Dubaydagi Jabal Ali portini Isroilning Xayfa porti bilan bog'laydi va Ar-Riyod va Oon orqali o'tadi. Uning uzunligi 2550 kilometr bo'lib, tashish vaqti 93 soatni tashkil etadi. Ushbu yo'lak Isroil kemachilik kompaniyalariga BAA va Saudiya Arabistoni portlaridan yuklarni tushirish va yuk mashinalarida Isroilga tashish imkonini beradi. Dengiz orqali yuk tashish narxi sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, bu quruqlik yo'lagi xarajatlarni 20 foizga kamaytirish va yuk tashish vaqtini bir necha haftadan ikki-uch kunga qisqartirish imkonini beradi. Kuniga o'nlab yuk mashinalari allaqachon Isroilning Xayfa portiga yetib kelayotgan loyiha Birlashgan Arab Amirliklari va Isroil o'rtasidagi aloqalarni normallashtiruvchi 2020-yilgi Ibrohim kelishuvlarining dastlabki foydasi sifatida ko'rilmoqda.

Yaqinda urush tufayli ommaviy axborot vositalarida Ben Gurion kanali loyihasi eslana boshlandi. Chunki kanal loyihasining yakuniy nuqtasi – O'rta Yer dengiziga chiqish qismi G'azo sektori ichiga yoki yaqiniga (Ashkelon) to'g'ri keladi. Isroil qamal ostidagi sektorga hujum boshlaganidan beri, Falastin Markaziy statistika yuyurosi ma'lumotlariga ko'ra, kamida 400 ming falastinlik G'azo sektorining shimolidan janubiga ko'chirilgan. Isroilning sektorni qayta ishg'ol qilishini ayrim tahlilchilar eski loyihani jonlantirish uchun yangi imkoniyat deb talqin qilmoqdalar. Agar amalga oshirilsa, Ben Gurion kanali tektonik o'zgarishlarga olib keladi, chunki u Suvaysh kanaliga soya soladi. Loyiha Isroilni jahon yuk tashish va jahon savdo markaziga aylantiradi. Misr esa Afrika, Osiyo va Yevropa o'rtasidagi eng qisqa yo'lda monopoliyasini yo'qotib, iqtisodiyotiga katta zarbani qabul qiladi. Bu kanal g'oyasi ba'zilar uchun utopik sionistik orzu bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin Isroil davlatining o'zi ham avvalboshda sionistik bir orzu edi[137].

Imkoniyatlari. Xitoy va Misr uzoq yillik diplomatik aloqalarga ega bo'lib, Misr 1956-yilda Afrika, Yaqin Sharq davlatlari orasida Xitoy bilan birinchi rasmiy munosabatlar o'rnatgan arab davlatidir. Misr Yaqin Sharq va Shimolda Xitoy sarmoyasi uchun muhim markazga aylandi. Suvaysh kanali iqtisodiy zonasi (SCZone) so'nggi ikki yil ichida 3 milliard AQSH dollaridan ortiq sarmoya kiritgan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy

[136] The Times of Israel.(Dec 28,2024) Israel logistics startup forges overland trade route to bypass Houthi Red Sea crisis https://www.timesofisrael.com/israel-logistics-startup-forges-overland-trade-route-to-bypass-houthi-red-sea-crisis/amp/

[137] Latipova S. (Dekabr 12, 2023) Kun.uz. Isroil Ben Gurion kanali loyihasiga qaytishi mumkinmi? https://kun.uz/14299327

investitsiyalarning 40 foizini tashkil etgan holda Xitoy iqtisodiy faoliyatining markaziga aylandi. Masalan, 2008-yilda tashkil etilgan Suvaysh iqtisodiy va savdo hamkorlik zonasi (SETC-Zone) o‘zining joylashuvi va logistika imkoniyatlari tufayli Belt and Road Initative sezilarli darajada xizmat qiladigan asosiy loyiha hisoblanadi. SETC-Zone Xitoy mahsulotlari uchun yirik markaz bo‘lib, u bilan 102 ta Xitoy kompaniyasi, $1,2 mlrd dollarlik AQSH sarmoyasi, 30 mingta yangi ish o‘rni va 2,5 milliard dollardan ortiq sotuv amalga oshirildi, deb xabar bermoqda Xitoy taraqqiyot va islohotlar bo‘yicha milliy komissiyasi[138]. Misrning Suvaysh kanali "Bir kamar, bir yo‘l" loyihasining strategik qismi bo‘lib Xitoyning dengiz ipak yo‘lini qayta qurish rejasining muhim tarkibiy qismidir. Kanalning Osiyo, Afrika va Yevropa o‘rtasidagi savdoni osonlashtirishi dengiz savdosi, logistika va infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha ikki tomonlama hamkorlikni rag‘batlantirdi. Xitoy Si-Sisi davrida Misrning eng yaxshi savdo sherigi sifatida mustahkam o‘rnashib oldi, ko‘plab sohalarda, xususan, infratuzilma, sanoat zonalari va texnologiyalar transferi bo‘yicha iqtisodiy hamkorlik chuqurlashdi.

2025-yil va undan keyingi istiqbollar Xitoy va Misrning iqtisodiy hamkorligi yaqin yillarda yanada chuqurlashishi kutilmoqda, bu Misrning "Nigoh 2030" va Xitoyning "Bir makon, bir yo‘l" tashabbusi doirasidagi umumiy ambitsiyalari bilan bog‘liq. Shu o’rinda Misr o‘zini Xitoy sarmoyalari uchun mintaqaviy markaz sifatida ko‘rsatmoqda. Yana shuni ham ta’kidlash zarur Xitoy Misrning to‘rtinchi yirik kreditoriga aylandi, uning to‘lanmagan qarzlarideyarli 8 milliard dollarni tashkil etib, Misrning 155,7 milliard dollarlik umumiy tashqi qarzining taxminan 5 foiziga to‘g‘ri keladi. Xitoyning ushbu katta miqdordagi qarzi atrofidagi bahs-munozaralar va Misrning uni to‘lash qobiliyatiga oid xavotirlarga qaramay, Sisi rejimi Xitoydan qarz olishda davom etmoqda.

Xulosa qilganda, hozirgi davrda Suvaysh kanalining mintaqaviy xavfsizlik masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Yaqin sharq mintaqasidagi muhim strategik yo’l bo’libgina qolmay, dunyoning gegemon davlatlari o’rtasida raqobatga sabab bo’lmoqda. Shuningdek, Suvaysh kanaliga muqobil yo’llar taklif etilmoqda. Misr bugungi kunda Xitoyning eng yaqin strategik sherigiga aylandi va “Bir kamar bir yo’l” loyihasidagi asosiy o’yinchilardan biri bo’lib qolmoqda. AQSH Milliy mudofaa strategiyasida Xitoy AQSH milliy xavfsizligi manfaatlariga eng katta tahdid sifatida ko‘rsatilgan. Shu sababli, Qohiraning ikki tomonlama munosabatlarni

[138] Al-Anani.Kh., (Jan 27,2023) Arab Center Washington DC. Egypt’s strategic partnership with China; opportunities and implications. https://arabcenterdc.org/resource/egypts-strategic-partnership-with-china-opportunities-and-implications/

kuchaytirishga urinishi Vashington Xitoyni dushman bilan birodarlashayotgan davlat sifatida ko‘rishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Muhammadsiddiqov M.M. Xorijiy sharq va g’arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. T., TDSHU, 2019.
2. River Ch. The Suez Canal. The History and Zlegacy of the world’s most famous waterway.
3. Худойбердиев.А., Copyright publishing. Т-2024. ИСТОКИ КОНАЛИКТА НА БОГЕ АРАВИЙСКОГО ПОЛУОСТРОВА.
4. Suez Canal Authority (March 28, 2025) Whay Suez Canal? https://www.suezcanal.gov.eg/English/About/Pages/WhySuezCanal.aspx
5. Al jazeera.(Jan 20, 2024) Oil supply tightens in Europe over Red Sea disruptions https://www.aljazeera.com/news/2024/1/20/oil-supply-tightens-in-europe-over-red-sea-disruptions
6. The Guardian. (Jan 13,2024) The Observer view on Yemen: airstrikes may have begun an unwinnable war.
7. https://www.theguardian.com/commentisfree/2024/jan/13/us-uk-houthi-yemen-airstrikes-may-have-begun-unwinnable-war
8. Ali.I., Stewart.P., Ghobari.M., (Jan 13,2024) Retures.com. Yemen's Houthis vow strong response after new US strike. https://www.reuters.com/world/middle-east/biden-warns-more-strikes-yemens-houthis-if-red-sea-attacks-persist-2024-01-13/
9. Atlanticcouncil.com (March 21,2025) A lifeline under threat: Why the Suez Canal’s security matters for the world https://www.atlanticcouncil.org/in-depth-research-reports/issue-brief/a-lifeline-under-threat-why-the-suez-canals-security-matters-for-the-world/
10. Stewart.P., Ghobari.M., (March 16,2025) Retures.com. Trump launches large-scale strikes on Yemen's Houthis, at least 31 killed. https://www.reuters.com/world/middle-east/trump-launches-strikes-against-yemens-houthis-warns-iran-2025-03-15/
11. The Times of Israel.(Dec 28,2024) Israel logistics startup forges overland trade route to bypass Houthi Red Sea crisis https://www.timesofisrael.com/israel-logistics-startup-forges-overland-trade-route-to-bypass-houthi-red-sea-crisis/amp/
12. Latipova.S., (Dekabr 12, 2023) Kun.uz. Isroil Ben Gurion kanali loyihasiga qaytishi mumkinmi? https://kun.uz/14299327
13. Al-Anani.Kh., (Jan 27,2023) Arab Center Washington DC. Egypt’s strategic partnership with China; opportunities and implications. https://arabcenterdc.org/resource/egypts-strategic-partnership-with-china-opportunities-and-implications/

14. Maher.M., Farid.M., (Apr 27,2023) Washingtoninstitute.org. The growth of Chinese influence in Egypt; signs and consequensces https://www.washingtoninstitute.org/policy-analysis/growth-chinese-influence-egypt-signs-and-consequences

ERON ISLOM RESPUBLIKASI VA MARKAZIY OSIYO: EHTIYOTKORLIKDAN FAOL MUNOSABATLARGA TOMON YO‘L

Xolmo‘minov Diyorbek
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD Fayzullayev A.H.

Annotatsiya: *Markaziy Osiyo Eron Islom Respublikasi uchun tarixiy, madaniy va sivilizatsion jihatdan katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda bu mintaqa Eron bilan eng keng qamrovli geografik va demografik munosabatlarni yo‘lga qo‘ymoqda. Biroq, Eronning mintaqadagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlardagi amaliy ta’siri cheklanganligicha qolmoqda. Ushbu maqolada Eron mintaqadagi muhim jarayonlarda qanday mavqe va rol egallagan? Nima uchun u amaliy jihatdan sezilarli natijalarga erisha olmagan degan savollar ko‘rib chiqiladi. Mazkur maqolada, Eronga xos tashqi siyosat asosan passivlik, ehtiyotkorlik va status-kvoni saqlashga intilish va uning sabablari boshqa yirik raqiblar masalan Rossiya bilan munosabatlar orqali ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *diplomatik munosabatlar, ECO, neft, SHHT, sanksiya, Transkaspiy iqtisodiy yo‘lagi, terrorizm, energetika siyosati*

Kirish

1991-yilda Eron Islom Respublikasi shimoliy chegaralarida yangi haqiqat bilan yuzlashdi. Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikka erishishi XX asrning so‘nggi o‘n yilligida yuz bergan muhim o‘zgarishlardan biri bo‘ldi. Ushbu o‘zgarishlar Eron inqilobi, Eron-Iroq urushi yakunlari va Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistondan chiqib ketishidan o‘n yildan ortiq vaqt o‘tganidan keyin sodir bo‘ldi. Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganida, ko‘plab eronlik rasmiylar ushbu jarayonni iliq kutib oldilar. Eron bu davlatlarning mustaqilligini darhol tan oldi va ular bilan rasmiy tashriflar va almashinuvlarni yo‘lga qo‘ydi. Shuningdek, Eron ushbu davlatlar yetakchilarini Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO)ga qo‘shilishga chaqirdi. Dastlab, Eronning mintaqaga nisbatan yondashuvi ko‘proq madaniy va sivilizatsion xarakterga ega edi, ammo vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy hamkorlik alohida ustuvor yo‘nalishga aylandi. Endi, Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganiga o‘ttiz

yildan oshganidan so‘ng, Eron Islom Respublikasining mintaqaviy siyosatini aniqroq tahlil qilish imkoniyati mavjud. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin Markaziy Osiyo davlatlari boshqa hukumatlar bilan rasmiy aloqalar o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ushbu mamlakatlar orasida geografik, madaniy va ijtimoiy jihatdan yaqin bo‘lgan Eron alohida ahamiyat kasb etdi. Umumiy tarix, til, madaniyat va adabiyot Eron uchun ushbu jamiyatlarga yangi milliy o‘zlikni shakllantirish jarayonida yordam berish imkoniyatini yaratdi.

Asosiy qism

Bu yerda asosiy savol Eronga mintaqadagi muhim jarayonlarda qanday mavqe va rol ajratilgani, nima uchun u sezilarli natijalarga erisha olmaganligi hamda ushbu vaziyatning istiqbollari bilan bog‘liq. Eronning mintaqadagi siyosati 90-yillar davomida asosan passiv bo‘lib (xavfsizlik tahdidlarini oldini olishga qaratilgan), ehtiyotkor xarakter kasb etgan, status-kvoni saqlashga intilgan hamda Rossiyaning tashqi siyosati bilan uyg‘unlashgan. Ushbu siyosatda faol tashabbuslar deyarli kuzatilmadi. Milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi qator muammolar, jumladan, xususiy iqtisodiy sektorning zaifligi, mintaqa elitalarining ehtiyotkorligi, xalqaro bosimlar va cheklovlar, shuningdek, Eronga o‘z strategik imkoniyatlaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaganligi sababli, uning amaliy roli ahamiyatiga qaramay cheklangan bo‘lib qolmoqda. Natijada, Eron mintaqaviy hamkorlik, integratsiya va rivojlanish jarayonida yo‘qolgan bo‘g‘in sifatida qaralmoqda va uning strategik salohiyati e’tibordan chetda qolmoqda. O‘tgan o‘ttiz yillik munosabatlarning rivojlanishi va erishilgan yutuqlarini baholash ularni tahlil qilish hamda kelajak istiqbollarini tasavvur qilishga yordam beradi. Biroq, 2014-yilda boshlangan Ukraina inqirozi, ayniqsa 2022-yilgi urush natijasida Rossiya va Eron o‘rtasidagi aloqalar kun sayin mustahkamlanib bormoqda. Bu esa Eron va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi hamkorlik uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratmoqda. 2021-yilda yangi Eron hukumati tomonidan qabul qilingan “Qo‘shnichilik siyosati” hamda Sharq siyosatiga qaratilgan e’tibor kelgusi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari bilan yanada kengroq hamkorlik o‘rnatish uchun muhim imkoniyatlar yaratishi kutilmoqda.

Markaziy Osiyo va Eron o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish masalasi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutgan davrda, Eron Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikka kirishdi va yo‘llar, temir yo‘llar hamda havo transporti orqali hamkorlik qilishni o‘z ichiga olgan rejalarni taklif qildi. Iqtisodiy almashuvlarning asta-sekin ortishiga qaramay, Eron mintaqaviy iqtisodiy o‘zaro aloqalarda muhim o‘rin egallamadi. Bundan tashqari, mintaqaning energetika resurslari asosan Rossiya tomonidan nazorat qilinadi va mintaqa mamlakatlari resurslarni

tashish uchun ko‘proq Rossiya va Xitoydan o‘tuvchi yo‘llarga e’tibor qaratdilar. Mintaqaviy mamlakatlarning Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotidagi (ECO) passiv va samarali bo‘lmagan a’zoligi hamda Eronning Shanxay Hamkorlik Tashkilotidagi kuzatuvchi maqomi tashqari, Eron ushbu mintaqada samarali kollektiv faoliyatlarga ega bo‘lmadi va barcha mintaqaviy xavfsizlik institutlarida orqada qolmoqda (Allison va Jonson, 2003: 260). “Islom Respublikasi Eronning Yigirma Yillik Ko‘rinishi” nomli hujjatda, 2003-yilda Eron, 2025-yilgacha “Janubiy – G‘arbiy Osiyo” mintaqasida, shu jumladan, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yaqin Sharq va qo‘shni davlatlar sohasida iqtisodiy, ilmiy va texnologik jihatdan yetakchi o‘rin egallashi kerakligi tasavvur qilingan. Ushbu hujjatning kirish qismida bu maqsadning ideal tabiatiga hamda uni amalga oshirishning imkoniyati va erishish osonligi ta’kidlangan (Eronning 2025-yilgacha bo‘lgan tashqi strategik Hujjati). Biroq, Eronning mintaqaviy mamlakatlar bilan, ayniqsa Turkmaniston va Qozog‘iston hukumatlari bilan iqtisodiy aloqalari mavjud bo‘lsa-da, Eronning mintaqadagi iqtisodiy roli turli sabablarga ko‘ra samarali bo‘lmagan. Hozirda Eron mintaqaviy mamlakatlarning eng yirik o‘n iqtisodiy hamkori orasida muhim o‘rin egallamaydi va ularning savdosining 5 foizdan kamrog‘i Eron bilan amalga oshiriladi. Eronning Markaziy Osiyo bilan tashqi savdosi Eronning umumiy tashqi savdosining 2 foizidan kamroq bo‘lib, Xitoy va Rossiya kabi boshqa raqobatchilarga nisbatan ahamiyatsizdir (Ramezani-Bonesh, 2023). Bunga asosiy sabablar ichida ichki iqtisodiy rivojlanishga ustuvorlik berilmasligi, natijada Eronning investitsiyalar, texnologiya va xususiy sektor sohalarida zaifligi, mintaqaga diplomatlik jihatdan ustuvorlik berilmasligi va AQSH siyosatining Eronga cheklovlar qo‘yishi kabi omillarni aytib o‘tishimiz mumkin. Shunday qilib, Eronning mintaqa bilan iqtisodiy aloqalari cheklangan bo‘lib, kuchli xususiy sektor va samarali davlat sektori yo‘qligi, hatto havo transporti yo‘llarining ham tobora cheklanishiga olib keldi. So‘nggi yillarda bo‘lgan ba’zi voqealar Eron va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish umidlarini uyg‘otdi. Shu nuqtai nazardan, 2019-yilda Eron va Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi o‘rtasida imzolangan imtiyozli savdo shartnomasi, 2023-yildagi erkin savdo shartnomasi, 2022-yildagi Eronning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zoligi, 2021-yildagi yangi hukumatning qo‘shnilarga qarshi siyosati va sharqiy siyosati bu borada muhim qadamlar sifatida tilga olinishi mumkin.

Eron va mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlik: Mintaqadagi turli siyosiy va xavfsizlik holatlarda, Eron Islom Respublikasi doimo tinchlik, barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash va boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik siyosatini amalga oshirib kelgan. Boshlanishidan boshlab, Eron mintaqaviy inqirozlarni hal qilishda vositachi sifatida faoliyat

yuritishga harakat qilgan, bu uning Qarabog‘ va Tojikiston inqirozlaridagi ishtirokida namoyon bo‘lgan. Eron bunday yondashuv orqali iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga, aloqalar o‘rnatishga va yangi siyosiy tizimlar doirasida madaniy faoliyatni rivojlantirishga e’tibor qaratdi. Shu davrda, ikki tomon o‘rtasida rasmiy almashuvlar va tashriflar bo‘lib o‘tgan va Tehron bilan Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasida havo yo‘llari ochilgan. Tojikistondagi fuqarolar urushi, turli ichki partiyalar o‘rtasida yuzaga kelib, o‘n minglab odamlarning o‘limi va keng miqyosda aholi o‘z uylaridan haydalishiga olib kelganida, Eron, Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda, nizo o‘tkazayotgan tomonlarni muzokaralarga chaqirishni uddalab, ular o‘rtasida tinchlik shartnomasining imzolanishiga hissa qo‘shgan.

Eronning mintaqaviy aloqalari va transporti: Eronning mintaqaviy siyosat va xavfsizlik sohasidagi tashabbuslari faqat tinchlik va hamkorlikka e’tibor qaratish bilan cheklanmaydi. Mintaqadagi mustaqillikdan keyingi o‘n yilliklarda, Eron mintaqa bilan o‘zining aloqa va iqtisodiy infratuzilmasini kengaytirish bo‘yicha sezilarli harakatlar qilgan. Bu harakatlar Markaziy Osiyo mustaqil bo‘lganidan qisqa vaqt o‘tib boshlanib, hozirgacha davom etmoqda. Transport sektori har bir mamlakatning iqtisodiy infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. U rivojlanish darajasining muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Boshqacha aytganda, temir yo‘l transporti sanoat inqilobining asosiy kuchi hisoblanadi, va transport sohasining rivojlanishi har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy omilidir.

Eron, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston, Oman dengizi va Fors ko‘rfazidagi uzoq chegaralari hamda samarali xavfsizligi bilan mintaqaviy aloqalarni osonlashtiruvchi va iqtisodiy hamkorlik uchun markaziy nuqtaga aylanish xususiyatiga ega. Ammo, bu muhim jihat aloqalar infratuzilmasi bo‘lmasdan amalga oshirilishi mumkin emas, va shu nuqtada so‘nggi yillarda sezilarli sa’y-harakatlar amalga oshirildi. Markaziy Osiyo mintaqasida uch o‘n yillik ijobiy o‘zaro aloqalarga qaramay, hali ham Eron mintaqaviy aloqa tizimlarida muhim o‘rin egallay olmagan. Eronning mintaqadagi mamlakatlar bilan aloqalar kanallarini o‘rnatishga bo‘lgan harakatlari ularning mustaqil bo‘lishidan boshlab davom etdi. Mashhad-Saraxs temir yo‘li va "Tojik ko‘prigi" Ipak yo‘lini tiklashda muhim rol o‘ynadi, mintaqaviy mamlakatlarning Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotidagi (ECO) a’zoligi esa bu yillar davomida Eron uchun muhim faoliyat bo‘lgan (Koolaee, 2005: 57). Shuningdek, ichki infratuzilmani kuchaytirish, G‘arb sanktsiyalariga qaramay davom etgan, va Eron bilan qo‘shni mamlakatlar o‘rtasidagi transport yo‘llarining aksariyati faol.

Rossiya-Ukraina urushi va Rossiyaga qarshi G‘arb sanksiyalari sababli xalqaro savdo va transport yo‘llaridagi uzilishlar orasida, Eron Xitoy

va Markaziy Osiyoni Yevropaga, shuningdek, Rossiyani Hindistonga ulovchi transport va tranzit markaziga aylanishda keskin o‘sishga erishdi, ayniqsa Xalqaro Shimoliy-Janub transport yo‘li (INSTC) bo‘yicha. Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazdagi qo‘shni mamlakatlari sifatida Eron, 30 yil davomida o‘zining o‘ta muhim joylashuvi — Kaspiy dengizi, Markaziy Osiyo va Fors ko‘rfazi o‘rtasidagi o‘tkazish imkoniyatidan foydalangan holda ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorliklarni amalga oshirdi (ERAI, 2022).

2022-yildagi Rossiya-Ukraina urushi Eronning mintaqaviy transportdagi o‘rnini oshirishda eng katta ta’sir ko‘rsatgan omil bo‘ldi. 2022-yil 18-iyunda, Qozog‘istonning Sulfuri Yevropaga olib boriladigan yukini o‘z ichiga olgan birinchi yuk poyezdi Eronning Incheh-Borun chegarasiga keldi. Bir kun o‘tib, yuk Tehronga yetib keldi, va Eron prezidenti Ibrohim Raisi, Qozog‘iston prezidenti Qosim Jo‘mart To‘qayev bilan birgalikda, Qozog‘iston—Turkmaniston—Eron (KTI) tranzit yo‘lini ishga tushirdi, bu esa Janubiy Kaspiy dengizi orqali Turkiyaga o‘tadigan Yevropa yo‘li sifatida tanilgan. Tokayevning Tehronga tashrifi oldidan bir hafta avval, Turkmaniston prezidenti Sardor Berdimuhamedov ham Tehronga tashrif buyurib, ikki tomonlama kelishuvlarga imzo chekkan edi.

Eron va Mintaqaviy Integratsiya: Edmund Herzig tomonidan aytib o‘tilganidek, mintaqaviy siyosatga intilish asosan geopolitik sabablarga va Eronni izolyatsiya qilishga qaratilgan Qo‘shma Shtatlar sa’y-harakatlariga qarshi turish ehtiyojiga asoslanadi, bu esa Eron ichidagi ichki dinamikalardan kelib chiqadi (Herzig, 2004: 1-2). Eron mintaqaviy integratsiyada faol ishtirok etishga harakat qilgan. O‘tgan ikki o‘n yillikda, Islom Respublikasi Eron mintaqaviy institutlarni shakllantirishda va mintaqaviy tashkilotlarga a’zo bo‘lishda katta sa’y-harakatlar ko‘rsatdi. 1994-yilda Eron, Kaspiy dengizi sohilidagi mamlakatlarining birinchi sammitida "Kaspiy dengizi Sohili Davlatlari Tashkiloti"ni tashkil etishni taklif qildi. Garchi bu taklif iliq kutib olinmagan va amalga oshmagan bo‘lsa-da, asta-sekin, keyingi yig‘ilishlarda mintaqaviy rasmiylar va ekspertlar ushbu tashkilotni tashkil etish uchun jarayonni boshladilar. Kaspiy dengizi sohilidagi mamlakatlarining uchinchi sammitida, 2010-yilda Boku shahrida, Kaspiy dengizida xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish uchun imzolangan Kaspiy dengizidagi Xavfsizlikni Ta’minlash Kelishuviga erishildi. Bundan tashqari, 2018-yilda Kaspiy dengizining Yuridik Holati To‘g‘risidagi Konventsiya qabul qilindi, bu esa mintaqada yanada chuqurroq hamkorlikni rivojlantirish uchun asos yaratdi. Eronning e’tiborini jalb qilgan yana bir tashkilot Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO) bo‘lib, bu tashkilot kuchli iqtisodiy ittifoq va blokga aylanishni maqsad qilgan. Sovet Ittifoqining qulashi natijasida,

1992-yil 16-17-fevralda Tehronda ECO a’zo mamlakatlarining birinchi sammiti o‘tkazildi va ECOning kengayishi tasdiqlandi. O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Ozarbayjonning qo‘shilishi bilan ECO a’zoligi sakkizta a’zo mamlakatga yetdi. A’zo mamlakatlarning rahbarlari mintaqada tinchlik va xavfsizlik iqtisodiy rivojlanish uchun muhim shartlar ekanligini e’lon qildilar (Koolaee, 1999: 32). Eronning e’tiborini jalb qilgan yana bir mintaqaviy tashkilot 1995-yilda tashkil etilgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bo‘lib, bu tashkilotning Eronning mintaqaviy xavfsizlik va tashqi siyosat maqsadlari bilan sezilarli o‘xshashliklari bor. Eron 2006-yilda kuzatuvchi a’zo bo‘lib qo‘shildi, 2009-yilda esa to‘liq a’zo bo‘lish uchun ariza berdi va nihoyat 2022-yilda ushbu tashkilotning rasmiy a’zosiga aylandi. Eron, ushbu tashkilotga qo‘shilish orqali ba’zi strategik tashqi siyosat maqsadlariga erishishni niyat qilgan va uning imkoniyatlaridan foydalanishni maqsad qilgan.

Eron Islom Respublikasi iqtisodiy hamkorlik va yaqinlashuvni rivojlantirish, shuningdek, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida institutsional vositalardan foydalanishga intilgan. Shu bois, Eronning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo bo‘lishi, 2019-yilda Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan afzal berilgan savdo kelishuvining imzolanishi va 2023-yilda erkin savdo kelishuvining tuzilishi, Eronning Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiyani mustahkamlashdagi rolini samarali haqiqatga aylantirdi.

Kelajakdagi Eron va Mintaqaviy Hamkorlik: So‘nggi o‘ttiz yil ichida Eron o‘zining mintaqaviy aloqalarini nisbatan aniq maqsadlar va prinsiplarga asoslanib amalga oshirdi. Eron mintaqaviy mamlakatlar bilan pragmatik tarzda aloqalar o‘rnatgan bo‘lsa-da, mintaqadagi hukumatlar, xalqaro ommaviy axborot vositalari va G‘arb bosimi ta’sirida, Eron bilan aloqalarda ehtiyotkorlikni saqlab qolishgan. Ushbu ehtiyotkorlik yondashuvi, Eron va mintaqaviy mamlakatlar o‘rtasida hamkorlik uchun katta imkoniyatlar mavjud bo‘lishiga qaramay, amaliy jiohatdan faqat cheklangan darajada hamkorlikka olib kelgan. Natijada, Eron o‘zining mavqeiga mos ravishda samarali rolni bajara olmadi. Bu holatga bir nechta omillar ta’sir ko‘rsatgan. Texnik va iqtisodiy zaifliklar, davlat tomonidan boshqariladigan iqtisodiyot va xalqaro bosimlar, Eronning mintaqadagi tarixiy, madaniy va geografik ustunliklaridan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qilgan. Shu sababli, Eron mintaqaviy aloqalar, energetika uzatish liniyalari va savdo munosabatlaridan uzoqlashgan. Eronning mintaqaga nisbatan strategik imkoniyatlari zaiflashgan va cheklangan, bu esa Eronning roliga "buklet siyosati" (Haliday, 1995: 220), "ikkilanib turgan akter" (Cornell, 2001: 44), va "pragmatizm" (Hunter Spring, 2003: 133) kabi ta’riflarning qo‘llanilishiga olib kelgan. Bundan tashqari, G‘arb tahlilchilari

Eronning mintaqadagi siyosatini mavjud holatni saqlab qolishga qaratilgan va pragmatizm bilan tavsiflangan deb hisoblashadi. Masalan, Sébastien Peyrouse Eronning pragmatizmiga alohida e’tibor qaratib, uning mintaqaga nisbatan ideologik yondashuvga ega emasligini ta’kidlaydi (Peyrouse, 2014: 2). Eronning so‘nggi o‘ttiz yil davomida mintaqadagi siyosiy va xavfsizlik rivojlanishidagi muhim roli bo‘lishiga qaramay, uning jiddiy institutlashuvi va keng imkoniyatlari e’tibordan chetda qolgan. Afsuski, Eronning Markaziy va Janubiy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlashdagi barqarorlashtiruvchi, vositachilik qiluvchi va ijobiy roli, AQShning "Eronni istisno qilish" siyosati tufayli e’tibordan chetda qolgan va uning madaniy, iqtisodiy, transport va kommunikatsiya imkoniyatlari e’tiborga olinmagan. Eronning mintaqadagi siyosiy va xavfsizlik sohasidagi ijobiy roli, shuningdek, mintaqaviy mamlakatlarni ochiq dengizlarga ulash uchun yaratgan kommunikatsiya infratuzilmasi, ikki asosiy omil — iqtisodiy manfaatlar va xorijiy kuchlarning to‘sig‘ini tashkil etgan deb hisoblanadi. Eronning mintaqaga yondashuvi asosan iqtisodiy bo‘lib, siyosiy elementlar kamroq qatnashgan. Biroq, bu faqat mintaqaviy mamlakatlarga nisbatan bo‘lib, Eronning boshqa mintaqalarga qaraganda iqtisodiy bo‘lmagan ustuvorliklari G‘arb hukumatlariga Eronning siyosiy va diniy qiyofasini ekspluatatsiya qilish imkonini bergan. Bu esa Eron siyosatida qo‘rqishning kengroq roli paydo bo‘lishiga olib kelgan. Garchi Eron geografik, tabiiy va siyosiy jihatdan Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalariga yaqin bo‘lsa-da, ularning rivojlanishidan ta’sirlangan va ularni ta’sir qilgan bo‘lsa-da, mintaqa mamlakatlari Eronni mintaqaning bir qismi sifatida ko‘rmagan. Bu qarash, mintaqaviy davlatlar rahbarlari tomonidan Eronning mintaqaning bir qismi sifatida qabul qilinishini ta’minlamadi (Hajiyousefi, 2005: 7-86).

Eron va Mintaqaviy Hamkorlikning Kelajagi - Sebastian Peyrouse to‘g‘ri ta'kidlaganidek, G‘arb mintaqaviy mamlakatlarning Eronga bo‘lgan aloqalarini o‘rnatish va unga kirish imkoniyatlarini Markaziy Osiyo hisobiga cheklab qo‘ygan. Yadro kelishuvi bo‘yicha muammolarning tugashi, mintaqaviy va ikki tomonlama iqtisodiy almashinuvlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, degan umid bor. Agar Eron mintaqada yanada katta iqtisodiy rol o‘ynasa, bu barcha mintaqaviy mamlakatlar uchun foydali bo‘ladi, va Eronning geografik joylashuvi, Markaziy Osiyo mamlakatlari, janubiy dengizlarga kirish va kengayish yo‘llarini izlashda doimiy qiziqish bildirgan, muhim imkoniyat sifatida qaraladi. Markaziy Osiyo yo‘li va temir yo‘l tarmoqlarini Eronga, shuningdek, Turkiya va Afg‘onistonga ulash bo‘yicha muhim loyihalar mavjud, ammo hozirgi geopolitik sharoitlar tufayli ular to‘liq amalga oshirilmagan (Peyrouse, 2014: 4). Xalqaro Tinchlik Jamg‘armasida Karen Gromoer va uning hamkasblari Eronning sanksiyalarni yengib mintaqaga qaytishini ta'kidlab,

Eron uchun siyosiy, iqtisodiy va strategik sohalarda muhim imkoniyatlarni bashorat qilganlar. Ularning fikriga koʻra, 80 milliondan ortiq aholi, Turkmaniston bilan quruqlik chegarasi, Fors koʻrfazi va Kaspiy dengiziga kirish imkoniyatlari bilan Eron global energiya bozorida muhim rol oʻynaydi va mintaqaviy transport markazi sifatida, asta-sekin Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun noyob va muhim sherikka aylanadi (Rumer et al., 2016: 14).

Eron va Markaziy Osiyo oʻrtasidagi hamkorlik sharoitlari asta-sekin yaxshilanmoqda. Bu masala ayniqsa 2019 yildan boshlab Eron va Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi oʻrtasidagi kelishuvlar, 2022 yildan boshlab Shanhay Hamkorlik Tashkilotiga rasmiy a'zo boʻlish, shuningdek, 2017 yildan boshlab Oʻzbekiston bilan munosabatlar yaxshilanishi va 2020 yildan boshlab Tojikiston bilan aloqalar tiklanishi nuqtai nazaridan ahamiyatli boʻldi (Bifolchi, 2022).

Marhum Prezident Raisi ma'muriyati "qarshilik iqtisodiyoti" ning asosiy ustuni sifatida qoʻshni mamlakatlar siyosatini ustuvor qilib qoʻygan edi, bu esa sanksiyalarga qarshi zaiflikni kamaytirishga qaratilganligi oydinlashadi. Raisining birinchi rasmiy tashrifi 2021 yil noyabrida Ashxobodda oʻtkazilgan Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO) sammitida boʻldi, bu tashkilot Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlaridan tashqari Eron, Turkiya va Pokistondan iborat. Sammitda Eron, Qozogʻiston va Turkmaniston temiryoʻl hamkorligi boʻyicha uch tomonlama Anglashuv Memorandumi imzoladi (ERAI, 2022). Shunday qilib, hozirda Markaziy Osiyo Tehron uchun siyosiy ustuvorlikka aylangan koʻrinadi, chunki Eron endi ushbu mintaqani oʻz va Sharq oʻrtasidagi potentsial "koʻprik" sifatida koʻrmoqda. "Sharqqa qarash" siyosati Eronning xalqaro munosabatlarga yondashuvida muhim jihatni tashkil etadi, va bu ayniqsa Qozogʻiston, Oʻzbekiston va Qirgʻiziston kabi mamlakatlar bilan individual, ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishni oʻz ichiga oladi (Woods and Baker, 2022).

Xulosa

Soʻnggi uch oʻn yillik davomida Eron mintaqada barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyot yoʻlida muhim qadamlar tashladi. U pragmatik yondashuv asosida ikki tomonlama va mintaqaviy munosabatlarni rivojlantirishga intildi. Ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash, siyosiy tizimlar boʻyicha mavjud holatni saqlab qolish, aloqa va transport infratuzilmasini yaratish, Eron hududi va Yevroosiyo chegaralaridan Fors koʻrfazi va Ummon dengizigacha energiya uzatish tizimlarini rivojlantirish, port tizimlarini shakllantirish va mustahkamlash Eronning mintaqaviy aloqalarni kengaytirish yoʻlidagi asosiy harakatlaridan boʻldi.

Eronning mintaqaga nisbatan olib borgan siyosati mafkuraviy bo‘lmagan, iqtisodiy va madaniy aloqalarga e’tibor qaratgan, mintaqaviy inqirozlarda vositachilik qilgan, tinchlik, barqarorlik va yarashuv jarayonlariga ko‘mak bergan. Shuningdek, Eron Mintaqaviy Iqtisodiy Tashkilot (ECO)ni kengaytirish va 2007-yilda Tehronda bo‘lib o‘tgan Kaspiy dengizi bo‘yidagi davlatlar sammitida Kaspiy dengizi bo‘yidagi davlatlar tashkilotini tuzish taklifini ilgari surish orqali mintaqaviy integratsiyani institutsionalizatsiya qilishga harakat qilgan. 2014-yildagi Ukraina inqirozidan so‘ng, ayniqsa 2022-yildagi mojaro va yangi Eron hukumatining siyosiy yo‘nalishlari tufayli Eron qo‘shni davlatlar bilan aloqalarini kengaytirish va mintaqadagi rolini oshirishga intilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hunter, S. (2003) “Iran’s Pragmatic Regional Policy”, *Journal of International Affairs*, 56 (2): 133-147.
2. Haliday, F. (1995) "the Empires Strike Back? Russia, Iran and New Republics", *the World Today*, 51 (11): P.220-222.
3. Allison, R. and L. Jonson (2003) *Central Asian Security* (M. Davari, Trans.). Tehran: Ministry of Foreign Affairs Publications), [In Persian]
4. Bifolchi, G. (2022) "Iran and Tajikistan expanded their cooperation in different fields", *Geopolitical Report*, ISSN 2785-2598, 20(1), Available at: https://www.specialeurasia.com/2022/06/01/iran-tajikistancooperation.
5. Eurasian Rail Alliance Index (2022) "Iran's policy in Central Asia is gaining momentum amid the RussianUkrainian confrontation", Available at: https://index1520.com/en/analytics/politika-irana-v-tsentralnoy-aziinabiraet-oboroty-na-fone-rossiysko-ukrainskogo-protivostoyaniya.
6. Peyrouse, S. (2014) "Iran’s Growing Role in Central Asia? Geopolitical, Economic and Political Profit and Loss Account", Available at: http://studies.aljazeera.net/en/dossiers/2014/04/2014416940377354
7. Ramani, S. (2016) "Has Iran Finally Found a Security Partner in Central Asia?"*The Diplomat*, Available at:http://thediplomat.com/2016/05/has-iran-finally-found-a-security-partner-in-central-asia.
8. Rumer, E., et al. (2016) "U. S Policy towards Central Asia", *Carnegie Endowment for International Peace,* Available at: http://carnegieendowment.org/files/CP_259_Central_Asia_Final.pdf

9. Terzyan, A. (2022) "Kazakhstan amid unrest and instability: main implications", *Journal of Liberty and International Affairs*, 8(3): 295-306.
10. Vinokurov, E. (2022) "the Economy of Central Asia: A Fresh Perspective", *Reports and Working Papers 22/3*,
11. Woods, E. and T. Baker (2022) "Iran on the Horizon: Future Prospects for Central Asian Rapprochement", *the Diplomat,* Available at: https://thediplomat.com/2022/05/iran-on-the-horizon-future-prospects-for-centralasian-rapprochement
12. "5th Consultative Meeting of the Heads of State of Central Asia in Tajikistan and Outcomes", Availble at: https://www.newscentralasia.net/2023/09/15.

SOVET DAVRIDA “KO‘CHIRISH” SIYOSATIDAGI KO‘CHIRILGAN AHOLIGA IJTIMOIY YORDAMLAR.

G‘ulomov Uchqunbek Abdumutallib o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Odilov B.

Annotatsiya: *Ushbu maqola sobiq ittifoq davrida ko‘chirish siyosatiga muvofiq ko‘chirilgan aholiga berilgan ijtimoiy yordamlar. Ular bu yordamlardan qay darjada foydalanishi. Bu yordamlar kimlarga berilganligi, ular bu yordamlardan qay darajada unumli foydalanganliklari va Sovet ittifoqining insonlarga bu yordamlar bilan qay darajada taminlanganliklari haqida yozilgan maqola va asarlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Ko‘chrish siyosati, Birinchi davr, Ikkinchi davr, Markaziy Farg‘ona, Mirzacho‘l, Kalxoz, Savxoz, Ijtimoiy yordam.*

Абстрактный: *В данной статьте рассматриваются социалные пособияб предоставленные переселённому населению в соответствии с политикой переселения в советский период. Анализируется, насколько эффективно использовалась эта помощь, кому она предоставлялась, а также степень обеспеченности людей со стороны Советского Союза посредством данных мер поддержки. Проанализированы статьи и исследования, посвящённые данной теме.*

Ключевые слова: *Политика переселения, Первый период, Второй период, Центральная Фергана, Мирзачуль, Колхоз, Социальная помощь.*

Abstract: *This article explores the social assistance provided the population relocated under the resettlement policy during during the Soviet era. It analyzes how effectively this assistance was utilized, who reseived it, how efficiently they benefited from it, and to what extent the Soviet Union supported people through these measures. The article includes an analysis of relevant literature and studied on this topic.*

Keywords: *Resettlement policy, First period, Second period, Central Fergana Mirzachul, Kolkhoz, Sovkhoz, Social assistance.*

Kirish

SSSR da paxta maydonlarini ko‘paytirish va xomashyoning hajmini oshirish maqsadida ko‘chirish siyosati amalga oshirildi. Sovet ittifoqining asosiy maqsadi Markaziy Osiyoni hom ashyo bazasiga aylantirish va ulardan past narxda mahsulot sotib olish, shuningdek tayyor mahsulotni o‘lkaga eksport qilish bo‘lgan. Bu siyosatda aholiga turli ijtimoiy yordamlar ko‘rsatilgan. Bu yordamlar ko‘chirilgan aholi o‘zini qayta tiklab olish uchun ijtimoiy qo‘llab quvvatlash bo‘lgan. Ularga ko‘rsatilgan yordamlar uy qurish, dala maydonlariga ishlov berishva oziq ovqat yordamlari bo‘lgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili: Sovet ittifoqi ko‘chirish siyosatining amalga oshirilish sababi paxta yetishtirishni ko‘paytirish bo‘lgan. Bu to‘g‘risida ko‘plab qarorlar tasdiqlangan. Masalan 1928 – yil 15 – dekabrda SSSR Markaziy Ijroiya Kommitetining IV – chaqiriq 4 – sessiyasida qabul qilingan “Yer tuzish va yerdan foydalanishning umumiy asoslari haqida”gi qarori joy olgan. Uning 4 - bandida aholini ko‘chirish siyosatining maqsad va vazifalari, ko‘chirish tadbirlarining tashkiliy jihatlari, ko‘chirilganlarga beriladigan imtiyozlar, ularga yer ajratib berish tartibi va me’yori ko‘rsatilgan[139]. Asosan aholi ko‘chirish siyosati ikki davr mobaynida bo‘lgan. Birinchi davr ikkinchi jahon urushidan oldingi davr, ya’ni 1924-yillardan ikkinchi jahon urushigacha. Bu davrda aholi zich yashagan Farg‘ona vodiysining shaharlari Toshkent va aholi zich bo‘lgan ayrim hududlardan ko‘chirilgan. Ko‘chirilish manzili esa Markaziy Farg‘ona, Mirzacho‘l va boshqa qo‘riq va bo‘z yerlar bo‘lgan. Bu hududlar aholi tomonidan kam o‘zlashtirilgan. Bu ko‘chirilgan aholi “kalxoz” va “savxoz” larga birlashtirilgan.

Ikkinchi davr ikkinchi jahon urushidan keyin, 1960-yillargacha bo‘lgan davr hisoblanadi. Bu paytga kelib aholi zich yashagan Andijon

1 Коллективизация сельского хозяйства. Важнейшие постановления коммунистической партии и советского правительства 1927-35 гг. /Сост. Кузмина Л.Ф., Полетаев В.Е., Томашевич Ю.У. –Москва: АН СССР, 1957. С. 100-101.

2 **https://arxiv.uz/uz/documents/diplom-ishlar/tarix/o-zbekistonda-sovetlarning-aholini-ko-chirish-siyosati-va-uning-oqibatlari**

Farg‘ona Toshkent hududlaridan Mirzacho‘l va Markaziy Farg‘ona hududlariga ko‘chirilgan. Bular ham “kalxoz” va “savxoz”larga birlashtirilgan. Yangi o‘zlashtirilgan yerlarda uy-joy muammosi tanqisligi o‘tkir bo‘lgan. Ko‘chirilganlarning katta qismi uzoq yillar davomida kapalar, chodirlar, qamish chaylalar va yerto‘lalarda istiqomat qilishgan.

Ikkilla davrda ham ko‘chirilgan aholi yaxshi sharoitda b‘lmagan. Shu sababdan ko‘chirilgan aholiga ijtimoiy yordamlar ko‘ratilgan. Masalan ko‘chirilgan aholiga ajrtaligan yerning sifatiga qarab 1 yildan 8 yilgacha yagona qishloq xo‘jaligi solig‘idan ozozod etilgan. Bundan tashqari sug‘urta, go‘sht solig‘i, davlatga don, kartoshka, sut, jun topshirish majburiyatidan dastlabki yillar uchun ozod etilgan. Ko‘chirilgan aholi temir yo‘ldan foydalanishda qulayliklar yaratilgan. Masalan, manzilgacha yetib olish uchun yo‘l haqqining 25% miqdorida to‘lagan. 10 yoshdan kichik bollar uchun esa tekin bo‘lgan. Ko‘chirilgan aholiga uy-joy, xo‘jalik inshootlari, yo‘l va ko‘priklar, kechuv joylari, hovuz va quduqlar, kanallar qurush uchun va ish hayvoni, ular uchun yem-hashak, urug‘lik, o‘g‘it uchun mablag‘lar ajratilgan. Ammo bu mablag‘lar to‘la-to‘kis o‘z yo‘lida sarflanmagan. Ko‘chirilganlar uchun bir oyga oila boshlig‘iga: 1kg yog‘, 800gr shakar, 75gr quruq choy, 1kg sovun. Qaramog‘idagilariga esa: 55gr yog‘, 200gr shakar, 75gr quruq choy, berilishi takidlangan. Ammo bu oziq-ovqat mahsulotlarini berish amalda o‘z tasdig‘ini kamdan-kam holatda topgan.[2]

Ko‘chib boriladigan joyga ko‘chirilganlarning moddiy ashyolarini bepul yetkazib berish, oila boshlig‘iga 600 so‘m va oilaning har bir a’zosiga 200 so‘mdan bir yo‘la yordam puli, uy-joy qurib olish uchun esa 19 ming so‘m qarz berilgan. Bu qarzning 35 foizini davlat o‘z zimmasiga olgan, qolgan qismini esa ko‘chib boruvchi 10 yil mobaynida to‘lashi qonuniy jihatdan belgilab qo‘yilgan edi. Bundan tashqari, qoramolsiz xo‘jaliklarga sigir yoki buzoq sotib olish uchun 1500 so‘mgacha qarz berilgan, oila boshlig‘iga 1,5 sentnerdan va oilaning har bir a’zosiga 0,5 sentnerdan don tarqatilgan, uni berilgan kundan boshlab 3 yil davomida uzish kerakligi ko‘rsatilgan. Bunday imkoniyatlarni yaratib berishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, aholini shu zaylda cho‘l hududlariga ko‘proq jalb qilish va joylashtirish bo‘lgan.[3]

Yuqorida keltirib o‘tilgan barcha ijtimoiy yordamlar cho‘l hududlarini ko‘proq o‘zlashtirish maqsadida amalga oshirilgan. Aholiga bunday yordamlar berilishi sababli bu joyga ko‘chib keluvchilar salmog‘i ortib borgan. Lekin bu yordamlar doimiy ravishda ko‘rsatilmasligi, aholining o‘z yutlariga ko‘chib ketishiga sabab bo‘lgan. Bu yerga ko‘chib kelgan aholining katta qismi o‘z yurtlariga qaytib ketishgan. Bunga sabab esa mehnat qiladigan va yashaydigan joyning sifatsizligi va turli jabr zulmlarni

misol qilib keltirishimiz mumkin. Ammo bu degani hamma ham qaytib ketgan degani emas, sifatli joyga joylashgan va davlat tomonidan ijtimoiy yordamlar olayotgan ayrim odamlar bu joylarda qolishgan. Mehnat qilishgan va o‘zlariga yetarli darajada shart-sharoitlar yaratishga muvoffaq bo‘lishgan deyishimiz mumkin.

Ushbu ijtimoiy yordamlar bilan yaxshi taminlangan odamlarning bazilari umuman mehnat nimaligini bilishmagan. Ular doimo davlatdan yordamlar kutib yashashgan. Ular bu yordamlarga mutlaqo bog‘lanib qolganlari ham uchrab turgan. Natijada dangasa bo‘lib shakklangan bu insonning aqliy va jismoniy mehnat qilishini cheklab qo‘ygan. Bu ijtimoiy yordamlarga qaramlikni hozir ham ko‘rishimiz mumkin. Bazi insonlar borki hamma narsani davlat qilib bersa u odam bu yordamlarni olib turib yashasa. Afsuski bu yordamlarni olib turib ham shukur qilmaydigan insonlar bor. Ularning tasavvurida hamma insonlarning e’tibori unga qaratilishi kerak. Lekin yurtimizda bunday ijtimoiy yordamlarga muhtoj insonlar ham bor shu odamlarga yordamlar ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa

Berilgan ijtimoiy yordamlardan samarali foydalangan aholi ko‘chib borgan joyida yaxshi yashab ketgan. Albatta bu narsa juda katta sabr va matonat talab qilgan. Bizning mehnatkash xalqimiz bu siyosat natijasida cho‘lni obod joylarga aylantirgan. Keyinchalik bu joylarda shaharlar, aholi mavzelari, qishloq va mahallalar vujudga kelgan. Mustaqillikka erishgan paytlarimizning ilk davrlarida bu hududlarda yani aholi ko‘chirilgan joylarning ayrim qismlari paxta maydonlari vazifalarini bajargan. Bu esa qaysidir ma’noda O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jumayev J. B., Tilavova G. L. O‘zbekistonda yangi yerlarni o‘zlashtirilishi va ko‘chirish jarayonlari tarixidan. 2024.
2. Doniyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (yangi va eng yangi davr). T.,-2022
3. https://arxiv.uz/uz/documents/diplom-ishlar/tarix/o-zbekistonda-sovetlarning-aholini-ko-chirish-siyosati-va-uning-oqibatlari
4. Коллективизация сельского хозяйства. Важнейшие постановления коммунистической партии и советского правительства 1927-35 гг. /Сост. Кузмина Л.Ф., Полетаев В.Е., Томашевич Ю.У. –Москва: АН СССР, 1957. С. 100-101.

RUMNI HAYRATLANTIRGAN TOSHKENTLIK QAFFOL

Abdiqahhorov Sardor Azizbek o‘gli
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)”
yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD Odilov B.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qomusiy olim - Qaffol Shoshiyning hayot yo‘llaridan parchalar keltiriladi. Ilm-ma’rifatning inson uchun, uning yashashi va jamiyatda o‘rnini topishi uchun tomirlarimizdagi qon kabi zarurligi ta’kidlanadi. Hazrati insonni faqatgina kuchli, mustahkam bilimgina o‘z egasini yuqori darajalarga ko‘tara olishini olim hayoti misolida guvohi bo‘lamiz.*

Kalit so‘zlar*: Qaffol Shoshiy, qulfsoz, ibriy, Tavrot, Nasabnoma, she’r, asar, Bag‘dod, ilm ahli, qaysari, 3 qism, asir, tarjima, suv, qasida, javob xati, qo‘lyozma,*
misra, oliyjanob, ilm-ma’rifat.

Kirish

O‘rta asrlarda mamlakatimiz hududida tug‘ilib, ijod etgan zabardast olimlardan biri Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil Qaffol ash – Shoshiyning Ilm yo‘lida va hayot yo‘llarida sodir bo‘lgan turli murakkab vaziyatlar va olimning shunday paytlarda aql-zakovat shamchirog‘ini yoqib Ovropa ahlini hayratlantirgan jarayonlarni ko‘rib o‘tamiz.

Asosiy qism:

Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil Qaffol ash – Shoshiy X asr boshlarida Shosh viloyatida tug‘ilganlar.Shofi’iylik mazhabi yetakchi olimlaridan biri, muhaddis, tilshunos, faqih, beqiyos shoir. Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali al-Qaffol ash-Shoshiy ham Shosh ahlidan bo’lib, «Ahadu aimmat ud-dunyo fit-tafsir val-hadis val-fiqh val-lug‘a» (tafsir, hadis, fiqh va tilshunoslikda dunyo imomlarining biri) edilar. Hijriy 291 (milodiy 905) yilda tavallud topib, hijriy 366 (milodiy 977) yilda vafot etganlar[140]. Shoshiy olimlikdan, ilm berishdan tashqari qulfsozlik bilan ham shug‘ullanganlar. Manbalarga qaraganda, og‘irligi 0,5 gramm keladigan jajji qulf-kalit yasaganliklari uchun u zotni "Qaffol" ("Qulfchi") deb ataganlar. O‘tkir bilim va zehniyatlari tufayli bu kishiga Imom al-Kabir ("Ulug‘ imom") nasabi berilgan. "Qaffol" – qulfsozlik kasbiga nisbat berilgan. U o‘z zamonasining imomi (peshvosi) bo‘lib, fiqx, hadis, usul, tilshunoslik ilmalari bo‘yicha tengi yo‘q olim edi. Qaffol Shoshiyning nomi Mag‘ribu

[140]Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur at-Tamimiy as-Sam’oniy N A S A B N O M A (a l-A n s o b) (VIII–XII ASRDA YASHAGAN O’ZBEKISTONLIK OLIMLAR HAQIDA MA'LUMOT) Toshkent – 2017

Mashriqqa yoyilgan"[141]. O‘sha davr olimlari aytishicha Shoshiy umrini 3 qismga bo‘lgan. Dastlabki yili Rum hududlarida g‘azot qilganlar. Chunki bu paytda hali Rum islom sharafiga muyassar bo‘lmagan edi. Ikkinchi yili Bag‘dod shahrida ilm o‘rganish bilan shug‘ullangan ekanlar. Uchinchi yili esa ona shaharlari Soshda tolibi ilmlarga ilm berish bilan shug‘ullanar ekanlar. Xo‘ja Ahror Valiy hazratlarining atoqli shogirdlaridan biri Shayh Abu Ahmad Muhammad Qoziy o‘zining «**S**ilsilat ul-orifin va tazkirat as-siddiqin» kitobida Qaffol Shoshiy Bag‘dodga brogan paytlaridagi qaysari Rum hukmdorining She’riy maktabiga qay tarzda javob berganligini keltiradi. “Abu Bakr Muhammad ibn Ali Qaffol Shoshiy zamonasining mashhur ulomalaridan bo‘lib, Shosh (Toshkent) shahrida istiqomat qilar edilar. U zot ko‘p marotaba hajga safar qilib, borishda va qaytishda aksar ilmlarni olgan Bag‘dodga kirib o‘tar edilar. Bir galgi safarlarida Bag‘dodga kelsalar, ulamolarning nihoyatda sarosimada qolganini ko‘rdilar. Chunki Rum podshohi – qaysari ibriy tilida xalifaga bir qasida yuborib, yo ushbu qasidaga munosib javob yozasizlar, yo har yili o‘lpon to‘laysizlar, yoki urushga tayyorlanaveringlar, deb talab qilgan edi. O‘sha paytda ularning Rum bilan urushishga imkoni yo‘qligi, talab qilingan o‘lponni ham to‘lash uchun yetarli mablag‘i bo‘lmaganidan qasidaga javob yozishga majbur edi. Bag‘dodning jami ulamo va fozillari yig‘ildi. Lekin qasidaga mos javob yozishga barchasi ojiz qoldi. Rum elchisi esa ularni shoshiltirar edi. Shayx Bag‘dodga kirib kelganlarida, Turkiston yurtidan Bag‘dodga bir zabardast donishmand kelibdi, degan xabar tarqaladi. Xalifa odam yuborib, u kishi javob qasidasini yozsa, evaziga xohlagan narsasini berishini aytadi”[142]. Shoshiy dastavval ibriy tilida yozilgan qasidani yaxshilab o‘qiydilar.

Damashqdur ota-bobomiz yurti,
uning zaminiga men soxib o‘zim.
Misrni fath etgum shahmshirim bilan,
cheksiz sahrolarda kular yulduzim.
Undan so‘ng Makkaga yo‘l olsam,
tundek bosib borar botir qo‘shinim.
Quddusga yo‘l olib tolmasman yo‘lda,
u yerda tiklagum muqaddas ustun[143].

Shoshiy hazaratlarining javob xati

Qudrat-la quvdik biz sizni Rum sari,
tuyaqush misoli qochdingiz nari.

---

[141] Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oniy "Al-Ansob"

[142]Muhammad ibn Burhonuddin ibn Xoja Muhammad Rizo Muhammad al-Qozi. Silsilatul orifin va tazkiratus siddiqin. O’zR FA ShI qo’lyozmalar xazinasi.

[143] Ṭabaqāt al-shāfiʿiyya Ibn Qaḍī Shuhba al-dimishqī Abū Bakr b. Aḥmad b. Muḥammad b. ʿUmar b. Muḥammad
Edited by Dr. Hafiẓ ʿAbd al-ʿAlīm Khān Hyderabad, Deccan 1987 (Nodirxon ibn Alovuddin tarjimasi)

Qochdingiz qontalash ko‘pi singari.
Bizlar Muhammad sallollohu alayhi vasallam bo-ishar ilgari,
Payg‘ambar hurmati qirmadik sizni.
Bizlarda bor edi qudrat va shiddat,
Shom yerin fath etdik bo‘lib zarurat.
Misr, Qayravonni, Andalusni ham
boshingiz majag‘lab zo‘r keldik har vaqt.
Baytlahim haroba shaharlar qator,
Iskandariyada bo‘ldi zafaryor,
Quddusda g‘alabamiz bor, sizlarni yengoldik biz mardonavor.
Be’maza she’ringiz bo‘lamagay manzur,
Bizning ash’orimiz durdona maqbul.
Bilguvchi odamga bag‘ishlar huzur[144].

Bu misralarni arabchadan o‘zbek tiliga Nodirxon ibn Alovuddin o‘girgan, tarjima qilgan. Asl arabcha nusxasi o‘ta noyob, nozik did bilan ishlangan. Hozirgi kunda bu qo‘lyozmalar Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Javob xati qaysari Rum podshosiga tarsaki kabi yetib bordi. Salomga yarasha alik olindi. “…Naql qilinishicha, Hazrati Shayx g‘azotga borib, rumliklar bilan jang qilgan yili ahli Islomga shikast yetib, ko‘pgina musulmonlar bilan birga asirga tushadi. Hazrati Shayxni Rum podshosining oldiga olib kelganida podshoh Shayxga boqib: “Sen bu viloyatning odamiga o‘xshamaysan, rostini ayt, qayerdansan?” deb so‘raydi. Hazrati Shayx: “Shosh viloyatidanman”, deb javob beradi. Podshoh: “Sen biz uchun Tavrotni arab tiliga o‘gir, sen va asir musulmonlarning gunohidan o‘taman va ko‘p ne’matlarni in’om qilaman!” deydi. Shayx unga: “Mayli, roziman, ammo shartim shuki, Tavrot qanday nozil qilingan bo‘lsa, arab tiliga xuddi o‘shanday tarjima qilaman. Ammo hozir sizlarning qo‘lingizdagi Tavrot o‘zgartirilgandir!” deb javob qiladi.

Podshoh darg‘azab bo‘lib: “Agar bu ishni qilmasang, seni asir musulmonlar bilan birga qatl ettiraman!” deb dag‘dag‘a qiladi. Shayx esa: “Nimani xohlasang, shuni qil! Men Haqdan nozil bo‘lgan Tavrotdan boshqa Tavrotni tarjima qilmayman!” deydi.

Podshoh ulamolar va ulug‘lar bilan maslahat qilgan holda oxiri rozi bo‘lib: “Mayli, sen arabcha qil, ammo biz Muhammadning sharhlariga kelganda ko‘zimizini yumamiz va uni o‘qimaymiz!” deydi. Alqissa, Hazrati Shayx ishga kirishadi. Ozgina fursatda shunday katta ishning uddasidan chiqib, Tavrotni boshdan oyoq tarjima qiladilar. …Rum podshohi Hazrati

[144]Ṭabaqāt al-shāfiʿiyya Ibn Qaḍī Shuhba al-dimishqī Abū Bakr b. Aḥmad b. Muḥammad b. ʿUmar b. Muḥammad
Edited by Dr. Hafiẓ ʿAbd al-ʿAlīm Khān Hyderabad, Deccan 1987 (Nodirxon ibn Alovuddin tarjimasi)

Shayxga in’omlar berib, ahli Islomning barchasini ozod qiladi. O‘n ming asir xalos bo‘lgani bilan Hazrati Imom Bag‘dod xalifasining huzuriga keladi va ko‘p hurmatli bo‘lib, “Mendan tilang”, deganda bir noma tiladilarkim, Toshkent shahrining voliyi (hokimi)ning nomigakim, qadimgi podsholardan qolgan arig‘lar botil bo‘lib (ko‘milib ketib), Toshkent shahriga suv kelishi mashaqqat bo‘libdir. Imkoni bo‘lsa, viloyat hokimi buyrug‘ingiz bo‘yicha bosh bo‘lib, suvni joriy qilib bersa, dedilar. Xalifa noma yozib, abbosiy xazinasidan bir yuz oltmish tanga berdi. Hazrati Imom mazkur tanga bilan nomani keltirib, viloyat hokimiga beradilar”. Natijada xalq ko‘p ariq qazib, band bog‘lab, suv chiqariladi[145]. Aynan hozirgi kundagi Kaykovus arig‘ining tarixi ushbu voqea bilan bog‘liq. Ya’ni ilm sharofatidan bunyod bo‘lgan ariqdir bu.

Xulosa

Bu o‘z hayotini ilmga, ma’rifatga bag‘ishlagan va mana shunday holatlarda ilm qurolini olgan holda raqibini yer tishlatib, uning hurmat-ehtiromiga sazovor bo‘lgan, yurtimizdan yetishib chiqqan yetuk olimlardan biri Qaffol Shoshiy hayotlaridan bir parchadir. Olim insonni, ilm-ma’rifatli shaxsni hatto uning dushmanlari ham hurmat qiladi. , “Mendan tilang” so‘zi aytilganda o‘zi uchun, o‘z nafsi uchun emas, balki ona shahrining ahvolini bilgan holda, Shosh uchun suv yo‘llarini ochishni va u yerga suv yetkazishni iltimos qilgan insonning ma’rifati, aql-zakovati, oliyjanobligi qay tarzda bo‘lishi kerak. Shubhasiz, Qaffol Shoshiy nafaqat O‘zbekiston, balki bu diyorda yashagan barcha O‘rta Osiyo xalqlari hayotida muhim o‘rin tutgan yurtimizdan yetishib chiqqan oliyjanob kishilardan. Hozirgi kunda ul zotning maqbaralari Olmazor tumanidagi Hastimom masjidining orqa tarafida joylashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad Sam’oniy "Al-Ansob" 2017
2. Muhammad ibn Burhonuddin ibn Xoja Muhammad Rizo Muhammad al-Qozi. Silsilatul orifin va tazkiratus siddiqin. O’zR FA ShI qo’lyozmalar xazinasi
3. Ṭabaqāt al-shāfiʿiyya Ibn Qaḍī Shuhba al-dimishqī Abū Bakr b. Aḥmad b. Muḥammad b. ʿUmar b. Muḥammad Edited by Dr. Hafiẓ ʿAbd al-ʿAlīm Khān Hyderabad, Deccan 1987
4. Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur at-Tamimiy as-Sam’oniy N A S A B N O M A (a l-A n s o b) (VIII–XII ASRDA YASHAGAN O’ZBEKISTONLIK OLIMLAR HAQIDA MA'LUMOT) Toshkent – 2017

[145] Muhammad ibn Burhonuddin ibn Xoja Muhammad Rizo Muhammad al-Qozi. Silsilatul orifin va tazkiratus siddiqin. O’zR FA ShI qo’lyozmalar xazinasi

KALENDARLAR VA ULARNING TASNIFI

Maxmadiyorov Olmos Mamasoli o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)”
yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, A.H. Fayzullayev

Annotatsiya: *Maqolada kalendarning ta’rifi, yaratilish tarixi, Quyosh kalendari, Oy kalendari, Musulmonlar kalendari, Yulian kalendari Gregorian kalendari, Umar Xayyom kalendarlarining turmushdagi ahamiyati, ishlatilishi, bu kalendarlardagi har bir oyning nomlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Bu maqola aziz ustoz va o’quvchilarga yetarli ma’lumot beradi deb umid qilaman.*

Kalit so’zlar: *Kalendarlar, Quyosh kalendari, Oy kalendari, Oy-quyosh kalendari, Xorazm kalendari, Musulmonlar kalendari, Yulian kalendari, Gregorian kalendari, Umar Xayyom kalendari, musulmonlar kalendari*

Kalendar atamasi lotincha calendarium – «qarz daftari» degan ma’noni anglatadi. Qadimda Rimda qarzdorlar oyning birinchi kuni qarzlarining foizlarini to‘laganlar va bu «kalendar»ga qayd qilib borilgan. Tabiatdagi aniq bo‘lgan vaqt hisobi birliklari sutka, oy yil qadimdan ma’lum bo‘lib qadimgi kalendarlarning asosini tashkil etgan. Biz kalendar deb shunday vaqt hisobi sistemasini aytamiz-ki, uning asosida osmon yoritqichlari harakatiga bog‘liq tabiatning davriy hodisalari yotadi. Bunday sistemani yaratish birinchi bo‘lib ilk neolit davrida sodir bo‘ldi. Bu ishlab chiqarish xo‘jalik shakllarining paydo bo‘lishiga bog‘liq edi. Dehqonchilik va chorvachilik fasliy tabiat hodisalari bilan bog‘liq edi. Insoniyat tomonidan qo‘llanib kelingan kalendarlarni ikki asosiy guruhga bo‘lishimiz mumkin. Bular Quyosh va Oy hisoblaridagi kalendarlardir. Shundan kelib chiqib, kalendarlarni uch guruhga bo‘lishimiz mumkin. 1) Quyosh kalendari;2) Oy kalendari; 3) Oy-quyosh kalendari[146]

Quyosh kalendarida tropik yoshning uzunligi asos qilib olinadi. Quyosh kalendarining uzunligi tropik yilning uzunligiga mumkin qadar yaqin bo‘lishi kerak. Agar kalendar yili tropik yildan qisqaroq bo‘lsa, biz

[146] M. Is’hoqov, I. Xudaynazarov ni YORDAMCHI TARIXIY FANLAR – Toshkent. – 2019. – B-177.

o‘lchayotgan vaqt oralig‘ida ortiqcha vaqt qoladi. Masalan: yil Qadimgi Misrdagidek 365 sutka deb olingan, u tropik yildan deyarli 6 soat qisqa bo‘lganligidan, 4 yildan so‘ng quyosh bilan bahorgi teng kunlik nuqtasining birlashishi 21 martga emas, balki 22 martga, yana 4 yildan so‘ng 23 martga to‘g‘ri kelar edi. Shunday qilib, kalendar yili tropik yildan qisqa bo‘lsa, yil fasllari kalendar yilining keyingi kunlariga surila boradi. Bunday .surilish bir necha avlod hayoti davomida sezilarli xatoga olib kelardi, ya’ni 60 yilda fasllar 15 sutkaga, 120 yilda bir oyga kech qolgan bo‘lardi, 720 yilda esa hatto olti oyga yetib, martda kuz, sentyabrda bahor bo‘lardi. Agar kalendar yilini 366 sutka deb olsak, u holda bir sutka emas, balki uch sutka xatoga yo‘l qo‘yilardi va teng kunlik nuqtasi Quyosh bilan 21 martda emas, 18 yana to‘rt yildan so‘ng 15 martda to‘g‘ri kelgan bo‘lar edi.

Tarixda Grigoriy kalendaridan ham aniqroq kalendarlar mavjud bo‘lgan. Shunday kalendarlardan biri 1079 yilda shoir, astronom olim Umar Hayyom tomonidan tuzilgan. Umar Hayyom kalendari, Eron shohi Malikshoh tomonidan 1079 yilning 16 martida (bu davrda Yulian kalendari bo‘yicha bahorgi teng kunlik shu kunga to‘g‘ri kelardi) yoki hijriy oy kalendari bo‘yicha 471 yilning ramazonida qabul qilindi. Bu kalendar Umar Hayyom kalendari deyilishi bilan birga, ko‘pincha Malikshox sharafiga Jaloliy kalendari deb ham yuritilgan.

Umar Hayyom kalendarida kabisa yillari hisobi Yulian kalendaridan farq qiladi. Unda 28 yil ichida Yulian kalendaridagidek har to‘rtinchi yili, keyingisi o‘ttiz ikkinchi yilda emas, balki besh yil o‘tkazib o‘ttiz uchinchi yilda qo‘shiladi. Demak, Yulian kalendari bo‘yicha 32 yilda sakkizta kabisa yili bo‘lsa, Umar Hayyom kalendarida 33 yilda sakkizta kabisa yili bo‘ladi, ya’ni:

365-25 + 366-8 = 12053 sutka 12053:33 – 365.2424 sutka

Xorazm kalendari. Qadimgi Xorazmda Quyosh kalendariga asoslangan yil hisobidan foydalanilgan. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Xorazm yil hisobi Markaziy Osiyodagi eng Qadimgi yil hisoblaridan biri hisoblangan. Xorazm kalendarida bir yil 12 oyga bo‘lingan va har bir oy 30 kundan iborat bo‘lgan. Qo‘shimcha 5 kun yil oxirida o‘n ikkinchi oyga qo‘shilgan va bir yil 365 kunni tashkil ettan. Har yili qoldiq sifatida ortib qoladigan chorak kunga Xorazm kalendarida e’tibor berilmagan. Yangi yil bahorgi tengkunlikdan boshlangan. Oy nomlari Abu Rayhon Beruniy asarida ikki xil to‘liq va qisqartirilgan shakllarda keltiriladi. Oylarning to‘liq nomi juda uzun bo‘lib, ko‘pchilik tovushlarni undosh harflar tashkil qiladi. Beruniy Xorazm kalendari oy nomlarining to‘liq va qisqartirilgan shaklini quyidagicha keltiradi:

Xorazm kalendaridagi oylar nomlarining qisqartirilgan shakli

1. Novsorjiy. 7. Avmriy.

2. Ardvst.
3. Xrvdod.
4. Jiriy.
5. Xmidod.
6. Axshrivriy.
8. Enoxi.
9. Arv.
10. Rimjd.
11. Arshmn.
12. Isfandorajiy.[147]

Musulmon kalendari. Musulmon oylari, hafta nomlari. (Hijriy-kamariy yil hisobi, Hijriy-shamsiy yil hisobi). Eron, Afg‘oniston, O‘rta Osiyo, Kavkaz davlatlari islomlashtirilgach, zardo‘shtiylik kalendaridan foydalanishmagan. Bunga faqat zardushtiylar amal qilganlar. Islom dini vaqtni hisoblashga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Islomdan avval arablar Oy kalendaridan foydalanganlar. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, arablar yahudiylardan yilga qo‘shimcha oylar qo‘shishni o‘rganganlar va u oyni «ayam an-nasi» deb ataganlar. Bundan biz arablarning Oy-quyosh kalendaridan foydalanganligini bilishimiz mumkin. Arab kalendarida 12 oy bo‘lib, ular quyidagicha atalgan.

Muharram – «ta’qiqlangan», «man etilgan», «muqaddas» ma’nolarini beradi. Muharramda johiliyat davrida urush Harom qilingan. Bu holat ettinchi (rajab), – o‘n birinchi (zulqa’da) va o‘n ikkinchi (zulhijja) oylariga ham tegishli bo‘lgan

1) Safar – «sariq», «za’faron» degan ma’noni beradi. Bu oyda arablarga halok qiluvchi yara toshar edi. Insonlarga bu kasallik yetganida yuzlari sarg‘ayib ketardi. Shu sababli bu oyni safar «sariq» deb nomladi. Shuningdek, boshqa bir farazga ko‘ra, safar oyida arablar «safariya» nomli guruh bilan birgalikda oziq-ovqat qidirganliklari uchun bu oyga shunday nom berilgan.
2) Safar – «sariq», «za’faron» degan ma’noni beradi. Bu oyda arablarga halok qiluvchi yara toshar edi. Insonlarga bu kasallik yetganida yuzlari sarg‘ayib ketardi. Shu sababli bu oyni safar «sariq» deb nomladi. Shuningdek, boshqa bir farazga ko‘ra, safar oyida arablar «safariya» nomli guruh bilan birgalikda oziq-ovqat qidirganliklari uchun bu oyga shunday nom berilgan.
3) Rabi us-soniy – «ikkinchi kuz»..
4) Jumodu-l-avval,– bu ikki oy qish kunlariga, sovuq qattiq bo‘lib, suv muzlagan paytini anglatuvchiga arabcha so‘zidan olingan bo‘lib, «qotib qolmoq», muzlamoq ma’nosini beradi.
5) Jumodu-s-soniy- “ikkinchi qurish” yoki "ikkinchi quruqlik" demakdir.
6) Rajab – arablar bu oyni ulug‘laydilar, yana bu oyni «kar oyi» ham deb nomlaydilar, chunki bu oyda urush ovozini eshitmasdilar.

[147] 1 Rahmonqulova 3. Xronologiya. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, – T.: 2006. – B.88-89

7) Sha’bon – «tashaaba» so‘zidan olingan bo‘lib, «tarqalmoq» ma’nosini beradi.
8) Ramazon – «yondirmoq», «jazirama oy» ma’nolarini anglatadi. Bu oy yozning eng issiq paytiga to‘g‘ri kelgani uchun shunday atalgan
9) Shavvol – «ko‘tarilmoq», «olib bormoq», «ko‘chirmoq» ma’nolarini beradi. Arab qabilalari bu oyda o‘z joylaridan ko‘chib ketardi, shuning uchun shavvol deb nomlangan.
10) Zulqa’da – «o‘tirmoq», «uyda qolmoq» ma’nolarini anglatadi. Bu oyda urushlar bo‘lmaydi.
11) Zulhijja – «ḥaj» so‘zidan olinib, «ḥaj qilish» ma’nosini beradi. Arablar bu oyda haj qilganlar.[148]

Yuliy (Julian) kalendari – Rim imperatori Yuliy Tsezar tomonidan miloddan avvalgi 46-yilda joriy etilgan kalendar tizimi bo‘lib, uzoq vaqt davomida Yevropada qo‘llanilgan. Julian kalendari 365 kunlik yilni asos qilib oladi va har to‘rt yilda bir marta kabisa yili kiritiladi. Bu kalendar Rim davlati va uning ta'sir doirasidagi hududlarda qo‘llanilgan va O‘rta asrlar davomida Yevropa mamlakatlari tomonidan ishlatilgan. Yuliy kalendari qadimgi rimliklar tomonidan ishlatilgan oy va Quyosh harakatlariga asoslangan eski kalendarning o‘rniga kiritildi. Yuliy Tsezar bu ishni amalga oshirish uchun Misr astronomi Sozigenni jalb qildi, u esa Misrda ishlatilgan quyosh kalendariga asoslanib, yangi tizimni ishlab chiqdi[149]. Julian kalendari 365,25 kun davomiyligidagi yilni qabul qildi va to‘rt yilda bir marta qo‘shimcha bir kun – 366 kunlik kabisa yil qo‘shilib, yilni to‘g‘ri hisoblashga xizmat qildi. Julian kalendarida yil 365,25 kun deb hisoblangan. Bu hisobda har bir yil 365 kundan iborat bo‘lib, lekin har to‘rt yilda bir marta 366 kun kiritiladi (kabisa yili). Yuliy Kalendari Xatosi: Yuliy kalendarining yillik davomiyligi 365,25 kun deb hisoblangan, lekin bu Quyosh yilidan 11 daqiqa 14 soniyaga uzoqroqdir. Bu kichik farq vaqt o‘tishi bilan sezilarli xatoliklarni keltirib chiqardi: har 128 yilda bir kunlik noaniqlik hosil bo‘ldi. Bu sababli, uzoq vaqt davomida o‘tkazib yuborilgan kunlar sababli fasllar boshlanishida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Yuliy kalendari tarixda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ming yillar davomida Yevropa va Yaqin Sharqdagi ko‘plab xalqlar tomonidan ishlatilgan. Gregorian kalendari yaratilgandan keyin ham Yuliy kalendari pravoslav cherkovlari va tarixiy tadqiqotlarda saqlanib qolgan. Julian kalendari orqali ko‘plab tarixiy sanalar belgilangan, shu sababli tarixiy voqealarni o‘rganishda ham u muhim o‘rin tutadi.[150]

[148] Is’hoqov M., I. Xudaynazarov ni YORDAMCHI TARIXIY FANLAR T,2019 B-194-195
[149] Internet materiallari:talaba.su/kalendarlar-tarixidan
[150] Mamadazimov M. “Astronomiyadan o’qish kitobi” Toshkent-2004

Julian kalendaridagi oy nomlari qadimgi Rim an’analariga va e’tiqodlariga asoslangan. Bu oylar nomlanishida Rimliklarning xudolar, bayramlar, podshohlar va raqamlar bilan bog‘liq turli hikoyalar mavjud. Quyida har bir oy nomining kelib chiqishi keltirilgan:

Yanvar (January) – Yanvar oyining nomi Rim eshiklar va boshlanish xudosi Yanus sharafiga qo‘yilgan. Yanus ikki yuzi bilan bir vaqtning o‘zida oldinga va orqaga qaraydigan xudo sifatida tasvirlangan bo‘lib, eski yilni tugatib yangi yilni boshlash ma'nosini ifodalaydi.

1. Fevral (February) – Fevral oyi nomi "februa" deb ataluvchi qadimgi Rim poklanish va tozalash marosimidan kelib chiqqan. Rimliklar fevral oyida yilning oxirgi oyi sifatida tozalash va poklanish uchun bu marosimni o‘tkazishgan.
2. Mart (March) – Mart oyi nomi Rim urush xudosi Mars nomidan olingan. Bu oy Rim yilining birinchi oyi hisoblangan va odatda harbiy yurishlar boshlanish vaqti bo‘lgan.
3. Aprel (April) – Aprel oyining nomi kelib chiqishi to‘g‘risida aniq ma'lumot yo‘q, lekin ba'zi manbalarda u lotincha "aperire" (ochilish) so‘zidan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Bu oy bahorning boshlanishi va tabiiy o‘zgarishlarni ifodalaydi.
4. May (May) – May oyi Maia xudosi sharafiga qo‘yilgan. Maia unumdorlik va o‘sish xudosi bo‘lib, Rimliklar unga ushbu oyda sig‘inishgan.
5. Iyun (June) – Iyun oyi Rim oilaviy va nikoh xudosi Yuno nomidan olingan. Yuno Rimliklar orasida muhim xudo bo‘lib, ushbu oyda to‘ylar va oilaviy tadbirlar o‘tkazilgan.
6. Iyul (July) – Iyul oyi avval "Quintilis" deb atalgan va Rim yilining beshinchi oyi bo‘lgan. Keyinchalik Yuliy Tsezar sharafiga Iyul deb nomlangan. Yuliy Tsezar Julian kalendarini joriy etganligi uchun uning ismi ushbu oyni ifodalash uchun qo‘llanilgan.
7. Avgust (August) – Avgust oyining dastlabki nomi "Sextilis" bo‘lgan, ya’ni yilning oltinchi oyi. Milodiy 8-yilda Rim imperatori Oktavian Avgust sharafiga o‘zgartirilgan va Avgust deb nomlangan.
8. Sentabr (September) – Sentabr lotincha "septem" (yetti) so‘zidan olingan bo‘lib, Rim yilining yettinchi oyi hisoblangan.
9. Oktabr (October) – Oktabr "octo" (sakkiz) so‘zidan kelib chiqqan va Rim yilining sakkizinchi oyi bo‘lgan.
10. Noyabr (November) – Noyabr lotincha "novem" (to‘qqiz) so‘zidan kelib chiqqan va Rim yilida to‘qqizinchi oyni ifodalagan.
11. Dekabr (December) – Dekabr "decem" (o‘n) so‘zidan olingan bo‘lib, Rim yilining o‘ninchi oyi sifatida qabul qilingan.

Gregorian kalendari. Gregorian kalendari hozirda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida qo‘llaniladigan asosiy kalendar tizimi hisoblanadi. Bu kalendar 1582-yilda Rim Papasi Gregori XIII tomonidan joriy etilgan bo‘lib, o‘z nomini ham shundan olgan. Gregorian kalendari avvalgi Yuliy kalendarining aniqligini oshirish uchun ishlab chiqilgan va vaqt o‘tishi bilan Yevropada hamda butun dunyoda keng tarqalgan. Yuliy kalendari (Julian calendar) dastlab miloddan avvalgi 46-yilda Rim imperatori Yuliy Tsezar tomonidan yaratilgan bo‘lsa-da, u 128 yilda bir kunlik xatolik yuzaga keltirar edi. Shu sababli, vaqt o‘tishi bilan yillar davomiyligida noaniqlik paydo bo‘ldi. Bu xatolik Yevropada Pasxa bayramini to‘g‘ri hisoblashda qiyinchilik tug‘dirayotgan edi. Gregori XIII bu muammoni bartaraf etish uchun yangi kalendar tizimini joriy qildi. Gregorian kalendari kabisa yillarini yanada aniqroq qilish uchun qo‘shimcha qoidani kiritdi. Har 4 yilda bir marta kabisa yili bo‘ladi, ammo asr oxiridagi yillar (masalan, 1700, 1800, 1900) faqat 400 ga karrali bo‘lsa, kabisa yili hisoblanadi. Masalan, 2000-yil kabisa yili edi, ammo 1900-yil kabisa yili emas edi. Bu qoida yil davomiyligidagi xatolikni kamaytiradi. 582-yilda Joriy Etilishi: Gregorian kalendari rasmiy ravishda 1582-yil 4-oktabrda joriy qilingan. O‘sha yilning 4-oktabridan keyingi kun 15-oktabr deb e’lon qilingan, ya’ni 10 kun o‘tkazib yuborilgan. Bu esa Yuliy kalendaridagi noaniqlikni tuzatish uchun qilingan o‘zgarish edi. Dastlab Gregorian kalendarini katolik davlatlari qabul qilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan boshqa davlatlar ham uni qo‘llay boshladi. Angliya va uning koloniyalari 1752-yilda, Rossiya 1918-yilda va Turkiya 1926-yilda Gregorian kalendariga o‘tdi. Gregorian kalendari hozirgi zamonda eng keng tarqalgan va rasmiy kalendar hisoblanadi. Ko‘pgina davlatlar tomonidan qabul qilingan bu tizim xalqaro tadbirlar, iqtisodiy va ijtimoiy ishlarni rejalashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U xalqaro vaqtni boshqarish tizimini uyg‘unlashtirdi va tarixiy voqealar ketma-ketligini aniq belgilash imkonini berdi. Gregorian kalendari o‘zining astronomik aniqligi bilan ham tanilgan va aynan shuning uchun zamonaviy hayotda, ilmiy tadqiqotlarda ham qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Is’hoqov M., Xudaynazarov I. YORDAMCHI TARIXIY FANLAR T,2019
2. Mamadazimov M. “Astronomiyadan o’qish kitobi” – Toshkent. – 2024
3. Internet sayt:talaba.su/kalendarlar-tarixidan
4. Rahmonqulova Z. Xronologiya. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, –T.: 2006.
5. Internet materiyal: https://www.journeytoegypt.com/en/blog/the-ancient-egyptian-calendar

III SHO‘BA
SHARQ XALQLARI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI MASALALARI

SO‘G‘D DIPLOMATIKASI: HUJJATLAR TAVSIFI, TAHLILI VA TALQINI

Abdutolibov Abdilaziz Obidjon o’g’li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari yo‘nalishi
1-kurs magistranti
E-mail manzil: abdutolibovabdulaziz4@gmail.com
Ilmiy rahbar: t.f.d, prof. M.M.Is’hoqov

Annotatsiya: *Mazkur maqolada So‘g‘d diplomatikasi o‘ziga xos hujjatlar asosida tahlil qilinadi. So‘g‘d hujjatlari, jumladan, Esik, Mug‘ tog‘i va Dunxuanga oid yozma manbalar diplomatik amaliyotning turli jihatlarini yoritadi. Maqolada ushbu hujjatlarning tarkibi, mazmuni va siyosiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinib, ularning So‘g‘d davlatlari va xalqaro aloqalardagi o‘rni talqin etiladi. Shuningdek, hujjatlarning yozilish uslubi, diplomatik normalari va boshqa xalqlar bilan o‘zaro aloqalaridagi ta’siri ham ilmiy jihatdan o‘rganiladi. Maqola So‘g‘d diplomatik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar doirasida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется согдийская дипломатия на основе уникальных документов. Согдийские тексты, включая находки из Эсика, горы Муг и Дуньхуана, освещают различные аспекты дипломатической практики. В статье рассматриваются состав, содержание и политико-культурное значение этих документов, а также их роль в международных отношениях согдийских государств. Особое внимание уделяется стилю написания, дипломатическим нормам и влиянию на взаимодействие с другими народами. Исследование способствует более глубокому пониманию формирования и развития согдийской дипломатической культуры.*

Kalit so‘zlar: *So‘g‘d diplomatikasi, So‘g‘d hujjatlari, Mug‘ tog‘i hujjatlari, Dunxuan hujjatlari, Esik yozuvlari, xalqaro aloqalar, diplomatik hujjatlar, o‘rta asr diplomatik amaliyoti, siyosiy-madaniy munosabatlar, So‘g‘d davlatlari. Ipak yo‘li, savdo, diplomatiya, sug‘d tili, sug‘d yozuvi, arxeologiya, diplomatik hujjatlar, madaniyat, davlat boshqaruvi.*

Ключевые слова: *Согдийская дипломатия, согдийские документы, документы горы Муг, документы Дуньхуана, надписи Эсика, международные отношения, дипломатические документы, дипломатическая практика Средних веков, политико-культурные связи, согдийские государства.*

KIRISH

So‘g‘diylar eramizdan avvalgi VI asrdan eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoning eng muhim savdogarlari va vositachilaridan biri bo‘lgan. Ular nafaqat savdo-sotiq bilan shug‘ullangan, balki diplomatik muzokaralar olib borish va davlatlar o‘rtasida vositachilik qilishda ham faol ishtirok etgan. Xususan, so‘g‘diylarning Tang sulolasi (Xitoy), Turk xoqonligi va sosoniylar bilan yozishmalari bu xalqning xalqaro diplomatiyadagi o‘rnini ko‘rsatadi. Ularning siyosiy va iqtisodiy faoliyati nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Xitoy va Yaqin Sharqda ham iz qoldirgan So‘g‘d davlati va xalqining xalqaro maydondagi faolligi ularning diplomatik amaliyotida ham yaqqol aks etgan. So‘g‘diylar Markaziy Osiyo, Xitoy, Hindiston, Erondagi turli davlatlar va xalqlar bilan savdo-siyosiy munosabatlar o‘rnatgan bo‘lib, bu jarayon turli yozma hujjatlarda o‘z aksini topgan. Bugungi kunga kelib, So‘g‘d diplomatik amaliyotini o‘rganish, asosan, Mug‘ tog‘i, Dunxuan va Esikda topilgan yozma manbalar orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada mazkur hujjatlarning mazmuni, ularning tahlili hamda tarixiy jarayonlardagi o‘rni yoritiladi.

So‘g‘d diplomatik hujjatlari davlat boshqaruvi, elchilar faoliyati, xalqaro shartnomalar va bitimlar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Xususan, 1930-yillarda Yu. A. Rsenyoning (Yulian Rsenyon) ekspeditsiyasi natijasida Mug‘ tog‘idan topilgan hujjatlar So‘g‘d diplomatiyasining real amaliyotini ko‘rsatib beradi (Rsenyon, 1942). Ushbu hujjatlar So‘g‘d hukmdorlari va ularning qo‘shinlari faoliyatiga oid bo‘lib, unda harbiy va diplomatik kelishuvlar haqida yozilgan.

Shuningdek, Xitoy hududidan topilgan Dunxuan hujjatlari So‘g‘d elchilari va savdogarlarining Sharqiy Osiyo bilan bo‘lgan aloqalarini o‘rganish imkonini beradi (Hansen, 2012). Ushbu manbalar So‘g‘d tilida yozilgan bo‘lib, Xitoy imperiyasi bilan olib borilgan diplomatik yozishmalar va shartnomalar mazmunini o‘z ichiga oladi. Esik yozuvlari esa So‘g‘d va qo‘shni hududlarning diniy, ijtimoiy hamda siyosiy hayotiga oid ma’lumotlar taqdim etadi (Smirnova, 1970).

So‘g‘d diplomatikasi nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro ahamiyat kasb etgan bo‘lib, bu davr siyosiy jarayonlarini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu maqolada So‘g‘d hujjatlarining diplomatik xususiyatlari, ularning siyosiy va madaniy talqini, shuningdek, So‘g‘d

davlatlari va boshqa hududlar o‘rtasidagi aloqalardagi o‘rni chuqur o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So‘g‘d diplomatikasini o‘rganishda turli tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzuni yoritishda asosan yozma hujjatlar, arxeologik topilmalar, arab va fors tarixchilarining asarlari hamda zamonaviy olimlarning ilmiy ishlari asos qilib olindi.So‘g‘d diplomatik hujjatlari orasida Mug‘ qal’asi hujjatlari (Freyman, 1962; Livshits, 1964), Dunxuan hujjatlari (Stein, 1907; Sims-Williams, 1996) va Eski so‘g‘d xatlari (Hansen, 2004) eng muhim manbalar hisoblanadi. Ushbu hujjatlar So‘g‘d davlatining xalqaro aloqalari, diplomatik yozishmalari va rasmiy huquqiy amaliyotini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, Mug‘ qal’asi hujjatlarida soliq tizimi va rasmiy yozishmalar tahlil qilingan bo‘lsa, Dunxuan hujjatlarida So‘g‘diylarning Xitoy bilan diplomatik munosabatlari aks etgan.So‘g‘d diplomatikasiga oid tadqiqotlar orasida A. Freyman (1962) va V.A. Livshits (1964) ishlarida Mug‘ qal’asi hujjatlarining siyosiy va iqtisodiy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. R. Sims-Williams (1996) esa Dunxuan hujjatlari asosida So‘g‘diylarning diplomatik faoliyati va savdo aloqalarini tahlil qilgan. Shuningdek, "Sogdian Traders: A History" (Sims-Williams, 2020) kabi tadqiqotlar So‘g‘diylarning xalqaro aloqalari va diplomatik faoliyatini o‘rganishda muhim manba hisoblanadiTadqiqot davomida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Tarixiy-taqqoslash metodi asosida So‘g‘d diplomatik hujjatlari boshqa o‘rta asr diplomatik yozishmalari bilan qiyoslanib, xalqaro aloqalardagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Tizimli tahlil metodi orqali So‘g‘d davlatlarining diplomatik tuzilmasi, huquqiy normalari va siyosiy aloqalari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqildi. Manbashunoslik yondashuvi asosida So‘g‘d hujjatlari, arab va fors tarixchilarining asarlari hamda zamonaviy tadqiqotchilarning ishlari o‘rganildi. Lingvistik tahlil orqali esa So‘g‘d diplomatik hujjatlarida ishlatilgan terminologiya va rasmiy yozishma uslubi tahlil qilindi.Ushbu metodlar asosida So‘g‘d diplomatik hujjatlarining mazmuni, tarixiy ahamiyati va xalqaro munosabatlardagi o‘rni ilmiy asoslangan holda tahlil qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

So‘g‘d diplomatikasi o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo va unga qo‘shni hududlarda muhim rol o‘ynagan bo‘lib, bu jarayon yozma hujjatlar orqali yaxshi hujjatlashtirilgan. Tadqiqot natijalari So‘g‘d diplomatik hujjatlarining rasmiy yozishmalar tizimi va xalqaro aloqalardagi ahamiyatini ochib berdi. Xususan, Mug‘ qal’asi hujjatlari, Dunxuan hujjatlari va Eski so‘g‘d xatlari asosida So‘g‘diylarning davlat boshqaruvi, elchilik tizimi va huquqiy amaliyotlari haqida qimmatli xulosalar

chiqarildi.Tahlil natijalariga koʻra, Soʻgʻd diplomatikasi quyidagi asosiy xususiyatlarga ega boʻlgan:1. Rasmiy yozishmalar tizimi – Soʻgʻd davlatlari oʻz diplomatik yozishmalarida standart til va terminologiyaga amal qilgan. Mugʻ qal'asi hujjatlarida (Freyman, 1962; Livshits, 1964)rasmiy buyruqlar, moliyaviy hisobotlar va elchilar tomonidan yozilgan xatlar mavjud boʻlib, ular davlat boshqaruvi tizimini yoritib beradi[4]..2. Xalqaro diplomatik aloqalar – Soʻgʻdiylar turli davlatlar, jumladan, Xitoy, fors va turkiy qabilalar bilan rasmiy yozishmalar olib borgan. Dunxuan hujjatlarida (Stein, 1907; Sims-Williams, 1996) Soʻgʻdiylarning Xitoy imperiyasi bilan yozishmalari aks etgan boʻlib, bu hujjatlar elchilar, savdogarlar va davlat arboblari oʻrtasidagi aloqalarni tasdiqlaydi[10]..3. Diplomatik hujjatlarning huquqiy xususiyatlari – Tadqiqotlar Soʻgʻd diplomatik yozishmalarida huquqiy normalar va amaliyotlar mavjudligini koʻrsatdi. Sims-Williams (2020) va Grenet (2002) asarlarida qayd etilishicha, Soʻgʻdiylarning shartnomalari va rasmiy bitimlari oʻziga xos huquqiy asosga ega boʻlib, ularning xalqaro huquqiy tizimdagi oʻrnini belgilab bergan[13]..4. Soʻgʻd tilining diplomatik ahamiyati – Soʻgʻd tili oʻrta asrlarda xalqaro savdo va diplomatiyada keng qoʻllanilgan. Lingvistik tahlillar shuni koʻrsatadiki, Soʻgʻdiylarning diplomatik yozishmalarida rasmiy diplomatik tilning shakllanganligi kuzatiladi (Hansen, 2004)Ushbu natijalar Soʻgʻd diplomatikasi faqatgina mahalliy emas, balki xalqaro ahamiyatga ega boʻlganligini koʻrsatadi. Soʻgʻd elchilarining faoliyati, savdogarlari va yozishmalari ularning iqtisodiy va siyosiy ta'sirini kengaytirishga xizmat qilgan. Soʻgʻd diplomatikasi oʻrta asr Markaziy Osiyo diplomatik an'analarining rivojlanishida muhim rol oʻynagan boʻlib, bu holat keyinchalik islomiy va turkiy davlatlarning diplomatiya tizimiga ham ta'sir koʻrsatgan.)[11].

Mugʻ qal'a hujjatlari – Mugʻ qal'a xarobalaridan topilgan hujjatlar majmuidan iborat oʻziga xos arxiv qoldigʻi (milodiy VII asr oxiri – VIII asr boshi). Uning tarkibidagi jami 80 hujjatdan 74 tasi fanda shartli ravishda "milliy sugʻd yozuvi" yoki Samarqand sugʻd yozuvi deb nomlangan yozuvda bitilgan. 3 ta hujjat xitoy yozuvida boʻlib, mazkur arxiv mazmuniga daxldor emas. Xitoycha matn bitilgan qogʻozning orqa toza yuzasidan yozuv materiali sifatida foydalanilgan. 2 ta hujjat arab yozuvini kufa usulida bitilgan va arxiv mazmuniga aloqador. 1 ta hujjat teri yuzasiga qadimiy turk-runiy yozuvda bitilgan[1].1932-yil bahorida Tojikiston SSR Zahmatobod tumani Xayrabod qishlogʻi aholisi Mugʻ qal'asi qoʻrgʻonining xarobalaridan toʻqima savat va hujjatlarni topishgan. Hujjatlar tushunarsiz yozuvda ipak qogʻoziga yozilgan boʻlgan. Bir necha oylar mobaynida hujjatlar yuqori Zarafshon qishloqlarida qoʻldan-qoʻlga oʻtib yurgan. Hujjatlar respublika poytaxti Dushanbega olib kelingan. Bu yerda hujjatlar sugʻd tilida

yozilganligi aniqlangan. Hujjatlardan fotonusxa olinib, Leningradga professor A. A. Freymanga jo‘natilgan. 1933-yil dekabrida 91 ta Mug‘ tog‘i hujjatlari Leningradga olib kelingan. Freyman hujjatlar ro‘yxatini „Sug‘d to‘plami“da e’lon qilgan[2].

Arxiv hujjatlarning kattagina guruhi framandar (xo‘jalik ishlari bo‘yicha nozir) nomiga yozilgan Devashtichning buyruqlaridir. Yana bir qancha hujjatlar Sug‘d davlatining xo‘jalik munosabatlarini aks ettiradi. Ular orasida teri oshlash, charmgarlik, ziroatchilik, bog‘dorchilik va boshqa xo‘jalik sohalarining arab istilosi kunlaridagi ahvolini ko‘rsatuvchi bir qancha hujjat namunalari bor. Yana bir guruh hujjatlarda moliyaviy munosabatlar aks etgan bo‘lib, avvalo saroy ehtiyojlari uchun xarajatlar ro‘yxati, turli xil to‘lovlar haqidagi axborotlar, soliq va boj yig‘malari kabi bevosita moliyaviy iqtisod munosabatlari aks etgan[3].

1934-yilda Freyman topilgan hujjatlarning batafsil paleografik tasnifini yozgan. Ma’lumotlar Mug‘ tog‘i topilmalariga bag‘ishlan¬gan maxsus „Mug‘ togi sug‘d hujjatlari“ to‘plamida e’lon qilingan[5]. Shu to‘plamda hujjatlarning topilishi bilan bog‘liq jarayonlar[6], Mug‘ tog‘i bo‘yicha arxeologik tadqiqotlarning hisoboti ham nashr qilingan[7]. Akademik Krachkovskiy arab xatidagi hujjatni o‘qib, uning sanasini va shu hujjat orqali Mug‘ tog‘i qo‘rg‘onining buzib tashlanishi haqidagi tarixiy jarayonni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Tadqiqotlar natijasida topilgan barcha hujjatlar VII asr oxiri – VIII asrning I choragi (722 yilgacha)ga xosligi aniqlandi. Freyman sug‘d hujjatlarini mazmuniga ko‘ra ikki guruhga – xatlar va xo‘jalik hujjatlariga ajratadi. Keyinchalik V. A. Livshits yana bir guruh hujjatlarini aniqlagan bo‘lib, bular yuridik hujjatlar edi. Hujjatlarning aksariyati Panjikent hokimi Divashtich (Devashtich) nomi bilan bog‘liq bo‘lgan. 1934-yilda Freyman xo‘jalik hujjatlarining ayrimlarini tarjima qilib, nashrini e’lon qilgan[8].

Mug‘ qal’a hujjatlari bugunga qadar to‘liq ilmiy nashr etilgan. Ularning dastlabki ilmiy nashrlari rus olimlari A. A. Freyman, M. N. Bogolyubov, V. A. Livshits, O. I. Smirnovalar tomonidan 1960-yillarning boshlarida amalga oshirilgan.

1990—1992-yillarda sug‘dshunos olim M. Is’hoqov so‘nggi davrlarda sug‘dshunoslik sohasidagi yangi natija va xulosalar asosida Mug‘ qal’a hujjatlarining katta turkumini o‘zbek tiliga tarjima qilib, ilmiy izohlar bilan nashr ettirdi[9].

XULOSA

So‘g‘d diplomatikasi Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar davridagi xalqaro munosabatlar tizimida muhim rol o‘ynagan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, So‘g‘diylar mustahkam diplomatik an’analarga ega bo‘lgan, rasmiy yozishmalarda qat’iy tartib-qoidalarga rioya qilgan va o‘z

vaqtida turli davlatlar, jumladan, Xitoy, forslar va turkiy qabilalar bilan keng diplomatik aloqalar o‘rnatgan.So‘g‘d diplomatik hujjatlarining tahlili shuni anglatadiki, bu yozishmalar nafaqat rasmiy davlat munosabatlari, balki savdo va madaniy almashinuvni ham tartibga solishda muhim vosita bo‘lgan. Xususan, Mug‘ qal’asi hujjatlari va Dunxuan yozma manbalari So‘g‘d davlatlarining boshqaruv tizimi, soliqlar, elchilar faoliyati va xalqaro shartnomalar bo‘yicha aniq ma’lumotlar beradi. Bu hujjatlar So‘g‘d diplomatik yozishmalarining aniq tuzilishi va rasmiy diplomatik nutq shakllarini aks ettirgan.Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy jihatlardan biri shuki, So‘g‘d tili o‘rta asrlarda nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro darajada ham diplomatik aloqa tili sifatida foydalanilgan. Bu holat So‘g‘d savdogarlari va davlat arboblarining Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ta’sirini oshirishiga xizmat qilgan. Shuningdek, So‘g‘d diplomatikasi huquqiy jihatdan ham rivojlangan bo‘lib, uning amaliyoti keyinchalik islomiy va turkiy davlatlarning diplomatiya tizimiga ham ta’sir ko‘rsatgan.Umuman olganda, So‘g‘d diplomatikasi o‘z davrining eng rivojlangan va samarali diplomatik tizimlaridan biri bo‘lib, u savdo, siyosiy aloqalar va madaniy integratsiyani mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Ushbu mavzuni kelajakda yanada kengroq o‘rganish uchun yangi arxeologik topilmalar, lingvistik tadqiqotlar va hujjatshunoslik metodlaridan foydalanish zarur. So‘g‘d diplomatik merosini chuqur o‘rganish Markaziy Osiyo tarixi va xalqaro munosabatlari tizimini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.So‘g‘diylar Markaziy Osiyoning iqtisodiy, madaniy va diplomatik tarixida muhim o‘rin tutgan. Ularning savdo-sotiq, yozuv va diplomatiyadagi faoliyati nafaqat Ipak yo‘li rivojiga, balki turli xalqlarning madaniy almashinuviga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. So‘g‘diy hujjatlari va yozuvlari ularning xalqaro aloqalarda qanday o‘rin tutganini yanada yaxshi tushunish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Freyman, A. A. (1934). Opis rukopisnix dokumentov, izvlechennix iz razvalin zdaniya na gore Mug v Zaxmatabadskom rayone Tadjikskoy SSR okolo seleniya Xayrabad i sobrannix Tadjikistanskoy bazoy Akademii nauk SSSR. // Sogdiyskiy sbornik. – L.: Izd. AN SSSR. – S. 33-51.

2. Freyman, A. A. Naxodka sogdiyskix rukopisey i pamyatnikov materialnoy kulturi v Tadjikistane. (Predvaritelnoe soobщenie). // Sogdiyskiy sbornik. – S. 7-17.

3. Grenet, F. (2002). The Sogdian Trade Network and Its Role in the Spread of Religions. UNESCO.

4. Hansen, V. (2004). The Silk Road: A New History. Oxford University Press.

5. Is’hoqov, M. M., Alimova, R. R. (2020). Arxivshunoslik / Darslik. Toshkent. – 81-82-betlar.
6. Livshits, V. A. (1964). Sogdian Epigraphy of Central Asia. Leningrad: Academy of Sciences.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2003). 6-jild: Miriy—Parxish. T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti". (M. Is’hoqov maqolasi).
8. Sims-Williams, N. (1996). New Light on Ancient Sogdiana: Sogdian Documents from the Upper Indus. Bulletin of the Asia Institute.
9. Sims-Williams, N. (2011). Sogdian Manuscripts and Their Historical Significance. Journal of Inner Asian Art and Archaeology.
10. Sims-Williams, N. (2020). Sogdian Traders: A History. Leiden: Brill.
11. Stein, A. (1907). Ancient Khotan: Detailed Report of Explorations in Eastern Turkestan. Oxford: Clarendon Press.
12. Vasilev, A. I. Sogdiyskiy zamok na gore Mug. (Predvaritelniy otchet). // Sogdiyskiy sbornik. – S. 18-32.

ABU RAYHON BERUNIYNING “QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR” ASARIDA IBTIDOIY JAMIYAT HAQIDA QARASHLAR

Imomxonov Chingizxon
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Antropologiya va etnologiya” yo‘nalishi
1-kurs koreys-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: PhD B.Zokirov

Annotatsiya*: Abu Rayhon Beruniy o‘zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ibtidoiy jamiyatga oid qimmatli tarixiy ma’lumotlarni taqdim etgan. Ushbu maqolada asar asosida ibtidoiy jamiyatning shakllanishi, insonlarning dastlabki ijtimoiy tuzilishi, xo‘jalik yuritish shakllari hamda diniy e’tiqodlari haqida batafsil fikr yuritiladi. Beruniy ibtidoiy odamlarning tabiat bilan uyg‘un hayot kechirganliklarini, ular orasida jamoaviy mulkchilik hukmron bo‘lganligini va turli e’tiqodlar asosida diniy marosimlar o‘tkazilganligini ta’kidlaydi. Maqolada tarixiy-komparativ metod, tahlil va qiyoslash usullari qo‘llanilib, Beruniyning qarashlari zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan solishtirildi. Shuningdek, ibtidoiy jamiyatni o‘rganishda antropologik yondashuvdan foydalanilib, qadimgi jamiyat tuzilmalari va ularning rivojlanish bosqichlari baholandi.*

Kalit so‘zlar: *Abu Rayhon Beruniy, ibtidoiy jamiyat, qadimgi xalqlar, ijtimoiy tuzilish, diniy e’tiqodlar, xo‘jalik yuritish, tarixiy yodgorliklar.*

KIRISH

Abu Rayhon Beruniy Sharq ilm-fani va falsafasining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, u o‘zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida insoniyat tarixining dastlabki bosqichlari haqida qimmatli fikrlarni bayon etgan. Ushbu asar qadimgi xalqlarning hayot tarzi, ijtimoiy tuzilishi, diniy e’tiqodlari va madaniyatiga oid muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Beruniy ibtidoiy jamiyatga oid qarashlarida insoniyatning ilk rivojlanish bosqichlarini tarixiy manbalar va kuzatuvlari asosida tahlil qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada asosiy manba sifatida Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari o‘rganilgan. Beruniy ushbu asarida ibtidoiy jamiyatning turli jihatlarini, xususan, qadimgi xalqlarning ijtimoiy hayoti, xo‘jalik yuritish shakllari va diniy qarashlarini batafsil yoritib bergan. Uning qarashlari qadimgi yozma manbalar, rivoyatlar va tarixiy tadqiqotlar asosida shakllangan.

Maqolada tarixiy-komparativ metod, tahlil va qiyoslash usullari qo‘llanilib, Beruniyning qarashlari zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan solishtirildi. Shuningdek, ibtidoiy jamiyatni o‘rganishda antropologik yondashuvdan foydalanilib, qadimgi jamiyat tuzilmalari va ularning rivojlanish bosqichlari baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ibtidoiy jamiyatning shakllanishi.

Beruniyning fikricha, ibtidoiy jamiyat insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichi bo‘lib, odamlar o‘z hayotlarini tabiat bilan bevosita bog‘liq holda olib borganlar.[151] U ibtidoiy insonlarning yashash tarzi, mehnat faoliyati va kundalik ehtiyojlarini qondirish usullari haqida batafsil ma’lumot beradi. Beruniy ibtidoiy jamiyatda odamlar jamoaviy mehnat orqali ovchilik, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanganliklarini ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ibtidoiy jamiyatni insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichi sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, ibtidoiy odamlar hayotini tabiat bilan bevosita bog‘liq holda olib borganlar. Tirikchilik uchun ovchilik, baliqchilik, meva terish kabi ibtidoiy xo‘jalik shakllari asosiy ahamiyat kasb etgan. Beruniy o‘z asarida ibtidoiy jamiyat a’zolarining kundalik hayoti, mehnat faoliyati va ehtiyojlarini qondirish usullari haqida batafsil ma’lumot beradi.

[151] Beruniy, A. R. (2007). Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent: O‘qituvchi.

Uning ta’kidlashicha, dastlab odamlar kichik jamoalarda yashab, hamkorlikda mehnat qilganlar. Shu sababli, jamiyat a’zolari o‘rtasida tenglik hukm surgan va hech kim boshqalar ustidan hukmronlik qilmagan. Biroq vaqt o‘tishi bilan mehnat taqsimoti shakllana boshlagan, bu esa asta-sekin jamiyatning tabaqalanishiga va ijtimoiy tuzilmaning murakkablashishiga olib kelgan.

Beruniy shuningdek, ibtidoiy jamiyatda turli mehnat vositalari paydo bo‘lishining inson taraqqiyotiga ta’sirini ham o‘rganadi. U kishilar dastlab tosh va yog‘och asboblardan foydalanganlarini, keyinchalik esa metallardan foydalana boshlaganlarini qayd etadi. Bu texnologik rivojlanish jarayoni insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichlariga o‘tishda muhim omil bo‘lgan.

Urf-odatlar va diniy e’tiqodlar.

Abu Rayhon Beruniy qadimgi xalqlarning urf-odatlari va diniy e’tiqodlarini chuqur o‘rganib, ibtidoiy jamiyatda mavjud bo‘lgan animizm, totemizm va fetisizm kabi e’tiqod shakllarini tahlil qiladi. Uning yozishicha, dastlabki insonlar tabiat hodisalarini tushuntirish uchun ularni ilohiylashtirgan va turli diniy marosimlarni amalga oshirganlar. Beruniy ayrim xalqlarning quyosh, oy va yulduzlarni iloh sifatida e’zozlashganini ta’kidlab, bu e’tiqodlarning paydo bo‘lish sabablarini ilmiy nuqtayi nazardan yoritadi.

Beruniy qadimgi xalqlarning urf-odatlari va diniy e’tiqodlarini chuqur tahlil qilib, ibtidoiy jamiyatda mavjud bo‘lgan animizm, totemizm va fetisizm kabi diniy qarashlarni muhim ilmiy mavzu sifatida ko‘rsatadi.

Animizm – ibtidoiy odamlar har qanday jonsiz narsaning ruhi yoki ruhi bor deb hisoblaganlar. Tabiat hodisalarini tushuntira olmagan insonlar ularni ruhlar va ma’budlar faoliyati sifatida talqin qilganlar.

Totemizm – ayrim jamoalar ma’lum hayvon yoki o‘simlikni o‘z ajdodlari yoki himoyachisi sifatida e’zozlaganlar. Beruniyning yozishicha, bu e’tiqod turli qabilalar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ijtimoiy birlashuv va jamoaviy hayotning muhim elementi bo‘lgan.

Fetisizm – ibtidoiy odamlar turli narsalarni (to‘qmoq, tosh, idish) ilohiy kuchga ega deb hisoblab, ularni muqaddas deb bilganlar.

Beruniy qadimgi xalqlarning quyosh, oy va yulduzlarni iloh sifatida e’zozlashlari haqida ham batafsil ma’lumot beradi. U yulduzlar harakatining inson hayotiga ta’siri haqidagi e’tiqodlarning shakllanishini o‘rganib, qadimgi xalqlar orasida astronomiya bilimlari rivojlanganini ta’kidlaydi.

Ijtimoiy tuzilma va boshqaruv.

Beruniyning asarida ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy tuzilma va boshqaruv tizimi haqida ham muhim fikrlar ilgari surilgan. U jamiyatning ilk bosqichlarida insonlar o‘zaro teng huquqli bo‘lganliklarini va mulkchilik

tushunchasi hali rivojlanmaganligini ta’kidlaydi. Ammo vaqt o‘tishi bilan ishlab chiqarish vositalarining paydo bo‘lishi va mehnat taqsimotining shakllanishi natijasida jamiyat tabaqalashgan. Beruniyning fikricha, bu jarayon asta-sekin ijtimoiy tuzilmaning murakkablashishiga va boshqaruv tizimining shakllanishiga olib kelgan.

Beruniyning yondashuvi va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Abu Rayhon Beruniy ibtidoiy jamiyatni tadqiq qilishda aniq tarixiy dalillarga asoslangan. U qadimgi xalqlarning turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati va diniy e’tiqodlarini o‘rganib, ularning rivojlanish jarayonlarini tizimli tarzda bayon etgan. Ayniqsa, jamoaviy mulkchilik, mehnat taqsimoti va urf-odatlar ibtidoiy jamiyatning ajralmas qismi sifatida tasvirlangan.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar Beruniyning ko‘plab qarashlarini tasdiqlaydi. Antropologlar va tarixchilar uning qadimgi jamiyatlar haqidagi ilmiy izlanishlari aniq dalillarga asoslanganini qayd etishadi. Bugungi kunda arxeologik topilmalar va etnografik tadqiqotlar Beruniyning fikrlarini tasdiqlovchi qo‘shimcha dalillar sifatida qaralmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Abu Rayhon Beruniy ibtidoiy jamiyatni tadqiq qilishda aniq tarixiy dalillarga asoslangan. U qadimgi xalqlarning turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati va diniy e’tiqodlarini o‘rganib, ularning rivojlanish jarayonlarini tizimli tarzda bayon etgan.[152] Ayniqsa, jamoaviy mulkchilik, mehnat taqsimoti va urf-odatlar ibtidoiy jamiyatning ajralmas qismi sifatida tasvirlangan.

Beruniyning qarashlari zamonaviy antropologik tadqiqotlar bilan taqqoslanganda, uning ko‘plab fikrlari bugungi tarixiy fan tomonidan tasdiqlanganini ko‘rish mumkin. U qadimgi xalqlar orasida bo‘lgan madaniy va ijtimoiy farqlarni batafsil bayon qilib, ularning rivojlanish bosqichlarini tushuntirgan. Mazkur yondashuv ibtidoiy jamiyatni o‘rganishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridagi ibtidoiy jamiyatga doir qarashlari insoniyat tarixining ilk bosqichlarini anglashda muhim manba hisoblanadi. U qadimgi xalqlarning hayot tarzini chuqur o‘rganib, ularning madaniyati, dini va iqtisodiy faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Beruniyning asarlari nafaqat tarixiy ma’lumotlarga boy, balki ilmiy asoslangan yondashuvi bilan ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[152] Shamsutdinov, A. A. (2010). Beruniy va uning ilmiy merosi. Toshkent: Fan.

1. Ergashev, S. M. (2008). Beruniyning ilmiy merosi va uning ahamiyati. Toshkent: Fan.
2. Bobojonov, S. (2012). Ibtidoiy jamiyat va uning rivojlanish bosqichlari. Toshkent: Universitet.
3. Axmedov, A. (2014). O‘rta asrlar tarixida diniy e’tiqodlar va urf-odatlar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
4. Ismailov, I. (2016). Qadimgi xalqlarda ijtimoiy tuzilma va boshqaruv. Toshkent: O‘zbekiston.

MUHAMMAD RIZO OGAHIY IJODIDA ISHQ MAVZUSI

Yaxyaxonova Irodaxon
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi 3-kurs talabasi
El.pochta: yaxyaxonovairodaxon@gmail.com
Ilmiy rahbar: PhD, Fayzullayev A.H.

Annotatsiya: *Maqolada Ogahiy hayot yo‘li, asarlari haqida ma’lumot berilgan. Ishq mavzusida Ogahiyning ba’zi qarashlari aks ettirilgan. Ogahiyning tarjimashunoslik borasida qilgan ishlari shu jumladan Oghiyning ish mavzusidagi qarashlari aks etgan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’viz ul-oshiqin, Guliston, Salamon va Absol, Bahoriston, “Haft paykar”, tasavvuf madaniyati.*

Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy o‘zbek mumtoz adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi ulkan siymolardan biridir. Ogahiy xalqimiz ma’daniyati, adabiyoti va ilm-fani tarixida iste’dodli shoir, mohir tarjimon, yirik muarrix, ma’rifatparvar shaxs sifatida yorqin iz qoldirgan. Aatoqli madaniyat arbobi, klassik she’riyatning mohir ustasi, Xivadagi adabiy harakatning yuksak siymosidir. Ogahiy nihoyatda barakali ijod qilgan. Shoirning “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nomli ulkan devoni bir necha janrlarda yaratilgan 20 ming misradan ziyod she’rdan tarkib topgan. U Xorazm xonligi tarixining turli davrlarini yoritishga bag‘ishlab 5ta mustaqil yirik tarixiy asar yaratgan. Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Salamon va Absol”, “Bahoriston”, Nizomiyning “Haft paykar” kabi o‘lmas badiiy asarlarini, o‘nlab tarixiy kitoblarni mahorat bilan tarjima qilgan. Ogahiy ijodining qimmatli va harakterli tomoni shundaki, u Alisher Navoiy ijodiyotida yuqori pog‘onaga ko‘tarilgan adabiyotdagi eng ilg‘or, eng xalqchil g‘oyaviy-badiiy an’analarni 19-asr sharoitida yuksak darajada rivojlantirdi. Ogahiy she’riyati har qanday bachkanalikdan, o‘rtamiyonachilikdan tamomila xoli yuksak ishqiy-tasavvufiy she’riyatdir. To‘g‘ri, unda falsafiy-tasavvufiy, ijtimoiy-

siyosiy, ta’limiy-axloqiy ohanglar yo‘q emas. Umuman, uning she’riyati rangin. Lekin bu mavzularning aksariyatini birlashtiruvchi narsa ishqdir, muhabbatdir. Ogahiy she’riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo‘lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Ogahiy lirikasining, umuman Ogahiy ijodining salmoqli qismini ishq-muhabbat mavzusi, oshiq va ma’shuqa obrazlari, bular orqali kishining tabiiy tuyg‘usi, sevgi haqidagi fikrlari egallaydi. Jamiyatda, hayotda sevgiga munosabat dastlab Ogahiy lirikasining umumiy ruhida hazinlik, nadomat motivini ustun qiladi: oshiqlar, ko‘pincha yoriga yetolmaslik xususida chuqur hayajon, nadomat bilan hasrat qiladi. Ogahiy lirikasi umumiy ruhidagi bu hazinlik xursandchilikdan ko‘proq hasrat motivlarini ustunligi shoirning shaxsiy tuyg‘usi yoki qobilyatidagi biron nuqson natijasi sifatida yuzaga kelgan emas: aksincha, bu Ogahiyni ulug‘ insonparvar o‘z ijodida bevosita hayotdan oziqlangan, sevgi masalasida ham davrining asosiy xususiyatlarini ko‘ra bilgan realist sifatida gavdalantiradi. Ogahiy lirikasida sevgi bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday tuyg‘u-kechinmalar asosan ikki obraz: oshiq va ma’shuqa obrazlari orqali ifodalanadi. Bu obrazlar oshiqning, shu bilan birga, shoirning bu masalaga munosabati, oshiqning sevgi bilan bog‘liq bo‘lgan turli kechinmalari: visol, hijron, firoq, rashq va hakazo tusidagi tuyg‘ularini ifodalash yo‘sinida ko‘rinadi.

Ogahiy ijodining qimmatli va xarakterli tomoni shundaki, u Alisher Navoiy ijodiyotida yuqori pog‘onagacha ko‘tarilgan adabiyotdagi eng ilg‘or, eng xalqchil g‘oyaviy-badiiy an’analarni XIX asr sharoitida yuksak darajada rivojlantirdi. Insonning ko‘ngil hayotiga teran kirib borgan shoir din, axloq, ma’naviyat, adolat to‘g‘risida ham o‘z fikr-xulosalarini ochiq-oydin izhor qila olgan edi. Uningcha:

Maoniy bog‘ini dono qilur sayr,
Qachon qilg‘ay oni nodon tamosho.

So‘zdan, ya’ni so‘z izidan ma’niga tomon sayrni o‘rgangan kishi so‘z holati, so‘z taqdiri va tarixini ham bemalol biladi. Xuddi tirik mavjudotga o‘xshab, so‘z va kalimalar ham tug‘iladi, yashaydi: ba’zi birlari uzoq umr kechirsa, ayrimlarining umri qisqaroq bo‘ladi. Vaqt va zamon o‘tishi bilan so‘zlarning ohangi, ma’no va shakllarida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lishi yoki yangi mazmun, o‘zgacha bir zavq bilan boyishi ularning jonli mavjudlik ekanidan dalolat beradi. Buni Ogahiy g‘azallarida ishqiy, ma’rifiy, axloqiy ma’nolarning bir butun tarzda ifodalanishidan ham ilg‘ash mumkin. Ogahiy ayni bir she’rda bir necha ma’nolarni aks ettirishda mahorat ko‘rsatgan shoir. Shuning uchun tasavvufiy ma’nolar ham uning she’rlarida xuddi javharday, nurday singib ketgandir[153].

[153] «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2009 yil 50-sonidan olindi.

Tasavvuf madaniyati, faoliyat va tafakkuri islomiy dunyoqarash va tushunchaning ajralmas bir qismi ekanligi ilmda qayta-qayta ta’kidlab o‘tilgan. Xoh biror shayx yoki murshidga ergashsin, xoh o‘zi mustaqil harakat qilsin, ishtiyoqli har bir kishi bu ishq, irfon xazinasidan foydalangan. Tasavvuf tajribasi singari uning mavzusi ham dastlabki davrlarda ancha oddiy va oson anglashinarli bo‘lgan. Tariqatlar bosqichi boshlanib, tasavvufga falsafa (ayniqsa, yunon falsafasi) kirib kelgach, so‘fiylik vaqt o‘tgani sayin murakkablashib, har turli fikr qarama-qarshiligi, maslak tortishuvlarining shiddatli girdobiga o‘xshab qolgan. Buning tub sababini arab olimi Abul A’lo Afifiy shunday izohlaydi: “Tasavvuf yagona bir manbaga asoslanmagan yoki tug‘ilish va taraqqiyotini toq bir zaminga bog‘lab bo‘lmas darajada ziddiyatli bir oqimdir. Xuddi shu sababdan tasavvufga bag‘ishlab tadqiqotlar yaratgan atoqli g‘arb olimlari dastlab to‘g‘riligiga ishongan fikr-qarashlarini hayotlarining oxirlarida tark etaroq, masalaga boshqa tomondan yondashganlar...”. Bizda esa, aksincha: tasavvufga bir yoqlama munosabat, xato, yakrang, sayoz gaplarni takrorlash go‘yoki bir “udum” bo‘lib qolgan. Buning bir qancha sabablari bordirki, biz ulardan ikkitasiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Birinchisi, Abu Nasr Sarroj ta’kidlaganidek, tasavvufni o‘rganish, uning u yoki bu masalasi ustida bosh qotirib, ma’lum bir xulosaga kelish aqlga shodlik bermaydi. Bil’aks: aql va idrok, dard va iztirobga chuqur oshno bo‘lishi, fano va baqoni teng ko‘rishi, holga teskari amalga, amalga zid hollarga imkon qadar barham berishiga to‘g‘ri keladi.

“Yorima ayting” g‘azalida shoir badiiy san’atning nido san’ati (ey do‘stlarim), istiora (la’li shakarborim, ko‘zlari bemorlig‘im, parizodi vafodorim), tanosib (qatl, qotilvash, qon, kushu, xunxor) va mubolag‘a san’atidan mohirona foydalangan. Bu esa asarning badiiy ta’sirchanligini yanada oshirgan. G‘azal hazaj bahrida (hazji musammaniaxrabi makfufi mahzuf: maf’ulu mafoiylu mafoiylu faulun) yozilgan. Ayting so‘zi qofiyadan so‘ng takrorlanib radif vazifasini bajargan. G‘azalning qofiyasi (yorima shakarborima, bemorima, afgorima, dilozorima, xunxorima, jafokorima) raviydan keyin harflar kelganligi uchun mutloq qofiya hisoblanadi. Qofiyalarda R harfi paviy hisoblanadi. G‘azalda oshiqning o‘z yoriga - ma’shuqasiga bo‘lgan muhabbati samimiy, ham nihoyatda chuqur ekanligi tasvirlangan. Oshiqning sevgi tuyg‘ulari, orzulari nihoyat darajada tabiiy, bu tufayli o‘quvchiga chuqur ta’sir qiladi. Bu tabiiy va reallik g‘azalga uzoq umr baxsh etadi. Shoir merosidagi barcha fikr va g‘oyalar ishq tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Barkamol inson barkamol dunyoni, buyuk vatanni, qudratli millatni yaratadi. Inson barkamol bo‘lishi uchun, avvalambor, ruhan ozod bo‘lishi shart. Puhan ozodlik bu parhezkorlik, halollik, adolat, qanoat, sadoqat, mehr-oqibat kabi qator amallar bilan

chambarchac bog‘liq. Xo‘sh, ruhiy ozodlikka qanday erishish mumkin? Bu juda mashaqqatli, iztirobli yo‘l. Ammo, insonni haqiqiy hurlikka, ruhiy ruhiy kenglikka olib chiquvchi birgina vosita bor. U ham bo‘lsa - ishq. Anashu ishq orqali kishi Ollohga yetadi. O‘zining va olamning mohiyatini, sir-asrorini anglaydi. Ogahiy ijodida ishq mavzusi shunday g‘oyalarni ilgari suradi.

Ogahiy ijodi haqida umuman xulosa tarzda aytish mumkinki, Muhammad Rizo Ogahiy o‘zbek mumtoz adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi ulkan siymolaridan biri hisoblanadi. U ijodida sevgi va ishq mavzularini chuqur falsafiy va tasavvufiy mazmun bilan boyitgan. Ogahiy she’rlari inson qalbining nozik tuyg‘ularini, oshiq va ma’shuqa munosabatlarini visol, hijron va rashq kabi kechinmalar orqali tasvirlagan. Shoirning ijodida sevgi nafaqat romantik his-tuyg‘u, balki ilohiy haqiqatga eltuvchi yo‘l sifatida tasvirlanadi.

Ogahiy tasavvufiy madaniyatni yuksak mahorat bilan she’riy janrlarda aks ettirgan, tarjima asarlarida esa o‘z davrining xalqchil va badiiy ilg‘or g‘oyalarini rivojlantirgan. Shoirning asarlari, xususan, "Ta’viz ul-oshiqin" devoni, o‘zbek adabiyotining estetik va ma’naviy boyliklarini yuksak darajaga olib chiqdi. Ogahiy ijodi inson ruhan ozodligi va barkamolligini targ‘ib qiluvchi asarlar orqali o‘z davrining ijtimoiy va madaniy manzarasini aks ettiradi.

Uning ijodi, xususan, ishq mavzusidagi g‘oyalari, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida yuksak o‘rin tutadi va zamonaviy o‘quvchilar uchun ham qimmatli ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiahmedov A. She’r san’atlarini bilasizmi? Toshkent, Sharq nashriyoti. 1999. 94 .
2. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti, 1964. B-347- 376.
3. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. B-221-232.
4. Navoiy asarlar lug‘ati. Alisher Navoiy asarlarining o‘n besh tomligiga ilova. Toshkent. G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1972. 782
5. Ogahiy she’riyatidan. Toshkent. 1983. 120 b.
6. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. Toshkent. O‘zbekiston FA nashriyoti. 1953. 238
7. Munirov Q. Ogahiy. Toshkent, O‘zbekiston FA nashriyoti. 1969. 54b

8. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. 22b 9.Mallayev M., Karimov K., Ismatov I. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘qituvchi. 1982

USMONİYLAR TARİXSHUNOSLİGİNİNG O‘ZİGA XOS JIHATLARI: “MANOQİBNOMA” VA “G'AZOVATNOMA” TURKUMİDAGI ASARLAR HAQIDA

Mushtariybegim Xolmirzayeva
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)” yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I.B. Xudoynazarov

Annotatsiya*: Maqolada Usmonli tarixshunosligi uning shakllanishi, rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Usmonli tarixshunosligi fors va arab tarixshunosligi an'analaridan kelib chiqqan, ammo o'ziga xos uslubga ega bo'lgan. Usmonli imperiyasining ilk davrlaridagi tarixiy yozuvchilik “manoqibnoma” va “g‘azavotnoma” turkumidagi asarlarda rivojlangan. Bu asarlarda afsonalar va qahramonlik hikoyalari muhim o'rin tutganligi yoritib beriladi. Usmonli tarixshunosligining rivojlanish bosqichlari, xususan, XV asrdan boshlab tarixiy asarlar yozila boshlagani haqida ma’lumotlar beriladi. Usmonli tarixchilarining islomiy dunyoqarashi, ummat tushunchasi va millatchilik oqimining ularning asarlariga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, Usmonli tarixshunosligining Yevropa tarixshunosligidan orqada qolish sabablari tahlil qilinadi. Maqola Usmonli tarixshunosligining o‘ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanish bosqichlari, kuchli va zaif tomonlari haqida ma’lumot beradi.*

Kalit so‘zlar: *Usmonli imperiyasi, tarixshunoslik, manoqibnoma, g‘azavotnoma, Islom dunyosi, millatchilik, Yevropa tarixshunosligi, an’anaviy tarixshunoslik, Tanzimat davri, ilmiy tafakkur.*

XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida tashkil topgan Usmonli imperiyasi olti asr davomida hukm surgan va dunyoning eng uzoq humronligini saqlab qola olgan davlatlaridan biridir. Davlatlar o‘z hukumronligini uoq muddat saqlab qolishigani uchun byurokratik qonunlar, ijtimoiy va madaniy institutlarga qarzdordir. Bu nuqtai nazardan Usmonlilar davlati ham siyosiy ham harbiy institutlar bilan bir qatorda yaxshigina

rivojlangan ta’lim, madaniyat va jamoaviy tashkilotlar bilan hamkorlik tarzida ish olib borgan[154]. Bu madaniy faoliyatlar barobarida tarix va tarixshunoslikni ham aytib o‘tish mumkin. Biroq Usmonli davlati tashkil topgan davrdanoq tarixshunoslik va tarix yozish ishlari birvarakayiga boshlab yuborilmagan. Aksincha, davlat tashkil topganidan ancha keyin dastlabki namunalar berib boshlangan. Bu holat esa o‘z navbatida bir nechta noma’lum jihatlarga ega bo‘lib, tarixchilar orasida davlatning tashkil topish davri bilan bog‘liq tortishuvlarga sabab bo‘lib kelmoqda. Shu sababli bu davrga oid tadqiqotlar hali ham davom etmoqda.

Usmonli imperiyasi tarixshunosligi fors va arap tarixshunosligining davomchisi sifatida qaraladi[155]. Biroq, olti asr davomida sayqallangan tarixchilik usmonli uslubi deb nomlanuvchi yangi yondashuvning shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuv arap va fors yondashuvidan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turgan. Shu bilan bir qatorda, Usmonlilarning tashkil topish davri bilan bog‘liq biror tarixiy an’anaga ega bo‘lganligini aytish qiyin[156]. Shu sababli tarixiy yozuvchilik tarixchi olim Frans Babinger ta’biri bilan aytganda, soda, tajribasiz va dostoniy ruhda boshlangan. Usmonli Beyligi fath va g‘azavot ruhida shakllangan bo‘lib, chegaralarda akinchilar, beylik sardorlari va dervish gazilarning faoliyati orqali kengayib borgan. Usmonlilar tarixiy an’analarga ergashgan holda, qo‘shni nasroniy davlatlar bilan kurash olib borishgan va bu kurashni o‘z tamaddunining muhim jihatlaridan biri sifatida qabul qilishgan. Shu sababdan, bu davrdagi tarixiy yozuvchilik asosan an’anaviy qahramonlik hikoyalari va urush tafsilotlariga asoslangan “manoqibnoma” hamda “g‘azavotnoma” janridagi asarlar shaklida rivojlangan. Manoqibnomalar tarixiy haqiqatga yaqin bo‘lsada, siyosiy voqealar va harbiy yurishlarini diniy tasavvurlar bilan sayqallagan hikoyalar edi. Bu hikoyalarda muallif ba’zan qahramonlarni bo‘rttirish orqali tarixiy asarlar yozgan. Shunga qaramasdan bu hikoyalar Usmonlilarning ilk tarixiy bosqichini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Usmonlilarda tarixshunoslik sohasining boshlanishiga turtki bo‘lgan yana bir boshqa sabab ham bor edi. Bu davrda Eronda Safaviylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan va ularga qarshi qonuniylik uchun kurash olib borilayotgan edi. Istanbul fathchisi Mahmud II dan boshlab Usmonli sultonlari o‘zlarini Islom olamida eng buyuk islom davlati egasi ekanliklarini dav’o qilishayotgan edi. Boyazid II davlat tarixining shu nuqtayi nazardan yozilishi uchun o‘sha davrning mashhur munshiylarini

[154] Arıker, Samet. Osmanlı Tarih Yazıcılığı. Iğdır Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, Sayı: 8, Ekim 2015, ss. 199-217.

[155] . https://www.derintarih.com/tarihci-gozuyle/osmanlida-resmi-tarih-yaziciligi/

[156] Akbulut, Uğur. Osmanlı Tarih Yazıcılarına Göre Tarih ve Tarihçi. Doktora tezi, Atatürk Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Erzurum, 2006. S-12.

keng qamrovli Usmonli tarixini yozishga taklif qilgan. Ular orasida Kamol Poshazoda, Idris-i Bitlisiy va Ruhiy bor edi.

Ikkinchi beyliklar davri tarixshunosligi. XIII va XIV asrlarda Anadoluda yozilgan asarlarda asosan Anadolu Saljuqiylari va Anadolu beyliklarining tarixi yoritilgan. Ushbu manbalar Usmonlilar davlati tashkil topganiga qadar yetib kelgan. Anadolu Saljuqiylari davrida yozilgan asarlar asosan arab va fors tilida bo‘lgan. Turk tilida yozilgan “Donishmandnoma” va “Battolnoma” Anadoluda turk tilidagi tarixchilikning boshlanishi edi. Bu davrning muhim tarixiy manbalari quyidagilardan iborat: Ibn Bibi – “Al-Avomir al-Alaiyya fi-l-Umur al-Alaiyya” (Oliy ishlarga oid farmonlar), Aksarayi – “Musamerat al-Akhbar va Musayerat al-Ahyar” (Xabarlar majlisi va yaxshilar bilan yurish), “Manaqib al-Arifin” (Oriflar fazilatlari). Usmonlilar davlatining tarixiga oid yozma manbalar XV asrdan boshlab yozila boshlagan. Shu sababli XV asrning ikkinchi yarmi ayniqsa Murod II davri, Usmoniylarda tarixshunoslikning boshlanishi hisoblanadi[157].

Ma’lumki, Usmonli davrida tarixshunoslikda asosan Islom dunyosiga yo‘naltirilgan tadqiqotlar markaziy o‘ringa ega bo‘lgan. Ayniqsa, Usmonli davlatida mavjud bo‘lgan ummat tushunchasi bu yondashuvning qo‘llanilishiga imkon yaratdi[158]. Bu holat XVIII asr oxirida paydo bo‘lgan va butun dunyoga tarqalgan. Millatchilik oqimi Usmonli tarixchilariga XIX asrgacha ta’sir o‘tkazishda davom etdi. Bu davr ziyolilari orasida turklarning qadimiy tarixi, ayniqsa, Usmonlilardan oldingi davrga qiziqish ortib bordi va shu mavzuda tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj sezildi. Natijada, bir qancha tarixiy asarlar yaratildi. Masalan, Mushir Sulaymon Posho “Tarihi-i Âlem” nomli asarni yozib, bu sohada ilk ilmiy ish sifatida taqdim etdi. Keyinchalik, Ahmad Vefik Posho Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajara-i turk va mog‘ul" asarini tarjima qilib, uning ayrim qismlarini chop ettirdi. Biroq, turk tarixiga oid dastlabki to‘liq ilmiy tadqiqot Nejip Asim Bey tomonidan yozilib, 1900-yilda “Turk Tarixi” nomi bilan nashr etildi. Shunga qaramay, millatchilik oqimidan ilhomlangan tarixchilarning milliy urg‘ulari Sulton Abdulhamid II tomonidan zararli deb topildi. Bu turdagi tarixiy asarlarning yanada ko‘proq nashr etilishiga ruxsat berilmadi[159]. Usmonli tarixshunosligi o‘rta asrlarning an’anaviy tarixshunosligidan bir qadam oldinda bo‘lsa-da, o‘z davrining Yevropa tarixshunosligidan “usul va bilim” jihatidan orqada qolgan. XV asrdan XIX asrgacha bo‘lgan to‘rt asr davomida, Usmonli tarixchilari orasida izchillik bo‘lmagan. Usmonli davri tarixchilik an’anasi, umumiy ma’noda jahon O‘rta asr tarixchiligidan

[157] Yücel, Muallâ Uydu. “Cumhuriyetin 100. Yılında Türkiye’de Doğu Avrupa Türk Tarihi Çalışmaları.” Tarih Dergisi - Turkish Journal of History, cilt 81, sayı 3, 2023, s-468.

[158] https://play.google.com/store/books/details?id=t0bbDwAAQBAJ

[159] . Çetinkaya, Bayram Ali (Ed.). Doğu’dan Batı’ya Düşüncenin Serüveni: Medeniyet Projelerinin İnşa Sürecinde Çağdaş İslâm Düşüncesi. 10. Cilt, İnsan Yayınları, 2015. S-152

butunlay farq qilmaydi. Ba’zan bu davr voqe‘navislarining boshqaruv va hukmdorlarni ozgina bo‘lsa-da tanqid qilgani ko‘zga tashlanadi, ammo bu davrda ham afsonalar va haqiqiy voqealar o‘rtasida aniq chegara qo‘yilmaydi. Hodisalar rivoyatlarga asoslanib, haqiqat kabi tasvirlanadi. Bir Usmonli voqe‘navisi, yashagan asri ichida olib qaralganda, qiziqarli jihatlarga ega bo‘lgan, autentik tarixchidir[160]. Saljuqiylar davrida ustunlik qilgan fors tilida tarix yozish an’anasi, bu davrda murakkab uslubda bo‘lsa ham, asosan turk tilida davom etgan. Bu davr tarixchilari o‘z e’tiqodlarining ta’sirida yozgan bo‘lib, bu e’tiqodlarda davlat va nizām-i ālem (olam tartibi) ideologiyasi muhim o‘rin tutadi. Abdulqodir O‘zjan ham Usmonli tarixchilik an’anasi Yovuz Sulton Salim davrigacha Eron ta’sirida bo‘lganini, Misr fathidan so‘ng esa arab ta’siriga tushganini ta’kidlaydi[161]. Usmonlilar taraqqiyot davrida Yevropaning eng qudratli davlati bo‘lib, harbiy va iqtisodiy ustunlikka ega edilar, boy konlar va savdo yo‘llarini nazorat qilar edilar, eng so‘nggi va eng to‘g‘ri din o‘zlarida deb hisoblar edilar. Bu omillar natijasida o‘zlarini moddiy va ma’naviy jihatdan Yevropaliklardan ustun deb bilganlar. Ilk davrlarda Yevropani va u yerdagi taraqqiyotni yaqindan kuzatish imkoniga ega bo‘lgan Usmonli imperiyasi vaqt o‘tishi bilan bu imkoniyatdan mahrum bo‘lib, ayniqsa texnik sohalarda bilimlarni chetdan qabul qila boshladi. Bu davrda Usmonli davlati g‘alaba qozonishi uchun armiyani zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va texnik bilimlarga ega zobitlar tayyorlashga e’tibor qaratdi. Boshqacha aytganda, G‘arb ilmlari asosan harbiy va fuqarolik ehtiyojlarini qondirish uchun muhim deb hisoblandi. Tanzimat davrida Usmonli davlatida G‘arb ilmini o‘zlashtirishga harakat qilindi, lekin fundamental fanlar chuqur o‘rganilmadi va mustaqil ilmiy tafakkur shakllanmadi. Ko‘pchilik Yevropa fanining asl mohiyatini to‘la anglab yetmadi. Uni tushungan ayrim davlat arboblari va olimlar esa bu bilimlarni to‘g‘ri yo‘nalishda rivojlantirish uchun kerakli muassasalarni tashkil etmadi. Usmonli ziyolilari diniy asoslangan an’anaviy qarashlardan voz kechgan bo‘lsa ham, G‘arb ilm-fanini chuqur tushunmay, yuzaki va noaniq qarashlarga ega bo‘ldilar. Bu tendensiya keyinchalik Konstitutsiyaviy monarxiya va respublika davrlarigacha davom etdi. Turk tarixining yozilishida asarlarning nisbatan kamligi e’tiborga loyiq jihatlardan biridir. Biroq bu, turklarning tarixiy ta’siri yetarli bo‘lmagani yoki yetuk tarixchilar yetishmaganini anglatmaydi. Shuningdek, tarix kitoblarida turklarga umuman e’tibor berilmagan deb bo‘lmaydi. Bu kamchilikning sabablari turli omillar bilan izohlanadi.

[160] “Autentik tarixchi” – bu tarixiy voqealarni ishonchli, xolis va manbalarga sodiq holda yoritadigan tarixchini anglatadi. "Autentik" so‘zi asli lotincha "authenticus", yunoncha "authentikos" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "haqiqiy", "asl", "soxtalashtirilmagan" degan ma’nolarni bildiradi.

[161] Abdülkadir Özcan, "Osmanlılar'da Tarih Yazıcılığı", İlim ve Sanat, sayı: 33, Ağustos 1992, 35

Usmonli tarixshunosligi o‘zining shakllanishidan boshlab, davlat mafkurasi va jamiyat talablariga mos ravishda rivojlangan. Ilk asarlar sulola shajarasi va harbiy g‘alabalarni madh etish uchun yozilgan bo‘lsa, keyinchalik tarixiy voqealar xronologik va tahliliy jihatdan boyitilgan. Fors va arab an’analarining ta’siri dastlab kuchli bo‘lgan, biroq vaqt o‘tishi bilan Usmonli tarixchiligi o‘ziga xos milliy uslubni shakllantirdi. XIX asrga kelib, G‘arb ilmiy metodlari ta’sirida tarixiy tadqiqotlar tanqidiy va tizimli tus oldi. Usmonlilarning milliy o‘zlikni mustahkamlashga qaratilgan tarixshunosligi zamonaviy tarix ilmining poydevorini yaratdi. Bu jarayon Usmonli tarixchiligining davlat mafkurasi vositasidan mustaqil ilmiy soha sari yo‘nalganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, Usmonli tarixshunosligi o‘z davrining siyosiy, madaniy va ilmiy ehtiyojlariga moslashgan. O‘z navbatida Sharq va G‘arb an’analarining uyg‘unlashuvi orqali mustahkam ilmiy meros qoldirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arıker, Samet. Osmanlı Tarih Yazıcılığı. Iğdır Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, Sayı: 8, Ekim 2015, ss. 199-217.
2. Akbulut, Uğur. Osmanlı Tarih Yazıcılarına Göre Tarih ve Tarihçi. Doktora tezi, Atatürk Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Erzurum, 2006. S-12.
3. Yücel, Muallâ Uydu. “Cumhuriyetin 100. Yılında Türkiye’de Doğu Avrupa Türk Tarihi Çalışmaları.” Tarih Dergisi - Turkish Journal of History, cilt 81, sayı 3, 2023, s-468.
4. Çetinkaya, Bayram Ali (Ed.). Doğu’dan Batı’ya Düşüncenin Serüveni: Medeniyet Projelerinin İnşa Sürecinde Çağdaş İslâm Düşüncesi. 10. Cilt, İnsan Yayınları, 2015. S-152
5. https://www.derintarih.com/tarihci-gozuyle/osmanlida-resmi-tarih-yaziciligi/
6. https://play.google.com/store/books/details?id=t0bbDwAAQBAJ

SHARQIY TURKISTON VA DUNXUANNING INGLIZ TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI (XX ASR)

Tosheva Muhayyo
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarix (mintaqa va mamlakatlar bo‘yicha)”
magistratura mutaxassisligi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola XIX–XX asr boshlarida G‘arb olimlarining Sharqiy Turkistonni o‘rganishdagi faoliyati va ilmiy*

izlanishlari haqida so‘z yuritadi. Tadqiqotlar Germaniya, Yaponiya, Turkiya, Rossiya, Koreya va Fransiyada olib borilib, O‘rta Osiyoning boy qo‘lyozma merosiga hamda turkologiya sohasidagi akademik an’analarga asoslangan. Ayniqsa, Aurel Stain, Sven Xedin, Frensis Yangxusband, Robert Shou, Genri Lansdell, Hamilton Bowel kabi tadqiqotchilar bu hududning tarixiy-madaniy rivojlanishiga oid qimmatli materiallarni jamlagan. Ularning ekspeditsiyalari natijasida qadimgi Ipak yo‘li yo‘nalishlari, uyg‘ur madaniyati, arxeologik yodgorliklar va Sharqiy Turkistonning geosiyosiy ahamiyati bo‘yicha muhim ilmiy xulosalar chiqarilgan. Ushbu maqolada tadqiqotchilarning ish uslublari, ularning topilmalari hamda Markaziy Osiyoda Britaniya va Rossiya o‘rtasidagi “Buyuk o‘yin” jarayonidagi o‘rni ham batafsil yoritilgan.

Annotation: *This article discusses the activities and scientific research of Western scholars in studying Eastern Turkestan during the late 19th and early 20th centuries. Research was conducted in Germany, Japan, Turkey, Russia, Korea, and France, relying on the rich manuscript heritage of Central Asia and academic traditions in Turkology. In particular, researchers such as Aurel Stein, Sven Hedin, Francis Younghusband, Robert Shaw, Henry Lansdell, and Hamilton Bower collected valuable materials on the historical and cultural development of the region. Their expeditions resulted in significant scientific conclusions regarding the ancient Silk Road routes, Uyghur culture, archaeological monuments, and the geopolitical significance of Eastern Turkestan. This article also explores the research methods of these scholars, their discoveries, and their role in the "Great Game" between Britain and Russia in Central Asia.*

Uyg‘urlarning ilk davrlari bo‘yicha tadqiqotlar asosan Germaniya, Yaponiya, Turkiya, Rossiya, Koreya va Fransiyada olib boriladi. Ular nafaqat O‘rta Osiyoning boy qo‘lyozma to‘plamlariga suyanishgan, balki bu mamlakatlardagi turkologiyadagi akademik an’analarga ham asoslanadi. Rossiya tadqiqotchilari izidan XX asrning dastlabki yigirma yilligida Sharqiy Turkistonda ingliz, fransuz, nemis, italyan va yapon tadqiqotchilari tomonidan keng ilmiy izlanishlar boshlandi. Bu davrga kelib Rossiya olimlari ham ekspeditsiyalarini davom ettirdilar.

1900-yilda Sharqiy Turkistonning eng serqirra tadqiqotchisi Aurel Stain o‘z faoliyatini boshladi. Stayn 1862-yilda Vengriya Qirolligining Budapesht shahrida yashovchi yahudiy er-xotin Natan Shtayn va Anna Xirshler oilasida tug‘ilgan. A. Stain faoliyatining asosi nafaqat uning ekspeditsiyalari Turkiston vohalarini keng hududiy qamrab olganligi emas, balki Shinjonning Xitoy, Hindiston va Afg‘oniston bilan tarixiy-madaniy aloqalarini o‘rnatishini o‘rganishida hamdir. A.Steinning Turkistonning

tarixiy-madaniy muammolariga bo‘lgan keng va rang-barang qiziqishi uning fundamental asarlari va ma’ruzalarida turli tadqiqot mavzularida yaqqol ifodalangan. Uning asarlarida tarix, tarixiy geografiya, madaniyat tarixi, san’at va din, numizmatika, til va filologiyaning umumiy masalalari va nihoyat, arxeologiyaning bir qator maxsus savollarini javob topish masalalari mavjud. Britaniya kutubxonasining Stein nomli xitoy, tibet va tangut qo‘lyozmalari, prakrit yog‘och lavhalari va xo‘tan, uyg‘ur, so‘g‘d va sharqiy turkiy tillardagi hujjatlar to‘plami uning 1920—1930-yillarda Markaziy Osiyo bo‘ylab qilgan sayohatlari natijasidir. Stayn Xotanga tashrif buyurganida, u turkiy tildagi mahalliy “Shohnoma”ni topgandan so‘ng “Shohnoma”ning bir qismini fors tilida tarjima qilishga muvaffaq bo‘ldi.[162]

A.Steyn tadqiqotlarining arxeologik diapazoni neolit davridagi Lop Nor (“Taklamakanning paleolit manzilgohi”)dan tortib, Sariko‘l va Oltoyning hozirgi aholisining etnografik eskizlarigacha o‘z ichiga olgan edi. A. Steyn bilan birgalikda materiallarini qayta ishlashda ishtirok etgan yirik va yuqori malakali, xalqaro tarkibli jamoa Sharqiy Turkiston tarixida bir qator hal qiluvchi davrlarning barpo etilishini ta’minladi. Misol uchun, E. Chavannes va Lionel Giles (sinologiya), Gautier, Reichelt, Andreas (so‘g‘d hujjatlari), Siegl va Siegeling, Konov, Lyuders, Bayley, Silvan Levy, Gernle, Bayer, Rapson, Senard (Saka va toxar matnlari), Tomsen, Myuller (qadimgi turkiy va uyg‘ur hujjatlari), Tomas (tibet), Alan (numizmatika), Endryu (tarixiy texnologiya) va boshqalar nomlarini A. Stein nomi bilan birga tilga olishimiz mumkun.[163] Bu jamoa, birinchi navbatda, ekspeditsiya rahbari A. Steinning shaxsiy tarixiy qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, har doim eng muhim tarixiy va madaniy muammolarni yechishga kirishishdi.

1900-1901 yillarda A. Stein Xo‘tanga ekspeditsiya uyushtirdi[164], 1906-1908 yillarda Sharqiy Turkiston bo‘ylab Dun Xuangdan to Turfongacha ikkinchi va uchinchi sayohatni amalga oshirdi va buning natijalari uning mashhur Sorindiyasida bayon etilgan.[165] A. Stein bu yerga 1900-yilda kelganida Qashg‘ar o‘n yil avval Younghusband va Xedin tashrif buyurgan jonli bozor mavjud bo‘lgan shaharchasidan deyarli farq qilmasdi. Uning 40 000 aholisi ikkita alohida tumanda, katta qismi asosan musulmon uyg‘urlar yashaydigan Muhammad shahri deb nomlangan va janubdagi

[162] Mirsky J. Sir Aurel Stein: Archaeological Explorer. University of Chicago Press. 1998. – P. 146.

[163] Бернштам А.Н. Проблемй истории Восточного Туркестана. Иссуэс оф тҳе ҳисторй оф Эаст Туркистан // Вестник древнеи истории. 1947. – С. 51.

[164] Ancient Khotan, TT. I и II; “Sand-Buried Ruins of Khotan” – London, 1903. – P. 90.

[165] Serindia, TT. I-V, – Oxford, 1921 – P. 8.

Yangi shaharda yashagan, aholisi asosan Xan xitoylari edi[166]. 1913-1916 yillarda u o‘z tadqiqotlarini Xitoy ohaktoshlarini o‘rganish bilan to‘ldirdi[167].

Stayn, shuningdek, uning raqiblari Sven Xedin, ser Frensis Yangxusband va Nikolay Prjevalskiylar Buyuk o‘yin deb ataladigan Markaziy Osiyoda ta’sir o‘tkazish uchun Britaniya-Rossiya kurashida faol ishtirok etganlar. Ularning izlanishlari Britaniya va Rossiya imperiyalari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, chunki ular xaritalarda qimmatli ma’lumotlar bilan ta’minlangan “bo‘sh joylar” ni to‘ldirib, siyosiy ta’sir uchun, arxeologik tadqiqotlar davomida yangi “ta’sir doiralarini” yaratdilar[168].

Podpolkovnik ser Frensis Edvard Younghusband Britaniya armiyasi zobiti, tadqiqotchi va yozuvchi edi. Uzoq Sharq va O‘rta Osiyo bo‘ylab qilgan sayohatlari bilan yodda qolgan. 1904-yilda Britaniyaning Tibetga o‘zi boshchiligidagi ekspeditsiyasi hamda Osiyoga sayohati davomida yig‘gan qimmatli ma’lumotlari uchun qadrlanadi. Younghusband Britaniyaning Tibetdagi komissari va Qirollik Geografiya Jamiyati prezidenti lavozimlarida ishlagan. 1890-yilda Younghusband tarjimon sifatida Jorj Makartni hamrohligida Xitoy Turkistoniga missiyaga yuboriladi.

Birinchi marta 1896-yilda Oksfort universiteti bosmaxonasi tomonidan nashr etilgan 407-betdan iborat “The Heart of a Continent: A Narrative of Travels in Manchuria, Across the Gobi Desert, Through the Himalayas, the Pamirs and Chitral, 1884-94” asarida Younghusbandning Manjuriya va Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab Xitoy Turkistoniga qilgan sayohati haqida hikoya qilinadi.

Bu hikoya sayohatchiga o‘sha paytda Rossiya va Buyuk Britaniya tomonidan Markaziy Osiyo uchun bo‘lib o‘tgan Katta O‘yinning qiyinchiliklari, kamchiliklari va yutuqlaridan bahramand bo‘lish imkonini beradi. Ushbu asar 19 bobdan iborat bo‘lib Sharqiy Turkiston haqidagi ma’lumotlar uning 5-bobi (Across the Gobi desert) dan 15-bobi (Kashgar to India) gacha berib o‘tilgan. Ushbu asarda muallif sharqiy turkistonning iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, geografiyasi, aholisining urf-odatlari, bozorlari, cho‘llari, mahalliy uy joylarining tuzilishi haqida juda qimmatli ma’lumotlar berib o‘tadi. Bundan tashqari Younghusband Qashg‘arda

[166] Karl E.M. Shareen B.E. Tournament of Shadows: The Great Game and the Race for Empire in Central Asia. 1999 – P. 356.

[167] Ruins of desert Cathay. – London, 1912. qarang: “A third Journey of Exploration in Central Asia 1913-1916” в “The Geographical Journal”, 4016, aug. sep. Краткое описание путешествий см. в сжатом изложении в отдельной книге “In Ancient Central Asia Tracks”, – London, 1933. – P. 190.

[168] Karl E.M. Shareen B.E. Tournament of Shadows: The Great Game and the Race for Empire in Central Asia. 1999 – P. 368.

yashaydigan Andijonliklar va ularning do‘konlari haqida ham to‘xtalib o‘tgan[169].

Ser Jorj Makartni XIX asr oxirida Qashqardagi Britaniya bosh konsuli edi. Keyinchalik uning o‘rnini Persi T. Eterton egalladi. Makartni Shinjonga 1890-yilda Younghusband ekspeditsiyasi uchun tarjimon sifatida kelgan. U 1918-yilgacha Qashg‘arda qoldi. Uning Sharqiy Turkistonning tarixi, iqtisodiyoti, siyosiy hayoti va madaniyati haqida bir qancha kitoblari mavjud. Ulardan “Eastern Turkestan: The Chinese as Rulers over an Alien Race” kitobi Londonda “Markaziy Osiyo jamiyati materiallari” rukni ostida chop etildi, “Chinese Turkistan: Past and Present” hujjatlar to‘plami ”Buyuk Britaniya Qirollik Instituti a’zolari yig‘ilishlarida ish yuritish haqida xabarlar” 1917-1919-yillarda chiqqan jurnalining 22-jildida chop etilgan.

Robert Barkli Shou britaniyalik tadqiqotchi va diplomat edi. U O‘rta Osiyodagi Qashg‘arga kelgan ilk ingliz sayohatchilardan biri bo‘lgan va mahalliy rahbarlar bilan aloqa o‘rnatgan, keyinchalik bu hududga kelgan diplomatik ekspeditsiyaning a’zosi bo‘lgan. U sarguzashtlarga juda qiziqardi va Qoraqoram shimolidagi o‘sha paytdagi deyarli noma’lum mamlakatni o‘rganishga otlandi. Bir-ikkita ekskursiyadan so‘ng 1868-yil may oyida Sharqiy Turkistonga savdogar sifatida sayohat qilishni boshladi[170].

U shu yilning 8-dekabr kuni Yorqandga yetib keldi, yana bir ingliz olimi George Xeyvard ham yetib kelgan edi. Ular bu yerlarga tashrif buyurgan birinchi inglizlar edi.

1869-yil 11-yanvarda Qashqarda Xitoy hukmronligini ag‘dargan va mintaqa rahbari bo‘lgan Yoqub beg bilan muvaffaqiyatli uchrashuv o‘tkazdi. Shundan so‘ng rober Shou va George Xeyvars 3 oy uy qamog‘ida yotishadi. O‘z davlatining tan olinishini istagan Yoqubbek Robert Shouni qamoqdan chiqaradi va “Angliya qirolichasi” va “Lord Sohib” bilan ittifoq tuzishga intildi, vitse-qirol Shouga ushbu missiyani topshiradi. Hindiston vitse-qiroli lord Mayo Shouga 1869-yilda Yoqub beg bilan do‘stlikni mustahkamlash va rus tajovuzkorligini oldini olish uchun katta siyosiy ofitser Ser Tomas Duglas Forsit boshchiligidagi yangi ekspeditsiyaga qo‘shilish huquqini berdi. Shouning ekspeditsiyalari ushbu chekka hududning sirlarini ochish va uning geografiyasi, madaniyati va tarixini tushunishga hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

Shou o‘z sayohatlari davomida Sharqiy Turkiston landshaftlari, o‘simlik va hayvonot dunyosini sinchkovlik bilan o‘rgangan. Shouning

[169] Younghusband F. The Heart of a Continent: A Narrative of Travels in Manchuria, Across the Gobi Desert, Through the Himalayas, the Pamirs and Chitral, 1884-1894. 2003. – P. 407.
[170] Wheeler S.E. Shaw, Robert Barkley. In Lee, Sidney (ed.). Dictionary of National Biography. Vol. 51. – London, 1897. – P. 443.

diqqatga sazovor kashfiyotlaridan biri Sharqiy Turkistondan o‘tgan qadimgi Ipak yo‘li yo‘llari tarmog‘ining topilishidir. U ushbu tarixiy savdo yo‘llarini xaritaga kiritdi, yo‘lda unutilgan shaharlar, xarobalar va arxeologik joylarni ochib berdi. Shou topilmalari Ipak yo‘liga qiziqishni jonlantirdi va uning Sharq va G‘arbni bog‘lovchi madaniy va iqtisodiy yo‘l sifatidagi ahamiyatini oshirdi. Qolaversa, Shouning ekspeditsiyalari G‘arb dunyosi bilan Sharqiy Turkiston xalqlari o‘rtasida madaniy almashinuvlarni yo‘lga qo‘ygan. U mintaqadagi turli etnik guruhlarning kiyimlari, urf-odatlari va tillarini hujjatlashtirib, ularning boy merosini tanitish va qadrlashga yordam berdi. U Sharqiy Turkistonga sayohati davomida orttirgan bilimlarini “A Visit to High Tartary, Yarkund, and Kashgar”[171] Londonda 1871-yilda va “A Sketch of the Turki Language as spoken in Eastern Turkestan” Lahorda 1875-yillarda kitob holida nashr ettirgan [172]

Jorj Jonas Uitaker Xeyvard XIX asrning taniqli ingliz tadqiqotchisi edi. Uning hayoti haqida ma’lumotlar juda kam. Xeyvardning Qirollik Geografik Jamiyati tomonidan berilgan missiyasi Pomir va ularning yo‘llari va yondashuvlarini o‘rganish edi. Xitoy hukumati tomonidan shimoli-g‘arbiy chegara orqali Pomirga yaqinlashish taqiqlanganidan so‘ng, u Pomirga yaqinlashish niyatida Ladaxga, keyin esa Qashg‘arga yo‘l oldi. Xuddi shu vaqtda ser Frensis Yangxusbandning amakisi Robert Shou ham Yorkand va Qashg‘arga xuddi shunday sayohat qilgan edi.

Shou va xeyvard dastlab bir-birlarini raqiblar sifatida ko‘rishadi va keyinchalik ular ushbu hududni o‘rganishda birgalikda harakat qila boshlashadi. Qashg‘ariya chegarasida harakatlanish uchun ruxsat kutayotgan Xeyvard o‘z qo‘riqchilaridan qochib, 20 kun davomida Yorkand daryosining yo‘nalishini o‘rganib chiqdi. Yarkandda Xeyvard va Shou alohida-alohida uy qamog‘ida saqlangan. Rus podshosidan ijobiy yjavob olomagan Yoqubbek inglizlar qirolichasi bilan yaqinlashish maqsadida ikkala olimni ham qo‘yib yuboradi[173].

Xeyvard Qashg‘arga sayohati davomida Kun Lun va Qoraqo‘ram tog‘larini, Yuqori Yorkand daryosi yo‘nalishini o‘rganishdagi sa’y-harakatlari uchun Qirollik Geografiya Jamiyatining asoschisi medali bilan taqdirlangan[174]. U afsuski, Hindikush tog‘larida sirli ravishda vafot etadi va uning sayohatlari davomida to‘plagan bilimlari Tim Hannigan “Murder in the Hindu Kush: George Hayward and the Great Game” nomi bilan Londonda nashr ettiradi[175].

[171] Shaw R.B. A Visit to High Tartary, Yarkund, and Kashgar. – London, 1871. – P. 76.
[172] Shaw R.B. A Sketch of the Turki Language as spoken in Eastern Turkestan, – Lahore, 1875. – P. 65.
[173] WildHare Services, Inc. Death in the Morning – The story of George J. W. Hayward. WildHare Services, Inc. Retrieved 28 August 2007
[174] Hopkirk P. The Great Game. Kodansha Globe. 1997. – P. 23.
[175] Hannigan T. “Murder in the Hindu Kush: George Hayward and the Great Game” History press, 2011. – P. 290.

Uyg‘ur milliy harakati boshqa O‘rta Osiyo xalqlaridagi kabi bosqichlarni boshidan kechirdi. Uyg‘urlar tarixini E. X. Parker ham o‘z asarida taqdim etadi: 1895-yilda nashr etilgan “Tatarlarning ming yili” kitobi Xitoy manbalari asosida yozilgan, ammo u buni hech qayerda aytib o‘tmagan. U xabar bergan ma’lumotlar I. Bichurinning ma’lumotlari bilan deyarli bir xil. Parker ishining qiziqarli jihati - xitoycha transkripsiyaga ko‘ra ismlarining turkiy talaffuzini tiklashga urinishdir.[176]

Genri Lansdell XIX asrda Angliya cherkovi ruhoniysi, shuningdek, taniqli tadqiqotchi va bir qancha asarlarning muallifi. Lansdellning 1887-yilda Harper’s jurnalida chop etilgan “O‘rta Osiyo cho‘li bo‘ylab sayohatlar” maqolasidagi ma’lumotlarida mintaqaning turk-tatar, kavkaz, uyg‘ur etnik xilma-xilligi, shuningdek, geografik, topografik va iqlim xilma-xilligi batafsil tasvirlangan[177]. Lansdellning Xotandan Yorkandga hozirgi Shinjondagi cho‘llar bo‘ylab sayohatni inglizlar o‘rtasida birinchilardan bo‘lib amalga oshirgan. U Balkash ko‘lidan Qashg‘ar orqali Kichik Tibetga (hozirgi Baltiston nomi bilan ataladi) ot bilan va piyoda 5500 m balandlikda O‘rta Osiyoning butun tog‘ tizimlarini kesib o‘tgan. U bir qator kitoblarning muallifi, jumladan, “Chinese Central Asia: A Ride to Little Tibet” (Xitoyning Markaziy Osiyo: Kichik Tibetga sayohat) nomli biz uchun ahamiyatli bo‘lib, u ingliz tilida beshta nashrdan iborat bo‘lib, nemis, daniya va shved tillariga ham tarjima qilingan[178].

General-mayor ser Hamilton Bowel Britaniya Hindiston armiyasi zobiti bo‘lib, Shinjon va Tibet bo‘ylab sayohatlar qilgan. 1889-1890 yillarda leytenant Hamilton Bower Xitoy Turkistoni bo‘ylab sayohat qildi va u yerda Kucha shahrida braxmi[179] alifbosida yozilgan sanskrit tilidagi qo‘lyozmani sotib oldi[180]. Keyinchalik Bower qo‘lyozmasi nomi bilan mashhur bo‘lgan tibbiy qo‘lyozma hind olimlari, xususan, hindologiya olamiga yangilik bo‘lib kirdi va Xitoy Turkistonida unutilgan buddist sivilizatsiyasi mavjudligiga ishora qildi[181]. Hamilton Bowel Sharqiy turkistonga qilgan sayohatini o‘zining “A trip to Turkistan” risolasida bayon etadi[182].

Xitoyda nashr etilgan “Shinjonning qisqacha tarixi” kitobidan tashqari, A.D.Forbesning “Warlords and Muslims in Chinese Central Asia: A Political History of Republican Sinkiang 1911-1949” nomli kitobi butun

[176] Позднеев Д. Исторический очерк уйгҳуров (по китаиским источникам) (Ҳисторисал эссай он Уйгҳурс)– Петербург, 1899. – С. 50.
[177] Lansdell H. The Sons of the Steppe (PDF). – London: Harper’s Magazine. 1887. – P. 572.
[178] Lansdell H. Chinese Central Asia – a Ride to Little Tibet. – London, 1893. – P. 24.
[179] Brahmi — qadimgi Hindiston yozuv tizimi bo‘lib, u miloddan avvalgi 3-asrda to‘liq rivojlangan yozuv sifatida paydo bo‘lgan.
[180] Greenblatt R.H. The Vanishing Trove: Reviled Heroes; Revered Thieves. The Chicago Literary Club. 2 October 2000.
[181] Hopkirk P. Foreign Devils on the Silk Road: The Search for the Lost Cities and Treasures of Chinese Central Asia, 1980. – P. 45.
[182] A trip to Turkistan. Geographical Journal. 1895. – P. 247.

respublika davriga bag‘ishlangan yagona monografiyadir[183]. Muallifning Britaniya arxiv hujjatlarini yetarlicha o‘rganganligi tahsinga sazovor, ammo uning Xitoy materiallaridan foydalanishi cheklangan. Misol uchun, Yang Zengxin siyosatini muhokama qilish uchun u butunlay R. Yangning 1961-yilda Markaziy Osiyo jurnalida chop etilgan maqolasiga tayanadi, lekin u hech qachon Yang Zengxinning o‘zi yozgan “Boguozai wendu” ga murojaat qilmaydi.

Sharqiy Turkiston Respublikasiga kelsak, Linda Benson yaponiyalik olim O Ka monografiyasidan[184] oldin “The Ili Rebellion: The Moslem Challenge to Chinese Authority in Xinjiang” nomli kitobini 1990-yilda chiqardi[185]. Muallif ishida Britaniya va Amerika arxiv hujjatlaridan foydalanganligi kitobning qimmatini oshiradi. Benson tomonidan Ingvar Svanberg bilan birga tahrirlangan “The Kazaks of China, Essays on an Ethnic Minority” nomli Shinjon qozoq xalqi haqidagi kitobda qozoq xalqining tarixdagi va bugungi kundagi umumiy manzarasi keltirilgan[186].

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Sharqiy Turkistonni o‘rganishda G‘arb olimlarining hissasi beqiyos bo‘lib, ular mintaqaning tarixiy, madaniy va geosiyosiy ahamiyatini ochib berishga katta hissa qo‘shgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Aurel Stein, Sven Hedin, Francis Younghusband, Robert Shaw, Henry Lansdell va Hamilton Bower kabi tadqiqotchilar o‘tkazgan ilmiy ekspeditsiyalar Sharqiy Turkistonning qadimiy yo‘llari, uyg‘ur madaniyati va arxeologik yodgorliklari haqida qimmatli ma’lumotlar taqdim etdi. Ularning izlanishlari nafaqat ilmiy jihatdan muhim bo‘ldi, balki mintaqaning xalqaro maydondagi strategik o‘rnini ham yoritib berdi. Bu tadqiqotlar, ayniqsa, Angliya va Rossiya o‘rtasidagi "Buyuk o‘yin" davridagi siyosiy manfaatlarni ham o‘z ichiga olgan. G‘arb olimlarining ilmiy yondashuvlari, to‘plagan materiallari va natijalari bugungi kunda ham Sharqiy Turkiston tarixi va madaniyatini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hobsbswm. E. J. “Nations and nationalism since 1780” (Programme, myth, reality) Cambridge University Press. 1990. – 230. p.

2. Gladney Dru C. “The Ethnogenesis of the Uighur,” Central Asian Survey, 1990. – 189. p.

[183] Andrew D. W. Warlords and Muslims in Chinese Central Asia: A Political History of Republican Sinkiang 1911-1949. – New York: Cambridge University Press, 1986. – 376. p.

[184] O Ka 王柯『東トルキスタン共和国研究：中国のイスラムと民族問題』(A Study of the East Turkistan Republic: Muslims and the National Question in China), – Tokyo: University of Tokyo Press, 1995. – 281. p.

[185] Benson L. The Ili Rebellion: The Moslem Challenge to Chinese Authority in Xinjiang 1944-1949, edition of M. E. Sharpe. – Armonk, 1990. – 265. p.

[186] Benson L. and Svangar I. eds. The Kazaks of China, Essays on an Ethnic Minority. – Uppsala, 1988. – P. 250.

3. Tursun N. “The Formation of Modern Uyghur Historiography and Competing Perspectives toward Uyghur History” China and Eurasia Forum Quarterly, 2008. – 100. p.
4. Allievi S., Nielsen J. “Muslim minorities” Leiden. – Boston, 2003. – 200. p.
5. Masami H. “Research Trends in Xinjiang Studies.” In Research Trends in Modern Central Eurasian Studies (18th–20th Centuries): A Selective and Critical Bibliography of Works Published between 1985 and 2000. 2003. – 222. p.
6. Kamalov. A. “Birth of Uyghur National History in Semirech’ye” Institute of Oriental Studies and University Turan. – Almaty, 2016. – 190. p.
7. Kamalov. A. “Birth of Uyghur National History in Semirech’ye,” Oriente Moderno, 2016. –196. p.
8. Турсун. Н. «Вопросы этногенеза уйгуров В китайской историографии» 1990.
9. Позднева. Д. « Уйгуры» Вао Остр. ,9 лин. ,№12 . 1809.
10. Кляшторный С. Г., Колесников А. А. Восточный Туркестан глазами русских путешественников: (вторая половина ХИХ в.). – Алма-Ата: Наука, 1988. – 224. С
11. Борис А. Литвинский, эд., Восточний Туркестан и Средняя Азия: история, култура, свиази. – Москва: Наука, 1984. – 177. с.
12. Султанов. Т. «Среднеазиатская и восточнотуркестанская рукописная книга,» ин Рукописная книга в султуре народов Востока. – Москва: Наука, 1987. – 277. с.
13. Турсун Н. Вопросы Политической Истории Уйгуров В Китайской Историографии. – Москва, 1998. – 153. с.

IV SHO‘BA
SHARQ XALQLARI ETNOLOGIYASI VA ANTROPOLOGIYASI

O‘ZBEK MILLIY TAOMNOMASIGA MARKAZIY OSIYO XALQLARI OVQATLARINING TA’SIRI XUSUSIDA

Rashidova Zilola Rashidovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti
“Etnografiya, etnologiya va antropologiya”
mutaxassisligi 1-kurs magistiranti
Ilmiy rahbar: t.f.f.d. (PhD), dots. M.M.Askarov

Annotatsiya

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining o‘zbek milliy taomnomasiga ko‘rsatgan tarixiy-madaniy ta’siri o‘rganiladi. Turli etnoslar bilan uzoq davom etgan aloqalar natijasida shakllangan gastronomik o‘zaro ta’sirlar, ularning taom tarkibi, tayyorlash uslubi va marosimiy jihatlari tahlil etiladi. Maqolada madaniy almashinuvlar o‘zbek oshxonasining shakllanishida qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik, afg‘on va uyg‘ur xalqlarining o‘rnini yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek milliy taomnomasiga ta’sir, Markaziy Osiyo xalqlari, gastronomik meros, ovqatlanish madaniyati, an’anaviy taomlar*

Аннотация

В данной статье исследуется историко-культурное влияние народов Центральной Азии на узбекскую национальную кухню. Анализируются гастрономические взаимовлияния, сформировавшиеся

в результате длительных контактов с различными этносами, включая состав блюд, способы их приготовления и обрядовые особенности. В статье освещается роль казахского, киргизского, туркменского, таджикского, афганского и уйгурского народов в формировании узбекской кухни в контексте культурного обмена.

Ключевые слова: *Влияние на узбекскую национальную кухню, народы Центральной Азии, гастрономическое наследие, культура питания, традиционные блюда*

Abstract

This article explores the historical and cultural influence of Central Asian peoples on Uzbek national cuisine. It analyzes the gastronomic interactions shaped through long-standing relations with various ethnic groups, including dish composition, preparation methods, and ceremonial aspects. The article highlights the role of Kazakh, Kyrgyz, Turkmen, Tajik, Afghan, and Uyghur peoples in the formation of Uzbek cuisine within the framework of cultural exchange.

Keywords: *Influence on Uzbek national cuisine, Central Asian peoples, gastronomic heritage, food culture, traditional dishes*

O‘zbek milliy taomnomasining shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlar va ko‘p madaniyatli muloqotlar natijasidir. O‘zbekiston hududi qadimdan savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan bo‘lib, bu holat turli xalqlarning madaniy, ijtimoiy va gastronomik o‘zaro ta’siriga zamin yaratgan. Xususan, Markaziy Osiyoda yashagan turkiy, eroniy, mo‘g‘ul va boshqa etnoslarning ovqat tayyorlash texnologiyasi, mahsulot tanlovi, taomlarga berilgan nomlar, marosimiy ovqatlanish an’analari o‘zbek milliy oshxonasining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik va uyg‘ur xalqlari bilan uzoq asrlik qo‘shnichilik, savdo-sotiq, migratsiya va madaniy almashinuvlar natijasida o‘zaro ta’sirchan gastronomik muhit vujudga kelgan. Ayniqsa, Buyuk ipak yo‘li davomida shakllangan madaniyatlararo muloqot o‘zbek milliy oshxonasining tarkibiy qismlarini boyitgan, uning shakl va mazmun jihatdan xilma-xilligiga sabab bo‘lgan.

Mazkur jarayonda turli xalqlarning taom pishirish texnologiyasi, mahsulot tanlovi va ziravorlardan foydalanish usullari o‘zaro singishib ketgan. Misol uchun, qirg‘izlarning go‘shtli taomlari, tojiklarning sho‘rva va suzma asosidagi taomlari, uyg‘urlarning unli taomlari o‘zbek taomnomasiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan. Shu jihatdan olib qaraganda, o‘zbek milliy taomnomasini Markaziy Osiyo xalqlari bilan tarixiy gastronomik o‘zaro ta’sirlar kontekstida o‘rganish, uni yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

O‘zbek va qozoq xalqlari asrlar davomida yaqin qo‘shnichilik aloqalarini saqlab kelgan bo‘lib, bu madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar ularning oshxonasiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Qozoq milliy taomlari o‘zbek oshxonasiga turli yo‘nalishlarda kirib kelgan bo‘lib, ular mahalliy did va an’analarga mos holda qayta ishlangan va moslashtirilgan.

Qozoq xalqi ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanganligi sababli, ularning oshxonasida go‘shtli taomlar katta o‘rin tutadi. O‘zbek oshxonasida ham go‘sht asosiy mahsulotlardan biri hisoblanadi, biroq bu ikki xalq go‘shtni ishlatishda o‘ziga xos yondashuvlarga ega. Masalan, qazi (ot go‘shtidan tayyorlangan kolbasa) qozoq oshxonasidan kirib kelgan bo‘lsa, qozoqlar uni odatda qaynatib, gazak sifatida iste’mol qilgan, o‘zbeklar esa qazini palovga, norin va boshqa taomlarga qo‘shib iste’mol qila boshlaganlar. Shuningdek, qozoqlarning milliy taomi bo‘lmish beshbarmoq ham o‘zbek oshxonasiga kirib kelib, norin shaklida mahalliylashtirilgan.[187]

Xamirli taomlar borasida ham o‘zaro ta’sir sezilarli bo‘lib, qatlama va chak-chak kabi taomlar qozoqlardan o‘zbek oshxonasiga kirib kelgan. Qozoqlarning go‘shtni uzoq muddat saqlash usullari – quritish, tuzlash va dudlash usullari o‘zbek oshxonasida ham ishlatilgan. Jarkob (yoki jarkop) qovurilgan go‘sht va kartoshkadan iborat taom bo‘lib, u qozoq oshxonasida ham mashhur. Shu bilan birga, qozoqlar go‘shtni asosan katta bo‘laklarda iste’mol qilsa, o‘zbeklar uni mayda qilib to‘g‘rab, ziravorlar bilan boyitib, dimlama yoki qovurma shaklida tayyorlaydilar.[188]

Choy ichish madaniyati ham o‘ziga xos farqlarga ega. Qozoqlar asosan qora choy ichsa, o‘zbeklar ko‘k choyni afzal ko‘radilar. Umuman olganda, o‘zbek va qozoq oshxonalari uzoq asrlar davomida bir-biriga ta’sir qilib kelgan. Qozoq oshxonasining ko‘chmanchi chorvadorlik madaniyati o‘zbek oshxonasiga yangi go‘shtli taomlar va qayta ishlash usullarini olib kelgan bo‘lsa, o‘zbeklar bu taomlarni o‘z didlariga moslab, ularga maxsus ziravorlar va tayyorlash usullarini qo‘shgan holda qayta ishlaganlar. Natijada bugungi kunda o‘zbek oshxonasida qozoq taomlari ham o‘zining alohida o‘rniga ega bo‘lib, ular milliy va umummilliy oshxonaning ajralmas qismiga aylangan.[189]

O‘zbek va qirg‘iz xalqlari asrlar davomida yaqin qo‘shnichilik munosabatlarini saqlab kelgan bo‘lib, bu aloqalar ularning oshxonasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Qirg‘iz xalqi asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan ko‘chmanchi xalq bo‘lgani sababli, ularning taomnomasi

[187] Левин З. А. Кулинарные традиции Средней Азии. – Л., 1974. – С. 192.
[188] Бердыев Б. Традиции питания у туркмен // Этнография. – М., 1985. – №1. – С. 87–92.
[189] Платонова Н. Супы и хлеб в культуре Средней Азии. – М., 1987. – С. 140.

go‘shtli va sutsimon mahsulotlarga asoslangan. O‘zbek oshxonasi esa dehqonchilik va chorvachilik an’analarini o‘zida mujassam etgani uchun, qirg‘iz taomlari unga ma’lum darajada moslashgan va mahalliy uslubda qayta ishlangan.[190]

Qirg‘iz oshxonasidan o‘zbek oshxonasiga ta’sir qilgan eng asosiy taomlardan biri – beshbarmoqdir. Bu taom qirg‘iz va qozoqlarda juda mashhur bo‘lib, asosan qaynatilgan go‘sht va xamirning katta bo‘laklardan iboratligi bilan ajralib turadi. O‘zbek oshxonasida esa beshbarmoqdan ilhomlanib, norin tayyorlash rivojlangan. Norin mayda qilib to‘g‘ralgan xamir va go‘sht aralashmasidan tayyorlanib, ziravorlar bilan boyitilgan.[191]

Qirg‘iz xalqi go‘shtni uzoq saqlash maqsadida quritish va dudlash usullaridan foydalangan. Bu an’ana o‘zbek oshxonasiga ham ta’sir qilib, go‘shtni uzoq muddat saqlashning yangi usullari joriy qilingan. Ayniqsa, tog‘li hududlarda yashovchi o‘zbeklar orasida qirg‘izcha go‘sht tayyorlash usullari keng tarqalgan.

Shuningdek, qirg‘izlar orasida mashhur bo‘lgan kuyrdak taomi o‘zbek oshxonasiga ham kirib kelgan. Kuyrdak – jigar, yurak, buyrak va boshqa ichki a’zolardan tayyorlanadigan qovurma bo‘lib, u qirg‘iz oshxonasida yog‘liroq tayyorlansa, o‘zbeklar uni o‘z didlariga moslab, ziravorlar va sabzavotlar bilan boyitganlar.

Qirg‘iz oshxonasida chorvachilik mahsulotlari muhim o‘rin tutadi. Qimiz (ot sutidan tayyorlanadigan ichimlik) qirg‘izlar orasida milliy ichimlik hisoblanadi va o‘zbeklarda ham tog‘li hududlarda iste’mol qilinadi. Bundan tashqari, qirg‘izlarning ayran va suzma ishlatish odatlari o‘zbek oshxonasiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Bundan tashqari, qirg‘iz xalqi orasida mashhur bo‘lgan shurpo va dimlama kabi taomlar ham o‘zbek oshxonasiga kirib kelgan. O‘zbeklar bu taomlarni o‘zlariga xos qilib, ularga qo‘shimcha sabzavotlar va ziravorlar qo‘shgan holda tayyorlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va qirg‘iz oshxonalari asrlar davomida bir-biriga ta’sir ko‘rsatgan. Qirg‘izlarning go‘sht va sut mahsulotlariga asoslangan taomlari o‘zbek oshxonasiga kirib kelib, mahalliy sharoit va didga mos ravishda o‘zgartirilgan. Natijada bugungi kunda o‘zbek taomnomasi qirg‘iz oshxonasidan olingan elementlar bilan boyib, yanada rang-baranglashgan.

O‘zbek va afg‘on xalqlari uzoq yillar davomida qo‘shni bo‘lib yashab kelgan, bu esa madaniy, savdo va oshxona an’analariga o‘zaro ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Afg‘oniston shimolidagi o‘zbeklar va Tojikiston hamda O‘zbekiston janubidagi afg‘onlar o‘rtasidagi yaqin aloqalar oshxona

[190] Ахмедов Л. История культуры народов Узбекистана. – Т., 1989. – С. 288.
[191] Юлдашев А. Ўзбек халқининг оғзаки анъаналари ва таомлари. – Т., 1992. – Б. 110.

madaniyatida ham aks etgan. Afg‘on taomlari asosan go‘sht, guruch, dukkakli mahsulotlar, ziravorlar va yog‘li taomlarga asoslangan bo‘lib, ularning ayrimlari o‘zbek taomnomasi tarkibiga kirib kelgan yoki mahalliy sharoitga moslashgan.[192]

Afg‘oniston oshxonasida kabuli palov eng mashhur taomlardan biri hisoblanadi. Bu taom o‘zbek paloviga o‘xshash bo‘lsa-da, ba’zi farqlarga ega. Kabuli palovda guruch bilan birga sabzi, mayiz, bodom, ba’zan pista ishlatiladi va go‘sht alohida pishiriladi. O‘zbek oshxonasida esa palovning bu varianti o‘zlashib, mayiz va bodomli palov shaklida tayyorlanadigan bo‘ldi. Afg‘on palovi o‘zbek oshxonasiga o‘ziga xos tam va bezak berib, palov turlarining kengayishiga sabab bo‘ldi.[193]

Afg‘on oshxonasida go‘shtli taomlar katta o‘rin tutadi. Shorba (sho‘rva) afg‘onlarning an’anaviy suyuq taomi bo‘lib, u go‘sht, sabzavot va ziravorlar bilan tayyorlanadi. Bu taom o‘zbek oshxonasidagi shurva bilan o‘xshashlikka ega. Afg‘on shorbasida odatda ko‘proq pomidor va ziravorlar ishlatiladi, o‘zbeklar esa uni yumshoqroq ta’mga moslab tayyorlaydilar. Bundan tashqari, afg‘onlarning qiyma kabobi o‘zbek oshxonasida ham paydo bo‘lib, ko‘pincha shashlik bilan bir qatorda tayyorlanadigan bo‘ldi. Afg‘on kabobi o‘ziga xos ravishda yog‘liroq va ziravorlarga boy bo‘lib, u o‘zbek kaboblarining mazali variantlaridan biri sifatida qabul qilingan.

Afg‘on xalqi an’anaviy non mahsulotlariga katta e’tibor beradi. Afg‘on noni (tandir non) shaklan cho‘zinchoq bo‘lib, uni qalin qilib yopadilar. O‘zbek oshxonasidagi tandir non va afg‘on noni o‘rtasida o‘xshashlik mavjud. Afg‘on nonlari o‘zbek non yopish an’analariga ham ta’sir o‘tkazgan va bugungi kunda ayrim hududlarda afg‘oncha uslubda non yopish odat tusiga kirgan.[194]

Afg‘oniston oshxonasidagi ashak taomi o‘zbeklarning manti taomiga o‘xshash. Ashak – xamir ichiga sabzavot yoki ko‘katlar solib, bug‘da pishiriladigan taom bo‘lib, unga qatiq va go‘shtli sous qo‘shiladi. O‘zbek mantilari esa asosan go‘shtli bo‘lsa-da, ayrim hududlarda ashak uslubida tayyorlanadigan ko‘katli mantilar ham paydo bo‘lgan. Shuningdek, afg‘onlarning bolani taomi ham o‘zbek oshxonasiga ta’sir o‘tkazgan. Bu taom kartoshka yoki sabzavotli qiyma bilan to‘ldirilgan va qovurilgan xamir mahsulotidir. U ba’zan somsa yoki qovurilgan chuchvara shaklida tayyorlanib, o‘zbek oshxonasida yangicha ta’m sifatida qabul qilingan.

Afg‘on oshxonasida ziravorlar juda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ziravorlar bilan boyitilgan go‘shtli taomlar, masalan, karri uslubidagi taomlar O‘zbekistonda ham ommalashdi. Afg‘oniston oshxonasidan o‘zbek

[192] Аширов Р. Национальные блюда Средней Азии. – Д., 1999. – С. 156.
[193] Akiner S. Cultural Fusion in Central Asia. – Л., 2000. – P. 232.
[194] Карабаев Т. Туркманская кухня: традиции и рецепты. – А., 2001. – С. 156.

taomnomasi tarkibiga kirgan palov, kabob, shurva, manti kabi taomlar mahalliy sharoit va didga mos ravishda o‘zgartirilib, o‘zbek xalqining sevimli taomlariga aylangan. Shu tariqa, o‘zbek va afg‘on xalqlari o‘rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalar oshxona madaniyatida ham o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston va Turkmaniston geografik jihatdan yaqin joylashgani, shuningdek, ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalar o‘zaro taomlar almashinuviga ham sabab bo‘lgan. Turkman oshxonasi ko‘proq cho‘l hududlariga xos bo‘lib, unda go‘sht, sut mahsulotlari va yog‘li taomlar asosiy o‘rinni egallaydi. Bu xususiyatlar o‘zbek taomnomasi shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Turkman taomlarining o‘zbek oshxonasiga ta’sirini ko‘rsatadigan asosiy misollardan biri govurma (qovurilgan go‘sht) hisoblanadi. Turkmanlar go‘shtni yog‘da uzoq vaqt davomida qovurib, uni qishda saqlash uchun maxsus idishlarga soladilar. Ushbu usul o‘zbek oshxonasida ham ishlatiladi. Masalan, qazi-qarta yoki jarkob tayyorlashda turkmancha go‘sht saqlash usuli qo‘llanadi.[195]

Turkmancha unash sho‘rvasi ham o‘zbek oshxonasiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Bu taom mol yoki qo‘y go‘shti bilan tayyorlanib, unga dukkakli mahsulotlar, xususan, no‘xat va loviya qo‘shiladi. O‘zbek oshxonasidagi mashhurda yoki shurva kabi sho‘rvalar tarkibida ham dukkakli mahsulotlar ko‘p uchraydi, bu esa turkman oshxonasining ta’sirini ko‘rsatadi.

Turkman oshxonasida xamirli taomlar ham muhim o‘rin tutadi. Ishlekli – ichiga go‘sht solib yopiladigan xamir taomi bo‘lib, u o‘zbek somsasiga juda o‘xshash. Ishlekli bug‘da yoki tandirda pishiriladi va uning tarkibidagi ziravorlar o‘zbek somsasiga yaqin. Bundan tashqari, turkmanlarning börek (katlama uslubidagi pirog) taomi ham o‘zbek oshxonasidagi katlama va qovurma chuchvara tayyorlashga ta’sir ko‘rsatgan.[196]

Turkmanlarning dograma taomi ham o‘ziga xosdir. Bu taom qattiq pishirilgan non bo‘laklariga go‘sht, piyoz va sho‘rva qo‘shib tayyorlanadi. O‘zbek oshxonasida bunga o‘xshash taomlar ichida norin va fatirosh bor. Ushbu taomlar tayyorlanish uslubi va tarkib jihatidan dogramaga yaqin.[197]

Shuningdek, turkmanlar sut mahsulotlarini juda ko‘p iste’mol qiladilar. Garagurt (suzmaga o‘xshash mahsulot) va chal (achitilgan tuya suti) turkmanlar uchun juda muhim bo‘lib, bu turdagi ichimliklar o‘zbeklar orasida ham iste’mol qilinadi. Masalan, o‘zbek oshxonasida ham suzma va ayron kundalik ovqatlanishda muhim o‘rin tutadi.

---

[195] Назаров И. Традиционные обряды узбеков. – Т., 2003. – С. 192.
[196] Каримов Ш. Этнические особенности питания узбеков. – Т., 2004. – С. 174.
[197] Хожиев Б. Миллий урф-одат ва анъаналар. – Т., 2005. – Б. 210.

Umuman olganda, turkman xalqi taomlarining o‘zbek oshxonasiga ta’siri asosan yog‘li go‘shtli taomlar, xamirli mahsulotlar va sut mahsulotlarini ishlatish an’analarida ko‘rinadi. Ushbu madaniy almashinuv natijasida o‘zbek taomnomasi yanada boyib, o‘ziga xos milliy ta’mlarni o‘zida aks ettirgan.[198]

O‘zbekiston va Sharqiy Turkiston (hozirgi Shinjon) xalqlari o‘rtasida tarixiy, madaniy va savdo aloqalari uzoq asrlarga borib taqaladi. Bu yaqin munosabatlar natijasida uyg‘ur oshxonasi taomlari o‘zbek taomnomasi tarkibiga kirib, mahalliy did va an’analarga moslashgan.

Uyg‘ur oshxonasining o‘zbek taomlariga eng katta ta’siri makaron mahsulotlari va xamirli taomlar orqali namoyon bo‘lgan. Lag‘mon – uyg‘urlar tomonidan O‘zbekistonga kirib kelgan eng mashhur taomlardan biridir. Lag‘monning uzun qo‘l tortma nonus (xamir) bilan tayyorlanishi uyg‘ur oshxonasiga xos bo‘lsa, o‘zbeklar ushbu taomni o‘z didiga moslashtirib, unga ziravorlar, kartoshka, ba’zan pomidor ham qo‘sha boshlagan. Hozirda lag‘mon o‘zbek oshxonasida keng tarqalgan taomlardan biri bo‘lib, qovurma lag‘mon, suyuq lag‘mon va shivit lag‘mon kabi turlari mavjud.[199]

Yana bir mashhur uyg‘ur taomi – manpar ham o‘zbek taomnomasi tarkibiga kirgan. Bu taom sho‘rva bilan taqdim etiladigan qo‘lda kesilgan xamir bo‘laklaridan iborat bo‘lib, hozirda O‘zbekistonda ham juda mashhur.

Shima yoki shimyan – qovurilgan lag‘mon turi bo‘lib, u ham uyg‘ur oshxonasidan o‘zbek oshxonasiga kirib kelgan. Ushbu taom o‘zbek restoranlari va oshxonalarida ham tayyorlanadi, lekin ko‘pincha go‘sht, sabzavot va achchiq ta’m beruvchi ziravorlar qo‘shib o‘zbekcha uslubga moslashtiriladi.[200]

Uyg‘ur oshxonasidan o‘zlashtirilgan yana bir taom – chuchvara (xitoycha dumpling yoki ravioliga o‘xshash). Uyg‘urcha chuchvara an’anaviy usulda suvda yoki bug‘da pishiriladi, o‘zbeklar esa uni qovurib ham iste’mol qilishni yoqtiradilar.

Shuningdek, goshnan (go‘shtli qatlam) va samsa tayyorlashda uyg‘ur usullari ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. O‘zbek samsasi qisman uyg‘urcha tandir uslubidan olingan bo‘lib, u yog‘li xamir va go‘shtli ichlik bilan pishiriladi.

Uyg‘ur oshxonasining o‘zbek taomlariga yana bir muhim ta’siri ziravorlar ishlatish an’anasi hisoblanadi. Masalан, uyg‘urlar ovqatlarga zira, sarimsoqpiyoz, achchiq qalampir va soya sousini ko‘p ishlatishadi. O‘zbek

[198] Holzwarth W. Food and Identity in Central Asia. – B., 2005. – P. 246.
[199] Kamp M. The New Woman in Uzbekistan. – S., 2006. – P. 304.
[200] Бурхонов У. Маънавий қадриятлар ва миллий анъаналар. – Т., 2007. – Б. 152.

oshxonasida ham so‘nggi yillarda ushbu mahsulotlardan foydalanish ortib bormoqda.[201]

Uyg‘ur taomlari o‘zbeklar orasida nafaqat restoran va oshxonalarda, balki uy bekalari tomonidan ham keng tayyorlanib, asta-sekin mahalliy oshxonaning bir qismiga aylangan. Shu boisdan, uyg‘ur xalqi ovqatlarining o‘zbek taomnomasi shakllanishiga ta’siri juda katta bo‘lib, ayniqsa xamirli taomlar, noodli (lag‘mon) va sho‘rvalar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi.[202]

O‘zbek va tojik xalqlari uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, madaniy, iqtisodiy va oshpazlik aloqalari asrlar davomida shakllangan. Shu sababli, tojik oshxonasining ko‘plab taomlari o‘zbek taomnomasi tarkibiga kirib, o‘zbek didiga mos ravishda o‘zgargan. Bu ta’sir, ayniqsa, guruchli, sabzavotli va go‘shtli taomlar, sho‘rvalar hamda qandolat mahsulotlari orqali yaqqol namoyon bo‘ladi.[203]

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek milliy taomnomasining shakllanishi faqat mahalliy urf-odatlar va resurslar bilan emas, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida asrlar davomida kechgan madaniy almashuvlar, migratsiyalar va savdo yo‘llari orqali shakllangan ko‘p qatlamli jarayon bilan bog‘liqdir. Ushbu jarayonlar natijasida taomlar nafaqat o‘z shakl va mazmunini, balki ularning tayyorlanish texnologiyasi, marosimiy vazifasi ham boyigan. Bu holat o‘zbek milliy oshxonasini mintaqaviy madaniyatlar sintezining yorqin namunasi sifatida ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu ta’sirlar hozirgi kunda ham taomlar xilma-xilligi, nomlanishi va tayyorlanish uslublarida o‘z aksini topgan. Shu bois, o‘zbek taomnomasini o‘rganishda mintaqaviy kontekstni e’tiborga olish ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akiner S. Cultural Fusion in Central Asia. – London: Routledge, 2000. – 232 p.
2. Ахмедов Л. История культуры народов Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1989. – 288 с.
3. Аширов Р. Национальные блюда Средней Азии. – Душанбе: Ирфон, 1999. – 156 с.
4. Бердыев Б. Традиции питания у туркмен // Этнография. – Москва, 1985. – № 1. – С. 87–92.
5. Бурхонов У. Маънавий қадриятлар ва миллий анъаналар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 152 б.
6. Holzwarth W. Food and Identity in Central Asia. – Berlin: Reimer, 2005. – 246 p.

[201] Ибрагимов Ш. Этнография узбеков. – Т., 2007. – Б. 320.

[202] Waugh D. The Silk Road and Food Exchange in Central Asia // Journal of Asian Studies. – M., 2007. – T. 66. – №2. – P. 321–335.

[203] Зохидов А. Шашлик ва миллий таомлар. – Т., 2009. – Б. 84.

7. Ибрагимов Ш. Этнография узбеков. – Ташкент: Фан, 2007. – 320 б.
8. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan. – Seattle: University of Washington Press, 2006. – 304 p.
9. Карабаев Т. Туркманская кухня: традиции и рецепты. – Ашхабад: Туркменистан, 2001. – 156 с.
10. Каримов Ш. Этнические особенности питания узбеков. – Ташкент: Фан, 2004. – 174 с.
11. Левин З. А. Кулинарные традиции Средней Азии. – Ленинград: Наука, 1974. – 192 с.
12. Назаров И. Традиционные обряды узбеков. – Ташкент: Фан, 2003. – 192 с.
13. Платонова Н. Супы и хлеб в культуре Средней Азии. – Москва: Наука, 1987. – 140 с.
14. Waugh D. The Silk Road and Food Exchange in Central Asia // Journal of Asian Studies. – 2007. – Vol. 66, No. 2. – P. 321–335.
15. Хожиев Б. Миллий урф-одат ва анъаналар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 210 б.
16. Юлдашев А. Ўзбек халқининг оғзаки анъаналари ва таомлари. – Тошкент: Фан, 1992. – 110 б.
17. Зохидов А. Шашлик ва миллий таомлар. – Тошкент: Шарқ, 2009. – 84 б.

JANUBIY- SHARQIY OSIYODA XITOY DIASPORASINING AHAMIYATI

Abdullayeva Mahbuba,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarix (mintaqa va mamlakatlar bo‘yicha)”
magistratura mutaxassisligi 2-kurs talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada hozirda xalqaro maydonda iqtisodiy jihatdan yetakchilikni egallab kelayotgan Xitoyning Janubiy-Sharqiy Osiyodagi diaporasi muhokama qilinadi. Maqolaning maqsadi Xitoy diasporasi qanchalik darajada bu hududga kirib bora oldi va qanday ta'sirga ega bo‘lganligi yoritib berish hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar*: Janubiy-Sharqiy Osiyo, Xitoy diasporasi, siyosat, iqtisodiy hukmronlik, hua chyao.*

Kirish. So‘ngi yillarda mutaxasislar tomonidan jahondagi migratsiya jarayonlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Xitoy

Xalq Respublikasining o‘rni va roli ham juda muhim hisoblanadi. Xitoy rasmiylarining ma’lumotlariga ko’ra bugungi kunda xorijiy davlatlarga emigratsiya qilgan xitoyliklarning umumiy soni 50 mln. kishini tashkil etadi. Xitoydan tashqarida yashovchi etnik xitoyliklarga nisbatan “Hua Chyao” (华侨 – Huáqiáo) atamasi keng qo‘llaniladi. “Zamonaviy Xitoy tili lug‘ati” (现代汉语词典- xiàndài hànyǔ cídiǎn)da bu atama “xitoylik emigrant” (华 huá – Xitoy, 侨 qiáo – emigrant, muhojir) degan ma’noni bildiradi. Hozirgi kunda xitoyliklar ko‘chib borgan eng yirik mintaqa bu Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari hisoblanadi. Xususan bu mintaqada Xitoydan ko‘chib ketganlarning 75 % ni tashkil etadi. Bu esa xitoyliklar mintaqa davlatlari aholisining 6 % ni tashkil etishini bildiradi. Bundan tashqari mintaqa davlatlarining ayrimlarida etnik xitoyliklar ko‘pchilikni tashkil etadi[204].

1970-yillar oxirida Xitoy yuqori doiralari jumladan Den Syaopin “Hua Chyao”lar aloqa o‘rnatilashi Xitoy iqtisodiyotiga ijobiy ko‘rsatishini ta’kidlab o‘tgach mamlakatda bu masalaga jiddiy e’tibor qarata boshlashdi. 1978-yil dekabr oyida bo‘lib o’tgan XXR Kommunistik partiyasining 3 plenum IX se’zdida Xitoy diasporasi “Xitoy jamiyatining ajralmas qismi” deb e’lon qilindi. So’nggi 20 yilda xitoylik emigrantlarning soni yiliga o’rtacha 200 ming kishini tashkil etadi. Asosiy emigratsiya yo’nalishi Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bo’lib qolmoqda. Bu esa o’z navbatida mintaqa davlatlarining iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy hayotida xitoyliklarning o’rni sezilarli darajada ekanligini bildiradi.

Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlardagi Xitoy diasporalari mustamlaka davridayoq rivojlangan nisbatan eng qadimgi va eng ko'p sonlilaridan hisoblanadi. Chet ellik xitoyliklarning taxminan 75% Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yashaydilar, ularning soni 28,2 million kishini tashkil etadi. Etnik xitoylar bu mamlakatlarda aholining 6%ni tashkil qiladi: Singapur aholisining 76%, Malayziyaning 24% Osiyo, 14% - Tailand, 11,2% - Bruney, 3% - Indoneziya, 3% - Laos, 3% - Myanma, 1,5% - Filippin, 1,1% -Vetnam, 1% – Kambodja. Ba’zi mamlakatlarda Xitoy aholisining ulushi pasayishi moyilligi mavjud. Shunday qilib, so'nggi o'n yilliklarda Malayziyada xitoyliklar ulushi kamaygan oqimiga qaramay: agar 1957-yilda 37%bo'lsa, 1990-yilda - 32%, keyin 2000-yillarning o'rtalarida 26%ni tashkil etdi. Bruneyda etnik xitoylar aholining 25 foizini tashkil qiladi. 1990-yilda va 2010-yilda turli mamlakatlarda turli sabablarga ko'ra 11,2% ni tashkil etdi.

Rasmiylar tomonidan etnik Xitoyliklar Malayziyada Malay aholisining yuqori o'sish sur’ati sababli anchayin pasaygan. Xitoy

[204] Гуревич Э. Политика, экономика, интеграция по-сингапурски / Э. Гуревич // Азия и Африка сегодня. – 2002. - №9. – С. 36-37.

diasporalarining umumiy o'xshashligiga qaramay Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini alohida ta'kidlashimiz mumkinki assimilyatsiya darajasiga ko'ra qancha turli modellar va jamiyatdagi mavqeyiga qarab bo'linadi va bular quyidagilar: assimilyatsiya qilinmagan diaspora (Indoneziya va Malayziya), assimilyatsiya qilgan esa (Tailand, Filippin, Vyetnam) va hukmron mavqei (Singapur). Etnik assimilyatsiyaning past darajasi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ularga qo'llanilgan siyosatining bevosita natijasi edi. Malayziyaning mustaqillikka erishganidan so'ng malay identigligini mustahkamlash maqsadida xiyot aholisi qisqartirish siyosatini faol shakllda olib bordi. Aholining asosiy qismi Malayziya islom diniga e'tiqod qiladi, ammo ko'pchilik Xitoyliklar nasroniylar edi. Shu sababli ham ikki o'rtada din bo'yicha ham tafovutlar mavjud edi. Bu esa millatlararo nikohlar va assimilyatsiya qilish imkoniyatlarini kamaytiradi. Indoneziyada xitoyliklar nisbatan an'anaviy ishinchsizlik mavjudligi sababli 1966-yilda etnik xitoyliklarni quvish boshlandi natijada yarim million xitoyliklar mamlakatdan quvib chiqarildi. Xitoylik aholiga nisbatan antixitoy ruhidagi qonunchilik sababli mahalliy aholi hamda xitoyliklar o'rtasida bo'lingan chiziq paydo bo'ldi. Hattoki fuqorolikni qo'lga kiritish bilan bog'liq muammolar sababli ham assimilyatsiya jarayoni anchayin sekin ro'y berdi. 1960-yilda Indoneziya hududida yashovchi 50% xitoyliklarning hali hanuz fuqaroligi yoq edi, faqatgina 1970-yillardagina Indoneziyada etnik xitoylarga nisbatan vaziyat yumashashiga erishildi. Ammo xuddi shu yillarda mamlakatdagi Xitoy maktablari yopila boshlandi va xitoy tilida so'zlashuvchilarning soni ham sezilarli kamaydi.

Janubiy-Sharqiy Osiyoda xitoyliklarning yoyilish sabablari. “Hua Chyao”lar mahalliy aholi bilan sotsial integratsiyaga kirishishsa ham xitoy tili “ish tili” sifatida saqlab qolish va shu bilan birga “Chinatown” nomini olgan xitoy kvartallarini tashkil etishni asosiy maqsad sifatida ko’rishadi. Janubiy-Sharqiy Osiyodagi xitoyliklar sotsial integratsiyaga kirishishadi. Yani o’z familiya va ismlarini mahalliy axolining ismi va familiyasiga o’xshash qilib o’zgartirishadi, mahalliy madaniyat va dinni qabul qiladi. Bu esa mahalliy axoli bilan yaqinlashishiga olib keldi. Rasmiylar tomonidan etnik xitoyliklar Malayziyada Malay aholisining yuqori o'sish sur'ati sababli anchayin pasaygan.Xitoy diasporalarining umumiy o'xshashligiga qaramay Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini alohida ta'kidlashimiz mumkinki assimilyatsiya darajasiga ko'ra qancha turli modellar va jamiyatdagi mavqeyiga qarab bo'linadi va bular quyidagilar: assimilyatsiya qilinmagan diaspora (Indoneziya va Malayziya), assimilyatsiya qilgan esa (Tailand, Filippin, Vetnam) va hukmron mavqei (Singapur). Etnik assimilyatsiyaning past darajasi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ularga qo'llanilgan siyosatining bevosita natijasi edi. Malayziyaning mustaqillikka erishganidan

so'ng malay identigligini mustahkamlash maqsadida xiyot aholisi qisqartirish siyosatini faol shakllda olib bordi.[205]

Xulosa. *Birinchidan,* Xitoy diasporasi birinchi navbatda XXR bilan iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishni afzal ko'radi. Jumladan, Xitoyning ASEAN davlatlariga investitsiyasi xitoyliklar nazorat qiladigan Singapur banklari tomonidan amalga oshiriladi. Singapur banklari "Hua Chyao"larning moliyaviy operatsiyalar o'tkazishda yordam beradi. Shuningdek, banklar xitoyliklarga investitsiya kiritilayotgan davlatning soliq tizimi va iqtisodiy risklar bo'yicha maslahatlar beradi. Bu esa Janubiy-Sharqiy Osiyoda xitoyliklar biznesini rivojlanishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi xitoyliklar sotsial integratsiyaga kirishishadi. Yani o'z familiya va ismlarini mahalliy axolining ismi va familiyasiga o'xshash qilib o'zgartirishadi, mahalliy madaniyat va dinni qabul qiladi. Bu esa mahalliy axoli bilan yaqinlashishiga olib keldi.

Uchinchidan, "Hua Chyao"lar mahalliy axoli bilan sotsial integratsiyaga kirishishsa ham xitoy tili "ish tili" sifatida saqlab qolish va shu bilan birga "Chinatown" nomini olgan xitoy kvartallarini tashkil etishni asosiy maqsad sifatida ko'rishadi.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK MILLIY DO‘PPILARI

Nazarov Muhammadjon
"Etnografiya, etnologiya va antropologiya" mutaxassisligi 1-kurs magistiranti
E-mail manzil: Muhammadjonnazarov874@gmail.com
Ilmiy rahbar: PhD, Abirov V.E.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbeklarning XX asrdagi milliy bosh kiyimi – do‘ppining shakli, tuzilishi, o‘ziga xosligi va xilma xilligi haqida fikr yuritilgan. Bunda, vohadagi va vodiy qismidagi turli viloyatlarning milliy bosh kiyimlari turli adabiyotlar, shu mazmundagi maqolalar va etnografik ma'lumotlar yordamida yoritilgan. Maqolada o‘sha davr bosh kiyimlarining farqlari, do‘ppining milliy madaniyatimizda tutgan o‘rni, vazifasi hamda bir qator masalalar ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *do‘ppi, tarix, erkaklar, ayollar, bolalar, uslub, Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Farg‘ona, islom dini, milliy madaniyat, o‘zlikni anglash, bezaklar, naqshlar.*

[205] Skinner G. W. Chinese Society in Thailand. An Analitical History / G. W. Skinner. – N. Y., 1962. – 304 p.

Dunyo aholisining soni sakkiz milliarddan ortiq kishini, ulardagi etnik guruhlar – xalqlarning soni esa qariyb uch mingni tashkil etadi [6]. Ularning har biri o‘zlarining milliy madaniyatiga, urf-odatlariga, an’analariga hamda o‘zlarining milliy kiyimlariga egadirlar. Kiyim – xalqlarni bir-biridan ajratib turuvchi, kim ekanligini, qaysi xalqqa mansub ekanligini anglatib turuvchi xususiyatga ega bo‘lgan narsalardan biri hisoblanadi. Shu jumladan, o‘zbek xalqining ham o‘ziga yarasha ajralib turuvchi, jimjimador, xilma-xil va o‘z ma’nolariga ega bo‘lgan turli xildagi kiyim-kechaklari mavjuddir. Ayniqsa, o‘zbek milliy liboslari, kiyimlari ichida ajralib turuvchi, o‘zbekni o‘zbek ekanligini yaqqol namoyon qiluvchi hamda qadimiy tariximizdan so‘zlovchi milliy bosh kiyimimiz bu do‘ppi hisoblanadi. Do‘ppi – bu xalqning o‘zligini anglashda, xalq an’analarining qay darajada ekanligini, bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, xalqning fenomenini aniqlab beruvchi milliy bosh kiyimidir.

Dunyodagi xalqlar, elatlar o‘zlarining o‘tmishlaridan meros bo‘lib kelayotgan milliy urf-odatlari, an’analari bilan bir-biridan farqlanadi. Masalan o‘zbek deyilganda, o‘z-o‘zidan do‘ppi tushuniladi. Boshda do‘ppisi bormi, demak u o‘zbek deyiladi…

Mazkur maqolada XX asr boshlarida O‘zbekiston mahalliy aholisining milliy bosh kiyimi hisoblanadigan do‘ppining tuzilishi, ko‘rinishi, qo‘llanilishi va naqshlaridagi farqlarni o‘rganishda etnografik ma’lumotlar tahlili usuli qo‘llanildi. Bunda do‘ppining kundalik hayotdagi, urf-odatlar va marosimlardagi roli haqidagi ma’lumotlar ham jamlangan.

Shu bilan birga, ushbu maqolada matn tahlili hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish orqali do‘ppining hududlararo farqlanishi hamda o‘xshashlik jihatlari ham o‘rganildi.

MUHOKAMA

O‘zbek xalq amaliy san’atining eng ommabop va keng tarqalgan turlaridan biri bu do‘ppi bo‘lib, u erkaklar, ayollar hamda bolalar bosh kiyimining ajralmas va asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Do‘ppi qachon va qayerda paydo bo‘lganligi haqida hozircha aniq ma’lumotlar mavjud emas, ammo uning tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Etnograf olim Л.Будагов Ценкерга (Сенги-Лахи лугати)ga tayangan holda bu so‘z “tube”, “tupe” (cho‘qqi, tepalik) so‘zlaridan kelib chiqqan, deb yozadi hamda boshning tepasiga kiyiladigan shapka ma’nosida ikki xil variantni, “tubetay” va “tuppi”ni keltirib o‘tadi [1, 10]. Do‘ppiga o‘xshagan uchli, cho‘qqi bosh kiyimi juda qadimdan ishlatilib kelinayotgani ma’lum. Chorsi hamda yumaloq do‘ppilar nisbatan ancha kech qo‘llanila boshlangan va taxminan XIX asming 20-yillarida keng tarqala boshlagan, degan fikrlar mavjud [2, 75].

Do‘ppining qadim zamonlarda ham mavjud bo‘lganini tasdiqlovchi arxeologik yodgorliklar, devoriy yozuvlar, terakota haykalchalar, XV-XVI asrlarga oid sharq miniatura san’atida, haykaltaroshlik yodgorliklarida, qadimiy tangalarda ko’rishimiz mumkun. Panjikent tasviriy san’atida ham bir nechta bosh kiyimlari saqlanib qolgan. Movarounnahr (XV-XVII asrlar) va Samarqand (XVI asrning birinchi yarmi) sharq miniaturalarida ayollarning turli tuman bosh kiyimlari uchraydi. Qiz bolalar va yosh ayollar gardishli, qavilgan dumaloq baxmal do‘pilarni kiyishgan [3, 2-3].

XIX asrlar miniaturalarida erkaklarning matodan qavib tikilgan astarli yumaloq shakldagi bosh kiyimlari uchraydi. Bunday bosh kiyimlarni jamiyatning barcha qatlamlaridagi odamlar hayotning turli holatlarida kiyganlar. Ular ham tantanali marosimlarda, ham uyda, ham uyqu paytida kiyiladigan universal bosh kiyim hisoblangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqandda erkaklarning matodan tikilgan 3 xil bosh kiyimi ishlatilgan:

1. *Qalpoq* – astarli qattiq bosh kiyim (do‘ppi);
2. *Araqchin* – astarsiz yumshoq bosh kiyim;
3. *Kuloh* – to‘rtta uchburchak bo‘laklardan tikilgan jiyaksiz bosh kiyim.

O‘zbekcha *qalpoq* atamasi ko‘pincha kigizdan tikilgan konus shaklidagi baland bosh kiyimga nisbatan ishlatilgan. Bunday bosh kiyim qadimgi turklarda, ulardan ham oldin esa saklarda keng tarqalgan bo‘lgan [4, 31].

Do‘ppilardagi har bitta bukilish, rasm va chiziqlar o‘zining chuqur ma’nosi va siriga egadir. Hatto hozirgacha ham xalqning orasida do‘ppilar haqidagi afsonalar va rivoyatlar saqlanib kelinadi. Masalan, O‘zbekistonning eng mashhur do‘ppisi hisoblanmish to‘rt qirrali Chust do‘ppisining tomonlari egasini borliqning to‘rt asosiy nuqtasidagi yovuz kuchlardan himoya qilishi, undagi qora rang fazoni va qorong‘ulikni anglatishi, uning to‘rt tomonidagi “qalampir” hayotni, oilaviy farovonlikni anglatishi va yomon ko‘zdan himoya qilishi haqidagi qarashlar mavjud. Chust do‘ppisining pastki qismida keltirilgan 16 arka hayot va o‘lim davomiyligini ifodalaydi. Shakl berish orqali ular boylik va hayotiy energiya ta’minotini jalb qiladilar. Unda tasvirlangan arkadagi qo‘zichoq shoxlari kuch va jasoratni anglatadi [7]. Ba’zi rivoyatlarga ko‘ra esa, erkaklar do‘ppisining yuqori qismidagi to‘rtta gul odamning sog‘lig‘ini to‘rt tomondan himoya qiladi, do‘ppi chetidagi o‘n oltita gul esa katta va ahil oila bo‘lish (o‘n oltita farzand ko‘rish) tilagini bildiradi. Ushbu do‘ppilar odmi, kamtar va shu bilan birga juda bezakli ko‘rinishga eg bo‘lib, ular to‘rtta qalampir boshchalari ko‘rinishidagi oq naqshning qora fon bilan keskin birikuvi bilan ajralib turadi. Qora fonga oq ipak bilan tikilgan gullar inson qalbi va yuragi pokligining ifodasi bo‘lib xizmat qilar ekan [8].

Bundan tashqari, erkaklar do‘ppisidagi naqshlar yoki ramzlarning ma’nosi xususida mutaxassislar va mutaxassis bo‘lmaganlarning nuqtai nazaridan turlicha fikrlar ham yuritiladi. Xususan, bu naqshlarni goh qirg‘ovulning qanoti yoki lolaning yaprog‘i, goh bodom yoki qalampirga o‘xshatishgani ma’lum. Ba’zilarning fikriga ko‘ra, do‘ppining qora matosi yulduzli osmonni yoki o‘zida cheksiz ma’lumotlarni jamlagan “qora tuynuk”ni anglatgan. Do‘ppining tepa qismidagi 4 ta asosiy naqsh ona qornidagi 3 oylik bolaning homilasini, yon qismlaridagi aylanasiga bir chiziq bo‘lib tizilgan 16 ta toklar esa yangi tug‘ilgan chaqaloqning beshigini anglatgan. Toklarning ichidagi nuqtalar vafot etganlarning so‘nib borayotgan nurini anglatgan. Bularning zamirida “Koinot doimiy ravishda kengayib va qisilib boradi, tug‘iladi va o‘ladi. Oxir-oqibatda u yana qandaydir boshlang‘ich bir nuqtaga qaytadi. Shundan keyin yangi davr boshlanib, navbatdagi “katta portlash” yuz beradi. Yana yangi galaktikalar, yulduzlar turkumlari va hayot vujudga keladi” degan qarashlar ham yotadi [4, 33].

XX asming 20-yillari oxiridan qizlar va yosh juvonlar ham do‘ppi kiya boshladi. Qashqadaryo va Surxondaryoda o‘rta yoshdagi ayollar kulta kiygan va uni “do‘gshi” deb ataganlar. Do‘ppilar naqshlari va matosining turiga qarab turlicha nomlangan. Turli rangdagi do‘ppilar “chaman-dagul”, baxmal va parcha matodan tikilgan, yo‘l-yo‘l naqsh tushirilgan do‘ppi esa iroqi do‘ppi deb atalgan. Shahrisabz do‘ppichilik maktabining iroqi choklar sanama va chizma usullariga bo‘lingan. Iroqi uslubda, xomdozi bezak bilan tikilgan xotin-qizlarning bosh kiyimi do‘ppido‘zlik san’atining yorqin namunasi hisoblangan [2, 76].

Do‘ppi qadimdan sharq xalqlari(arablar, forslar, turklar va boshqalar) orasida keng tarqalgan va bu, ayniqsa, Turkiston xalqlari orasida (O‘zbekis-ton va Tojikiston hududida) milliy kiyim turiga aylangan. Boshqa xalqlar do‘ppilaridan o‘zbek do‘ppilari o‘ziga xos shakli, bezagi bilan farqlanadi. Dastlabki do‘ppilarning shakli o‘tkir uchli qilib, salla bilan kiyishga mo‘ljallab kizagi keng jiyakli qilib tayyorlangan. XX asrning 20-yillaridan do‘ppilarning shakli o‘zgara boshladi, ya’ni tepasi dumaloq yoki murabba shakliga ega bo‘ladi, kizakdagi jiyagi ingichkalashadi. Do‘ppi uch qismdan – tepa (aylana va to‘rtburchak shaklida bichiladi), kizak (gardish shaklida) va jiyakdan iborat bo‘ladi. Do‘ppining tepa, kizak va jiyak qismlari O‘zbekistonning turli joylarida turlicha bezatiladi va qismlari birlashtirilganda turlicha ko‘rinishga ega bo‘ladi. O‘zbekistonda Chust, Andijon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Boysun va Shahrisabz do‘ppilari mashhur hisoblanadi [9]. O‘zbek do‘ppilari nafaqat bosh kiyim, balki o‘ziga xos munosabat vositasi ham hisoblanadi. Do‘ppi o‘z egasining yoshini, hatto yashash joyini ham aytib berishi mumkin. Masalan, o‘zida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi jamiyatining ijtimoiy, madaniy va diniy hayotini aks ettiruvchi, murakkab bezaklar, zardo‘zi san’ati va milliy naqshlar orqali milliy qiyofani yaqqol ko‘rsatib turuvchi do‘ppi – bu Buxoro do‘ppisidir. Buxoro do‘ppilarining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ularda asosan qora yoki to‘q rangli baxmal, shoyi va yuqori sifatli ipak matolardan foydalanilgan. Ularga naqsh ishlashda tilla va kumush rangli iplar asosiy vosita hisoblansa, pushti, ko‘k, yashil munchoqlar va marvaridlar qo‘shimcha bezaklar sifatida ishlatilgan. Buxoro do‘ppisidagi naqshlar mazmun jihatidan murakkab bo‘lib, ular diniy va madaniy ramzlarni o‘zida aks ettirgan. Masalan, unda hilol (oy), yulduzlar, ildiz va gul naqshlari keng qo‘llanilgan. Bundan tashqari unda geometrik va o‘simlik naqshlari ham uyg‘unlashgan bo‘lib, bu naqshlarda tartib va simmetriyaga katta ahamiyat berilgan. Ular bayramlar, nikoh marosimlari va boshqa tadbirlarda kiyiladigan do‘ppilar zardo‘zi uslubida naqshlangan va hashamatli ko‘rinishga ega bo‘lgan [10].

Buxoroning mashxur zardo‘zi do‘ppilari



Mashhur Chust do‘ppisi

Chust do‘ppisi esa yassi va tekis do‘ppilarning eng ko‘p tarqalgan turidan hisoblanib, u sakkiz xil chok uslubida tikiladi: to‘g‘ri chok, zanjira, chita, kungura, yetalatma, ova, taroq, qalandar va pildiroq. Erkaklar ilgari rangli do‘ppilar, keyinchalik esa oq-qora tusdagi Chust do‘ppilarini kiyadigan bo‘ldi. Ushbu do‘ppilar, asosan, bodom yoki qalampir nusxa ko‘rinishida

bo‘lib, aslida qush tasvirining bir bo‘lagi hisoblanadi. Ilgari do‘ppining to‘rt tomonida ham qush tasviri aks etgan bo‘lsa, keyinchalik uni ixchamlashtib, qushning boshi va oyoqlarini tikmay qo‘yishgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Chust do‘ppisi O‘zbek xalqining an’anaviy bosh kiyimlari ichida alohida o‘rin egallagan. Bu davrda Chust do‘ppisi nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy hunarmandchilikning yorqin namunasiga aylangan.

Marg‘ilon do‘ppi

Qo‘qon do‘ppi

Do‘ppilar orasida Qo‘qon va Marg‘ilon do‘ppilari odmiligi va rasoligi bilan ajralib turadi. Mazkur bosh kiyimlarning choklari boshqalariga nisbatan olib qaralganda ancha kam. O‘z o‘rnida shuni ham qayd etish kerakki, XX asrning 50-yillaridan boshlab do‘ppilarda mitti qushlar, jumladan, bulbul va tovusni tasvirlash odat tusiga kirdi, ammo bunday xildagi do‘ppilarga talab unchalik yuqori bo‘lmagan [2, 76].

Do‘ppido‘zlik. Iroqi do‘ppi tikish usuli

Iroqi do‘ppi – Shahrisabzda keng tarqalgan va keyinchalik boshqa viloyatlarga yoyilib, uning mahalliy xususiyatlari qo‘shilgan holda o‘zgartirilgan bezakli do‘ppi hisoblanadi. Iroqi do‘ppining kashta iplari tortilib, to‘rga aylantiriladi va mato (oq mato) ustiga rangli ip yoki ingichka tolali paxta (ipak paxta) ipi bilan Iroqi hoshiyasi tikiladi. Iroqi do‘ppisining eng yaxshi namunalari Shahrisabz va Kitob do‘ppido‘zlari (ustalari) tomonidan tikilgan. Iroqi do‘ppisi ustidan ro‘mol o‘raladi, yoki yupqa o‘rilgan sochlar uning ostidan tashlab qo‘yiladi [5, 699].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir xalqning, elatning o‘zligini, uning kim ekanligini anglatidagn, bildiradigan, bir qarashdayoq ajralib turishiga yordam beradigan qandaydir bir milliy belgisi bo‘ladi albatta. O‘zbeklarning shunday belgisi – bu do‘ppidir. Do‘ppi, o‘zbekni qayda bo‘lsa ham tanitadigan, ajratib turadigan milliy bosh kiyim hisoblanadi. XIX–XX asrlarda O‘zbek do‘ppisi mahalliy madaniyatning muhim qismi sifatida keng rivojlangan bo‘lib, unda o‘ziga xos san’atiy uslublar, ma’naviy ramzlar va turmush tarzi aks etgan. Ushbu davr O‘zbekiston hududida do‘ppi tikish san’atining yetuk shaklga ega bo‘lishi bilan ham ajralib turadi.

XIX–XX asrlarda o‘zbek do‘ppisi madaniyat va milliy o‘ziga xoslikning ramziy ko‘rinishi bo‘ldi. U zamonasining san’at, hunarmandchilik va turmush tarzini aks ettirib, naqshlar, ranglar va

texnikalari bilan xalq hayotida muhim o‘rin tutgan. Do‘ppi nafaqat bosh kiyimi, balki ijtimoiy maqomni, milliy qadriyatlarni va o‘zbek xalqining estetik tushunchalarini aks ettiruvchi san’at asari sifatida qadrlangan. Bugungi kunda do‘ppi milliy meros sifatida yangi ko‘rinishlarda tiklanmoqda va saqlanib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sodiqova N, G‘aybullayeva Y. O‘zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar// Toshkent: Sharq, 2014.
2. Doniyorov A.X., Bo‘riyev O.B., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi// T.: NIF MSH, 2020.
3. G‘aybullayeva Y. Do‘pillar tarixidan// Toshkent: Moziydan sado, 2010.
4. Ш.С. Камолиддин Ўзбек дўпписи тарихидан\\ Водийнома 5-jildi. – Andijon, 2017. - № 3.
5. Ibrohimova Shahina Boboxonovna Özbek Millî Kiyafetleri ve Takilari\\ Türk kültürü. – Turkiya, 1991. - № 35.
6. https://aniq.uz/uz/statistika/dunyo
7. https://oyina.uz/uz/teahause/83
8. https://uzbekistan.travel/uz/o/ozbek-doppisi-sirlari/
9. https://meros.uz/object/doppi
10. https://society.uz/uz/news/detail/news/1902

O‘ZBEK-HIND MILLIY TAOMLARINING O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Usanova Muxlisa
“Antropologiya va etnologiya” yo‘nalishi
3-kurs hind-ingliz guruhi talabasi
muxlisausanova03@gmail.com
Ilmiy rahbar: PhD, Abirov Valisher Elmurodovich

Annotatsiya: *Xalqlarni o‘rganishda ularning milliy urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi, ijtimoiy tuzilmalari, kiyim-kechaklari, xo‘jalik shakllari bilan bir qatorda milliy taomlari va oziq-ovqat mahsulotlari haqida ham tadqiqotlar qilish talab qilinadi. Elshunoslikda xalqlarning milliy taomlari milliy sharoitlar hamda geografik joylashuvga qarab farqlanadi yoki o‘xshashliklarga ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek, tarixiy aloqalar, migratsiyalar va madaniyatlarning o‘xshashligi kabi omillar ham ta’sir qilishi mumkin. Maqolada hind xalqining milliy taomi biriyani va o‘zbek milliy taomi palov haqida o‘rganildi, o‘xshash, farqli tomonlari taqqoslandi.*

Kalit so‘zlar: *Biriyani, basmati guruchi, xaim va jerakasala (खाईमा, जेराकासाला) guruchlari, marinadlash, dum (दूम), Haydarobodcha Biryani, Lukanashi Biryanisi, Kalkutta Biryanisi, Keora (केओरा) suvi, Lukanashi Biryanisi Laknau shahri, Malabarcha Biryani, Malabar mintaqasi, Thalassery Biryanisi, Avadhi Biriyanisi*

SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF UZBEKISTAN-INDIAN NATIONAL CUISINE

Usanova Mukhlisa
“Anthropology and Ethnology”
3rd year student of the Indian-English group
muxlisausanova03@gmail.com
Scientific advisor: PhD, Abirov Valisher Elmurodovich

Annotation: *In the study of peoples, it is necessary to conduct research on their national customs, traditions, lifestyle, social structures, clothing, and forms of economy, as well as on their national dishes and food products. In ethnology, the national dishes of peoples may differ or have similarities depending on national conditions and geographical location. Factors such as historical connections, migrations, and similarities of cultures may also affect. The article studies the national dish of India,*

biriyani, and the national dish of Uzbekistan, pilaf, and compares their similarities and differences.

Keywords: *Biriyani, basmati rice, khaim and jerakasala (ख़ाईमा, जेराकासाला) rice, marinating, dum (दूम) , Hyderabadi Biryani, Lukanashi Biryani, Calcutta Biryani, Keora (केओरा) water, Lukanashi Biryani, Lucknow city, Malabar Biryani, Malabar region, Thalassery Biryani, Awadhi Biryani*

СХОДНЫЕ И РАЗНЫЕ АСПЕКТЫ УЗБЕКСКО-ИНДИЙСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ БЛЮД

Усанова Мухлиса
Кафедра "Антропологии и этнологии"
Студентка 3 курса индо-английской группы
muxlisausanova03@gmail.com
Научный руководитель: PhD, Абиров Валишер Эльмуродович

Аннотация: *При изучении народов необходимо изучать их национальные обычаи, традиции, быт, социальную структуру, одежду, хозяйственные формы, а также их национальные блюда и продукты питания. В науке национальные блюда народов различаются или имеют сходство в зависимости от национальных условий и географического положения. Также могут сыграть роль такие факторы, как исторические связи, миграции и культурное сходство. В статье были изучены бирияни – национальное блюдо индийского народа и плов – национальное блюдо узбеков, а также сопоставлены их сходства и различия.*

Ключевые слова: *Бирьяни, рис басмати, рис хаим и джеракасала, маринад, дум, Хайдарабади Бирьяни, Луканаши Бирьяни, Калькутта Бирьяни, вода Кеора, Лакхнау Бирьяни, Малабар Бирьяни, Малабарский регион, Талассерия Бирьяни, Авадхи Бирьяни*

Jahondagi har bir xalq madaniyatining bir qismi hisoblangan o‘zining maxsus taomlari bilan mashhur bo‘ladi. Italyan oshxonasi o‘zining pitsasi va makaroni bilan taniqli bo‘lsa, yaponlar sushi va rameni bilan faxrlanadilar, shuningdek braziliyaliklar kundalik hayoti va bayramlarini feyxoada[206] va brigadeyrosiz[207] tasavvur eta olmasalar, hind xalqi

[206] Feyxoada - Secret World https://m.sworld.co.uk/amp/feyxoada
[207] Brigadeiro Recipe https://www.allrecipes.com/recipe/24052/brigadeiro/

o‘zlarining sevimli va mazali taomlari sifatida biriyanini[208][209] (बिरियानी) sevib istemol qiladilar. Biriyani (बिरियानी) Hindiston va unga yondosh hind madaniyati tarqalgan davlatlarda istemol qilinadi. Misol uchun Pokiston, Bangladesh, Shri-Lanka va bir qator Janubiy Osiyo xalqlarida ham ushbu taomni uchratishimiz mumkin. Hatto Janubiy-G‘arbiy Osiyoning Eron va Iroq kabi davlat oshxonalari uchun ham milliy taom hisoblanar ekan. O‘zbek oshxonasida esa palov eng sevimli, eng ommalashgan taomlardan biri hisoblanib, Markaziy Osiyo mintaqasida keng tarqalgan, jahonga milliy toamlari, xususan palov bilan dong taratgan.

Biriyani (बिरियानी) uchun kerakli mahsulotlar Basmati guruchi[210] (**बासमती**), go‘sht (tovuq, qo‘y, mol go‘shti yoki boshqa afzal ko‘riladigan go‘sht), xushbo‘y ziravorlar (zira, koriander, kardamon, chinnigullar, dolchin, dafna barglari va boshqalar), piyoz (bezatish uchun to‘g‘ralgan va qovurilgan), yogurt yoki tvorog, o‘simlik yog‘i, yangi ko‘katlar (yalpiz, koriander[211]), za’faron barglari (iliq sutga namlangan), zanjabil-sarimsoq pastasi, yashil qalampir, kartoshka, pomidorlardir. Basmati guruchi haqida biroz to‘xtalsak, basmati guruchi o‘zining xushbo‘yligi va o‘ziga xos ta’mi bilan mashhur. U odatda “guruchlar malikasi” va “guruch marvaridi” nomi bilan tanilgan. Hindiston basmati guruchining eng yirik yetishtiruvchisi, iste’molchisi va eksportchisi hisoblanadi. Hindiston jahon bozorlarida basmati bo‘yicha monopoliya mavqeiga ega[212].

Yuqorida ta’kidlanganidek, turli davlat va mintaqalar bo‘yicha mahsulotlarda farqlanishlar bo‘lishi mumkin. O‘zbek palovi uchun kerakli mahsulotlar guruch (turli navlaridan faydalaniladi), go‘sht (asosan qo‘y go‘shti), sabzi, sarimsoqpiyoz, qalampir, yog‘, zira, no‘xat kabilar kerak bo‘ladi. Hind biriyanisi shu o‘rinda zirovarlarni turfa xillardan qo‘shilishi bilan farqlanadi. Shuningdek, go‘sht mahsulotidan foydalanishdan ham farq katta hisoblanadi. Hind diniy e’tiqodidan kelib chiqib, sigir go‘shti istemoli kam uchraydi. Keng tarqalgan Biriyani tayyorlash usullarida asosan tovuq go‘shtidan foydalaniladi.

Tayyorlanish tartibi ham bir qancha alohida jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, marinadlash[213] taomning tayyorlanishidagi muhim ishlardan biri, taomning mazali chiqishida marinadlashning o‘rni kattadir. Go‘shtni yogurt, zanjabil-sarimsoq aralashmasi, yashil chili va ziravorlar

[208] Chicken Biryani Recipe - Swasthi's Recipes https://www.indianhealthyrecipes.com/chicken-biryani-recipe
[209] Biryani reciepes by Zubaida tariq https://ia800501.us.archive.org/33/items/BiryaniMethod/Biryani%20Method.
[210] https://agritech.tnau.ac.in/banking/pdf/Basmati.pdf
[211] Coriander, Coriander, Simply Organic, 65 g - Toshkent va O‘zbekistonda sotib oling | Narxi Biotus https://biotus.uz/uz/koriandr-coriander-simply-organic-65-g.html
[212] Mr. Rajeev Kumar, BASMATI RICE, Course Name- Field Crops-I Course code- BSCAG-211, Department of Agriculture Monad University, Hapur (U.P.)
[213] marinadlash – Zira.uz https://zira.uz/uz/t/marinadlash/

aralashmasida marinadlanadi. Ta’mni yaxshilash uchun uni bir necha soat alohida joyda saqlanadi. Go‘shtning pishilishida uni yog‘da qovurish eng keng tarqalgan usul hisoblanadi. Keyingi bosqichdagi asosiy mahsulot guruch hisoblanadi. Biriyani (बिरियानी) uchun maxsus Basmati guruchidan[214] (**बासमती**) foydalaniladi. Basmati guruchini qaynatib, bir chetga qo‘yiladi. Guruchni qisman pishirish kerak, chunki u go‘sht bilan birga pishirishni tugatadi. Guruchni pishirish jarayonidagi o‘zgacha holat esa, guruchning bitta o‘zi qaynatilmasdan unga yashil qalampir, dolchin va boshqa bir qator zirovarlar bilan birgalikda pishirilishidadir. Alohida idishlarda pishilgan mahsulotlarni birlashtirish keying vazifadir. Qozonga marinadlanib pishirilgan go‘shtning ustiga qisman qaynatilgan guruchni qo‘yiladi. Qatlamlar orasiga za’faron bilan namlangan sut, qovurilgan piyoz, sariyog‘ va yangi ko‘katlar qo‘yiladi. Bu kabi qatlamlash jarayoni bir necha bosh amalga oshiriladi. Bu ishdan ko‘zlangan maqsad esa alohida idishlarda pishirilgan mahsulotlarning uyunlashib, yagona bir ta’m yaratishdan iborat. Yagona qozonga qatlamlangan mahsulotlarning usti yopiladi va bir muddat past olovda pishiriladi. Hind oshxonasidagi bunday usulda pishirilish dum (दूम) deb ataladi. O‘zbek milliy taomi palov tayyorlanishi esa bitta davomli jarayondan iborat hisoblandi. Yog‘ni qozonga quyishdan boshlangan ish go‘sht, piyoz, sabzini ketma-ketlikda qo‘shish bilan davom etadi. Ular yaxshilab qovurilib olinadi va jarayon davomida ularga suv quyiladi, turli zirovarlar, xususan zira, sarimsoqpiyoz, qalampir, no‘xotlar qo‘shilib yana qaynatishda davom etiladi, so‘ng guruch ham qo‘shiladi. Ustidan bir barmoq bog‘inicha suv quyilib jarayon davom etadi. Guruch pishgandan so‘ng esa mahsulotlar alohida yumaloq shakliga keltirilib, usti zichlanib yana 5-10 daqiqaga qoldiriladi. Ushbu jarayon “damlash” deb ataladi. Hind biriyanisidan farqli ravishda o‘zbek palovi bitta idishda, mahsulotlar ketma-ketlikda qo‘shirilib pishiriladi. Hind biriyanisi alohida-alohida pishilgan mahsulotlar yakunda bitta qozonda yana pishiriladi.

Hind biriyanisining ham birgina Hindiston misolida turlicha pishirilish usullari bor. Masalan, o‘zining boy va achchiq ta’mi bilan tanilgan Haydarobodcha Biryani ko‘pincha basmati guruchi, marinadlangan go‘sht (odatda tovuq yoki qo‘y go‘shti) va aromatik ziravorlar aralashmasidan iborat. An’anaviy ravishda dum usuli yordamida pishiriladi. Lukanashi Biryanisi Uttar Pradesh shimolidagi Laknau shahridan kelib chiqqan bu biryani o‘zining nozik ta’mi va xushbo‘y ziravorlardan foydalanishi bilan ajralib turadi. U ko‘pincha yumshoq go‘shtdan tayyorlanadi va za’faron qo‘shilib qaynatilgan guruch bilan qopladi. Kalkutta Biryanisi: Kalkuttada

[214] Basmati guruchi – Hindiston va Pokistonda yetishtiriladigan, uzun donli, xushbo‘y guruch navidir. Ushbu guruch tarkibida amiloz miqdori yuqori bo‘lib, pishirilganda donalari yopishmaydi va yengil tuzilishga ega bo‘ladi.

biryani go‘sht (odatda echki go‘shti) bilan birga kartoshkani o‘z ichiga olgan holda o‘ziga xos ta’sirga ega. Guruch ko‘pincha mahsus keora[215] (केओरा) suvi bilan qaynatiladi va boshqa biryani navlariga qaraganda yengilroq bo‘ladi. Malabarcha Biryani Keralaning Malabar mintaqasidan kelib chiqqan bu biryani xushbo‘y ziravorlar va Hindiston yong‘og‘idan ko‘p foydalanishi bilan mashhur. Unda ko‘pincha Xaim, Jerakasala (ख़ाईमा, जेराकासाला) guruch kabi mazali mahalliy guruch navlari ishlatiladi. Thalassery Biryanisi Jerakasala (जेराकासाला) deb nomlangan maxsus xushbo‘y guruchdan foydalanish bilan tavsiflanadi. U odatda tovuq yoki qo‘y go‘shtini o‘z ichiga oladi va ziravorlar aralashmasi bilan quyiladi. Avadhi Biriyanisi Uttar-Pradesh shtatidagi Avadhi viloyatidan kelib chiqqan o‘zining sekin pishirilgan go‘shti, xushbo‘y ziravorlari va za’farondan foydalanishi bilan mashhur. Ko‘pincha boshqa biriyanislarga qaraganda ta’mi jihatidan nozikroq hisoblanadi. Bombaycha Biryani Mumbayda mashhur bo‘lgan bu biriyani ko‘pincha aromatik ziravorlar aralashmasini o‘z ichiga oladi va o‘zining qalin ta’mi bilan mashhur. Unda odatda basmati guruch, go‘sht (ko‘pincha tovuq) mavjud va qovurilgan piyoz va yalpiz bilan bezatilgan bo‘ladi. Shuningdek shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda ham palovning turlicha pishirilish usullari bor. Xususan, choyxona palov, to‘y oshi kabilardan tashqari Toshkentcha, Vodiycha, Samarqandcha, Vohacha alohida turlari bor va ularning farqlari ishlatiladigan mahsulotlar, pishirilish jarayonlari bilan farqlanadi. Masalan, sabzining sariq va qizil turlari xududlar kesimida o‘zgarib boradi. Hatto Toshkent, vodiyda behi mevasi ham qo‘shilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, hind biriyanisi va o‘zbek palovining umumiy jihatlari va o‘xshash tashqi ko‘rinishi bor. Birini ko‘rib ikkinchisiga adashtirib qo‘yish hech gap emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **National Centre of Excellence and Advanced Research on Diets (NCEARD).**
   Recipe Book / NCEARD. – New Delhi: Lady Irwin College, n.d. – 20b.
2. Khalid A. Indian cooking step by step guide to, 84p ISBN 0600 38093 9 Printed in Italy
3. Vd. Rajesh Kotecha, Secretary, Ministry of Ayush , Shri Roshan Jaggi, Joint Secretary, Ministry of Ayush, 52p
4. Feyxoada - Secret World https://m.sworld.co.uk/amp/feyxoada

[215] keora सबसे अच्छी कीमत पर कानपुर में | के आर एंड सीओ. https://www.tradeindia.com/products/keora-6042243.html

5. Brigadeiro Recipe https://www.allrecipes.com/recipe/24052/brigadeiro/
6. Chicken Biryani Recipe - Swasthi's Recipes https://www.indianhealthyrecipes.com/chicken-biryani-recipe
7. Biryani reciepes by Zubaida tariq https://ia800501.us.archive.org/33/items /BiryaniMethod/Biryani%20Method.https://agritech.tnau.ac.in/banking/pdf/Basmati.pdf
8. Coriander, Coriander, Simply Organic, 65 g - Toshkent va O‘zbekistonda sotib oling | Narxi Biotus https://biotus.uz/uz/koriandr-coriander-simply-organic-65-g.html
9. Mr. Rajeev Kumar, BASMATI RICE, Course Name- Field Crops-I Course code- BSCAG-211, Department of Agriculture Monad University, Hapur (U.P.)
10. marinadlash – Zira.uz https://zira.uz/uz/t/marinadlash/
11. keora सबसे अच्छी कीमत पर कानपुर में | के आर एंड सीओ. https://www.tradeindia.com/products/keora-6042243.html

TOTEMIZM: TURKIY TOTEMISTIK ETNONIMLAR, TOPONIMLAR VA HOZIRGI KUNDA TOTEMIZM IZLARI

Abdiikramov Jo‘rabek
“Antropologiya va etnologiya” yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Shosaidov Anvar Soatovich

Annotatsiya: *Mazkur maqolada totemizm tushunchasi va uning turkiy xalqlar etnik tarixi hamda madaniyatidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda turkiy xalqlarning ajdodiy totemik qarashlari, ularning etnonim va toponimlarga ta’siri hamda hozirgi kungacha saqlanib qolgan izlari ko‘rib chiqiladi. Totemizmga oid mifologik tushunchalar, ramzlar va turkiy xalqlar orasida uchraydigan hayvon yoki tabiat hodisalari bilan bog‘liq ishonchlar ilmiy asosda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Totemizm, Bo‘ri totemi, jins totemi, o‘ngun, turkiy totemlar, ot totemi, totemistik toponimlar, totemistik etnonimlar.*

TOTEMISM: TURKIC TOTEMIC ETHNONYMS, TOPONYMS, AND TRACES OF TOTEMISM IN THE PRESENT DAY

Abdiikramov Jo‘rabek
2nd-year student of the "Anthropology and Ethnology" program
Scientific Advisor: Anvar Soatovich Shosaidov

Annotation: *This article explores the concept of totemism and its role in the ethnic history and culture of Turkic peoples. The study examines ancestral totemic beliefs among Turkic communities, their influence on ethnonyms and toponyms, and traces of totemism that have persisted to the present day. Mythological concepts, symbols, and beliefs associated with animals or natural phenomena among Turkic peoples are analyzed from a scientific perspective.*

Keywords: *Totemism, Wolf totem, Gender totem, Ongun, Turkic totems, Horse totem, Totemic toponyms, Totemic ethnonyms.*

KIRISH

Totemizm – bu odamlar va tabiat o‘rtasidagi diniy va madaniy aloqalarni ifodalovchi qadimiy e’tiqod tizimi. Bu tushuncha turli xalqlarning o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lib, totemizm jamiyatlarida, odatda, ma’lum hayvon yoki o‘simliklar, ba’zan esa tabiiy elementlar, insonlar tomonidan ulug‘lanadi. Totemlar ko‘pincha guruhning identifikatori sifatida qabul qilinadi va ular bilan bog‘liq turli afsonalar, urf-odatlar, qadriyatlar shakllanadi.

Bu tizimda totemning ahamiyati jamiyatning ma’naviy dunyosida va kundalik hayotda katta o‘rin tutadi. Maqolada totemizmning tarixi, uning shakllanishi va o‘zbek xalqi hayotidagi o‘rni, shuningdek, zamonaviy jamiyatlarda bu e’tiqodning qanday izlarini topish mumkinligi haqida so‘z boradi.

ASOSIY QISM

“Totemizm” atamasi Shimoliy Amerika hindularining Algonkin qabilasiga mansub “ojibve” qabilasi lahjasidagi “ot-otem” yoki “ot-otam” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “uning urug‘i” degan ma’noni bildiradi[1,10]. Shuningdek, G‘arbiy avstraliyada “kobong”, janubiy Avstaraliyada “ntaityo” so‘zlari ham huddi shu ma’noni bildiradi. Qadimdan odamlar tabiatga oshno bo‘lib yashar ekanlar, ularni o‘rab olgan olamda malum bir tur jonivor va o‘simliklarni ko‘p bo‘lishi natijasida ular bilan qarindoshlik aloqalari borligiga ishonganlar. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra qadimgi kishilar jamoasi ratsionida muhim joy olgan hayvon va o‘simliklar keyinchalik “totem”ga aylangan. Totemizm bo‘yicha turli olimlar ish olib borishgan. “Totem” atamasini birinchi marta XVIII asr oxirida Jon Long insonning hayvon va o‘simliklar bilan qon qarindoshligi haqidagi ishonchni anglatuvchi so‘z sifatida qo‘llagan[1,10]. Totemizm so‘zi shotlandyalik huquqshunos Jon Fergyusson Mak-Lennan tomonidan 1869-1870-yilada yozilgan “O‘simliklar va hayvonlarni ezozlash” nomli asari orqali jahon faniga ilmiy atama sifatida kirib kelgan. [1,10]. Totemizm muammosini hal qilishda G. Spensor, E. Taylor, Robertson Smit, J. Frezer. Van Gennep, S.P.

Tolstov, S.A. Tokarev, D.Y. Xaytun singari dinshunos va elshunos olimlar hizmatlari alohida ahamiyatga molik[1,10]. Totemistik tushunchalar ifodalangan afsonalarni qozoq xalq ogʻzaki ijodida ham koʻplab uchratamiz. Bunday ruhdagi afsonalarning bir nechtasini rus etnografi G.N.Potanin toʻplab nashr etgan (“Kazak – kirgizskaya i altayskaya pridaniya, legendi i skazki”[2,20] Qadimgi odamlar fikricha ikki totemga ega xalqlar ortasida nikohdan jins totemizmi otadan oʻgʻilga, onadan qizga oʻtib kelgan. Masalan, otaning totemi boʻri boʻlsin, onaning totemi kiyik boʻlsin, ulardan tugʻulgan oʻgʻil farzandning totemi boʻri, qiz farzandniki esa kiyik boʻlgan.

Qadimdan turkiylarda totemlar juda koʻp bo ʻlgan. Ilmiy adabiyotlarda turkiy xalqlarning oʻmishda boʻri, ayiq, burgut, ilon, echki, qoʻy, hoʻkiz, daraxt va boshqa hokazo totemlarga etiqod qilganliklaridan guvohlik beradi[1,12]. Abulgʻoziy Bahodirxonning “shajarayi tarokima” asarida qayd etilishicha, Oʻgʻizxon davrida shunqor, burgut, ukki, qarchigʻay, tutunboy, lochin, humoy, taygʻun, qargʻa muqaddas qush – totem hisoblangan[1,12]. Ular hozirgacha saqlanib qolgan ba’zilari etnik guruhlar nomida ba’zilar joy nomlari sifatida. Toponomik joy nomlari sifatida qolgan totem nomlaridan oʻsha yerda yashagan xalqlarni totemi kimligini bilish qiyin emas. Soʻngi yillarda oʻtkazilgan tadqiqotlarga koʻra totemlarga bogʻliq boʻlgan bir necha joy nomlari aniqlanib ular ilmiy istimolga kiritilmoqda. Jumladandan, totemistik tasavvurlar bilan bogʻliq etnonimlarni oʻrganish asnosida *avjin, buqa, bagʻish, bahrin, ovshin, bugʻun, boybo ʻri, guvalak, ilonli, kaltatoy, kojar, kerayit, kiyikchi, javli, olchin, sari, toyloq, tulki, tulgga, toʻpichoq, enaka, esaboy, yobi(yobu), chovgan, chuvalay, qargʻa, qiygʻoqchi, qorabura, qoralochin, qoraqush, qoraqoʻyli, qoraqursoq, quyin, qoʻzichi, qoʻngirot, qoʻchqorquloq* kabi 40ga yaqin turkiy etnonimlarni totimik etiqodlar bilan aloqadorligi aniqlangan[1,13]. Oʻzbeklar tarkibida burgut, burqut kabi etnonimga ega urugʻlar paydo boʻlishi ham totemistik qarashlar bilan bogʻliq boʻlgan[1,12]. Nafaqat oʻzbeklar balki turkiylarda ham qadimgi urugʻlar nomi hayvon, qush va oʻsimliklar nomidan olingan. Masalan: Qoʻngʻirot. Qoʻngʻir rangli ot. Ot totemiga maqolaning ot totemi degan qismida olohida toʻxtalamiz. Yoʻlbars, sher ma’nosini beruvchi, Amir Temurning vakili boʻlgan Barlos urugʻi ham totemik etnonim hisoblanadi. Barloslar Qashqadaryo viloyatining kitob, Shahrisabz, Surxondaryo viloyatining Boysun, Denov, Sariosiyo tumanlarida yashaydilar[1,13].

Shu oʻrinda oʻngun atamasiga ham toʻxtalsak. Oʻngun – muqaddaslashtirilgan hayvon. Oʻngun darajasiga chiqqan hayvonni ranjitmaganlar va tabiiyki ovlamaganlar ham. Totem va oʻngun oʻrtasidagi farq shundaki, totemizmda bir totemga sigʻinuvchi qavmlar oʻrtasida nikohga ruxsat berilmaydi. Oʻngunda esa bunga ruxsat bor. Oʻgʻuzxon

o‘g‘illari va yigirma to‘rt nabirasida har birining o‘ziga daxldor, turkiy qavmlarga mos bir hayvon – o‘nguni bo‘lgan[1,14]. Elshunos K. Shoniyozovning yozishicha, Qorluq davlatida Arslonxon va Bug‘raxon unvonlari bo‘lib, bu nomlar qorluq va boshqa qator turkiy qavmlarning muqaddas o‘nguni hisoblangan[1,14]. Morganning ma’lumot berishicha Irokiz birlashmasi(Mohavk, Oneida, Onondaga, Gayuga(Kayuga)da, Seneka qabilalari) 8 ta hayvon o‘ngun bo‘lgan. Har bir millatda sakkizta qabila bo‘lgan, ular ikki bo‘limga bo‘lingan va quyidagicha nomlangan.

1) Bo‘ri, Ayiq, Qunduz, Toshbaqa,
2) Kiyik, Cho‘qqis, Qarg‘a, Qush.

Aslida, Bo‘ri qabilasi - va qolgan yetti qabilaning har biri - besh qismga bo‘lingan, beshdan biri beshta millatning har biriga joylashtirilgan[3,6]. Bir bo‘lim azolari bir birga aka-uka hisoblanib bu guruhlarda avvaliga nikoh taqiqlangan, kiyinchali, vaqtlar o‘tishi bilan bu taqiq olib tashlangan.

Bo‘ri turkiylarning eng mashhur totemi hisoblanadi. Afsonalarga ko‘ra, G‘arbiy dengiz qirg‘og‘ida yashagan turkiylarning ota-bobolari qo‘shni qabilalar tomonidan qirib tashlandi. Faqat o‘n yoshli bola yashirinib tirik qoldi. O‘sha yerlarda yashaydigan urg‘ochi bo‘ri unga xotin bo‘ldi. Ochlikdan qutqarish, dushmanlardan yashirinish uchun bo‘ri o‘sha bolani olib Turfon tog‘lariga qochib ketdi. Tog‘da bir g‘or bor edi. U yerda urg‘ochi bo‘ri o‘nta bola tug‘di. Bolalarning otasi o‘sha qutqarilgan turk edi. Bo‘ri bolalari Turfondagi ayollarga uylandi. Har bir boladan bir urug‘ kelib chiqdi. O‘g‘illaridan birining ismi Ashin edi. Uning nomi hamma qabila nomini anglatadigan bo‘ldi. Ashin boshqa aka-ukalariga qaraganda qobiliyatliroq, ham aqlliroq edi. Shu sababli Ashin yangi qabilaning dohiysi bo‘lib qoldi. Urug‘ soni asta-sekin bir necha yuz kishiga yetdi. Ashinning merosxo‘rlaridan biri, qabila dohiysi Asya shad bo‘ri avlodlarini Turfondan Oltoy yerlariga olib keldi. Bo‘ri avlodlari bu yerda jujanlarning fuqarosiga aylanib, ularga temir qazib berar edilar Oltoyda ular turk nomini oldilar[2,18]. Qadimgi turkiy qabilalarda ona bo‘riga ehtirom yuzasidan o‘z bayroqlariga oltin boshli bo‘ri tasvirini tushurishgan. Qadimgi turk asotirlarida bo‘ri, rangiga ko‘ra, Ko‘k bo‘ri, Oq bo‘ri, Qizil bo‘ri deb atalgan. U turk asotirlarida Bo‘ri, Bo‘rta, Bo‘rju, Ossano, Sino, Jino, Jina, Jinu, Yashqar, Qashqir, kurt nomlari bilan yuritiladi[1,15]. Yana bo‘ri bilan Rimda ham afsonalar bor. Xitoy manbalarida keltirilishicha bo‘ri va xon bir xil ma’noni anglatgan. Islom dini tasirida bo‘ri totemi ham birov o‘zgarishga uchraydi. Islom dini tasirida turkiy xalqlar ongida o‘rbnashib qolgan bir e’tiqodga ko‘ra, “bo‘ri Hazrati Alining itidir, uni o‘ldirgan Zarar ko‘radi” - degan tasavvur mavjud[1,19].

Bo‘ri bilan bogliq etnonim va toponimlar ham uchrab turadi. Qadimda o‘zbeklar va qirg‘izlarda bo‘ri nomli urug‘ham bo‘lgan keyinchalik bu nom toponim tarzida saqlanib qolgan. Xususan, Andijon viloyati Qo‘rg‘on teoa tumanidagi Bo‘rilik, Samarqand viloyati Payariq tumanidagi Bo‘ri nomli qishloqlar mavjud[1,17]. Vodiy va vohalarda bo‘ri tirnog‘i va tishi omad keltirishi, baloqazolardan saqlashiga ishonch bo‘lgan va uni yosh-u qari tumor qilib taqib yurgan. Bo‘ri tishi tekkan hayvoni yosh kelin-kuyovlar, befarzand ayollar uchun foydali hisoblanganligini xalqshunos olim A. Ashirov o‘z kitobida aytib o‘tgan[1,18]. Alpomishning otasi Boybo‘ri kabi Bo‘ri nomini tashuvchi shaxslar enosay bitiklarida ham uchragan. Xalqimiz orasida chaqaloqlar tishlari bilan tug‘ilsa Bo‘riboy, Bo‘ri, Bo‘rigul deb ism berib u bu bolalarning qolidan kelajakda qatta ishlar kelishiga ishonishadi.

Shuningdek, O‘zbekistonda va turkiylarda yana ot ham eng mashhur totemlardan hisoblangan. Ot insonning eng yaqin do‘sti sifatida ko‘rilgan. O‘zbek urug‘laridan biri farg‘ona vodiysi qipchoqlarida Ot totemi bilan bog‘liq to‘rt ayg‘ir, samanotli, qorabaytal, qulon nomli qator urug‘lar bo‘lgan[1,20]. Ular kelib chiqishini otga bo‘laganlar. Qadimgi turkiylar afsonalariga ko‘ra otning rangi ham malum ma’nolarni anglatgan. Ot hokimiyat ramzi hisoblangan bo‘lib, Jaloliddin Manguberdi, Muzaffar malik va Azam maliklar o‘rtasida ajralishga bitta ot sababchi bo‘lgan ekan. O‘lja bo‘linayotganda bitta ot qolib betadi. U bir kishiga Nasib qilishi kerak edi. Jaloliddin u otni o‘ziga oladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Turkiylar xususan o‘zbek xalqida diniy qarashlar juda qadimdan shakllangan. Ularning ham dinlari dastlab, animistik, totemistik, magik va shomonistik ishonchga asoslangan. Totemlar nomi etnonimga toponimga ko‘chgan. Ular uchun totemlari homiylar hisoblanib totemining biror azosi ular uchun omad keltirib, balo qazodan asrashiga ishonishganlar. Xalqimiz orasida ishi yurushganlarga nisbatan, “Bo‘ri ko‘rgan” iborasi ishlatiladi. Shuningdek, urg‘ochi bo‘rining omad keltirishiga ishonishadi. Turkiy qabilalarda azaldan hayotni otsiz tasavvur qilisholmaganlar. Hattoki, ularning narigi dunyo haqidagi tasavvurlarida ham ot bo‘lgan. Agar jangchi o‘lsa oti, qurol yarog‘i bilan birga ko‘milgan. Agar oilasining otga qurbi yetmasa egar jabdug‘i qo‘shib ko‘milgan. Hozirgi kunda ham odamlar qadimdan totem bo‘lgan hayvon va o‘simliklarni garchi unutgan bo‘lsalarda ularga hurmat ko‘rsatishadi, ozor bermaydi. Qaldirgoch halol bo‘lsada uni yeyishmaydi, uyning fayz barokati deb ezozlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adhamjon Ashirov. O‘zbek xalqining qadimiy etiqodlari va marosimlari: Alisher navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Kutubxonasi nashriyoti//Toshkent, 2007

2. Abdurashid Abdurahmonov. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi: Samarqand, 2006
3. Rev. Edward Payson Johnson, D.D. An Address by Rev. Edward Payson Johnson, D.D., Delivered Before the New York Society of the Order of the Founders and Patriots of America at the Hotel Manhattan, New York, February 16, 1914, *Published by the Society*.

HAZORASP TOPONIMLARINING TARIXIY-ETNOLOGIK VA LINGVISTIK TAHLILI

Adambayeva N. Imomaddin qizi
“Antropologiya va etnologiya” yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, katta o‘qituvchi Abirov V.E.

Annotatsiya: *Maqolada Xorazm viloyatining Hazorasp tumani toponimlari tadqiq etilib, ularning kelib chiqishi, tarixiy asoslari va ularning lingvistik xususuyatlari tahlil qilinadi. Maqolada Hazorasp nomining etimologiyasi, shuningdek tuman hududidagi qishloq va mahallalarning nomlanish sabablari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar. *toponim, Xorazm, Hazorasp, Muxomon, Karvak, Beshta, Pitnak, Juvondir, Pichoqchi.*

HISTORICAL, ETHNOLOGICAL, AND LINGUISTIC ANALYSIS OF HAZORASP TOPONYMS

Annotation: *The article studies the toponyms of the Hazorasp district of the Khorezm region, analyzes their origin, historical foundations, and linguistic features. The article reveals the etymology of the name Hazorasp, as well as the reasons for the naming of villages and mahallas in the district.*

Keywords: *toponyms, Khorezm, Hazorasp, Muxoman, Karvak, Beshta, Pitnak, Juvondir, Pichockchi.*

ИСТОРИКО-ЭТНОЛОГИЧЕСКИЙ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТОПОНИМОВ ХАЗАРАСПА

Аннотайия: *В статье исследуются топонимы Хазораспского района Хорезмской области, анализируются их происхождение, историческая основа и языковые особенности. В статье раскрывается этимология названия Хазорасп, а также причины наименования сел и кварталов района.*

Ключевые слова: топоним, Хорезм, Хазорасп, Мухамон, Карвак, Бешта, Питнак, Джувандир, Пичачечи.

KIRISH

Hazorasp tumani Xorazm viloyatidagi qadimiy va tarixiy jihatdan muhim hududlardan biridir. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan bo‘lib, janubda Turkmaniston, janubi-sharqda Buxoro viloyati, shimolda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va g‘arbda Bog‘ot tumani bilan chegaradosh. Ushbu hudud uzoq tarixga ega bo‘lib, boy madaniyati va turli etnik guruhlarning yashash joyi sifatida ajralib turadi.

Bugungi kunda toponimlarni o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki joy nomlari xalq tarixi, madaniyati va etnik tarkibini aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir. Geografik nomlarning kelib chiqishi va ularning ma’nolarini tahlil qilish orqali hududning tarixiy taraqqiyoti, aholining turmush tarzi, madaniy merosi va diniy e’tiqodlari haqida qimmatli ma’lumotlar olish mumkin. Bundan tashqari, toponimlarni o‘rganish milliy o‘zlikni anglash, til va madaniyatni asrab-avaylash hamda kelajak avlodlarga aniq va ilmiy asoslangan ma’lumot yetkazish uchun zarur hisoblanadi.

Hazorasp toponimlarini o‘rganish nafaqat tarixchilar va tilshunoslar uchun, balki arxeologlar, etnograflar hamda madaniy meros bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun ham muhimdir. Zero, toponimik tadqiqotlar o‘zbek tilining tarixiy qatlamlarini o‘rganish, xalq og‘zaki ijodi va afsonaviy tasavvurlarini tushunish imkonini beradi. Shu bois, ushbu maqolada Hazorasp tumani toponimlarining kelib chiqishi, tarixiy ildizlari va ularning lingvistik tahliliga alohida e’tibor qaratiladi.

ASOSIY QISM

Hazorasp nomining kelib chiqishi va ma’nosi. Hazorasp nomining kelib chiqishi va asl ma’nosi tarix va tilshunoslik fanlarida turlicha qarashlari mavjud. Hazorasp tarixi va tilini ilmiy asosda o‘rgangan va shu to‘g‘risida yirik monografiyalar yozgan mashhur olimlar Yahyo G‘ulomov, S.P. Tolstov, Herman Vamberi, F. Abdullayev, B. G‘apurov va boshqalar “Hazorasp” atamasini ikki qismdan – Hazor(ming) va asp(ot) so‘zlaridan tashkil topgan deb hisoblaydilar[216].

Hazorasp qal’asi tarixiga oid bir afsona keltirilgan. Afsonada aytilishicha: “Hazorasp qal’asini bahaybat dev qurgan emish. Qal’aga ming qanotli (uchar) otlar suv ichgani kelar ekan. Dev ularni aldov yo‘li bilan qo‘lga tushirib, qanotlarini qirqqan va o ‘ziga o‘rgatib olgan. Ushbu afsonaviy uchar otlar tufayli qal’aga Hazorasp, ya’ni “ming ot” degan nom berilgan ekan”[217].

[216] Jiyanov K. Xorazm diyorining “Oltin darvozasi”: Hazorasp va mudofaa qal’alarining o‘chmas tarixi // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 11-son. 20.09.2022.

[217] *Гуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи*. – Т., “Фан”, 1959. – Б. 149.

Yu. Jumanazarov Hazoraspni qabila nomi bilan bog‘laydi[218], ya’ni “Hazora’’ – os bo‘lib, “os qabilasi” degan ma’noni anglatadi. Hazorasp formasi esa “ming ot” asfonasidan vujudga kelgan, deydi. Professor Z. Do‘simov ham ushbu fikrni quvvatlaydi va shunday yozadi: “Os qabilasining Xorazm hududida yashaganligi haqida ma’lumotlar bor. Shuningdek, “Os qal’a”, “Oslar”, “Osyon” kabi toponimlarning mavjudligi bu fikrni tasdiqlaydi[219]. Beruniyning yozishicha, Os qabilalari eramizdan avvalroq shimolga ko‘cha boshlagan[220].

Shunday ekan, ilk o‘rta asrlarga oid asrlarga oid bo‘lgan Hazorasp qal’asini oslar shahri bo‘lganiga ishonish qiyin. Hazorasp qal’asi ilk o‘rta asrlarda qurilmagan, aksincha uning qurilishi haqidagi ma’lumotlar eramizdan oldingi asrlarga, ya’ni Zardushtiylik dining ilk paydo bo‘lishidan buyon qad ko‘tarib turganidan dalolat beradi. Hazoraspning zardushtiylik diniga aloqadorligi haqida quyida to‘xtalib o‘tamiz. ‘‘Hazar” so‘zi “Avesto”da “Otar” (“O” cho‘ziq, “t” yumshoq) bo‘lib, o‘t-olov demakdir. Bu so‘zdagi “t” yumshoq talaffuzda “z” ga o‘tishi fonetik hodisasiga uchragan va “azar” shakliga kelgan. So‘zning tub ma’nosi islom dini sharoitida unutilgach bu so‘z fors-tojik tilidagi “hazor” – “ming” asosida hato talqin qilingan. Natijada, tilimizda “g‘alati-mashhur” lingvistik hodisa yuz bergan. So‘zning asl ma’nosini qayti izohlasak, “Hazar” – Otar ya’ni otash-olov demakdir. So‘zning ikkinchi qismidagi “asp” komponenti “ot” emas, balki, “aspan” – “muqaddas” so‘zining tub ma’nosi, o‘zak qismidir. Otash – Otar – Ozar – Hazar kabi o ‘zgarish qatoridagi tarixiy jarayon boshqa so‘zlarda ham uchraydi. Masalan, qadimiy Aturpatkan o‘lkasining hozirgi nomi Ozarbayjondir. Yana bir misol, xushbo‘y hid tarqatib yonuvchi shifobaxsh o‘simlik – isiriqning o‘zbek shevalaridagi nomi – hazaraspand – qadimgi aturspend so‘zidan kelib chiqqan. Bu ham “muqaddas olov” demakdir. Toponimlarning ma’nosi agar Xorazm zardushtiylik dining asl vatani ekanligini hisobga olsak, “muqaddas olov” bilan bog‘liq ekanligi haqiqatga yaqinroq[221]. “Mazdaizm O‘rta Osiyodan va hatto Xorazmdan kelib chiqqan… Bundaxishning birinchi muqaddas olovni “Adar Xurro”ni Jamshid Xorazmda yoqqan degan fikri haqdir. Adar-Otar-Otash o‘t olov, Xurro- quyosh demakdir[222]. *Bundaxishning birinchi muqaddas olovi “Adar Xurro”ni Jamshid aniqrog‘i Hazoraspda yoqadi va bundan kelib chiqadiki, Hazorasp – muqaddas olov qal’asi, quyoshga sajda qiluvchilar mamlakati deganidir.*

---

[218] Jiyanov K. Xorazm diyorining “Oltin darvozasi”: Hazorasp va mudofaa qal’alarining o‘chmas tarixi // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 11-son. 20.09.2022.
[219] Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati, –T., 1977. – B.160.
[220] Beruniy, “Tarixi Xorazm”, I. III, 95
[221] Hazorasp tarixi. Urganch., 1998. – B. 10
[222] *Гуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи*. – Т., “Фан”, 1959. – Б. 47.

Hazorasp tumanidagi qishloqlar nomining kelib chiqish tarixi. Pitnak qishlog‘i. Pitnak Xorazmning qadimiy qishloqlaridan biridir. Pitnak Xorazimiylar tilida Pitnak ‘‘cho‘l’’ ‘‘sahro’’ ‘‘dengiz’’ ma’nosini bildiradi. Mahalliy tarixchilar Pitnak atamasini ‘‘bir parcha’’ deb tushuntiradilar.

Muxomon qishlog‘i. Muxomon qishlog‘i tuman markazidan sharqiy tomonidan joylashgan qadimiy maskandir. Ushbu nomning kelib chiqishi to‘grisida xilma xil fikrlar mavjud. Muxomon ‘‘Muxor’’- ‘‘muxo’’ mo‘gul tilida davomi yo‘q degan ma’noni bildiradi, ‘‘miyon’’ esa fors tojik tilida ‘‘o‘rta’’ degan ma’noni ifodalaydi.

Beshta qishlog‘i. Beshta qishlog‘i tuman markazining janubi-g‘arbiy tomonida joylashgan. “Beshta” nomli qishloq nomining ma’nosi, paydo bo‘lishi haqida ham turlicha qarashlar mavjud. Aslida “Beshta” toponimi besh soni bilan bog‘liq emas, u 2500 yillik tarixga ega bo‘lgan tarixiy nom sanaladi. U Xorazmiycha “pesh”, ya’ni “old tomon” degan ma’noni anglatadi va “ta” qismi esa “daha” so‘zining qisqartirilgan dialektal variantidir. Demak, “Beshta” aslida “Peshdaha”, ya’ni old qishloq deganidir[223].

Juvondir va Pichoqchi qishloqlari. Nomi afsona va rivoyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan bu ikki maskan Xorazmning qadimiy qishloqlaridan hisoblanadi. Pichoqchi atamasi esa pichoqsozlik elatining xorazmcha nomidan kelib chiqqan.

Karvak qishlog‘i. Karvak qishlog‘i nafaqat Hazoraspda balki Xorazm viloyatidagi eng qadimiy qishloqlardan hisoblanadi. Professor Z. Do‘simov qishloq nomining kelib chiqishi ilk taponimlar davri ‘‘Kas’’ atamasiga aloqador deb hisoblaydi. Qadimgi Xorazm tilida “kard” xovli qo‘rg‘on qo‘ra joy ma’nolarini bildiradi. Karvak bekning uyi bekning qo‘rg‘oni bek yashaydigan joy degan ma’nolarni bildiradi. Karvak so‘zining yana bir ma’nosi Kaba arig‘i oqib o‘tadiga hudud karvonlar to‘xtab dam oladigan joy degan manolarni anglatadi.

Karvak qishlog‘ida joylashgan “Mirsiddiq bobo” qabristoni haqida. Qabristonning “Mirsiddiq bobo” deb nomlanishiga sabab avliyo hisoblangan Mirsiddiq bobo aynan shu joyga dafn qilingan. Rivoyatlarga qaraganda, o‘zbeklar endigina Islom dinini qabul qilgan vaqtlarda arablarga zakot to‘lashgan. Zakotni har yili Arabistonga jo‘natishgan. Zakotni manziliga yetazishda qiyinchilikka duch kelishgan yo‘l olis karvonni qaroqchilar talashgan ana shunday paytda Arabiston yarim oroliga Mirsiddiq bobo bilan Muhammad Valat bobo elchi sifatida jo‘natilgan. Ularga arab xalifasi bilan kelishib zakotni arabistonga olib kelmasdan,

[223] Xudoyberganov R.Y. va boshqalar. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. - T., ‘‘Donishmand ziyosi’’, 2022. – B. 8.

boshqacha yo‘l bilan to‘lashni taklif etganlar. Natijada, Sayid Maziddin yani Oltialm boboni vakil sifatida jo‘natishadi, lekin Sayid Maziddin yosh bo‘lganligi sababli Mirsiddiq bobo bilan Muhammad Valat bobo uni yelkasida ko‘tarib olib kelishadi. Shundan boshlab arablarga to‘lanadiga zakot shu kishiga beriladi. Ularning avlodlari bugungi kunda Hazorasp tumani “Karvak xo‘jalari” deyiladi.

XULOSA

Hazorasp tumani o‘zining boy tarixiy merosi bilan ajralib turadi. Uning toponimlari faqat lingvistik yoki tarixiy jihatdan emas, balki madaniy merosni asrab-avaylash nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Ushbu tadqiqotlar orqali biz nafaqat o‘z tariximizni chuqurroq anglaymiz, balki kelajak avlodlarga ham boy ilmiy va madaniy merosni yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Toponimlarni o‘rganish orqali Hazoraspning qadimiyligiga oid muhim dalillar topiladi. Bu esa xalqimizning ildizlari, madaniy rivojlanishi va tarixiy bosqichlarini yaxshiroq anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, toponimik tadqiqotlar tilshunoslik, tarix, arxeologiya va etnografiya fanlari uchun ham katta ahamiyatga ega.

Hazorasp va uning qishloqlari nomlarining kelib chiqishi haqidagi turli ilmiy yondashuvlar madaniy va tarixiy kontekstlarni tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotlar orqali milliy o‘zlikni anglash, tarixiy bilimlarni boyitish va madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish imkoniyati kengayadi. Shu sababli, Hazorasp toponimlarini o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati, –T., 1977.
2. Hazorasp tarixi. Urganch:. 1998.
3. Jiyanov K. Xorazm diyorining “Oltin darvozasi”: Hazorasp va mudofaa qal’alarining o‘chmas tarixi // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 11-son.
4. Xudoyberganov R.Y. va boshqalar. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. - T., ‘‘Donishmand ziyosi’’, 2022.
5. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – *Т., “Фан”, 1959.*

ANTROPOLOGIK TADQIQOTLARDA FANLARARO YONDASHUV: GENOM TADQIQOTLARI MISOLIDA

Ergasheva Mohichexra
"Antropologiya va etnologiya" yo'nalishi 1-kurs talabasi
E-mail manzil: ergashevamohichexra744@gmail.com
Ilmiy rahbar: PhD B.Zokirov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada old tarixni o'rganishda arxeologiya, antropologiya, geografiya, numizmatika, xronologiya fanlari kabi genetika faning ham muhim axamiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bunda so'ngi paleolit davri, mezolit, neolit davrida yashagan qabila, urug' vakillarining DNK kasi genetikasi orqali ularning nima is'temol qilganligi, qanday iqlimli xududlarda yashaganligi, o'sha davrda qanday kasalliklar bo'lganligi xatto ular bilan topilgan suyaklar orqali hayvonlar qo'lga o'rgatilinganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Albatta maqolada asosiy qisim so'ngi paleolitning muhim topilmalari sanalgan Sunghir bolalari tog'risida bir nechta maqola va kitoblardan olinib to'plangan ma'lumotlar ham keltrilgan.*

Kalit so'zi: *genom, genetika, DNK, qabr topilmalari, so'ngi paleolit, mezolit, neolit, Rossiya, Sunghir bolalari, uy hayvonlari, baliq va yovvoyi hayvon go'shti, ichak chuvalchanglari, parazitlar, grip, frakturalar suyak yemirilishi, chechak,*

KIRISH

Old tarix va ummumiy tarixni o'rganishda ham yozma manbalar va moddiy yodgorliklar muhim o'rin tutadi. Ammo zamonaviy ilim faning rivojlanishi genetika va genetik tadqiqotlarning tarixni o'rganishda muhimligini ko'rsatadi. Ushu bu tadqiqotlar tarixiy ma'lumotlarni yanada aniq qilib berishga va ayrim ilmiy muaomolarni bartaraf etishga yordam beradi. Genetika irsiyat va irsiy o'zgaruvchanlikni ham o'rganadi. Fanga 1865-yilda Avtyalik olim Gregor Mendel tomonidan asos solinadi. Genetika fani ibtidoiy jamoa davrini genetik tadqiqotlar orqali insoniyatning kim bo'lganligi, dunyoga tarqalishi, tabiatga moslashishi, jamoalarda qarindoshlik munosabatlarini o'rganishda va Ibtidoiy jamoa davrdagi taomlanish va kasalikllar haqida aniq ma'lumotlar to'plashda yordam beradi. Ibtidoiy davrda bo'lgan voqealarni aniqlashtirishda tabiiyki o'sha davr bilan bog'liq topilmalar suyaklar, suyaklar topilgan g'orlar yoki qabrlar muhim axamiyatga ega bo'lgan bular orqali qarindoshlik aloqalari qandayligini ham aniqlash mumkin bo'lgan.

Misol tariqasida Yuqori paleolitning sirli qoldiqlari deya ta'riflanadigan Sunghir Bolalari topilmasini olsak bo‘ladi. Ushu bu topilma Rossiyaning Sunghir arxeologik yodgorliklaridan topilgan bo‘lib, miliddan avvalgi 24 000 yilga tegishli, qabrlardan chiqgan biri kattaroq va kichik yoshdagi aka-uka suyaklaridir. Taxmin qilinishicha bu bolalarning biri 12-13yoshda, ikkinchichi 9-10 yoshda ekanligi aniqlangan. Ayrim tadqiqotchilar ularni biri og'il boshqsi esa qiz bola ekanligini yozgan bo‘lsa, ko‘p joylarda aka-uka deya etilgan. Qabrga bir vaqtning o‘zida dafn qilingani va qabr nihoyatda chiroyli qabr bezaklari bilan bezatilingani aniqlangan. Bolalar ko‘p marvarid, fil suyaklari va suyakdan yasakgan qurollar bilan birga dafn qilingan. Genetik va arxeologik tadqiqotlar yuqori paleolita diniy marosimlar dafn qilish marosimlari shaklangani bildiradi. Suyaklar o‘rganilinganda son qisming kaltaligi, umurtqa suyaklari egilib turgani aniqlangan. Sunghir ko‘p manbalarda taxmin qilingan qiz bolaning son suyaklari qisqa va oldinga egilgan bo‘lib, bu uning jismoniy cheklovlari bo‘lganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, uning boy bezaklar bilan dafn etilishi, o‘sha davr jamiyatida jismoniy nuqsonlarga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan hurmat va e'tibor ko‘rsatilganini anglatadi.[224]

Ayrim bosqa manbalarda bu topilmalar 34000 – 30000 yilga tegishli ekanligi aytilgan. Aynan bu topilmalarda genetic tadqiqotlar va ular orqali olingan ma'lumotlarni ko‘radigan bo‘lsak, Sunghir bolalari genetikasi o‘rganilganda ular taxmin qilinganidek aka-uka emasligi xatto yaqin qarindosh ham emasligi aniqlangan. Ular uzoq qarindosh bo‘lgani aniqlangan bu o‘sha davrlarda ichki nikoh darajasi pas bo‘lgani bildiradi. Genetik tadqiqotlar Sunghir bolalari DNK kasi orqali aholida irqiy xilma-xilikni ham aniqlagan. Sunghir aholisi Yevropaning dastlabki aholi vakillari hisoblangan lekin hozirgi Yevropalik aholi bilan genomlari solishtirilganda bir-biriga o‘xshashliklar yo‘qligi aniqlangan. Sunghir erkaklarining Y-chromosomasi tahlil qilinganda, ularning o‘sha davrdagi boshqa Yuqori Paleolit odamlariga o‘xshashligini ko‘rsatgan. Mitoxondrial DNK orqali Sunghir bolalarining onalik nasl-nasabini aniqlash mumkin bo‘lgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ularning onalari ham nisbatan boshqa-boshqa bo‘lgan.[225]

Genetik tadqiqotlar insoni qayerda yashagani va hatto ular yashagan hududning iqlimini bilishda ham yordam beradi. Masalan jamoalar sovuq

---

[224] **V. Formicola** va **P. Buzhilova.** Double child burial from Sunghir (Russia)// American Journal of Physical Anthropology. –AQSH, 2004, --B. 189-198.; onlinelibrary.wiley.com

[225] Slava A. Mikhail V. Alena S. Anastasia D. Ancient genomes show social and reproductive behavior of early Upper Paleolithic foragers// *Science. –AQSH, 2017, --B* 659–662.;

iqlimda yashagan bo‘lsalar sochlari qalin, burunlari katta bo‘lgan, Xozirgi Yevropa xududida qadimda yashagan jamoa vakillarining ko‘zlari ko‘k terilari qoramtir tusda bo‘lgan, issiq joylarda yashovchilar terilari toq qoramtir tusda bo‘lgan.

Ibtidoiy odamning DNK kasi ularning qanday oziq ovqat iste’mol qilgani va qanday kasallikalrga chidamli ekani bilish imkonini beradi. So‘nggi paleolit va mezolit davrida odamlar ko‘p harakat qilishgani uchun bo‘g‘im va suyak kasalliklari keng tarqalgan. Frakturalar (sinishlar) va suyaklarning sinishalri ko‘p uchraydi, chunki ovchilik va qo‘lda mehnat qilish kuchli charchashga sabab bo‘lgan. Arxeologik qazishmalarda topilgan suyaklar bu davr odamlari suyaklar bilan bog’liq kasalliklardan aziyat chekkanini ko‘rsatadi. Suyak yemirilishiga yana sabablarga Mezolit va Neolit davrida asosiy oziq ovqat manbalari donli mahsulotlar, sut mahsulotlari, uy hayvonlari sabzavot va mevalar iste’mol qilgani, buni natijasida don ko‘p iste’mol qilinganligi uchun suyaklar yemirilishi bilan bog’liq kasaliklar kuzatilgan. O‘rmonlar va suv havzalari yaqinida yashagan mezolit davri odamlari parazitar infektsiyalar (ichak gijjalari) bilan kasaliklar aniqlangan. Paleolit ovchilik va temirchilik dvari go‘sht, yovvoyi o‘simliklar, baliq, hasharotlar iste’mol qilgan o‘z navbatida bu ham ichak chuvalganglari, parazitlar bilan bogliq kasaliklar kuzatilgan. Mezolit va Neolit davrida hayvonlarini qo‘lga o‘rgatilish jaroyonlari boshlangan. Tabiyki qo‘lga o‘rgatilingan hayvon insonlar bilan bir xil taomlangan, topilgan hayvon suyaklari DNK kasi o‘rganilinib agar unda o‘sha davr insonlari DNK kasi bilan bog’liq ma’lumot bo‘lsa bilish mumkinki bu hayvon qo‘lga o‘rgatilingan. Hayvonlarni qo‘lga o‘rgatilishinishi insonlarda hayvonlarda yuqadigan chechak va grib kasaliklarini tarqalishiga sabab bo‘lgan. Songgi paleolit davrida deyarli uchramagan bu kasallik odamlarning yangi osimliklar iste’mol qilishida mezolit davri odamlarida uchraydi. Bu tish kasaliklari bolib mezolit davri odamlarda uchrab genetik tadqiqotlar mezolit davri topilmasida odamlar tish kovaklari uchun dastlab davoni oylab topgani haqida ma’lumotlar to‘plangan. Bu davo tish kovaklariga nisbatan bo‘lgan ya’ni tishlarini tozalash maqsadida ularni qiqirib tozalaganlar.[226]

XULOSA

Genetika fani zamonaviy ilm-fan bilan birga shakillanib tarixiy tadquqotlarni yanada aniqshlashtirib berishga yordam beradi. Genetika inson DNK kasi orqali insonning izo toplarida saqlanib qolgan ma’lumotlar orqali o‘sha davrlada nima iste’mol qilingan qanday kasaliklar bolgani aniqlashdan ham yordam beradi. Suyaklarning

[226] Mitchell, P. D. Human parasites in the Roman World.// *Parasitology*, --Buyuk Britaniya 2013, --B 48-58.;

o‘rganilishi natijasida suyaklarda boladigan yemirilish xolatlari ham kuzatilinadi bu esa aynan o‘sha davrlarda og’ir mexnat bolgani yoki kop don yiyilsh natijasida kalsiyning kopayishi orqali kasaliklar kelib chiqqanj haqida qimmatli ma’lumotlar to‘plagan. Gregor Mendel, Thomas Hunt Morgan, James Watsen kabi olimlar o‘rganib tadqiqotlar olib borishgan. So‘ngi paleolitning noyob vakillari hsioblangan Sunghir bolalari Sunghir xalqlarining irqlari ulardagi ichki nikohlar haqida ham aynan genetikasi orqali aniqlangan. Bu tadqiqotga doir dastlabki ma’lumotlar 1955-yilda chop etilgan bo‘lib shundan keyin 1980-2000 yillargacha hech qanday ma’lumotlar berilmagan. Aynan shu yillardan boshlab bu mavzu ko‘plab arxeologik tadqiqotlar mavzusi bo‘lib genetika ham bu ma’lumotlarni aniqlashtirishda ham yaqindan yordam bergan. Fan bugungi kunda o‘zining tadqiqot usullari bilan yangi tadqiqotlarni o‘rganib kelmoqda.

САЛАРЫ: ИСТОКИ, ЯЗЫКОВОЕ НАСЛЕДИЕ И КУЛЬТУРНАЯ САМОБЫТНОСТЬ

Фарангиз Ахмаджонова
Факультет китаеведения напрваления филологии
Студентка 1-курса
Научный руководитель: Султанова Л.А

Аннотация: *Статья посвящена исследованию истории и культуры саларов – уникальной этнической группы, проживающей в Китае. Прослеживая их происхождение, статья раскрывает связь саларов с тюркскими кочевниками, совершившими многовековую миграцию по Шелковому пути. Анализируется исторический путь этого народа, начиная от их предполагаемой прародины в Самарканде и заканчивая оседлой жизнью в провинциях Цинхай и Ганьсу. Особое внимание уделяется влиянию Шелкового пути на формирование их культуры, языка и традиций. Статья также рассматривает особенности современного положения саларов в Китае, исследуя, как они сохраняют свою идентичность в условиях глобализации и межкультурного взаимодействия. Проливая свет на малоизвестные страницы истории, эта работа позволяет лучше понять культурное разнообразие Китая и роль Шелкового пути в формировании этнического ландшафта региона.*

Ключевые слова: *Салары, Китай, этническая группа, тюркские народы, Шелковый путь*

Annotation: *This article is dedicated to the study of the history and culture of the Salars, a unique ethnic group residing in China. Tracing their origins, the article reveals the connection of the Salars to Turkic nomads*

who undertook a centuries-long migration along the Silk Road. The historical path of this people is analyzed, starting from their supposed ancestral home in Samarkand and ending with a settled life in the provinces of Qinghai and Gansu. Particular attention is paid to the influence of the Silk Road on the formation of their culture, language, and traditions. The article also examines the features of the modern position of the Salars in China, exploring how they preserve their identity in the context of globalization and intercultural interaction. Shedding light on little-known pages of history, this work allows for a better understanding of the cultural diversity of China and the role of the Silk Road in shaping the ethnic landscape of the region

Keywords: *Salars, China, Ethnic group, Turkic peoples, Silk Road*

Салары - тюркоязычный народ в Китае, потомки туркменского племени салыр; живут в Сюньхуа-Саларском автономном районе и других районах провинции Цинхай, а также в провинциях Ганьсу и Синьцзян. Численность — 104 503 человек (перепись, 2000). Саларский язык испытал значительное влияние китайского и тибетского языков; используемая в настоящее время письменность — на латинской основе. Антропологически салары неоднородны: но преобладает монголоидный тип. По религии — мусульмане-сунниты, незначительная часть исповедует тибетский буддизм. Основные традиционные занятия — пашенное земледелие, скотоводство, приусадебное садоводство и огородничество, кузнечное и гончарное ремесла.

Салары-одна из тюркоязычных народностей КНР, чья история происхождения тесно связана с огузами. Наука располагает крайне скудными сведениями по истории саларов. Но несомненно, что истоки саларской народности восходят к племени салгур, которое известный средневековый филолог Махмуд Кашгарский (XII в) относил к одному из огузских племен.[227]

Согласно саларской традиции и китайским хроникам, салары являются потомками племени салур, принадлежащего к тюркскому племени огузов Западно-тюркского каганата. Выдвигались различные теории о происхождении саларов. На данный момент преобладает точка зрения, согласно которой предки саларов происходили из региона Самарканд в Центральной Азии во времена династии Юань (1271-1368).

Согласно легенде, предки саларов мигрировали из среднеазиатского Самарканда на восток провинции Цинхай в XIV веке.

[227] Тенишев Э.Р. Саларский язык. М., 1963; Саларские тексты. М., 1964 стр 7-8

Легенда рассказывает, что два брата-прародителя этого народа - Ахман и Караман были оклеветаны на родине и решили покинуть дом, чтобы не жить по соседству с клеветниками. Отец дал им с собой в дорогу сосуд с водой, мешочек с землей, 30 частей Корана и весы и, провожая в путь, наставлял: «Идите на юг и, где остановитесь, сравните вес местной воды и земли с весом воды в сосуде и земли с родины, где вес будет равным, там и живите. Следуйте содержанию Корана и соответственно поступайте». Погрузив пожитки на спину верблюдицы, братья отправились по Великому шелковому пути в сторону Китая.

Долгий путь прошли странники, миновали Пекин, Ланьчжоу, Ганьджа и южные земли – нигде вес земли и воды не был равным. Наконец, прибыли в Синин. Оглянулись – кругом холмы и сухая земля. Взвесили на весах местную воду и землю, сравнив с привезенными с собой, и – о, чудо! – вес сравнялся. В ту же ночь братья получили другой знак – их верблюдица дошла до источника Алтиюли, где безжизненно свалилась наземь. Братья пытались ее поднять, но у них ничего не получалось. Тогда они сняли с животного груз, и верблюдица тут же превратилась в большой белый камень. Так братья и остались жить на этой земле.

Белая верблюдица стала национальным символом саларов. В городе Сюньхуа установлена мраморная скульптура склонившей колени верблюдицы с сумой и Священной книгой. На основе легенды были поставлены сценки, как правило, разыгрываемые на свадьбах.[228] Коран, который два брата привезли с собой в Китай, по сей день хранится в автономном округе Синьхуа Салар в Большой мечети Цзецзы в Хайдуне, Цинхай,Нанкинский музей восстановил Коран, чтобы защитить его от разрушения.[229]

Саларский язык входит в семью тюркских языков. Язык саларов имеет два диалекта: жителей селения Гэйцзы(с чиншуйским говором) и населения горного района Мынта. Первый охватывает западные районы уезда, второй- восточные. Большая часть саларов говорит на гэйцзинском диалекте. Различия между саларскими диалектами невелики- они проявляются главным образом в фонетике и лексике. У салар сохранились книги вероучительного и исторического содержания на арбаской графике. Эти книги написаны на языке, близком к среднеазиатско-тюкрскому письменному языку, спаянному с местными, чисто саларскими элементами.

[228] https://www.chinatrips.ru/guide/culture/salar.html
[229] https://www.chinadaily.com.cn/english/doc/2004-10/20/content_384056.htm

Салары в массе своей владеют китайским языком, многие тибетским(северо-амдоский говор). Салары пользуются китайским языком на правах официального языка. На нем преподают в школах, ведется радиовещание, осуществялется административная жизнь. Саларский язык содержит довольно много слов, заимствованных из китайского и тибетского языков в результате долгих лет взаимных контактов.

На сегодняшнее время саларский язык находится под угрозой исчезновения из-за ряда факторов.Например большинство саларцев не используют какой-либо письменности для своего языка салар,вместо этого они используют китайские иероглифы для практических целей. Саларский язык является их разговорным языком, в то время как китайский язык используется как разговорный, так и письменный. Молодое поколение саларов всё чаще переходит на китайский язык (путунхуа), особенно в городских районах.Исторически саларский язык использовал арабскую графику, но в современности она практически вышла из употребления. Это усложняет его изучение и сохранение.

У салар были свои собственные уникальные родственные кланы. Браки среди салар устраивают свахи и родители. Салар - предприимчивый народ, занимающийся различными видами бизнеса и отраслей промышленности. Они занимаются сельским хозяйством и садоводством. Они выращивают чили и перчинку в своих садах. Среди выращиваемых ими культур - гречиха, просо, пшеница и ячмень. К другим важным культурам относятся дыни, виноград, яблоки, абрикосы и грецкие орехи. Несколько саларов разводят домашний скот, а местная лесная промышленность также является еще одним источником дохода для некоторых деревень.

Генерал Хуэй Ма Фусян набирал наемников в свою армию и говорил, что они переехали в Китай со времен династии Тан. Он подразделяет их на две группы: пять внутренних кланов и восемь внешних. Ма сказал, что внешняя группа говорит по-тибетски, не зная своего родного языка. Салары вступают в брак только с другими саларами. Уйгуры говорят, что они не понимают язык саларов.Ма и Хан - два наиболее распространенных имени среди саларов. Как и хуэй, Ма означает "Мухаммад"; однако многие салары также носят фамилию Ма из-за смешанных браков с хуэями.Четыре высших клана саларов приняли фамилию Хань и жили к западу от Сюньхуа.

В 2000 году средний возраст вступления в первый брак для саларских женщин составлял 18,69 лет, в то время как в 1990 году тибетские женщины выходили замуж в среднем в возрасте 23,8 ле

Традиционная одежда саларов очень похожа на одежду народа хуэй в этом регионе. Мужчины обычно носят бороды и белые рубашки и белые или черные тюбетейки. Традиционная одежда мужчин - куртки и халаты. Молодые незамужние женщины привыкли одеваться в китайскую одежду ярких цветов. Замужние женщины используют традиционную вуаль белого или черного цвета.

Находясь под сильным влиянием ислама, салары придерживаются примерно таких же обычаев, как и хуи, живущие поблизости. Женщины любят носить на голове платки и черные безрукавки поверх одежды ярких красных тонов. Они хорошо вышивают и часто вышивают цветы пяти разных цветов на своих наволочках, обуви и носках. Мужчины носят шляпы без полей с плоской головкой черного или белого цвета, а зимой - дубленки без подкладки и шерстяную одежду. С течением времени в результате социально-экономического развития некоторые обычаи саларов изменились. Например, полигамия была отменена, а число детских браков значительно сократилось. Экстравагантная практика массового забоя скота на свадьбах, похоронах и фестивалях была изменена.

Типичным жанром народных мелодий является “Хуаэр” (цветок), разновидность народной песни, звучно и безудержно исполняемой на китайском языке. Однако в большинстве случаев она звучит сладкозвучно, благодаря влиянию тибетских народных песен. Все певцы могут импровизировать в соответствии с тем, что задевает их сердца. С 1949 года в этот вид искусства были внесены значительные изменения. У саларов также есть музыкальный инструмент под названием кусюань. Это струнный инструмент, изготовленный из серебра или меди, длинной в 0,5 см. Сила звука, когда в него дуют, сравнительно слаба, звучит, словно жалобы сквозь слезы, глубоко волнуя людей.[230] Это инструмент на котором играют только женщины.Теперь салары поют, чтобы выразить свою радость по поводу новой жизни. Среди саларцев процветают любительские театральные труппы, песенные и танцевальные коллективы.

Салары приняли ислам в конце 17-х и начале 18-го века, они остались глубоко религиозными и считаются одними из самых ревностных мусульман в Китае. Это способствовало напряженности в отношениях с правительством Китая. В 1958 году, когда Мао Цзэдун опасался, что салары и другие мусульмане поднимут восстание, правительство удалило всех саларов из страны. мулл (мусульманских учителей и духовных лидеров) с официальных постов. Однако муллы

[230] Основные сведения о Китае, Национальности Китая, Ван Цянь, перевод Чжао Сюцинь, 2004.10, Межконтинентальное издательство Китая стр 158-159

были восстановлены в должности в период реформ в 1980 году. Строгая религиозная практика также вызвала напряжение в общинах салар. Некоторые молодые салары считают, что строгое соблюдение ислама сковывает их в меняющемся мире, и становятся менее жесткими в своей приверженности вере.[231]

В производственной деятельности саларов традиционно преобладают земледелие. Они - искусные садоводы, занимаются также лесоразработками, выделкой кожи. Близкие по кровному рацу люди обычно селятся сообщая об одном районе. В устройствах их жилья сохраняется среднеазиатский стиль. Образ жизни саларов близок национальности Хуэй. Салары любят пить чай с молоком, а также напиток из прожаренной пшеницы, но при том знают толк производстве употребления чая и в чайной церемонии. Главные праздники саларов-Ураза-байрам и Курбан-байрам.

Салары представляют собой уникальную этническую группу, чья культура, язык и традиции сформировались под влиянием сложного исторического и географического контекста. Будучи потомками мигрантов из Средней Азии, они сохранили элементы тюркского языка, адаптировав их к китайской среде, что делает их важным объектом изучения для лингвистов и этнографов.

Их религиозные обычаи, связанные с исламом, гармонично сочетаются с локальными культурными особенностями, что демонстрирует высокий уровень адаптации без утраты этнической идентичности. Социально-экономическое положение саларов в современном Китае отражает процесс интеграции в китайское общество при сохранении культурного самобытности.

Изучение саларов важно не только для понимания их истории и культуры, но и для анализа взаимодействия разных этнических групп в рамках одного государства. Дальнейшие исследования их языка, традиций и социального статуса будут способствовать более глубокому пониманию этнического разнообразия и межкультурного взаимодействия в Китае.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Тенишев Э.Р. Саларский язык. М., 1963; Саларские тексты. М., 1964, 7-9 с
2. https://www.chinatrips.ru/guide/culture/salar.html
3. "Oldest handwritten Koran needs protection" China Daily. 20 October 2004. Retrieved 1 April 2013.

[231] Elliot, Sheila Hollian (2006). Muslims in China. Philadelphia: Mason Crest Publishers. стр 67-68

4. Barbara A. West (2008). Encyclopedia of the Peoples of Asia and Oceania, Volume 1. Infobase Publishing. p. 701. ISBN 978-0-8160-7109-8. Retrieved 11 December 2015.
5. Elliot, Sheila Hollian (2006). Muslims in China. Philadelphia: Mason Crest Publishers. ISBN 1-59084-880-2.
6. http://www.china.org.cn/english/features/EthnicGroups/136947.htm
7. Основные сведения о Китае, Национальности Китая, Ван Цянь, перевод Чжао Сюцинь, 2004.10, Межконтинентальное издательство Китая

V SHO‘BA
SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI

ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ’’ ASARIDA TA’RIFLANGAN YAXSHI XULQ VA YOMON XULQ TAHLILI

Mannobova Munisa O‘ktamjon qizi
“Sharq falsafasi va madaniyati” yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD Ikramova Iroda Rixsivayevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axloqiy harakterga ega bo‘lgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari asosida axloqiy masalalar va hozirgi davrga oid bo‘lgan axloqiy muammolar haqida bayon etiladi. Shuningdek, yaxshi xulq va yomon xulqning xususiyatlariga tavsif beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Axloq, tarbiya, xulq, yaxshi xulq, yomon xulq, tarbiyaning ko‘rinishlari,ilm va aqsomi ilm, sabr, intizom,vijdon,Vatanni suymoq, iffat va hayo, sadoqat, adolat, muhabbat, g‘azab, g‘iybat, haqorat, hasad, tama, zulm.*

KIRISH

Axloqiy kitoblar jumlasidan hisoblangan, Abdulla Avloniy qalamiga mansub “Turkiy guliston yoxud axloq” asari betakrorligi bilan ajralib turadi. Inson axloqida qanday sifatlar mavjud ekanligi va ularning xususiyatlari yoritilgan ushbu asarda muallif payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) so‘zlaridan keltirib o‘z fikrlarini isbotlab bayon etgan. Umumiy tarzda asarni yaxshi xulq va yomon xulqning bayonotiga asoslangan desak ham bo‘ladi. Negaki, muallif insondagi xulqning barchasini guruhga ajratgan holatda taqdim etadi. Avvalo, asarda xulq shakllanguncha bo‘lgan bosqichlar keltiriladi. Bulardan dastlabgisi bu tarbiyadir. Tarbiya axloqning asosidir. Xulq esa axloqning avvalgi ko‘rinishidir. Yani, tarbiya-xulq-axloq tartibiga ega bo‘ladi. Xulqning ko‘rinishlarini tavsiflashdan avval tarbiyaning uch turi haqida ma’lumot berilgan ushbu asarda: fikr tarbiyasi, badan tarbiyasi va axloq tarbiyasi asarni boshlab beradi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, xususiylik usullarida Ibn Sinoning “Oriflar maqomi ” va “Farovonlik” to‘g‘risidagi falsafiy qarashlari obektiv ochib berildi. Mantiqiylik tamoyilida esa, aql va ruhning qiyosiy tahlili, hamda baxt-saodat masalasida aqlning yuqori o‘rinda ekanligi tadqiq qilindi. Tizimlilik, Inson hayoti davomida baxt-saodat uchun intilib yashashi va unga erishishda duch keladigan muammolarni yechishi tizimlilik metodi sifatida talqin etildi. Tahlil va

qiyoslash metodi sifatida Sharq va G‘arb dunyosida baxt-saodat masalasining ahamiyati keltirib o‘tildi.

Avloniy “Axloqimizning binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r tasiri bordur, ba’zilar “tarbiyaning axloqqa tasiri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas”[232] degan fikrni keltirib o‘tadi. Ushbu fikrlar albatta to‘g‘ri. Negaki, inson ona vujudida ekanidan boshlab axloqi, tarbiyasini shakllantirib boradi. Hayoti davomida inson axloqi ko‘rganlari, kechirganlari natijasida o‘zgaradi.

Tarbiyaning ko‘rinishlaridan dastlabgisi bu badan tarbiyasidir. Inson badanni poklar ekan unga zarar beruvchi narsalardan voz kechadi. Ham dunyoviy, ham diniy olami uchun tarbiyalanadi. Badanning salomatligi bo‘lsagina inson o‘qiy oladi, o‘qita oladi, o‘zi uchun va boshqalar uchun harakat qila oladi. Badan tarbiyasi go‘zal bo‘lgan insonlar yomon amallardan saqlanadi, aksincha bo‘lsa har bir qilgan amali, ishlarining barchasida kamchilikka yo‘l qo‘yadilar. Badanning salomatligi fikrning salomatligidir. Shunday ekan tarbiyaning navbatdagi turi bu fikr tarbiyasidir. Fikr tarbiyasi insonning vijdoni bilan aloqador desak bo‘ladi. Chunki, berilayotgan fikr haqiqat yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin. Shuning uchun fikr berishda har bir shaxs tarbiyaviy jihatdan, vijdonan amal qilishi kerak. Bu fikr tarbiyasining eng go‘zal namunasi bo‘la oladi.

Tarbiyaning so‘nggi ko‘rinishi bu axloq tarbiyasidir. Axloq tarbiyasini inson haqidagi taassurotlarni ko‘rsatuvchi omil desak ham bo‘ladi. Yani, badan tarbiyasi va fikr tarbiyasi a’lo bo‘lgan inson o‘zidagi ushbu jihatlarni axloqiy tarzda namoyon qiladi. Insonning o‘zga bilan munosabatlarida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, muallim va o‘quvchi o‘rtasidagi axloqiy tarbiya, ota-ona va farzand o‘rtasidagi, do‘st va yaqinlar o‘rtasidagi axloqiy tarbiya va boshqalar.

Tarbiyaning natijasida insonda xulq shakllanadi. Asarda Avloniy xulqni ikki guruhga ajratadi va insondagi xulqning ko‘rinishlarini ushbu guruhlarga jamlaydi. Birinchisi bu yaxshi xulqlar hisoblanadi. Yaxshi xulq sifatida Vatanni suymoq, iffat, hayo, sabr, ilm va aqsomi ilm, intizom, vijdon, burch, baxt, adolat, muhabbat, sadoqat kabi hislatlarni keltirish mumkin. Bularning barchasi mujassam bo‘lgan inson yaxshi xulq egasi sifatida namuna bo‘la oladi. Negaki, har biri aloqadorlikda bo‘ladi. Masalan, insonda ilm va aqsomi ilmning mavjudligi. Ularning farqi nimada? Yoki o‘xshashlik va yaqinligi nimada? Bilamizki, ilm olmoq bu o‘qimoq, yaxshi yozishni bilmoq, kerakli bilimlarga ega bo‘lmoqdir. Ilmli inson yaxshini yomondan, halolni haromdan ajrata oladi. Ilmsiz inson esa go‘yoki mevasiz daraxt kabidir. Bu hayotimiz, salomat ekanligimiz, saodatimiz, oxiratimiz

[232] Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 2018. – B. 3.

ham ilm bilan bog‘liq. Hattoki, musulmon olamida ilm o‘rganmoq farzdur. Ilmning bir qismi sifatida aqsomi ilmni keltiramiz. Aqsomi ilm ikki xil bo‘ladi. Ular diniy va fanniy ilm. Fanniy ilm tarix, handasa, tib, ziroat kabi ilmlar bo‘lsa, u bilan birgalikda diniy bo‘lgan ilmlarni bilish aqsomi ilmning asosidir. Umumiy tarzda ilm va aqsomi ilm bir-birini to‘ldiradi, taqazo etadi.

Demak, inson ilmli bo‘lsa qolgan yaxshi xulqlarni ham o‘zida shakllantira oladi. Vijdon, adolat, burch tushunchalari aloqadorlikda bo‘lgan insonda o‘z o‘zidan sabr, muhabbat, baxt bo‘ladi. Bu esa iffat va hayoga ega insonning yuksak jihatlaridir. Bunday yaxshi xulqqa ega insonda albatta Vatanni suymoq hissi mavjud bo‘ladi. Ushbu asarda ham muallif “Biz Turkistonliklar o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashab hijrat qilurlar edi”[233]. Haqiqatdan ham, inson tug‘ilgan diyorini, onadek aziz, jannatmakon yurtini tashlab keta olmaydi.

Yuqorida aytilganidek, issiq yoki sovuq bo‘lsa ham Vatanni tark etolmaydigan insonlar bor. Ular uchun Vatani jannatmakondir. Ammo, ushbu asar yaratilgan davrda ham bilishimiz mumkinki, Vatan xoinlari o‘z ona yurtini, birodarlarini sotgan. Qaysidir ma'noda asar davr holatini ham ma’lum etadi. Avloniy bu asar orqali xuddi insonga ko‘zgu tutganday. Inson o‘zida qanday hislatlar borligi, kindik qoni tomgan Vatanini sevdimi yoki yo‘qmi ko‘rsatib berdi. Vatan uchun jon fido qila oldimi inson, vijdoni bilan yuzlashib yaqinlari uchun xiyonat qilmadimi, Vatani va birodarlari oldidagi burchini bajara oldimi, sabr bilan baxtga erisha oldimi, o‘zidagi go‘zal xulqlarga amal qildimi, Vatanga muhabbat tuyg‘usi unda mujassammi, tug‘ilgan joyida baxtni his etdimi barcha barchasini yoritib berdi.

Oqning qorasi bo‘lganidek yaxshining yomoni ham bor. Ya’ni, nega insonlarni yomon deb ataymiz? Ular shunday yaratilganmi? Albatta, yo‘q. Inson haqida yaxshi va yomon sifatlarini qo‘llash bu insonning ifodalagan xulqiga bog‘liq. Aytmoqchimanki, insonda faqatgina yaxshi xulq mavjud deya olmaymiz. Agar bir insonga baho bermoqchi bo‘lsak uning ko‘rsatgan munosabati, xulqi va tarbiyasiga tayanamiz. Yaxshi xulq egasi bo‘lsa yaxshi, oqil inson ekan deymiz, aksincha bo‘lsa yomon odam degan xulosaga kelamiz. Asarda yomon xulqning ko‘rinishlariga ham to‘xtalingan. Yomon xulq sifatida g‘azab, g‘iybat, haqorat, hasad, tama, zulm kabilar tushuniladi. Bularning nima ekanligi bilishdan avval yomon xulq aslida nima va u qanday yuzaga keladi, shakllanadi buni bilib olmoq kerak. Insonlarni saodatdan, iymondan, vijdondan va umumiy tarzda yaxshi xulqlardan mahrum qilguvchi bu yomon xulqdir. Yomon xulqqa ega inson

[233] Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 2018. – B. 15.

vijdonni sotgan, o‘zi bilan yuzlasha olmaydigan, shu darajada yomonlikka g‘arq bo‘lganligi sababli oxiratini kuydirish darajasiga borgan insondir.

Avloniy asarda bayon etishicha “Zeroki, insonning izzati, dunyoning lazzati yaxshi so‘zlarni eshitub va ko‘rub hissa olmak, yomon va zararlilarini uqub, bilub o‘zini tiymak, qo‘ldan kelguncha xalq va millat foydasiga tirtishmak va bu fano dunyodan yaxshilik otini olub ketmakdir. Chunki, har narsaning haddan ortuqchasi isrofdur. Lekin yaxshilik va yaxshi sifat qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha mamduh va maqbuldur”[234]. Darhaqiqat, insonda yaxshi xulqlardan biri sanalgan ilmli shaxs bo‘lsa, yaxshini yomondan ajrata olsa uning xulqida yomon hislatlar mavjud bo‘lmaydi. Dunyoning lazzati anglaydi, ilmli bo‘lsa yomonni va zararni tushunadi, o‘zini shunday yomon odatlardan saqlaydi. Yomon jihat mavjud bo‘lmasa foniy dunyoda o‘zidan yaxshi degan nom qoldiradi. Yomon inson esa har ishida isrofga yo‘l qo‘yadi va hissizlikda umri o‘tib ketadi.

Muallif xuddiki, yaxshi bo‘lish juda ham qiyin, yomon bo‘lishlik esa bir soniyalik degan fikrlarga ishora qilganday. Aytilganidek, yomon xulqlarni bilmoq va undan tiyilmoq kerak. Shunday ekan yomon xulqning ko‘rinishlariga to‘xtalamiz. Ularga g‘azab, g‘iybat, haqorat, hasad, tama, zulmni keltirsak bo‘ladi. Insondagi eng tez va kutilmagan soniyalarda yuzaga keluvchi yomon xulqlardan biri bu g‘azabdir. G‘azab insonda shunday bir holatni yuzaga keltiradiki, inson ana shu damda olovday yonib o‘chadi va yakunida esa pushaymonlik holatiga kelib qoladi. G‘azabning eng katta zarari insonning o‘ziga bo‘ladi. G‘azablangan odamda yana bir yomon xulq namoyon bo‘ladi. Bu haqorat. G‘azablangan odam o‘zganing iffatiga, insoniylik hurmatiga, qadr va e’tiboriga zarar yetkazuvchi so‘zlardan foydalanadi. Haqoratlangan insonning qalbida iz qoldirib unda ham yomon xulqni shakllantirib qo‘yadi. Yani, o‘ch olish ilinjida harakatga undaydi.

Asarda keltirilishicha, “...bizlarning oramizda xotun-qizga borushib, bir-birimizni haqorat qilmak odat hukmig‘a kirmishdur. Buning sababi axloqsizlik, gunoh va savobni farq qilmog‘onimizning samarasidur”[235]. Ushbu fikrlar bugungi kunda ham o‘z isbotini topmoqda. Yani, insonlar bir-birlarini haqorat qilayotganda na tuqqan onani, na or-nomus sanalgan ayol-qizlarni e’tiborga olmoqda. Mening fikrimcha, inson kimnidir haqoratlamoqchi ekan avvalo, o‘z onasini, o‘z opa-singlisi, o‘z farzandlarining onasini hayol qilishi kerak. Negaki, haqorat qilayotgan insoning ham onasi, ayoli, opa-singlisi nomi yomon tarzda haqoratlanmasligi zarur. Ertaga mening ham yaqinlarim shunday haqoratli so‘zlarga qolishi mumkin degan hayol bilan harakat qilmog‘i yaxshidir. Bu

[234] Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 2018. – B. 3.
[235] Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 2018. – B. 33.

insondagi yaxshi xulqni namoyon qiladi va u haqida yaxshi fikr uyg‘otadi. Aksincha bo’lsa, yomon xulqni va o‘zidagi kamchilikni ko‘rsatib qo‘yadi.

Insondagi yana bir salbiy jihat bu hasaddir. Hasad qilguvchi inson o‘zganing moliga, uning erishganlariga, Yaratgan tarafidan in’om etilgan narsalarga yomon nazarda bo‘lishdir. Hasad eng yomon va zararli holatdir. Hasadgo‘y inson hech qachon yashayotgan hayotidan, unda bor ne’matlardan qoniqmaydi. Bunday insonlarning qalbida faqatgina kibr va xirs bo‘ladi. Hasad qolgan barcha yomon xulqlarning asosidir. Buning yorqin namunasi bu g‘iybatdir. G‘iybat o‘zganing ortidan gapirmoqdir. Eng kechirilmas gunoh sanaluvchi g‘iybat haqida asarda quyidagicha keltiriladi: “Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: “G‘iybatdan saqlaningiz, g‘iybat zinodan ham yomonroqdur” — demishlar”[236]. Muallif o‘z so‘zlarining isboti sifatida keltirgan ushbu jumlalar insonda g‘iybatga nisbatan bilimni shakllantirsa ajab emas. Hattoki, g‘iybat zino qilmoqlikdan ham yomonroqdir. Haqiqatdan ham g‘iybat qilmoqlik yaxshi xulqli insonlarga xos jihat emas. Xalqimizdagi “Yig‘latgan ham yig‘laydi” kabi naqllarga mos holatda g‘iybat qiluvchi ham, uni tinglovchi ham gunohkordir. Boshqalarning harakatlarini “chaynamoqlik” insonga hech qanday lazzat berolmaydi. Negaki, inson nimaiki gunoh qilsa, yomon xulqlarning qurboni bo‘lsa o‘z nafsi uchun qiladi. Yakuni esa nifoq, ta’mani shakllanishiga olib keladi xolos. Bu insonda adovat uyg‘otadi. Barcha yomon xulqlarning oxiri esa zulmdir.

XULOSA

Tarbiya borasida qolgan asarlarga teng kela oladigan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari Abdulla Avloniyning ijodidagi takrorlanmas bir natija desak ham bo‘ladi. Ushbu asarning tub mohiyatidan ham diniy tarbiya, ham dunyoviy tarbiya saboqlarini anglash mumkin. Asar insonning hayotini, insondagi his-tuyg‘ular va ularning oqibatlarini ko‘rsatib beradi. Tarbiya-xulq-axloq orqali birgina shaxs, shaxs orqali jamiyat va undan esa butun bir insoniyatga baho berish mumkin. Ushbu asarni o‘qish orqali shuni anglash mumkinki, yaxshi xulqqa ega bo‘lish birmuncha qiyindir. Yomon xulq vakili sifatida tanilish esa juda ham osonlikcha amalga oshadi.

Inson ona qornidan boshlab shakllanar ekan tarbiyasini ham go‘zal tarzda rivojlantirmog‘i kerak. Zeroki, inson ulg‘ayib borar ekan, uning xulqiga ko‘ra ota-onasiga baho beriladi. Yani, farzand rahmat oladi, yoki yomon inson sifatida la’nat olishi mumkin. Asarda yaxshi xulq va yomon xulqning qanday ekanligi yoritilgani bois ham undan faqatgina yaxshilik jihatdan xulosaga kelmoq zarur. Go‘yoki, “Odobni odobsizdan o‘rgan” deganlaridek yomon xulqqa oid jihatlarni bilmoq va undan saqlanmoq,

[236] Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 2018. – B. 33.

yaxshi xulqni o‘zda jamlamoq va yanada yaxshilik uchun harakat qilmoq kerak. Qadimdan shakllanib kelgan an’analarga ko‘ra ham insonning odobi asosiy e’tiborda bo‘lgan. Xalq tilida aytganda “Kattaga hurmatda, kichikka izzatda”, “Kattalarga ham, kichiklarga ham salom bermoqlik, ularni e‘zozlamoqlik kerak” kabi naqlga aylangan so‘zlarning ham barchasi kishi odobining go‘zalligi uchundir.

Umuman olganda, inson nafsining quliga aylanmasa yomonlik qilmaydi, yomon xulqlarni o‘zida shakllantirmaydi, kishi tasavvurida yomon taassurot qoldirmaydi. Hatto, etika sohasidan ham bilishimiz mumkin, yaxshi xulqqa ega insonlarni – xushxuql insonlar, o‘zida yomon xulqni namoyon etuvchilarni esa – badxulq insonlar deb hisoblaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent,
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Toshkent, 2003.
3. O‘zbekiston_milliy_ensiklopediyasi. Toshkent, 2000-2005.
4. https://oyina.uz/uz/teahause/1222
5. https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/adolat

IXVON AS-SAFO GURUHINING FALSAFIY TA’LIMOTI YO‘NALISHLARI HAQIDA MULOHAZALAR

Azamatova Sevinch Valijon qizi
“Sharq falsafasi va madaniyati” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: PhD Sulaymonov Jasur Baxtiyarovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Basrada o‘z ilmiy faoliyatini olib borgan olimlar va faylasuflardan iborat intelektual guruh “Ixvon as-safo” risolalaridagi qarashlar va g‘oyalarga o‘z ta’sirini o‘tkazgan maktablar va faylasuflar qarashlar va ulardagi o‘xshashlik, farqli tomonlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Aristotel, Aflotun, Pifagor, neoplatonizm, mashoyiyyuna, metafizika, epistimalogiya, tasavvuf.*

Abstract: *This article examines the views and ideas presented in the treatises of "Ikhwan as-safa," an intellectual group of scholars and philosophers who conducted their scientific activities in Basra. It explores the schools of thought and philosophers who influenced their perspectives, highlighting the similarities and differences between these influences and the group's ideas.*

Keywords: *Aristotle, Plato, Pythagoras, Neoplatonism, Peripatetics, metaphysics, epistemology, Sufism.*

“Ixvon as-safo” nomi ostida X-XI asrlarda Basrada bir guruh olimlar va faylasuflar o‘z faoliyatlarini yashirin tarzda olib borganlar. Ulardan qolgan yagona ilmiy meros esa birodariga maktub ko‘rinishida bitilgan risolalar jamlanmasidir. Bir guruh g‘arb olimlarining fikriga ko‘ra, ushbu to‘plamni klassik Islom davrida yozilgan mukammal ensiklopediya deyishimiz mumkin.

Jamoa a’zolarining yashirin tarzda, o‘z shaxsiyatlarini oshkor qilmay faoliyat yuritganliklarining asosiy sababi sifatida o‘z davridagi siyosiy muhitning keskinligi, diniy ulamolar va qadimchilarning dunyoviy ilm, falsafa bilan shug‘illanuvchi, yangicha fikrli va Antik davr Yunon falsafasiga qiziquvchi insonlarga qarshi harakatlar boshlanganligi bilan izohlash mumkin.

O‘zlarini “Ixvon as-safo” ya’ni “Sof birodarlar” deb atagan tashkilot a’zolari o‘rta asrlar uchun mukammal va ilmiy-falsafiy risolalar yig‘indisi ya’ni ensiklopediya tuzishgan deyishimiz mumkin. Ushbu asar 52 ta maktub ko‘rinishidagi risolalardan iborat bo‘lib, jamoa tomonidan “Rasail Ixvan as-safa va xullan al-vafa” ya’ni “Sof va samimiy birodarlarning maktublari” nomi berilgan. Risolalar asosan ziyoli qatlam uchun mo‘ljallangan. Sababi, unda ko‘tarilgan mavzular oddiy madrasa ta’limini ko‘rgan shaxslar uchun u qadar tushunarli bo‘lmagan.

Ushbu risolalarning aniq yozib tugatilgan sanasi biroz bahsli masala hisoblanadi. Guruh a’zolari X asr ikkinchi yarmi va XI asr boshlarida Basrada faoliyat olib borganlar degan ma’lumotlar mavjud. Demak, risolalar ham shu vaqt oralig‘ida yozilgan deyishimiz mumkin.[237]

Risolalar o‘zlarida yoritilgan mavzularga ko‘ra to‘rtta katta guruhga bo‘lingan. Birinchi guruhdagi o‘nta risolada, asosan, matematik fanlar yoritilgan. Ikkinchi guruh esa o‘zida o‘n yettita risolani jamlagan va unda tabiiy fanlarga oid mavzular yoritilgan. Ong va ratsional ilmlarga bag‘ishlangan uchinchi guruh esa o‘nta risoladan iborat. So‘nggi to‘rtinchi bo‘limdagi o‘n bitta risola ilohiyot ilmiga bag‘ishlangan. Risolalar bir mavzuga birlashtirilib, turli bo‘limlarga ajratilgan bo‘lsa-da, ularda yoritilgan mavzular ko‘lami kutilganidan ancha kengroq.[238]

Risolalardagi falsafiy va ilmiy mavzularga nafaqat Islom dini, balki, o‘sha davrdagi boshqa bir qator faylasuflar kabi antik davr Yunon falsafiy ta’limotlari, Qadimgi Misrdagi tafakkur shakllari va Hind falsafiy tafakkuridagi ba’zi elementlardan ham ilhomlangan holatda yozilgan.

Risolalarda yoritilgan mavzularda olimlarning Aristotel g‘oyalaridan ilhomlanganliklarini sezish qiyin emas. Xossatan, risolalarda yoritilgan

[237] Goefroid de Calatay.Ikhwan al-Safa’ A Brotherhood of Idealists on the Fringe of orthodox Islam. Esoterism. England: one worl Oxsford. – P. 4.
[238] https://www.muslimphilosophy.com/ip/rep/H051

metafizika mavzusidagi qarashlar Aristotel va Platon qarashlariga asoslanadi deyishimiz mumkin. Lekin, shuni ta'kidlash joizki bu qarashlar o'zida sof peripatetizm g'oyalariga asoslanmaydi, balki, buni biz sharq aristotelchiligi deya olamiz.

Metafizika Ixvon as-safo risolalarida muhim o'ringa ega. Olimlar fikriga ko'ra, sezgilar bilan anglab bo'lmaydiga, tasavvur kuchi bilan idrok etib bo'lmaydiga, lekin haqiqatni isbotlovchi dalillar va mantiqiy isbotlar orqali inson aqlini qoniqtiradigan narsalarning barchasi metafizika sohasiga oiddir. Risolalarda metafizika sarlavhasi ostida moddadan ajralgan mavjudliklar, sabablarning sababi va mavjudotlarning qanday kelib chiqqani haqidagi mavzular yoritiladi. Ixvon as-safo mavjudotlarni to'qqizta mavjudlik darajasiga ajratib yaratilish jarayonini muayyan iyerarxiya orqali izohlaydi. Ushbu iyerarxiya yaratgandan boshlanib, dunyoviy mavjudotlar bilan tugaydi. Bu tasnif asosan neoplatonizm ta'sirida shakllangan bo'lib, metafizik dunyoqarashni iyerarxik tartibda tushuntirishga harakat qiladi. (1-jadval)

Olamning paydo bo'lishi haqidagi fikrlar ham Aflotunnig emanatsiya nazariyasi tasirida yuzaga kelgan. Ixvon as-safo yaratilishni ikki qismga bo'ladi. Birinchisi, yo'qdan bor bo'lish, ikkinchisi esa tajalli ya'ni emanatsiyadir. Olamning mavjudligi Yaratganning tajallisi natijasi deb hisoblab, olimlar bu jarayonni Quyosh nuri bilan qiyoslaydi. "Quyosh o'z nurlari bilan zulmatni yoritib muhitni ko'rinadigan holatga keltirsa, xuddi shunday, mavjudotlar ham

Alloh
Faol aql
Umumiy ruh
Tabiat
Birinchi modda
Mutlaq jism (ikkinchi modda)
Falak (Oyosti va Oyusti)
To'rt unsur (olov, suv, havo va yer)
Hayvonlar, o'simliklar va minerallar

(1-jadval)

Yaratganning tajallisi bilan borliqda paydo bo'ladi." Biroq bu yerda nurni Quyoshning o'zi deb tushunmaslik kerak. Xuddi shunday, Yaratganning tajallisini ham uning bir qismi emas, balki Undan tarqaluvchi narsa sifatida tushunish lozim.[239]

Xudo tomonidan yaratilgan birinchi narsa bu faol aqldir. Bu barcha narsalarning ilohiy suratlarini o'zida mujassam qilgan javhar hisoblanadi.

[239] Rasail III. 2014, 276-bet

Ushbu javhar mavjudlikning dastlabki bosqichidir. Undan umumiy ruh tajalli qilgan va emanatsiya jarayoni pog‘onama-pog‘ona davom etgan. Bu yerdagi javhar masalasidagi fikrlar Aristotel metafizikasidan murojaat qilinganligini ko‘rsatadi.

Ixvon as-safo fikriga ko‘ra, aql insonning eng ezgu najot yo‘li, ilm esa eng oliy fazilatdir. Ixvon as-safo gnesiologiyasiga ko‘ra bilish jarayoni uch bosqichdan iborat va bu bosqichlar turli zamonlarga ko‘ra farqlanadi:

1) o‘tmishdagi voqealar haqida idrok va xabarlarga ko‘ra bilim olamiz;
2) hozirgi zamondagi narsalarni esa bevosita sezgi organlari orqali anglash mumkin;
3) kelajakdagi hodisalar haqida esa aql yuritish va tafakkur qilish orqali ma’lum bilimga ega bo‘lishimiz mumkin.[240]

Risolalarda yozilishicha, insonning aql va tafakkur salohiyati chegaralangan. Ularning fikricha, inson jismoniy tanadan va ma’naviy nafsdan tashkil topgan mavjudotdir. Jismoniy tana a’zolari orqali inson turli san’at va hunarlarni ijro etadi, ruhiy nafs esa aql bilan bilimlarni idrok qilish orqali kamolga yetadi.

Ixvon as-safo olimlari Platonning “Ilm – eslashdir” degan fikrini esga tushirish jarayoni sifatida talqin qilgan olimlarning fikrini tanqid ostiga oladilar. Bu jarayon xotirlash emas balki, ma’lum o‘rganish jarayonidan o‘tishni nazarada tutadi, deydi olimlar. Unga ko‘ra, inson ruhiy jihatdan bilim olishga moyi; bo‘lishi uchun unga asta-sekin ta’lim beilishi kerak.

Aflotunning G‘oyalar va soyalar dunyosi nazariyasidagi bog‘liqlikdan kelib chiqqan holda, Ixvon as-safo a’zolari bilim olish jarayonini ham bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanadi deya ta’kidlaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, bilinadigan narsalar anglab yetilganidan so‘ng, metafizik olam haqidagi bilimlarga erishish mumkin.

Jamoa olimlari bilish jarayonini Aflotun g‘oyalaridan kelib chiqib tushuntirishga urinadilar. Ularning fikricha, avval inson o‘z nafsini ya’ni o‘zligini bilishi lozim, keyin esa Xudoni anglashga yo‘l topadi. Bu fikr tasavvufdagi “Nafsini bilgan – Robbini biladi” degan hikmatga o‘xshash.

Ixvon as-safo o‘z risolalarida Plotin nomini hech qachon tilga olmagan bo‘lsalar-da, ontologik masalalarda ishlatgan ibora va terminlari aynan Plotin fikrlari bilan bir xil. Faylasuf qarashlaridagi Yaratuvchining sifatlarini Ixvon as-safo risolalarida ham uchratishimiz mumkin. Plotinga ko‘ra Xudoni aniq ta’riflash yoki uni belgilash imkonsizdir. U na aql, na ruh va na moddadir. Unga hech qanday xususiyat yuklab bo‘lmaydi, chunki u moddiy narsalardan mutlaq yuksaklikda turadi. Har qanday ta’rif Xudoni chegaralaydi, holbuki u borliqning o‘zidan ham yuksakroqdir. Plotinning

[240] “İHVAN-I SAFA RİSALELERİNDE NEDENSELLİK.” Süha AYGÖREN. DENİZLİ - 2019

ushbu qarashlari Islom falsafasiga yaqinroq va Ixvon as-safo fiklari bilan ham hamohangdir.

Metafizika masalalarida Ixvon as-safo Aristotel ta'limotini qabul qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, emanatsiya nazariyasini o‘z risolalari orqali rivojlantirish bilan birga, mavjudotlar o‘rtasidagi sabab va oqibat bag‘lanishlarini ham tahlil qiladilar.

Ixvon as-safo risolalarida sababiyat borliqni tushunishning kaliti sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu masalalarda olimlar Aristotel fikrlarini o‘z dunyoqarashlariga moslashtirishga harakat qilganlar. Ixvon as-safo fikriga ko‘ra, Yaratuvchi barcha narsalarning sababi, mavjudotlarning vujudga kelish manbai va koinotni muakammal darajaga yetkazuvchi Zotdir. Risolalarda tabiatdagi sabab-oqibat bog‘liqligi Yaratganning san'ati sifatida tushuntiriladi. Alloh san'atkor sifatida turli shakllarni yaratadi. Bu turli vositalar orqali sodir bo‘ladi va natijada mavjudotlar orasidagi tartib vujudga keladi. Risolalarda “Bilki, barcha mavjudotlar sabablarga bog‘liq va ular sabablar orqali vujudga keladi.” – degan fikrni lgari suradilar. Bu qarash Aristotelning to‘rt sabab nazariyasi bilan uyg‘unlashadi va unga islomiy talqin beriladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Ixvon as-safo klassik bilimlarni diniy va mantiqiy nuqtayi nazardan qayta ishlaydilar. Porfiriyning “Isagoga” asari risolalardagi mantiq haqidagi bo‘limlarda ko‘p bora tilga olinadi va ular mantiqiy tafakkur shaklini hissiy bilimdan ancha yuqoriga qo‘yganlarini ko‘rsatadi. Ontologik, gneseologik, epistimologik va axloqiy qarashlaridagi fikrlarida Suqrot, Aristotel, Pifagor va Aflotun g‘oyalarini qayta ishlaganliklarini va risolalaridagi fikrlar orqali ularga neplatonizm va mashoyiyyuna maktabi qarashlari o‘z ta'sirini o‘tkazganini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. İHVÂN-I SAFÂ RiSÂLELERi Cilt 4. Cagaloglu – Istanbul, 2014; 320
2. “İHVAN-I SAFA RİSALELERİNDE NEDENSELLİK.” Süha AYGÖREN. DENİZLİ – 2019. 94
3. Ikhwân al-Safâ’. Stanford encyclopedia of Philosophy. C.Baffioni – 2008. https://plato.stanford.edu/entries/ikhwan-al-safa/
4. Godefroid De Callatay. Ikhwan al-Safa’ A Brotherhood of Idealists on the Fringe of Orthodox Islam. 2005. 160
5. مجمل الحكمة. ترجمة رسائل اخوان الصفا. تهران. ١٩٥٣. 194

YOGA FALSAFIY MAKTABI TA'LIMOTI VA UNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Tursunxo'jayeva Nasiba Farxod qizi
"Sharq falsafasi va madaniyati" yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD Ikramova Iroda Rixsivayevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hind falsafiy tafakkurida o'z o'rniga ega bo'lgan yoga falsafiy maktabi ta'limoti va uning asosiy g'oyalari yoritiladi. Patanjali "Yoga sutrasi", ashtanga yoga, yama va niyama tamoyillari, meditatsiya va ongni boshqarish amaliyotlari, shuningdek, sankxya falsafasi bilan o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada yoga falsafasining zamonaviy inson hayotidagi ahamiyati, uning stressdan xalos bo'lish, ichki osoyishtalik va ruhiy uyg'onishda tutgan o'rni ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Vedalar, upanishadlar, yoga, yoga sutra, ashtanga yoga, meditatsiya, moksha, prakriti, purusha.*

Abstract: *This article explores the teachings of the Yoga philosophical school, which holds a significant place in Indian philosophical thought. It examines Patanjali's "Yoga Sutras", Ashtanga Yoga, the principles of Yama and Niyama, meditation and mindfulness practices, as well as the similarities and differences between Yoga and Sankhya philosophy. The article also discusses the significance of Yoga philosophy in modern life, emphasizing its role in stress relief, inner peace, and spiritual awakening.*

Keywords: *Vedas, Upanishads, Yoga, Yoga Sutra, Ashtanga Yoga, Meditation, Moksha, Prakriti, Purusha.*

KIRISH

Yoga hind falsafasining astika guruhiga kiruvchi oltita asosiy maktablardan biridir. U miloddan avvalgi birinchi ming yillikning oxiridagina hind matnlarida, sankxyadan farqli ravishda, alohida falsafiy tafakkur maktabi sifatida tilga olingan. Yoga sanskritcha "birlashish", "bog'lanish" va "qo'shilish" ma'nolarini anglatadi[241]. Yoga inson ongini, tanasini va ruhini uyg'unlikka keltirishga qaratilgan tizimdir. Bu ta'limotning asosiy maqsadi insonni mukammallikka, ruhiy xotirjamlikka va oliy haqiqatni anglashga olib borishdir.

Yoga falsafasi Vedalar va Upanishadlar matnlariga asoslanadi. Ayniqsa, "Bhagavad Gita" va "Yoga sutrasi" ushbu ta'limotning eng muhim manbalaridir.

[241] Yoga A Healthy Way of Living: Upper Primary Stage. / National Council of Educational Research and Training, 2015. - 1p.

Yoga g‘oyalarining tizimli to‘plami hind falsafasining boshqa barcha maktablariga ta’sir ko‘rsatgan Patanjali “Yoga sutrasi”da joylashgan[242]. "Yoga sutrasi" taxminan miloddan avvalgi II asrda sanskrit tilida yozilgan. Asar 4 bo‘lim, 196 sutradan iborat. "Yoga sutrasi" qisqa va lo‘nda jumlalardan iborat bo‘lib, yoga falsafasi, axloqiy tamoyillar, meditatsiya va ruhiy ozodlikka erishish usullarini tushuntiradi. Patanjali o‘z asarini quyidagi to‘rt bo‘limga ajratgan:

1. Samadhi pada konsentratsiya va ruhiy ozodlikni o‘z ichiga oladi. Bo‘limda yoga falsafasining maqsadi va mohiyati tushuntiriladi, yoga ongni boshqarish san’ati ekanligi aytiladi. Samadhida ruhiy yuksalish va oliy haqiqatga yetishish bosqichlari tavsiflanadi.

2. Sadhana pada mashqlar va intizomdan iborat. Yoga amaliyotining vositalari bayon etiladi. Ashtanga yoganing sakkiz bosqichi batafsil tushuntiriladi: Yama (axloqiy me’yorlar) rostgo‘ylik, halollik, sabr-toqat haqida; niyama (shaxsiy intizom va poklik) o‘z-o‘zini tarbiyalash, shukronalik, oddiy hayot tarzi haqida; asana (jismoniy mashqlar va pozalar); pranayama (nafas nazorati va hayotiy energiyani boshqarish); pratyahara (sezgilarning ichki dunyoga yo‘naltirilishi); dharana (diqqatni jamlash va fikrni boshqarish); dhyana (chuqur tafakkur va mushohada qilish); samadhi (chuqur mulohazaga berilish)[243].

3. Vibhuti pada ruhiy kuchlar va mahorat bo‘limidir. Meditatsiya va diqqatni jamlash orqali erishiladigan ruhiy qobiliyatlar haqida gapiriladi. Yogachilar telepatiya, xotira kuchini oshirish, tashqi dunyoni anglashning yangi usullari kabi imkoniyatlarga ega bo‘lishlari mumkinligi bayon etiladi. Bu qobiliyatlar oxirgi maqsad emas, balki yo‘lda yuzaga keladigan oraliq natijalar sifatida tushuntiriladi.

4. Kaivalya padada moksha, najot va mutlaq erkinlik yoritiladi. Insonning eng yuksak holati kaivalya haqida so‘z boradi. Kaivalya bu ongning to‘liq ozodlikka erishishi bo‘lib, inson o‘z haqiqiy mohiyatini anglaganda yuzaga keladi.

Yoga maktabi hind falsafasining shadr-darshana tizimiga kiradi[244] va uning asosiy falsafiy tafakkuri inson ongini boshqarish orqali haqiqatni anglash, jismoniy va ruhiy uyg‘unlik orqali yuksak haqiqatga erishish, meditatsiya va tafakkur orqali moddiy dunyodan xalos bo‘lish tamoyillariga asoslanadi. Yoga subyektiv tajriba va obyektiv tafakkurni uyg‘unlashtiradi. Patanjali fikricha, inson o‘z ongini boshqara olsa, u cheklovlardan xalos bo‘lib, asl haqiqatni anglay oladi.

---

[242] Yoga A Healthy Way of Living: Upper Primary Stage. / National Council of Educational Research and Training, 2015. - 3p.

[243] Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: ”Jahon print“. 2011. - B. 242.

[244] Ibragimova B., Dullayeva S. Yoganing jismoniy reabilitatsiya usuli sifatida ahamiyati // Biomeditsina va amaliyot jurnali. - 2023. –№2. – B. 283.

Yoga falsafasi Sankxya maktabi bilan chambarchas bog‘liq[245] va undagi ikkita asosiy ontologik tushunchani qabul qiladi: Birinchisi purusha bo‘lib, ruh, ong, shaxsiylik, ya’ni oliy haqiqat, ilohiy ong va mutlaq mavjudlik hisoblanadi. Purushaga materiyadan mustaqil, abadiy va o‘zgarmas mohiyat sifatida qaraladi. Yoga falsafasiga ko‘ra, insonning haqiqiy tabiati purusha bo‘lib, u moddiy dunyodan ajralishi kerak. Ikkinchi ontologik tushuncha prakriti hisoblanadi, bu tabiat, moddiy olam deganidir. Prakriti dunyodagi barcha moddiy va ruhiy hodisalar, jumladan, ong, fikrlar va his-tuyg‘ularni o‘z ichiga oladi. Prakriti - o‘zgaruvchan, dinamik va cheklangan. Yoga maktabi ta’limotida moddiy olam uchta asosiy unsurdan iborat: sattva (yorug‘lik, poklik, donishmandlik); rajas (faollik, harakat, ehtiros); tamas (zulmat, dangasalik, johillik). Purusha va prakriti ajralishi natijasida inson o‘zining haqiqiy mohiyatini anglab, ruhiy ozodlikka erishadi. Yoga falsafasida meditatsiya va tafakkur orqali ongni tozalash ruhiy poklikka erishish yo‘li hisoblanadi.

Yoga falsafasida bilishning ikki bosqichi bor: Oddiy bilish (avidya - johillik) insonning tafakkuri tashqi dunyo bilan bog‘liq va noto‘g‘ri tushunchalar bilan cheklangan. Avidyaga ko‘ra, odamlar o‘zlarini faqat jismoniy mavjudot deb hisoblaydilar. Ikkinchi bosqich haqiqiy bilish (vidya - donishmandlik) hisoblanadi. Vidya bu yoga amaliyoti orqali asl mohiyatni anglashdir. Bilishning eng yuqori darajasi samadhi holati bo‘lib, bunda inson barcha illuziyalardan xalos bo‘ladi va mutlaq haqiqatni tushunadi.

Patanjali "Yoga sutrasi" da inson haqiqatni uchta asosiy yo‘l orqali anglay olishi aytiladi: Pratyaksha bu bevosita tajriba bo’lib, meditatsiya va ichki tafakkur orqali haqiqatni to‘g‘ridan to‘g‘ri anglash orqali amalga oshiriladi. Anumana falsafiy tafakkur va kuzatuv orqali mantiqiy xulosa chiqarishdir. Agama muqaddas matnlar va ustozlar ta’limoti bo‘lib, vedalar va yoga ustozlari tomonidan berilgan donishmandlik hisoblanadi.

Yoga axloq falsafasi ashtanga yoganing dastlabki ikki bosqichiga asoslanadi. Yama tashqi axloqiy tamoyillar bo‘lib, jamiyatga nisbatan axloq sifatida keltirilgan. Bu tamoyillar ahimsa (zo‘ravonlik qilmaslik, hech kimga zarar yetkazmaslik); satya (rostgo‘ylik va halollik); asteya (o‘g‘rilik qilmaslik, hech kimning haqqiga xiyonat qilmaslik)[246]; brahmacharya (o‘zini tuta bilish, ehtiroslarni nazorat qilish); aparigraha (ortiqcha boylik yoki moddiy narsalarga bog‘lanmaslik) ni o‘z ichiga oladi. Niyama ichki axloqiy tamoyillar bo‘lib, shaxsning o‘zini tarbiya qilishi hisoblanadi. Niyama bir necha tamoyillardan tashkil topadi: shaucha (poklik, ichki va

[245] G‘aniboyev B. L. L. Vetlujskayaning ”Vajrayana buddizmning falsafiy va idealogik qarashlarining kelib chiqishi“. 2024. – B. 140.
[246] Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: ”Jahon print“. 2011. - B. 242.

tashqi tozalik); santosh (qanoat qilish, shukronalik); tapas (intizom va o‘z ustida ishlash); svadhyaya (fikr yuritish, falsafiy bilimlarni o‘rganish); ishvarapranidhana (hayotni oliy haqiqatga bag‘ishlash). Yoga axloqining asosiy maqsadi nafs ustidan nazorat o‘rnatish va yo‘ldan adashmaslik, ruhiy poklik va jamiyatga foydali inson bo‘lish, oliy ma’naviy haqiqatga erishish.

Hind falsafasida moksha ruhiy ozodlik, absolyut haqiqatni anglash va sansaradan chiqish deganidir. Yoga falsafasi mokshani insonning eng oliy maqsadi deb hisoblaydi va unga erishish uchun ongni tozalash, axloqiy poklik va meditatsiya kabi amaliyotlarni tavsiya qiladi. Mokshaga erishgan inson o‘zining haqiqiy mohiyatini, ya’ni purushani anglaydi va materiya ta’siridan xalos bo‘ladi. Bu holatda u absolyut tinchlik, cheksiz baxt va ruhiy yuksalish holatiga yetadi. Yoga maktabi ontologiyasiga ko‘ra, inson johillik tufayli purusha va prakritini bir deb o‘ylaydi, shu tufayli moddiy dunyoga bog‘lanib qoladi. Moksha esa bu xato tushunchani yo‘qotish va ruhiy ozodlikka erishish jarayoni hisoblanadi. Hind falsafasiy tafakkurida mokshaga erishishning to‘rtta asosiy yo‘li bor. Bular: jnana yoga (donishmandlik yo‘li) falsafiy bilim va tafakkur orqali haqiqatni anglashdir[247]. Bhakti yoga (sevgi va sadoqat yo‘li) ilohiy kuchga muhabbat va sadoqat orqali ruhiy yuksalish hisoblanadi[248]. Karma yoga (amal yo‘li) ezgu ishlar orqali ruhiy ozodlikka erishishdir. Raja yogada (qirollik yo‘li) meditatsiya va ongni nazorat qilish orqali mokshaga erishiladi[249]. Yoga falsafasi, asosan, Raja yogaga asoslangan. Hind falsafasida sansara tug‘ilish va o‘limning cheksiz doirasi hisoblanadi. Bunda oddiy insonlar sansara ichida qolib, qayta tug‘ilish va o‘lishni davom ettiradi. Yogachilar moksha sari harakat qilib, moddiy dunyo cheklovlaridan qutulishga intiladi. Mokshaga erishgan inson tug‘ilish va o‘lim charxidan ozod bo‘ladi va abadiy tinchlik holatiga yetadi.

Yoga falsafasining sankxya maktabi ta’limoti bilan o‘xshash va farqli jihatlari: Ikkala maktab ham Vedalar va Upanishadlar ta’sirida shakllangan va vedik an’analarga asoslanadi. Dualistik dunyoqarashga ega har ikkala maktab prakriti va purushaning alohida mavjudligini tan oladi. Ikkala tizim ham insonning mokshaga erishishini eng oliy maqsad deb biladi. Har ikkisi ham karma va reinkarnatsiya tamoyillariga asoslangan. Farqli tomonlari: sankxya nazariy falsafa bo‘lib, olamning tuzilishi va inson ongining mohiyatini tahlil qiladi. Yoga esa amaliy falsafa hisoblanib, insonni ruhiy kamolotga yetaklovchi amaliy yo‘llarni taklif etadi. Sankxya ateistik qarashga ega, Xudoning mavjudligini inkor etadi va olamni faqat purusha

[247] Dr. Ram Jain. What is Jnana Yoga?. – 2022. –P. 3-4.

[248] Yoga in daily life: The System. / P. S. Maheshwarananda. – Avstriya: Ibera Verlag nashriyoti, - 2000.

[249] T. Burgin. Raja Yoga: Definition, Benefits and How to Practice. -2022. – P. 2.

va prakriti orqali tushuntiradi. Yoga esa teistik, ya’ni Xudoning mavjudligini tan oladi va unga bag‘ishlanish ruhiy kamolotga yetaklashini ta’kidlaydi. Sankxya falsafasiga ko‘ra, mokshaga haqiqatni bilish va olamning mohiyatini anglash orqali erishish mumkin. Yoga esa mokshaga intizom, meditatsiya va jismoniy - amaliy mashqlar orqali yetishish mumkin deb hisoblaydi.

XULOSA

Bugungi kunda yoga falsafasi faqat Hindiston chegaralarida qolib ketmay, butun dunyoga tarqalib, turli madaniyatlar va jamiyatlar tomonidan ko‘pgina sohalarga tatbiq qilinmoqda. Yoga amaliyotlari jismoniy va ruhiy salomatlikni yaxshilash uchun keng qo‘llanilmoqda. U zamonaviy jamiyatda stress va depressiyani kamaytirish, ruhiy va jismoniy sog‘liqni saqlash va umumiy hayot sifatini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda[250]. Yoga amaliyoti uyqusizlik bilan kurashishga yordam beradi va tabiiy uyqu siklini tiklaydi, qon bosimini tushiradi, yurak ritmini me’yorga keltiradi hamda qon aylanishini yaxshilaydi. Yoga mashqlari va meditatsiya ongni boshqarishga, uni tinchlantirishga va hayotni ijobiyroq ko‘rishga yordam beradi. Menimcha, yoga faqat falsafa emas, balki hayot tarzidir. Unda odamlar o‘zlarini topishlari, ongli yashashni o‘rganishlari va ichki tinchlikka erishishlari mumkin. Yoga bizga shuni o‘rgatadiki, haqiqiy osoyishtalik tashqi sharoitlar bilan emas, ichki xotirjamlik bilan bog‘liq. U bizga o‘z hissiyotlarimizni nazorat qilish, diqqatimizni jamlash va hayotni ongli tarzda kechirishga yordam beradi. Eng ahamiyatli jihati shuki, yoga falsafasi faqatgina qadimiy ta’limot bo‘lib qolmay, balki zamonaviy inson uchun ham muhim hayotiy tizim sifatida shakllandi. Yoga ruhiy kamolot, jismoniy salomatlik va axloqiy yuksalishning uyg‘unlashgan shakli bo‘lganligi bois, har qanday jamiyat va zamon uchun dolzarb bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Po‘latova D., Qodirov M., Ahmedova M., Abduhalimova A., Shozamonov Sh.
Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: ”Jahon print“. 2011. -516 b.
2. Yoga A Healthy Way of Living: Upper Primary Stage. / National Council of Educational Research and Training, 2015. - 115p.
3. Ahmedova M., Yo‘ldoshev S., Shomatov O. Hind falsafasi. Toshkent davlat
sharqshunoslik instituti, 2006.

[250] Ibragimova B., Dullayeva S. Yoganing jismoniy reabilitatsiya usuli sifatida ahamiyati // Biomeditsina va amaliyot jurnali. - 2023. –№2. – B. 285.

4. Канаева Н. А. Индийская философия древности и средневековья. Учебное
пособие. - М., 2008. - 255 с.
5. Ibragimova B., Dullayeva S. Yoganing jismoniy reabilitatsiya usuli sifatida ahamiyati // Biomeditsina va amaliyot jurnali. - 2023. –№2. – B. 283 – 286.
6. Dr. Ram Jain. What is Jnana Yoga?. – 2022.
7. Yoga in daily life: The System. / P. S. Maheshwarananda. – Avstriya: Ibera Verlag nashriyoti, - 2000.
8. T. Burgin. Raja Yoga: Definition, Benefits and How to Practice. -2022.

XITOY NOMODDIY MADANIY MEROSI: TAIJI VA UNING FALSAFASI

Nimatillayeva Mohichehra Zafarjon qizi
"Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili)" yo'nalishi
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Raxmatullayeva D.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Taiji (yoki Taijiquan) Xitoyning qadimiy falsafasi va jang san'atining o'ziga xos jihatlari, ularning madaniy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Muallif Taijini nafaqat falsafiy qarash, balki sog'liqni saqlash, jang san'ati, ma'naviy rivojlanish hamda zamonaviy jamiyatda stressni kamaytirish va hayot sifatini yaxshilash usuli sifatida tasvirlaydi. Taiji insonning koinotdagi o'rnini anglash, hayotning murakkabliklarini tushunish va muvozanatga erishish uchun yin-yang tamoyillariga asoslanganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Taijining xalqaro miqyosda targ'ib qilinishi, UNESCO tomonidan e'tirof etilishi va ta'lim tizimiga kiritilishi uning madaniy meros sifatidagi ahamiyatini oshirishi qayd etilgan. Maqola Taijining insoniyat uchun jismoniy va ruhiy taraqqiyotga ko'mak beruvchi universal tizim sifatida qimmatliligini namoyon etadi.*

Kalit so'zlar: *Taijiuan, Xitoy falsafasi, madaniy meros, yin-yang, UNESCO*

Xitoy ming yillik tarixga ega madaniyat bilan dunyo sivilizatsiyasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan davlatdir. Ushbu madaniyatning muhim jihatlaridan biri uning nomoddiy madaniy merosi bo'lib, u jamiyatning ma'naviy rivojlanishini ifodalaydi. Taiji (Taijiquan) (太极拳) ana shunday meroslardan biri bo'lib, u nafaqat jismoniy mashq tizimi, balki chuqur falsafiy asosga ega hayot tarzi sifatida ham tanilgan. Ushbu maqolada

Taijining kelib chiqishi, uning asosiy falsafiy tamoyillari va jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Taiji tushunchasining kelib chiqishi. Taiji so‘zining o‘zi “yuqori darajadagi mutanosiblik” yoki “oliy birlashuv” ma’nosini anglatadi Taiji. atamasi birinchi marta “Yi Jing” (《易传·系辞》)[251] “O‘zgarishlar kitobi” asarida uchraydi, Xitoy madaniyatining eng qadimiy va muhim asarlaridan biri bo‘lib, qadimdan falsafiy,diniy, madaniy qarorlar qabul qilishda muhim hisoblangan va Xitoy falsafasida olamning uyg‘unligi va muvozanatini ifodalaydi. Taijiquan esa bu tushunchaning jismoniy mashqlarda namoyon bo‘lishidir. Taiji Xitoyning qadimiy Daoizm va Konfutsiychilik an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ruhiy energiyaning inson tanasi va atrof-muhit bilan o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan. XVII asr o‘rtalarida Xitoy xalq Respublikasi, Wen okrugidagi Chenjiagou qishlog‘ida yuzaga kelgan taijiquan mana bir necha asrlarki avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tib kelmoqda.

Taiji falsafasi asosan “Yin-Yan” tamoyiliga asoslangan. Bu tamoyil olamdagi barcha narsaning ikki qarama-qarshi, ammo bir-birini to‘ldiruvchi kuchlardan iboratligini ko‘rsatadi. Taijiquanda harakatlarning yumshoqligi va kuchliligi, tezligi va sekinligi Yin-Yan muvozanatini aks ettiradi. Shuningdek, Taiji insonning tanasi, ongi va ruhi o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishishni maqsad qiladi. Taiji qadimdan, daosizm, konfutsiylik va an’anaviy xitoy tibbiyoti nazariyasi ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, keyinchalik, asta sekinlik bilan ko‘plab maktablar va xilma xil amaliyot usullari yuzaga keldi.

Taiji harakatlari davomida tinchlik va faoliyat, energiya yig‘ilishi va chiqarilishi, bosim va bo‘shashish kabi qarama-qarshi holatlar birlashib hosil bo‘ladi. Bu esa odamga ichki va tashqi muvozanatni saqlash imkonini beradi. Taiji tafakkurining “osmon va odam birligi” g‘oyasi xitoyliklarni tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga undaydi. Ananaviy taijiquan xitoycha jismoniy mashqlar asosida qurilgan bo‘lib, ular sekin va muloyim harakatlar bilan bajariladi va odatda hind yoga bilan bog‘liq bo‘lgan meditatsion o‘lchovga ega. Nafas olishga e’tibor qaratish orqali amaliyotchilar tanalarida energiya (qi) oqayotganini his qilishlarini va bu energiya tanadagi har bir organ uchun davolash ta’sirini ta’minlashini ta’kidlashadi. Meditatsion va davolash jihatlaridan tashqari, jiddiy shug‘ullanuvchilar

[1]《系辞》 (Xìcí) — bu osonlik bilan "Yi Jing" (Yin va Yang kitobi) bilan bog'liq asar hisoblanadi va odatda "《易传·系辞传》" (Yì zhuàn · Xìcí zhuàn) yoki "《周易·系辞》" (Zhōu Yì · Xìcí) deb ataladi. Bu hozirgi zamon "《易传》" (Yì zhuàn)ning 4-chi kitobi bo'lib, u asosan "《易经》" (Yì Jīng)ning asosiy maqsadlarini umumlashtiradi. Afsonaga ko'ra, Konfutsiy (Konfutsiy) "《周易》" (Zhōu Yì)ni tushuntiruvchi va umumlashtiruvchi 7 ta risola yozgan, bu esa hozirgi kunda "I Ching"ning sharhlari sifatida tanilgan.

odatda taijiquan jangovar san’at ekanligini bilishadi, chunki har bir harakat jismoniy hujumni qaytarish uchun mo‘ljallangan. Muskullar va ongni bo‘shashtirish amaliyotchilarga “raqiblarini tinglashni”, ularning tajovuzkor energiyasini his qilish va unga ergashib, uni o‘zlariga qarshi yo‘naltirishni o‘rgatadi.

Taiji (buyuk uyg‘unlik) falsafasi esa vaziyatga qarab moslashuvchanlikni, vaqt va sharoitga mos o‘zgarishni ta'kidlaydi. Taiji dunyo va undan voz kechish, harakat va tinchlanish o‘rtasidagi muvozanatni saqlashni nazarda tutadi. U oldinga intilishda Konfutsiy ta'limotiga mos keladi, orqaga chekinishda esa Taoizm va Buddizm bilan uyg‘unlashadi.[252]

Taiji qarama-qarshiliklar va to‘ldiruvchanlik tafakkuri Xitoy madaniyatigundaydia katta moslashuvchanlik va ulushlilik xususiyatlarini beradi. Taiji yin va yangga bo‘linadi, yin va yang esa yana Taijiga birlashadi. Yin va yangning har bir tomoni ikkinchi tomonni o‘zining mavjudligi uchun zarur shart sifatida talab qiladi. Yin bo‘lmaganda, yang mavjud bo‘la olmaydi, yang bo‘lmaganda esa yin mavjud bo‘la olmaydi. Yolg‘iz yang tug‘ilmaydi va yolg‘iz yin o‘smaydi. Yin va yang o‘zaro o‘ziga xos xususiyatlarga ega: ular bir-biriga singib, jalb qiladi va qo‘shiladi. Bu xususiyat Taijining qarama-qarshilik va birlik printsipini ifodalaydi. Taiji yin-yang o‘zaro ta’sirining teskari tafakkuri xitoyliklarga tinchlikda “xavf-xatardan xabardor bo‘lish” va “oldindan chora ko‘rish” imkonini beradi, shuningdek, qiyin vaziyatlarda “tugal yo‘q bo‘lib qolganda yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishi” mumkinligini ko‘rsatadi. [253]Xitoyliklar uchun Taiji nafaqat madaniyat, falsafa, harakat tarzi, balki boshqaruv falsafasidir ham. Taiji o‘zida murakkablik va yin-yang muvozanatining soddaligini mujassam etadi. Xitoyliklar Taiji tafakkuri yordamida koinotdagi o‘zgarishlarni, dunyodagi voqealarni va o‘zlarining hayotiy jarayonlarini, masalan, tug‘ilish, qarish, kasallik va o‘limni, shuningdek, quvonch va qayg‘ularini tushunishga harakat qiladilar. Taiji tafakkuri ularga hayotning murakkabligini tushunish va undan o‘z vaqtida saboq olish imkonini beradi. Taijining eng yaxshi holati garmoniya holatidir. Bu holatga erishish uchun yin va yangning to‘ldiruvchan, uyg‘un va muvozanatli bo‘lishi kerak. Xitoyliklar Taiji tafakkuri yordamida koinotdagi o‘zgarishlarni, dunyodagi voqealarni va o‘zlarining hayotiy jarayonlarini, masalan, tug‘ilish, qarish, kasallik va o‘limni, shuningdek, quvonch va qayg‘ularini tushunishga

[252] Wang, Z.-D., & Wang, F.-Y. (2021). Ternary Taiji Models of the Traditional Chinese Self: Centered on Confucian, Taoist, and Buddhist Cultures. Journal of Humanistic Psychology, 0(0). https://doi.org/10.1177/00221678211016957

[253] Xabibjonov, Izzatbek Dilshodjon O‘G‘Li, & Pulatov, Sherdor Nematjonovich (2024). IN VA YAN FALSAFASI SINERGETIKANING PAYDO BO‘LISHI SHARTI SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (26), 513-521

harakat qiladilar. Taiji tafakkuri ularga hayotning murakkabligini tushunish va undan o‘z vaqtida saboq olish imkonini beradi.

Bugungi kunda Taiji dunyoning ko‘plab davlatlarida xususan Xitoyning o‘zidan tashqari dunyoning 80 dan ortiq davlatlarida sog‘lom turmush tarzining bir qismi sifatida mashhur bo‘lib, bir necha asosiy yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

Sog‘liqni saqlash: Taiji organizmning umumiy holatini yaxshilash, stressni kamaytirish, qon aylanishini normallashtirish va mushaklarning moslashuvchanligini oshirishga yordam beradi.

Jang san’ati: Taiji dastlab jang san’ati sifatida shakllangan bo‘lib, himoya va hujum texnikalarini o‘z ichiga oladi. U kuch emas, balki taktika va energiyadan foydalanishni o‘rgatadi.

Ma’naviy rivojlanish: Taijining maqsadi nafaqat tanani, balki ong va ruhni ham tarbiyalashdir. Meditatsiya va chuqur nafas olish texnikalari insonni ichki tinchlikka olib keladi.

Taiji va zamonaviy jamiyat. Zamonaviy texnologiyalar va shiddatli hayot tarzi tufayli insonlar o‘z salomatligini yo‘qotib, stress darajasi oshmoqda. Taiji bu muammolarni bartaraf etishning samarali usuli sifatida tobora ommalashmoqda. Xitoy hukumati Taijini milliy meros sifatida saqlash va targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratmoqda. UNESCO tomonidan nomoddiy madaniy meros sifatida e’tirof etilishi Taijining jahon miqyosidagi ahamiyatini yanada oshirdi. tayji merosi asosan ustoz-shogirdlik yoki oilaviy avloddan avlodga o‘tish usullari orqali amalga oshiriladi. Oilaviy meros va ustoz shogirdlik ananasi taiji merosining hozirgi asosiy usullari hisoblanadi. oilaviy meros qarindoshlarning avlodlari o‘rtasida, ustoz-shogird vorisligi esa an'anaviy shogirdlik marosimi orqali ustoz shogirdlik munosabatlari o‘rnatilgandan keyin amalga oshiriladi. Har bir tayji maktabi o‘z tartibida bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatadi. Bu mashgulotlar yoshlar va qariyalar uchun jamoaviy mashgulotlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Bundan tashqari hozirgi kunda tayji rasmiy ta'lim tizimiga kirdi va boshlang‘ich va o‘rta maktab va universitet ta'lim o‘quv dasturlariga kiritildi. 2017-yil yanvar oyidan boslab jamoalar taiji merosini himoya qilish uchun hamkorlik qo‘mitalarini tashkil qildilar. statistikaga ko‘ra, dunyoning 150 dan ortiq mamlakat va hududlarida Taiji bilan shug‘ullanuvchilar soni yuz millionlab odamni tashkil etadi.

Taiji - bu Xitoy madaniy merosining bebaho yodgorligi bo‘lib, u insonni tabiat bilan uyg‘un yashashga undaydi. Uning falsafasi hayotning barcha sohalarida muvozanat va uyg‘unlikni ta’minlashni targ‘ib qiladi. Taiji nafaqat jismoniy faoliyat, balki insonning ma’naviy va ruhiy o‘sishini ta’minlovchi universal tizimdir. Shu sababli, uni o‘rganish va rivojlantirish butun insoniyat uchun foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Xabibjonov, Izzatbek Dilshodjon O‘G‘Li, & Pulatov, Sherdor Nematjonovich (2024). IN VA YAN FALSAFASI SINERGETIKANING PAYDO BO‘LISHI SHARTI SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (26), 513-521
2. Wang, Z.-D., & Wang, F.-Y. (2021). Ternary Taiji Models of the Traditional Chinese Self: Centered on Confucian, Taoist, and Buddhist Cultures. Journal of Humanistic Psychology. https://doi.org/10.1177/00221678211016957
3. Chia, M. (1998). The Power of Internal Martial Arts: Combat Secrets of Ba Gua, Tai Chi, and Hsing-I. Blue Snake Books.
4. 太极拳：世界的遗产，人类的财富_滚动新闻_中国政府网
5. 太极拳 - 中国非物质文化遗产网·中国非物质文化遗产数字博物馆
6. https://ich.unesco.org/

ARASTU VA ABDULLA AVLONIY AXLOQIY QARASHLARINING KOMPARABIVISTIK TAHLILI

Urayimova Shaxnoza Ilyosbek qizi
“Falsafa” yo‘nalishi 1- kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD Ikramova Iroda Rixsivayevna

Annotatsiya: *Sharq axloqiy merosining yirik namunalari bo‘lgan’’Axloqi kabir’’ va “Turkiy guliston yoxud axloq’’ asarlarining mazmuni va mohiyati yoritilgan. Asarlarda ilgari surilgan axloqiy g‘oyalar, insoniy fazilatlar, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar masalasi tahlil qilingan. Maqolada har ikki asarning o‘z davrida tutgan o‘rni, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati va yosh avlod tarbiyasidagi roli Haqida Fikr Yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Axloq, fazilat, adolat, tarbiya, xulq, axloqiy fazilatlar, me’yor, g‘azab, ne’mat, yaxshi xulq.*

Axloq masalalari azaldan dolzarb bo‘lib kelgan. Axloq va tarbiya masalasi har qanday jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Insonning ma’naviy kamoloti, jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, adolat va ezgulik kabi tushunchalar aynan axloqiy tamoyillarga tayangan holda shakllanadi. Bu borada tarix davomida ko‘plab mutafakkir va olimlar o‘z qarashlarini bayon etib, jamiyatni axloqiy jihatdan yuksaltirishga xizmat qiluvchi asarlar yaratganlar. Ayniqsa, Sharq va G‘arb mutafakkirlarining bu boradagi qarashlarini solishtirish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash juda

muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Qadimgi yunon faylasufi Arastu (Aristotel)ning “Axloqi kabir” asari hamda o‘zbek ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari ana shunday muhim manbalar sirasiga kiradi. Ushbu maqolada mazkur ikki asarning mazmun-mohiyati, ularning axloqiy qarashlari, tarbiya borasidagi fikr-mulohazalari o‘rganiladi hamda ular orasidagi umumiylik va farqlar tahlil qilinadi. Bu orqali Sharq va G‘arb tafakkuri orasidagi bog‘liqlik va farqliliklarni chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Arastu kitobning boshida "Axloq” nima ekanligini aytib o‘tgan. Narsaning mohiyatini bilmay, u haqida fikr yuritish nato‘g‘ri. Axloq o‘zi nima va u nimalarga aloqador ekanligini birinchi navbatda bilish lozim. U “axloqni siyosatning tarkibiy qismi, uning asosidir”[254], deydi. Chindan axloqiy fazilatlarga ega bo‘lmagan inson jamoat arbobi sifatida faoliyat ko‘rsatishi mumkin emas. Ijtimoiy siyosatga aloqasi bor odam yuksak axloq egasi bo‘lishi lozim. Bu maqomga munosib odam bo‘lmoq - fazilatlar egasi- fozil odam bo‘lmoq, demakdir. Ya‘ni, har bir inson bir siyosatchi va ular jamiyat hayotida ishtirok etmoqda. Demak, u fazilatli bo‘lishi kerak ekanligini aytib o‘tmoqchi. “Ijtimoiy va siyosiy hayotda faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan odam axloqan fazilatli odam bo‘lmog‘i kerak. Shunday ekan etika, axloq- siyosatning tarkibiy qismi, uning asosidir”[255].

Yana bir axloqqa doir asarlardan biri ma‘rifatparvar jadidchi Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridir. Bu asar jadidchilik ruhida yozilganligi bilan ajralib turadi. Abdulla Avloniy ham bu asarda o‘z o‘rnida birinchi navbatda “Axloq” haqida so‘z yuritadi. Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladigan kitobga axloq deyiladi. “Axloq ilmini o‘qib, bilib, amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanini, janobi Haq nima uchun xalq qilganini, yer yuzida nima ish qilib yurganini biladi”[256]. Abdulla Avloniyning maskur asarining ahamiyatli jihati yana shundaki, unda Qur‘oni Karim oyatlari va hadislari keltirilib, aytib o‘tilgan. Bundan ko‘rinadiki, u zamon odamlari dindan ancha uzoqlashib o‘zini, Janobi haqni, bu dunyoga nimaga kelganini unutib qo‘yishgan. Avloniy bo‘lsa qo‘lidan kelgancha insonlarga o‘zligini anglashga yordam bergan.

Har ikkala davr ijodkorlari ham o‘z davri va o‘sha davr insonlarning axloqiy fazilatlari qay darajada ekanligiga qarab o‘z fikr mulohazarini berishgan. Arastu axloqni siyosatga o‘xshatadi va har bir inson siyosatchi ekanligini ta‘kidlaydi. Siyosatchi har taraflama namuna bo‘la oladigan inson

[254] Arastu. Axloqi Kabir.- Toshkent, 2024.- B. 115.
[255] Arastu. Axloqi Kabir. – Toshkent, 2024. – B. 115.
[256] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1917. – B.2.

bo‘lishi kerakligini aytib o‘tadi. Avloniy bo‘lsa axloqqa boshqacha fikr bildiradi. Ya‘ni, ilmni amalyotda qo‘llanilishini axloq deb hisoblaydi. Avvalo, ilmlarni o‘rganish kerak ekanligini keyin esa uni amalda qo‘llash kerak ekanligini ta’kidlaydi.

Arastu axloqdan so‘ng fazilatga to‘xtaladi. Avvalo fazilat nima va unga qanday erishish haqida fikr bildiradi va boshqa faylasuflar Pifagor va Suqrotning fikriga qo‘shimcha qilib o‘z fikrlarini aytib o‘tgan. Masalan, Pifagor fazilatni ham raqamlar qatorida ko‘rib chiqqan. Uni fazilat sifatida o‘rganmagan[257]. Arastuning fikricha adolat, masalan o‘z-o‘ziga ko‘paytirilgan (ikki karra ikki ma‘nosidagi) raqam emas-ku? Suqrot esa fazilatni bilimlarga tenglashtiradi. Gap shundaki, barcha bilimlar fikr-mulohaza bilan bog‘liqdir, fikr-mulohaza inson ruhining fikr yurituvchi qismida vujudga keladi. Arastu esa bu fikr xato ekanligini va ba‘zi fazilat faqat aql bilan emas his - tuyg‘ular, fe‘l - atvor bilan ham bog‘liq deb hisoblaydi. Masalan, fazilat bilim bo‘lsa, adolat nima ekanligini bilgan odam adolatli bo‘lib qolmaydi-ku?

Demoqchimizki, adolat haqida bilim olsak, lekin uni amalda tadbiq qilmasak, bu umuman adolatli degani emas. Shu sababli Arastu Suqrotning bu fikrini xato deb o‘ylaydi. U fazilatni “ne‘mat” deb ataydi va ularni bo‘lib chiqadi. Qadrli, maqtovli, imkoniyat. Ne‘matni mukammal va nomukammalga bo‘ladi. Nomukammal ne‘matga erishganda boshqa ne‘matga zaruriyat bo‘ladi. Mukammal ne‘mat esa unga erishganda insonda boshqa ne‘matga ehtiyoj sezilmaydi va mukammal ne‘mat maqsad bo‘lishi kerak. Hayotdan maqsad esa baxt - saodatga erishishdir deydi. Oliy ne‘mat mukammal maqsaddir. Mukammal maqsad baxt - saodatdir deb insonning hayotdagi maqsadi nima ekanligini keltirib o‘tgan. Suqrotning fikricha fazilat go‘zallikdir. Ayni paytda go‘zallik uning tarkibiy qismiga emas uning o‘zi ekanligini aytadi.

Arastu fazilat haqida gapirar ekan uchta fazilat ya‘ni adolatlilik, oqillik va sabr-qanoatlilikni alohida ta‘kidlab o‘tadi. U bu asrda ko‘plab fazilatlar haqida gapiradi, bu fazilatni to‘plasak shu uchta asosiylari kelib chiqadi. Chindan ham bu uchchala fazilat bir butundir. Adolatsiz inson oqil bo‘la olmaydi. Oqil bo‘lmagan inson sabr - qanoat degan narsani bilmaydi. Sabr - qanoatni olaylik, inson hayotida badnafslik, dunyoparalik, o‘g‘rilik, ochko‘zlik kabi illatlar, yana ko‘plab illatlarni keltirib chiqaradi. Bu aynan sabr - qanoat yetishmasligidandir. Halol mehnat qilib, boriga qanoat qilib yashovchi odam kamtarin, oqil, iymonli odam bo‘ladi.

Avloniy axloqdan so‘ng tarbiyaga alohida e‘tibor qaratish kerak ekanligini ta‘kidlaydi. Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning ta‘siri kattadir. Avloniy tarbiyani uchga bo‘ladi. “Birinchi

[257] Arastu. Axloqi Kabir. – Toshkent, 2024. – B.116.

o‘rindi e‘tiborni badan tarbiyasiga qaratish kerak. Nimagaki, o‘qimoq, o‘qitmoq uchun bizga sog‘lom tana zarur. Sog‘lom bo‘lmasak ishimizda, ibodatimizda va amalimizda kamchiliklar bo‘ladi. Bu jasadni Alloh taolodan omonatga olganmiz, qachondir qaytarib beramiz. Uni asl holi kabi sof, toza qaytarishimiz kerak”[258]. Badan tarbiyasi bilan fikr tarbiyasi bir- biriga bog‘liq. Jism bilan ruh bir choponning o‘ng bilan terisi hisoblanadi. Agar jismni yaxshi saqlasak, fikrni e‘tiborsiz qoldirsak choponing ichidagi kir tashiga ham uradi. Shu sababli inson ikkisini teng toza va pok saqlash lozim. Avloniyning ta‘kidlashicha axloq tarbiyasi eng muhimidir. U tarbiya oluvchi bilan dars oluvchi orasida farq bor. Dars oluvchi - biluvchi, tarbiya oluchi - amal qiluvchi. Inson faqat o‘rganishdan foyda yo‘q uni amalda qo‘llash zarur. Yoki o‘rgatgan ilmiga o‘zi ham rioya qilishi lozim. Insonning so‘zi va amali bir bo‘lsa, el ichida obro‘ topadi. Payg‘ambirimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) “Eng yomon kishilar, ilmiga amal qilmaydigan kishilardir” deb ta‘kidlagan.

Arastu uchta fazilatni adolatlilik, oqillik, sabr-qanoatni eng muhim fazilatlar deb hisoblagan. Adolatga to‘xtalsak, maskur asarda adolatni ikki xil ko‘rinishi borligi ta‘kidlangan. “Biri qonunga muoviqlikdir. Qonun buyurganini qilish bu adolat hisoblanadi. Qonun odamlardan mard, oqil va fozil bo‘lishni talab qiladi. Shuning uchun ham oqillik eng mukammal fazilat hisoblanad”[259]. Modomiki, adolatlilik qonunlarga muofiq yashash ekan, qonun esa barchadan fazilatlar bilan yashashni talab qilar ekan, qonunlarga muofiq, adolatli ish tutuvchi odam eng fozil odamdir. Bu adolatning bir ko‘rinishidir. Yana bir ko‘rinishi mavjud bunda barchasi tenglikka asoslangan. Ikkinchi xil adolat boshqa odamlarga nisbatan adolat qilishdir. Ya‘ni, tenglikka rioya qilishdir. Yaxshi narsalarni o‘ziga ko‘proq, yomonini kamroq olish boshqa insonlarga nisbatan adolatsizlikdir. O‘rtada tenglik buziladi. Ortiqchalik va yetishmovchilikning, ozlik va ko‘plikning o‘rtasida joylashgan adolat. Ya‘ni, adolatsiz inson o‘ziga ko‘proq oladi, jabr ko‘rgan esa kamroq oladi o‘rtada tenglik buzildi va bu adolatsizlikni keltirib chiqaradi. Huddi shunday adolat bu tenglik deb ta‘kidlagan. O‘zining fikriga qo‘shimcha qilib mutanosiblikni ham adolat deb ataydi. Mutanosiblikning to‘rt tarkibiy qismi bor: “A” – “B” ga qanday nisbatda bo‘lsa, “ G” ham”D” ga shunday nisbatda bo‘ladi. Mehnat sarfini bunga misol qilsak bo‘ladi. Ya‘ni kim ko‘proq ishlasa, shu ko‘proq haq oladi, kim kam ishlasa, shu kam haq oladi. Mana shu, adolat hisoblanadi deb aytib o‘tgan Arastu maskur asarda. Aflotun ham”Davlat” asarida mana shu adolatli mutanosiblikni qo‘llaydi.

[258] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.- Toshkent, 1917.- B.5.
[259] Аристотель. Никомахова этика. – М.: Азбука, 2022. – С. 49.

Abdulla Avloniy ham o‘zining maskur asarida yaxshi fazilatlar orasida adolatga alohida to‘xtalib o‘tgan. U adolatni boshqalarning mol va nomusini hurmat qilish va ziyon yetkazmaslikda deb hisoblagan. Adolat yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidur. Adolat va marhamatli kishilar o‘ziga loyiq ko‘rmagan bir ishni, o‘zgalarga ravo ko‘rmas. Kishi adolat va insoniyat vazifasini yolg‘uz o‘zi buzuq ishlardan saqlanmak ila ado qilolmas, balki o‘zi ila barobar jinsdoshlarining xato va fanoliqlarini tuzatmak va yaxshi yo‘lga sa’y qilmak ila ado qila bilur. Adolatni rioya qilgan kishilar hech bir kishiga jabr-u zulmni xohlamas va jonli narsalarga bekorga ozor bermas. Aql va shariatga muvofiq ravishda harakat qilur. Jabr-u zulm ila boshqalarning dilini ozor qilgan kishilarning yoqalari jazo qo‘lidan qutulolmas. Zero, janobi Haqning adolati zolimlarning jazo va sazosini bermakdadur. Avloniy maskur asarida go‘zal misollar bilan adolat nima ekanligini tushuntirib o‘tgan.

Adolatni hamma har xil ta‘riflagan. Arastu adolatni tenglik deb qarasa, Avloniy bo‘lsa, boshqalarga zarar yetkazmaslikni adolat deb hisoblagan. Aslidachi, o‘zi adolat nima? Arastuni fikridan kelib chiqib adolatni tenglik deb olsak, agar hammani tenglashrirish maqsadida boylarning pulini olib kambag‘allarga bersa, bu kambag‘al uchun adolat bo‘lishi mumkin lekin boylar uchun adolatsizlik hisoblanadi. Chunki ular bu boyligini mehnat qilib topgan. Agar biz adolatni tenglik deb qarasak bu bir tomon uchun adolat ikkinchi tomon uchun esa adolatsizlikka aylanib qoladi. Avloniy aytganidek, o‘ziga ravo ko‘rmaganini boshqalarga ham ravo ko‘rmaslikkina adolat emas, aslida adolat keng tushuncha hisoblanadi. Uni shunchaki chegaralab bo‘lmaydi aslida. Platonning fikri ko‘proq adolatga nisbatan adolatli ta‘rif desak bo‘ladi. Ya‘ni tenglik ham emas kimgadir yaxshilik qilishgina adolat emas. Mutanosiblik ya‘ni Arastu aytgani kabi ko‘p harakat qilganga ko‘p haq kam harakat qilganga kam haq berilishi, aynan shuni adolat desak bo‘ladi.

Arastuning “Axloqi kabir” asarini o‘qish davomida umumlashtiruvchi jihati sifatida me‘yorni ko‘rishimiz mumkin. Negaki, hamma fazilatni aytib o‘tgan vaqtida me‘yorga alohida e‘tibor qaratib o‘tgan. Har bitta fazilatni me‘yor so‘zi bilan ishlatgan. Birinchi navbatda jasurlik va qo‘rqoqlik haqida gap boshlagan. Avvalo, bu so‘z qanday voqea ustida iahlatilyapti shuni bilish kerak? Mol - mulkini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqan insonni biz qo‘rqoq emas, molparast deb ataymiz. Yoki kasallikdan qo‘rqan insonni qo‘rqoq, qo‘rqmaganni jasur deb ayta olmaymiz. Jasurlik hamma insonlar qo‘rqadigan narsalardan qo‘rqmaslik. Masalan, podshoh va ularning qonunlarini tanqid qilishdan qo‘rqmaydigan insonni aytishimiz mumkin. Kamtarlik-uyatsizlik, tortinchoqlik o‘rtasidagi hislat. Xazil-mutoyibalik, masxarabozlik va yovvoyilik, do‘stparastlik-hushomadgo‘ylik, yaltoqlik va

dushmanlik o‘rtasida joylashgan. Shu singari hamma fazilatlarni bir nechta illat orasida me‘yorni saqlab keyin erishish mumkinligini ta‘kidlagan. Navoiyning ham gapi bor: “Haqiqatni hammaga aytverish -nodonlik”[260]. Shundan ma‘lumki, hamma narsada me‘yor zarur.

Avloniy o‘z asarida yomon xulqning eng yomoni jaholat deb aytib o‘tgan. Nega aynan jaholat? Jaholat o‘zi nima degan savol tug‘ilishi tabiiy hol? Jaholat deb o‘qimagan, bilimsiz, hech narsaga tushinmaydigan, nodon insonga aytiladi. Ilmsiz o‘zining huquqlarini bilmagan inson johillar panchasida ezilib, harob bo‘ladi. Bu yerda panja so‘zini ishlatgani odamni e‘tiborini tortadi. Ma‘lumki johil inson hudbin, ochko‘z, ahmoq va nodon bo‘ladi. Xuddi hayvon kabi o‘zi va qornini o‘ylaydi. Ularga inson so‘zini ishlatgisi kalmaganligi sababli ham panja so‘zini qo‘llaydi. Shu sababli johillarni hayvon kabi deyish maqsadida panja so‘zini ishlatyapti. Insonni o‘z-o‘zini yoq qiladigan xulqlardan biri g‘azab hisoblanadi. Xalqimizda maqol bor “Jahl kelsa, aql ketadi” bu fikr to‘g‘ri ekanligini Avloniy ham aytib o‘tadi. G‘azab nafsning g‘ururidan paydo bo‘lib aqlni zab etadi. Nafs aqlni boshqarishga o‘tadi va bu insonni mushkul holatga solib qo‘yadi bilan. “G‘azabning avvali junun, oxiri pushaymon” deb aytib o‘tadi Suqrot. Buxoriy hadisida ham keltirilgan ya‘ni, “kurashda kimnidir yengan inson botir emas, g‘azablanganda g‘azabini yengan odam botirdir”. “G‘azab bir yomon illatki, yagona davosi sabr va shirinso‘zlik” deb aytib o‘tgan Siyotiy.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mazkur asarlar axloq muammolarini falsafiy yondashuv orqali hal etishga bag‘ishlangan yirik asarlardir. Bu asarlarning umumiy jihatiga to‘xtalsak, ikkala asar ham axloqqa doirligi umumlashtiruvchi jihatidir. Ikki asarda ham universal axloq, ma‘naviy qadriyatlar yetakchi o‘rin tutadi. Ularning asosiy e‘tibor markazida inson va uning ma‘naviy kamoloti yotadi. Ikkovi ikki davr odami bo‘lsa ham ularning fikrlashi bir biriga yaqin va hatto Avloniy o‘zining asarida Arastuning fikrlaridan foydalangan. Bu asarlarning ikkalasida ham tarbiyani birinchi inson o‘z oilasidan olishi aytib o‘tilgan va oilaga ko‘proq e‘tibor qaratish kerakligini dalillar bilan keltirishgan. Farqli jihati esa Avloniyning asari ko‘proq jadidchilik ruhida yozilgan. Ya‘ni Turkiston xalqining milliy - ma‘naviy qadriyatlarimiz, ijtimoiy - axloqiy talqini yoritiladi. Ko‘proq bu asar o‘sha davr xalqining tafakkuri qay darajada sust va buni to‘g‘irlash kerakligi haqida, chor hukumatining insonlari turkiy xaqlarni ma‘naviy jihatdan yo‘q qilishga bel bog‘laganini, insonlarning ko‘zlari huddi tuman qoplab qolganu, tezroq o‘zlariga kelmasa, chor hukumati ularni tubi yo‘q jarlik tomon olib ketayotganini tushuntirishga harakat qilgan. Bir so‘z bilan aytganda bu asar faqat turkiy xalqlarga tegishlidek tuyiladi. Arastuning asari umumbashariy axloqiy me‘zonlarni

[260] Abdulla Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq.- Toshkent; 1917.- B. 23.

o‘rnatishga yo‘naltirilgan. Kengroq doirada yozilgan ya‘ni umumbashariy. Lekin bu asarlar milliy ma‘naviy qadriyatlar va umumbashariy axloqiy prinsiplari uyg‘unlashib ketgan. Mazkur asarlar bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan va eng mashhur axloqiy asarlar qatorida turadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Arastu. Axloqi kabir. – Toshkent, 2024.
2. Аристотель. Никомахова этика. – М.: Азбука, 2022.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1917.

UMAR XAYYOM VA UNING FALSAFIY QARASHLARI

To‘lanboyeva Qorako‘z Muxtorjon qizi
“Sharq falsafasi va madaniyati” yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD Sulaymonov Jasur Baxtiyarovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Umar Xayyom shaxsiyatiga oid xususiyatlar hamda uning falsafiy qarashlari muhokama etiladi. Shuningdek, Umar Xayyom asarlaridagi g‘oyalar tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *falsafa, ruboiyot, ontologiya, mantiq, gnoseologiya, matematika, astronomiya, vaqt, hayot mazmuni, Jaloliy taqvimi, ilmi nujum, mavjudlik.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Asosiy muhokamaga o‘tishdan avval Umar Xayyom shaxsiyatiga to‘xtalib o‘tsak. Chunki ko‘pchiligimiz Umar Xayyomni shoir sifatida bilamiz xolos. Shuning uchun umumiy ilmiy faoliyati bilan tanishamiz.

Umar Xayyom taxallus hisoblanib – asl ism-sharifi G‘iyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriy. Yashab o‘tgan davri 1048.05.18— 1131.4.12 vaqtga to‘g‘ri keladi. Taxminlarga asosan, uning ota-bobolari chodir tikish hunari bilan shug‘ullanishgan, chunki Xayyom arabchada “chodir tikuvchi” degan ma’noni anglatadi. Nishopurda tavallud topgan Umar Xayyom matematik, astronom, faylasuf, hakim, fizik va mutafakkir shoir sifatida faoliyatini olib borgan.

Xayyom bilan shaxsan tanish bo‘lgan tarixchi Bayhaqiy uning munajjimlar bashorati haqida to‘liq ma’lumot beradi: “U Egizaklar edi, Quyosh va Merkuriy ko‘tarilishda edi.[261]

Nishopurda boshlangich ma’lumotni olgach, Balx, Buxoro va Samarqandda tahsil ko‘rgan. Uni Xuroson mintaqasining eng buyuk ustozlaridan biri, oliy zodagonlar farzandlariga saboq bergan Imom Muvaffaq Nishoburiy huzuriga o‘qishga yuborishgan. Xayyom Abu Ali Ibn

[261] Omar_Khayyam, en.m.wikipedia.org/wiki/

Sinoning shogirdi Bahmanyor bilan uchrashib, tahsil olgan bo‘lishi mumkin degan taxminlar ham uchraydi. Malikshoh va Nizomulmulk (1019—1092) da’vati bilan 1074-yilda Isfahonda rasadxona qurdirgan va unga rahbarlik qilgan. Yulduzlar jadvali (zij), 1079-yilda yangi isloh qilingan taqvim (kalendar) tuzgan. Bu taqvim Yevropada undan 500 yil keyin joriy qilingan Grigoriy kalendaridan ham aniqroq bo‘lgan.[262] Umar Xayyom 1131-yil 4-dekabrda 83 yoshida ona shahri Nishopurda vafot etdi va hozirgi Umar Xayyom maqbarasida dafn etilgan.

Umar Xayyom G‘arbda ham anchayin mashhur hisoblanadi. Ba’zilar uni Fors Da Vinchisi deb atashadi, chunki u turli ilmiy fanlar, jumladan, falsafa va astronomiya bo’yicha mutaxassis edi.[263]

Umar Xayyom har tomonlama yondashuvga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Ko‘plab fan tarmoqlarining yirik mutaxassisi sifatida baholanadi. Shu sababli uning asosiy faoliyatini qismlarga ajrataib olsak: dastlab matematika va astronomik qarashlarini keltirib o‘tamiz. Keyingi navbatda Xayyomning falsafiy ta’limotlari, ruboiylaridagi ilgari surilgan masalalar yuzasidan atroflicha fikr yuritsak.

Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Umar Xayyomning dastlabki ilmiy faoliyat yillari matematika va astronomiya bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu sohalarda yuksak iste’dod sohibiga aylangan. Uning Jaloliy taqvimi, ya’ni aniq ishlab chiqilgan quyosh taqvimi bo’yicha qilgan ishi uning matematik salohiyatini belgilaydi. Xayyomning qiziquvchanligi va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi uni turli sohalarni chuqur o‘rganishga undadi, ayniqsa, matematika va astronomiyaga e’tibor qaratdi. Uning ta’lim olish maqsadida qilgan safarlari keyinchalik bu fanlarga chuqur ta’sir ko’rsatishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Umar Xayyomning kubik tenglamalar bo’yicha olib borgan izlanishlari hamda qilgan yangiliklari ushbu sohada inqilob qila oldi va kelajakdagi matematik ishlanmalar uchun zamin yaratdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, 1074-1075-yillarda Umar Xayyom Sulton Malikshoh tomonidan Isfahonda rasadxona qurish va fors taqvimini isloh qilish topshirig‘ini oladi. Katta astronomik kuzatishlar olib borish va astronomik jadvallarni qayta ko‘rib chiqish uchun Xayyom rahbarligida sakkiz nafar olimdan iborat guruh ishlagan. Kalendar islohoti noyob hisoblanib, 33 yillik interkalatsiya siklini joriy qildi. Xaziniy asarlarida keltirishiga ko‘ra, Xayyom guruhi to’rt yillik va besh yillik kabisa yillariga asoslangan interkalatsiya tizimini joriy qilgan.

1077-yilda u yunon olimi Yevklid kitobidagi bir necha geometrik shakllarni sharhlab yozgan „Risola fi sharhi mo ashkala min musodarat kitob

[262] Umar_Xayyom, uz.wikipedia.org/wiki/
[263] Omar-khayyam, irandoostan.com/

ul-Iklidis“ („Yevklid kitobi muqaddimalaridagi mushkulotlar sharhi haqida risola“) asarida butun sonlarning ildizini topish yo‘llarini ko‘rsatib bergan. „Risola fil barohiyn ala masoyil al-jabr val-muqobala“ (“Algebra va muqobala (qarshilik nazariyasi) isbotlari haqida risola”), „Mushkulot ul-hisob“ („Arifmetika mushkulotlari“) asarlarida u yunon olimlarining aniq fanlarga oid fikrlarini arab tilida keng sharhlash bilan birga, ularning qarashlarini rivojlantirgan, matematik, fizik tenglamalarning modellarini topgan.

Umar Xayyomning astronomiyaga oid bo‘lgan izlanish va faoliyatlaridan kelib chiqib, uni munajjimlik hamda bashorat qilishga nisbatan qiziqishi katta bo‘lganligini da’vo qilishadi. Lekin uning shogirdlaridan biri samarqandlik Nizomiy Aruziy Xayyomning munajjimlik va bashoratga e’tiqodi bo‘lmagani haqida hikoya qiladi: “Men ular (Umar Xayyom)ning munajjimlar bashoratiga katta e’tiqodi borligini ko‘rmaganman. Bunday e’tiqodga ega bo’lgan buyuk (olimlardan) birortasi ko‘rganim ham, eshitganim ham yo‘q”.

Umar Xayyomning musiqa va matematik birliklar bilan o‘zaro mavjud bo‘lgan bog‘liqliklar haqida ham risolasi bor. Risola musiqa nazariyasi bilan bog’liq bo’lib , u musiqa va arifmetika o’rtasidagi bog’liqlikni muhokama qiladi. Xayyomning ushbu izlanishlarida musiqiy miqyoslarning tizimli tasnifini ta’minlash va notalar, minor, major va tetrakordlar o’rtasidagi matematik munosabatlarni ko‘rib chiqish va buning asosida muhokamalarni keltirishdan iboratdir.

Endigi navbatda Umar Xayyomning falsafiy qarashlari va undagi takrorlanmas jihatlarni ko‘rib chiqamiz.

Umar Xayyom ilmda ham, ijodda ham o‘zini shayx ur rais hisoblangan Abu Ali ibn Sinoning hassos va sadoqatli shogirdi hisoblagan. Ibn Sino asarlarini tushunmagan kishilar ularni izohlash va sharhlashni undan so‘raganlar. U ustozining bir qator asarlarini arabchadan forschaga tarjima qilib, sharhlab bergan, uning g‘oya va qarashlarini davom ettirgan hamda targ‘ib qilgan. „Risolat ul-kavn vat-taklif“ („Koinot va uning vazifalari haqida risola“), „Risola fil vujud“ („Borliq haqida risola“), „Risola fi kulliyoti vujud“ („Borliqning umumiyligi haqida risola“) kabi falsafiy asarlarida Ibn Sinoning vorisi va izdoshi sifatida namoyon bo‘ladi. U Ibn Sinoning “Shifo kitobi” asaridagi metafizikani o‘qigan. „XII asr fors nasrining nodir namunasi hisoblangan „Navro‘znoma“ asarida Navro‘zning kelib chiqish tarixi, Sharq xalqlarining bu bayram bilan bog‘liq an’ana va marosimlari keng yoritilgan, ko‘plab hikoyat va rivoyatlar keltirilgan.[264]

Xayyomning falsafiy dunyoqarashi, hozirgi zamon lazzatlarini qadrlashi uni o‘z davri allomalaridan ajratib turadi, deb ta’kidlovchilar ham

[264]Omar-khayyam, irandoostan.com

mavjud. Umar Xayyom mavjudlik haqidagi savollar, voqelik tabiati va bilimga intilish haqida mulohaza yuritishi bilan mashhur. Uning falsafiy qarashlari hayotga noyob nuqtai nazarni taqdim etadi va faylasuflar va mutafakkirlar orasida chuqur tafakkur va mulohazalarni ifodalaydi. Uning inson borlig‘ining o‘tkinchi xususiyati va hayotning o‘tkinchiligi haqidagi fikrlari bugungi kunda ham yuksak ahamiyatga ega, shuningdek, Xayyom ijodi insoniy holatni tushunishga intilayotganlar uchun abadiy ilhom manbaini bag‘ishlaydi.

Xayyom tomonidan yozilgan oltita falsafiy asar bor. Ulardan biri “Mavjudlik haqida” (“Fi’l-vujud ”) asli fors tilida yozilgan bo‘lib, borliq mavzusi va uning insoniyat munosabatiga bag‘ishlangan. “Dunyoda ziddiyat zarurati, determinizm va tiriklik” (“Dorurat al-tadod fi’l-olam va’l-jabr va’l-baqo’”) nomli boshqa bir risola arab tilida yozilgan unda iroda erkinligi va determinizmga bag‘ishlangan. Boshqa asarlarining sarlavhalari borliq va zarurat haqida (Risola fi’l-kavn val-taklif), “Vjudda o’zgachalik haqida risola” (ar-Risola al-ula fi’l-vujud), Borliqning umumbashariy asoslarini bilish (Risola dar ilm kulliyat-i vujud) va tabiat hodisalariga oid qisqartmalar (Muxtasar fi’l-tabiiyyot).

Biz Umar Xayyomning ruboiylari orqali ham yashirin falsafiy ma’noga ega bo‘lgan qarashlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Ruboiylarida asosan olam, hayot mazmuni, ekzistensializm, hayotning o‘tkinchiligi, o’lim va zavq olishga intilish mavzulari chuqur muhokama etiladi. Uning she’riy asarlari, xususan, ruboiylari insoniy omillar, ishq-muhabbat, hayotning o‘tkinchi tabiatini chuqur anglashni ko‘rsatadi. Olimning she’riy asarlari nozik did va go‘zal tarzdagi qofiyalar asosida yozilgan bo‘lishi bilan birga, ularning har bir misrasida chuqur mazmunga ega bo‘lgan hikmatlar ifodalangan. Bular insonni fikrlashga, mulohaza yuritishga chorlaydi. Xayyomning she’riy uslubi soddaligi bilan o‘z davrining barcha toifa insonlariga tushunarli bo‘lgan, shu bilan birga u chuqur falsafiy mulohazalar bilan ajralib turadi. Ruboiylarida u materiyaning bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishi, eskining yemirilib, yangining paydo bo‘lishini (kulol, ko‘za, tuproq haqidagi ruboiylar va boshqalar) ifodalaydi. Umuman, ishq va hayot, inson tafakkurining qudrati, umrning ma’nosi, insoniy fazilat va qusurlar, ma’rifat va jaholat kabi mavzular shoir ruboiylarining asosini tashkil etadi. Tez-tez uchrab turadigan may obrazi esa ilohiy muhabbat, hayot lazzatlarini ulug‘lash vositasidir. Firdavsiy masnaviyni, Hofiz g‘azalni qanchalik takomilga yetkazgan bo‘lsalar, Xayyom ham ruboiyni shunchalik yuksak mavqega ko‘tardi. Xayyom ruboiylari dunyoning deyarli barcha asosiy tillariga tarjima qilingan. Bu ruboiylar o‘zidan keyingi Sharq adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. XIX asrdan G‘arbda ham mashhur bo‘lgan. Aynan u tufayli ruboiy jahon so‘z san’atining mashhur janrlaridan biriga aylangan.

U o‘zining falsafiy jihatdan teran va sermazmun ruboiylari bilan Sharq she’riyatida falsafiylikning chuqurlashuviga katta hissa qo‘shgan.[265]

Xayyom ruboiylarini XX asr boshlaridan o‘zbek tiliga tarjima qilishga kirishilgan. 1914-yil „Sho‘ro“ jurnalining bir necha sonlarida shoirning ruboiylari ilmiy sharhi bilan nasriy tarjimada e’lon qilingan. Fitrat „Fors shoiri Umar Xayyom“ nomli risolasida (1929) uning 35 ta ruboiysini nasriy tarjimada keltirgan. Keyinchalik F.Abdullayev uning 14 ta ruboiysini she’riy tarjima qilgan. Xayyom ruboiylari tarjimasi asosan Sh. Shomuhamedov nomi bilan bog‘liq: shoir ruboiylari uning tarjimasida bir necha marta bosilib chiqqan.

XULOSA

Umar Xayyom o‘z davrining barcha sohalarida yetakchi bo‘lgan qomusiy olim hisoblanadi. Uning ilgari surgan falsafiy g‘oyalari o‘ziga xos xususiyatga ega. Iroda erkinligi konsepsiyasi orqali buni ko‘rishimiz mumkin. Umar Xayyomning ba’zi falsafiy qarashlarini talqin qilishda uning e’tiqodi borasida fikr yuritishadi. Natijada ikki xil yondoshuv tarafdorlari shakllangan. Birinchisi uning ruboiylaridagi obrazlardan kelib chiqib tasavvuf va so‘fiylikka bo‘lashsa, ikkinchisi, bu obrazlar diniy yoki tasavvufiy ahamiyatga ega emas, dunyoning lazzatlari va hisslar deb ta’riflaydilar.

Umuman olganda, ruboiy tarixiga nazar tashlasak, Xayyomning ijodidan so‘ng yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. Aynan Xayyom me’rosi orqali ruboiylar yangicha ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki Umar Xayyom ruboiylari o‘zida jamlagan keng mushohadalar, falsafiy fikrlar beqiyos. Olam va inson, o‘tkinchi dunyoning xususiyatlari ixcham va sodda shaklda yoritiladi.

Uning mashhur satrlaridan birida shunday deyiladi: “Harakatlanuvchi barmoq yozadi va yozgan bo’lsa, davom etadi; Sizning barcha taqvodorligingiz ham, aql-zakovati ham uni yarim satrni bekor qilishga unday olmaydi ”degan vaqt o’tishining muqarrarligini va harakatlarimizning qaytarib bo’lmaydigan tabiatini qamrab oladi.[266]

Bugungi kunda ham Umar Xayyom qarashlari katta ahamiyatga ega. Uning falsafiy tafakkurining yondashuvi sodda va aniq ifodalanadi. Barcha davrlarida muhokama bo‘lib kelayotgan masalalarga o‘zining takrorlanmas yondashuvini bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. https://irandoostan.com/omar-khayyam/
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Umar_Xayyom
3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Omar_Khayyam

[265] Omar_Khayyam, en.m.wikipedia.org/wiki
[266] Omar_Khayyam, en.m.wikipedia.org/wiki

4. https://www.okonlife.com/life/philosophy.htm
5. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” , Toshkent–2005

AXLOQSHUNOSLIK FANINING ADOLAT KATEGORIYASI (ARASTUNING “AXLOQI KABIR” ASARI ASOSIDA)

Muxtorjonov Oybek Ma’murjon o‘g‘li
“Falsafa” yo‘nalishi 1- kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Abduvaxobova Gulsara Akromjon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Arastuning “Axloqi Kabir” asariga asoslangan. Maqolada Axloqshunoslik fanining adolat kategoriyasini ilmiy va diniy dalillar asosida izohlashga harakat qilingan.*

Tayanch so‘zlar: *Axloqshunoslik fani, adolat, adolatlilik, adolatsizlik, qonun, fazilat, odillik, oqillik, fozillik, tenglik, tengsizlik, baxtsizlik, ibtido, oliyjanoblik, axloqlilik, axloqsizlik, yaxshilik, yomonlik, ezgulik, ojizlik, yaxshi xulq.*

Axloqshunoslik fanining adolat kategoriyasiga o‘tgan asrlardan to shu kunga qadar turli faylasuflar turlicha yondashuvlar bilan ta’riflar berishgan.

Adolat nima o‘zi? U qanday hollarda namoyon bo‘ladi? Nimalarga aloqador? Bu savollar hozirga qadar turli shaklda ma’lum darajada o‘z javobini topgan. Biz bu kabi savollarga falsafadan, dindan, tabiiy fanlar doirasidan turlicha javob olishimiz mumkin. Adolat tushunchasini nima ekanligini anglashimiz uchun avvalo biz adolatlilik nimaligini bilib olishimiz lozim.

Barcha zamonlarning olimlari uchun ustoz hisoblangan buyuk yunon faylasufi Arastu o‘z asarida shunday yozadi: Ikki xil adolatlilik mavjud. Bulardan biri qonunga muvofiq bo‘lishdir. Ya’ni bu holatda faqat qonun buyurganini qilishlik adolatlilik hisoblanadi. (Agar qonun adolatli bo‘lsa).

Qonun odamlardan mard, oqil va fozil bo‘lishni talab qiladi. Shuning uchun ham odillik eng mukammal fazilat deyiladi. Adolatlilik (yaxshi, ilohiy) qonunlarga muvofiq yashash ekan, qonun esa barchadan fazilatlar bilan yashashni talab qilar ekan, qonunlarga muvofiq, adolatli ish tutuvchi odam eng fozil odamdir. Adolatlilik (odillik) eng yaxshi fazilatdir. Adolatlilikning bir turi mana shudir. Odillik faqat bunday tushunilsa, odam o‘z-o‘ziga adolat qilgandek bo‘ladi. Oqil, jasur, sabr-qanoatli odamlar o‘z-o‘ziga tabiatan shunday bo‘ladilar.

Adolatlilikning ikkinchi turi haqida so‘z boradigan bo‘lsa, qonun talablariga muvofiq yashashdan farqlanuvchi adolat boshqa odamlarga nisbatan adolat qilishdir. Boshqa odamlarga adolat qiluvchi odam o‘z-

o‘ziga adolat qilmasligi ham mumkin. O‘zgalarga munosabatda adolatli ish tutish, aslini olganda tenglikka amal qilishdir. Bu mulohazadan kelib chiqadiki, tengsizlik ham adolatsizlikdir. Ba’zi odamlar o‘ziga yaxshi narsalarni ko‘proq, yomon narsalarni kamroq oladilar. Mana shu holat tengsizlikdir. Shu tengsizlik tufayli bu odamlar o‘zgalarga adolatsizlik qiladilar. Yoki shu tufayli o‘zgalar adolatsizlik, nohaqlikdan jabr ko‘radilar. Demak adolatsizlik tengsizlik (nohaqlik) ekan, adolat va odillik har ikki tomonning o‘z majburiyatlariga rioya qilishida ko‘rinadi. Shu ma’noda adolatni ham ortiqchalik va yetishmovchilikning, ko‘plik va ozlikning o‘rtasi deyish mumkin. Adolatsizlik (nohaqlik) qiluvchi odam yaxshi narsalarni o‘ziga ko‘proq, ya’ni ortiqcha oladi. Adolatsizlikka uchragan, jabr ko‘rgan odam esa, keragidan kamroq oladi yoki hech narsa olmaydi. Mana shu, ortiqchalik va kamlikning o‘rtasi tenglik va mana shu tenglik adolatdir. Odil odam esa, barchani teng ko‘ruvchi, tenglikka rioya qiluvchi odamdir. Demak, o‘zgalarni o‘ziga teng ko‘ruvchi odam odil odamdir[267].

Tabiiy adolatparvarlik ham mavjud. Ko‘pchilik holatlarda, mushkul holatlarda ham adolatli bo‘lgan odam tabiatan adolatlidir. Qonun chiqaruvchilar bir holatni adolatli deb belgilab qo‘yganidan so‘ng odam shu holatda bo‘lsa, bu qonuniy, ya’ni qonunga muvofiq adolatdir. Tabiiy adolat qonuniy adolatdan a’lodir. Bir qarashda adolatsizlik va adolatsiz qilmish bir narsaga o‘xshaydi. Ammo bunday emas. Adolatsizlik bu qonunda belgilangan tushuncha. Masalan, birovning omonatini qaytarib bermaslik adolatsizlikdir. Adolatsiz qilmish zulm esa kimdir sodir qilgan yomonlikdir. Shunga o‘xshab, adolat va adolatli ish ham bir-biriga teng emas. Adolat qonunda belgilangan tushuncha, adolatli ish esa, adolatli, haqqoniy ishlar – amallardir.

Adolat qachon mavjud bo‘ladi va qachon qay holatda yo‘qoladi? Umuman aytganda, bir odam boshqa odamga ixtiyoriy, yaxshi niyat bilan, oingli ravishda yaxshilik qilsa, shu adolatdir. Xuddi shu tariqa, bir odam boshqa odamga nisbatan ixtiyoriy, ongli ravishda nohaqlik, zulm qilsa, bu adolatsizlikdir. Shu ikkala holatdan tashqari, o‘zi bilmagan holda nohaq ish qilsa, bunday odam adolatni buzuvchi, oyoqosti qiluvchi, zolim emas, balki baxtsiz odamdir. Masalan, birov dushmanimni o‘ldiryapman deb o‘ylab, bilmasdan otasini o‘ldirib qo‘ysa, bu adolatni poymol qiluvchi emas, baxtsiz odamdir.

Agar odamzod kimgadir, nima bilandir, biror maqsadsiz, bilmasdan nohaq ish qilib qo‘ysa, adolatni poymol qilmasligini, bunday odam adolatsiz emasligini aniqlaymiz? Qanday holatlarda odam o‘zi bilmagan holda birovga zarar yetkazsa ham adolatsiz bo‘lmaydi? Buni quyidagicha

[267]Arastu. Axloq Kabir. Tarjimonlar Zohir Alam va Urfon Otajon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. 155-156-b.

ta’riflash mumkin: birov qilgan biror yomonlikning sababi bilmaslik bo‘lsa, bu yomonlikni odam o‘z ixtiyori bilan, qasddan qilmagan bo‘lsa, bu kishi adolatsiz odam emas, ammo beixtiyor nohaq odamdir. Agar qilgan yomonligiga o‘zlari sababchi bo‘lmasalar, bunday odamlar adolatsiz odamlar emasdir. Odam adolatsizlikka o‘z ixtiyori bilan chidashi mumkinmi? Yoki bu noto‘g‘rimi? Chindan ham biz o‘z ixtiyorimiz bilan ham adolatli yoki adolatsiz ishlarni qilamiz, ammo bizga nisbatan boshqalarning adolatsizlik qilishini istamaymiz. Biz hatto haqqoniy jazolanishdan ham qochishga urinamiz. Hech kim o‘z ixtiyori bilan zarar ko‘rishni istamaydi. Adolatsizlik o‘zgalarga zarar yetkazishdir[268].

Aflotun adolatni mukammal fazilat deydi. U “Davlat” asarida ham adolatni barcha fazilatlarning yetakchisi, deydi. U adolat oliyjanoblikdan va hatto oqillikdan ham yuksakroq fazilatdir, chunki adolat boshqa barcha fazilatlarni o‘z ichiga oladi, va shu ma’noda u barcha fazilatlar jamlanmasidir. Chunki adolat fuqarolardan ayrim fazilatlarga ega bo‘lishni emas, balki qonunlarga amal qilishni talab etadi.

Adolat va adolatsizlik sog‘lom va kasallik keltirib chiqaruvchi ibtidolardan hech narsasi bilan farqlanmaydi, faqaat bulardan biri tanada, yana birisi esa dildadir. Sog‘lom ibtido sog‘lik keltiradi, kasallik tug‘diradigani esa kasal qiladi. Adolatli faoliyat adolatga, adolatsizi esa adolatsizlikka olib boradi. Sog‘lom qilish jismoniy ibtidolar o‘rtasida hukmronlik va bo‘ysunishning tabiiy munosabatlarini yaratishni anglatadi, shu kabi kasallik ularning tabiatga zid ravishda hukmronligi yoki bo‘ysunishini anglatadi. Demak, dilni adolatli qilish, u yerda uning ibtidolarining hukmdorlik va tobelikning tabiiymunosabatlarini o‘rnatishni anglatadi, adolatsizlik qilish esa, u yerda, bir ibtidoning boshqasi ustidan hukmronligi yoki birining boshqasiga bo‘ysunishini tabiatga zid ravishda o‘rnatishni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, ezgulik bu qandaydir sog‘lomlik, chiroy, qalb xotirjamligi, farog‘atdir, yomonlik axloqsizlik esa kasallik, xunuklik va ojizlikdir[269].

Ba’zi odamlar teng ulush olishga haqli bo‘lsa ham o‘z ixtiyori bilan kamroq ulush olishga rozi bo‘ladilar. Biz avvalroq aytib o‘tdikki, tenglik – adolat, kamsitilish esa adolatsizlik degan edik. Ixtiyoriy ravishda kam ulushga rozi bo‘luvchi odam adolatsizlikni o‘z ixtiyori bilan tanlagan bo‘lib chiqadi. Aslida, ixtiyoriy ravishda kam ulush oluvchi odamlar bu ishga maqtov, obro‘, shon-shuxrat topish uchun yo do‘stlik uchun rozilik bildiradilar. Ammo kam ulush olish evaziga hech narsaga shon-shuxratga yoki do‘stini sevintirishga erishmaydigan odamlar adolatsizlikka ixtiyoriy ravishda rozi bo‘lmaydilar. Yana o‘z ixtiyori bilan kam ulush olishga rozi

[268] Aflotun. Davlat. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2015. 161-162-b.
[269] Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud Axloq. – Toshkent. 2023. 190-b.

bo‘lgan odamlar “Men falonchi bilan teng ulush olishim kerak edi, ammo yoshi ulug‘roq yoki do‘stim bo‘lgani uchun kam ulushga rozi bo‘ldim” deb maqtanadilar va obro‘ topishni o‘ylaydilar.Ammo adolatsizlikka chidaydigan odam obro‘ topmaydi. Mobodo, bunday odamlar obro‘ topishni o‘ylamasalar , foyda yoki hosilni adolatsiz bo‘linishiga rozi bo‘lmas edilar. Ayniqsa, ixtiyoriy ravishda rozi bo‘lmas edilar[270].

Adolatni boshqa tomondan olib qaraydigan bo‘lsak, boshqalarning moli va nomusini hurmat qilishga aytiladi. Adolat yaxshi xulqlarning bajaruvchisi, zulmga qarshi turuvchi tushuncha hisoblanadi. Adolatli va marhamatli kishilar o‘ziga loyiq ko‘rmagan yomon ishlarni o‘zgalarga ham ravo ko‘rmaydi. Adolatli ish yurituvchi insonlar hech bir kishiga jabr-u zulmni xohlamaydi va jonli narsalarga bekorga ozor bermaydi. Adolatli kishilar aql va shariatga muvofiq ravishda harakat qiladilar. Jabr u zulm qilish orqali boshqalarning qalbini og‘ritgan kishilar jazodan qutula olmaydilar. Chunki Allohning adolati zolimlarga tegishli jazo va azobni berishni talab qiladi. Rasulullоh (s.a.v.)ning so‘zlariga ko‘ra: “Agar Allohning roziligini istasangiz bolalaringizga ham adolatli bo‘ling. Yana mazlumning duosidan hatto kofir bo‘lsa ham saqlaning. Chunki mazlumning duosi har doim Alloh tomonidan qabul qilinadi. Har bir millatning taraqqiyoti va farovonligi, davlat va hukumatlarning uzoq yashashi adolatga bog‘liqdir. Adolatdan ayrilgan hukmdorlarning davlatlari yo‘q bo‘lib, tarix sahifalarida faqat ismlari qolganligi hammaga ma’lumdir[271].

Arastuning adolat boshqalarga nisbatan degan fikri Aflotunning ko‘ngil xotirjamligi, o‘zimizga adolat, degan fikriga qarshidir. Ammo yaxshi, teranroq o‘ylab qaralsa Aflotun va Arastuning bu fikrlar o‘rtasida ziddiyat yo‘qdir.

Mening xulosam shuki, adolat o‘z mazmuniga ko‘ra shaxs erkinliklari va majburiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni, uyg‘unlikni obyektiv xolis baholashning ijtimoiy mezonidir. Adolat kategoriyasining boshqa axloqiy kategoriyalardan farqi shundaki, u ayniqsa, huquqshunoslik bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma’lum darajada u axloqshunoslik va huquqshunoslikni bog‘lovchi ko‘prik, asos rolini o‘taydi. Huquqshunoslik fani mazkur axloqiy kategoriyani qonunlar asosida oladi, uni kishilar munosabatida qaror topishini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu haqida Islom Karimov “Adolat qonun ustuvorligida” nomli maruzasida batafsil to‘xtaladi. Huquq fanining adolatni qaror topishi uchun say harakati u huquqiy kategoriya degan xulosaga ham olib keladi. Aslida esa adolat avvalambor

[270] Arastu. Axloq Kabir. Tarjimonlar Zohir Alam va Urfon Otajon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. 163 b.
[271] Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud Axloq. – Toshkent. 2023.

axloqiy kategoriyadir. Mazkur kategoriya misolida etika va huquq fanlarining bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arastu. Axloq Kabir. Tarjimonlar Zohir Alam va Urfon Otajon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. 384 b.
2. Aflotun. Davlat. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2015. 464 b.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud Axloq. – Toshkent. 2023. 91 b.
4. Nosirxo‘jayeva G. Etika. Estetika. O‘quv qo‘llanma. Ma’sul moharrir; O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi A.Ibrohimov. TDYU nashriyoti 2006. 114 b.

O‘RTA ASR SHARQ ILM-FANINING YULDUZI: AL-XORAZMIY

Shonazarova Fotima Komil qizi
“Sharq falsafasi va madaniyati” yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I. B. Xudaynazarov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biz buyuk bobomiz Muhammad ibn Muso Xorazmiyning hayoti va ijodi , ilmiy faoliyati shuningdek bizga qoldirgan ilmiy merosi haqida batafsil bilib olamiz. Qomusiy olim o‘zining ilmiy yutuqlari bilan Sharq va G‘arb ilm fanini bog‘lagan ulug‘ alloma bo‘lib uning ishlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan shu bilan birgalikda bizga yetarli darajada ilmiy meros qoldirgan.*

Kalit so‘zlar: *Al-Xorazmiy, Al jabr val muqobala, algoritim, Bayt-ul hikma, Sharq olimlari, o‘rta asrlar, Kitob surat al-arz, merosni to‘g‘ri taqsimlash, Hind raqamlari algoritimi*

THE STAR OF MEDIEVAL EASTERN SCIENCE: AL-KHWARIZMI

Shonazarova Fotima Komil qizi
2nd-year student of the “Eastern Philosophy and Culture”
Academic advisor: I. B. Khudaynazarov

Annotation: *This article provides a detailed insight into the life, works, and scientific legacy of our great ancestor, Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi. The encyclopedic scholar was a great luminary who connected Eastern and Western sciences with his remarkable achievements, and his works remain relevant even today. Additionally, he left us a significant scientific legacy.*

Keywords: *Al-Khwarizmi, Al-Jabr wa'l-Muqabala, algorithm, Bayt al-Hikma, Eastern scholars, medieval period, Kitab Surat al-Ard, proper*

inheritance distribution, Hindu numeral system algorithm.

KIRISH

"E'tibor bersak matematika rivoji Qur'ondan boshlangan, meros oyatlari buning isbotidir. Xorazmiy birinchi musulmon matematigi, barcha ilmlarni tartibga solib berganligi uchun biz undan qarzdormiz. "Xorazmiy" so'zi ispanlashib raqamlar ma'nosini bildiradigan bo'lib qoldi. U algebra bilan shug'ullanib yurganda, boshqalar unaqa fan borligini ham bilmasdi"[272]. (Jon Friniya, 2025, p.13)

Al-Xorazmiy - buyuk alloma, matematik, astronom va geograf bo‘lib, u o‘zining ilmiy kashfiyotlari bilan nafaqat Sharq, balki butun dunyo ilm-fani rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning ilmiy merosi hozirgacha ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilmoqda va qo‘llanilmoqda. To‘liq ismi – Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Xorazmiy bo‘lib, 783-yili Xiva shahrida dunyoga kelgan. Otasi harbiy amaldor, ilm-ma’rifat ahliga hurmat bilan qaraydigan, uyida turli xalqlarga mansub qo‘lyozmalarni saqlaydigan ziyoli inson bo‘lgan. Jumladan, uning kolleksiyasida yunoniy, ibroniy, suryoniy, sanskrit yozuvlari, papirus qog‘ozlari va daraxt po‘stlog‘iga yozilgan noyob xatlar saqlangan. Muhammad ana shunday xonadonda o‘sib voyaga yetdi. U yashagan muhit Movarounnahrda arab xalifaligi hukmronligi o‘rnatilgan, fan va madaniyat ravnaqi yana qayta izga tushayotgan bir davr edi. *Xorazmiy va unga zamondosh bo‘lgan allomalar mamlakat taraqqiyoti yo‘lida dunyoda erishilgan ilm-fan yutuqlarini, qadimgi yunon va suryoniy tillarida yozil- gan sara asarlarni, xitoy va hind diyorlaridan keltirilgan noyob ilmiy manbalarni arab tiliga tarjima qilgan*[273]. Muhammad Xorazmiy Marv (796-819), Damashq va Bag‘dodda (819-850) ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilgan. Manbalarga ko‘ra, mutafakkir 850-yili Bag‘dodda vafot etgan.

ASOSIY QISM

Muhammad Xorazmiy bugungi intellektual sivilizatsiyaning, ya’ni aql-idrok bilan boshqariladigan insoniyat jamiyati shakllanishining boshida turgan buyuk mu- tafakkirlardan biridir. U tabiiy fanlar, ayniqsa, matematika rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. Insoniyatni Rim raqamlariga asoslangan murakkab sanoq sistemasidan ozod etib, o‘nlik sanoq sistemasini va nol raqamini amaliyotga joriy qilgan. Bugungi zamondoshlarimiz qo‘lidagi mobil telefonlarning ishlash mexanizmi algoritmga asoslanadi. Bu atama Xorazmiyning nomidan va u kashf qilgan ketma-ketlik qoidalaridan kelib chiqqan. Xorazmiy fundamental bilimlarni o‘z yurtida egallagan. Yoshligidan uning xotirasi kuchli, zehni o‘tkir bo‘lgan. Ilmiy salohiyati

---

[272] *Niyozov G., Q.Ahmedov, Q.Tojiboyev ,,Sharq allomalari va ma‘rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma‘naviy axloqiy qarashlari – Toshkent-O‘zbekiston. 2010. – B. 8.*

[273] *Finiya. J. (2025). Al-Xorazmiy va uning ilmiy merosi.– Tashkent: Ilm press – P. 13.*

garchi o‘z ona yurti Xorazmda shakllangan bo‘lsa-da, ijodi dastlab Marvda, keyin Damashq va Bag‘dodda kamolga yetgan. Xorazmiy yashagan davrda Marv shahri Xurosonning ilm-fan markazi edi. Bu yerda oliy madrasalar, katta kutubxonalar va yirik ibodatxonalar faoliyat olib borgan. Marvda 813-833-yillari xalifa Horun ar-Rashidning o‘g‘li va taxt vorisi Ma’mun hukmronlik qilgan. U ham otasi singari ilm-ma’rifatni qadrlagani, astronomiya, matematika va geografiyani yaxshi bilgani sababli tez-tez olimlarning ilmiy munozaralarini tashkil etib turgan. Bu anjumanlarda ayniqsa Movarounnahrdan kelgan olimlar peshqadamlik qilgan. Xorazmiy ham ular qatorida Marvga taklif qilingan. Dastlab arab xalifaligining ilm-fan markazi Da mashq shahri bo‘lgan. Bu yerda o‘sha davrlarda madra salar, kutubxonalar tashkil etilgan, Vizantiyadan kelgan mohir tarjimonlar faoliyat ko‘rsatgan. Ma’mun taxtga o‘tirgach, o‘zi bilan me’morlar, hunarmandlar va Xorazmiy yetakchiligida movarounnahrlik bir guruh mashhur olimlarni Bag‘dodga olib borgan. Bu olimlarning yuksak darajali intellekti barchaga namuna bo‘lgan. Xorazmiy ularning sardori sifatida Horun ar-Rashid davrida bunyod qilingan “Baytul hikma” (“Donishmandlar uyi”) ilmiy akademiyasiga o‘n olti yil davomida rahbarlik qilgan. Xorazmiyning serqirra analitik tafakkuri, keng dunyoqarashi, xotira ko‘lami, o‘tkir mushohada qobiliyati ana shunday nufuzli ilm dargohini bosh- qarishda unga juda asqotgan.

Shuni ta’kidlash joizki, alloma o’zigacha bo’lgan ilmiy bilimlarning asosiy g’oyalari, tamoyil sintezlashtirdi. va metodlarini U ilmiy bilimlarni o’rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e’tiborni qaratdi. Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to’plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushuntira olish malaka va ko’nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-al muqobala” asarida olimlarni uch guruhga bo’lib shunday yozadi: Ulardan biri o’zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o’zib ketadi va uni o’zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Boshqasi o’zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo’lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to’playdigan odam bo’lib, u o’zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo’ladi, takabburlik qilmaydi va o’zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi. Al-Xorazmiyning bu fikri bir tomondan olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritsa, ikkinchi tomondan, o‘sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o‘qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan ko‘pchilik asarlari singari o‘z davrining ilmiy tili — arab tilida bitilgan. Yagona ma’lum bo‘lgan asari — "Mafotih al-ulum" ("Ilmlar kalitlari") deb nomlanadi.

Mafotih al-ulumning qo‘lyozma nusxalari uncha ko‘p emas. Yaqin-yaqingacha uning to‘rt nusxasi bor deb hisoblab kelingan. Ana shu to‘rt nusxadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida hamda Berlin kutubxonasida saqlanadi. Asrimizning 60-yillarida amerikalik olim K. Bosvort Turkiya kutubxonalarida ushbu asarning yana olti nusxasi borligini aniqladi. Bu olti nusxaning hammasi Istanbul shahridagi kutubxonalarda saqlanadi. Bir nusxa Fotiҳ Milliy kutubxonasida, yana biri Nuri Usmon kutubxonasida va to‘rt nusxasi Sulaymoniya xalq kutubxonasida saqlanadi. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bu asari o‘rta asrlarda fanlarning rivojlanishi tarixiga muhim manba sifatida davrimizning ko‘plab olimlarining e’tiborini o‘ziga jalb etgan. Bu qomusiy manba o‘z qimmati, kamyobligi va ahamiyati jihatidan ko‘plab olimlarning e’tiborini tortdi. Hozirgacha ushbu asar H. Hadyujam tomonidan faqat fors tiliga to‘liq tarjima qilingan bo‘lib, boshqa tillarga esa ayrim bo‘limlari yoki boblari tarjima qilingan[274]. Masalan, tibbiyot bo‘limini E. Zaydel, musiqa bo‘limini E. Videmann va V. Myuller nemis tiliga, G. Farmer esa ingliz tiliga tarjima qilgan. Tarix bo‘limining beshinchi va oltinchi boblarini M. Unvala ingliz tiliga, riyoziyotga oid bo‘limlarni E. Videmann va V. Xints nemis tiliga tarjima qilgan va o‘z ishlarida foydalanishgan. Asarning falsafa qismini A. Sharipov rus tiliga tarjima qilgan. Ushbu qimmatbaho asarning ko‘plab bo‘limlari olimlar tomonidan o‘rganilgan va tadqiq qilingan bo‘lsa-da, hozircha o‘zbek yoki rus tiliga to‘liq tarjima qilinmagan.

Shuningdek, Xorazmiyning dastlabki mashhur asarlaridan biri shuki, u hindlarning “Siddhanta” nomli astronomik va matematik asarini tahrir etgan. Rivoyatlarga ko‘ra, *hind olimi Pandit Kanka “Siddhanta” kitobini (uni astronom Brahmagupta 628 yilda yozgan) 772 yilda Bag‘dodga olib kelgan. Bu kitob xalifa Mansurni shu qadar qiziqtirganiki, u mazkur asarni darhol arabchaga tarjima qilishni buyurgan. Shundan so‘ng kitob birinchi marta 773 yilda arab tilida “Sindhind” nomi bilan tarjima qilingan. O‘sha vaqtda bu asar Sharq olimlari uchun qo‘llanma bo‘lgan.*

Lekin asarning ko‘p joylarini tushunish qiyin va unda ancha-muncha xatolar ham bor edi. Xorazmiy bu asarni o‘qib, kamchilik va xato joylarini topgan va uni qaytadan ishlagan, kitobga bir necha bob qo‘shgan, tushunib bo‘lmaydigan iboralarni o‘z tajribasiga asoslanib tuzatgan, yangilagan va asarga “Qisqacha Sindhind” deb nom bergan. Shunday qilib, yangi, aniqroq bir ilmiy asar vujudga kelgan. O‘sha davrda “Sindhind” yig‘ilgan

[274]*Bahodirov R.M. “Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan”, T.: “O‘zbekiston”.1995 – B. 6.*

kishilar Xorazmiyning bu yangi asarini zo‘r e’tibor bilan qabul qilganlar va uni “Katta olim” deb ataganlar.(Qirq olim) [275] .

Qomusiy olimning yana bir ilmiy merosi xalifa Ma’mun buyrug‘i bilan olimlarga osmonning va jahonnig batafsil xaritalarini tuzish to‘g‘risida topshirig‘i asosida yozilgan. "Jahon xaritasi" aslida dunyo atlasi bo‘lishi kerak edi. Atlas tuzish uchun 70 ta olim shug‘ullangan, ularga Muhammad Xorazmiy boshchilik qilgan. Bu xaritalar yangicha "Ma’mun dunyo xaritasi" nomi bilan ham kiritilgan, ular tuzish 840 yillarga kelib yakunlangan bo‘lsa kerak. Xorazmiyning mazkur xaritalariga muvofiq bo‘lib eshilgan "Surat al-arz" kitobi ham yozilib, mazkur davrda juda mashhur bo‘lgan, undan hamma bilimdonlar foydalangan. Xorazmiy geografiya ilmi bilan shug‘ullanib, bu fanga bag‘ishlangan asar yaratgan ta’limot olimning ayni shu asariga asoslangan. Kitobning taxminiy mazmuni quyidagicha: kitob bir necha o‘nlab xaritalar va ularga berilgan izohnomalardan iborat bo‘lgan. Shularning hammasi "Kitobu surat al-arz" deb atalgan. "Arz" so‘zi — yer, maydon ma’nosida, "surat" esa — umumiy narsa, ko‘rinish ma’nosini anglatsa ham, ko‘pincha "geografiya" so‘zi o‘rnida ishlatilgan. Shu sababdan kitobning nomi "Yerning surati" yoki "Geografiya" deb tarjima qilingan. Mentlarni o‘z ichiga olgan amaliy elementar matematikadan iborat.

Buyuk mutafakkir, matematik olim, faylasuf, astronom, geograf hamda algebra fanining asoschisi Muso al Xorazmiy va uning fan va insoniyat sivilizatsiyasiga qo’shgan hissalari haqida va boshqa ishlarda batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, algebraning ilm maydoniga kirib kelishi natijasida musulmonlar orasidan yetishib chiqqan matematik olimlar o’z salohiyatlarini turli xil tenglamalarni faqat gina algebraik nuqtai nazardan yechishga sarf eta boshladilar. Borlig‘imizni qamrab turuvchi har qanday texnologiyalar uchun asos sifatida xizmat qiladigan fan nomidagi “Algoritm” atamasi esa aynan olimning Al-Xorazmiy ismidan olingan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning ja soratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’ti bor qaratishimiz kerak”. Darhaqiqat biz ajdodlarimizning boy ilmiy va ma‘naviy o‘rganish, ularning ibratli hayoti va ezgu ishlarini o‘rganish orqali ongimizga vatanparvarlik va milliy o‘zligimizni anglash tuyg‘usini mustahkamlashimiz lozim. Zero, o‘z tarixini va allomalarining bebaho xizmatlarini bilgan xalq hech qachon yo‘qolmaydi, balki yanada yuksaladi.

[275] *Hasanov H. “Sayyoh olimlar”,; T.: “O‘zbekiston”.1981 – B. 11-12.*

Shu jumladan buyuk bobomiz Muhammad al-Xorazmiyning ham ilmiy merosi va Vatanimiz ravnaqi uchun qo‘shgan hissalari bebahodir. Muhammad al-Xorazmiyning matematika va umuman, sivilizatsiya rivojidagi hissasi e’tirofga olingan, “algoritm”ga muhrlangan uning ismi va asarlaridan biridagi “algoritm” atamasi Sharq olimlari orasida u yagonaligining isbotidir. Olimning daholigini e’tirof etarkanmiz, al-Xorazmiyga ilm tarixida berilgan eng to‘g‘ri baho amerikalik tarixchi Dj.Sarton tomonidan bo‘lgan: “…zamonasining eng buyuk matematigi, barcha sharoitlarni hisobga olgan holda, barcha zamonning eng buyuk olimlaridan biri!”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Niyozov G., Ahmedov Q., Tojiboyev Q. Sharq allomalari va ma‘rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma‘naviy axloqiy qarashlari – Toshkent-O‘zbekiston. 2010. – B. 88.
2. Finiya. J. (2025). Al-Xorazmiy va uning ilmiy merosi. – Tashkent: Ilm press – P. 13.
3. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. R.M.Bahodirov; T.: “O’zbekiston”.1995 – B. 144.
4. Hasanov H. Sayyoh olimlar. -T.: “O’zbekiston”.1981 – B. 264.
5.https://xs.uz/uz/post/sohibqiron-amir-temur-adolatli-hukmdor-va-yuksak-manaviyat-egasi?.com
5.https://mbaza.uz/tarjimai-hol/al-xorazmiy-hayoti-va-ijodi-tarjimai-holi/?utm_com

MIRZO ULUG‘BEK HAYOTI VA ILMIY-MA’RIFIY MEROSINI O‘RGANISH

To‘xtavaliyeva Gulobar Qovil qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi
E-mail manzil: toxtavaliyevagulobar@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Mirzo Ulug‘bek davlat va fan arbobi, sarkarda, dunyo ilm-fani uchun beqiyos hissa qo‘shgan shaxs ekanligi, uning davrida yurt obodonlashganligi, yangidan yangi binolar qad ko‘targanligi, o‘z davri uchun ommaga noma’lum bo‘lgan yulduzlar tizimini o‘rganib, 1018 ta turg‘un yulduzlarni aniqlanganligi yoritib beriladi. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bekning nafaqat tarix, astronomiya, matematika, fizika, me’morchilik, balki musiqa ilmidan ham xabardor buyuk siymo sifatida yosh avlodni ma’naviy yetik shaxs bo‘lib shakllanishida katta ahamiyat kasb etishi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Mirzo Ulug‘bek, Ziji-jadidi Ko‘ragoniy, astonom, munajjim, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, madrasa, rasadxona, yubiley.*

STUDYING THE LIFE AND SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL HERITAGE OF MIRZO ULUGBEK

Tokhtavaliyeva is the daughter of Gulobar Kovil
Tashkent State University of Oriental Studies
Bachelor 3rd year student
E-mail address: ***toxtavaliyevagulobar@gmail.com***

Abstract: *Mirzo Ulugbek was a statesman and scientist, a general, a person who made an incomparable contribution to world science. During his time, the country improved, new buildings were built. The star system, which was unknown to the public for its time, was studied, and 1018 fixed stars were studied and named. He is still remembered as a great figure who knows not only history, astronomy, mathematics, physics, architecture, but also the science of music.*

Key words: *Mirzo Ulugbek, Ziji-jadidi Koragoniy, astronomer, astrologer, Qazizoda Rumi, Ali Kushchi, madrasa, observatory, anniversary, “History of four nations”*

ИЗУЧЕНИЕ ЖИЗНИ И НАУЧНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО НАСЛЕДИЯ МИРЗО УЛУГБЕКА

Тохтавалиева дочь Гулобара Кавиля.
Ташкентский государственный университет
Востоковедения Студентка 3 курса бакалавриата
toxtavaliyevagulobar@gmail.com

Аннотация: *Мирзо Улугбек – государственный деятель и ученый, полководец, человек, внесший несравненный вклад в мировую науку. За его время страна улучшилась, были построены новые здания. Была изучена неизвестная для своего времени публике звездная система, изучены и названы 1018 неподвижных звезд. Его до сих пор помнят как великого деятеля, знающего не только историю, астрономию, математику, физику, архитектуру, но и музыкальную науку.*

Ключевые слова: *Мирзо Улугбек, Зиджи-джадиди Корагоний, астроном, астролог, Казизода Руми, Али Кушчи, медресе, обсерватория, юбилей, “История четырех народов”.*

KIRISH

Mirzo Muhammad ibn Shohruh ibn Temur Ulug‘bek Ko‘rag‘oniy (1394-1449) buyuk astronom va matematik, o‘z davrining atoqli allomasi, davlat arbobi sifatida tarixda nom qoldirgan. Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay) 1394-yil 22-mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida tavallud topgan. Mavaraunnahr boshqaruvi Shohruhning to‘ng‘ich o‘g‘li, Amir Temurning nabirasi Ulug‘bekka topshiriladi. 1409-yil 15 yoshida Ulug‘bek Samarqand hokimi etib e’lon qilinadi, rasman 18 yoshida butun Movarounnahrni, otasi Shohruhning o‘limidan so‘ng, 1447-yildan Xurosonning ham humdori bo‘ladi. 40 yil davomida mamlakat boshqaruvi, yurt obodonchiligi, ilm-fan uchun katta hissa qo‘shgan shaxs Mirzo Ulug‘bek 1449-yili o‘g‘li Abdulatif tomonidan fojiali o‘ldirildi.

Asosiy qism: So‘z boshidan shuni aytib o‘tishimiz joizki, Mirzo Ulug‘bekning tug‘ilishi ham xalq uchun ajoyib va quvonarli xabar bo‘ldi. Saroymulkixonim tomonidan chopar kelib, bashorat berdi: “Ulug‘ Tangri taolo Amir Sohibqironga jahon amirzodasi Shohrux bahodir tomonidan bir farzand karomat qildi, davlat niholida bir g‘uncha yashnab ochildi, karomat dunyosining safidan bir pokiza gavhar yuz ko‘rsatdi”. Bu quvonchli xabar sohibqironning sharafli quloqlariga yetgach, shodon bo‘lib, shukronasi uchun Mordin mamlakati va uning aholisini ozod qildi[276].

Musulmon dunyosida Ulug‘bekdan oldin taxtda o‘tirgan olimlar bo‘lmagan, musulmon mualliflari Ulug‘bekni faqat Aristotelning shogirdi bilan solishtirishlari mumkin edi, unda ilmiy ishlarga moyillik qachon va kimning ta’sirida paydo bo‘lgan, degan savolga manbalarda javob berilmagan, bu borada uning birinchi ustozi Malika Saroy-Mulkxonimdan qarzdor bo‘lishi dargumon, o‘sha yillari amir Shohmalik qo‘l ostidagi ilm bilan shug‘ullanishi mutlaqo aql bovar qilmaydi, Ulug‘bek bolalik va yoshlik chog‘larida ilm-ma’rifat borasida temuriylar sulolasining boshqa vakillaridan deyarli ustun bo‘lmagan: har ehtimolga qarshi, u Mavarounnahr hukmdori bo‘lganidan keyin ilm-fan bilan shug‘ullana boshlagan. Samarqandda Temur davrida u yerga olib ketilgan o‘sha davr madaniyatining bir qancha namoyandalari hamon o‘zi bilan birga edi. Ularning ta’siri, ehtimol, Ulug‘bekning aniq fanlarga bo‘lgan ishtiyoqini tushuntirsa kerak, mo‘g‘ullar hukmronligi davrida mo‘g‘ul xonlari amaliy ahamiyatiga ko‘ra aniq fanlarni rag‘batlantirishgan; Madaniyroq davr farzandi Ulug‘bek ularning ilohiyot va adabiyotdan ustunligini aniq fanlar, din va tillar yo‘qolganidan qat’i nazar, barcha zamonlar va xalqlar uchun o‘z ahamiyatini saqlab qolishida ko‘rdi[277].

---

[276] Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Тошкент. “O‘zbekiston”, 1996. – B. 199.

[277] В.В. Бартолъд. Улугбек и его время // В.В.Бартольд. Сочинения. – Том II. – Москва. “Наука”, 1964. – С. 132.

Ulug‘bek arab va fors tilini erkin egallagan, turk she’riyatini yaxshi bilgan, adabiy uslublarni egallagan va adabiy bahslarda ishtirok etgan. O‘zi ham she’rlar yozgan. Ulug‘bekning ustozi taniqli olim, temuriylar saroyidagi mashhur matematik va astronom Qozizoda Rumiy bo‘lgan. U to‘qqiz yasharli Ulug‘bekka Marog‘adagi mashhur rasadxona xarobalarini ko‘rsatgan. Yoshlikdagi aynan shu xotiralari bo‘lajak astronom kelajagini belgilagan bo‘lishi mumkin[278]. Ulug‘bek davrida Samarqand o‘rta asrlar davridagi ilm-fan o‘choqlaridan biriga aylangan. Samarqandda, XV asrning birinchi yarmida Ulug‘bekning atrofida G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi taniqli astronom va matematiklarni birlashtirgan butun bir ilmiy maktab vujudga keldi.

1417-1420 yillarda Ulug‘bekning Samarqandda qurdirgan madrasasi, Registonda barpo etilgan birinchi me’moriy ansamblga aylanadi. Ushbu madrasaga Ulug‘bek islom olamining ko‘plab astronom va matematiklarini taklif etadi. Qolgan ikkita madrasa G‘ijduvon va Buxoroda qurilgan. Ulug‘bek tomonidan qurilgan madrasalar universitet vazifasini bajargan. Ulug‘bekning Buxoroda qurdirgan madrasasi peshtoqida “Ilm olish har bir musulmon uchun farzdir” yozuvi saqlanib qolgan. Tadqiqotchi olimlarning fikricha, rasadxona qurilishi 1428-1429 yillar yakunlangan. Rasadxona o‘z davrining nodir binosi bo‘lgan. Asosiy asbob - sekstant (burchak o‘lchagich) bo‘lgan[279]. Asosiy asbobdan tashqari, rasadxonada boshqa astronomik anjomlar ham bo‘lgan. 1908-yilda V.L.Vyatkin tomonidan Ulug‘bek rasadxonasi o‘rni topildi va o‘rganildi, hattoki Ulugbek rasadxonasining topilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar 1912 yilda nashriyotda e’lon qilingan[280]. Buyuk astronom Ulug‘bek rahbarligi va ishtirokida rasadxonaning asosiy ishi “Ziji Ko‘ragoniy”, “Ulug‘bekning yulduzlar jadvali” tuzilgan. Kitobda ushbu Samarqand observatoriyasidan 1018 ta yulduz joylashuvi aql bovar qilmas aniqlikda, Gipparxdan so‘ng ilk bor belgilangan. Astronomik turkum yaratilishi jahon astronomiya fani xazinasiga qo‘shilgan ulkan hissa hisoblanadi. Ulug‘bek o‘z ma’lumotlarini bir necha bor tekshirib, uning sonlarini to‘g‘ri, degan xulosaga keladi. 1437 yil u astronomik yil uzunligi 365 kun, 6 soat, 10 daqiqa, 8 soniyaga teng ekanligini aniqlaydi[281]. Keyinroq o‘zgarishlar farqi 58 soniyada ekanligi aniq bo‘lgan. Hozirgi zamonaviy hisob-kitoblarga ko‘ra, yulduz yili 365 sutka, 6 soat, 9 minut, 9,6 sekundga teng[282]. Agar astronomik yil uzunligi 31 million 558 ming 150 soniya ekanligini inobatga olsa, Ulug‘bek o‘z o‘lchamlarini naqadar yuqori

[278] https://allomalar.uz/uz/scientist-info/30

[279] Sekstant (burchak o‘lchagich) - janubdan shimol tomon meridian chiziqlari bo‘ylab mo‘ljallangan

[280] Вяткин В.Л. Отчет о раскопках обсерватории Мирза Улугбека в 1908 и 1909 годах. СПб.: Типография Императорской Академии Наук, 1912.

[281] Муминов И., Файзуллаев А.Ф. Естественнонаучные идеи астрономо-математической школы Улугбека // Очерки истории общественно-философской мысли в Узбекистане. – Т.: Фан, 1977. – С. 207.

[282] Б.О.Тураев. Муҳаммад Тарағай Мирзо Улуғбек (1394-1449). – Тошкент, “Наврўз”, 2018. – В. 9.

aniqlikda olib borganligiga amin bo‘lish mumkin[283]. Ulug‘bekning to‘ng‘ich o‘g‘li Abdulatif, ruhoniylarning keskin ta’siri ostida otasiga qarshi urush e’lon qiladi. O‘g‘li otasiga Makka ziyoratiga borishlikni taklif qiladi. 1449-yil Makkaga safari chog‘i Ulug‘bek shariat qaroriga muvofiq, xoinona o‘ldiriladi. Buyuk Ulug‘bekning fojiali o‘limidan so‘ng, uning yorqin yulduzi so‘nmadi. Ulug‘bekning sodiq shogirdi Ali Qushchi, ona Samarqandini tark etishga majbur bo‘lib, Ulug‘bekning “Ziji jadidi Ko‘rag‘oniy” kitobini Yevropaga olib chiqib ketadi. Keyinchalik kitob ko‘plab olimlar avlodining mulkiga aylandi. Ulug‘bekning ismi va mehnatlari Yevropa va Osiyo olimlari orasida mashhur bo‘ldi. XVII asrda Yan Geveliy tomonidan nashr etilgan Ulug‘bekning “Yulduzli osmon turkumi”da turli zamon va makonlarda yashab o‘tgan buyuk dunyo astronomlarining aksi tushirilgan naqsh mavjud. Ulug‘bekning asosiy ilmiy mehnati “Ziji jadidi Ko‘rag‘oniy” hisoblanadi yoki “Ko‘ragoniyning yangi astronomiy jadvali” deb nomlanadi. Muallif ushbu asarni 1444-yil, o‘ttiz yillik tirishqoqlik va astronomik kuzatuvlardan so‘ng yakunlagan. Mazkur jadvallarning aniqligi avvalroq Sharqda hamda Yevropada erishilgan yutuqlardan ilgarilagan.

Ulug‘bekning “Ziji” to‘rt yirik qismdan iborat. Xronologiya nomini olgan birinchi - qismida turli Sharq xalqlari tomonidan qabul qilingan xronologik usullar bayon etilgan. Ikkinchi qismida amaliy astronomiya masalalari ifodalangan, uchinchisi — dunyoning geomarkaziy tizimi asosida ko‘zga ko‘rinarli yulduzlar harakati haqida ma’lumot bersa, to‘rtinchisi astrologiyaga bag‘ishlanadi[284].

1648 yil Angliyada joylashgan yirik va qadimiy universitet Oksfordda ilk bor Ulug‘bekning mashhur Samarqand rasadxonasida amalga oshirilgan asosiy ishi qisman nashr etilgan. Oksford universitetining astronomiya fanlari professori Jon Grivs (1602-1652) ishni nashr uchun tayyorlab, unga sharh yozgan. Keyinchalik, uning turkum lavhalari Angliyada bir necha bor chop etilgan[285]. Aytish joizki, Yevropa va Osiyo kutubxonalarida “Zij”ning o‘nlab qo‘lyozmalari mavjud. Ulug‘bekning yulduzlar jadvali o‘rta asrlar astronomiyasining eng katta yutug‘i bo‘ldi. Mazkur jadval teleskop ixtirosidan avvalgi, o‘rta asrlar astronomiya fanining eng yuqori pillapoyasi bo‘ldi.

Ulug‘bekning boy ilmiy merosi u faqatgina buyuk musulmon o‘g‘loni bo‘lmaganligini tasdiqlaydi. Ijodiy tafakkur dahosi butun insoniyat ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo‘shgan. Shu sababli, ko‘p asrlar

[283] https://allomalar.uz/uz/scientist-info/30
[284] https://allomalar.uz/uz/scientist-info/30
[285] https://allomalar.uz/uz/scientist-info/30

o‘tib, hatto bugun ham Ulug‘bekning ismi savob maqsadlarga erishish niyatida Sharq va G‘arb xalqlarini birlashtirgan timsol bo‘lib qoladi.

Mirzo Ulug‘bekning yuqori ma’naviy va sezilarli merosi dunyoning yetakchi o‘quv muassasalarida va ilmiy markazlarida o‘rganib kelinadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan, O‘zbekiston Milliy universiteti ushbu atoqli olim sharafiga nomlanganligi respublikaning bugungi yuqori ilmiy-ma’naviy qudratini tasdiqlaydi.

BMT Ta’lim, fan va madaniyat sohasidagi tashkiloti (Yunesko) Bosh konferensiyasining 27-sesiyasi qaroriga ko‘ra, Mirzo Ulug‘bek yubileyi jahon qadryatlar ro‘yhatiga 1994-yilda dunyo miqyosida nishonlanadigan bayramlar qatoriga kiritilgani va shu munosabat bilan tashkil etiladigan xalqaro tadbirlarni hamda respublikada olib borilayotgan xayrli ishlarni inobatga olish nazarda tutuldi[286], deya xabar beriladi. 1994 yil olim tavalludining 600 yillik yubileyi xalqaro miqyosda nishonlangan, shu sabab, xorij olimlari, mutaxassislari va jamoat arboblari ishtirokida bir qator tadbirlar o‘tkazilgan.

2009-yil Parijda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 615 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazilgan. Anjumanda 130 dan ziyod olimlar va turli xalqaro tashkilot vakillari ishtirok etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi 2024 yil 12-sentabrdagi PQ-323-son qarori[287]ga asosan joriy yilning 10-11-oktabr kunlari Samarqand shahrida “Mirzo Ulug‘bek buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazildi[288]. Unda bir qator xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlardagi oliy o‘quv yurtlari va astronom, tarixchi olimlar ishtirok etib, buyuk olimning ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish ahamiyati xususida fikr bildirishdi.

O‘tkazib kelinayotgan tadbirlardan butun dunyoda Mirzo Ulug‘bekning ilmiy va ma’naviy merosiga bo‘lgan qiziqish naqadar ulkanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jahon hamjamiyati hozir ham Mirzo Ulug‘bek shaxsini o‘rganib, uning ilmiy salohiyatiga qoyil qolmoqda. Uning asarlari ko‘plab xorij tillariga tarjima qilinyapti, hattoki, oydagi kraterlardan

---

[286] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “1994 йилни Мирзо Улуғбек йили деб эълон этиш тўғрисида”ги 1994 йил 19 мартдаги ПФ-796-сон Қарори // *Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 4-сон, 95-модда.*

[287] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-323-сон 12.09.2024 yildagi “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risi”da.

[288] “Mirzo Ulug‘bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi” mavzusidagi xalqaro anjuman o‘z ishini boshladi. 2024 yil 10-11 oktabr.

biriga Ulug‘bekning nomi berilgani barchamizga ma’lum. Ularning ilmiy meroslari chuqur o‘rganilib, har yili ta’lim muassasalarida ham Ulug‘bek Mirzo hayotiga bag‘ishlab turli teatr chiqishlar, tadbirlar, tanlovlar o‘tkazilganini ko‘rishimiz mumkin. Ulug‘ siymo Ulug‘bek Mirzo nomini abadiylashtirsh maqsadida ko‘chalarga, tuman, metro, turli ta’lim maskanlariga ularning nomi berilishi bizga ham g‘urur ham iftixor bag‘ishlaydi.

FOYDALANILDAN ADABIYOTLAR

1. Бартолъд В.В. Улугбек и его время // В.В.Бартольд. Сочинения. – Том II. – Москва. “Наука”, 1964. – С. 25-196.
2. Вяткин В.Л. Отчет о раскопках обсерватории Мирза Улугбека в 1908 и 1909 годах. СПб.: Типография Императорской Академии Наук, 1912.
3. Муминов И., Файзуллаев А.Ф. Естественнонаучные идеи астрономо-математической школы Улугбека // Очерки истории общественно-философской мысли в Узбекистане. – Т.: Фан, 1977. – С. 207.
4. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Тошкент. “O‘zbekiston”, 1996.
5. Тураев Б.О. Муҳаммад Тарағай Мирзо Улуғбек (1394-1449). – Тошкент, “Наврўз”, 2018.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “1994 йилни Мирзо Улуғбек йили деб эълон этиш тўғрисида”ги 1994 йил 19 мартдаги ПФ-796-сон Фармони *// Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 4-сон, 95-модда.*
7. https://allomalar.uz/uz/scientist-info/30.
8. “Mirzo Ulug‘bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi” mavzusidagi xalqaro anjuman. 2024 yil 10-11 oktabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risi”da 12.09.2024 yildagi PQ-323-son Qarori.

MUNDARIJA

KIRISH……...3

SHARQ MAMLAKATLARIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI: SIFATLI TA'LIM, SOG'LIQ VA FAROVONLIK, BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Toshtemirova Sh. O'zbekistonda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarida gender munosabatlari: antropologik tahlil……5

Абдурахимов А.Н. Этические аспекты социальной и экологической оценки состояния природной среды.....12

Rahmatullayev D. Turkiya Respublikasining barqaror rivojlanish xususiyatlari: kechagi va bugungi turkiya.....21

Obidova R.V. Turkiyada gender tenglik: Otaturk islohotlaridan bugungi reallikka qadar.....25

Odina K.E. Chust tumanida qishloq xo'jaligigi mahsulotlarini saqlash bilan bog'liq xalq tajribasi……....34

Anvarjonov S. Yangiqo'rg'on tumanida asalarichilik: an'analar va zamonaviylik qo'shilgan shifobaxsh meros.....36

SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI VA SIYOSIY JARAYONLARI

Islamova Q. Eng qadimgi savdo yo'llarining vujudga kelishi va ularning rivojlanishi…….....40

Bo'riyev S. Davanning davlatchilik tarixida tutgan o'rni xususida ayrim mulohazalar……45

To'ychiyev I.M. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyoda savdo-aloqa yo'llarining rivojlanishi…….....52

To'laganova S.A. "To're" qadimgi turkiylarning kundalik odat va huquq manbasi sifatida…….…….....60

Egamberdiyev A.A. Arablarnıng Movarounnahrga xujumi sababları xususıda ba'zı mulohazalar.....64

Qurbonova L.H. G'uriylar davlatining tashkil topishi va harbiy yurishlari …….....70

Jalolova Sh. Saljuqiylar: islom olamining siyosiy va diniy maqomini o'zgartirgan imperiya.....75

Olimov A. Almurotibiylar va Almuvahhidiylar davlatlarining Mag'rib va Andalusiya tarixida tutgan o'rni.....84

Shomurov Z. Manzikert jangi: harbiy falokat yoki siyosiy muvaffaqiyatsizlik?.....90

Kazakboyeva P.A. Buxoro amirligida harbiy unvon va mansablar.....99
O‘ralova M.M. XIX asrda Turkistonda xotin-qizlar ta’lim tizimi.....103
Alimxodjayeva G.B. Livan davlatining Fransiya mustamlakachiligiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari (1919-1943)…….114
Latipova S.A. Yaqin Sharqda Suvaysh kanalining istiqboli: imkoniyatlar va chaqiriqlar.....122
Xolmo‘minov D. Eron Islom Respublikasi va Markaziy Osiyo: ehtiyotkorlikdan faol munosabatlarga tomon yo‘l.....129
G‘ulomov U.A. Sovet davrida “ko‘chirish” siyosatidagi ko‘chirilgan aholiga ijtimoiy yordamlar…….....138
Abdiqahhorov S.A. Rumni hayratlantirgan toshkentlik Qaffol.....142
Maxmadiyorov O.M. Kalendarlar va ularning tasnifi…….....146

SHARQ XALQLARI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI MASALALARI

Abdutolibov A.O. So‘g‘d diplomatikasi: hujjatlar tavsifi, tahlili va talqini.....152
Imomxonov Ch. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ibtidoiy jamiyat haqida qarashlar.....158
Yaxyaxonova I. Muhammad Rizo Ogahiy ijodida ishq mavzusi.....162
Xolmirzayeva M. Usmoniylar tarixshunosligining o‘ziga xos jihatlari: “Manoqibnoma” va “G‘azovatnoma” turkumidagi asarlar haqida…..…166
Tosheva M. Sharqiy Turkiston va Dunxuanning ingliz tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilishi (XX asr) 170

SHARQ XALQLAI ETNOLOGIYASI VA ANTROPOLOGIYASI

Rashidova Z.R. O‘zbek milliy taomnomasiga Markaziy Osiyo xalqlari ovqatlarining ta’siri xususida…….....179
Abdullayeva M. Janubiy-Sharqiy Osiyoda Xitoy diasporasining ahamiyati 187
Nazarov M. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o‘zbek milliy do‘ppilari……...……...……190
Usanova M. O‘zbek-hind milliy taomlarining o‘xshash va farqli jihatlari ……..……196
Abdiikramov J. Totemizm: turkiy totemistik etnonimlar, toponimlar va hozirgi kunda totemizm izlari……..……..201
Adambayeva N. I. Hazorasp toponimlarining tarixiy-etnologik va lingvistik tahlili…….……..206

Ergasheva M. Antropologik tadqiqotlarda fanlararo yondashuv: genom tadqiqotlari misolida…….……211
Аҳмаджонова Ф. Салары: истоки, языковое наследие и культурная самобытность.....218

SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI

Mannobova M. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’riflangan yaxshi xulq va yomon xulq tahlili……..……221
Azamatova S. Ixvon as-safo guruhining falsafiy ta’limoti yo‘nalishlari haqida mulohazalar……..……226
Tursunxo‘jayeva N. Yoga falsafiy maktabi ta’limoti va uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati…..……231
Nimatillayeva M. Xitoy nomoddiy madaniy merosi: Taiji va uning falsafasi……..……236
Urayimova Sh. Arastu va Abdulla Avloniy axloqiy qarashlarining komparabivistik tahlili…….……240
To‘lanboyeva Q. Umar Xayyom va uning falsafiy qarashlari……..246
Muxtorjonov O. Axloqshunoslik fanining adolat kategoriyasi (Arastuning “Axloqi kabir” asari asosida) ……...……251
Shonazarova F. O‘rta asr sharq ilm-fanining yulduzi: Al-Xorazmiy….255
To‘xtavaliyeva G. Mirzo Ulug‘bek hayoti va ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish……...……260